



“BEHBUDIY O‘QISHLARI – 2023”

JADIDLARNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI: TARIX VA ZAMONAVIYLIK

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI

2023-yil, 29-30-noyabr

SAMARQAND

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH
MILLIY MARKAZI**

“BEHBUDIY O‘QISHLARI – 2023”

**JADIDLARNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI: TARIX VA
ZAMONAVIYLIK**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2023-yil 29-30-noyabr

**МИНИСТЕРСТВО НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
САМАРКАНДСКИЙ ОБЛАСТНОЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕНТР
ОБУЧЕНИЯ ПЕДАГОГОВ НОВЫМ МЕТОДИКАМ**

“БЕХБУДИЙСКИЕ ЧТЕНИЕ – 2023”

**НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ДЖАДИДОВ:
ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ**

Материалы республиканской научно-практической конференции

29-30 ноября 2023 года

SAMARQAND - 2023

“BEHBUDIY O‘QISHLARI – 2023”

JADIDLARNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI: TARIX VA ZAMONAVIYLIK

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
Samarqand, SamVPYMO‘MM, 2023-yil 29-30-noyabr*

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazish bo‘yicha tahrir hay‘ati **TARKIBI**

1. **A.Ibragimov** – Pedagogika fanlari doktori, professor, bosh muharriri
2. **D.Rasulova** - Tarix fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, tahrir hay‘ati a‘zosi
3. **D.Urinbayeva** – Filologiya fanlari doktori, professor, tahrir hay‘ati a‘zosi
4. **D.Alimova** – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, tahrir hay‘ati a‘zosi
5. **M.Raximova** – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, tahrir hay‘ati a‘zosi
6. **D.Yunusova** - Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, tahrir hay‘ati a‘zosi
7. **M.Fayziyeva** - Uzluksiz kasbiy ta‘limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, tahrir hay‘ati a‘zosi
8. **G.Tagayev** - Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, tahrir hay‘ati a‘zosi
9. **Sh.Xujakulov** - AKT va texnik ta‘minot bo‘limi boshlig‘i, tahrir hay‘ati a‘zosi
10. **I.Raimkulova** – O‘qituvchi, tahrir hay‘ati a‘zosi
11. **M.Yakubjanova** – O‘qituvchi, tahrir hay‘ati a‘zosi
12. **N.Ruziyeva** – O‘qituvchi, tahrir hay‘ati a‘zosi
13. **A.Xo‘jamkulov** – O‘qituvchi, tahrir hay‘ati a‘zosi
14. **D. Habibullayev** - O‘qituvchi, texnik muharrir, a‘zosi

Maqolalarning sifati uchun mualliflar mas‘ul

Ushbu to‘plamdan ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmiy merosining ahamiyati, jadidchilik intellektual va falsafiy merosining zamonaviylikka ta‘siri, jadidchilik harakati tarixi va turkiston jadidlarining xalqaro aloqalari, ta‘lim muassasalarida o‘qitish metodikasining dolzarb muammolari, ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari, zamonaviy pedagogika va psixologiyaning nazariy-amaliy jihatlarini, pedagogik ta‘limni raqamlashtirish va rivojlantirish istiqbollari kabi dolzarb masalalar o‘z ifodasini topgan.

To‘plam tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar hamda talabalarga mo‘ljallangan.

Fikr-mulohazalarni quyidagi manzilga jo‘natish so‘raladi: Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasini

“Behbudiy o‘qishlari-2023” doirasida “Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi: tarix va zamonaviylik” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita

TARKIBI

Ibragimov A.A.	Pedagogika fanlari doktori, professor, tashkiliy qo‘mita raisi
Rasulova D.B.	Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, tashkiliy qo‘mita o‘rinbosari
Urinbayeva D.B.	Filologiya fanlari doktori, professor, tashkiliy qo‘mita a‘zosi
Turayev B.O.	Falsafa fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi direktori Bosh maslahatchisi
Ibragimov X.I.	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti
Quronov M.	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Respublika Ma‘naviyat va ma‘rfat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti direktor o‘rinbosari
Eltazarov J.D.	Turkolog, filologiya fanlari doktori (DSc), professor, “Ipak Yo‘li” Xalqaro Turizm va Madaniy meros universiteti birinchi prorektori
Jamolova D. M.	Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
Yunusov M. A.	Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi bosh muhofizi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori
Alimova D.X.	Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, tashkiliy qo‘mita a‘zosi
Fayziyeva M.M.	Uzluksiz kasbiy ta‘limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i tashkiliy qo‘mita a‘zosi
Tagayev G.X.	Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, tashkiliy qo‘mita a‘zosi
Xujakulov Sh.A.	AKT va texnik ta‘minot bo‘limi boshlig‘i tashkiliy qo‘mita a‘zosi
Raximova M.A	Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, tashkiliy qo‘mita a‘zosi
Yuldasheva S.A.	Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, tashkiliy qo‘mita a‘zosi
Ruziyeva N.	O‘qituvchi, qo‘mita a‘zosi

MUNDARIJA

1-SHO'BA. MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ILMIY MEROSINING AHAMIYATI

Тураев Б.О. Маҳмудхўжа Бехбудий Шарқ ренессансининг йирик мутафаккири	13
Ibragimov A.A. Mahmudxo'ja Behbudiy ijodiy merosi – pedagogik talqin va tahlil	17
Қуროнов М., Маликова Д.Қ. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ижтимоий педагогик концепцияси	20
Абдуллаева Н. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг Туркистон маънавий маданияти ривождаги ўрни	25
Ergasheva M.Z. Mahmudxo'ja Behbudiyning ilmiy- ma'rifiy va huquqiy qarashlari.....	31
Рахматова Д. XIX аср охири XX аср бошлари - ўзбек тилинининг шаклланишида янги давр.....	34
Элова Д.Д. Туркистонга янги техникалар ва уларнинг ўлка бўйлаб тарқалишидаги Маҳмудхўжа Бехбудий ўрни.....	38
Usmonaliyeva M.K. Turkiston jadidlarining otasi – Behbudiy va uning matbuotchilik faoliyati	42
Haydarov K., Saydullayev S. Sayid Rizo Alizoda ma'naviyati	45
Axmedov G.N. Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyini bilasizmi?.....	48
Abdullayeva N.A., Oripova Sh. Andijonda jadidchilik harakati tarixi.....	52
Axmadv O.Sh. Mahmudxo'ja Behbudiy – turkiston jadidchilik harakati yo'lboshchisi	56
Ergashev S.M. XX asr boshlarida ta'lim tizimidagi holat.....	62
Xudoyberdiyev F.Z. Sayid Rizo Alizodaning yoshlar tarbiyasiga qo'shgan hissi	65
Begbudieva P.Sh. Mahmudxo'ja Behbudiyning islom diniga bo'lgan munosabati	67
Mirhakimova F.X. Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari tahlili	69
Расулова Д. Б. Маҳмудхўжа Бехбудий – миллат фидойиси.....	76

2-SHO'BA. JADIDCHILIK INTELLEKTUAL VA FALSAFIY MEROSINING ZAMONAVIYLIKKA TA'SIRI

Saitkasimov A., Isaxonov J. Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish ijtimoiy taraqqiyot omili	81
Рахманов А.Э. Миллий-маънавий юксалишда жаид маърифатпарварлик ғояларининг аҳамияти	84



Mustafoyeva F. Jadidchilik harakatlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari	88
Ibragimov A.Q. Yangi O'zbekistonda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	92
Ражабова Д.Н. Туркистон миллий тараққийпарварларининг зарарли урф-одатлар ва тўй-ҳашамлардаги исрофгарчиликка қарши фикрлари хусусида.....	96
Axrorova M. Jadidlar falsafasida komil inson konsepsiyasining ifodalanishi	102
Tagayev G.X. Taraqqiyparvarlik harakatining o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri	107
Anarbaev J.B. Ijtimoiy davlatda ijtimoiy hamkorlik va adolat tamoyillarining o'zaro bir biriga bog'liqligi	110
Oripov J.Y., Sariqboyeva M.G'. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning falsafasi	113
Abduvoxidov D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy ma'naviyati	117
Раимкулова И.А. Взгляды на образование древних мыслителей Востока.....	120
Якубжанова М.К. Педагогическое наследие великих мыслителей Востока	124

3-SHO'BA. JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI VA TURKISTON JADIDLARINING XALQARO ALOQALARI

Ибраимов Х.И. Туркистон жади́дчи́лик ҳаракатининг жамият ижтимоий, маънавий ва педагогик фикрлар ривожигаги ўрни.....	127
Ражабов Қ. Маҳмудхўжа Бехбудий ва Анвар пошо	131
Qorayev Sh. Jadidchilik harakati asoschisi Ismoil Gaspirali va Buxoro amiri Abdulahadxon ijodi	136
Кадирова С.Б. Туркистонда Европа яхудийлари: тарихи ва мактаб-маорифи	141
Курахмедов А.Э. Самарқанд жади́дларининг Туркистон жади́дчи́лик ҳаракатида тутган ўрни	146
Jurakulov V.N. Jadidchilik harakatining shakllanishi va ijtimoiy muhit .	149
Hoshimova S.U., Ergasheva N.X. Samarqand jadidchilik maktabi.....	151
Madumarov T.T., G'ulomjonov O.R. Ko'p millatli O'zbekistonda xalqlarning ravnaqi	154
Qurbonova S.A. Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy merosida axloqiy tarbiya masalalari	157
Boltayev B.Y. Turkiston jadidlarining axloqiy qarashlari.....	161
Алимова Д.Х. Международные связи туркестанских джадидов начала XX века	165
Qandaxarov M. Jadidchilar harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati.....	167

4-SHO'BA. TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH METODIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI

Jaysanov A.B. Globallashuv sharoitida hamkorlikning shakllanishi	171
Норбўтаев П.П., Рахматова Д.Н. Тарих фанини ўқитишда достонларда акс этган чорвадор аҳоли турмуш тарзи билан боғлиқ маълумотларнинг аҳамияти	175
Qo'ysinova F.O. Destuktiv faoliyat asosiy motivlar va sabablar (harbiy xizmatchilar misolida)	179
Норбўтаев П.П., Рахматова Д.Н. Этнология фанини ўқитишда фольклор манбаларнинг аҳамияти	183
Raximqulova M.B., Raximqulova K.K. Tadqiqotchilikka asoslangan o'qitish texnologiyasini boshlang'ich ta'limdagi o'rni	186
Ortiqov A.X. "Geometrik yasashlar" mavzusini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish	191
Samyayev A.K., Ikramova M.Sh. Geografiya darslarida PISA topshiriqlaridan foydalanish	193
Рузиева Н.З. Интерактивные задания при изучении иностранного языка в инклюзивном образовании	196
Илясова Ф.Ф. Практика современного образования в вузах: финская модель к узбекскому контексту	199
Samatova M.S. Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy metodlardan foydalanish	201
Xudoyberdiyev F.Z. Tarix fanini o'qitishda yangi innovatsion pedagogik usullarning o'rni	204
Xaydarova M.B. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda masalalar tanlash texnologiyalari	207
Tilabjonova S.Sh. Tarix ta'limini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzaliklari va uning roli	212
Рахманова Р.Э. Развитие читательской грамотности на уроках	215
Kadirov T.B., Yangiboyeva M.K. Matematika fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvining ahamiyati	218
Akbarova D. Ingliz tilini o'qitishdagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari .	221
Гапоненко М.А. Методы и приемы развития навыков XXI века на уроках русского языка в начальной школе	224
Гуломов А. Применение педагогических технологий на уроках русского языка в начальных классах	227
Asqarov A.N. Biologiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlarning o'rni	231
Allaberdiyeva K.X. O'qitishda zamonaviy metodlardan samarali foydalanish yo'llari	235
Hotamov M.A. 10-12 yoshdagi gandbolchilarning tezkorlik sifatlarini rivojlantirish yo'llari	238



Oqilova K.S. O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik kompetentligini rivojlantirish	242
Ergasheva G.A. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini baholashning ahamiyati va uning turlari.....	244
Берикбаев А. Рассом-педагог тарбиялашда композициянинг тутган муҳим ўрни	248
Bekmirzayev H.S., Norboyeva G.N. Yangi baholash tizimi: afzalliklar va qulayliklar	250
Маматова Ш.Н. Ориентализмы в публицистических текстах русскоязычной прессы узбекистана.....	255
Ruziyeva S.A. The concept "family" and its reflection in the english and uzbek lingual cultures	258
Ruziyeva S., Qudratova F.R. Advantages of using teaching strategies and innovative technologies in teaching English	261

5-SHO'BA. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALALARI: AN'ANA VA INNOVATSIYA

Ибрагимова Г.Х. Янги Ўзбекистон ёшларининг маънавиятини юскалтириш – давр талаби	265
Ахрарова З.Б. Маънавий-ахлоқий тарбия жараёнлари тараққиётининг асосий муаммолароини ҳал қилишда Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ижтимоий – педагогик фаолияти.....	271
Mamadqulov F., Shodiyev J. Jadidchilik harakatida insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'usi	274
Toshboyev B.E., Sadullayev O. Ma'naviy tarbiya jarayonida falsafa ilmining o'rni	278
Vaisov A.X. Yangi O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari targ'ibotining ahamiyati	281
Isaxonov J.A. Ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh oilalalar turmush tarsini barqarorlashtirish muammolari	285
Ravshanova X.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash.....	288
Ismoilov J. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarlikka qarshi kurashining ma'naviy-axloqiy masalalari	291
Idiboev A.J. Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ta'lim-tarbiya tizimining o'rni.....	295
Kushanova D.U. Yozuv paydo bo'lishining mintaqamiz etnomadaniyatiga ta'siri	298
Mansurov F.N. Yaqub Charxiy naqshbandiya tariqatining namoyandasi	301
Рахимов А.А. Ўқитувчи шахсини ривожлантиришда маънавий-маърифий фаолиятнинг ўрни ва вазифалари.....	309



Usmonova F.S. Madaniyat kompetentlikning barkamol shaxsni rivojlantirishdagi asosiy funksiyalari.....	312
Файзиева М.М. Ёш авлод тарбиясида миллий кадриятларнинг ўрни.....	314
Утанов У. Аждодлар меросининг ўқитувчи маънавий қиёфасини ривожлантиришдаги ўрни	319
Shukurova N.X. Globallashuv davrida "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashishning ijtimoiy-falsafiy yo'llari	329
Raximova D.B. Jadidlarning barkamol avlodni tarbiyalashda ma'rifiy-madaniy tarbiya masalalari	325

6-SHO'BA. ZAMONAVIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING NAZARIY-AMALIY JIHLARI

G'afforov Ya.H. Ta'lim muassasalarida tarixiy bilimlarning samaradorligini oshirib borishning ilmiy metodik jihatlari	330
Xakimova D.M. Maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning psixologik asoslari.....	334
Maxmudov O'R. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy mutaxassislarini tayyorlashda pedagoglarning roli	337
Masharipov I.Ya. Kasbiy kompetentlik : kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyasi	341
Karimova M.X. O'spirinlik davrida bilimlarni egallashda aqliy individual faoliyatning rivojlanishi.....	344
Nurmanova D.J. Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasida ishlash kompetensiyasini rivojlantirishdagi dolzarb muammolar	347
Saydimurodova F. Oilada ma'naviy muhit sog'lomligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari	353
Xurramov A.V. O'qituvchilarning mas'uliyat va moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish.....	356
Ibragimova F.X. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish mexanizmlari	359
Rabbonayeva D. O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda o'qituvchining o'rni	363
Rustamov A.A. Pedagog faoliyatida kompetentlik darajasining ahamiyati.....	366

7-SHO'BA. PEDAGOGIK TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sultanov J.D. Harbiy-siyosiy axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	369
--	-----



Axmedova Sh.B. Xalqaro baholash dasturi, STEAM va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida aniq va tabiiy fanlar o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish	373
Xasanov A. Eski o'zbek yozuvi harflarini tanish uchun sun'iy neyron tarmog'idan foydalanish.....	381
Usmanov B.I., Kadirov T.B. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari	386
To'rayeva D.I. Pedagoglarni tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.....	388
Нарматова Г.Т. Бошланғич синфда мультимедиа восиаларидан фойдаланиш	392
Qodirov R.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari. .	395
Idiboyev A.J. Ta'lim jarayonida kredit modul tizimini qo'llash istiqbollari	398
Kamolov D.F. Sun'iy intellekt – davr texnologiyasi	400
Xabibulloyev D. Pedagogik ta'limni raqamlashtirish va rivojlantirish istiqbollari	405
Isaxonova M. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yoshlar innovatsion tafakkurining o'rni va ahamiyati	407
Xushvaqtov A.K. Elektron resurslarning turlari va o'quv jarayonidagi ahamiyati.....	410
Vahabova O.T. Axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirining psixologik jihatlari	412
Haqberdiyev F.A. Axborot texnologiyalarining hayotimizdagi o'rni	419
Абдулахатов Н. Бухоро амирининг табиби маҳмудхўжа бехбудий ҳақида.....	421

SO'ZBOSHI

Assalomu alaykum!

Aziz va muhtaram anjuman ishtirokchilari!

O'zbek xalqining shonli tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning ma'naviy, ilmiy, madaniy rivojida jadidlar harakatining o'rni beqiyosligini ko'rishimiz mumkin. Garchi ular yashab o'tgan davr uzoq tarixga taqalmasa-da, ularning fan, ta'lim, madaniyat, xususan, san'at rivojida qilgan xizmatlari hali ko'p davrlargacha yetib borishi, shubhasiz.

2023-yil 13-noyabrda Londonning "Asia House" galereyasida jadidlar intellektual harakati vakillari to'g'risida hikoya qiluvchi foto ko'rgazma ochildi. 2023-yil 6-martda Shavkat Mirziyoyev jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik yo'lladi va shunday deb murojaat qildi: O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o'z mablag'lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o'qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to'lqinga aylandi. O'ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi... Biz ma'rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi".

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining ushbu fikrlari zamirida olam-olam ma'no mavjud. Jadidlar tom ma'nodagi ma'rifat va ma'naviyat targ'ibotchilari sifatida bu maqsadning xalq orasida tezroq yoyilishida teatr san'atidan foydalanish lozimligini eng maqbul tanlov deb bildilar va ular bu borada adashmagan edilar. Xonliklar davridagi og'ir va qoloq hayot iskanjasidan, qolaversa, chor hukumati istibdodidan qutulishning yagona najot yo'li faqatgina ilm-ma'rifat yo'li ekanligini to'g'ri anglab yetgan ajdodlarimiz shu yo'lda mardonavor harakat qildilar va shu yo'lda qurbon bo'ldilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, G'ulom Zafariy, Ibrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma'rifatparvar millat fidoyilarini xotirlash, ular qoldirgan boy merosni o'rganish, ularni kelajak avlodga yetkazish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Ayniqsa, o'zbek zamonaviy maorifning paydo bo'lishi va shakllanish tarixi aynan ular bilan bog'liqdir. Bu ulkan tarixiy voqea ta'sirida o'zbek yangi tipdagi maktabga asos solindi va dastlabki o'zbek fanlar kesimidagi darsliklar yaratildi. Jumladan, Behbudiy o'z uyida ochilgan "*usuli jadid*" maktabining butun moddiy xarajatlarini o'z gardaniga oladi. «Padarkush»ning sahnaga qo'ilishidan kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo'qon, Namangan, Toshkent, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlardagi "*usuli jadid*" maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun o'zi «Muntaxabi jo'g'rofiya umumiy» («Qisqacha umumiy jo'g'rofiya»), «Madxali jo'xrofiya umro-qiy» («Ahli jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo'g'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Kitobul aftol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyati islom» va «Yangi hisob» darsliklarini yaratdi va o'z mablag'iga matbaa ochib, maktab uchun darslik va qo'llanmalarini tekinga bosib tarqatadi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxonasi va qiroatxonaning asosiy mablag'i ham uning hisobidan chiqqan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishida va ravnaqida xizmatlari katta. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini u o'z maqola va asarlarida ko'rsatib bergan. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviy saviyasini yuksaltirish maqsadida har yili o'tkazilishi rejalashtirilgan "Behbudiy o'qishlari" ilmiy-amaliy konferensiyasini tashkil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Anjumanning barcha qatnashchilariga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

*Samarqand viloyati pedagoglarini yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori
A.A.Ibragimov*

1-SHO'BA. MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ILMIY MEROSINING AHAMIYATI

МАХМУДХЎЖА БЕХБУДИЙ ШАРҚ РЕНЕССАНСИНИНГ ЙИРИК МУТАФАККИРИ

Тураев Бахтиёр Оманович

*Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Имом
Бухорий халқаро маркази директори бош маслаҳатчиси, фалсафа фанлари
доктори, профессор*

Қисқача резюме: Мақолада буюк маърифатпарвар жаҳидчи, шарқ ренессансининг йирик вакили Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ҳаёти, маърифатчилиқ фаолияти ҳақида янги манбалар асосида ҳикоя қилинади.

Таянч сўзлар: Беҳбудий, империалистик фитналар, Буюк Ипак йўли, маърифатпарварлик, Амир Олимхон, Қариши, учинчи ренессанс, истибдод.

Резюме: В статье на основе новых источников рассказывается о жизни и просветительской деятельности Махмудходжи Беҳбуди, великого просвещенного борца, крупного представителя Восточного Возрождения.

Ключевые слова: Беҳбуди, империалистические заговоры, Великий шелковый путь, просвещение, Амир Олимхан, Қариши, третий ренессанс, тирания.

Summary: The article, based on new sources, tells about the life and educational activities of Mahmudhodji Behbudi, a great enlightened fighter, a major representative of the Eastern Renaissance.

Key words: Behbudi, imperialist conspiracies, the Great Silk Road, enlightenment, Amir Olimkhan, Karshi, third Renaissance, tyranny.

XVII-XIX асрларга келиб Марказий Осиёда ислом цивилизацияси инкирозга юз тутди. Бунинг асосий сабаблари: биринчидан, дунёдаги геосиёсий вазиятнинг ўзгариши, яъни денгиз йўлларининг очилиши туфайли Ер юзидаги савдо йўлларининг ўзгариб кетиши, Буюк Ипак йўлининг мавқеи тушиб кетиши. Россия ва Англиянинг Марказий Осиёни эгаллаш учун ўзаро кураши натижасида, айниқса, Россиянинг империалистик фитналари туфайли Марказий Осиё дунё цивилизациясидан ажралиб қолади, иккинчидан ислом динида фундаменталистик оқим тарафдорларининг ҳокимиятга таъсири кучайиб бориши натижасида Марказий Осиё ҳукмдорларининг диний мутассиблик, молпараслик, ҳокимиятпараслик ва айш-ишрат ботқоғига ғарқ бўлишлари. Бу ҳолат айниқса, Европа давлатларининг дунё устидан ҳукмронлик қилиш учун ўзаро курашлари даврида янада кучайди. Марказий Осиёдаги туркий салтанат майда-майда давлатларга парчаланиб кетди.

Россия бу давлатларга иқтисодий мадад бериш баҳонасида улар орасидаги ўзаро зиддиятларни кучайтирувчи фитналар ўйлаб топди ва охир оқибатда бу давлатларни босиб олди. Хукмдор давлатларнинг асосий шиори “бўлиб ташла ва ҳукмронлик қил”, “зулм ва диний мутассибликни кучайтир”, “қарам мамлакатларни имкон қадар асоратда сақла”, “озодлик учун кураш ҳаракатларини бешигидаёқ янчиб ташла”. Бу ҳаракатлар Марказий Осиёдаги ижтимоий тараққиётни батамом бўғиб ташлади.

Марказий Осиёда миллий истиқлол учун кураш олиб борган жадидчилик ҳаракатининг етакчиларидан бўлган Маҳмудхўжа Бехбудий (1875-1919) ана шундай мураккаб шароитда илм-маърифат йўли билан халқнинг кўзини очишга ҳаракат қилди. У 1875 йилнинг 19 январиди Самарқанд яқинидаги Бахшитепа қишлоғида муфтий оиласида дунёга келган. Бехбудий ҳажга бориш йўлида араб тилини махсус ўрганиб, ислом тарихи ва назариясига оид билимларни эгаллайди ва 1899 йилда ҳажга бориб, муфтий унвонига эга бўлиб қайтади. Шу даврда Миср ва Истанбул шаҳарларидаги давом этаётган ислохотлар билан танишади. Дунёдаги бу ўзгаришлар сўзсиз унинг дунёқарашида бурилиш ясаган. Ҳаждан сўнг Бехбудий Қозон ва Уфа шаҳарларига бориб, Россияга таъсир қилган Европа маданияти билан ҳам танишади. Ўша даврда Қозон ва Оренбург шаҳарларида чиқадиган араб имлосидаги журнал ва газеталар билан ҳамкорлик қилиб, бир қатор мақолаларини нашрдан чиқара бошлайди. Бехбудийнинг маърифатчилик ғоялари ушбу мақолаларнинг марказида турди. У шу даврда Марказий Осиёдан чиққан буюк мутафаккирларимиз Муҳаммад ибн Музо Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Наср Форобий, Имом Бухорий, Имом Термизий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али Ибн Сино сингари шарқнинг биринчи ренессанси бунёдкорлари ҳамда Салоҳиддин Қозизода Румий, Жамшид Коший, Али Қушчи, Тафтозоний, Алишер Навоий сингари иккинчи ренессанс бунёдкорларининг маънавий мероси билан чуқур танишади. Шу билан бир қаторда, халқнинг кўзини очиш мақсадида, улар ҳақида кўплаб оммабоп мақолалар эълон қилади. Айниқса, крим татар мутафаккири Исмоил Гаспирали (Гасперинский) ва у бош муҳаррир бўлган “Таржумон” газетаси М.Бехбудийни буюк маърифатчи ва ўзбек миллий жадидчилик йўналишининг отаси даражасига кўтарди. Унинг дунёқарашига Россиядаги кадетлар партияси аъзолари билан учрашиб суҳбатлашиши ҳам катта таъсир кўрсатган¹.

Бехбудий 1914 йилда Туркия ва Мисрда бориб, у ердан муҳим китоблар, ўқув қўлланмаларини олиб келиб, бу қўлланмалар асосида янги усулдаги мактаб дастури устида ишлашга киришади. Бироқ, уни ўз юртида мутассиб диндорлар ва маҳаллий амалдорлар томонидан турли тўсиқларга учраб “жадидлар раҳнамоси”, “дахрий” деб қоралашади. Аммо, халқнинг илғор маърифатли қатлами Бехбудий асарларининг мазмуни ҳақиқат ва озодлик

¹ <https://sputniknews.uz/20231015/mahmudxoja-behbudiy-biografiya-39977022.html>

учун кураш, халқнинг кўзини очиш эканлигини англаб, уни қўллаб қуватлашади, унинг ортидан эргашиб, Марказий Осиёда жади́дчилик ҳаракатини кучайтиришади. Беҳбудийнинг айтишича, биз ўтмиш авлодларимиз билан кеккайибгина қолмасдан, мамлакатни обод қилиш, ривожланган мамлакатлар қаторига олиб чиқиш учун “бир ёқадан бош чиқариб” ҳаракат қилишимиз, дунёнинг илғор мамлакатлари билан савдо-сотиқ ишларини кучайтиришимиз, мамлакатга дунёнинг ривожланган ўлкаларидан фан, маърифат ва маданият кириб келишига барча эшикларимизни очиб қўйишимиз керак, ёшларимизни илму-маърифатга чақиришимиз лозим деб таъкидлар эди. Беҳбудийнинг бу ҳаракатлари унинг халқ орасида буюк маърифатчи сифатида обрўсини янада оширди. Беҳбудийнинг халқ орасида ошиб бораётган обрў-эътибори амирлик раҳбарларининг ва болшевикларининг ниятларига зид эди, чуки улар халқнинг кўзи очилишидан манфаатдор эмас эди.

“Беҳбудий фаолияти ва ўша давр сиёсий ҳаёти тафсилотлари собиқ Иттифоқ даврида етарлича ўрганилмаган, сабаби бу мавзу ёпиқ ҳисобланган. Мустақиллик даврига келиб тарихчилар, мутахассислар бу мавзуга, айниқса жади́дларнинг сиёсий фаолиятига бироз эътибор қарата бошладилар. Лекин ҳамон бу мавзу тизимли тарзда ўрганилмаган”, деб айтади тарих фанлари доктори, ЎзФА тарих институтининг етакчи илмий ходими Равшан Абдуллаев UzAnalytics сайтининг мухбири билан суҳбатда².

Мазкур суҳбатда қайд этилишича Туркистонда советлар ҳокимияти ўрнатилгандан кейин, 1918 йили Туркистон халқ комиссарлари кенгашида Беҳбудийни комиссариатнинг туркий миллатлар масалалари билан шуғулланувчи бўлимини бошқариш топширилган³.

Архив соҳасида 40 йиллик тажрибага эга бўлган архившунос олим, Ўзбекистон Фанлар академияси Тарих институтининг катта илмий ходими, тарих фанлари номзоди Ринат Шигабдиновнинг топган, комиссар Тошхўжа Ашурхўжаев 1918 йил 24 июнда имзо чеккан архив ҳужжатида бу масала қуйидагича баён қилинган: *“Ҳайъат йиғилиши қарорига кўра, комиссариат қошидаги миллатлар бўлимларига мен томонидан вакиллар тайинланди. Комиссариат низомига мувофиқ, миллатлар вакиллари сайловлари ўтказилгунга қадар қуйидаги шахслар вазифаларга тайинланди: қozoқ миллатидан Хожикелдиева Кирғиз, татар миллатидан Абдурахмон Абдуҳолиқов, туркий миллатидан Маҳмудхўжа Беҳбудий, қипчоқ миллатидан Муҳаммаджон Шермуҳамедов”*⁴.

Беҳбудий ўша даврларда, юқорида қайд этганимиздек, жади́дчилик ҳаракатининг етакчи вакили сифатида, ўзининг миллий ватанпарварлик руҳидаги оташин мақолалари ва чиқишлари билан халқ орасида катта обрў-эътибор қозонган эди. Шу сабабли уни юқоридаги юксак лавозимга тавсия

² <https://www.uzanalytics.com/tarix/6815/>

³ Ўша манбада

⁴ <https://www.uzanalytics.com/tarix/6815/>

этишади. Беҳбудийнинг мақсади ҳам мавжуд ҳокимият билан муроса қилган ҳолда унга берилган ваколатдан халқнинг миллий ғурури ва шаънини ҳимоя қилишни, мамлакат фаровонлиги ва озодлигига ўзининг илмий-маърифий ҳиссасини қўшишни мақсад қилиб олади. Аммо халқларнинг озодлигини таъминлаш шиори остида амалда эса мустамлакачилик занжирини янада мустаҳкамлаш йўлида фаолият олиб борган советлар ҳокимиятининг асл мақсадларини яхши англаган Беҳбудий мамлакатдан хорижга чиқиб кетишга қарор қилади ва бунинг учун ҳажга боришни сабаб қилиб кўрсатади. У ҳажга боришни Бухоро амирлиги орқали амалга оширмоқчи бўлади.

У бир неча бор Бухоро амири Амир Олимхон билан ёзишмалар олиб боради. Лекин унинг маърифатчилик ғоялари Россиянинг қарамига айланган Бухоро амирига ёқмайди. 1919 йилнинг 25 мартда Беҳбудий улар чақуви билан Шаҳрисабзда қўлга олиниб, сирли бир тусда Қаршида Саид Олимхон фармони билан қатл қилинди⁵. Унинг қатл этилганлиги ҳақидаги мудҳиш хабар ўша пайтдаги юртимизнинг пойтахти Самарқандга роса бир йилдан кейин хабар қилинади. Ўзининг драмматик асарлари, шеърлари ва публицистик мақолалари билан халқ қалбидан чуқур жой эгаллаган маърифатпарвар ватандошининг ноҳақ қатл этилишидан қайғурган халқ 1920 йилнинг апрелида бутун Туркистон бўйлаб мотам тутди. Садриддин Айний алломанинг фожиали вафоти муносабати билан бундай ёзган: *“Жафокаш шоир Беҳбудийнинг номини муслмон Шарқи ҳурмат билан тилга олади, чунки у 20 йил мобайнида ўзининг онги ва инсоний қадр қиммати билан барча мавжудотни эркин ҳаёт, нур ва маърифат учун курашга чорлаб келди”*⁶.

Халқнинг мутафаккирга кучли меҳри туфайли Қарши шаҳри 1926-1937 йилларда Беҳбудий номи билан аталган.

Беҳбудий умрининг сўнги кунларида ёзган “Васиятнома”сида қуйидаги насиҳатларни ёзган:

“Эй Туркистон маорифи ишларида бўлгон ўртоғ ва ўғлонларим! Мен ўзим гарчи банди бўлсам-да, сизларни эсимдан чиқармайман ва сизларга васият қилиб ўтаман.

Сизларга васият қиламан: маориф йўлида ишлай тургон муаллимларнинг бошини силангизлар! Маорифга ёрдам этингиз! Ўртадан нифоқни кўтарингиз! Туркистон болаларини илмсиз қўймангизлар! Ҳаммага озодлик йўлини кўрсатингизлар! Биздек маориф” қурбонларини йўқлангизлар! Озодликни тезлик ила юзага чиқарингизлар! Мумкин қадар кўпроқ янги мактаблар очиш, шунингдек маориф ва халқ саодатини таъминлаш соҳасида тинмай ишлаш бизга энг яхши ҳайкал бўлади!”

*(Васиятномадан)*⁷

⁵ <https://sputniknews.uz/20231015/mahmudxoja-behbudiy-biografiya-39977022.html>

⁶ <https://sputniknews.uz/20231015/mahmudxoja-behbudiy-biografiya-39977022.html>

⁷ <https://www.samdu.uz/cy/news/21425>

Манбашуносларнинг қайд этишларича, Бехбудий сўнги бир неча аср давомида қолоқлик ботқоғига ботиб қолган, камситилган, хўрланган халқни уйғотиш йўлида тинимсиз ҳаракат қилиб, ўзининг ҳаётини Шарқнинг учинчи ренессансига эшик очиш йўлида фидо қилди.

Бугунги кунда буюк жадид бобокалонларимиз, ўз ҳаётини гаровга қўйиб бошлаб берган учинчи ренессансга пойдевор қуришдек муқаддас вазифа бизнинг ёшларимиз зиммасига тушмоқда. Улар бу миссиянинг нақадар масъулиятли ва улуғвор вазифа эканлигини қалбан ҳис қилган ҳолда мамлакатимизни ривожланган мамлакатлар қаторига қўшишда ўзларининг куч ва имкониятларини аямасликлари лозим.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODIY MEROSI – PEDAGOGIK TALQIN VA TAHLIL

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi direktori, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

Annotatsiya. Bugungi milliy yangilanish, zamonaviylashish g'oyasi tarixiy qadriyatlar, shakllanib, rivojlanib kelgan pedagogik qarashlar zahirida takomillashmoqda. Ushbu maqolada ma'rifatda, ta'lim va fanda o'ziga xos merosi bilan muhim ahamiyatga ega bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik merosi, uning pedagogik mohiyati tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ilmiy-adabiy meros, muammo, turkum maqolalar.

Insoniyat taraqqiy etar ekan, uning asosi bo'lgan ta'lim muammolari doim o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan bo'lib qolaveradi. Ta'kidlab o'tish lozimki, har bir davr tadqiqotchilarining izlanishlari tarix silsilasida shu asr rivojlanish bosqichining nomi paydo bo'lishiga poydevor bo'ladi. Ana shunday alohida urg'u berilgan davrlardan biri XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida bo'lib o'tgan "Jadidchilik harakati", ma'rifat, ta'lim-tarbiyadagi o'zgarishlar, yangilanishlar jarayoni sanaladi.

Xususan, o'lkada inqilobiy qadamlar, zamonaviylashish g'oyasi XIX asr so'ngida milliy-ma'rifiy kurash fonida namoyon bo'ldi va siyosiy-ijtimoiy ziddiyatlar, qarama-qarshi g'oyalar natijasida fojeali ravishda bostirildi. Bu borada tadqiqotchi-olimlar X.Ibraimov, M.Quronovlar hammuallifligidagi "Umumiy pedagogika" darsligida quyidagi mulohazaga guvoh bo'lish mumkin: "Biroq Turkistonda jadidchilikka barham berildi. Bunga sabab bir tomondan, ularning maqsadini to'g'ri tushuna olmagan Buxoro amiri, ikkinchi tomondan,

jadidchilardan inqilobiy harakat deya cho'chigan Rusiya amaldorlari bo'lsalar, uchinchidan, jadidchilikni Islomga dushman bir harakat deb tushungan uning asl mohiyatini anglashni istamagan mutaassib dindorlar edi. Mutaassib ruhoniylar yoshlarni milliy-zamonaviy tarbiya yo'li bilan mustamlakachilikdan ozod qilish maqsadiga intilgan jadidchilar – Mulla Nafas ... Muqimiy, Furqat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Zohiriy, Tavallo, Zavqiy, Cho'lpon, Avaz O'tar o'g'li, Avloniy, Hamza, Ayniy, Qodiriy va boshqa ma'rifatparvarlarni kofir, deb elon qildilar". Mohiyatan qaralganda, bu harakatning maqsadi ta'lim-tarbiyani yangi usulda tashkil etish, ya'ni o'sha zamonning turli toifadagi kishilarning e'tirozli fikrlari kabi milliylikdan voz kechish, millatni Yevropa sivilizatsiyasiga moslashtirish emas, balki dunyo o'zgarishlaridan o'z millatini rivojlantirish yo'lida unumli foydalanish edi. Ulardan biri Mahmudxo'ja Behbudiydir.

Behbudiy tarixi, ilmiy-adabiy, badiiy merosini o'rganish davomida uni maorif jonkuyari, jadid harakatlarining asoschilaridan biri, siyosatchi, turli soha tahliliga doir maqolalar, ensiklopedik qarashlar egasi, badiiy adabiyotdagi dramatik tur asoschisi, shu bilan birga darslik va o'quv qo'llanmalar muallifi sifatida tanib borish mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiy 200 dan ortiq nashrlar egasi. Ushbu tadqiqotda uning publitsistik merosida ifodalangan pedagogik izlanishlarga to'xtalishni lozim topdik.

Behbudiy milliy publisistikani shakllantiruvchilaridan biri sanaladi, "Oyna" gazetasi asoschisi, muharriri, shuningdek, boshqa gazetalarda ham muallif sifatida maqola chop ettirgan. Olimning maqolalarini mavzu va mazmun jihatidan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy maqolalar.
2. Ma'naviy-ma'rifiy maqolalar.
3. Adabiy-tanqidiy maqolalar.
4. Diniy tafakkurga oid maqolalar.
5. Sog'lom turmush tarziga doir maqolalar.

Behbudiy maqolalarining o'ziga xosligi ularning bir mavzu doirasidagi davriy xabarlarni, sohadagi o'zgarishlarni, paydo bo'layotgan munosabatlarni ifodalovchi bir necha qismdan iboratligi bilan xarakterlanadi. Masalan, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi "Samarqanddan maktub" (dastlabkisi "Samarqanddan kelgan maktub") turkum maqolasi 1903-yildan 1906-yilgacha bo'lgan bosqichma-bosqich o'zgarishlarni o'zida ifodalagan jami 11 ta maqola, ulardan 8 tasi aynan "Samarqanddan maktub" deb nomlangan, asosan davlatchilikdagi boshqaruv tizimini, maktab ta'limini isloh qilishga, ijtimoiy-tashkiliy masalalarga qaratilgan bo'lib, siyosiy hamda ilmiy-tadqiqiy masalalarni o'z ichiga oladi.

Behbudiy tadqiqotlarida ma'rifiy, adabiy-tanqidiy maqolalarning salmog'i kattagina, o'rni kelganda aytish mumkinki, ijtimoiy-siyosiy maqolalarida ham maktab va ma'rifat boshqaruviga alohida e'tibor qaratilgan. Shoir bir mavzuni boshlaganida shu mavzuning muammosini to'la tahlil qiladi, yechimga borish yo'li, natijadorlikka erishish metodlarigacha ko'rsatishga intiladi, sodda va ravon uslubda bayon qiladi. U ta'lim va tarbiya masalasini har bir millatning bosh vazifasi darajasiga ko'taradi. Bosh muammo sifatida Turkiston o'lkasining rivojlanishda dunyo mamlakalaridan ortda qolayotganini va o'sha davrda diniy mutaassiblik sabab yuzaga kelgan yemirilish, ilmsizlikni aynan, diniy yaqinlik tufayli taraqqiy ettirish mumkinligini dalillashga intiladi: "Man bu yerga ko'b fikr qildim, hamma derki, musulmonlar karvoni ortqa qoldi, musulmonlar nodon, musulmonlar falon va falon..."

Man o'zim bu to'g'riga ko'b mulohaza qildim, har kim musulmonlar haqida qanday so'z desa, yolg'on emas, rost so'zdir. Faqat man deram: Bizning qo'limizdagi bu shariatdur, bizning dinimizning asosi Qur'ondir. Bas, bizning holimizni isloh etmak-da osondir". Bu yerda taraqqiy aynan tili, dini, millati bir bo'lgan kishilarda rivojlanish oson bo'lishini, buning uchun avvalo birlashish, bu birlashish zaminidagi asosiy vazifani anglash lozimligini uqtiradi. Olimning ta'kidlashicha, millat rivojlanishidagi birinchi vazifa sart, qozoq, no'g'ay, tatar, turkman, taranchi... bo'lishidan qat'iy nazar oxir-oqibat bir millatga tegishlilikni tan olish, bir-biriga qarindoshlik ko'zi bilan qarash, hamma mas'uliyatni birgalikda o'z zimmasiga olish, kelishuv hamda ittifoq bilan ish ko'rish, ikkinchi vazifa esa yosh avlod tarbiyasini birgalikda olib borish, ya'ni millatning har bir vakili boymikambag'almi ta'lim uchun o'zini mas'ul, deb bilish, o'z hissasini qo'shishga intilish zarur. Pedagogik jihatdan talqin qilinganda, aynan o'zini bir jamoada his qilish, bir-biriga yordam qo'lini uzatishga urg'u beriladi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiy merosida millatga kuyunchaklik, najot faqat ilmda ekanligini ta'kidlash bir maqoladan ikkinchisida kuchayib boraverganini uning "Islohi tahsil", "Ehtiyoji millat", "Buxoroda usuli jadida", "Yangi maktablar masalasi to'g'risida tavsif", "Millatlar qanday taraqqiy etarlar", "Millatg'a murojaat", "Bizni hollar va ishlar", "Yoshlarg'a murojaat" kabi qator maqolalaridan ham ko'rish mumkin. Olimning har bir sohadagi qarashlarini tahlil qilish, tushunish, amaliyotda qo'llashga intilish, shubhasiz, bugungi zamonaviy ta'lim islohotlarida ham zaruriy pedagogik mazmun bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.

2. Behbudiy, Mahmuxo'ja. Tanlangan asarlar. J.1. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 512.
3. Behbudiy, Mahmuxo'ja. Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 312.
4. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. – T., "Sahhof", 2023. – 416 b.

МАҲМУДХҲҲА БЕҲБУДИЙНИНГ ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК КОНЦЕПЦИЯСИ

М.Қуроноф

Педагогика фанлари доктори, профессор

Д.Қ.Маликова

Т.Н.Қори-Ниёзий номидаги ЎзПФИТИ мустақил изланувчиси

Президентимизнинг 2020 йил 30 сентябрдаги “Маърифатпарвар жади́дчилик ҳаракати намояндаларини мукофотлаш тўғрисида” Фармониға биноан буюк мутафаккир Маҳмудхўжа Беҳбудий “Буюк хизматлари учун” ордени билан тақдирланди. Юртимиз уламолари азал-азалдан жаҳон

педагогика фаниға улкан ҳисса қўшиб, кўп фан соҳаларига тамал тошини қўйишган. XX аср Туркистон маърифатининг пешвоси, маърифатпарварларининг йўлбошчиси Маҳмудхўжа Беҳбудий ана шундай буюк Шахс эди.

Маҳмудхўжа Беҳбудий ўзбек жади́дчилиги намояндалари сингари миллий ва диний кадриятлар руҳида тарбияланган эди. Маҳмудхўжа Беҳбудий Ватан истиқлоли, халқимизнинг озодлиги ва эркинлиги, обод ва фаровонлиги йўлида ҳаётини қурбон қилди. Қарши шаҳри 1926—37 йилларда 11 йил Беҳбудий номи билан юритилди. Бироқ Шўро давлати унинг асл сурати ва маънавий қиёфасини халқдан сир сақлаб келди.

Педагогика фани тарихчилари Маҳмудхўжа Беҳбудий шахсиятини қомусий педагогик билим эгаси, буюк тарбиячи, миллий тарбия пешвоси, деб тилға оладилар. Аллома педагогика фанини инсоннинг камол топиши, жамиятни бошқаришда бу фаннинг ўрни беқиёслигини таъкидлайди. Беҳбудийнинг жамият ривожига ва тараққиётида педагогика фани қандай ўрин тутиши керак деган қарашға бўлган муносабати илмий мақолаларида ўз аксини топади.

Гумбольт университети профессори, жади́дчилик ҳаракатини биринчилардан бўлиб ўрганган Ингеборг Балдауф аллома ҳақида “Беҳбудий серкирра ижодкор бўлгани учун унинг илмий фаолиятиға мурожаат қилган киши турфа хилликка дуч келади. Мутафаккир илмий меросини тадқиқ қилганимда маърифатпарварлиги билан биргаликда Беҳбудийнинг буюк

тарбиячи устоз эканини ҳис қилганман. Зеро, ислохот ва маърифат тарбиядан бошланади. Беҳбудий хотин-қизларнинг тарбияда тутган юксак ўрнини ўзининг асарларида мунтазам қайд этади. “Ойна” журнаliga тарбия мавзусида ёзган мақолаларида ҳам Беҳбудий аёл ва онанинг жамият ривожига мавқеи баланд эканини қайта-қайта таъкидлади. Дарҳақиқат, Учинчи Ренессанс даврида жадиличлик ва жадиdlар фаолиятининг бугунги кунда ўрганилиши, уни ёшларга етказиш ҳар қачонгидан-да муҳим вазифадир.

«Падаркуш» —ўзбек драмачилигининг ҳамма якдил эътироф этган биринчи миллий артпедагогик асар намунасиدير. “Падаркуш” ҳақиқатан ҳам жанр, ҳам тарбиявий мазмунига кўра янги ўзбек ижтимоий педагогик драматургиясини бошлаб берган санъат асари сифатида баҳолайдилар. Муаллиф «Миллий фожиа» атаган 3 нарда 4 манзарали бу драма ҳажман жуда ихчам, мазмунан ниҳоятда ҳаётий. У жаҳолат ва нодонлик ҳақида, тарбия кўрмаган Тошмуроднинг қандай қилиб бузук йўлларга кириб кетишини кўрсатади. Охири Тошмурод ўз отасини ўлдиради.

“Падаркуш” ижтимоий педагогик спектакль. Унинг қаҳрамони бойнинг Тошмурод исмли ўғли. Ўқимайди. Бой атрофидагиларнинг гапига кирмайди. Ўғлини тарбияламайди. Оқибатда Тошмурод кўча безориларига қўшилади. Ресторанда маишатга пули етмай, шерикларини тунда уйига бошлаб келади. Бой уйғониб, уларни сезиб қолади, лекин уни ўлдириб, пулини олиб кетадилар. Хулоса: жаҳолат ва нодонлик отанинг ҳам, боланинг ҳам бошига етади. Агар бутун миллат шу аҳволга тушса-чи?!. Мана шу жойда аллома Маҳмудхўжа Беҳбудий буюк миллатпарвар педагог сифатида яққол намоён бўлади.

«Муҳтарам Самарқандийларга холисона арз» деб номланган мақолаларидан бирида Беҳбудий ёшларни оғир вазмин, мулоҳазали, “хушсўз» бўлишга ундайди. Бу ёндошувни бугунги ёшларимизнинг айримларига хос тажанглик, жиззакилик каби иллатларни даволаш, профилактикаси учун муҳим тарихий педагогик элекси́р, дейиш мумкин⁸.

Маҳмудхўжа Беҳбудийга Мусулмон маориф қурултойи Бутунтуркистон Маориф вазири бўлишни таклиф қилади. Бироқ, у ўзига билдирилган эътимод ва ҳурмат учун ташаккур айтади, бироқ ўзининг беморлиғи сабаб, бу лавозимин қабул қилолмаслигини айтиб, узр сўраб, телеграмма юборади. Тошкентдан яна телеграмма келади. Вазир бўлиш оғирлик қилса, майли, оддий аъзолик қилинг, деган маънода. Бироқ, яна “ўзр мақоминда ожизона баён этиб тилигром бердим. Яна ушбунинг ила баёни узр ва тарзи ташаккур этиб, маърузатимизнинг қабул этилмагини рижо этаман», дейди буюк Беҳбудий.

⁸ “Хуррият” газетаси, 1917 йил, 19 декабрь.

Миллат тарбиячиси Махмудхўжа Бехбудий ўзбек халқи орасидаги исрофгарчилик, тўй орзу-ҳаваси, деб ўзини ўзи хор ва қашшоқ қилиш иллатига қарши бир нечта ижтимоий педагогик асарлар ёзди. Аллома бир ҳунарманд мисолида шундай дейди: “Бечора косибни аъмоли тўйдур. Ўзи роҳат юзи кўрмайдур. Кеча-кундузни 18, балки 20 соатни меҳнатга ўтқаратургон косибларимиз бордур. Ҳаққинча емайду, киймай-ду. Ўн ва йигирма саналар меҳнат ва машаққат этар ва худодан ўғил тилар, тўй қилмоқ учун. Ана, бечорани аъмоли.

Йигирма саналик меҳнати уч кун тўйда тамом. Яна Аҳмад порина ҳавли ва хона гирад. Тўй мусрифчи учун қарз эгаларидан қочадур. Катта тўй қилиб хотун олгон бир қисм бечораларни ҳолига йиғламоқ керак. Уч кунлик тўйни азоси баъзи оилаларда ўн йил, ҳатто, бир умр сура, балки беватан ва хонавайронликга сабаб бўлур.

Бир косибни акду никоҳига, тўю обрўсига минг сўм. Бир ўртаҳол учун 2000 ё 3000 сўм. Нимбой учун тўрт-беш минг сўм керак. Бу сўмларни юздан етмиш беши ейилиб-ичилиб... кетар. Бу сўмлар аслинда кимники эди? Бонка, фирма, фойдахўрники. Табиий, буларга пулларини бермоқ лозим, на берилур? Боғу хона ва уйи ичиндаги асбобни сотиб бермоқ керак. Бечора келин ва куёвни кўрпа ва либосига сотила, қарзхоҳга берилур.

Нимбойлар синар. Тириклигинда бўлмаса, ўлганда синар. Аҳлу аёли дарбадар бўлур. Ой, бу нима? Тўғриси, бир нав девоналик эмасми? Субҳоноллоҳ, қарз олиб халқга ош бермоқ ақлсизлик эмасми?

Биз тўй ва маърака ҳаёлидан лаззат олардук”⁹.

Хўш, миллат бу иллатлардан воз кечиш учун нима қилсин? Бехбудий аниқ-тиниқ маслаҳат беради, йўл кўрсатади: “Шу илми замонийни таҳсил қилмоқ учун ҳаракат қилмоғингиз лозимдур. Ҳамватанларимиз мулкани сотиб тўй қилганидек сизда, ҳатто, лозим бўлганда мулқингизни сотсангизда ўғлингизни замонча ўқумоқиға саъй қилсангиз. Тўйга исроф қилинатургон оқчаларни ўқумоқ йўлиға сарф қилсангиз!”, дейди¹⁰.

Махмудхўжа Бехбудий миллий онг, ғоя, эътиқод масалаларига, дину диёнат, илм ва маърифат нисбатига тўғри амал қилишга чақиради. Бунда ҳам у ижтимоий педагогик танқид усулидан фойдаланади: “Бизларда бир фазилят бор бўлса, ул ҳам фақат таассуботи жоҳилонадан иборатдур. Демак, бизлар ҳозирги нимкола диёнатимизни ёлғуз таассуб соясида сақлаб турубмиз. Лекин ушбу тамаддун асрида илмсиз қуруқ таассуб ила ҳам яшаб бўлмас. Чунки замонимиз шундай зўрки, озгина фурсатда қуруқ таассуботимизни асосидан қўпаруб ташлайду. Шунинг учун замонанинг муҳлик асбобиға қаршу муқовамат этадургон бир нарсаси бор бўлса, ул-да маорифдур”.

Миллий драматургиямизнинг биринчи намуналари ижтимоий педагогик, яъни миллатни тарбиялаш, миллат орасига замонавий ахлоқ, фойдали

⁹ Аъмолимиз ёнки муродимиз. «Ойна» ж., 1913 йил, 6—7-сонлар.

¹⁰ «Ойна» ж., 1914 йил, 21-сон, 390-391-бетлар

фазилатларни ўргатган. Бу йўналишни “Падаркуш” драмаси XX асрнинг бошида ёруғ юлдуз сифатида бошлаб берди. Ундан кейин “Падаркуш” драмаси жозибаси, маърифий қудрати таъсирида Абдулла Авлонийнинг “Адвокатлик осонми?”, “Пинак”, Қодирийнинг “Бахтсиз куёв”, Бадрийнинг “Жувонмарг”, “Аҳмоқ”, Ҳожи Муйиннинг “Кўкнори”, “Эски мактаб – янги мактаб”, Ҳамзанинг “Заҳарли ҳаёт” сингари ўнга яқин пьесалари яратилиб, ўзбек ижтимоий артпедагогикаси мундарижасини бойитди. Кўриниб турганидек, бу соҳа ҳам буюк тарбиячи Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг раҳнамолигини кўрамыз.

Беҳбудий XX асрнинг бошида халқимизнинг аҳволини “хонавайрон”, “бачагирён”, “беватан”, “банди”, “дарбадар”, “фақир”, “хор” кўрди. Миллатнинг бу бемор аҳволига икки сабаб бор, булар илмсизлик ва бетарбиялик, дейди у куйиб. Бу миллий касалликдан қутулишнинг аниқ рецептларини белгилаб бериб, шундай дейди: “Бизларни хонавайрон, бачагирён ва беватану банди қилгон тарбиясизлик ва жаҳолатдур; беватанлик дарбадарлик, асорат фақир ва зарурату хорликлар ҳаммаси илмсизлик ва бетарбияликнинг меваси ва натижасидир”.

Мактаб-маорифни ривожлантириш ғояси Беҳбудий фаолиятининг туб асосини ташкил этади. Туркистон ўлкасидаги нодонлик, жоҳиллик ва забунликнинг асосий сабабини, Беҳбудий: “илмсизликдан излаш керак”, дейди. Беҳбудий жуда улкан, глобал обрўга эга, ниҳоятда бой шахс эди. Яъни у ўз маърифий фаолиятида таълим-тарбиянинг аҳамияти ва унинг аҳволи тўғрисида мақола, китоблар ёзиш билан чекланиши мумкин эди. Лекин у бундай қилмади. Ўқув қўлланмалари ёзиш орқали мактабларга амалий ёрдам берди. М.Беҳбудий бу дарслик ва қўлланмаларида жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига оид муҳим масалаларни кўтарган, ўқиш ва ўқитиш мазмуни ва методларини такомиллаштириш йўллари кўрсатди. Ўзи энг олий даражали диний раҳнамо - муфтий бўлгани ҳолда миллатни қашшоқлик ва хорликдан қутқариш учун дунёвий билимларни ўзлаштиришнинг аҳамияти тарғиб қилди.

Унинг жамиятни тараққий эттириш учун миллий мутахассисларни тайёрлаб етказиш зарурлиги тўғрисидаги қарашлари, унинг “Падаркуш” асаридаги зиёли образи орқали ифодалаган. Зиёли ўзининг илм-фан, техника, маданият, давлат, жамият ишлари ҳақидаги фикр – мулоҳазаларини аниқ, лўнда, илмий, ишонарли далиллар орқали тушунтиришга, исботлашга ҳаракат қилади.

Миллий зиёлидаги бу хусусиятлар унинг бой билан бўлган мунозарасида аниқ кўзга ташланади. Унинг фикрича: “Олими замоний бўлмоқ учун болаларни, аввало, мусулмоний хат ва саводини чиқаруб, заруриятини диния ва ўз миллатимиз тилини билдиргандан сўнгра ҳукуматимизнинг низомли мактабларинга бермоқ керакдур, яъни гимназия ва шаҳар мактабларини ўқуб тамом қилгонларидан сўнг Петербург, Масков дорилфунунларига юбориб, доктурлик, закунчилик, инженерлик, судьялик,

илми санъат, илми иқтисод, илми ҳикмат, муаллимлик ва бошқа илмларни ўқутмоқ лозимдир.

Маҳмудхўжа Бехбудий ўша даврдаги ижтимоий муҳитни таҳлил қилиб, халқнинг қашшоқликда яшашининг асосий сабаби, мустамлакачилик сиёсатининг ҳукмронлиги эканлигини кўрсатиб берган. Миллий манфаатни ҳимоя қилиш, савдо, тижорат, деҳқончилик, илм-фан, техникани ривожлантириш, дунё цивилизацияси ютуқларини эгаллаш ва унга интеграция бўлиш учун ёшларни хориж мамлакатларига ўқиш учун юбориш зарурлиги каби масалаларни таъкидлаган. Шу билан бирга исломни мутаассибликдан поклаш, диний бағрикенгликни тарғиб қилишдан иборатлигини аниқ даллилар билан исботлаб берган.

Динни фақат илм-фан ютуқларини эгаллаш орқалигина сақлаб қолиш мумкин, дейди муфтий М.Бехбудий. У “Мухтасари тарихи ислом” (“Исломнинг қисқача тарихи”) асарида баъзи рухонийларнинг ўз манфаатлари йўлида диннинг асл моҳиятини ўзича талқин орқали, нотўғри кўрсатаётганликларини танқид қилади. Диндан ғаразли, сиёсий мақсадларда фойдаланиш қанчалик оғир оқибатларга олиб келишини кўрсатади. Бундай иллатлардан қутулиш учун илм-фанни эгаллаш, диний бағрикенгликка эришиш зарурлигини таъкидлайди”, дейди аллома ҳаёти ва ижодини илмий тадқиқ қилган немис олимаси Ингеборг Балдауф¹¹.

Бехбудийнинг ўз халқини маданиятли, маърифатли кўриш ҳақидаги орзусини, унинг ҳар бир мақоласи, ҳар бир китобида кўриш мумкин. Бехбудий турли тилларни ўрганиш, унинг софлигига эришиш, тилларнинг ёшлар ҳаётидаги ўрни масалаларига оид ўзига хос фикрларни билдирган. «Икки тил эмас, тўрт тил лозим», «Тил масаласи» каби асарларида турли тилларнинг ўлка ҳудудидаги мавқеини таҳлил қилиб, уларнинг жамият равнақидаги ўрнини кўрсатишга ҳаракат қилди. Бехбудийнинг эътироф этишича, қадимдан бери Туркистон ўлкасида яшовчи аҳоли ўртасида турк, форс ва араб тиллари жорий қилинган бўлиб, улар давлат ишларини юритишда, маданият соҳасида, таълим тизимида фойдаланилган.

Бехбудий ўлкада амалда бўлган ўзбек ва форс тилларини махсус таҳлилсиз билиш катта саодат эканлигини, маънавий меросимизни ўрганишда бу икки тил нақадар муҳим аҳамият касб этишини эътироф этади: «Форсий билан киши Фирдавсий, Бедил, Саъдий “Маснавий”дан қандай лаззат олса, туркий билганлар Фузулий, Навоий, Боқий, Сомий, Абулҳақ Ҳомид, Акрамбек, Санойи, Нобий, Ножийлардан, яна Толстўй, Жўл Верн ва уламои замоний асарини туркий таржимасидан лаззат шундай оладур».¹²

Жадидлар туркий, яъни ўзбек тилидан самарали фойдаланишни маъқул, деб билишган. Ўзбек тилига кириб, сингиб бораётган арабий ва форсий сўзларни ислоҳ қилиш кераклигини таъкидлашган. Бехбудий араб тилидаги

¹¹ Ингеборг Балдауф. Маҳмудхўжа Бехбудий Фаластинда. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”.1993 йил 21 май.

¹² Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар.-Т.: Академнашр,2021.

сўзларни ислоҳ қилиш тўғрисида шундай деб ёзади: «Тўғридан тўғри демок керакки, бақадри имкон арабий оз ёзулсун. Арабий исмлик нимарсалар жамланганда, туркча жамлансун». Жадидлар она тилини ўрганиш билан бирга хорижий тилларни ҳам эгаллаш зарурлигини инкор этмадилар. Хуллас, Маҳмудхўжа Бехбудийнинг илмий-педагогик, маънавий-маърифий меросини ўрганиш янги Ўзбекистонда педагогика фанининг тарихий ривожини тадқиқ қилишда ўта муҳим ва бой манба бўлиб хизмат қилади.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ ТУРКИСТОН МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИ РИВОЖИДАГИ ЎРНИ

Насиба Абдуллаева

*Ўзбекистон Миллий университети Фалсафа ва маънавият асослари
кафедраси проф.в.б., фалсафа фанлари доктори*

Аннотация. Мақолада XX асрда Туркистонда вужудга келган миллий уйғониш ҳаракатининг атоқли раҳбарларидан бири бўлган, ўша даврда ўзбек халқи ижтимоий онгининг уйғонишида муҳим роль ўйнаган жадид маърифатпарвари Маҳмудхўжа Бехбудийнинг маънавий маданият тараққиётига қўшган ҳиссаси таҳлил қилинган.

Мақолада Бехбудий меросининг ўлкада маънавий маданият, илм-маърифат, ахлоқ, санъат, миллий ўзликни англашга таъсири масалаларини ёритилишига эътибор қаратилган, асарларининг замонавий аҳамияти кўрсатиб ўтилган.

Таянч тушунчалар: жадидчилик, маънавий маданият, илм, маърифат, дин, ахлоқ, санъат, сиёсат, маънавий баркамоллик.

Аннотация. В статье анализируется вклад в развитие духовной культуры просветителя Махмудходжи Бехбуди, который был одним из выдающихся лидеров движения национального возрождения, возникшего в Туркестане в XX веке, сыгравшего важную роль в пробуждении общественного сознания узбекского народа в тот период. Обладая широким кругозором и глубокими знаниями, он всегда выступал против консерватизма и невежества и в своих произведениях призывал к правильному пониманию и толкованию исламской религии. В статье исследована современное значение произведения Бехбуди.

Ключевые слов: джадидизм, духовная культура, наука, религия, просвещения, мораль, политика, искусство, духовное совершенство.

Abstract. The article analyzes the contribution to the development of spiritual culture of the enlightener Mahmudhodji Behbudi, who was one of the outstanding leaders of the national revival movement that arose in Turkestan in the 20th century, who played an important role in awakening the public consciousness of the Uzbek people during that period. Possessing a broad outlook and deep knowledge, he always opposed conservatism and ignorance and in his works

called for a correct understanding and interpretation of the Islamic religion. The article explores the modern significance of Behbudi's work.

Keywords. *spiritual culture, science, religion, enlightenment, morality, politics, art, spiritual perfection.*

XX асрда яшаб фаолият олиб борган жадид-маърифатпарварлар мероси тарихчи, адабиётшунос, филолог, файласуф, педагог олимлар томонидан ўрганилган, кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борилган. Жумладан, Маҳмудхўжа Бехбудий публицистикаси, маърифий--педагогик қарашлари юртимиз олимлари томонидан кенг ўрганилган бўлсада, маънавий мероси ва унинг маънавий маданиятга таъсири етарлича тадқиқ этилмаган. «Буюк аждодларимизнинг бетакрор ва ноёб илмий-маънавий мероси биз учун доимий ҳаракатдаги ҳаётий дастурга айланиши керак. Бу ўлмас мерос ҳамиша ёнимизда бўлиб, бизга доимо куч-қувват ва илҳом бағишлаши лозим. Авваламбор, миллий таълим тизимини ана шундай руҳ билан суғоришимиз керак», – деб таъкидлаб ўтган Ўзбекистон президенти Ш.Мирзиёев [1] ёки Шу нуқтаи назардан Бехбудий асарларининг маънавий маданиятга таъсирини тадқиқ этиш, илм-маърифат тафаккурни уйғотишнинг асосий йўлларида бири эканлигига оид қарашларини замонавий жиҳатдан асослаш лозим.

Жадид мутафаккирларимизнинг мероси, айнан жадидлар карвонбошиси, асосчиси сифатида тарихда ном қолдирган Бехбудий XX аср бошларида амалга оширган ишлар катта аҳамиятга эга. У диний ва дунёвий илмларни, тарихни чуқур билган, ёзган мақола ва асарлари ижтимоий аҳамиятга эга. Жадид маърифатпарварларининг маданият ўзаги бўлган маънавий маданиятнинг ривожига қўшган беназир ҳиссаси бугун ҳам ўз долзарблигини йўқотмаган. Айниқса шарқ мутафаккирларига хос бўлган қомусийлик Бехбудий фаолиятида ҳам ўз инъикосини топган дейиш мумкин. Буни ватанпарвар зиёлимизнинг фаолияти тасдиқлайди. Билим, ахлоқ, дин, санъат, сиёсат каби масалаларига доир мақолалари, “Падаркуш” драмаси, “Китобат-ул атвол” каби мактаб ўқувчилари учун ёзилган дарсликларини келтириш мумкин.

Жадид маърифатпарварлари илм-маърифатни халқни жаҳолатдан қутқариш, тафаккурини уйғотиш, тараққиётга эришишнинг бирдан-бир йўли деб қарашди. “Бошқа миллатларга қаралса кўрилулки, мунтазам мактаблари бор ва аввал мактабда диний илм устида дунёвий илм ва фанлар ҳам ўқилур. Чунки дунёда турмоқ учун дунёвий фан ва илм лозимдур. Замона илми ва фанидан бебаҳра миллат бошқа миллатларга паймол бўлур”, дейди Бехбудий [2, 200].

М.Бехбудийнинг “Мухтарам ёшларга мурожаат” мақоласида таълимни ривожлантиришнинг аҳамияти асосланган. Жаҳонда билим асосий интеллектуал ресурс, таълим миллий фаровонликни яратиш манбаи сифатида қадрланаётган бугунги кунда ҳам мутафаккирнинг бу борадаги қарашлари ғоят долзарбдир. Зеро, таълим инсоннинг ижодий

қобилиятларининг ривожланишига, жамиятдаги иқтисодий, ижтимоий ва маданий муносабатлардаги иштирокининг чуқурлашувига, жамият ривожига самарали ҳисса қўшиш имконини беришади.

Беҳбудий меросида таълим ва тарбия узвийлиги масалаларига эътибор қаратилгани билан аҳамиятлидир. Беҳбудийнинг кенг билимга эга бўлганлиги, энг мураккаб дунё ходисаларини ҳам тафаккур кудрати билан ечиш, тушунтириш, ифодалаш юксак иқтидори борлигини ҳам унинг мақолалари орқали ҳам кўриш мумкин. Маърифатпарвар аллома ёшларни чет элларда ўқитиш, янги ғоя ва билим билан қуроллантириш лозимлигини кўп бора таъкидлайди. “Тўй ва маърака оқчасидан болаларни ҳукумат мактабларига берилсун ва бу оқчадан талабаларни Макка, Мадина, Миср, Истанбулга ва Русия дорилфунун ва дорулсаноатларига юборилиб диний ва дунёвий ва замонавий одамлар етишдурмоқга саъй қилинсун. Бизни Туркистонда муаллим оздурки, тўю маъракага сарф қилинатурғон оқча ила Кафказ, Қрим, Ўрунбург ва Қозонга усули таълим ўрганмоқ учун бола юбормоқ керакдур [2, 160]. Ўзбекистонда замонавий таълимда ҳам ёшларни чет элларда таълим олишига катта эътибор қаратилмоқда, махсус дастурлар асосида талабалар дунёнинг етакчи олий ўқув юртларида таҳсил олиб келишмоқда. Жаҳидларимизнинг ушбу ғоялари бугун ҳам долзарб эканлигини кўриш мумкин.

Айниқса, тил масалалари Беҳбудийнинг ҳамиша диққат марказида бўлган, миллатнинг тараққийси учун бир неча тил билишни шарт ҳисоблаган. Ёшларни тил ўрганишга, билим олишга чақирди. “Ойина” журналнинг 1913 йил 20 август, биринчи — нишона сонидаёқ, «Икки эмас, тўрт тил лозим» деган мақола билан чиққан эди [2,16]. Айни пайтда тилнинг муҳофазасига доир (“Ҳар миллат ўз тили ила фахр этар” —1914, № 35), (“Тил масаласи” — 1915, № 11,12) мақолалар ёзди. “Бизга лозимки, ўз нафъимиз учун русча билайлуқ, ҳукумат мактабларинда ўқуйлик. Давлат мансабларига кирайлуқ. Ватанимизга ва ўз динимизга хидмат этайлуқ. Мусулмон булуб туриб тараққий қилайлуқ. Бу замон тижорат иши, саноат ва мамлакат ишлари, ҳатто, дини ислом ва миллатга хидмат илмсиз бўлмайду [2, 153]. Бугун чет тилларни ўрганиш ва миллий тилни асрашга доир Беҳбудий мақолалари ўз аҳамиятини йўқотмади, балки янада долзарблашди дейиш мумкин. Шу билан биргаликда, “Рисолаи асбоби савод” (“Савод чиқариш китоби”, 1904), “Рисолаи жуғрофияи умроний” (“Аҳоли географиясига кириш”, 1905), “Мунтахаби жуғрофияи умумий” “Китоби мунтахаби жуғрофияи умумий ва намунаи жуғрофия” дарслигида, (“Қисқача умумий география”, 1906), “Китобат улатфол” (“Болалар хати”, 1908), “Амалиёти ислом” (1908), “Тарихи ислом” (1909) каби китоблар ва Туркистоннинг табиий харитасини чоп этди. Кўплаб ўқув материаллари, ўқиш китоби ва диний китоблар, мактуб ёзиш қўлланмасини яратди.

“Ойина” журналида Беҳбудий ва унинг замондошлари ҳамда хориж шарқшуносларининг (хусусан, Вяткин)нинг тарих, география, тилшунослик,

астрономия, анатомия, археологияга доир кузатишлари эълон қилиб борилган: “Шердор мадрасаси”(1913.№1.–Б.), “Тутун ёинки тамаки” (1913.№1.–Б.), “Улуғбек расадхонасинда”(1913.№2.–Б.), “Жуғрофийё чист?” (1913.№2.), “Ер” (1913.№10.), “Тарихи ихтирои башар - одамларнинг чиқарган нимарсалари” (1914.№28), “Ҳайвонотнинг умри” (1914.№11), “Офтоб” (1914.№49), “Қамар -ой” (1914.№57), “Қаҳва = кофе” (1914.№56)” [3, 38]. Бу эса ўша даврда маданият, маърифат, замонавий илмий билимларни тарқатишда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Беҳбудий “Падаркуш” драмасида илмсизлик, маърифатсизликнинг миллат ва миллатнинг ҳар бир аъзоси ҳаётига кўрсатажак фожиа зарарини тасвирлаб берган. Асарнинг “Падаркуш ёхуд Ўқимаган боланинг ҳоли” деб номланиши ҳам тасодифий эмас. “Падаркуш” асари ҳаётда рўй берган реал ҳодиса таъсирида ёзилгани хусусида замондошлари таъкидлаб ўтишган. Бу фикрнинг ҳақиқатга қанчалик мос ёки қанчалик зид эканидан қатъий назар, ҳеч қачон долзарблигини йўқотмайди. Беҳбудий “Падаркуш”да нафақат жаҳолат ботқоғига ботган ота балки фарзандларининг ҳаёти ҳам фожиа билан тугаши мумкинлигини кўрсатиб, уларнинг ҳар иккаласини ва умуман, XX аср бошларидаги ўзбек жамиятини огоҳлантиришга интиланган. Жаҳидчилик туб моҳиятини очувчи маърифатпарварлик ғояси асарнинг катта ижтимоий ва маърифий аҳамиятини белгилаб беради ҳамда унинг ўша даврнинг энг муҳим ва долзарб мавзусига бағишланган. Асарда илгари сурилган жиддий муаммолар таълим ва тарбияни кучайтириш, халқни асрий жаҳолат, қолоқликдан қутқариш, жиноят ва жазо, мажбурият ва масъулият сингари ижтимоий муносабатлар содда ва таъсирли ифодаланган.

Беҳбудий Байрамали, Ашхобод, Красноводск, Кисловодск, Пятигорск, Железноводск, Ростов, Одесса, Қуддус, Байрут, Ёфа, Халил ар-Раҳмон, Порт-Саид, Шом шаҳарларида бўлади. Ушбу саёҳат асосида ривожланган давлатларда маданият, маърифат, техинка тараққиёти, ўлкамизни ҳам ривожлантиришга оид кўплаб мақолалари «Ойна» журналида босилиб туради. “Аъмолимиз ёинки муродимиз” сарлавҳали мақоласида турли тадбир, тўйларидан тортиб миллий ўйинларигача бўлган ҳар кунлик турмуш тарзини таҳлил қилар экан, халқни кўзини очиб ён-теварагидаги миллатлар ишларига ва қандай яшаётганларига қарашга чақиради. Маҳаллий аҳолининг тараққиётга тўсиқ бўлувчи эски урф-одатларини, эскича қарашлардан воз кеча олмаётгани, қолоқлашиб кетгани, мусулмонлар ҳам тараққиётни, фаровонликни, маърифатни исташи, янгиликка интилиши, янгиликларни ўзлаштириш лозимлиги, энди ўтмишимиз буюк деб юравермасдан, хатоларимиздан тўғри хулосалар чиқаришимиз, ривожланиш йўллариини излашимиз, бошқалар ҳам бизни ҳурмат қилиши, улар билан тенг мавқеда мулоқотга киришишимиз, мусулмонлар манфаатлари ҳимояси учун нималар қилишимиз зарурлиги ҳақида бош қотириш вақти келди деган ғояларни илгари сурди. У халқни исрофли тадбирлардан воз кечиб,

уларга сарф қилинадиган маблағни иқтисодиётнинг барча тармоқларида миллий кадрлар тайёрлаш мақсадида давлат таълим муассасаларида болаларни ўқиши учун йўналтиришга даъват этади. “Бизни кемиргувчи иллатлар” мақоласида “ бизни инқирозга ва таҳликага ва жаҳаннамга юмалататургон тўй, азo исминдаги икки қаттол душманни дерман” [2, 190] дея таъкидлайди.

Дин масаласи хусусида ҳам Бехбудийнинг қатор мақолалари, “Мухтасари ислом” асари эълон қилинган. Шуни таъкидлаш лозимки, Бехбудий Самарқанддаги маърифатпарвар сулоалардан бирига мансуб бўлган. Отаси Бехбудхўжа Солиххўжа Аҳмад Яссавийнинг авлодидан, бобоси ва отаси қори ва имом-хатиб бўлган, тоғаси муфти мулла Одил Муҳаммад Сиддиқ муфти бўлган. Бехбудий болаликдан диний билимларга эга бўлиб борган кейинчалик тоғаси ҳузурида мирзолик вазифасини бажаради, козилик ишлари билан ҳам танишиб, муфтилик учун зарур бўлган нарсаларни ўрганиб олади. “Собиқ Туркистоннинг ҳар бир кент ва даҳасида қозихоналарнинг, уларда хизмат қилган қози ва муфтиларнинг сон-саноғи бўлмаган. Бироқ Бехбудийдек баркамол шахс – фақат диний билимларгина эмас, шу билан бирга замонавий илмларнинг зўр билимдони, халқни маърифатли қилиш учун кураш йўлида ўз моддий бойликларини, ҳатто жонини аямаган шахснинг мисли ниҳоятда сийракдир, ҳатто яқтодир. Файзулла Хўжаевнинг сўзлари билан айтганда, “Сиёсий, ижтимоий фаолияти ва билимининг кенглиги жиҳатидан Туркистоннинг ўша вақтдаги жадидларидан унга тенг киладиган киши бўлмаса керак” [4].

Фикҳ китоблари устида тинимсиз ишлагани боис у тез фурсатда “муфти” унвонига эришган. Маҳмудхўжа умрининг охиригача Жомбойда муфтилик қилди. Одатда шанба кунлари ҳафтада бир марта Жомбойга бориб, қозилар билан биргаликда баҳсли мунозарали масаларни ижобий томонга хайрли ҳал бўлишини таъминлаганлиги хусусида кўплаб мисоллар бор. У муфти ва имом хатибларнинг билимдан, замонавий илмлардан ҳам хабардор бўлишини таъкидлаган.” Зотан исломият шундай бир дини матин ва қобили тараққийдурки, на қадар илми замоний кўб ўкуса, инсонни яна дини исломга шунча ақидаси мустаҳкам бўлур. Чунончи, илми замоний кўб ўқуғон Оврупо уламоларини(нг) энг номдор ва давлатликларидан мусулмон бўлуб тургонлари жаридахонларга маълумдур. Бас, сабаб бўлдики, илми замоний исломиятга зарар қилмоқ нари турсун, фойда этар, энди матлабга келайлук ”Халқнинг жисмоний ва руҳоний тарбияти ичин мураббийларнинг, яъни уламоларнинг диний ва замоний улум ва фунунни даражаи камолда билмалари, албатта лозимдир” [2, 169]. Бехбудий муфтилик вазифасини оқилона, ҳалол бажарган “...замонасидаги фақиҳлар – диний билимдонларидан ҳеч бири фикҳ илмининг кенглиги жиҳатидан Бехбудийга тенг келолмас эди” [5,149]. Бехбудий фикҳнинг бирор қондаси ёки йўл-йўриғини халқ манфаатлари ва ижтимоий тараққиётга зарар

келтирадиган тарзда талқин қилмаган. Оят ва ҳадисларга таянган ҳолда меҳнаткашлар манфаатини ҳимоя қилган, илм-маърифатга чорлаган европаликлар билан дўстона муносабатларни ривожлантиришга чорловчи фатволар берган. Беҳбудий иқтисодий низоларда камбағаллар манфаатини ҳимоя қилган, камбағаллар фойдасига ҳал қилинишига эришган". Фавқуллодда такфир", "Бизни ҳоллар ва ишлар" мақолаларида ҳам Туркистон ўлкасида илмли, билимли уламолар кераклиги, "Икки миллий туркистонийлар мадрасасига Худодан бошқа нозир йўқ. Бир раиси диний ва мумайизи илмий йўқ. Ўзимизда эса инсоф ва хавфи ҳақ йўқ, асло йўқ. Ва Оллоҳ, на учун саводсиз қози, илмсиз мударрис, инсофдан хабарсиз муфтий, кироатсиз имомлар оламни босди. Бунга сабаб бирор раиси диний ва мумайизни илмига моли кўлмаганимиз эмасму? дейди. У зиёли ва тараққийпарварларни бирлашиб, дини миллат ва Ватаннинг ривожини учун хизмат қилсак деб орзу қилди. Россия, Туркия, Миср каби бир қанча мамлакатларга саёҳати ва ҳаж сафари давомида уларнинг ҳаёти, турмуш тарзи, урф-одатлари, маданиятини ўрганди ва Туркистон ўлкаси ҳаёти билан солиштирди. "Тўй ва таъзияга сарф қилинатургон оқчаларимизни биз, туронийлар, илм ва дин йўлига сарф этсак, анқариб оврупойилардек тараққий этармиз ва ўзимизда, динимизда обрўй ва ривож топар. Йўқ, ҳозирги ҳолимизга давом этсак, дин ва дунёга зиллат ва мискинатдан бошқа насибамиз бўлмайду [2, 148].

Беҳбудий ёшларни замонавий илмларни ўрганишга даъват этади". Агарда жуғрофия ўқумасак, дунёга тараққий қилолмаймиз. Дунёга тараққий қилмасак, дин ишларимизни баржой келтиролмаймиз. Маафиҳи, жуғрофия ўқугонлар оғиз ила, китоб ва газит ила баҳс қилиб, жуғрофия важҳидин бизни далил ақли ила мулзам қилиб, охири динимизга таъна берадур. Илми динни кам билатургонларимизни бўшатадур [2, 193].

Ўзбекистонда ижтимоий тараққиётнинг ҳозирги босқичида таълим ёшлар тарбиясининг асосий ресурсларидан бирига айланди. Тараққиёт стратегиясининг "Адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантириш" деб номланган тўртинчи йўналишида ҳам таълим масаласига алоҳида урғу берилган, мактабларда таълим сифатини ошириш, педагог-кадрлар билим ва малакасини халқаро даражага олиб чиқиш асосий мақсад қилиб белгиланган.

Хулоса қилганда, Беҳбудийнинг маънавий мероси хориж ва юртимизда кенг ўрганилган бўлиб турлича концепция ва ёндашишлар асосланган ҳолда тадқиқ этилган. Беҳбудийнинг диний маърифатга оид қарашларини ўрганиш турли диний конфессиялар мавжуд бўлган полиэтник мамлакатда фуқаролар ҳамжиҳатлигини таъминлашга хизмат қилади. Шарқ ва Ғарб таълимининг мақсадли, қадриятли, ахлоқий ва методологик жиҳатларига кўра уйғун усуллари жорий этишга доир қарашлари миллий таълим тизимида қўлланиши замонавий аҳамият касб этади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 1-октябр 2020 йил.
2. Бехбудий М. Танланган асарлар/ Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б. Қосимов, 3-нашри. тузатилган ва тўлдирилган.- Т.: Маънавият, 2006,— (Истиқлол қахрамонлари) Б.160.
3. Абдирашидов, Зайнабидин. Маҳмудхўжа Бехбудий ва унинг «Ойна» журнали. — Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2019. — 38 бет.
4. Қосимов Солиҳ. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1990 йил 19 январь.
5. Ҳалим Саидов. Маърифат либосидаги озодлик. — Тошкент: Шарқ, 2000. - Б. 149.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING ILMIY- MA‘RIFIY VA HUQUQIY QARASHLARI

Ergasheva Mavluda Zulqandar qizi

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqola jadidchilik harakatining rahnamosi, buyuk ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy-ma‘rifiy va huquqiy qarashlariga bag‘ishlangan. Ushbu masala mohiyatini ochib berishga Mahmudxo‘ja Behbudiyning asar va maqolalaridagi fikrlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: jadid, ilm, ma‘rifat, maktab, millat, taraqqiyot, qonun, huquq, huquqshunos.

Аннотация: Данная статья посвящена научно-просветительским и правовым взглядам лидера джадидистского движения, великого просветителя Махмудходжи Бехбуди. Взгляды Махмудходжи Бехбуди в его произведениях и статьях были научно проанализированы, чтобы раскрыть суть этого вопроса.

Ключевые слова: джадид, наука, просвещение, школа, нация, прогресс, закон, право, юрист.

Annotation: This article is devoted to the scientific-enlightenment and legal views of Mahmudkhoja Behbudi, the leader of the Jadidism movement, the great enlightener. Mahmudkhoja Behbudi’s thoughts in his works and articles have been scientifically analyzed to reveal the essence of this issue.

Key words: jadid, science, enlightenment, school, nation, development, law, rights, lawyer.

Turkiston jadidchilik harakatining darg‘alardan, buyuk ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudi o‘z davrida insonning ma‘naviy va madaniy rivojlanishi

uchun zarur bo'lgan –ilm olish huquqi va uni kafolanlash borasida qimmatli fikrlar bildirgan va dolzarb muammolarni ilgari surgan.

Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy millat va mamlakat taraqqiyoti uchun xalq orasida ilm-fanni keng yoyish, ommani savodxon-ma'rifatli qilish, diniy va dunyoviy bilimlardan bahramand qilish nihoyatda zarurligini teran anglagan edi va bu borada alohida fidoyilik bilan sa'y-harakat qildi.

Mutafakkir ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolga nihoyatda yuksak baho berar ekan, musulmonlarni, turkistonliklarni diniy va dunyoviy ilmlardan, zamonaviy fan yutuqlaridan bahramand bo'lishga chaqiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" nomli maqolasida yozishicha, taraqqiy qilayotgan millatlarning ulamosi zamondan xabardor bo'lib, o'z millatini "masoliha zamoniya"si (rivojlanishning zarur ashyosi- M.E.) bilan ta'minlashga sa'y-harakat qiladi, millatni ko'tarmoq, rivojlantirmoq uchun mol –mulk bilan g'ayrat qilib pul ajratishni va sarflashni, homiy bo'lishni millat mulkdorlariga taklif va tashviq qiladi, tushuntiradi. Har bir millat ziyolisi va olimi millat uchun so'zlaydi, yozadi, milliy ehtiyoj va taraqqiyotni o'z xalqiga, fuqarosiga bildiradi. Mamlakat mulkdorlari o'z millatlarini rivojlantirish yo'lida mablag' sarflaydilar, masalan, yangi usuldagi zamonaviy maktablar barpo etib, unda har tomonlama rivojlangan, barkamol avlodni shakllantirishga harakat qiladilar. Hukumatni o'rta va oliy maktablarga o'qiyotgan o'z millati bolalariga homiy qiladilar, nochor millatdoshlarini ham diniy va dunyoviy maktablarga berib, ularni o'z xarajatlari bilan o'qitadilar [1].

Behbudiy millatimiz va xalqimiz ravnaqi nuqtai nazaridan mentalitetimizdagi ayrim qusurlarni jahon xalqlari bilan taqqoslaydi. Millatning dardiga mulkdorlarimizning homiyligi, aniqrog'i, ma'rifiy homiyligi darmon bolishni uqtiradi.

Behbudiy xalqni savodli, ma'rifatli qilish uchun jadid maktablarini ishonchli vosita deb biladi. Matbuotni esa ma'rifatni yoyish quroli sifatida qaradi va uning kuchidan unumli foydalandi. Behbudiyning ma'rifiy qarashlari, ta'lim-tarbiya uyg'unligi uchun kurash masalalari uning o'zi bevosita ham noshir, ham muharrir sifatida tashkil etgan "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnali sahifalarida o'z aksini topdi [4,16-b]. "Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqlariga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borildi. Behbudiy ilmu ma'rifat xalq ommasi tomonidan o'zlashtirib olingandagina Ijtimoiy taraqqiyotga hal qiluvchi kuchga aylanadi, deb fikr yuritadi [6,50-b].

Mahmudxo'ja Behbudiy barcha harakat va xarajatlarni ilm-fanni rivojlantirish yo'lida sarflash zarurligini uqtiradi. U jamiyat taraqqiyoti uchun maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitmoq nihoyatda zarurligini teran tushungan holda: "Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilmurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham oqilur, chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur", deydi [5, 68-b].

Behbudiy yozadi: "Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda. Boshqa millat ulamosiga tobe ekan, bizni ulamo bilaks avomga tobedir? Buning oxiri xarobdir, yigirma, o'ttiz sanadan so'ng yana yomonroq bo'lur, musulmonlik ilm va odob bilan qoim, millat axloq, fazl va hunar bilan boqiy qoladi" [1].

Mahmudxo'ja Behbudiy jamiyatdagi mavjud illatlarni keskin tanqid qilar ekan, bu illatlardan qutilish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Qizig'i shundaki, Behbudiyning bu ko'rsatmalari o'z zamonasi uchun naqadar muhim bo'lgan bo'lsa, bozor iqtisodiyotiga o'tgan yangi O'zbekiston xalqi uchun ham shunchalik asqotadigan mohiyatga ega.

Behbudiy jadidchilik harakatining rahnamalaridan biri sifatida mamlakatda maktab –madrasa, millat islohi zarurligini uqtiradi. "...millatni diniy ilm va dunyoviy ilm-fanlar o'qimoq uchun targ'ib qilmoq kerakdur. Diniy va dunyoviy ilmu fanlarning o'rni maktab va madrasadir" [5,66-b].

Behbudiyning har bir fikr-g'oyasi uning chinakam jadid, ya'ni yangilikparvar shaxs bo'lganligini tasdiqlaydi. Uning fikricha, o'zbek xalqi ilm- fanni ravnaq toptirish evazigagina jahonning mutaraqqiy mamlakatlari va xalqlari bilan bo'ylashish baxtiga musharraf bo'lishi mumkin.

Mutafakkir yozadi: "...biz turkistonliklar yakka va tanho yashab, boshqalar bilan muomala va munosabatimiz yo'q edi. Endi zamon o'zgarib, boshqa millatlar bilan maxlut (aralash-M.E.) bo'ldik, shariat va urf-odatlarimiz ustiga qonun va Ovrupo odatlarini bilmoqqa majburmiz. Qonun va Ovrupo odatlarini bilmaganlik uchun mulkdorlarimiz, qozi va milliy ulamolarimiz, aholimiz ko'p tashvish va zarar ko'radilar. Ilgarigi davrda faqat shariatni bilmoq kifoya edi. Endi qonunni ham bilmoq zarurdir" [3]. Behbudiy milliy huquq maktabini yaratish, malakali yurist mutaxassislar tayyorlab yetishtirish millat, xalq, mamlakat ravnaqi uchun nechog'liq ahamiyatga ega ekanligini o'z davridayoq anglab yetgan va bu haqda o'z asarlarida bong urgan. Uning bu sohadagi fikr-g'oyalari hozirgi zamonamiz uchun ham dolzarbdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy qonunlarning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rniga alohida e'tibor berar ekan, bu to'g'rida shunday deydi: "...Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, o'z zakun (qonun-M.E.) va dinlariga muvofiq tiriklik qilsinlar. Turkiston yahudiy, nasroniy va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e'tiborga olaturg'on qonunlar tuzilsin" [2].

Behbudiy o'zi yashagan davrda huquq ilmini mukammal egallagan, Vatan taraqqiyoti va millat farovonligi yo'lida xizmat qiladigan huquqshunos xodimlarni davlatga tayyorlab berishda alohida e'tibor beradi.

Uning ta'kidlashicha, "shariat ilmi madrasalarga, qonun ilmi Rusiya dorilfununlariga o'qilur. Dorilfununga kirmoq uchun, avvalo, o'n sana gimnaziya o'qimoq kerak. Songra to'rt sana dorilfununga o'qib, keyin huquqshunos, mahkamalarda, davlat idoralarida turib, har bir huquqshunos o'z millati, Vatani va davlatining manfaatlarini astoydil himoya qilishi lozim" [3].

Agar davlat dumasida biz Turkiston musulmonlaridan shunday huquqshunos vakil bo'lganida edi, - deb yozadi Behbudiy, - bizni din va millatimiz manfaatlarini muhofaza qilishga harakat qilardi, ammo, bunday yurist bizda yo'q [3]. Shu bilan birga, u millat manfaatlarini himoya qila oladigan, oliy ma'lumotli, huquqshunos mutaxassisligi bo'yicha mukammal bilimlarga ega bo'lgan advokatlar jamiyat uchun nihoyatda zarurligini uqtiradi.

Istiqlol sharofati bilan millat fidoyisi, buyuk ma'rifatparvar jadid bobomiz-Mahmudxo'ja Behbudiyning ezgu nomi oqlandi- tarixiy adolat qaror topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 sentyabrdagi "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida" gi farmoniga asosan, Turkiston jadidchilik harakatining asoschilaridan, buyuk ma'rifatparvar, atoqli adib, pedagog va olim, murabbiy, muharrir, jamoat arbobi – Mahmudxo'ja Behbudiy "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi. Xullas, hazrat Mahmudxo'ja Behbudiy elim deb, yurtim deb yonib yashadi, ozi yona turib millatga, xalqqa yorug'lik bera oldi, ular yo'lini nurafshon va munavvar qildi. Behbudiyga zamondosh shoir Sayyid Ahmad Vasliy haqqoniy yozganidek:

*Mahmudxo'ja Behbudiy bir qahramon edi,
Millat yo'lida dohiyyi oxir zamon edi.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бехбудий М. Миллатлар қандай тараққий этарлар? // Самарқанд. 1913, 30 июл.
2. Бехбудий М. Баёни ҳақиқат // Улуғ Туркистон. 1917, 12 июн.
3. Бехбудий М. Эҳтиёжи миллат // Самарқанд. 1913, 12 июл.
4. Олимов Ш. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг таълимий- ахлоқий қарашлари. // "Маҳмудхўжа Бехбудий миллат фидойиси ва маърифатпарвар" мавзусида илмий мақолалар тўплами. БухДУ. – Бухоро: "Дурдона" 2014. –92 б.
5. Эргашева М. Жадидларнинг давлат- ҳуқуқий қарашлари. – Бухоро: "Бухоро нашр". 2022. - 444 б.
6. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. - Тошкент: "Адолат" нашриёти. 2010.-704 б.

XIX АСР ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИ - ЎЗБЕК ТИЛИНИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ЯНГИ ДАВР

Рахматова Дилафрўз

Самарқанд давлат чет тиллар институти катта ўқитувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада XIX аср охири XX аср бошларида ўзбек тили шаклланишидаги янги даврга туртки бўлган асосий омиллар ҳақида сўз юритилади. Тилнинг ривожланишида ички ва ташқи кўрсаткичлар тилга олинади.

Калит сўзлар: *Жадид, изоҳли лугат, янгилиниш, умумтуркий адабий тил назарияси, араб, форс-тожик, рус тилларидан муҳофаза қилиш назарияси.*

Қадимги юнон файласуфи Демокрит бундан 2500 йил аввал таъкидлаганидек, “ҳар бир мамлакатнинг ягона соҳиби – миллат”дир. Дарҳақиқат, маҳаллий аҳолининг ягона этнос бўлиб шаклланишида унинг тили, маданияти, санъати, тарихи каби боқий кадриятлари муҳим аҳамият касб этади. З.М.Маъруфов таҳрири остидаги “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да *миллат* сўзи араб тилидан олинган бўлиб, тарихан ташкил топган, маданияти, тили, территорияси, иқтисодий ҳаёти ва руҳий хусусиятларининг умумийлиги асосида вужудга келган кишилар группаси, деб изоҳ берилса [1], А.Мадвалиев таҳрири остидаги “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да *миллат* сўзи араб тилидан олингани қайд этилгани ҳолда, кишиларнинг ягона тилда сўзлашиши, яхлит ҳудудда истиқомат қилиши, муштарак иқтисодий ҳаёт кечириши, умумий маданият ва руҳиятга эга бўлиши асосида тарихан ташкил топган барқарор бирлик сифатида таъриф берилади [2, 79]. М.Ш.Шукуров ва бошқалар таҳрири остидаги “Фарҳанги забони тожики”да *миллат* – дин, мазҳаб, уммат, халқ ягоналиги эътироф этилади [3]. Тўғри, З.М.Маъруфов таҳриридаги “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” ҳам М.Ш.Шукуров ва бошқалар таҳриридаги “Фарҳанги забони тожики” ҳам совет даврида нашрдан чиққани ва миллат сўзига қисқа изоҳ берилганлигини давр сиёсати оқибати дейиш мумкин. *Миллат* сўзига синоним равишда *дин, мазҳаб* каби сўзларни ишлатиш Қуръони Каримда ҳам учрайди. Мумтоз адабиётимиз вакиллари Алишер Навоий, Заҳириддин Бобур асарларида миллат сўзи ишлатилган бўлсада, унинг Демокрит кўрсатган асл маънодаги вазифаси Туркистон жадидлари асарларида таъкидланади.

XIX асрнинг иккинчи ярмида рўёбга чиққан сиёсий оқимлар маънавий-маърифий масалалар қаторида миллатнинг умумтили ҳақида гапира бошладилар. Шу даврнинг энг пешкадам зиёлилари – жадидлар ўзбек халқини миллат сифатида шакллантиришни ўзларининг энг буюк мақсадлари, деб билдилар. Миллатнинг мавжуд бўлиши учун ҳудудий ва руҳий бирликлар қаторида тил бирлиги ҳам юзага келган бўлиши шарт эди. Масаланинг ана шу жиҳатига эътибор қаратган жадидлар ягона миллий тилни шакллантириш йўлида ҳаракат қилдилар.

Жадидлар (араб тилидан таржима қилинганда, “янги”, “янгилиниш” маъносини беради), ўша даврда тил борасида пайдо бўлган турли фикрларни ислоҳ қилишни кўзда тутдилар.

Жадидлар, уларнинг асарлари ва фаолиятлари ҳақида 1956 йилларнинг охирларидан бошлаб гапирила бошланди [4]. Асосий илмий тадқиқот ишлари ошкоралик давридан бошлаб, мустақиллик даврининг ҳозирги кунигача олиб борилаётган бўлса-да, “жадид” сўзининг маъносига бир кўламда ёндашиб бўлмаслиги таъкидланади. Шунингдек, уларнинг фаолиятларини бир

аспектда тадқиқ қилиш ҳам муаммо. Биз фақатгина самарқандлик жадиждларнинг тил ва тил таълимотига бағишланган айрим фикрлари ва фаолиятлари доирасини ўрганишни лозим топдик.

1918-1920-йилларда адабий тил борасида кўплаб эътирозлар пайдо бўлди. Тарих дарсликларида ёзилишича, бунга сабаб Биринчи Жаҳон урушида Россияга асир тушган кўплаб турк зобитларининг 1917 йилги октябрь тўнтаришдан сўнг, Туркистонда Усмонли турк тилини тарғиб қилишга бўлган ҳаракатлари билан бошланади. Табиийки, маҳаллий зиёли маърифатпарварлар бу ғояга қарши турадилар [8].

Адабий тил борасида эътироз пайдо бўлишининг ягона сабаби бу эмас. Бундан олдинроқ Маҳмудхўжа Бехбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов, Саидризо Ализода, Ҳожи Муин каби Туркистон зиёлилари асарларида тилнинг софлигини сақлаш, четдан сўз қабул қилишни истилоҳ қилиш, шу пайтгача тилимизда араб ва форс тилларидан олинган сўзларнинг ўзбекча муқобилини қўллаш каби долзарб вазифалар қайд этилганки, бундан жадиждларнинг тилимиз ривожига бепарво эмасликлари намоён бўлади.

Давр тили ҳақидаги қарашлар умумлаштирилса, қўйидаги хулосаларга келиш мумкин:

Умумтуркий адабий тил назарияси. Бу назариянинг асосчиси ва тарғиботчиси Исмоилбек Гаспирали.¹³ У барча туркий халқлар учун турк ва қримтатар тили асосида умумий ёзма адабий тилни жорий қилиш ғоясини илгари суради. Туркистонга қилган саёҳати давомида аҳолининг зиёли маърифатпарварлари билан учрашиб, ушбу ғояни таклиф этган. Қримда ўзи томонидан нашр қилинган “Таржумон” газетасида умумтуркий тил яратиш борасидаги фикрлари баён этилган. Бу газета Туркистон ўлкасига ҳам кенг тарқалиб, жадижд адабиётининг айрим вакиллари таъсир кўрсатган.

Миллий тилни халқ шевалари заминидида шакллантириш ва ривожлантириш назарияси. Миллий тилни эски ўзбек тилига асосланган ҳолда юзага келтириш ғояси илгари сурилиб, айрим зиёлилар эски чиғатой тилига қайтиб, уни тиклаш фикрида бўлдилар. Ўзбек шеваларини адабий тил меъёрларига киритишни таклиф қилдилар.

Янги ўзбек адабий тилини араб тили ва грамматикаси асосида вужудга келтириш ва тараққий эттириш назарияси. Бу фикр эгалари адабий тил масаласини дин билан боғлашга уриндилар. Ўзбек тилининг морфологияси ва синтаксисини араб тили грамматикасига боғлаб шакллантиришни таклиф этдилар. Диний тушунчаларни ифодалайдиган сўзларни ўз ҳолича қабул қилиш фикрини илгари сурдилар.

Ўзбек тилини шу пайтгача бўлган араб ва форс тили таъсиридан қутқариш назарияси. Асрлар давомида шаклланган, турли сиёсий,

¹³ Гаспирали Исмоилбек. (1851-1914) – Жадиждчилик ҳаракатининг асосчиси, ёзувчи ва публицист. 1893 йилда Туркистонга келиб, Самарқанд ва Бухоро зиёлилари билан учрашган. Жадиждчилик ҳаракатларини ғояларини кенгроқ ёйиш учун “Таржумон”, “Миллат”, “Болалар олами” каби газета ва журналларни нашр эттирган. Усули жадижд мактаблари учун дарсликлар яратган.

иктисодий, ижтимоий, маданий вазиятлар натижасида тилимизга ўрнашиб қолган араб ва форс-тожик сўзларининг фақат ўзбекча муқобилини ишлатиш тарафдорлари эса соф ўзбек тилини тарғиб қилдилар.

Миллий тилни рус тили таъсирида шакллантириш ва ривожлантириш назарияси. Давр сиёсати билан боғлиқ бўлган бу назарияда рус тилини ўрганиш орқали жаҳонга чиқиш йўли, муроса йўлини излаётганлар ғоялари илгари сурилди. Ушбу фикр эгалари мавжуд сиёсий тангликдан оқилона фойдаланиш тарафдорлари эди.

Инқилобий саналган ушбу фикр, таклиф ва ғояларни жадиждлар бадиий асарларида, персонажлар тилида, публицистик ва илмий мақолаларида, Чор ҳукумати вакилларига юборган хатларида ва ўзаро ёзишмаларида намоён этдилар. Сўзлаган нутқларида ҳам шу маънолар ўз аксини топди. Жадиждунос олим Бегали Қосимовнинг таъкидлашича, майдонга келган янги тафаккур – миллатнинг ўзлигини англаш ва мустақиллик мафкурасидан иборат эди [9].

Адабий тил умумхалқ тилининг ишлов берилган, сайқаллаштирилган ва маълум бир меъёрга солинган шаклидир. Ўзбек адабий тили шева ва лаҳжалар бир бутунлигидан иборат бўлган ўзбек миллий тилидан фарқланади. Ўзбек адабий тили ўзбек миллатига тегишли бўлгани сабабли миллий тилнинг таркибий қисми саналади ва у билан бутун-қисм муносабатда бўлади. Ўзбек адабий тили узок давом этган тадрижий тараққиётга эга. Ана шундай тараққиётлардан бири XIX аср охири XX аср бошларида кескин намоён бўлган эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Москва: Рус тили нашриёти, 1981. – Б.631.
2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.-Тошкент. 2008.-Б.157.
3. Фарҳанги забони тожики. –Москва: Советская энциклопедия, 1969.-С. 689.
4. Қодирий А. Ўтган кунлар.-Тошкент: 1958.
5. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент:1987
6. Каримов Н. Истиқлолни уйғотган шоир. – Тошкент: Маънавият. 2003.
7. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик.–Тошкент: Маънавият, 2002.
8. Шамсиддинов Р. ва бошқалар. Ватан тарихи. –Тошкент: Шарқ нашриёт - матбаа акцидорлик компанияси Бош таҳририяти. 2 003. –Б.354.
9. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.

ТУРКИСТОНГА ЯНГИ ТЕХНИКАЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЛКА БЎЙЛАБ ТАРҚАЛИШИДАГИ МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ЎРНИ

Элова Дилноза Давлатовна
БухДУ катта ўқитувчиси п.ф.ф.д.(PhD)

Резюме. Мазкур мақолада Туркистон тараққийпарларининг ўлкада янги техника ва технологиялар тарқалишидаги фаолияти масалалари манба ҳамда адабиётлар таҳлили орқали очиб берилган.

Таянч атамалар: Тараққийпарвар, жадид, зиёли, тижорат, техника, технология, матбуот, маҳаллий бойлар, зироат, саноат, босмахона, машиний техникалар, ташиқот, илм-фан.

Маҳмудхўжа Беҳбудий (1875-1919) мақолаларида бир неча бор баён этилган. “Қримда 1 таноб ер нархи 10 минг сўмдан 30 минг сўмгача бўлган бир пайтда, ўзбек ва тожиклар қарзлари эвазига 1 таноб ерларини 200 сўмдан сув текинга сотганлар. Агар шу ҳолат давом этаверса, унумдор ер фондлари ажнабийлар қўлига ўтиб халқимиз қашшоқ ва гадо бўлиб қолади” – деб ёзганди, Маҳмудхўжа Беҳбудий [1].

Ур ва унинг кадр қиммати ҳақида А.Зиёбоев, А.Музаффаров кабилар ҳам ўз мақолаларида [2] фикр мулоҳаза билдиришган: “Ер ва тупроқ сотган бола-чақа ва наслини сотган билан баробардир” – деган ғояни улар илгари сурганди.

М.Беҳбудий “Бизни ҳоллар ва ишлар”, “Зўраки бой”, “Оқ бонкалар бизни барбод этди”, “Эҳтиёжли миллат”, “Миллатлар қандай тараққий этарлар” каби ўнлаб мақолаларида замонавий техника ва технологияларни ҳаётимизга олиб кирмас эмасмиз, бутун саноат ва қишлоқ хўжалиги (зироат ва тақлиёт) келгиндилар қўлига унишида давом этаверади, деб ҳисоблади [3]. XX аср бошларида саноат ишлаб чиқаришда хориж фирмаларининг роли катта эди.

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг шогирди ва маслакдоши Хожи Муин дунё миқёсидаги техник кашфиётлар аҳамияти ҳақида гапирар экан, темир йўл, пороход, поровоз, телеграф, аэроплан кабилар мамлакатлар ўртасидаги алоқалар кучайишида, халқлар муносабатлар юксалишида муҳим омил бўлганлигини таъкидлайди. Бу янгиликлар Туркистон халқларининг онгини ўсишида муҳим роль ўйнаши кераклиги, жаҳон башаддунидан орқада қолмасликка даъват этади. У ҳарбий самолётлар (аэроплан) кашф этилиши ҳақида ёзиб: “Оврўпийлар ҳозирда билган илмларига қаноат қилмай ғайрат ва ҳимматлари соясида кундан-кун яна тараққий этмоқдадирлар... ўзларини душмандан ҳимоя қилмоқ учун, олоти ҳарбий ижод этмакдадурларким, улар орасида энг муҳими айруплан – сайёра деган балои осмоний бўлса керак. Агарда яна 5-10 йил ўлмасак кўрармизким: оврупоитлар душман ила ҳавода уруша бошларлар” [4, 64] –деб ёзганди.

1914 йилда ёзилган “Таассуфми ё ҳолатдамыз” номли мақоласида Туркистон тараққийпарварлари ва зиёлилари хориждан ўзлари билан мусулмон шридйи, тошбосмахона ва нашриёт асбоб-ускуналари, соат, телешоп, граммафон, фотоаппарат, ёзув машинкаси, радио (овознигор), микроскоп олиб келдилар. Жумладан, ўзбек кино оператори Худойберган Девоннов 1908 йилда Санкт-Петербургдан Хивага кино, фотоаппаратлар, телескоп, граммафон каби асбобларни олиб келди [5, 18].

XIX аср сўнгги чораги XX аср бошларида замонасининг тараққийпарвар сиймоларидан бири, ўзбек, форс-тожик, турк, араб, рус ва француз тилларида ўқий оладиган, полиглат даражасига кўтарилган Мирзо Сирож Ҳаким (1878-1914) 3 марта хорижда саёхатларда бўлди. (1902, 1902-1905, 1905-1910). 1902-1912 йилларда, яъни 10 йил давомида Европа, Осиё ва Африкадаги мамлакатлар бўйлаб қилган саёхатларидан олган таасуротларини баён этган саёхатномасини яратди. Унинг китоби 1912 йилда Косондаги Левин типографиясида “Тухафи аҳли Бухоро” (“Бухоро аҳлига тухфалар”) номи билан чоп этилди. Ва ушбу китоб 190 варақ (379 саҳифа)дан иборат. Мирзо Сирожиддин Озарбойжон, Туркия, Эрон, Афғонистон, Яман, Ҳиндистон каби Шарқ давлатларидан ташқари Европанинг София (Болгария), Будапешт (Венгрия), Вена (Австрия), Париж (Франция), Лондон (Англия), Бёрн (Швейцария) каби шаҳарларида бўлган. Париж, Марсел (Франция), Варшава (Польша), Москва (Россия) шаҳарларида фан-техника янгиликлари билан танилган. У Европадаги иқтисодий-маданий кўтарилишнинг сабаби илм-фан ва технологиялар тараққиёти натижаси эканлигини қайд этади.

Осиёликлар қолоқлик туфайли арзон-гаров хомашё яратиш билан ўралашиб қолганларидан афсусланиб, “Наҳотки инглиз докаси ва Америка қоғози бизларнинг бойликларимизга алмаштирилса” – деб афсус билан куюниб фикр билдирган. У хориж сафарларидан қуруқ қўл билан қайтмади, Эронда ҳатто савдо ишлари билан шуғулланиб ўз даромадлари эвазига Бухоро шаҳридаги Челонгари пассажида биринчи марта Европа типидида очилган шахсий шифохонаси учун тиббиётга оид кўплаб замонавий асбоб-ускуналар олиб келди. Бухоро тиббиёт тарихида биринчи Европа типидидаги дорихона (аптека) очиб, дорихоналарни рецепт билан бериш тартибини жорий этди. Унинг шифохонаси ва дорихона электр ёрдамида ёриб олиб, жарроҳлик учун зарур бўлган ўз замонасининг тиббий жиҳозлари билан таъминланган эди [6].

Таъкидлаш жоизки, Самарқанд жадидлари, жумладан, улар йўлбошчиси Маҳмудхўжа Бехбудий ўз номи билан “Бехбудия” нашриётини ташкил қилар экан, ушбу нашриёт учун зарур бўлган техник воситаларни, яъни мусулмон шрифти, тошбосмахона, моторлаштирилган литография ва турли ёриткичларни хориждан келтирди. “Бехбудия” нашриётида чоп этилган китоблар унинг томонидан очилган ўнлаб дўконларда сотиларди. Бироқ Бехбудий китоб дўконларида Қозоқ, Уфа, Симбирск, Оренбург (Россия), Истанбул (Туркия), Баку (Озарбойжон)да босилган китоблар ҳам сотилган.

Таъкидлаш жоизки М.Бехбудий "Ойина" журнали, "Хуррият" газетаси кабиларни босиш учун хориждан ёзув машинкаларини келтирганди.

Ушбу техник асбоб-ускуналар М.Бехбудийнинг тижорат дўконлари ҳисобидаги маблағларга сотиб олинади. "Бехбудия" нашриёти ходимларнинг хизмати билан "Ойина" журнали 68 та сонининг 1720 саҳифали тўплами яратилганди. Шунингдек, "Бехбудия" нашриётида замонавий техника воситаларни тузатадиган слесарь ва техник хизматчилар ҳам фаолият юритишган [7]. Тараққийпарварларнинг саъй ҳаракатлари туфайли XX аср бошларида биргина Самарқанд шаҳрида 21 та босмахона, 4 та ийотипография, 2 та литография фаолият кўрсатарди [8]. Самарқандда фаолият юритаётган Давлат банки, Москва савдо банки, Рус-Осиё банки, Сибирь савдо банки бўлими кабилар орқали ҳам шаҳарга заводлар, устахоналар, қоғоз тайёрлаш дастгоҳлари, сув тегирмонлари, жувозхоналар, типографиялар учун тегишли техник воситалар етказиб берилган. Уларнинг дўконлари орқали маҳаллий тадбиркорлар ҳамда зиёли аҳоли вакиллари янги техника воситаларини харид қилишарди. Архив ҳужжатлари маълумотиға бухоролик тараққийпарварлардан Усмон Хўжа, Ҳамид хўжа, Меҳрилар Боғчасарой (Крим), Истамбул (Туркия) сафарларидан ўзлари билан механик қўл соати, микроскоп, глобус ва бошқа техник қурилма ва асбоб-ускуналар кабиларни олиб келишган [9].

Ушбу ҳақда Бухорои-шариф газетасининг 1912 йил 14-сониди ҳам маълумот бериб ўтилган. Унда микроскоп заррабини (тожикча-заррачани билувчи) асбоб деб қайд этилган [10].

Хуллас, XIX аср охири XX аср бошларида Туркистонда илғор фикрли зиёлилар ўз қараш ва ғояларида ривожланган мамлакатлар тараққиётининг асосий сабаби илм-фан ва техника соҳасидаги янгиликларни иқтисодиёт, ижтимоий ҳаётга маданий жараёнларга фаол тадбиқ қилиниши деб ҳисобладилар. Туркистонда ерости ва ер усти бойликлари бисёр бўлиб тупроқ унумдор бўлсада хўжалик тармоқлари ҳамон анъанавий меҳнат қуроллари билан юритилаётганлиги, деҳқонлар савияси пастлиги, ҳунар билим юртлари ва мактаблар ўлкада мавжуд эмаслиги, янги техникаларни сотиб олиш, ишлаб чиқаришга, уларни интенсив жорий этишга истак ва интилиш йўқлиги, бой-бадавлатлар ўз маблағларини кераксиз удумлар учун ҳавога совураётгани кабилар ўнлаб даврий матбуот органларида танқид остига олинди. Ўлкада зироат, саноат, тижоратни ривожлантириш кўп жиҳатдан янги техникаларга боғлиқ бўлар экан, бу борада барча жамият аъзолари яқдил бўлишлари зарурлиги ҳам улар ташвиқоти ва тарғиботида муҳим рол ўйнади. Агар деҳқон ва ҳунарманд янги технологияларни қўлламас экан, келажак таъминланмайди, рақобат муҳити вужудга келмаслиги кабилар назаридан четда қолмади.

XX аср бошларида Туркистон жаидлари ва прогрессив характердаги маҳаллий тадбиркорлар ҳамда фабрика эгалари хорижнинг ривожланган мамлакатлари бўйлаб сафарларда, саёхатларда бўлдилар. Техника ва

технология соҳасида жаҳонда кечаётган инқилобий ўзгаришлар улар дунё қарашига катта таъсир кўрсатди. Қишлоқ хўжалиги саноат, маданий-маиший соҳалардаги техник янгиликлар, яъни буг билан ишлайдиган дизель ва тракторларни завод ва фабрикалар учун зарурий машиналарни, электр, телеграф, граммафон, радио, пороход, авиация кашфиётларини ўлка ҳаётига олиб кириш уларнинг нафақат истаги, балки бу техника воситаларини Туркистонга бевосита ташувчи ташаббускорлари ҳам бўлдилар. Бироқ Туркистонда мустамлака режимини ривожланишига имкон бермаганлиги, аҳолининг асосий қисми бўлган деҳқон ва хунармандлар ҳам шодликда яшаб янги техникаларни сотиб олиш қувватига эга эмаслиги янги техник воситалар нархининг юқорилиги, айримлари тақчиллиги, баъзилари эса маҳаллий шароитга тўғри келмаслиги, техник малакали кадрлар етишмаслиги пахта яккаҳокимлиги ҳукум сураётгани каби салбий тенденцияларни ҳам миллатнинг фидойи фарзандлари ўз вақтида англаб етган эдилар.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Беҳбудий М. Бизни кемирувчи иллатлар // Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. – 3 нашри, тузатилган ва тўлдирилган. – Т.: Маънавият, 2006. – Б.193
2. Зиёбоев А. Тупроғимиз олтиндур // Садои Туркистон, 1914 йил 4 апрел, Музаффарзода А. Тупроқ надур // Садои Туркистон 1914 йил 13 июнь.
3. Маҳмудхўжа Беҳбудий миллат фидойиси ва маърифатпарвар (илмий мақолалар тўплами). - Бухоро: “Дурдона”, 2014.
4. Муин Ҳожи. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият; 2005. – Б.64.
5. Эрназаров Ф.Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигидаги маданий ҳаёт. Тарих фан. номзод. диссертацияси автореферати – Тошкент - 2005. –Б.18.
6. Сафаров О. Мирзо Сирожиддин Ҳаким Бухорий – адиб ва сайёҳ // Турон фанлар Академияси ахборотномаси –Т.; 2013. №1. – Б. 142-148; Қаюмов Т.Мирзо Сирож Ҳаким – тараққийпарвар // Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача) // Республика миқёсидаги илмий-назарий анжуман материаллари. – Бухоро-2016. –Б .71-73; Иноятов С.М. Жаҳоний шухрат соҳиби: шоир, матбуотчи, табиб ва жаҳонгашта сайёҳ // Жаҳон тарихининг долзарб муаммолари мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман материаллари Бухоро-2020. –Б.109-113.
7. Турсунов Р.Н. Воззрения национальных прогрессистов... –С. 22-23; Маҳмудхўжа Беҳбудий меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти. (Илмий мақолалар тўплами). – Т.: 2014. – 139бет; Маҳмудхўжа Беҳбудий миллат фидойиси ва маърифатпарвар илмий мақолалар тўплами (М.Беҳбудий таваллудининг 140 йиллигига бағишланади). – Бухоро Дурдона нашриёти, 2014. – 91 бет. (М.Беҳбудийнинг ҳаёти ва фаолияти Д.А.Алимова, Б.Қосимов, Н.Каримов, Ҳ.Саидов, И.Ғафуров, У.Долимов, Б.Дўскораев, А.Алиев, А.Авазов, Б.Эгамов, Ш.Ҳайитов, М.Эргашева каби ўнлаб тарихчи, филолог, ҳуқуқшунос, журналист олимлар томонидан ўрганилган)

8. Ирискулов О.Ж. XIX аср 2-ярми XX аср бошларида Самарқанд шаҳрида ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. - Самарқанд -2019. –Б.19.

9. ЎМА, U-3 фонд, 1-рўйхат, 444 йиғма жилд, 15-варақ, 15-варақнинг орқа томони.

10. Соғлиқни сақлаш // Бухоройи шариф, 14-сон, 1912 йил 27 март.

TURKISTON JADIDLARINING OTASI – BEHBUDIY VA UNING MATBUOTCHILIK FAOLIYATI

*Usmonaliyeva Madina Komiljon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiston jadidlarining otasi hisoblangan Mahmudxo`ja Behbudi, uning Turkistonda ma`rifiy g`oyalarini keng targ`ib qilish, maktab faoliyatini taraqqiy ettirish orqali xalqni ma`rifatli qilish yo`lida amalga oshirgan ishlari, noshrlilik, matbaachilik faoliyati haqida qisqacha ma`lumot beriladi.

**Kalit so`zlar.** Mahmudxo`ja Behbudi, "Muhtaram yoshlarga murojaat", "A'molimiz yoinki muroidimiz", "Nashriyoti Behbudiya", Behbudi darsliklari, "Ikki emas, to`rt til lozim", "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnali.

Аннотация. В данной статье представлена информация о Махмудходже Бехбуди, считающемся отцом туркестанских джадидов, о его работе в Туркестане по распространению его просветительских идей, повышению образования народа, издательской и полиграфической деятельности.

Ключевые слова. Махмудходжа Бехбуди, «Обращение к уважаемой молодежи», «Наши дела добры», «Нашириёти Бехбудия», Учебники Бехбудия, «Не два, а четыре языка нужны», газета «Самарканд», журнал «Ойна».

Annotation. In this article, Mahmudhoja Behbudi, who is considered the father of Turkestan moderns, his work on the development of the homeland, the wide promotion of the ideas of enlightenment in Turkestan, the development of school activities, the work he did to enlighten the people, his publishing, printing Brief information about the activity is given.

Key words. Mahmudhoja Behbudi, "Address to the Respected Young People", "Our Actions Are Good", "Nashriyoti Behbudiya", Behbudi's Textbooks, "Not Two, Four Languages Are Necessary", "Samarkand" Newspaper, "Oyina" Magazine.

Tarixning turli davrlarida o`z oldiga insonlarni ilm-fan bilan tanishtirib, xalqni ma`rifatli qilish, ularning fikrlash qobiliyatini yuksaltirish, tashqi olam yangiliklari bilan tanishtirish kabi muhim vazifalarni maqsad qilib olgan ilm-fan fidoiylari mavjud bo`lgan. Ular umrini ilm-fan ravnaqi yo`liga bag`ishlagan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o`lkasida ham shunday vatanparvar,

ma`rifatli insonlar juda ko`p bo`lgan. Bu insonlar umumiy nom bilan "Jadidlar" deb atalgan. Lug`aviy jihatdan "yangi" degan ma`noni beradigan bu atama ularning maqsadlari ham o`lkaga yangiliklar olib kirish bo`lganligini ko`rsatib beradi.

Bugungi kunda barcha sohalarda juda katta o`zgarishlar bo`layotgan bir davrda tarixni haqqoniy o`rganish imkoniyati yaratilib, jadidlar merosini keng qamrovli o`rganish imkoniyati yaratildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`kidlaganlaridek: "Biz jadidchilik harakati, ma`rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o`rganishimiz kerak. Bu ma`naviy xazinani qancha ko`p o`rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko`p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ`ib etsak, xalqimiz ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" [1]. Xalqimizni qalbini uyg`otib, ularni ma`rifatli qilish yo`lidagi "Uchinchi Renessans" g`oyasining asosi ham jadidlar faoliyatiga borib taqaladi. Ular xalqni ma`rifatli qilish orqali, xalqning jaholat botqog`idan, xalq ta`limini isloh qilib, aholini ma`rifatli qilish, zamonaviy teatr, dramaturgiya, milliy matbuotni yaratish, tarix fanini rivojlantirib, o`zbek xalqining yangi tarixini yozishni o`z oldilariga maqsad qilib qo`yganlar. O`sha davrda Turkistonda ko`plab jadid darg`alari yetishib chiqqan. Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abduqodir Shakuriy, Cho`lpon kabi o`nlab ziyolilarimiz butun umrlarini milliy uyg`onish g`oyasiga bag`ishlaganlar.

Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo`ja Behbudiylidir. Behbudiylar jadidchilik harakatining yirik vakili, o`lka jadidlarining yetakchisi edi. U matbaa, noshirlik, adabiyotshunoslik, jurnalistika, tijorat kabi qator sohalar rivojiga munosib hissa qo`shgan.

Behbudiylar xalqni ma`rifatli qilish, bolalarni o`qitib savodli qilish yo`lida juda ko`p ishlarni amalga oshirgan. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov Behbudiylar haqida fikr yuritarkan ekanlar: "Buyuk ma`rifatparvar bobomiz Mahmudxo`ja Behbudiylar o`tgan asrning boshlaridayoq "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamonaviy ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo`lur", - degan o`zining o`kir fikrlari bilan xalqni uyg`onishga, ilm egallashga da`vat etadi", - deganlar [2]. Xususan, Behbudiylar o`zining "Muhtaram yoshlarga murojaat" nomli maqolasida: "Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib taraqqiyning boshlang`ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat, eng avvalo, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib, ko`paytirmaguncha, taraqqiy yo`liga kirib madaniyatdan foydalanmas", [3] - deb yozarkan ekan, mamlakatni taraqqiyot yo`liga olib chiqish uchun eng avvalo, maktab tizimini zamon talablariga muvofiq ravishda isloh qilish kerak ekanligini ta`kidlaydi. "A'molimiz yoinki murodimiz" nomli maqolasida esa xalqni turli tadbirlari va turmush tarzini tahlil qilarkan ekan, xalqni isrofli tadbirlardan voz kechib, ularga sarflanadigan mablag`ni iqtisodning barcha tarmoqlarida kadrlar tayyorlash uchun davlat ta`lim muassasalarida bolalarni o`qitish uchun yo`naltirishga da`vat etadi [4].

1903-yilda Abduqodir Shakuriy tomonidan ochilgan "usuli savtiya" maktabi uchun "Muntaxabi Jug'rofiya umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Madhali jug'rofiyayi umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), "Muxtasari jug'rofiyai Rusiy" ("Ruslarning qisqacha geografiyasi"), "Kitobat ul-atvol" ("Bolalar kitobi"), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha kitobi) singari darslik va o'quv qo'llanmalari yaratgan [5]. Bundan tashqari, 1913-yilda Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yangi usul maktablari uchun darsliklar chop etish, mahalliy matbuotni rivojlantirish maqsadida "Nashriyoti Behbudiy" kutubxonasi tashkil etiladi [6].

Behbudiy o'zining ko'plab maqolalarida xalqni ko'plab chet tillarni, xususan, arab, fors, turkey tillar bilan birgalikda rus tilini ham bilishi kerak ekanligini ta'kidlaydi. U o'zining "Ikki emas, to'rt til lozim" nomli maqolasida: "Bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqrir etuvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy. Arab tili din uchun na darajada lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur" deb yozadi [7]. Bu bilan u til bilish hamma zamonlarda ham o'ta dolzarb ekanligini va barcha uchun o'ta muhim ekanligini ta'kidlaydi. Hatto, Behbudiy o'zi nashr ettirgan "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnalining so'nggi sahifalarida doimiy ravishda rus tilidagi reklama va ba'zi ma'lumotlar uchun o'rin ajratadi [8].

Behbudiy noshrlilik va matbaa ishlari bilan ham faol shug'ullangan. Hoji Muinning xabar berishicha, Behbudiy muallif sifatida qatnashgan gazeta va majmualar soni 18 ta bo'lgan: "Bu 18 gazeta va majmualarda Behbudiyning 200ga yaqin maqolasi bosilgandurkim, ular bir yerga to'planganda 5-6 yuz betlik bir kitob bo'lur" [9]. Bundan ko'rinib turibdiki, Behbudiyning yozgan maqolalarining o'zi juda keng ko'lamli bo'lib, bu bilan u jurnalistika sohasiga ham o'zining salmoqli hissasini qo'shgan.

Mahmudxo'ja 1913-yilda "Samarqand" gazetasini nashr qilish uchun hukumatdan ruxsat oladi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida haftada 2 marta chop etiladi. 45-soni chiqqach moddiy tanqislik tufayli nashr to'xtatiladi. 1913-yil 20-avgustdan u "Oyina" jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal, asosan, o'zbekcha bo'lib, she'r, turli yo'nalish va mavzudagi maqola, tahliliy materiallardan tashqari e'lonlar ham berib brogan. Jurnal Kavkaz, Turkiston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqalgan [10].

"Samarqand" gazetasi bir-ikki oy davom etgandan so'ngra moddiy jihatdan zaiflashib kolgani tufayli haftalik jurnalga aylantirishib "Oyina" nomi berildi. Bularning har ikkisi turkcha edi. "Oyina" 2 yil qadar davom etib, moddiy jihatdan ta'minlanmagandan so'ng yopildi [11].

Behbudiy doim xalq dardi bilan yashagan. U: Davlat dumasi nari tursin, rasmiy mahkamalarga kirib bizni mudofaa qilaturg'on kishimiz yo'q, boshimiz og'risa do'qturga borarmiz, ammo dardimizni aytishga til yo'q. Ikkimiz bir-birimiz bilan nizo qilamiz. Ketamiz zako'nchig'a so'ylamoqqa til yo'q, [12] - deya Turkiston xalqining bilimsizligi, kadrlar yetishmasligi, eng asosiysi xalq dardini aytadigan insonlarning yo'qligini bot bot takrorlab turgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo`ja Behbudiy.– Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Karimov I. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. - T.:Ma`naviyat. 2008.
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. "Oyina" jur. 1914. 41-son
4. A'molimiz yoinki murodimiz // Oyina. 1914. №6-7
5. Karimov N.Mahmudxo`ja Behbudiy. - Toshkent. 2010.
6. Xasanov B. va b.q. Jadid ma`rifatparvarlik harakatining g`oyaviy asoslari. Toshkent islom universiteti. 2016.
7. Behbudiy M. Ikki emas, to`rt til lozim// Tanlangan asarlar. - Toshkent. 1997.
8. Xasanov B. va b.q. Jadid ma`rifatparvarlik harakatining g`oyaviy asoslari. Toshkent islom universiteti. 2016.
9. Hoji Muin. Tanlangan asarlar.
10. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo`ja Behbudiy. - Toshkent: "Yoshlar" nashriyot uyi. 2022.
11. Abdulazizova N.A.Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). – Toshkent: Akademiya, 2000.
12. Behbudiy M. Ehtiyoji millat // Samarqand. 1913-yil 12-iyul.

SAYID RIZO ALIZODA MA'NAVIYATI

Komil Haydarov

O`zbekiston-Finlyandiya pedaqoqika instituti

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Suxayl Sadullayev

O`zbekiston-Finlyandiya pedaqoqika instituti talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada Samarqand jadidchilik harakatida o`ziga xos o`rin tutgan Sayid Rizo Alizodaning ma`naviy merosi, uning yangi madaniyat va ta`limni targ`ib qilish borasidagi serqirra faoliyati, shuningdek, ibratli insoniy fazilatlariga doir ma`lumotlar tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar.** Jadidchilik harakati, ma`naviyat, ma`rifatparvarlik, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с духовным наследием и творчеством Саид Риза Ализаде - известного представителя Самаркандского движения джадидизма, его деятельности по пропаганде новой культуры и нового образования в регионе, а также его духовных качеств.

Ключевые слова. Движение джадидов, духовность, просветительство, воспитание молодежи, национальные ценности.

Ulug' ajdodlarimiz boshlab bergan tarixiy an'ana yurtimizdan yetishib chiqqan ma'rifatparvar jadidlar timsolida bardavom bo'lganligini ta'kidlab, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimizning ma'rifatparvar jadidlarning bebaho merosini o'rganish masalasiga alohida to'xtalib o'tgan edi [1, 2.]. Samarqand zaminidan yetishib chiqqan ikki ma'rifatparvar – Mahmudxo'ja Behbudiy va Sayid Rizo Alizoda jadidchilik harakatida alohida o'rin tutadi. Samarqandda ularning ijodiga bag'ishlangan ma'rifiy tadbirlar uyushtirib turish, bunday tadbirlarga olimlar, ziyolilar, ijodkorlar, jamoatchilik vakillari hamda allomalarning qarindoshlarini taklif qilish an'anaga aylangan. Bunday tadbirlar viloyat pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida ma'rifatparvar ajdodlarimizning tavallud kunlarida ham, boshqa paytlarda ham tez-tez o'tkazib turiladi. An'anaga aylanib qolgan bunday anjumanlar chinakamiga bayramga aylanib ketadi.

Samarqandlik jadidlar faqatgina ilm-ma'rifatni emas, balki eng avval insoniylikni, mehr-oqibatni ulug'ladilar. Ular "o'zbek xalqining keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratganlar"[3.240], qiyinchilik bilan hayot kechirishgan bo'lsalar-da, ma'naviyatni doimo boshi uzra ko'tarib va ardoqlab kelganlar.

"Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi", deb ta'kidlagan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) Turkistonda birinchilar qatori ta'limning yangi metodiga asoslangan jadid maktablari tashkil qildi, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratdi, yangicha ta'lim va madaniyatni targ'ib qildi, o'lkada maorif taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi, o'quvchilarni yangicha fikrlashga, ilm-ma'rifatga chorlaydigan badiiy asarlar yozdi.

Samarqandlik yana bir alloma, muallim, muharrir, jurnalist, noshir, mutarjim, aktyor, rejissyor, ko'p tilni bilgan, besh yuzdan ortiq asar yozgan, tarjimalar qilgan Sayid Rizo Alizoda haqida ilmiy tadqiqotlar kamligini ta'kidlash joiz. U 1887 yil 15 fevralda Samarqand shahrida tug'ildi, 1945 yil 24 dekabrda Rossiyaning Vladimir shahri turmasida vafot etdi. Musulmon urf-odatlariga bag'ishlangan "Nizomnoma" (1904), musulmon xalqlarini birdamlikka chaqiruvchi "Risolatul ettihodiya" (1907), diniy qadriyatlarga doir "Din vojiblari" (1914), o'zbek tilidagi alifbo - "Birinci yil" (1917), 1923-1934 yillarda "Islom tarixi", "Madaniyati islom", "Shahodati nabavi", "Saodat asri" (islom paydo bo'lgan asrni u shunday atagan) kabi asarlar, "Turkiston tarixi" (Bartolddan tarjima), "Rossiya tarixi" (Karamzindan tarjima), shuningdek, "Xitoy tarixi", "Yaponiya tarixi", "Koreya tarixi", "Yevropa tarixi" kabi tarjimalarni chop ettirgan [2.9-10].

Bulardan tashqari, Mahmudxo'ja Behbudiy bilan hamkorlikda "Samarqand" (hozirgi "Zarafshon"), "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi" gazetalari, "Oyina" jurnalini tashkil etish, yangi usuldagi maktablar ochish, unga darslik va qo'llanmalar yozish borasida faol ish olib borgan, yangicha madaniyat va ta'limni targ'ib qilgan.

Samarqandlik ma'rifatparvar Sayid Rizo Alizoda haqida G'aybulloh As-Salom, Begali Qosimov, Salohiddin Hayitov, Saydi Umirov, Farmon Toshev kabi

olim va ijodkorlar maqola, tadqiqotlar yozishgan bo'lsa-da, uning ijodi mukammal o'rganilmagan. Sermahsul ijodkor bo'lgan Sayid Rizo Alizodaning boy ma'naviy merosi haqida ko'p gapirish mumkin. Ammo uning insoniy fazilatlarini, mehr-oqibatli va saxiy, bir so'z bilan aytganda, yuksak ma'naviyatli inson bo'lganligi haqida ko'pchilik bilmasligi mumkin. Alizodashunos olimlar, Samarqanddagi Alizoda mahallasi oqsoqollari va mutafakkirning avlodlari bilan suhbatlardan buni anglash mumkin. Adabiyotshunos olim, publisist Saydi Umirovning ta'kidlashicha, "Sayid Rizo Alizoda tariximizning o'qilmagan, endi o'qilayotgan, istibdod yillari unutilgan, ro'yxatlardan nomi o'chirilgan, istiqlol yillari qadri tiklangan, o'rganilgan, hali to'liq o'rganilishi kerak bo'lgan oq sahifalaridan" [4.226].

Sayid Rizo Alizoda tinim bilmay ishlagan. O'zi yozgan kitoblar, qo'llanmalar, darsliklar, bir necha tillarda yozgan maqolalaridan tashqari xitoy, yapon, koreys xalqlari tarixini, jahon mumtoz adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga tarjima qilgan, muharrir va noshir sifatida keng ko'lamda faoliyat olib borgan. Shunga yarasha oladigan maoshi ham, harqalay, kam bo'lmagan. Ko'pincha ishdan qaytayotgan paytlarda do'konga kirib, ikki-uch kilogramm konfet va boshqa shirinliklar xarid qilar, uyga kulguncha ularni yo'lda uchragan bolalarga tarqatib kelar ekan.

Bir kuni alloma ishdan uyga qaytayotganda yo'lining chekkasida yupun kiyingan, eski samovar sotib o'tirgan ayolga duch keladi. Ayol bir burda non topish, bolalarini ochlikdan asrab qolish ilinjida kelganligini aytib, samovarni sotib olishni iltimos qiladi. Alizoda samovarning qopqog'ini ochib, uning ikki-uchta teshigi borligini ko'radi. Cho'ntagidan pul chiqarib, ayolga beradi-da, "mana bu pulning bir qismiga samovarni ta'mirlang, uni uyingizga olib borib bolalaringizga choy qaynatib bering" deydi. Ayol xursand bo'lganidan allomaga rahmatlar aytib, duo qiladi.

Taniqli alloma va ma'rifatparvar Sayid Rizo Alizoda mehr-oqibatli, saxovatli inson bo'lishi bilan birga g'oyat adolatli, pok iymonli va nihoyatda halol odam bo'lgan. Piyoda yurishni odat qilgan alloma bir kuni uyga qaytayotganda ko'chadan ro'molga o'ralgan tuguncha topib oladi. Anchagina pul tugilgan ushbu tugunchani uyiga olib keladi va ertasi kuni "Samarqand" gazetasi orqali e'lon chiqaradi, odamlar gavjum yashaydigan ikki-uch joyga ham e'lon yozib osib qo'yadi. E'londa pulning qiymati va boshqa ayrim belgilarni yozmay, o'zining manzilini ko'rsatadi. Bir necha kundan keyin e'lon haqida eshitgan bir onaxon Alizodaning uyini topib keladi. Ayol ro'molchani rangi va boshqa belgilarni, shuningdek, pulning qiymati uch yarim ming so'm ekanligini aytgach, uni birgalikda sanab ko'rishadi va alloma pulni egasiga qaytaradi. O'sha paytlarda ot yoki eshagi bor odam boy-badavlat hisoblanar edi. Uzoq Motrit mahallasidan piyoda kelgan horg'in ayol minnatdorchilik ramzi sifatida allomaga pulning bir qismini taqdim etadi. Alloma esa pulni olmay, onaxonni faytonga o'tqazib, uyiga kuzatib qo'yadi.

Albatta, samarqandlik jadidlarning ma'naviy yetukligi va insoniy fazilatlarini to'g'risida faxrlanib hikoya qilish mumkin va buning adog'i yo'q. Bunday ibratli

merosdan bugungi kunda – yangi jamiyatning ma'naviy poydevorini barpo etishning muhim sharti bo'lgan yangi O'zbekiston fuqarosi – barkamol avlod tarbiyasida keng foydalanish tarbiyaviy ishimizning muhim yo'nalishi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi", 2020 yil 25 yanvar.
2. Alizoda F. Sayid Rizo Alizoda. - T.: "ABU MATBUOT-KONSALT", 2011.
3. Djabbarov I. Uzbeki: etnokulturnyye traditsii, byt i obraz jizni. – T.: "Shark", 2007.
4. Umirov S. Sehrli va mehrli so'z. - T.: "Bodomzorinvest" nashriyoti, 2018.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY UY-MUZEYINI BILASIZMI?

Axmedov Gulmamat Nurmamatovich
Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi mudiri

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyida tashkil qilingan ekspozitsiyalarida namoyish etilayotgan ekspонатlar haqida va mintaqadagi ma'rifatparvarlar haqida fikr yuritilgan. Xususan, muallif tomonidan Samarqandda jadidchilik harakati namoyandalarining ma'rifiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Muzey, ekspozitsiya, ekspонат, katalog, noshirlik, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, yangi usul maktablari, milliy tafakkur, ziyolilar, Turkiston, Turkiston Muxtoriyati.

"Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev

"Yangi O'zbekiston muzeylari" qatorida Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi ham yangi tashkil etilgan muzey hisoblanadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning o'rtaga tashlagan siyosiy, ma'rifiy, madaniy g'oyalari bir asrdan keyin ham millatga xizmat qilmoqda. Shuning uchun uning muborak nomi qayta tiklanmoqda, asarlari izlanib, darsliklarga kiritilmoqda, haykallar qo'yilmoqda, ko'chalarga nomlari berilmoqda. Va nihoyat, Mahmudxo'ja Behbudiyga 2020-yil 30-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-sonli Qarori bilan Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi filiali sifatida Samarqand shahridagi Mir Said Baraka ko'chasi 47-uyda Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi 2021-yil 18-oktabrdan rasman o'z faoliyatini boshladi. Ushbu muzeyda tashkil etilgan ekspozitsiyalar ilmiy konsepsiyaga asoslangan bo'lib, unda M.Behbudiy hayoti va ijodi, jadidchilik tarixi, XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy voqeyliklar, muzey ashyolari, xujjatlar, foto nushalar va boshqa ashyolar namoyish etilmoqda.

"Yangi O'zbekiston poydevorini qurish jadidlarning boy ilmiy merosini anglashdan boshlanadi" deganlaridik Bu muzey bugungi kunda yurtimiz xalqiga, yoshlariga, pedagoglariga, va ziyo izlagan qalblar uchun o'z ilmiy ziyo nurini taratib kelmoqda. Bundan tashqari Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi katalogi nashir etilib mazkur katalog tarixchilar, muzeysunoslar, sanatshunoslar va keng jamoat uchun mo'ljallangan. Bu katalogga kiritilgan eksponatlar ham bevosita Mahmudxo'ja Behbudiy va u yashagan davr bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, Behbudiy "Turkiston jadidlarining otasi" degan sharaflı unvonga sazovor bo'lgan, chunki u Samarqandda o'ziga xos ilmiy-ma'rifiy muhit yaratgan. Masalan, uning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Said Ahmad Siddiqiy bilan birgalikda Samarqand atrofidagi Halvoyi mahallasida, Abdulqodir Shakuriy bilan birgalikda Rajabamin mahallasida yangi maktablar tashkil etiladi. "Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodi" ekspozitsiyasida namoyish etilayotgan "Muxtasar tarixi islom", "Alifboi maktabi islomiya", "Amaliyoti islomiya", "Matqali jug'rofiyaumroni" asarlari ana shu yangi usul maktablari uchun darslik sifatida yaratilgan.

Ekspozitsiyada Behbudiy bilan bir davrda ijod qilgan jadidlarning asarlari ham namoyish etilmoqda. Bular Said Vasliy qalamiga mansub "Madaniyat va zoifa shariyati islomiya", Said Ahmad Siddiqiy qalamiga mansub va Abdulqodir Shakuriy tomonidan chop etilgan "Anjumani arvoh", Munavvarqori qalamiga mansub "Islom aqidolari", Abulqosim Oxunzoda Ganjiyning "Risolai ittihodiya" asari, Abduqodir Shakuriyning "Jomi-ul hikoyot" asarlaridir.

Olimning xizmatlari o'z davrida munosib baholanmadi. Mustaqillik sharofati bilan o'zlikni anglash, ma'rifatparvar olimlarning mehnatlarini munosib baholash imkoniyati paydo bo'ldi. Behbudiy ham o'z davrining buyuk ma'rifatparvarlari Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar bilan birga 2020-yil 1-oktabr "O'qituvchilar va murabbiylar kuni arafasida "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Kiyingi ekspozitsiya "Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodxonasi" deb nomlanib Behbudiy ijodxonasini ko'rsatib berish uchun taqdim etilgan stol, stul, krislo, shkaf, devor soati XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid. Shuningdek, ekspozitsiyada Behbudiy va uning zamondoshlari tomonidan keng foydalanilgan odatiy uy-ro'zg'or buyumlari: mis kuza, kitob o'qish uchun lavh, qalamdon, kitob tashish uchun teridan ishlangan sumka va muqaddas quron kitobini saqlash uchun sumkacha ham namoyish etilmoqda. 1903-yildan boshlab ishlab chiqarila

boshlangan va Turkistonda keng tarqalgan "Kontinental" yozuv mashinkasi ham namoyish etilmoqda. Ayni davrda rasm bo'la boshlagan telefon aparati va stol soati ham ijodxona intererini bezab turibdi.

Behbudiyning zamondoshlari, safdoshlari va shogirdlari bo'limida alohida o'rinni archa qipig'i va tut daraxtidan qo'lda yasalgan globus egallaydi. Uning yuzasida lak bilan qoplangan materiklar, okeanlar va dengizlar, tog'lar va turli mamlakatlarning konturlari aks ettirilgan. Ekvatorning keng chizig'ida o'n ikkita burj belgisi tasvirlangan. Ishlab chiqarilgan yili (1313/1895) va muallif o'z davrining eng bilimdon peshqadamlaridan biri, Xo'ja Yusuf Mirfayazov (1842-1924) ning ismi to'rtta burchakda arab yozuvida ko'rsatilgan. Globus Mahmudxo'ja Behbudiy zamonida boshqa fanlar qatorida geografiya va kartografiya ham rivojlanganligining belgisidir.

Vitrinalarning birida XIX asr oxiri XX asr boshlarida vatanimiz hududida foydalanilgan asosiy musiqa asboblari doira, qashqar va afg'on ruboblari, nay namoyish etilgan. Musiqa asboblarning xilma-xilligi shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo xududida Eron, Qashqar, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va boshqa mintaqalar musiqiy an'analari ta'sirida o'ziga xos musiqa madaniyati shakllangan. Shuningdek, XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholining o'ziga to'q, ziyoli qatlami orasida urf bo'lgan kiyim-kechaklar namoyish qilinmoqda. Ular, yashil atlasdan qo'lda to'qilgan yaktak, tik yoqali paxtadan tikilgan ko'ylak, binafsharang baxmaldan tikilgan do'ppi, qizil, oq va moviy chiziqlarga ega salla, binafsharang, ko'k va yashil rangli chiziqlarga ega beqasamdan tikilgan ayollar choponi, gul naqshli qo'lda ishlangan ipak abra matodan tikilgan ayollar ko'ylagi, charmdan ishlangan erkaklar va ayollar oyoq kiyimlaridan iboratdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy noshirlik yo'nalishda ham samarali ijod qilgan hamda bu yo'nalishda o'ziga xos maktab yaratgan. Navbatdagi ekspozitsiyada olim tomonidan XX asr boshlarida nashr qilingan "Samarqand" gazetasining 45-soni va "Oyna" jurnalining bir necha sonlari namoyish etilmoqda. Muzeyning noshirlik xonasi intererida asosiy e'tibor Behbudiyning noshirlik faoliyatini yoritishga qaratilgan. Turkistonda nashr ishlari bilan dastlab podsho Rossiyasi statistika qo'mitalari shug'ullangan. Shu sababdan 1868-yildan 1910-yilgacha nashrlarning asosiy qismini rus tilidagi gazetalar tashkil etgan.

XX asr boshida, aniqrog'i, 1913-yildan Behbudiy ham matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Shu yil aprel oyidan rus-o'zbek va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada "Samarqand" gazetasini chiqaradi. 45 sonda keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to'xtagan. O'sha yilning 20-avgustidan u "Oyna" jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik jurnal asosan o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilardi. "Nashriyoti Behbudiya" nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochadi. Fitratning "Bayonoi sayyohi hindi" asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etadi.

Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Shuningdek, muzeyda noshirlik faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ashyolar ham namoyish etilmoqda. Ular

“Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnali, “Noviy Samarkand” (“Yangi Samarqand”, “Samarqandi Nav”) gazetalarini nashr etish uchun Samarqand viloyati harbiy gubernatori nomiga yozilgan ariza namunalari, Samarqand viloyati harbiy gubernatorining nashrlarga ruxsat beruvchi guvohnomalardan iborat hujjat namunalari va XIX asr oxiri XX asr boshlarida Germaniyaning “FORSTE & TROMM LEIPZIG” fermasida ishlab chiqarilgan Eron orqali Turkistonga olib kelingan qo‘l yordamida ishlatiladigan litografiya dastgohi namoyish etilmoqda.

Muzey ekspozitsiyasida Behbudiy ning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarini aks ettirishga e’tibor berilgan. Behbudiy 1917-yilgi fevral va oktyabr oylaridagi Rossiya imperiyasi va jahon siyosiy sahnasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ziyraklik bilan kuzatadi va vatanparvar inson sifatida Turkistonning kelajagi haqida chin dildan qayg‘uradi. U bor kuch-g‘ayratini millatni o‘yg‘otishga bag‘ishladi. Behbudiy publitsistik maqolalarida tarix faniga alohida urg‘u berib, “Moziy istiqbolning tarozusidir”, degan edi. “Kutubxonai Behbudiya”ning ham 70 foizdan ko‘p kitoblari tarix faniga tegishli edi. O‘zi ham tarix va geografiya fanlari bilan jiddiy qiziqib, bir qator maqolalar va kitoblar yozgan.

Behbudiy siyosiy arbob sifatida Rossiya imperiyasi doirasidagi Rossiya musulmonlari ittifoqi partiyasi qurultoylarida faol ishtirok etdi. Rossiyadagi mavjud yirik siyosiy partiyalarni o‘rganib, ulardan sotsial-demokratlarni, ayniqsa, bolsheviklarning qarashlarini tanqid ostiga oladi va ularni hatto, xavfli oqim sifatida qoralagan edi. U monarxiyachilar partiyasi qarashlaridagi mahdudlik sababli ularga ham qarshi chiqadi, bosiqlik bilan kurash olib borib, barcha musulmonlarni birlikka chaqiradi. U o‘sha murakkab davrda Muvaqqat Hukumatni turkistonlik musulmonlar bilan teng huquqli munosabat olib borishga chaqirdi va ular uchun hukumatdan ajratiladigan o‘rinlar soni uchdan biridan kam bo‘l-masligini talab qiladi.

1918-yilda Behbudiy “Ittifoq” jamiyatining sa’y-harakati bilan Samarqand musulmon maorif sho‘basiga mudir etib tayinlanadi. Biroq, tashkilotdagi yevropalik vakillar unga ishlash uchun hech qanday imkoniyat bermadilar. Ayniqsa, Osipov isyonidan so‘ng avj olgan bosh-boshdoqliklar natijasida zo‘ravonlik lar kundan-kunga kuchayadi. Behbudiy o‘zining Toshkentga so‘nggi safari davomida ham amalda hech qanday ijobiy natijaga erisha olmaydi. U hech bir iloji qoladi va barcha ishlarini tashlab, sog‘lig‘ini bahona qilib, sho‘rolarga xizmat qilishdan voz kechadi.

Sanab o‘tilgan tarixiy jarayonlar va bevosita Turkistondagi jadidchilik siyosiy qarashlarini aks ettiruvchi ashyolar varaqalar, broshyuralar, Behbudiyni va boshqa ma’rifatparvarlarning o‘z qarashlari bayon etilgan asarlari ham muzeyda keng namoyish etilmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyida tashkil etilgan ekspozitsiyalarda namoyish etilayotgan eksponatlarning uch (o‘zbek, rus, ingliz) tilde katalog holida ham ko‘rishingiz mumkin. Bundan tashqari katalogda Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyining tashkil etilishi bilan bog‘liq malumotlar o‘rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga murojaatnomasi. // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. <https://president.uz/uz/lists/view/3860>
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: "Akademya", 2021.
4. Naim Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy. - Toshkent. "O'zbekiston", 2011.
5. Nusrat Rahmat. Jadid. – Toshkent: "Noshirlik yog'dusi" nashryoti. 2020.
6. Abdurashidov Z., Egamqulova N. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning "Oyna" jurnali. – Toshkent, 2019.
7. Rajabov Q. Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari. - Toshkent: "Yangi nashr", 2015.
8. Alimova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy. Millat ehtiyojiga baxshida umr. - Toshkent: "Navruz" nashryoti. 2022.
9. Rahmatova D. Mahmudxo'ja Behbudiy asarlari lug'ati. Ikki jildlik. – Toshkent: "Fan bulog'i" nashryoti. 2021.
10. Zarafshonning Behbudiyisi. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Akram Haydarov. – Toshkent: "Sahhof", 2020.
11. Mahmudxon Yunusov. Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi. Maqola. Moziydan sado. 2022.

ANDIJONDA JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI

Abdullayeva Nasiba Arabovna

*Andijon davlat pedagogika instituti Tarix fanlari bo'yicha falsafa fan doktori,
PhD,*

*Oripova Shaxnoza Qodirjon qizi
ADPI 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijonda jadidchilik harakati tarixi haqida bayon etilgan. Shuningdek, Andijonda jadidchilik harakati namoyondalari va ilk jadid maktabi, jadidchilik harakatining yoyilib borishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, tarix, ta'lim, teatr, nashriyot, gazeta, qatag'onlik, siyosat.

Аннотация: В данной статье описывается история джадидистского движения в Андижане. Также даны сведения о представителях джадидского движения в Андижане, первой джадидской школе и распространении джадидского движения.

Ключевые слова: джадидизм, просвещение, история, образование, театр, издательское дело, газета, репрессии, политика.

Abstract: *This article describes the history of the Jadidist movement in Andijan. Also, information about the manifestations of the jadid movement in Andijan, the first jadid school, and the spread of the jadid movement is presented.*

Key words: *jadidism, enlightenment, history, education, theater, publishing, newspaper, repression, politics.*

XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bolgan va keyinchalik butun Turkiston xalqlari tarixida alohida o'rin tutgan jadidchilik harakati Sharq ma'naviy hayotida haqiqiy madaniy inqilob yarata olgan kuchli ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida iz qoldirdi.

Jadid so'zi arabcha so'z bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Jadid atamasi yangilik tarafdorlarini, yangi g'oyalarni ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo'llanilgan. XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo'layotgan ulkan madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo'lsada, Turkiston o'lkalariga kirib kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, "gazeta o'qig'uvchilarni" mullalar "jadidchi" nomi bilan [1, 27-bet] atar edilar. Jadidlar Usmonli Turkiyadagi "Ganch (yosh) turk"lar tashkilotlari tasirida "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Yosh turkistonliklar" degan nomlarda faoliyat olib borishgan [2, 2-bet].

Jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan g'oyalar, yangi yo'nalish va yangi usul maktablari, teatr va nashriyot sohasidagi muhim islohotlar aholi ortasida ma'rifat o'chog'ini yoqishda, Vatan va millat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Ma'rifatparvar va siyosatchi Ismoil Gaspirali tomonidan asos solingan jadidchilik harakati XX asrboshlarida bizning yurtimizda ham keng tarqala boshlaydi. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi katta shaharlar qatori Andijondan ham yangi asr ma'rifatparvarlari jadidlar yetishib chiqa boshlaydi. Manbaalarda keltirilishicha, 1910-yilda O'rta Osiyo jadidlarining eng yoshi Abdulhamid Cho'lpon bo'lib, u bu davrda 13 yoshda bolgan [3, 89-bet].

Keyinchalik o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo'lib yetishgan Cho'lpon 1897-yilda Andijonda savdogar oilasida dunyoga kelgan. Cho'lpon avval eski maktabda, so'ngra madrasalar va rus-tuzem maktabida tahsil olib, arab, fors va rus tillarini mukammal o'zlashtiradi. Mutolaa yo'li bilan esa turk, nemis va ingliz tillarini o'rganadi. Sharq va G'arb ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan oziqlanadi. Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Umar Hayyom, Alisher Navoiy kabi buyuk so'z ustalarini ijodini mehr bilan o'rganadi. Cho'lpon dunyoqarashi va ijodining shakllanishiga asr boshlaridagi demokratik inqiloblar hamda jadidchilik harakati katta ta'sir ko'rsatgan. Cho'lponning ijodi 1913—1914 yillardan boshlangan bo'lib, u avval «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat «Cho'lpon» (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qildi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida o'z xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo'shadi. Cho'lpon yetuk lirik shoirgina emas, balki «Novvoy qiz», «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola» kabi o'nlab hikoyalar, «Kecha va kunduz» (1936) kabi ajoyib

roman ham yaratgan iste'dodli adibdir. Cho'lpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriylar kabi qatag'onlik davrining qurboni bo'lgan. U 1937 yilning 14 iyulida qamoqqa olinib, 1938 yilning 4 oktyabrida otib tashlangan. Cho'lponning asarlari uzoq vaqt tanaffusdan keyin 1991 yili «Yana oldim sozimni» nomi bilan nashr etildi. Hozirgi kunda Cho'lpon nomida nashriyot, ko'cha, mahalla, kutubxona va maktablar bor. Vafotidan so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va «Mustaqillik» ordeni (1999) berilgan [6].

Jadidchilik harakatining kech yoyilib borishi Rossiya imperiyasi tomonidan qattiq qarshilikka uchrashiga qaramasdan jadidlar turli sohalarga kirib, ularni yanada rivojlantirib, aholi o'rtasida ma'rifat tarqatishda davom etadilar. Adabiyot, san'at, teatr san'ati, turli davriy nashrlar orqali keng ommaga mustaqillik, yangilanish, adolatlilik, ma'rifat g'oyalarini singdirib boriladi. Avvalo "yangi usul" maktablari ochilib, yangi dasturlarda bilim berish yo'lga qo'yiladi. Buxoro, Qo'qon, Toshkent shaharlarida "yangu usul" maktablari ochilishi bilan Andijonda ham 1899-yilda ma'rifatparvar Shamsiddin domla boshchiligidagi "jadid" maktabi ochilib faoliyat yurita boshlaydi.

Jadidlar ma'rifatchilik faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri teatr san'ati bo'lib, asosiy shoh asar "Turkiston jadidlarining otasi" hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi hisoblangan. Andijon jadidlari ham teatr orqali ma'rifat tarqatish g'oyasiga e'tibor qaratib, 1914-yilning 6-iyunida "Padarkush" asarini sahnaga qo'yadilar.

Maktablar, teatr namoyishlari bilan bir qatorda jadidlarning muhim yo'nalishlaridan biri nashriyot sohasi bo'lib, ilk "Taraqqiy" gazetasi nashr etilgan kun hozirga qadar yurtimizda OAV kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Jadidlar Toshkent Buxoro shaharlarida ko'plab gazeta va jurnallar nashriga asos soladilar. Lekin mustabit tuzum aholining taraqqiyotiga rivojlanishiga qattiq qarshilik ko'rsata boshlaydi.

Mustamlakachilar tomonidan Toshkentda chop etiladigan jadidlarning «Sadoyi Turkiston» gazetasi yopib qo'yilgach, taniqli jadid Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev Toshkentdan Andijonga keladi. Uning Andijonga kelishi ham hukmron mustabid hukumatning milliy taraqqiyparvarlarga qarshi olib borgan ta'qib va tazyiqlar o'tkazish siyosatining natijasidir. Milliy matbuotimizning qaldirg'ochlari «Taraqqiy», «Hurshid», «Shuhrat» va boshqa gazetalarning hech qancha soni chiqmasdan yopib qo'yilishi, chor ma'murlarining o'lka xalqlarini har jihatdan asoratda saqlashga intilib olib borgan siyosatining bir ko'rinishi edi. Xuddi shunday ayanchli qismat «Sadoyi Turkiston» gazetasi boshiga ham tushdi.

Shundan so'ng muharrir Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev gazetani Andijonda chiqarishga harakat qildi. Biroq, Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Asadullaxo'jayevning gazeta chiqarishiga ruxsat bermaydi.

1916-yilga kelib jadidlar tomonidan Andijon shahrida «Taraqqiyparvar» jamiyati tuzildi [4]. Bu davrda o'lka jadidlarining siyosiy faolligi ancha oshgan bo'lib, ular o'z yig'ilishlarida, gazeta va jurnallardagi maqolalarida ma'rifiy mavzular bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ham ko'tarib chiqa

boshlaganlar. Andijondagi bu jamiyat taniqli jadid Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev rahbarligida tuzilgan bo'lib, bu haqda chor ayg'oqchilari ham tez orada xabar topadilar.

Farg'ona viloyati harbiy gubernatorining farmoyishi asosida Andijon uyezdida «Taraqqiyparvar» jamiyati haqida yashirin so'rov va tekshiruvlar o'tkaziladi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, tashkilot safida mahalliy millat vakillaridan tashqari, Chaykin, Shapiro va Oxun kabi shaxslarning borligi, tashkilot rahbarligi Asadullaxo'jayev qo'l ostida ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Uchastka pristavi Birshertning ta'biricha, jamiyat tashkiliy jihatdan yaxshi uyushtirilgan.

Butun Turkiston o'lkasida bo'lgan kabi, Andijonda ham mustamlakachi ma'murlar jadidlarni o'zlarining eng xavfli dushmanlari deb bilar edilar. Taraqqiyparvarlar xalq orasida tashviqot-targ'ibot ishlarini yaxshi yo'lga qo'yganlar.

Xalq orasida o'z nufuziga ega bo'lgan mahalliy boylardan Ahmadbekhoji Temirbekov, Poshshaxo'ja Umarxo'jayev, uyezd sudyasi tarjimoni O'razaliyev Akbarali Boytursunovich va boshqalar ushbu jamiyat a'zolari edilar [5]. Ular turli usullarda xalqning ma'rifati, dunyoviy ilm-fanlarni o'rganishi, xalqlarni dunyo talablari doirasida ommaning rivojlanishi uchun kurashning turli yo'llarini izlab topib millat taraqqiyotiga hissa qoshganlar. Bu esa jadidchilik harakatining asosiy maqsadi - xalqni ma'naviy-marifiy jihatdan yuksaltirish orqali milliy ozodlikka erishish edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jadidlar turli xil qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning eng murakkab, o'ta mas'uliyatli davrida xalqning, millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish, birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham, bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar. Butun Turkiston jadidlari qatori Andijon ma'rifatparvarlari ham o'z yo'nalishida Vatan taraqqiyotiga, millatning yorqin kelajagiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Avloniy A. Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T: Ma'naviyat, 1998, 288-bet.
2. Solijon Ergashevich Ibragimov. Jadidchilik harakati. Scientific Journal Impact Factor, April, 2021
3. Istoriya Uzbekistana uchebnik. – T: Sharq, 2019, 89-93 bb.
4. Alimova D., Rtveladze E. Ocherki po istorii gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Sharq, 2000, 191b.
5. Ziyoyev H. Jadidlar harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini(XIX asr oxiri XX asrning boshlari) ((Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. -T.: Universitet, 1999.- B.9-22.
6. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/chulpon/>

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI YO'LBOSHCHISI (XIX asr oxirgi va XX asr boshlari)

Axmadoy Olimjon Shodmonovich

BuxDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiyasi: Ushbu maqola Turkiston jadidchilik harakati yo'lboshchisi Mahmudxo'ja Behbediyning Maorif yo'linda amalga oshirgan ishlari. Maorifning rivojida say harakatlari. Turkiston bolalarini ilmsiz bo'lib qolmasliklari uchun olib brogan harakatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mutafakkir, Maorif, ishlayturg'on, muallimlar, yordam etingiz, nifoqni, Turkiston, bolalar, ilmsiz, ozodlik, Buxoro, tuprog'i, tezlik ila yo'l boshlangizlar, tezlik ila yuzaga.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri va uning yetuklik darajasini belgilovchi omil - bu ajdodlardan kelayotgan g'oyaviy meros hisoblanadi. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an'alarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz. Ajdodlarimizning g'oyaviy merosini o'rganish va bu borada fuqarolar ongini shakllantirish masalalariga aynan O'zbekistonda alohida e'tibor berildi. Binobarin, fuqarolar dunyoqarashini kengaytirish va milliy g'ururini o'stirishda tarixiy shart-sharoitlarni o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, O'zbekistonning Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. aytganlaridek, «o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi».

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev kabi ma'rifatparvar, adolat tarafdori bo'lgan namoyondalar o'sha davrda erkinlik, tenglik, adolat, davlatni boshqarish, hokimiyat masalasida ham o'zlarining ilg'or siyosiy-huquqiy qarashlariga ega bo'lgan allomalar hisoblangan. Shu bilan birga, yuqorida nomi keltirilgan ko'pchilik mutafakkirlarning ilmiy merosi sobiq sho'ro tuzumi davrida asossiz ravishda unutilgan va deyarli o'rganilmagan. Holbuki, mazkur mutafakkirlar o'z davrida xalqimizning siyosiy va huquqiy tafakkurini boyitishga beqiyos hissa qo'shganlar.

Mahmudxo'ja Behbudiy va uning hamkasblari taqdiri qanday ayanchli xotima topganligi hammaga ma'lum. Biroq, shuni bilish kerakki, Behbudiyga o'xshagan hayoti, qismati fojiali va qayg'uli yakun topgan mard va jasur insonlar kam topiladi. Ularni jazolash, tahqirlash, qiynoq, azob-u, uqubatga solish yoki qatl qilish bilan murod hosil bo'lmaydi. Odamlar ba'zan bunday insonlarga ularning jasoratiga, g'oyalariga beixtiyor bog'lanadi. Chunonchi, vatandosh bo'lmasa, vatan ham bo'lmaydi. Har qanday millat tarixi va kelajagi ko'p jihatdan, ana shu tuyg'uning qanday shakllanganiga ham bog'liqdir. Uning yuksak pardalardagi innikosi millatni o'ziga ishonish, hech narsadan hadiksiz yashashga o'rgatadi. Vatandoshlik tuyg'usi qalblardan qalblarga yo'l ochadi, mushtarak maqsadlar,

g'oyalar va ozodlik sururini hayot mazmuniga aylantiradi. Mahmudxo'ja Behbudiy shunday vatandoshlar toifasidandir. U o'z umrining oxirgi lahzalarigacha ham bu tuyg'udan voz kechmadi. Uning qaddini tik saqlagan, vujudini qamragan vatandoshlik tuyg'usi oldida har qanday razillik, qotillik, juda past, xunuk va jirkanch ko'ringan edi. Shuning uchun ham u hech narsani o'z maqsad va orzularidan ustun ko'rmadi. Darhaqiqat, hubba-l-vatani min al-iymon, uning iymoni butun sevgisi ana shu e'tiqod hosilasi edi.

Sizlarga vasiyat qilaman. Maorif yo'linda ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizlar. Maorifg'a yordam etingiz. O'rtadan nifoqni ko'taringiz. Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar. Har ish qilsangiz jamoat bilan qilingizlar. Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar. Buxoro tuprog'iga tezlik ila yo'l boshlangizlar. Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar. Bu Mahmudxo'ja Behbudiyning so'nggi vasiyati, bo'g'zida qotgan dil afg'oni edi.

Maxmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (xijriy 1291, 10-zulxujja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785-1880) Samarqandga kelib qolgan.

1894-yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug'illanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi. Yosh Maxmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarfu naxvini kichik tog'asi Odildan o'rganadi. 18 yoshidan qozixonada mirzolik qila boshladi.

Darvoqe, Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ham ma'lumotlar nihoyatda kam. Uning zamondoshlari bilan bo'lgan suhbatlaridan ayon bo'ladiki, Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, so'ngroq Buxoroda tahsil ko'rgan. An'anaviy madrasa ta'limini puxta egallagan Behbudiy 1915 yilda etnograf T.Andreyev savollariga javob berar ekan, madrasa taxsilini alohida tilga olgani ma'lum. Xullas, an'anaviy taxsil, so'ng esa o'z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari-qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi.

Taxmin qilish mumkinki, yosh Maxmudxo'ja dunyoqarashning shakllanishida jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspiralinining xizmati katta bo'lgan. Sharqu-g'arbning tarix va madaniyatini chuqur bilgan, arab, fors tillari bilan bir qatorda ingliz, nemis, fransuz tillarida ham erkin so'zlasha olgan bu kishi 1881-yilda rus tilida "Rossiya musulmonligi" kitobini yozadi. Bu kitobda u, Rossiyada yashovchi barcha musulmonlarning o'zligini saqlab qolishining yo'li bitta, u ham bo'lsa, ma'rifat va u orqali mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy xayotiga tengma teng aralashishga erishmoqdir, degan fikrni ilgari suradi. Bu yo'ldagi birinchi qadam "Usuli jadid", "Usuli savtiya" nomlari bilan tarix kirgan yangi maktablarni tashkil qilish bo'ldi. "Al-on Rusiyadagi minglar ila nizomlik maktablar va sobiq nashr bo'lgan va hozir fa'lan nashr bo'lub turg'on yuzlar ila islomiy majalla va jaridalarining barcha muharrir va muridlari ul zoti sutuda sifatni shogirdlaridurlar"- deb yozgan edi Behbudiy 1914-yilda.

1884-yilda Ismoilbekning mashhur "Tarjimon" gazetasiga obuna bo'gan 1000 kishining 200 tasi Turkistondan edi.

Ismoilbek 1892-yilda Turkistondagi maktablarni isloh qilish, "Usuli savtiya"ni taklifi bilan general-gubernator N.O.Rozenbaxga murojaat etdi. Javob ololmagach, 1893-yil Toshkentga keladi, Samarqand, Buxoroda bo'ladi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, dastlabki yangi usul maktablarini ochishga muvaffaq bo'ladi. So'ng 1897-yilda yana Turkistonga keladi.

Barcha narsaga qiziquvchan Maxmudxo'janing Yaqin va O'rta Sharqda nomi tanilgan Ismoilbek Gaspiralinining Turkiston safarlaridan behabar qolishi qiyin edi. To'g'ri, Ismoilbek kelib Turkistonda ochib ketgan yangi maktablar uzoq davom etmadi, g'ayrisar'iy sifatida mutaassiblar tomonidan yopildi. Lekin "Tarjimon"ning mushtariylari ko'payib bordi. Ustoz-shogird munosabatlari samimiy do'stlikka atlandi. Behbudiy o'z xotiralarida ustoz bilan uchrashuvlarini ixlos va muhabbat bilan tilga oladi.

1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. "1318 sanai hijriyasi tavofi Baymullog'a Kavkaz yo'li ila Istambul va Misr al-Qohira vositasi ila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zulib edi", - yozadi Behbudiy bu haqda. Dunyo ko'rishi izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shukuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topdi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning "Risolai asbobi savat" (1904), "Risolai jug'rofiyai umromiy" (1905), "Risolai jug'rofiyai Rusiy" (1905), "Kitobat ul-aftol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi Islom" (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi.

1903-yilda Halvoiyda qurilgan maktab binosi hozir ham saqlanib kelmoqda. Shukuriy maktabini esa Behbudiy 1908-yilda Samarqandga o'z hovlisiga ko'chirib olib borgan ma'lum. Toshkentda, Farg'ona vodiysida yangi maktablar tashkil topa boshlaydi. Ibrat, Munavvarqori, Avloniy, So'fizoda nomlari tilga tushadi. Bular hali kifoya emas, millat bolalarini taraqqiy topgan shaharlarga o'qishga yuborish kerak. Mirmuhsin Shermuhammedov va bir qator o'zbeklar markaziy Rusiyaga-Ufadagi "Oliya" madrasasiga yo'l oladilar. "Oliya"da o'ndan ortiq o'zbek o'qiydi. XX asrning 10-yillarda Varshavada, Olmoniyada, Moskva, Peterburgda o'zbeklar o'qigani ma'lum. Maxmudxo'ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda turkistonliklar guruhini boshqaradi va nutq so'zlaydi. 25 kunga cho'zilgan bu safar haqida Behbudiy so'ngroq shunday ma'lumot bergan edi: "1325 sanai hijriyasida Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijni Yorminkasinda milliy ishlar to'g'risida mashvarat qila turg'on majlisg'a musharraf bo'lmoq uchun O'rinburg yo'li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasi-la Nijni Novago'rid borib edim".

Mahmudxo'ja Behbudi (1875-1919-yillar) hayoti va faoliyati o'nlab tadqiqotga asos bo'ldi. Turkiston xalqlarining birinchi muftisi, jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ibotining taniqli namoyondasi, taraqqiyparvarlik harakatida oldingi safda turgan Mahmudxo'ja Behbudiyni hayoti va madaniy merosini tahlil qilgan ziyolilardan Naim Karimov, Dilorom Alimova, Begali Qosimov, Halim Sayid, Ibrohim G'ofurov kabilar birlamchi manbalarga asoslangan maqola va tadqiqotlarini xalqimiz va ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qildilar.

XIX asr oxiri-XX asr taraqqiyparvarlari orasida katta obro'ga ega bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudi safarga chiqqan o'z sheriklari Mardonqul Shomuhhammadzoda va Muhammadqul O'rinboy o'g'li bilan birga Buxoro amirligiga qarashli Shahrisabzda qo'lga olingan va Qarshiga keltirilib, Qarshi begi Tog'aybek buyrug'i bilan zindon yaqinidagi «podsholik» chorbog'ida amirning Qarshi shahridagi voliysi Nuriddin Og'aliq tomonidan 1919-yil 25-martda vahshiyona o'ldirilgan.

Mahmudxo'ja Behbudi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar bilan tanishilar ekan, «Qarshi voliysi Nuriddin Og'aliq» taqdiriga tegishli ma'lumotlarga to'la ega bo'linmadi. Bu esa ushbu masalada bizni bir maqola doirasida fikr bildirishga da'vat etdi.

BXSRning o'zbek tilidagi matbuot organi «Buxoro axbori» gazetasining 209-soni (1923-yil 3-oktyabr)da «Musofir» taxallusli bir shaxs «Mufti Behbudi va uning rafiqlarining o'chi olindi» nomli maqolasini e'lon qilgan. Gazetaning mazkur sonida «Buxoro xabarlar» rukni ostida Mahmudxo'ja Behbudiyni qabri joylashgan joy bilan bog'liq ma'lumot ham berilgan. «Buxoro axbori»ning sal oldinroq chop etilgan, ya'ni 1923-yil 21-sentyabrdagi 204-sonida «Nuriddin Xo'ja Og'aliq otildi» nomli maqola bosilgan. «Ozod Buxoro»ning 1923-yil 19-sentabr 2-sonidayoq «Behbudi viloyati» xabari e'lon qilinganligini ham ta'kidlash o'rinli bo'lardi. Arab imlosida, eski o'zbek adabiy tilida BXSR yillarida (1920-1924-yy) chop etilgan «Buxoro axbori» (1920-1923-yy) va «Ozod Buxoro» (1923-1929-yy) gazetalaridagi uch maqola atrofida ilmiy mushohada yuritishni vazifa qilib oldik.

Albatta, Mahmudxo'ja Behbudiyni vahshiyona va xiyonatkornona o'limi xalqimizni larzaga solgan. 1920 yilning aprelida ushbu tabarruk inson tug'ilgan Samarqand shahrida Buxoro amiri va uning johil amaldorlariga qarshi umumxalq namoyishi bo'lib, uning ishtirokchilari Behbudi qotillarini jazolashni amirdan qat'iy talab qilishgan. Xalqning talabi amir tomonidan inobatga olinmaganligi ushbu insonning fojiali o'limida amirlik va sovet hukumati maxfiy kelishuvi borligini ko'rsatadi. Sovet hokimiyati yillarida avj oldirilgan diskriminatsiya siyosatining tig'i Turkiston mintaqasidagi ziyollarni birin-ketin yo'qotishga ham qaratilgan edi.

1920-yil sentyabr oyi boshida amir hukumati ag'darilib, Buxoro Xalq Respublikasi tashkil topganidan so'ng, Samarqandda faoliyat yuritayotgan Mahmudxo'ja Behbudiyni shogirdlari, safdosh va maslakdoshlari uning qabrini izlab topish, qotillarni aniqlash harakatiga tushishadi. «1920-yil noyabr oyida

Samarqand yoshlari bir komissiya tuzub, Buxoro hukumati vositasi bilan bu komissiyani Qarshiga yuborub, Behbudiyning qabrini izlab topib, o'ldirilishga sabab bo'lg'on odamlarni taftish qildirmoqchi bo'ldilar. Lekin, u vaqt Qarshi hukumat doirasida ega va sohibnufuz bo'lib o'ltirg'on zot Og'oliq edi»,-degan mazmundagi ma'lumot keltiriladi gazetada.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi 9 viloyatdan iborat bo'lib, ushbu viloyatlardan biri Qarshi edi. Qarshida ushr-soliq nazorati idorasining boshlig'i bo'lgan Nuriddin Og'oliq (Nuriddinxo'ja Og'aliq Ahmadxo'ja o'g'li) «Samarqand komissiyasining» Qarshidagi faoliyatiga yo'l qo'ymaganlar. Qarshi shahridagi hukumat a'zolari esa uning xohish-irodasiga qarshi borolmaganlar. Bu haqda «Musofir» taxallusli shaxs: «Komissiya bo'lib borg'on o'rtoqlar Qarshi shahrining hukumat boshida o'ltirg'on odamlardan chunonam xafa bo'lib qaytib keldilar»-mazmunidagi fikrlarni keltiradi. Nuriddin Og'aliq amir davrida e'tiborli mansabda ishlab, Sho'ro hukumatida ham o'z mavqeini saqlab qolishiga qanday erishdi ekan? Bu hanuzgacha jumboq bo'lib qolayapti. Nuriddin Og'aliq komissiya faoliyatiga yo'l qo'ymay «yopiqlik qozon yopig'ligicha qoladi» deb o'ylagan. Lekin, BXSР hukumati taftish komissiyasi 1923-yilning kuzida Qarshi viloyati soliq idorasi faoliyatini taftishdan o'tkazadi. Komissiya Og'aliq hamda uning safdoshlari katta qonunbuzarlik va jinoyatga qo'l urganligini aniqlaydi. Nuriddin Og'aliq va uning hamtovoqlari Hoji Abdulaziz Boqiyev, Mirzo Mahmud Hoji Ibod o'g'li kabilar oliy inqilob tribunali sudiga berilgandi.

Nuriddin Og'aliq soliq idorasining boshida turganida: «hukumatning 42 ming pud bug'doyini, 20 ming oltin gazmolini o'g'irlag'on. 2000 qo'y, 20000 qorako'l terisi bo'lg'on, mehnatkashlardan 1000-2000 nafarini yarim och, yarim to'q holatda o'z yerlarida ishlatg'on... Og'aliqning qilg'on ishlarini, jabr va zulmlarini, xiyonatlarini yozib, uchig'a chiqarish mumkin emas»,-deb yozadi gazeta. Ushbu shaxsning yuqoridagi qonunbuzarlikka qaratilgan hatti-harakatlariga buyuk mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudi hayotiga zomin bo'lganligi bilan bog'liq jinoyati ham qo'shilgan.

Sud «Nuriddin Og'aliqni otishga, qolg'on ikkisini besh yilga qamoqqa olishga qaror qildi. Hukm Registonda bo'lib, 5 mingga yaqin kishi ishtirok qildi». N.Og'aliqni otish hukmi 1923-yil 19-sentabr kech soat 7.00 da ijro etilgan. Bu haqda gazeta «Behbudi va rafiqlarining o'ldirilishiga sabab bo'lg'on fuqaro hukumatining molig'a xiyonat qilgan mazkur Og'aliq 19 sentyabrda (1923 yil) odil hukumatimiz tomonidan otildi, demak Behbudi va rafiqlarining o'chlari olindi»,-deb yozadi.

Shunday qilib, Og'aliq Behbudi o'limidan 4 yil keyin o'zining jazosini olgan. Qotil o'limidan so'ng Buxoro hukumati tomonidan Qarshi viloyati ijroqo'mi raisi Jo'ra Zokiriy hamda Qarshi viloyat firqo'mi Nazarovlar zimmaga Behbudi qabrini qidirib topib uni haykalini o'rnatish vazifasini yuklagan.

«Buxoro axbori»dagi bu masala bilan bog'liq xabarni to'liq keltirishni lozim topdik: «Mahmudxo'ja Behbudi qabri oz kunda (tez kunda) topilib ustig'a haykal ishlanib yotadur. Behbudi o'zining o'rtoqlari bilan hibsonaning yonida

vokzalga qarag‘on tarafda hammasi bir qabrg‘a ko‘milg‘onlar. Behbudiy qabrini izlab topib ustig‘a haykal ishlatishga Qarshi viloyat ijroqo‘mi bilan viloyat firqo‘mining boshida o‘ltirg‘on Jo‘ra Zokiriy va Nazarov o‘rtoqlar ko‘p g‘ayrat qilg‘onlar». Lekin, bu mutasaddi shaxslar o‘ziga yuklangan vazifani uddalamaganligi manbalarda qayd qilinadi.

Adabiyotshunos olim Byegali Qosimov Qarshi shahri 1926-1938-yillarda «Behbudiy» nomi bilan atalgan deb ma‘lumot beradilar. Lekin, Qarshi shahriga emas, balki viloyatiga «Behbudiy» nomi berilgan. «Ozod Buxoro» gazetasining 1923-yil 19-oktyardagi 2-sonida: «Turkistonning mashhur jamoat xodimlaridan Behbudiyning ismini umrbod (abadiy) qoldirmoq uchun Qurultoy (Buxoro Respublikasi qurultoyi.) Qarshi viloyatini Behbudiy viloyati deb ismlamakka qaror berdi» [4] -deb xabar beradi. Demak, Behbudiy nomi Qarshi viloyatiga 1923-yildayoq berilgan. Chunki «Ozod Buxoro»ning keyingi sonlarida (1923-1925-yillar) Qarshi viloyati haqida fikr bildirilsa, uni «Behbudiy viloyati» deb qayd qilinganligi bilan bog‘liq ma‘lumotlar uchraydi. Fikrimiz intihosida bizda bir qator savol va so‘roqlar tug‘iladi.

Avvalo, Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan bog‘liq salmoqli maqola muallifi «Musofir»ning asl ism-sharifi kim bo‘lgan? Behbudiy qotili Nuriddin Og‘aliqu 3 yil davomida Buxoro hukumati organlarida ishlab kelishiga qaysi shaxslar homiylik qildi ekan? «Go‘ri Amir» (Samarqand) darvozasi oldida Mahmudxo‘ja Behbudiy bir guruh ziyolilar bilan birga tasvirga tushganlar orasida Og‘ali(?) degan kishi (Qarang: «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasi, 1995-yil 14-aprel) ham bor. U qaysi Og‘ali? Qarshi viloyati rahbarlari nega o‘zlariga yuklangan vazifani oxirigacha bajarmadilar? Va hokazo, bu kabi jumboqli savollar tadqiqotchilarning fikrini tortishi tabiiy hol. Xullas, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Buxoro tarixi muammosi bilan bog‘liq tadqiqotlarning kelgusidagi vazifalari bu kabi adog‘i yo‘q jumboqlarni yechishga qaratilishi isbot talab qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asar va nutqlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24 yanvardagi murojatnomasi.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Tom I. - T.: O‘zbekiston NMIU, 2018. – 592 b.
4. Buxoro xabarlar rukni. Behbudiy viloyati //Ozod Buxoro. 2-son. 1923-yil 19-sentabr.
5. Naimov N. Men yashashni istayman! (Roman – xronika). – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti. 1994. – 326 bet.
6. Naimov N. Buxoro jadidlari (tarixiy ocherklar, hujjatli qissa). - T.: Fan, 2000. – 48 bet.
7. Naimov N. Shu muallif. So‘ngi hukmdor (tarixiy qissa). –B: “Buxoro” nashriyoti, 2008. – 167 bet.
8. “Buxoro axbori”, 42-son. 1921-yil 3-iyul.

XX ASR BOSHLARIDA TA'LIM TIZIMIDAGI HOLAT

Ergashev Suxrob Muxiddinovich

*Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi muzey ilmiy xodimi,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri-XX asr boshida Turkiston maorifi tizimidagi vaziyat va jadid maktablarining jamiyatdagi o'rnini haqida fikr yoritilgan. Ta'lim muassasalarini sovet hukumati tomonidan Maorif Xalq Komissarligining Bosh Vaqf boshqarmasi boshchiligidagi sovetlashtirilgan ilmiy tahlillarga asoslangan holda bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim, jadid, vaqf, maorif, maktab, qadriyat, bilim, farovonlik, Bosh Vaqf boshqarmasi, sovetlashtirish.

Аннотация. В данной статье рассматривается ситуация в системе образования Туркестана и роль школы жадидов в обществе в конце 19 - начале 20 веков. На основе научного анализа объяснена советизация учебных заведений советским правительством под руководством Главного Вакуфного Управления Наркомпроса.

Ключевые слова: образование, современность, фонд, образование, школа, ценность, знания, благополучие, Главное вакуфное управление, советизация.

Abstract. This article examines the situation in the education system of Turkestan and the role of the Jadid school in society in the late 19th and early 20th centuries. Based on scientific analysis, the Sovietization of educational institutions by the Soviet government under the leadership of the Main Vakuf Directorate of the People's Commissariat for Education is explained.

Key words: education, modernity, foundation, education, school, value, knowledge, well-being, Main vakuf administration, sovietization.

XIX asr oxiri-XX asr boshida Turkiston zamini harbiy va siyosiy to'qnashuv hamda madaniy tushkunlik davri girdobida bo'lgan desak, xato bo'lmaydi. Vaziyatdan kelib chiqib o'lgan bo'y tarixiy qadriyat va madaniy imkoniyatlarini qayta tiklash davr talabiga aylangan. Ushbu mas'uliyatli ishni hal etish yo'lida ma'rifatparvar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi jadid bobolarimiz xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular yoshlarga zamonaviy bilim, ta'lim-tarbiya berish asnosida erkin va farovon jamiyat barpo etish yo'lida o'z hissalarini qo'shib, tarixda o'z nomlarini muhurlab ketganlar.

Tarixiy manbalardan bilamizki, XIX asr oxirlarida turmush va hayotga yangicha nazar bilan qaray boshlagan jadidlar yangi usul maktablarini ocha boshlashgan. Bunga bir tomondan, mustamlakachi hukumatning siyosiy hayotda eski maktab va madrasalar zahirida arxaiik qarashlar mavjud deb, ularni ta'qib

ostiga olgani bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy xalqning rus-tuzem maktablariga qarshi munosabati yotgan. Ma'lumki, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olgach, rus-tuzem maktablarining sonini imkon darajasida ko'paytirib borishgan. Ammo bu maktablarda ham o'quvchilar davomati juda kam miqdorni tashkil etgan. Misol uchun, 1890 yilda Samarqand maktablarini tekshirgan bosh inspektor Kerenskiy: "Samarqand rus-tuzem maktablarini reviziyadan o'tkazilganda o'quvchilar kamchilikni tashkil etgani kuzatildi. Ayrimlari faqat ro'yxatga bor, lekin maktabga kelmaydi, yoki juda kamdam kam keladi. O'qituvchilar 3-4 kishi bilan dars o'tmoqdalar. 7-oktyabr Jizzax maktabida bo'lganimda biror bir o'quvchi u yerda yo'q edi" – deb ma'lumot qoldirgan [3, c-209].

Jadidlar o'lka savdo va sanoatida qoloqlikni bartaraf etishning yagona yo'li – zamonaviy ilmiy bilimlarga ega bo'lish, deb qarashgan. Yangi usul maktab asoschilari innovatsion (progressiv) harakat arboblari bo'lib, yoshlarning intellektual salohiyati va sanoat-texnikaviy bilimlarini oshirish evaziga mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqishni rejalashgan. Shuning uchun eski maktab o'qish tizimini yangi-zamonaviy usulga almashtirish zarurati davr taqozosi sifatida taqalib kelgan.

"Usuli savtiya" (tovush usuli)ga asoslangan jadid maktablarini Munavvar qori Abdurashidxonov: "23 yoshida o'z uyida 1901 yil Turkistonda birinchilar qatorida" ochgan [4, 8-b]. An'anaviy ta'lim bilan raqobatlasha oladigan, har to'rt yilda diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlikda o'rgatib, yetuk kadrlar yetishtirib bergan bu tipdagi maktablar nufuzi yildan-yilga oshgan. Munavvar Qori Abdurashidxonov jadid maktabida 1916-1917-o'quv yili rejaslarida fizika, arab va fors tili gramatikasi fanlari ham o'tilganini Kalinin o'z ma'lumotlarida keltirib o'tgan [3, c-269]. Shuningdek, 1905-1907-yillar davomida yangi uslubda tashkil topgan madrasa dars rejasida shariat, hadis, islom aqida-ta'limoti, arab gramatikasi, meros huquqi (meros va muxassima), arifmetika; umumiy geografiya, islom tarixi, muqaddas din tarixi va arab hamda turk tili orfografiyasi (imlo yozish qoidasi) kabi fanlar kiritilgan [3, c-343].

1908-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda birinchilardan bo'lib Samarqandda kitobxona tashkil etgan [5. C-23-24]. O'quv kutubxonada mahalliy xalq uchun bepul tartib joriy etilgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi kitob yozib, muassasani kitob, jurnal va gazetalar bilan boyitgan. 1922 yilga kelib ushbu kitobxona Behbudiy nomi bilan yuritib kelingani manbalarda tilga olingan. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy 1911-yil o'zbek tilida "Padarkush" pesasini yozib, yoshlarning tarbiyasini yaxshilash yo'lida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Jadid maktablarida ta'lim tizimining isloh etilishi rus ma'muriyatini ranjita boshlagani ham tarixiy manbalarda qayd etiladi. Misol uchun: "Farg'ona viloyati harbiy gubernatori uchilishlar bosh inspektoriga Turkiston o'lkasi va Farg'ona yangi usul maktablariga tatarlarni dars berishiga yo'l qo'ymaslik kerakligini ta'kidlab, tatar Makayevaning Farg'ona viloyatida bolalarni musulmon savodxonligiga o'rgatish bo'yicha rasmiy iltimosiga rad javobni berish zarurligini aytgan" [3, c-274]. Shubhasiz, bu kabi vaziyatlarning oldini olish, mahalliy xalqni

markaziy hukumat nazoratida saqlash va inqilobiy to'ntarishlarga zarba berish uchun mustamlakachi hukumat ta'lim tizimida "islohot" o'tkazishni vazifa sifatida belgilagan.

Tarix silsilasida ta'lim muassasalarining moliyaviy muammolarini ularga ajratib, vaqf qilingan yer-mulk hisobidan qoplab kelingani, ko'pchilikka ma'lum. Ammo Sovet hukumatini bu mablag'larni o'zlashtirib, o'z manfaatlari yo'lida ishlatish masalasi qiziqtirib kelgan. Hatto, 1926-yilda vaqf yerlarini davlat soliq tizimiga o'tkazishga ulgurgan [2]. Vaqf yerlarini davlat nazoratiga olish uchun qonuniy tus berish maqsadida Vaqf boshqarmasi asosiy o'rin tutgan. Avvalida Turkiston Markaziy Ijroiya Komitetining 1920-yil 26-fevraldagi 87-sonli farmoni asosida barcha vaqf ishlari Ta'lim boshqarmasi vakolatiga o'tkazildi [1]. Sobiq ittifoq korchalonlari yer va mulk bilan bog'liq o'ta nozik va muammoli bu masalani hal etishda 1923 yil yanvaridan Maorif Xalq Komissariati tarkibida faoliyat yuritgan Bosh vaqf boshqarmasidan foydalanishgan. Maorif Xalq Komissarligi huzurida Turkiston Respublikasi Vaqf bo'limi tashkil etildi. Farg'ona, Samarqand va Sirdaryo hududlari viloyat xalq ta'limi boshqarmasi huzurida Viloyat Vaqf bo'limlari tuzildi. Madaniyat va maorif sohasini qayta qurib, sovet tizimiga moslashtirish yo'lida Bosh vaqf boshqarmasi alohida ahamiyat bergan. Tashkilot eski maktab va madrasalarga vaqf qilingan yer-mulk masalasini ko'rib chiqishda alohida e'tibor qaratadi. Vaqf byudjet mablag'ini Maorif Xalq Komissarligi dastlab umumta'lim maktablariga sarf qilgan. Turkiston Maorif xalq komissarligi 1924-yil vaqf hisobidan 3818 ta o'quvchisi bilan 51 ta sovetlashtirilgan maktabdan tashqari sobiq konfessional maktablardan 3451 ta o'quvchisi bilan 28 ta 1-bosqich maktablarni o'z tarkibiga olgan. [3. C-451].

1924-yil shaharlardagi eski maktablarni ro'yxatga olish boshlangan. Bosh vaqf boshqarmasi tomonidan 212 ta madrasa va 191 ta maktab ro'yxatga olingan [2, c-450]. Bulardan 10 ta madrasa (738 ta o'quvchisi) va 41 ta maktab (3080 ta o'quvchisi) sovet maktabi sifatida qayta tashkil etilgan. Bosh vaqf boshqarmasi o'qituvchi va jihozlarning yetishmovchiligi sabab sovetlashtirilmay qolgan ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich tugatish ishlarini amalga oshirilgan.

Xullas, ma'rifatparvarlarning ezgu amallari bilan ezgu maqsad sari qo'ygan qadamlari o'z davrlarida mavjud vaziyat tufayli qarama-qarshiliklarga uchragan bo'lsa-da, Turkiston birligi, madaniyati va qadriyatlarini saqlab qolish yo'lida inqilobiy harakat sifatida tarixda muhurlandi. Ma'rifatparvarlarning amalga oshirgan ishlari hozirgi yoshlar uchun O'zbekistonda erkin va farovon hayot qadriga yetish, milliy qadriyat va madaniyatimizni saqlab qolishning qanchalik muhim ekani yo'lida mayog' vazifasini o'taydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy arxivi. Fond R-34, ro'yxat-1, ish-453, 30-varaq.
2. Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi. 916-yig'ma jild. К истории вакуфного вопроса в дореволюционном Туркестане и советском Узбекистане за 1945 год.

3. Бендриков. К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркистане (1865-1924 г). Издательство Академии педагогических наук РСФСР. – Москва, 1960.

4. Xolboyev S. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov. –T: Yoshlar nashriyot uyi, 2022 y. –B.152.

5. Махмуд ходжа Бегбуди. Наука и просвещение. Ежемесячный журнал Народного комиссариата просвещения Туркеспуублики №1. –Ташкент, 1922.

SAYID RIZO ALIZODANING YOSHLAR TARBIYASIGA QO'SHGAN HISSASI

Xudoyberdiyev Farxod Zokirovich

*Samarqand viloyati Jomboy tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
metodisti*

Annotasiya. Ushbu maqola Samarqand jadidchilik harakatida o'ziga xos o'rin tutgan Sayid Rizo Alizodaning yoshlar tarbiyasi, ma'naviy merosi, uning yangi madaniyat va ta'limni targ'ib qilish borasidagi serqirra faoliyati, shuningdek, ibratli insoniy fazilatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Jadidchilik harakati, ma'naviyat, ma'rifatparvarlik, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с духовным наследием и творчеством Саид Риза Ализаде - известного представителя Самаркандского движения джадидизма, его деятельности по пропаганде новой культуры и нового образования в регионе, а также его духовных качеств.

Ключевые слова. Движение джадидов, духовность, просветительство, воспитание молодежи, национальные ценности.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5598-son Farmoyishida "O'quvchilar ongiga vatanparvarlik tuyg'ularini va milliy qadriyatlarni singdirish, boy madaniy-tarixiy meros, milliy urf-odatlar, buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganishlari uchun sharoitlar yaratish" to'g'risida fikrlar bayon etilib, Samarqandlik jadidlar faqatgina ilm-ma'rifatni emas, balki eng avval insoniylikni, mehr-oqibatni ulug'ladilar. Ular "o'zbek xalqining keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratganlar"[3.240], qiyinchilik bilan hayot kechirishgan bo'lsalarda, ma'naviyatni doimo boshi uzra ko'tarib va ardoqlab kelganlar.

Samarqandlik yana bir shunday alloma, muallim, muharrir, jurnalist, noshir, ko'p tilni bilgan, besh yuzdan ortiq asar yozgan, tarjimalar qilgan Sayid Rizo Alizoda haqida ilmiy tadqiqotlar kamligini ta'kidlash joiz. U 1887 yil 15 fevralda

Samarqand shahrida tug'ildi, 1945 yil 24 dekabrda Rossiyaning Vladimir shahri turmasida vafot etdi. Musulmon urf-odatlariga bag'ishlangan "Nizomnoma" (1904), musulmon xalqlarini birdamlikka chaqiruvchi "Risolatul ettihodiya" (1907), diniy qadriyatlarga doir "Din vojiblari" (1914), o'zbek tilidagi alifbo - "Birinchi yil" (1917), 1923-1934 yillarda "Islom tarixi", "Madaniyati islom", "Shahodati nabavi", "Saodat asri" (islom paydo bo'lgan asrni u shunday atagan) kabi asarlar, "Turkiston tarixi" (Bartolddan tarjima), "Rossiya tarixi" (Karamzindan tarjima), shuningdek, "Xitoy tarixi", "Yaponiya tarixi", "Koreya tarixi", "Yevropa tarixi" kabi tarjimalarni chop ettirgan [2.9-10].

Sayid Rizo Alizoda, Mahmudxo'ja Behbudiy bilan hamkorlikda "Samarqand" (hozirgi "Zarafshon"), "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi" gazetalari, "Oyina" jurnalini tashkil etish, yangi usuldagi maktablar ochish, unga darslik va qo'llanmalar yozish borasida faol ish olib borgan, yangicha madaniyat va ta'limni targ'ib qilgan inson.

Taniqli alloma va ma'rifatparvar Sayid Rizo Alizoda mehr-oqibatli, saxovatli inson bo'lishi bilan birga g'oyat adolatli, pok iymonli va nihoyatda halol odam bo'lgan. Piyoda yurishni odat qilgan alloma bir kuni uyga qaytayotganda ko'chadan ro'molga o'ralgan tuguncha topib oladi. Anchagina pul tugilgan ushbu tugunchani uyiga olib keladi va ertasi kuni "Samarqand" gazetasi orqali e'lon chiqaradi, odamlar gavjum yashaydigan ikki-uch joyga ham e'lon yozib osib qo'yadi. E'londa pulning qiymati va boshqa ayrim belgilarni yozmay, o'zining manzilini ko'rsatadi. Bir necha kundan keyin e'lon haqida eshitgan bir onaxon Alizodaning uyini topib keladi. Ayol ro'molchaning rangi va boshqa belgilarni, shuningdek, pulning qiymati uch yarim ming so'm ekanligini aytgach, uni birgalikda sanab ko'rishadi va alloma pulni egasiga qaytaradi. O'sha paytlarda ot yoki eshagi bor odam boy-badavlat hisoblanar edi. Uzoq Motrit mahallasidan piyoda kelgan horg'in ayol minnatdorchilik ramzi sifatida allomaga pulning bir qismini taqdim etadi. Alloma esa pulni olmay, onaxonni faytonga o'tqazib, uyiga kuzatib qo'yadi.

Samarqandlik ma'rifatparvar Sayid Rizo Alizoda haqida G'aybulloh As-Salom, Begali Qosimov, Salohiddin Hayitov, Saydi Umirov, Farmon Toshev kabi olim va ijodkorlar maqola, tadqiqotlar yozishgan bo'lsa-da, uning ijodi mukammal o'rganilmagan. Sermahsul ijodkor bo'lgan Sayid Rizo Alizodaning boy ma'naviy merosi haqida ko'p gapirish mumkin. Ammo uning insoniy fazilatlari, mehr-oqibatli va saxiy, bir so'z bilan aytganda, yuksak ma'naviyatli inson bo'lganligi haqida ko'pchilik bilmasligi mumkin. Alizodashunos olimlar, Samarqanddagi Alizoda mahallasi oqsoqollari va mutafakkirning avlodlari bilan suhbatlardan buni anglash mumkin. Adabiyotshunos olim, publisist Saydi Umirovning ta'kidlashicha, "Sayid Rizo Alizoda tariximizning o'qilmagan, endi o'qilayotgan, istibdod yillari unutilgan, ro'yxatlardan nomi o'chirilgan, istiqlol yillari qadri tiklangan, o'rganilgan, hali to'liq o'rganilishi kerak bo'lgan oq sahifalaridan" [4.226].

Samarqandlik jadalarning ma'naviy yetukligi va insoniy fazilatlari to'g'risida faxrlanib hikoya qilish mumkin va buning adog'i yo'q. Bunday ibratli merosdan

bugungi kunda – ngi jamiyatning ma'naviy poydevorini barpo etishning muhim sharti bo'lgan yangi O'zbekiston fuqarosi – barkamol avlod tarbiyasida keng foydalanish tarbiyaviy ishimizning muhim yo'nalishi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi", 2020-yil 25-yanvar.
2. Alizoda F. Sayid Rizo Alizoda. - T.: "ABU MATBUOT-KONSALT", 2011.
3. Djabbarov I. Uzbeki: etnokulturnyye traditsii, byt i obraz jizni. – T.: "Sharq", 2007.
4. Umirov S. Sehrli va mehrli so'z. - T.: "Bodomzorinvest" nashriyoti, 2018.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING ISLOM DINIGA BO'LGAN MUNOSABATI

Begbudieva Parvina Shoxruxovna

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustamlakachilik davrida, Rus davlat boshlari Turkiston zaminining tili va dinini yo'q qilishga qaratilgan harakatlar qilayotgan bir vaqtda, Mahmudxo'ja Behbudiy, zamonasining eng ilmi va ziyoli jadidlaridan biri, xalqni bu botqoqlikdan olib chiqish uchun islomning qanchalik muhim rol o'ynashi haqida aytgan fikrlari keltirilgan. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiyning xalqni diniy va axloqiy jihatdan tarbiyalash borasida amalga oshirgan xarakatlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Millat, din, millatchilik siyosati, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini, ozodlik, musulmonlar, Nuroniy, fusunkor, porloq, madaniyat, odobsiz.

Аннотация: В этой статье отражены действия Махмудходжи Бехбуди в религиозно-нравственном воспитании народа. В период колониализма, когда главы Российского государства пытались уничтожить язык и религию Туркестанской земли, Махмудходжа Бехбуди, один из лидеров джадидов своего времени, выражал свое мнение о роли ислама, воспитании и в выведении народа из этой трясины.

Ключевые слова: Нация, религия, националистическая политика, экономические и духовные взгляды, свобода, мусульмане, Нуруни, очаровательное, яркое, культурное, непристойное.

Absrtract: This article reflects the actions of Mahmudhodji Behbudi in the religious and moral education of the people. During the period of colonialism, when the heads of the Russian state tried to destroy the language and religion of the Turkestan land, Mahmudhoja Behbudi, one of the Jadid leaders of his time, expressed his opinion about the role of Islam, education and in leading the people out of this quagmire.

Key words: Nation, religion, nationalistic politics, economic and spiritual views, freedom, Muslims, Nurani, charming, bright, culture, obscene.

Bizga ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi islom sharoiti vatanparvar jadidlarning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini belgilab olishga xizmat qilgan edi. Ushbu tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan g'oyalar milliy burjuaziya, ruhoniy va umuman mahalliy yuqori tabaqaning ilg'or vakillarini ham e'tiborini qamrab oldi. Sababi chor Rossiyasining hukmronligi o'lkani faqatgina xom ashyo manbasi va tayyor mahsulotlarning bozoriga aylantirdi. Bu mustamlakachilik va ulug' millatchilik siyosati edi.

Vatanga sodiqlik va uning mustaqilligini tiklash his – tuyg'ulari ham jadidlar yetakchiligida jamiyatdagi barcha tabaqalarni ozodlik kurashiga chorladi. Jadidlar sharoit taqozasiga ko'ra, birinchi navbatda, halqning savodini chiqarish, bilimni oshirish, milliy his – tuyg'ularini va siyosiy ongini o'stirish uchun kurashdilar va bu davrga kelib jahondagi eng yirik dinlardan bo'lgan islom ham shu kabi ta'sirlardan chetda qolgani yo'q. Bu aksincha, musulmon dunyosida va hattoki undan tashqarida ham keyingi yilliklar mobaynida ro'y bergan voqealar jahon hamjamiyatida «islom ovozi» deb, atalgan hodisa haqida gapirishning yangi imkonini berdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek «Biz - din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz, [1] deganida haqli edi.

Yurtimizning chor Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanib qolishi Maxmudxo'ja Behbudiyning «Haq olinur, berilmas!» degan da'vatni jadidlar shior qilib olishlariga sabab bo'ldi. Shuningdek, Istiqlol – erk olinur, berilmas! - degan g'oyani ilgari surgan Maxmudxo'ja Behbudiy quyidagicha ta'kidlaydi: «Bilmoq kerakki, haq olinur, berilmaydur. Har bir millat va mamlakat xalqi o'zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi. «Biz, musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm va tahdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdud qilmoqqa asli fikr va niyatimiz yo'q. Zotan, dinimiz-da shunga mone'dur» [2].

Maxmudxo'ja Behbudiy chuqur e'zoz etgan Ismoilbey G'aspiralining: «Millatning ikki asosi bor: til birligi, din birligi. Millatning o'zligini yo'qotish uchun shulardan bittasining buzilishi kifoya», degan fikrini qo'llab quvvatlaydi.

Dinsiz va dahriy bolshevizm Turon zamini o'z dinidan ajratish uni yo'qotish uchun ne xiylalarni o'ylab topmadi. Din Turkistonni madaniyat va ahloq vazifasini bajarayotganligini ular yaxshi bilar edilar. Shuning uchun Chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general gubernatori M.Skoblev: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi», - deydi.

Tarixchi olim Dilorom Alimovanning fikrlaricha, jadidlarning nazariy qarashlarida ikkita muhim xususiyat ko'zga tashlanadi: mustahkam irsiy ildiz hamda Sharq va G'arb marifatchilari faylasuflarning nazariy merosini egallashga

intilish ular mamlakatni taraqqiyot yo'liga olib chiqishning garovidir, G'arb va Sharq madaniyatlarini uyg'unlashtirib, xalqning ko'zini ochish, - deb bilgan Mahmudxo'ja Behbudiy «Tarix va Jo'g'rofiya» asarida bunday deb yozgan edi: «Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo'lmoq uchun tarixni o'qumoq va bilmoq kerak. Podshoyu vazir hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarixni o'qumoq kerak. Past qolgan va taraqqiy qilgan halqlarni, jahongir bo'lgan davlat yo nojadid (mustamlaka) bo'lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak... Musulmonlik qanday ko'paydi va taraqqiy etdi?, na uchun musulmonlar tanazzul etdilar? Buni bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak. Xulosa: dunyodan boxabar bo'lmoqni hohlaydurgan har kim uchun tarix o'qumoq kerak. Chunki har nimarsa va shuning asli va nasli tarixdan bilinur», [3] - degan so'zlarini keltiradilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy din va e'tiqod masalasida, imon va vatan haqidagi g'oyalarini millat farzantlariga yetkazishda juda katta ishlar amalga oshirdi. U Istanbul, Misr, Qrim, Kafkaz, Qozon, Rusiya, Yunoniston, Bayrut, Bulg'oriston, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Izyum kabi shaharlarni tomosha qiladi, ko'plab mamlakatlarga sayohatga boradi. Qadimiy muqaddas obidalar, rasululloh payqadami tekkan qutlug' dargohlarni, xususan, Quddusi Sharifdagi mashhur Masjid – al-Aqso ziyoratidan nihoyasiz zavqu shavqqa to'ladi. Sajdaga bosh qo'yarkan, dilining tub-tubidan Olloh ishtiyoqi qalqib chiqadi. «Oh, na ruhiy holatlari, na laziz vajdangiz ubudiyatlar, na ashkrez nazniyozlar... Nuroniy, fusunkor, porloq, moziykim, aning asari qudsiyat samari ming bu qadar sana so'ngra bizni mahviyat darajasiga kelturur», - deb yozadi.

Darhaqiqat, Mahmudxo'ja Behbudiy Ogyust Kontga, Abdurauf Fitrat Sh. Senoboss, Abdulla Avloniy esa Aflotun, Suqrot va Arastu asarlariga nihoyatda qiziqqan, ularning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlariga juda katta e'tibor bergan. Yuzakiroq qaragan kishi itoatkorlikni targ'ib qiluvchi musulmoncha dunyoqarash bilan ovrupaliklarga xos hurfikrlilik o'rtasida qanda mushtaraklik bo'lishi mumkin, deb o'ylasa ajab emas. Bu axloq, uning fikricha, insonparvarlikka asoslanishi va amaliy yo'nalish kasb etib, taraqqiyotga xizmat qilishi lozim edi.

Umuman, jadidlar diniy g'oyalarni aqidaparastlik qobig'idan holi etishga, ham islomiy, ham G'arb madaniy qadriyatlari bilan uyg'un falsafani shakllantirishga harakat qilgan. Eng faol jadidlar uchun aynan ana shunday keng qamrovli tafakkur xos edi [4].

Geografiya haqida esa mutafakkir fikr yuritib, «Yer va osmonda ko'p ilm va hikmatlar bordurki, Olloh Taolo avval ilm va hikmatlarni bilmoqqa bizni buyuradur. Va ham avval ilmu hikmatlarni olimlar bilur der va bilib ibrat olingiz va foydalaningiz der, - deb keltiradi.

Maxmudxo'ja Behbudiy fikricha, dunyoning ba'zi joylarida yashashi hayvonga, yemoq-ichmog'i ham daraxtlar, xashaklar orasida o'tayotgan insonlar, ilmdan yiroq yoinki, odobsiz, hatto it-ko'ppaklarga yaqin hayvonlardur. Behbudiy Turkistonni idora qilishni isloh qilish haqida maxsus loyha ishlab chiqadi. Bu loyhaga ko'ra- Turkistonda musulmonlarning diniy va fuqorolik ishlari bilan shug'ullanuvchi markazlashgan mahalliy boshqarma tuzish zarurligini ta'kidlaydi. Turkiston musulmonlari uchun deydi u, - bunday boshqarma suvdekva nondek zarur, busiz imonimizni yo'qotamiz va

falokatga giriftor bo'lamiz [6], - deb ta'kidlagan edi. Jadidlar o'zlarining siyosiy faoliyatini amalga oshirish uchun kurash olib borar ekanlar, ular ezilgan toptalgan, huquqi kamsitilgan halqning qalbiga ozodlik kurashi alangasini jo qildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy haloyiqni diniy va ahloqiy jihatidan tarbiyalashda islomiy ilmlarning ahamiyati xususida to'xtaladi, so'ng dunyoviy ilmlarning muhim va zarurligini ham alohida uqtiradi.

Jadidlar doimo islom va shariat qoidalarini qo'llashda zamonaning o'zgarishlarini hisobga olish zarurligini o'qturganlar. Ular qanday masalani muhokama qilmasinlar, masalani asoslashda Qur'on va hadislarga murojaat qiladilar, o'z fikrlariga ulardan isbot topganlar. Jadidlar falsafasi materialistik dunyoqarash va ateizmga qarashi qaratilgan edi. Behbudiy fan va falsafada musulmonlar 500 yil orqada qolganliklarini ta'kidladilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Тошкент. 1998. 33-34-бетлар.
2. Қосимов Б. ва бошқ. Ватан ва миллат муқаддасдир. – Тошкент, 27-бет.
3. Махмудхўжа Бехбудий. – Тошкент: Маънавият. 1997, 21-бет.
4. Алимова Д. Ҳақиқатнинг туташ манзили. Тафаккур, 2002, 56-бет.
5. Бехбудий М. «Ойна» журнали, 1915 йил, 12-сон.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI TAHLILI

Mirhakimova Feruza Xoldorjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Turkistondagi taraqqiyparvarlik harakatining yuzaga kelishi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jadidchilik harakati, mintaqadagi ma'rifatparvarlar haqida fikrlar, xususan, Samarqand jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy va uning ma'rifiy, ijtimoiy- siyosiy va talim-tarbiyaga oid qarashlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *yangi usul maktablari, milliy tafakkur, ziyolilar, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, Turkiston, Turkiston Muxtoriyati, taraqqiyparvarlik, Milliy Majlis.*

Аннотация. *В данной статье анализируются общественно-политические процессы накануне развития движения в Туркестане, джадидистского движения, мнения о просветителях региона, в частности о Махмудходже Бехбуди, крупном представителе самаркандского джадидистского движения, и его просветительских, политической и общественной деятельности*

Ключевые слова: *новометодные школы, национальное мышление, интеллигенция, модернизм, просвещение, Туркестан, Туркестанская автономия, прогрессизм, национальное собрание.*

Annotation. *This article analyzes the socio-political processes on the eve of the development movement in Turkestan, the jadidist movement, the opinions about the enlighteners in the region, in particular, Makhmudkhoja Behbudi, a major representative of the Samarkand jadidist movement, and his educational, political and social activities.*

Key words: *new method schools, national thinking, intellectuals, modernism, enlightenment, Turkestan, Turkestan Autonomy, progressivism, National Assembly.*

Bugungi kunda jadidchilik harakatini chuqur o'rganish, o'sha davrda ijod qilgan va faoliyat yuritgan ziyolilar, taraqqiyparvarlarning ezgu maqsadlarini keng targ'ib qilish davlatimizning doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Parlamentga yo'llagan murojaatnomasida mazkur masalaga alohida to'xtalib o'tgan edi: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" [1].

Ko'rinib turibdiki, jadidchilik harakati va uning mohiyati bugungi kun uchun ham dolzarb va ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 30 sentyabrda imzolangan "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida"gi Farmonda ham jadidlar faoliyati yana bir bor e'tirof etildi. XX asr boshlarida o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta'minlashga qo'shgan beqiyos hissasi uchun Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudi, Munavvar qori Abdurashidxonovlar "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlanishdi [2].

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tataristonda yuzaga kela boshladi. Bir qator ma'rifatli shaxslar tomonidan yangi siyosiy va ijtimoiy g'oyalarning ilgari surilishi jadidchilik harakatiga asos soldi. "Jadid" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, yangi degan ma'noni anglatadi. Shu jihatdan, ushbu davrda boshlangan yangi siyosiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy jarayonlar jadidchilik yoki taraqqiyparvarlar harakati deya nomlandi. Bu harakatning asoschilaridan biri qrimlik Ismoilbek Gaspirinskiy edi.

Jadidchilik harakati keyinchalik mintaqaning boshqa hududlarida ham keng yoyila boshlaydi. Xususan, Turkiston mintaqasidagi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jarayonlarda jadidchilik harakati muhim ahamiyat kasb etib, ular tomonidan qator ilg'or g'oyalar ilgari surildi. O'sha vaqtda Turkiston aholisining moddiy ahvoli og'ir bo'lib, xalq orasida savodsizlik, diniy mutaasiblik keng

tarqalgan edi. Jadidlar ilgari surgan g'oyalarga ko'ra, xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otishning yagona yo'li ularni ma'rifatli qilish edi. Bu yo'lda yangicha tuzum va tartibotlarni joriy etish, yangi usul maktablarini ochish hamda insonlarni jahondagi ilg'or tajribalardan voqif qilish lozim edi. Shu bois, jadidchilik harakati mohiyat va mazmuniga ko'ra millat, jamiyat tafakkurini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo'lgan.

Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish uchun, o'sha davrdagi tarixiy jarayonlarga to'xtalish maqsadga muvofiq. XIX asrning oxirlarida Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, xonlik davridagi tartibotlarni bekor qila boshladi. O'lkada temir yo'l qurilishi, dastlabki sanoat korxonalarining bunyod etilishi, rus olimlari tomonidan O'rta Osiyoga olib kelingan yangi ilmiy g'oyalar va bilimlar natijasida Turkiston taraqqiyotdan anacha orqada qolib ketgani ma'lum bo'la boshladi. Xonliklar davridagi monarxiya tuzumi sabab o'lkada hali hanuz o'rta asrlarga xos hayot tarzi hukm surar edi. Mazkur omillar yurt ziyolilari, taraqqiyparvarlarining fikrini uyg'otdi. Jadidchilik harakatining Turkistondagi yirik namoyandalari sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho'lpon, Ashurali Zohiriy, Is'hoqxon Ibrat, Fayzullo Xo'jaev, Abdulvohid Burxonov va boshqalarni alohida ta'kidlash mumkin. Ular milliy uyg'onish harakatining boshida bo'ldilar.

"Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o'z ichiga oladi" [3, –B.519].

Samarqandda ham jadidchilik harakati keng yoyilib, taraqqiyparvarlarning bir qator yetuk namoyandalari yetishib chiqdi. Samarqand jadidlarining eng ko'zga ko'ringan vakili shubhasiz Mahmudxo'ja Behbudiy hisoblanadi. "Turkistondagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) nafaqat mashhur dramaturg va publitsist, jamoat arbobi va mashhur ulamo bo'lishidan tashqari u o'z davrining yirik olimi, noshir va matbuotchi hamda sayohatchisi sifatida o'zidan chuqur iz qoldirdi" [4, –B.37].

M.Behbudiy 1875 yil 19 yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida, ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785— 1800) Samarqandga kelib qolgan. 1894 yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarfu nahvini kichik tog'asi Mulla Odildan o'rganadi.

Jadidlar Turkistonni qoloqlik, savodsizlik botqog'idan olib chiqishning eng muhim omili sifatida xalqni savodli, ma'rifatli qilish ekanligini tushunishgan edi. Shu bois, ular tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil qilindi. Mazkur maktablar o'sha davrning ilg'or kishilari, o'ziga to'q boylar tomonidan moddiy va

tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Shunday maktablardan biri dastlab 1893 yilda Samarqandda, 1898 yili Qo'qonda Salohiddin domla, 1899 yili eski Toshkentda Munavvar Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan tashkil etildi. 1900 yili Buxoroda Jo'raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil etildi. 1903 yili M.Behbudiy o'z mablag'i hisobidan Jomboyda xuddi shunday maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Shakuriylar bu maktabda dars berdilar [5, –B169-170].

Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat yangi usul maktablarini tashkil qilish balki, ularni zamonaviy darsliklar, dunyoviy ilmlar bilan ham ta'minlash ishiga bosh-qosh bo'ldi. O'zi ham qator darslik va risolalar yaratdi. "1903 yilda Samarqand atrofida Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida uning tashabbusi bilan yangi maktablar ochildi. Behbudiy maktablar uchun "Risolai asbobi savod", "Risolai jug'rofiyai umroniy", "Kitob ul-atfol", "Amaliyoti Islom", "Tarixi Islom" kabi darslik va risolalar yozadi [6, –B.11].

Behbudiy jadidlarning yetakchisi, qolaversa, mintaqada taraqqiyparvarlik harakatining asosiy shaxslaridan biri sifatida Samarqand shahrida turli yig'in, kecha va mashvaratlarni tashkil qilgan. Bu kabi yig'ilishlarga turli shaharlardagi taraqqiyparvarlar ham taklif etilgan. Buxorolik mashhur ma'rifatparvar Sadridin Ayniyning Mahmudxo'ja Behbudiy haqidagi xotiralarida quyidagilar eslanadi: "1908 yilda dars sheriklarimizdan bo'lg'on Mirzo Abdulvohid bilan Buxorodan Samarqandg'a kelgan edik. Ushbu sayohatimizda mulla Abdulqodir Shakuriy, mulla Ismatullo Rahmatullozoda va bir qancha Samarqand ma'rifatparvarlari oqshom majlisi uchun bizni bir yerga chaqirg'on edilar" [7, –B. 238].

S.Ayniyning qo'shimcha qilishcha, bu uning Behbudiy bilan birinchi bor uchrashuvi edi. S.Ayniy birinchi uchrashuvdan so'ng Behbudiyga ta'rif berar ekan, shunday xotirlaydi: "Bu kecha Mahmudxo'ja, ko'pincha fanniy masalalardan so'z chiqarib, yerdan, ko'kdan, oydan, yulduzdan, qisqasi, ul vaqtg'acha biz eshitmagan narsalardan ko'pgina so'yladi" [7, –B. 238].

Behbudiy Turkistonda milliy matbuot rivojiga ham ulkan hissa qo'shdi. Uning noshirlik faoliyati ham diqqatga sazovor. O'zi va boshqa taraqqiyparvarlarning ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilishning muhim vositasi sifatida Behbudiy tashabbusi bilan gazeta va jurnallar faoliyat ko'rsata boshlaydi. Uning sa'y-harakatlari va muharrirligida 1913 yildan boshlab "Samarqand" gazetasi chiqarila boshlaydi. Ushbu gazetada o'sha davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalariga e'tibor qaratiladi. Jumladan, gazetaning 1913-yil 30-iyuldagi sonida turkistonlik yoshlarning og'ir ijtimoiy holati, bolalarni maktabda o'qitishning ahamiyati haqida to'xtaladi: "Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammolikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosig'a tobe ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tobedur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttuz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur, musulmonchilik ilm va adab ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur" [8].

Bundan tashqari, Behbudiyning bevosita ishtiroki va tashabbusi bilan 1917-yil 16-apreldan boshlab "Hurriyat", 1918-yildan 1922-yilgacha "Mehnatkashlar

tovushi gazetolari nashr etilib, unda mustaqillik, insonlarni ilm olishga, zamonaviy fikrlashga da'vat etuvchi maqolalari chop qilinadi.

Behbudiyning noshirlik faoliyati haqida to'xtalganda, "Oyina" jurnalini ham ta'kidlash o'rinli. 1913-yil 20-avgustdan chiqa boshlagan jurnalda milliy birdamlik, turkiy xalqlarning hamjihatligi kabi masalalarga urg'u beriladi. "Oyina" jurnalida millat va uning haq-huquqiy, tarixi, til va adabiyoti masalalari, dunyodagi ahvolga doir qiziqarli maqola va bahs-munozaralar berib borilgan. Ayniqsa, Behbudiyning millat taraqqiyotida xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyati haqidagi fikrlari diqqatga sazovor. Alloma xorijiy tillarni o'rganish zamonning zaruriyati ekanligini ta'kidlab, uni diniy tomondan ham asoslashga harakat qiladi: "Yana bir til va xat borki, butun olam birbiri ila ila so'ylaydur. Ul Faranse tili xatidur. G'ayridinning ilm va xatini o'rganmoq shariatga durustdur. Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladurki, janob payg'ambar o'z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g'a) yahudiy xatini o'qub-o'rganmoqg'a buyurgan ekanlar. Va ul janob amri hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib, hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturg'on xatlarni o'qub berar ekanlar. ("Sahihi Buxoriy", juz 4, sahifa 156)" [9, -B.14].

Behbudi Turkiston islom dinining o'rni va mavqeyi yuqoriligi, diniy ulamolarning xalq o'rtasida obro'si kattaligini inobatga olgan holda o'z g'oyalarini targ'ib qilishda diniy va dunyoviy qarashlardagi muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Bu haqda tarix fanlari doktori, professor Q.Rajabovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "Behbudi ham din va millatni ittifoq etishga, islohot o'tkazishga, ziyoli va taraqqiyparlarni, boy va ulamoni birlashtirishga da'vat etdi. U taraqqiyparvarlar ulamolarning xalq o'rtasida obro'si unchalik katta emasligi, shu bois qadimiy ulamolar bilan hamkorliksiz ish olib borilsa muvaffaqiyatga erishish qiyinligi to'g'risida kuyunib so'zlar edi" [10, -B.9].

Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari, jamiyatni isloh qilish, jaholatga qarshi kurashish masalalaridagi fikrlari uning "Padarkush" asarida yorqin ifodalangan. Mazkur asarda dunyoviy ilmlarni egallashning ahamiyati, keng dunyoqarashli yoshlarning mamlakatni taraqqiy ettirishdagi roli mohirona tasvirlangan: "Olimi zamoniy bo'lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyatiy diniya va o'z millatimiz tilini biladig'ondan so'ngra hukumatimizning nizomli makbatlariga bermoq kerakdur, ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qub tamom qilg'onlaridan so'ng Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qutmoq lozimdir" [11, -B.44].

Mahmudxo'ja Behbudiyning yurt ozodligi, millat taraqqiyoti yo'lidagi sa'y-harakatlarini tadqiq etishda uning siyosiy faoliyatini ham inobatga olish darkor. 1917-yil fevral inqilobi va Rossiya podshosi Nikolay Romanovning taxtdan ag'darilishi Turkiston jadidlarini ham faollashtirib yubordi. Mazkur tarixiy jarayonlarda Behbudiyning o'rnini alohida ta'kidlash zarur. "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 13-maydagi sonida Behbudiyning "Muhtaram

Samarqandiylarg'a xolisona arz" nomli murojaati chop etilgan. Mazkur murojaatda uning ozodlik, hurriyat haqidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Hozirda bo'lsa, Xudoi taolo bizg'a hurriyat berdi. Diniy va milliy islohot va taraqqiyimiz uchun harakat va sa'y etmoqg'a yo'l ochuqdir" [12, –B. 471].

M.Behbudiy 72 kun umr ko'rgan Turkiston Muxtoriyatining parlamenti – Milliy Majlis tarkibiga kiritilgan edi. O'sha vaqtda zamonasining eng ilg'or ziyolilari, taraqqiyparvarlaridan tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatida mas'ul lavozimni egallash Behbudiyga faxr bag'ishlagan edi: " 27-noyabrda Xo'qandda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon s'ezdiga e'lon qilindi. Muborak va xayrli bo'lsin! Kamina ham majlisda bo'lishi uchun iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!" [12, –B. 493].

Biroq juda qisqa muddat mavjud bo'lgan Turkiston Muxtoriyati hukumati 1918-yil fevralida bolsheviklar tomonidan tarqatib yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston mintaqasida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'lkada yangi, zamonaviy fikrlaydigan taraqqiyparvarlarning maydonga chiqishiga sabab bo'ldi. Ular tomonidan millatni uyg'otish, jaholatga qarshi kurashish, mamlakatni taraqqiy ettirish yo'lidagi mardonavor kurash jadidchilik harakati nomi bilan tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Ushbu harakatda millatning bir qator fidoyi insonlari, xususan Mahmudxo'ja Behbudiy muhim rol o'ynadi. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, tarixiy jarayonlarda Behbudiyning tutgan o'rnini yoritish, tahlil qilish alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga murojaatnomasi. // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. <https://president.uz/uz/lists/view/3860>
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3 tom. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlati ilmiy nashriyoti, 2002.
4. Rajabov Q. Mahmudxo'ja Behbudiyning Bolqon urushlari va Anvar Posho haqidagi fikrlari // "Mahmudxo'ja Behbudiy diniy-ma'rifiy qarashlarining zamonaviy talqinlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2021.
5. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Tuzuvchilar: Sodiqov H., Shamsitdinov R., Ravshanov P. va boshqalar. –Toshkent: Sharq, 2000.
6. Zarafshonning Behbudiysi. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Akram Haydarov. –Toshkent: "Sahhof", 2020
7. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. –Toshkent: "Akademnashr", 2021.
8. "Samarqand" gazetasi, 1913 yil 30 iyul. №31
9. "Oyina" jurnali, 1913 yil 20 avgust. №1.

10. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). -Toshkent: "Universitet", 2002.
11. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush. Tanlangan asarlar. –Toshkent: "Ma'naviyat", 1997.
12. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: "Akademyashr", 2021.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ – МИЛЛАТ ФИДОЙИСИ

Расулова Дурдона Бахроновна

Самарқанд вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази ўқув ва методик ишлар бўйича директор ўринбосари, тарих фнлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Аннотация. Мазкур мақолада Махмудхўжа Бехбудийнинг ҳаёти ва фаолияти, шунингдек унинг матбуотчилик, драматургия ҳамда педагогик фаолияти кенг ўранилган.

Калим сўзлар: жади́дчи́лик ҳаракати, янги замон мактаблари, педагогик қарашлар, театр, дарслик, қўлланма.

Аннотация. В данной статье широко обсуждаются жизнь и деятельность Махмудходжи Бехбуди, а также его публицистическая, драматургическая и педагогическая деятельность.

Ключевые слова: жади́дское движение, современная школа, педагогические взгляды, театр, учебник, методические пособие.

Annotation. This article broadly discusses the life and activities of Mahmudhodji Behbudi, as well as his journalistic, dramaturgical and pedagogical activities.

Keywords: Jadid movement, modern school, pedagogical views, theatre, textbook, methodical manuals.

Жадидлар – янги усул педагогикаси ва методикасининг муаллифлари, қолаверса XIX аср охири ва XIX аср бошларида жамиятдаги туб ислохотларни бошлаб берган ижтимоий қатламдир. Мазкур пешкадам раҳнамоларни Туркистон ўлкасини ривожланган давлатлар қаторига киритиш, фуқароларнинг онгу-шуури, тафаккурини ўзгартиришнинг яккаю-ягона йўли – “Илм ва маърифат” эканлигини биринчилардан бўлиб англаб етган ўз замонасининг донишмандлари деб айтиш мумкин. Уларнинг тараққийпарварлик ҳаракатларида нафақат ислохотлар хусусидаги концептуал ғоялар ифодаланган эди, балки ушбу ислохотларни амалга оширишнинг аниқ чора-тадбирлари, яъни янги усул мактаблари фаолияти, ўқитиладиган дасрликлар ва дастурлар, дунёвий фанларнинг ўқитилиши тарғиботи устувор аҳамият касб этган.

Садриддин Айнийнинг ёзишича, 1903 йили Абдулқодир Шакурый

ташаббуси билан Ражабамин қишлоғида янги усул мактаби очилади. Бу мактаб учун Абдулқодир Шакурий томонидан «Жомеъ ул – ҳикоят»¹⁴ номли дарслик яратилади. Абдурауф Фитрат «Баёноти сайёҳи ҳинди» («Ҳинд сайёҳининг баёноти») китобида қаҳрамон тилидан «Самарқандда бир неча янги бошланғич мактаблар бўлиб, улар ичида янги яхшиси – Шакурий мактабидир. Бу мактаб аста-секин керакли чўққини эгаллайди. Самарқанд мактабларини кўриб чиқиб, улардан мамнунман»,¹⁵ - деб таъкидлайди.

1903 йили Самарқанд шахрининг Хўжа Нисбатдор маҳалласида Ҳожи Муин бошчилигида усули жаҳид мактаби очилган. У мактабдорликдан даромад олишни ўйламаган, маърифатпарвар зот мактаб-маориф йўлида фидойилик кўрсатиб «Раҳнамои савод» номли алифбо нашр эттирган ва кутубхона ташкил этган. Биринчи янги усулдаги мактаб 1904 йили Хўжандда¹⁶ ҳам очилади. Мактабга Тошкентдан ўқитувчи чақиртирилади. Бу эса ҳаммани қувонтириб, янги усул мактабларини очишга руҳлантиради. Янги ўқув усуллари билан ажралиб турган бундай мактаблар сони аста-секин Самарқандда кўпайиб бораверди.

Мана шундай тараққийпарварлик ва ислохотчилик ғоялари нафақат маҳаллий муаррихлар асарларида балки хорижий тадқиқотларда ҳам акс эттирилган бўлиб, замонавий тарихшунослар олдида мазкур манбаларни излаб топиш, уларни таржима ва табдил қилиш ҳамда илмий муомалага киритиш орқали кенг жамоатчиликка етказиш долзарб вазифалардан биридир. Хусусан, Марказий Осиё минтақаси халқлари тили, дини, маданияти ва турмуш тарзини ўрганишга катта қизиқиш билан қараган француз тарихшунослиги ва манбашунослиги ҳам бундан мустасно эмас.

Францияда нашр этилган даврий матбуот саҳифаларида жаҳидлар фаолияти самарадорлиги алоҳида ўрин тутган. Уларнинг ислохотчилик функциялари мустамлакачилар зулмига қаратилган бўлиб, юртни озодликка тарғиб этиш тамойилларини очиқ-ошкора тарғиб қилиниши билан характерланади. Шундай озодлик куйчилари ўз сафдошлари ва издошларини, шунингдек, ўсиб-униб келаётган ёш авлодни ҳар томонлама етук ва баркамол инсон сифтида тарбияланиш “илм ва тарбият”га бориб тақалиши бот-бот такрорланган.

Маҳмудхўжа Бехбудий 1875 йилнинг 19 январиди Самарқанд яқинидаги Бахшитепи қишлоғида дунёга келган. Отаси Бехбудхўжа Солиххўжа ўғли Аҳмад Яссавийнинг авлодларидан бўлиб, имом-хатиблик билан шуғулланиб келган. Она томонидан бобоси Ниёзхўжа урганчилик бўлиб, Бухоро амири Шохмурод даврида (1785—1800) Самарқандга келиб қолган. Маҳмудхўжа тоғаси қози Муҳаммад Сиддиқ тарбияси ва қарамоғида ўсиб вояга етади. Араб тили грамматикасини кичик тоғаси Мулла Одилдан ўрганади. Бухоро

¹⁴ Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. – Душанбе, 1987. – С.31.

¹⁵ Абд-ур-Рауф. Рассказы индийского путешественника («Бухара как она есть»). – Самарканд, Маҳмудхожа Бегбуди. 1913. – С.79.

¹⁶ ЎзР МДА, Ф. И-47. Оп-1. Д-955. Л-250.

мадрасаларида таҳсил олиб юрган пайтларида дастлаб онаси (1893), сўнг отаси (1894) вафот этгач, моддий қийинчиликлар сабаб ўқишни ниҳоясига етказа олмайди. Самарқандга қайтиб, Муҳаммад Сиддиқ қозихонасида мирзолик қила бошлайди. Тез орада шариат қонунларини мукаммал даражада ўзлаштириб, қозиликдан муфти даражасигача кўтарилади.

1903 йили аллома ташаббуси билан шогирдлари Сиддиқий Ажзий Ҳалвойи, Абдуқодир Шакурий Ражабамин қишлоғида, Ҳожи Муин Хўжа Нисбатдор маҳалласида жаҳид мактабларини очадилар. Беҳбудий мактаблар фаолиятини ташкил этиш билан бирга улар учун "Рисолаи асбоби савод" (1904), "Рисолаи жуғрофияи умроний" (1905), "Рисолаи жуғрофийойи Русий" (1905), "Китобат ул-атфол" (1908), "Амалиёти ислом" (1908), "Тарихи ислом" (1909) каби дарслик ва қўлланмалар ёзади.

Беҳбудий 1908 йили "Қироатхонайи Беҳбудия" (*кейинчалик "Беҳбудия" номи билан машҳур бўлган*) кутубхонасини очади. Ушбу кутубхона икки навбатда – соат 9 дан 17 гача ва соат 18 дан 24 гача ишлаб, 60 дан 110 гача бўлган китобхонларга хизмат кўрсатган. Аллома "Самарқанд кутубхона исломияси" мақоласида кутубхонада 600 та китоб ва рисола, газета ва журналлар эса ундан ҳам кўп бўлганини ёзади. 1914 йилги саёҳати давомида Кавказ, Қрим, Туркия, Юнонистон, Булғористон, Австрия ва Германиянинг турли шаҳарларида бўлиб, у ерлардан ўз кутубхонаси учун жуда кўп китоб ва рисоалар олиб келади.

Маҳмудхўжа Беҳбудий янги усул мактаблари фаолиятини ташкил этиш, дарсликлар ёзиш, кутубхона очиш билан чекланиб қолмаган. Замон ва дунё воқеалари билан танишиб бориш, миллат ва Ватан аҳволидан, кундалик ҳаётдан огоҳ бўлиш учун 1913 йилдан матбуот ишларини йўлга қўяди ва шу йилнинг апрелидан "Самарқанд" газетаси ҳамда август ойидан "Ойина" журнали чиқа бошлайди.

1913 йилнинг 20 августидан бошлаб Самарқанддаги «Газаров ва Смеянов» босмахонасида яна Беҳбудий бошчилигида рус, ўзбек ва тожик тилларида мусулмонларнинг «Ойина»¹⁷ журнали нашр қилина бошланди. 1913-1915 йилларда журналнинг 68 номери (1720 бет) чиқиб, 1915 йилнинг июнь ойларида тўхтатилади. Бу газета ва журналда кўплаб жаҳидлар Ҳожи Муин, Васлий, Фитрат, Мунавварқори ва бошқа жаҳид намояндалари ўз мақолалари билан иштирок этдилар. Туркистон халқининг саводли ва маърифатли, тўқ ва фаровон бўлиши, уни озод ва обод ватанга айлантириш, биринчи навбатда мустақилликка эришиш, мустамлакачилик исканжасидан халос бўлиш жаҳидчилик ҳаракатининг асосий мақсади эди. Шундай шиорлар ва мақсадлар билан жаҳидлар ўз фаолиятларини, куч-ғайратларини миллатни уйғотишга бағишладилар, маҳаллий халқнинг кўзини очиб, юзларини ёруғ этиш учун жонларини тикдилар.

¹⁷ ЎзР МДА, Ф. И-18. Оп-1. Д-8752. Л-29.

“Самарқанд” газетаси ўзбек ва тожик тилларида, ҳафтада икки марта, дастлаб икки, сўнг тўрт саҳифада чоп этилган. 1913 йил 17 сентябрда газетанинг 45-сони чиққан бўлиб, бир томондан, мустамлакачилар цензураси, иккинчи томондан, етарли маблағ бўлмагани сабаб тўхтатилади.

“Ойина” ҳафталик журнал бўлиб, ўзбек ва тожик тилидаги мақолалар бериб борилган. Унинг обуначилари нафақат Туркистон, балки Кавказ, Татаристон, Эрон, Афғонистон, Ҳиндистон ва Туркияда ҳам бор эдилар. 1915 йилгача нашр қилинган журналда Туркистон аҳолисининг ҳақ-ҳукуки, тарихи, тил-адабиёт масалаларига бағишланган ғоят муҳим мақолалар, баҳслар бериб борилган. Айниқса, тил масаласи муҳаррирнинг ҳамиша диққат марказида турган. Маҳмудхўжа Бехбудий миллат тараққийси учун бир неча тилни билишликни шарт деб ҳисоблаган.

Мутафаккирнинг адабий танқидга оид мақолалари ҳам журнал саҳифаларида ўрин олган бўлиб, Алишер Навоийдан кейинги бир неча асрлик сукунатдан сўнг, “Танқид сараламокдур” мақоласида бу соҳанинг ўзига хос хусусиятларини таъкидлаб, адабиётда тенг ҳуқуқлилик масаласини ўртага қўяди. Миллат ўзини англагандагина, ижтимоий-сиёсий масалаларни бошқалар билан тенг муҳокама эта олади, деган фикрни илгари суради. Умри давомида юзлаб мақолалар ёзади. Уларда миллат ва Ватан, жамият ва ахлоқ ҳақидаги қарашларини ифода этади.

Маҳмудхўжа Бехбудий миллат зиёлиларидан Абдурауф Фитрат, Сиддикий, Ҳожи Муин, Ақобир Шомансур, Муҳаммад Саид, Саидризо Ализода, Саидахмад Васлий, Тавалло, Садриддин Айний, Ҳаким Бухорий, Ниёзий Ражабзоданинг мақолалари ва шеърларини “Ойина” саҳифаларида чоп этиб боради. Нашр ёш қаламкашлар, бўлғуси адиб ва маърифатпарварлар учун тажриба майдони вазифасини ҳам ўтагани маълум.

“Ойина” журнали таҳририятининг фаолияти мустамлакачилар томонидан доимий назоратда бўлган. Ўзбекистон Миллий архивида Туркистон ҳарбий округининг штаб бошлиғи имзоси билан Самарқанд вилоят ҳарбий губернаторига 1914 йил 19 август куни 100-хат юборилган бўлиб, унда биринчи жаҳон уруши даврида “маҳаллий матбуотда Россия манфаатига зид мақолалар пайдо бўлиши мумкинлиги боис” Туркистон ҳарбий цензураси Самарқанддаги нашрларни назорат қилиб туришни штабс-капитан Отаевга топширади. “Ойина” журнали тўғрилама-қораламасидан кўчирма журнал босмадан чиқишига икки кун қолгунча цензурага юборилиши бош муҳаррир зиммасига юклатилади. Маҳмудхўжа Бехбудийни ҳарбий округга чақиртирилиб, ушбу “ўта махфий хат” остига “ўқидим ва маълумот учун қабул қилдим”, дея имзо чектирилади. Шу билан бирга, Туркистон генерал-губернаторлиги нашри “Туркистон вилоятининг газети”да миллий журналда чоп этилган фикрларга қарши чиқишлар кўпайтирилади. “Ойина” бош муҳаррири эса уларга муносиб жавоб бериб боради. Аммо журнал фаолиятини чеклаш учун олиб борилган узлуксиз

ҳаракатлар ўз самарасини беради ва 1915 йилга келиб журнал фаолияти бутунлай тўхтатилади.

Аллома жамият ҳаётидаги иллатлар, нуқсонлар ва илмсизликни сахнада кўрсатиш орқали халқни тараққийпарварликка даъват этиш мақсадида 1914 йили миллий театрга асос солади. Театр сахнасида ижро этиш учун “Падаркуш” драмасини ёзади. Китоб жилдига “Бородино жанги ва Россиянинг французлар босқинидан халос бўлишининг юбилей санасига бағишланади” деган ёзув билан Тифлис цензурасидан рухсат олгач, 1913 йили уни чоп эттиради. Муаллиф “Миллий фожеа” деб атаган, 3 парда 4 манзарали бу драма ҳажман ихчам, мазмунан ниҳоятда содда ва тушунарли бўлиб, ўқимаган боланинг бузуқ йўлларга кириб, ўз отасининг ўлдиргани, нодонлик ва жаҳолат ҳақида эди. “Падаркуш” дастлаб 1914 йил 15 январда Самарқандда, 1914 йилнинг 27 февралда Тошкентда сахнага қўйилган. Абдулла Авлониининг “Турон” гуруҳи Колизейда (ҳозирги савдо биржаси биноси) ўз фаолиятини мана шу “Падаркуш” билан бошлаган эди. Спектакль бошланиши олдидан Мунавварқори Абдурашидхонов театрнинг жамият ҳаётида тутган ўрни ҳақида нутқ сўзлайди. “Турон” гуруҳи 1914–1916 йилларда бу спектакль билан бутун Фарғона водийсини айланиб чиқади. Ушбу сахна асари Туркистонни жунбушга келтирган қирғинбарот йилларда ҳам сахнадан тушмайди. Бу бир томондан миллатни маърифат ва тараққиёт сари ундаган бўлса, иккинчи томондан росмана ўзбек театри ва драмачилигининг майдонга келиши ҳамда тараққиётига хизмат қилади.

2-SHO'BA. JADIDCHILIK INTELLEKTUAL VA FALSAFIY MEROSINING ZAMONAVIYLIKKA TA'SIRI

ZAMONAVIY SHAROITDA OLIY TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH IJTIMOIIY TARAQQIYOT OMILI

Akbar Saitkasimov

Jizzax Davlat pedagogika universiteti falsafa fanlari doktori, professor,

Ja'farxon Isaxonov

tadqiqotchi

Annotatsiya. *Zamonaviy sharoitda ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakat taraqqiyotining o'zagi, ustivor yo'nalishiga aylandi. Ta'limning ijtimoiy mohiyati tubdan o'zgarib bormoqda, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni amaliy jihatdan oshib bormoqda. Jamiyatda ta'lim sohasini innovatsion asosda takomillashtirish muhim jarayondir.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, oliy ta'lim, islohot, taraqqiyot, ijtimoiy, jamiyat, globallashuv, innovatsiya, milliy yuksalish, yoshlar.*

Аннотация. *В современных условиях реформы в сфере образования стали стержневым и приоритетным направлением развития страны. Коренным образом меняется социальная природа образования, возрастает его роль в развитии общества в практическом плане. Совершенствование сферы образования в обществе на инновационной основе является важным процессом.*

Ключевые слова: *образование, высшее образование, реформа, развитие, социальное, общество, глобализация, инновации, национальный рост, молодежь.*

Annotation. *In modern conditions, reforms in the field of education have become the core and priority direction of the country's development. The social essence of education is changing radically, its role in the development of society is increasing in practical terms. Improving the education sector in society on an innovative basis is an important process.*

Key words: *education, higher education, reform, development, social, society, globalization, innovation, national development, youth.*

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakat taraqqiyotining o'zagi, ustivor yo'nalishiga aylandi. Ta'limning ijtimoiy mohiyati tubdan o'zgarib bormoqda, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni amaliy jihatdan oshib bormoqda. Bugungi globallashuv tendensiyalari kuchayayotgan zamonaviy jamiyatda ta'lim sohasini innovatsion asosda takomillashtirish muhim jarayondir. Ta'lim tizimini rivojlantirishning konsepsiyalari va uning transformatsiyalashib borish jarayonlari hamda innovatsionlashish tendensiyalari dolzarb masala sanaladi. Xususan, milliy

yuksalish jarayonlari va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ta'lim sohasini innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari va barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi innovatsion texnologiyalarini tadqiq etish muxim jarayondir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev oliy o'quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish muammosi bo'yicha: "Bu o'rinda, mening nazarimda, ikkita asosiy vazifani hal etish zarur: birinchi – ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning ehtiyojlari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart; ikkinchi – akademiklarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, jumladan, moddiy rag'batlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish" deb ta'kidlagan (1, 46-b).

Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, tanlov asosida davlat hisobidan bepul oliy ma'lumot olinishi, nodavlat ta'lim tashkilotlari qo'llab-quvvatlanishi to'g'risidagi qoidalar yosh avlod hayotini yaxshilash, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, zamonaviy mutaxassisliklarni egallagan holda hayotda o'z o'rnini topishi va shaxsiy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Ta'lim tizimini rivojlantirish O'zbekistonda yoshlarga har tomonlama shart-sharoitlar yaratilib berilayotganligi bilan chambarchas bog'liqdir. "Yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yunalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo'naltirilgan sarmoya hisoblanadi" (2, 28-b).

Mamlakatimizda yoshlarning oliy ta'lim olish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi. Oxirgi olti yilda oliygohlar soni 77 tadan 210 taga, ularga qabul esa, 5 baravarga ortib, talabalar soni 1 millionga oshdi. 2017-yilga qadar oliy ta'lim muassasalarida grant o'rinlari soni faqat qisqarib keldi. Bugungi kunda Davlat grantlari soni ham 2 baravar ko'payib, 40 mingtaga etdi, shundan, magistratura uchun – 5 baravar ko'paydi. Shuningdek, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashga davlat granti ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Agar 2016-yilda umumta'lim muassasalari bitiruvchilarining to'qqiz foizdan sal ko'prog'i talaba bo'lgan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich 4,2 barobarga oshdi, ya'ni 38 foizga etdi.

Universitetlarga qabul kvotalari bilan bog'liq vaziyat keskin o'zgarmoqda. 2017-yilgacha, uzoq yillar davomida 60 mingdan sal ko'prog'i kishi davlat oliy ta'lim muassasalari talabasi bo'ldi. Joriy yilda barcha mavjud ta'lim shakllari hisobga olinsa, 111 mingga yaqin kishi bakalavriatga, 10 ming 688 nafari magistraturaga o'qishga kirdi. Yangi standartlar va malaka talablari asosida 625 ta bakalavriat va 634 ta magistratura mutaxassisliklari hamda 4700 dan ortiq ta'lim dasturlari boyicha kredit-modul tizimi bo'yicha o'quv dasturlari joriy etilgan.

Alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiyaning tashkil etilishi, ularni hamma qatori umumiy maktablarda ham o'qishini yo'lga qo'yilishi Yangi O'zbekistonda inson

qadri tamoyilining amaliy ifodasi hisoblanadi. Konstitutsiyada davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi va boshlang'ich professional ta'lim bepul ekanligi ham belgilanmoqda. Ilk marotaba bog'cha yoshidagi bolalarning ta'lim va tarbiyasi sohasidagi davlat majburiyatlarining konstitutsiyaviy darajada belgilanishini muhim voqea bo'lishi kutilmoqda. So'nggi olti yilda bolalarning bog'cha bilan qamrovi 27 foizdan 70 foizga oshgani hamda Konstitutsiyaga kiritilayotgan yangi normalar bu borada yangi marralarga erishish imkonini beradi.

Oliy ta'limni innovatsion asosda rivojlantirish uchun o'qituvchi va talabalarda ongida yangicha tafakurni shakllantirish, zamonaviy fikrlash tarzini oshirish, novatorlikka oid g'oyalarni shakllantirish va yangi texnologiyalardan foydalanishni doimiy tashkil etish lozim. "Bugungi jamiyatni rivojlantirish uchun voqelikka yangicha rakursdan turib qarash, yangicha, ya'ni innovatsion yondashuv lozim bo'ladi. Bu yangicha metodologiya, yangicha texnologiya, xullas innovatsion yondashuvdir. Innovatsion, ya'ni yangilikka asoslangan texnologiyalar, yangicha boshqaruv jarayonlarini joriy etish uchun yangicha tafakkurga tayanish lozim" (3, 12-b).

Yangilangan Konstitutsiyamizda fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekanligi, oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega ekanligi belgilandi. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi, davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi qayd etib qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak, - Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B.46.
2. Muhammadjonov O. Konstitutsiya: xalq manfaatlarining huquqiy kafolati. –Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2017. –B.28.
3. To'raev B. Jamiyatni ma'naviy sog'lomlashtirishda nochiziqli tafakkurning o'rni //Tafakkur ziyosi. 2018 yil, 1-son. –B.12.

МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШДА ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

А.Э.Рахманов

Термез давлат университети доценти, фалсафа фанлари номзоди

Аннотация. Ушбу мақолада юртимизда жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг пайдо бўлиши ва ривожланиши босқичлари, уларнинг миллий ўзликни англаш, миллий истиқлол, маънавий-маърифий ва ижтимоий-сиёсий ислохотчилик ғоялари ва уларнинг бугунги янгиланиши даври учун аҳамияти М.Бехбудий қарашлари мисолида таҳлил қилинади.

Калим сўзлар: жадидчилик, маърифатпарварлик, миллий ўзлик, ислохот, инновация, модернизация, маънавий янгиланиши, маърифатли жамият, Учинчи Ренессанс.

Жаҳон тажрибасига назар ташласак, ижтимоий тараққиётга улкан таъсир кўрсатган назарий таълимот ва мафкураларни яратиш учун тарихнинг турли давларида улкан ақл-заковат, истеъдод ва теран тафаккур соҳиблари мислсиз заҳмат чекканини кўрамиз. Ўзбекистон мустақил демократик тараққиётининг бугунги – янгиланиш босқичида Марказий Осиё халқлари тарихида учмас из қолдирган буюк аجدодларимиз, маърифатпарвар зиёлиларнинг маънавий меросини чуқур ва ҳар томонлама ўрганиш, уни юртимизда ва хорижда кенг тарғиб қилишга эътибор кучайгани айни ҳақиқатдир. Туркистондаги жадидлар фаолияти ҳам бунинг яққол тасдиғидир. Жадидчилик Осиё ва Европадаги илғор ўзгаришлар таъсири остида, XIX аср охири XX аср бошларида Туркистонда ҳукм сурган мустамлакачилик ҳамда фавқулодда қолоқ иқтисодий, ижтимоий ва маданий шароитда яшаётган халқларни маърифатлаштириш, уларнинг миллий ўзлигини англашини шакллантириш, жамият ҳаётида ижтимоий ва маданий ислохотлар ўтказиш, пировардида, миллий истиқлол ғояларини ҳаётга татбиқ этиш мақсадини кўзлаган маърифатпарварлик ҳаракати сифатида, тарихий вазият тақозоси билан вужудга келган феномендир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида маънавий меросимизни чуқур ўрганиш билан боғлиқ масалаларга алоҳида тўхталиб, "...жадидчилик ҳаракати, маърифатпарвар боболаримиз меросини чуқур ўрганишимиз керак. Бу маънавий ҳазинани қанча кўп ўргансак, бугунги кунда ҳам бизни ташвишга солаётган жуда кўп саволларга тўғри жавоб топамиз. Бу бебаҳо бойликни қанча фаол тарғиб этсак, халқимиз, айниқса, ёшларимиз бугунги тинч ва эркин ҳаётнинг қадрини англаб етади", дея таъкидладилар (2).

Таниқли тарихчи олимларимиз Н.Каримов, Д.Алимова, Б.Қосимовлар ўз тадқиқотларида жадидчиликнинг XX аср бошларида майдонга чиққанлигини ва маърифатпарварликдан кудратли сиёсий ҳаракатга қадар бўлган

ривожланиш йўлини босиб ўтганлигини таъкидлайдилар (Қаранг: 4, 23-34, 35-52 бетлар). Туркистон халқларининг миллий онги ва маънавиятига, миллий ўзлигини англашига кучли таъсир кўрсатган жадид маърифатпарварларининг ғоялари ҳам жамиятнинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги тарихий ўзгаришлар таъсири остида мазмунан бойиб борди. Туркистонда жадидларнинг бирлашиши ва кенг қанот ёзишида “жадидлар раҳбари” деб тан олинган Маҳмудхўжа Бехбудий (1879-1919 йй.)нинг хизматлари бекиёсдир. У тарихимизнинг ғоят оғир ва мураккаб бир даврида, яъни XVI асрдан бошланган инқироз ва диний жаҳолат, ўзаро ички низолар ва миллий парокандалик туфайли ўлкани забт этган Россия мустамлакачилари уни турғун ва тутқун сақлашга уринаётган бир шароитда яшаб ижод қилди. У диний ва дунёвий билимларга бир хил муносабатда бўлиб, улар асосида ёшларни миллий руҳда тарбиялаш, маърифат ва тараққиётга бошлаш лозимлигини таъкидлайди. У жамият ислохотини мактаб ва мадрасадан бошлаш зарур, чунки миллат ҳаёти таълим-тарбия билан белгиланади, деб кўрсатади. М.Бехбудий устози Россия жадидчилик ҳаракатининг асосчиси Исмоилбек Гаспринский билан учрашувлари ва 1899-1900 йилларда ҳаж сафари давридаги дунёвий таассуротлари таъсирида 1903 йилда Самарқанд атрофида ўз ташаббуси ва маблағлари ҳисобидан “усули жадид”, “усули савтия” номлари билан шуҳрат топган янги мактаблар ташкил этади. Адиб бу мактаблар учун дарсликлар тузишга киришади. Шу тариқа унинг “Рисолаи асбоби савод” (1904), “Рисолаи жуғрофияи умроний” (1905), “Рисолаи жуғрофияи Русий” (1905), “Китобатул-атфол” (1908), “Амалиёти ислом” (1908), “Тарихи ислом” (1909) номли китоблари яратилади.

Маърифат учун мактаб ислохоти билан бирга дунё воқеалари билан танишиб бориш, миллат ва Ватаннинг кундалик ҳаёти ва аҳволидан хабардор бўлиш зарурияти М.Бехбудийни матбуот ва театр соҳасидаги фаолиятга ундади. Ўзбек драматургиясининг биринчи намунаси бўлган “Падаркуш” драмаси ушбу фаолият самарасидир. Унда ўқимаган боланинг бузуқ йўлга кириб ўз отасини улдиргани, халқнинг нодонлиги ва жаҳолати тасвирлаб берилади. 1913 йилдан у матбуот ишлари билан шуғулланиб “Самарқанд” (ҳозирги “Зарафшон”) газетасини туркий ва форсий тилларда чиқара бошлайди. Сўнгра 1913 йил августидан “Ойна” журналини ташкил этади ва унда миллат ва унинг ҳақ-ҳуқуқи, тарихига, тил-адабиёт масалаларига, дунё воқеаларига бағишланган мақолалар чоп этилган. М.Бехбудий журналнинг 1913 йил 13 август биринчи нишона сонидан чоп этилган “Икки эмас, тўрт тил лозим” номли мақоласида “Арабий билмасак дин, русча билмасак дунё қўлдан кетар. Туркий ва форсийнинг кераклигига сўз йўқтур. Яна бир хил тил борки, бутун олам бир-бирига анинг ила сўйлайдур. Ул франса хати ила тилидур... Бизга лозимки, ўз нафъилик учун русча билайлик, ҳукумат мактабларида ўқийлук. Давлат мансаблариға кирайлук... Мусулмон бўлиб

туриб, тараққий қилайлук...”, деб ёзган эди. Ўлимидан бироз аввал ўз маслакдошларига “маорифни Бухоро тупроғига ёйингиз”, деб васият қилади.

Жадидчилик XX аср бошларидан 1917 йил февраль инқилобига қадар бўлган ўз ривожининг биринчи босқичида маориф ислоҳоти, янги типдаги мактабларни очиш, халқни маърифатлаштириш ғояларини илгари суриб жадид мактаби, матбуоти, адабиёти ва театрига асос солдилар. Ўз ижтимоий-сиёсий қарашларида эса парламентар монархия тузумини ёқлаб Давлат Думасида туркистонлик вакиллар бўлишига, сўнгра бирлашиб ягона мусулмон партияси тузиш ва Бутунроссия мусулмонлари иттифоқига киришга интилдилар. Шу тариқа жадидчилик етук сиёсий миллий озодлик ҳаракатига айланди. XX аср бошларига келиб Туркистон ўлкасида миллий уйғониш даври бошланди. Бу жараён етакчилари жадид зиёлилари эдилар. Ҳоли забун, руҳи сўник миллатнинг қадим маданияти, иқтисодиёти ва маиший турмуш тарзини тиклаш учун аввало уни маърифатли қилиш лозим эди. Замонавий илмдан беҳабар ҳар қандай миллат, ҳар қандай жамият таназзулга учрамоғи тайинлиги боис жадид зиёлилари миллатни бундай офатдан халос этмоқликни ҳам қарз, ҳам фарз деб билдилар.

Февраль инқилоби, чор ҳукуматининг заифлашуви ва ниҳоят большевикларнинг ҳокимият тепасига келиши давларида жадидчилик ҳаракати ўзининг иккинчи босқичида асл сиёсий мақсадини ифодаловчи ғояларни – миллий истиқлол, мустақил давлатни барпо этиш, демократик ҳуқуқ ва эркинликлар берилган ва конституцион жиҳатдан кафолатланадиган демократик жамиятни шакллантириш ғояларини амалга оширишга киришди. М.Бехбудийнинг “Ҳақ берилмас – олинур” сўзлари жадид маърифатпарварларининг шиори бўлиб қолди. Бироқ, мустабид шўролар тузумининг таъқиби, кучли ва бирлашган сиёсий ташкилотга эга бўлмаганлиги ҳамда халқ оммасини ҳали уйғота олмаганлиги боис жадидлар ўз мақсадларига эриша олмадилар. Маркази Қўқонда бўлган “Туркистон мухторияти” ҳукуматини шўролар давлати гўдаклигидаёқ янчиб ташлади, жадидлар таъқиби авж олди.

Мустабид совет тузумининг ҳукмронлиги ва таъқиби авж олган XX асрнинг 20-30 йиллари даврида жадидчилик ўзининг сўнгги якунловчи босқичини бошдан кечирди. Бу даврда улар халқимиз олиб борган миллий озодлик ва мустақиллик курашининг яловбардори ва ғоявий раҳнамолари бўлдилар, маданият ва маориф соҳасида самарали фаолиятларини давом эттирганлар. Ушбу даврдаги жадидлар фаолиятининг уч йўналишини таъкидлаш мумкин: миллий озодлик кураши сифатида кўтарилган “босмачилик ҳаракати”га ғоявий ташкилий раҳбарлик қилиш, махфий уюшган сиёсий ташкилотларда фаолият олиб бориш, шўро ҳукуматининг мустамлакачилик сиёсатини демократик асосда ошкора танқид қилиш. Истиқлолчи жадидлар эътибор берган асосий масалалардан бири миллий руҳни тарбиялаш ва миллий ўзликни англашни шакллантириш бўлди. 20-йилларнинг биринчи ярмида маданият ва маориф соҳасидаги фаолиятларида

ўнлаб янги мактаблар очадилар, бу мактаблар учун дарслик ва қўлланмалар яратадилар, нашриётлар ташкил этадилар, театр санъатини ривожлантирадилар, турли маданий-маърифий тўғараклар уюштирадилар. (Қаранг: 4, 188-189 бетлар). Кўп жанрли жаид адабиёти – шеърят, драматургия, проза ва публицистика ривожланишда давом этиб халқимизнинг миллий озодлик курашида, халқнинг миллий онгини уйғотиш ва ўзлигини англашда, миллий қадриятларни улуғлашда муҳим роль ўйнади ва унинг қалбида миллий ифтихор туйғусини авж олдирди.

Мустабид тузумнинг таъқиби ва тазйиқига қарамасдан инсон эрки, миллат озодлиги ғояларини тарғиб қилган жаид маърифатпарварлари XX асрнинг 20-30 йилларидаги репрессив сиёсат, айниқса, 1937-1938 йиллардаги қатағон қурбонлари бўлдилар. И.А.Каримов ўзининг “Юксак маънавият - енгилмас куч” асарида таъкидлаганларидек, тарихимизнинг оғир давларида ҳам илму маърифат ва маънавиятимиз байроғини баланд кўтарганлар қаторида Маҳмудхўжа Бехбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний, Абдулхамид Чўлпон, Абдурауф Фитрат, Усмон Носир каби бошқа юзлаб маърифатпарвар, фидойи инсонларнинг эл-юрт манфаати, юртимизни ривожлантириш мақсадида амалга оширган эзгу ишлари авлодлар хотирасида абадий сақланиб қолади. (Қаранг: 3, 43). Бугун атоқли маърифатпарварларимизнинг орзу-армонлари тўлиқ ушалди. Миллий мустақиллигини қўлга киритган халқимиз кенг қўламли ва узоқни кўзлаган ислохотларни амалга оширмоқда. Бу эса маърифатпарвар жаид зиёиларининг номлари ҳам, ғоялари ҳам ҳамиша барҳаёт эканлигидан далолатдир. Хусусан, Самарқанд вилоятида М.Бехбудий таваллудининг 145 йиллик юбилеи кенг нишонланди, ҳар йили нуфузли илмий жамоалар муассислигида жаидларнинг илмий-педагогик меросига бағишланган “Бехбудий ўқишлари” илмий-амалий конференцияси ташкил этилиб келинмоқда. Жаид маърифатпарварларининг ислохотлар йўли билан жамиятни янгилаш, маърифат ва тараққиётга етаклаш ғоялари бугунги кундаги жамиятимизни инновацион ривожлантириш ғоялари билан ҳамоҳангдир. Айниқса, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон республикасини ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясини ҳамда 2022-2026 йиллардаги Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясини ҳаётга татбиқ этиш учун мустақил юртимизнинг янги тарихида “ислохот”, “инновация”, “модернизация”, “маънавий янгилаш”, “маърифатли жамият”, “Учинчи Ренессанс” сингари ғоялар асосидаги амалиёт ўзининг ижобий самараларини бериб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент; “O’zbekiston” нашриёти, 2021.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24 январь 2020 йил. – “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19(7521).
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
4. Жадидчилик: ислохот, янгилашиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т.: “Университет”, 1999.
5. Raxmanov, A. Sharq renessansi davri gumanizmining gnoseologik va ontologik asoslari. //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, 2(10), 668-674 b.

JADIDCHILIK HARAKATLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALALARI

Mustafoyeva Feruza

*O'zbekiston Milliy Universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo hududidagi jadidchilik harakati va bu harakatlarda ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari haqida fikr-mulohazalar, xulosalar va amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvar, muftiy, xayriya jamiyatlari, ilmsizlik, makotib, milliy teatr, jaholat.

Аннотация: В данной статье представлены мнения, выводы и практические предложения о движении джадидизма в Центральной Азии и вопросах духовно-нравственного воспитания, выдвигаемых в этих движениях.

Ключевые слова: новый, просвещенный, муфтий, благотворительные общества, невежество, школа, национальный театр, невежество.

Abstract: This article presents opinions, conclusions, and practical suggestions about the Jadidism movement in Central Asia and the issues of spiritual and moral education put forward in these movements.

Key words: modern, enlightened, mufti, charitable societies, ignorance, makotib, national theater, ignorance.

Bizga tarixdan yaxshi ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda ham ma'rifatparvarlik harakati vujudga kelgan edi. O'sha davrda mavjud bo'lgan jamiyatdagi o'zgarishlar tarixiy sharoitdan kelib chiqib namoyon bo'ldi. Bu kabi o'zgarishlarda katta rol o'ynagan ziyolilar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'llarini topishga harakat qiladilar. Bu esa

tarixda "Jadidchilik" deya nom qoldirgan harakatning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Qrim-tatar ma'rifatparvari bo'lgan Ismoil G'aspirali (1851–1914-yillarda yashagan) keyinchalik butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli xalqlarning madaniyatini o'rgangan mashhur ma'rifatparvar shaxs edi. U o'zi egallagan bilimlar asosida Sharq va G'arb dunyosini taqqoslab, turkiy xalqlarning taraqqiyotga erishish yo'llarini izlagan. Ismoil G'aspirali 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jadid maktabiga asos soladi. U o'zi tuzgan ta'lim dasturi asosida darslik tayyorlaydi. Shu dastur bo'yicha 40 kunda 12 ta o'quvchining savodi chiqariladi va bu usul "usuli savtiya" – harf tovushi usuli, ya'ni "usuli jaded" nomi bilan mashhur bo'ladi. Uning 1888-yilda "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" nomli kitobi chop etiladi. Unda yangi usul maktablarining ta'lim tizimi, dars o'tish va uning tashkil qilinishi, o'quv xonalarining jihozlanishi, dars jadvali, ta'tillar va imtihonlar haqida bayon etilgan edi.

Asli arab tilidan olingan bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatgan "jadid" atamasi keyinchalik butun boshli xalqni ilm-ma'rifatga chorlagan ziyolilarga nisbatan qo'llanila boshlaydi. Turkiston xalqparvarlari mustamlaka bo'lgan xalqlarni, eng avvalo, maorif tizimini yaxshilash, ta'lim sohasini isloh qilish, yoshlarga diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy fanlarni ham o'qitish zarur, deb bildilar. Ular musulmon xalqlarining maktab va madrasalarida yoshlarga diniy ta'lim, arab, fors va rus tillari, tibbiyot, kimyo kabi fanlar o'qitilishi zarurligi g'oyasini ilgari surganlar.

XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Boboaxon Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Ma'rifat va ilm nuri ila o'z xalqini uyg'otishga uringan, millat istiqbolini o'ylagan jadidlarning Turkistondagi rahbari sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy maydonga chiqdi. Bu harakatlarga bosh bo'lganligi sababli "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" sifatida tan olingan edi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tariladi. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'l boshchisi, bu yo'lda o'z jonini qurbon qilgan taraqqiyparvar

shaxs edi. Behbudiy va boshqa ziyolilar yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do'konlari ochadilar. Ular xalqni ozodlikka eltuvchi yo'lni uni ma'rifatli qilishda deb bilardilar. Behbudiy Ismoil G'aspirali yo'lga qo'ygan «usuli jadid» maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatadi. Yangi tipdagi maktablarning milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil bo'la olishi mumkinligi haqida o'nlab maqolalar yozadi. «Muntaxabi jugrofiya umumiy» («Qisqa umumiy geografiya»), «Kitobat-ul atfol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyoti islom», «Madhali jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Muxtasari jug'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha geografiyasi») kabi darsliklar yaratadi. Nashriyot tashkil qilib, darsliklar va qo'llanmalar, xaritalar bosib chiqargani ma'lum. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatida emas, til-yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur «Padarkush» dramasi adabiyotimiz tarixida yaratilgan ilk dramatik asar edi. Bu asar orqali o'zbek teatrining tamal toshi qo'yilgan edi. Ushbu asar orqali Behbudiy tarbiyasizlik, axloqsizlik va ilmsizlikning qanday mudhish oqibatlar keltirib chiqarishini tasvirlagan. Adibning o'zi buni asar qahramonlaridan birining tili orqali quyidagicha tasvirlaydi: «Bizlarni xonavayron... bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...». Ushbu dramaning zamirida ma'naviy-ruhiy, tarbiyaviy ma'no yotadi. Asarda ifoda etilgan g'oya faqat o'sha davr uchun emas, balki bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Hozirgi kunda qanchadan qancha yoshlarning jinoyat sodir etayotganligi, kattalarga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'layotganligi – barchasi tarbiyasizlik, ilmsizlikning oqibatidir. Bu dramadagi voqealar bugungi ota-onalar uchun ibrat bo'lishi kerak. Toki ota-onalar farzandlariga ilm va tarbiya bersinlarki, ular bunday qabih va gunoh ishlarni sodir etmasinlar. Shu sababli ham asar g'oyasi necha yillar o'tsa ham dolzarb bo'lib qolaveradi.

Taraqqiyparvar ajdodimiz Behbudiy o'z zamonasi yoshlariga murojaatida bunday yozgan edi: «Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, makotib – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'paytirmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirib madaniyatdan foydalanmas» [1]. Behbudiy bu murojaati orqali maktabni taraqqiyning boshlang'ichi bilib, har bir millat, eng avvalo, maktabni isloh etishi kerakligini, uni isloh etmasdan taraqqiyotga erisha olmasligini, madaniyatdan orqada qolishini aytgan. Uning fikrlari nafaqat o'sha davr uchun, balki bugun uchun ham naqadar to'g'ri va haqlidir. Hozir ham mamlakatimizda maktablarni isloh etishga, ta'lim sifatini yaxshilashga nechog'liq e'tibor berilayotganligini barchamiz bilamiz. Behbudiy va boshqa jadidchilarimiz millatning haqiqiy fidoyilari sifatida zamon talablarini chuqur anglay olganlar va shu talablarni amalga oshirishga intilganlar. Jadidlar ko'plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga o'qishga yuborish, u yerda ular tahsil olib kelib, yurt va millat

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Ibragimov Alisher Qurbon o'g'li

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrası
o'qituvchisi,*

Ibragimova Zebiniso Safarbayevna

Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani 2-sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda ijtimoiy sohadagi islohotlarning olib borilishi, inson manfaatlarining ta'minlanishi, uning davlat va jamiyat qurilishidagi ahamiyati, milliy yuksalish tamoyillari aks etgan.

Аннотация: В статье отражены осуществление реформ в социальной сфере в нашей стране, защита интересов человека, его роль в построении государства и общества, принципы национального роста.

Annotation: This article reflects the implementation of reforms in the social sphere in our country, ensuring human interests, its importance in building the state and society, the principles of national progress.

Kalit so'zlar: Milliy yuksalish, inson, demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, inson manfaati, erkinlik, farovonlik, ijtimoiy qadriyatlar, iqtisodiyot, ma'naviyat, taraqqiyot.

Ключевые: слова: национальный подъем, человек, демократия, верховенство закона, гражданское общество, интересы человека, свобода, процветание, социальные ценности, экономика, духовность, развитие.

Key words: National progress, human, democracy, rule of law, civil society, human interests, freedom, prosperity, social values, economy, spirituality, development.

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligi va ijtimoiylashuv xususiyatlarini shakllanishi, rivojlanishi va amal qilish qonuniyatlari tadqiq qilish, uni yanada takomillashtirish bo'yicha nazariy jihatdan asoslangan va yangi xususiyatlari hisobga olingan tavsiya va tavsiflar ishlab chiqish muhim vazifaga aylanmoqda. Bugungi kunda islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilgan davrida yoshlarning Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, irodalilik, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni shakllantirish, ma'naviy jihatdan ma'suliyatini shakllantirish muhim masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida zamonaviy sharoitda islohotlar amaliyotini samarali ta'minlashda yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini yuksaltirish, fuqarolik mas'uliyati va innovatsion tashabbuskorligini oshirish lozimligi yuzasidan quyidagilarni ta'kidlaydi: "Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga

yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lamini va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz" [1, www.uza.uz].

Zamonaviy sharoitda jamiyat hayotini har tomonlama rivojlantirishda yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish, fuqarolarni davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning bevosita ishtirokchisiga aylantirish dolzarb ahamiyatga molik masaladir. Jamiyatda islohotlar samaradorligini oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishda yoshlarni innovasion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ularni ijtimoiy jarayonlarning to'laqonli ishtirokchisiga aylantirish taraqqiyotga oid tamoyillarni amaliy asoslarini namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda "Mehnat unumdorligini oshirish, sifatini yaxshilashga va insonning ijodiy tashabbuskorligiga ko'maklashuvchi inson omilini faollashtirish ushbu ijtimoiy iqtisodiy va ma'naviy vazifalarning to'g'ri, ilmiy asoslangan holda qo'yilishi bilan bog'liqdir" [2, 37-b].

Shuning uchun ham yoshlarning ijtimoiy faoliyati, ma'rifiy tafakkuri, ma'naviy qarashlari va innovatsion bilimlari jamiyatda olib borilayotgan islohotlarni samarali amalga oshirishda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aksincha, "Fuqarolar siyosiy hayotda faol ishtirok etmasa, mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlar sustlashadi. Aholining ongli faoliyati siyosiy jarayonlarda belgilovchi mohiyatga ega ekanligi jamiyat a'zolarining mamlakatda amalga oshayotgan yangilanish va islohotlar davrida faol ishtirok etishini talab etadi" [3, 19-b].

Keyingi yillarda zamonaviy sharoitda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi muammolarga bag'ishlangan bir qator asarlar, tadqiqotlar, ilmiy maqolalar yaratildiki, bular o'z navbatida mavjud muammolarni aniqlash va yechimlarini topishning nazariy asoslarini muayyan darajada o'z ichiga oladi. Bu kabi olimlardan N.Jo'rayev, J.Yaxshilikov, S.Karimov, S.Otamurodov, I.Ergashev, Q.Nazarov, A.Xolbekov, S.Jo'rayev, M.Quronov, Q.Quronboyev, S.Choriyev, A.Jalilov, B.Ochilova, A.Saitkasimov [4, 68-b], O.G'aybullayev, F.Ravshanov, S.Mirzayev singari olimlarimiz ilmiy ishlarida jamiyatda fuqarolarni ma'suliyatini oshirish masalalari yuzasidan turli ilmiy izlanishlar mavjud.

Jamiyatda yoshlar ijtimoiy faolligini yuksaltirishda ularni ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy, huquqiy va ma'naviy bilimlarini rivojlantirish, ma'rifiy jihatdan tarbiyalash, ularni zamonaviy ijtimoiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq qonuniyatlar amal qiladi. Yoshlar bilan bog'liq tizimlarni rivojlantirishni ta'minlashning mexanizmlari amaliyotga tadbiq etishda yoshlarning ma'suliyatsizligini vujudga kelishining oldini olish, bu sohadagi mavjud muammolarni o'rganish, ularni hal etish bo'yicha ilmiy xulosalarni berish tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

A.Saitkasimovning ta'kidlashicha, "Fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilish, uni jamiyat siyosiy jarayonlarida o'ziga xos o'ringa ega ekanligini hamda mamlakatda barqaror muhitni asrash borasida asosiy vazifalardan birini bajarishi bo'yicha tegishli xulosalarni berish muhim ahamiyatga ega masala hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida jamiyatda sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzini, xalqimizning tinchligi, osoyishtaligi, faol mehnat munosabatlari va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirib borish bilan bog'liq jarayondir" [5, 3-b].

Shulardan kelib chiqib, yoshlarni ijtimoiy faolligini innovatsion jihatdan takomillashtirishda quyidagi muhim vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq:

1.Jamiyatda vujudga keladigan yoshlar ijtimoiy faolligi mohiyati, mazmuni va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;

2.Yoshlar faolligining jamiyatning ijtimoiy hayotni yangilash va modernizatsiyalash bilan bog'liqligini tahlil etish;

3.Yoshlar faolligining ijtimoiy hayotda aks etishining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish;

4.Yoshlar faolligini shakllantirishda milliy urf-odat va an'analarning o'rnini ilmiy tahlil etish;

5.Jamiyatning turli sohalarida yoshlar ijtimoiy faolligining innovatsion tafakkurini shakllantirish bilan bog'liq muammolarini yoritish.

Shuningdek, albatta, yoshlar ongidagi destruktiv qarashlarning o'rnini konstruktiv g'oyalar bilan to'ldirish jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash jarayonlari o'ziga xos siyosiy qonuniyatlar bilan bog'liq bo'lib, mazkur jarayon jamiyatning turli sohalarida yoshlarning faolligini innovatsion shakllantirish muammolarini nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi. Jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yoshlar hayotidagi ma'naviy ma'naviy beqarorlik jarayonlari ijtimoiy hayot rivojlanishida salbiy rol o'ynaydi, shuning uchun yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash borasida ham muhim chora-tadbirlarni takomillashtirish lozim bo'ladi.

Yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlash ularni jamiyat barqaror taraqqiyotidagi ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyatini oshiradi, natijada taraqqiyotga oid muhim tamoyillar vujudga keladi. D.Ernazarovning ta'kidlashicha, "Shuni alohida ta'kidlab aytish lozimki, milliy xavfsizlik tushunchasi o'z ichiga davlatning hayotiy faoliyatlarining ravnaqini ta'minlovchi barcha siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy va boshqa sohalaridagi stabillik darajasini ta'minlanganligi, ya'ni ularning rivojlanishida tashqi va ichki salbiy ta'sirlarning xavf solmasligidir. Fuqarolik jamiyati esa ana shunday xavf-xatarlarni o'z vaqtida anglashi va ularga qarshi kurashish strategiyasini belgilab berishi lozim" [6, 87-b].

Yoshlari ijtimoiy faolligini yuksaltirishda yangi ijtimoiy-ma'rifiy targ'ibot texnologiyalarni qo'llash orqali jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ma'naviy beqarorlik illatlarining oldini olish mumkin. Yoshlar tafakkurini

rivojlantirish, bu boradagi nazariy qarashlarni jamiyat hayoti bilan bog'lash amaliyotini yo'lga qo'yish yo'nalishlarini belgilash, falsafiy mushohada qilish va bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning nazariy-metodologik asoslarini boyitish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda amaliy jarayonlarda qo'llash va yoshlarning ilm olishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish chora-tadbirlarini amaliy ro'yobi uchun tegishli ilmiy taklif va tavsiyalarni havola etadi.

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, ularning huquqiy va ma'naviy faolligini oshirishda mamlakatimizda fuqarolar, o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat, jamoat, nodavlat va notijorat tashkilotlarining o'ziga xos mas'uliyati, vazifalari va xatti-harakatlari muhim ahamiyatga egadir. Bu esa, o'z navbatida jamiyatda sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzini, xalqimizning tinchligi, osoyishtaligi, faol mehnat munosabatlari va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirib borish bilan bog'liq jarayondir.

Ijtimoiy faollikini shakllantirishning muhim xususiyatlaridan biri yoshlar mas'uliyatini yuqori bo'lishidir. Jamiyatda ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda yoshlar o'zlarining faolligini namoyon etishi ularning tafakkuri, innovatsion bilimlari, ma'naviy qarashlari, axloqiy tarzidan, milliy manfaatlarni anglashidan kelib chiqadi.

Yoshlarni jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda innovatsion mexanizmlarining quyidagilardan iborat:

- yoshlar ijtimoiy va siyosiy faolligi, ma'naviy va huquqiy mas'uliyatining ijtimoiy hayot bilan bog'liq omillar hisoblanadi;
- yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy-siyosiy institutlarning roli va ahamiyati katta hisoblanadi;
- jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash, modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirishda yoshlar ijtimoiy faolligining o'rni muhim hisoblanadi;
- jamiyatning turli sohalarida yoshlar ma'suliyatini shakllantirish muammolarini nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etib borish va bu borada sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish muhim jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnoma. 29 dekabr, 2020 y. www.uza.uz
2. Saitova L. Fayzullayeva S. К Вопросы о взаимосвязи культуры труда и духовного роста человека //Общественные науки в Узбекистане, 1997. -№1-2. -S. 37.
3. Rasulov H. Siyosiy faollik //Jamiyat va boshqaruv, 2009. №3. –B. 19.
4. Saidkasimov A. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari. –Toshkent: Tafakkur. 2019.- B. 68.
5. Saitkasimov A. Jamiyat barqarorligi va shaxs mas'uliyati. -Toshkent, Tafakkur, 2013. –B. 3.
6. Ernazarov D. Fuqarolik jamiyati milliy xavfsizlikning yaxlit tizimi sifatida //Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. –Toshkent, 2006. -№2. –B. 87.

ТУРКИСТОН МИЛЛИЙ ТАРАҚҚИЙПАРВАРЛАРИНИНГ ЗАРАРЛИ УРФ-ОДАТЛАР ВА ТЎЙ-ҲАШАМЛАРДАГИ ИСРОФГАРЧИЛИККА ҚАРШИ ФИКРЛАРИ ХУСУСИДА

Дилора Назаровна Ражабова
Самарқанд давлат университети доценти

Маълумки, инсоннинг тақдири, келажак ҳаётидаги ютуқлари ёки муваффақиятсизлиги, бахтли ёки бахтсизлиги, касб танлаши, ҳаттоки кайфияти, унинг оилавий муҳити билан боғлиқдир. Оиланинг тақдири эса инсоннинг ўзига боғлиқ. Жамиятнинг маънавий киёфаси оилаларнинг қандайлигига боғлиқлиги азалий ҳақиқат. Чунки, оила жамиятнинг ижтимоий-маънавий бўғини, кичик бир вакили бўлиб, айнан оила заминида халқимизнинг бугунги куни ва келажаги бунёд этилади. Агар оила ўз фарзандини Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбияласа, бу ҳис-туйғу унга бутун ҳаёти давомида ҳамроҳ бўлади. Мамлакатимизнинг мустақиллик даврида оилаларимизнинг ижтимоий ҳуқуқини ҳимоя қилувчи ва қафолатловчи кўплаб муҳим қонун ва қарорлар қабул қилинди. Айниқса, “Инсон манфаати”, “Аёллар”, “Оила”, “Соғлом авлод”, “Ёшлар” йиллари эълон қилинганлиги, бу борада Ўзбекистон ҳукумати томонидан бир қанча қарорлар қабул қилинганлиги бу соҳаларда мавжуд бўлган муаммоларни муваффақиятли ҳал этишни таъминлаб, ижтимоий-маънавий ҳолатни янада такомиллаштиришга сабаб бўлди.

Оиланинг маънавий-ахлоқий киёфаси аجدодларимиздан бизга ўтган билим ва тажриба, маданий қадриятлар асосида ва замондошларимиз эришган ютуқлари негизида барпо бўлади. Ўтмишимизга назар ташлайдиган бўлсак, халқимизнинг оилавий анъана ва урф одатлари юқори маданий даражада бўлганлигининг гувоҳи бўламиз. Шунинг ҳам таъкидлаш лозимки, маъриатпарвар Исмоилбек Гаспринскийнинг “Бир миллатнинг қувват ва матонати, унинг саодати ва фароғати аҳлининг оз-кўплиги эмас, аъзоларидаги маданият ва тараққиётга омил ҳаётий хусусиятларининг даражаси билан ўлчанади” (“Илм ва маърифат даври” (1908) деган сўзларига амал қилган ҳолда миллий тараққиётпарварларимиз жамиятни орқага тортадиган зарарли урф-одатлар ҳақида гоё-фикрлари бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас. Чунки улар халқни ҳар хил иллатлардан сақловчи куч сифатида илмни билганлар. Бу гоё эса ҳозирги даврда ҳам долзарбдир.

Бугунги кунда Ўзбекистонда тўй-ҳашамларни тартибга солиш мураккаб масала, уларни ихчам, камхарж қилиш ҳақидаги зиёлиларнинг чақириқларига 100 йилдан буён кулоқ тутилмаётгани сўнгги икки йил мобайнидаги муҳокамаларда кўп бора айтилди. Исмоилбек Гаспринскийнинг «Таржумон» газетасида «Россия мусулмонлари ўртасидаги маданий изланишлар» мақоласида (1901,40-сон) “Россия фуқароси бўлмиш мусулмонлар маърифат

йулида харчанд орқада қолиб кетган бўлмасин, ҳар ҳолда уларда, гарчи яширин ва кўз илгамас даражада бўлса ҳамки, маънавий уйғониш ва тамаддун ҳамда тараққиёт йўлига қадам қўйиш нишонлари мавжуд эканлиги рад этмоқ жуда қийин¹⁸, деб ҳисоблаган ва ўз фикрларини давом эттириб, "Ғоя" (1895) деб номланган мақоласида "...миямизни қоплаб олган жаҳолатни тарқатувчи, аҳволимизни тушунтириб бергувчи, тараққиёт хусусида ўйлашга, илгарига интилишга мажбур қиладиган вазифа ва орзуларни ўз олдимизга қўймоқ керак эмасми?", деган саволни ўртага ташлаган.

Мунавварқори Абдурашидхонов бу ҳақда «Нодонлик ва дунёдан хабарсизлик балосидан кутулмоқ учун аввал орамизда ҳукм сурган бузук одатларнинг бузуклигини билмак ва урганмак керакдир», деб жавоб бергандек, фикр билдирган.

Атоқли жадид маърифатпарвар Махмудхўжа Бехбудий 1915 йил "Ойна" журналида чоп қилинган "Бизни кемиргувчи иллатлар" мақоласида эса "...биз бўлса, бадбахтона ва Худонинг амрига бўюн қўймасдан кофирона бир сурагда тўй ва азо деган, йўқ бўлушимизга сабаб бўлган одатларга бору йўқимизни сарф ва исроф этармиз", деб ёзган¹⁹ ва "Таълим ва тарбияга сарф қилинадурган ақчани тўй ва таъзияга сарф этармиз. Чунки биз ҳануз таълим ва тарбия қадрини билмаймиз...", деб сабабини ҳам кўрсатган²⁰. "Йилда икки ой Наврузи қоир учун сайр этармиз. Бир ой муқаддам Самарқандни Панжакент қаабасидаги наврўз сайрига мушак-фишанг отишдан учгина киши ўлуб, ўндан зиёда киши мажруҳ бўлди. Кўпқари улоқ чопмоқлик одати малъунонасига ҳар вилоятдан ҳар сана юзлар ила киши охирагга кўчар, на қадар киши мажруҳ ва маъюб бўлар. Кўп кишилар сайр ва кўпқари шумлиги ила ишдан ва зироат вақтидан қолур. Уйига озукаси йўқ, ҳўкузи ва соғар сийири йўқ экан, бир неча юз сўмга от олиб ва ҳар кун анга ҳиндидек парастии этиб, ҳар кун бир сўм сарф этар, на учун? Тўй ва сайрга кўпқари чопмоқ учун. Ўн-йигирма чақиримга тўй бўлдим, ҳар ким ишини, деҳқончилигини қўюб, отланиб кўпқарига кетар. Деҳқон учун олтундан азиз вақт фавт бўлди-кетди. Экин биргина кун кейин сепилган учун пишмай қолар. Биргина кун сўнгра йигилган учун ёгинга қолиб, баъзи хирманлар чириб кетар.

... Ўлук ва тўй учун ҳафталар, ҳатто ойлар ила ишдан қолурмиз. Ҳолбуки, шореъи аъзам, пайгамбари ақрам саллолоҳи алайҳи вассалам ҳазратлари ўлганни тез кўмуб ва кўмгандан сўнгра тез тарқалиб, ишга кетмоқга ва ўлукхона халқини уч кундан зиёда таъзия тутмасга, қаро киймасга, кир, фалокат бўлмасга амр этадилар. Эй халқ! Эй мусулмонар! Биз на учун худо ва Расулнинг сўзига ва ўзимизни нафъимизга амал қилмаймиз? Биз девонами? Биз таклифдан ташқарими?

¹⁸ Вамбери Х. Маърифат йулидаги уйғониш.// Тафаккур, 2000,2-сон, 60-81-бетлар.

¹⁹ Ойна, 1915, 13сон, 338-342-бетлар.

²⁰ Ўша жойда, 346-б.

Шариат китобларидан “Фароиз, яъни Худони буйруғи деган қитобларга: “Ўлукни молидан аввалан ўлукга керакли мувофиқ суннат ва исросиз кафан қилиб, дафн қилмоқга сарф қилинсун, сўнгра қарзини берилур. Сўнгра ортган молларни варисаси (меросхўр)га мувофиқи шариат тақсим қилиниб берилур”, - дейилган экан, биз билъакс кафандан сўнгра қарзга бермай ва ҳатто сағир ва бенаво хотунларни меросини йиртиш, азойи, садақа, хайрот, билмайман, нималар ужраси деб, қарздан ворисидан илгари тақсим қилиб олармиз. Беш-олти маърака ва худойи, 8-10 жумъа оқшоми деб бутун маҳалла ва қишлоқ халқига палов берармиз. Баъзи бир бечора сағир ва муштипар аёллар меросдан ва ҳақларидан ноқис олуради. Баъзи қарзхоҳларни ҳаққи худойи ва хайрот, нохудойи ва шаррот сабаби ила куюб кетар. Бечора ўлукни зиммаси қарздан қутулмай қолур. Худо учун айтингиз. Бу хайротми, бу худойими? Беш-олти кун сўнгра бу худойи ва хайротлар учун варисани ҳаққи бўлган мол ва ерлар сотилур. Берилган данга адрас, азойи ва ганиларни олган йиртиш ва садақалари учун берилур. Энди бечора вариса дарбадар, ҳам отадан, ҳам ватандан айрилди-кетди...

...Биз қилатургон ақлсизлигимизни қайси миллат қилур? Никоҳ, ҳатна, бу икки бало шундоғ қаттиқ бир иллатки, ўлмагунча қутулуб бўлмайду. Шаҳарларда ўртаҳол. Яъни ўтурарга хона ва боғи бор бир киши никоҳ учун икки минг сўм ар этар ва ўғил ҳатнаси учун ҳеч бўлмаганда минг сўм. Ҳар бир бенаво киши бу мавридларига 200 сўмдан 1000 сўмгача сарф этар. Бой ва зўраки бойлар эса беш минг, ўн минглаб сарф этар. Охири нима бўлур? Нима бўлур дейсиз? Ота-бобосидан қолган мулк ва ватанини ўз ихтиёри билан зўраки бойни ўзи ўлгандан сўнгра бир яҳудий ё бир армани ажнабийга сотиб, тўй ва таъзия қарзини берар. Ўзи сотмаганга судга сотилур. Мана, юқоридаги сарлавҳада “Бизни кемиргувчи иллатлар” деган одатларимиз, шу тўй ва таъзия исминдаги девоналигимиздан иборатдур.

Бир дўкончи, бир гулкор, бир фақирҳол, бир косиб учун бу тўй ва таъзиялар ўлумдан қаттиғдурки, мунинг учун бечора ҳар кун ўлур. Ҳар кун ўлгон ила-да қутулмас. Ўзидан сўнгра аҳлу аёлига бу йўқсуллик ва бу мусибатни мерос қўяр. Хўб, яхши, ўз молини тўй ва таъзияга исроф этсун, барбод этсун, кўзи чиқсун. Хай, бонқа оқчасини, биров пулини на учун барбод этар? Бу девоналикни у тарафи эмасми? Бу ҳол ила 20-30 сана ўтса, ер ва ҳавлилар ажнабийларга ўтуб, аксар халқимиз гадоилик даражасига инур. Элик сана муқаддам ер сотилса, бир мусулмон оларди. Энди бошқалар олур. Мана, энди биз шу ҳол билан яна йигирма-ўттуз йил ўткарсак, халқимизни ярмидан зиёдаси ватансиз, ерсиз, дарбадар бўладургони маълум ва ошкордур. Бир ҳавлида, бир рўзгорда, масалан икки ўғул, икки қиз бор. Ато ўлса, ани моли тўрт бўлинур. Аларни ҳар бирига никоҳ ва ҳатна ва ўлум мавридлари муқаррардир. Ўзларини замонча илми ва ҳунари йўқки, контурга, маҳкамага, бонқага кириб вазифа олса. Энди лойилож атторлик ва ё баққоллик ва у бўлмаса, муздурлик ва мардикорлик қилиши лозим келиб, бу ишларда фақат аларни қорни тўядур. Ортдурмоққа йўқ. Мунинг устига тўй

ва таъзия деган даҳшатлик балолар келгандан сўнгра бу азиз оила ва рўзгорга ёниб кул бўлмоқдан бошқа илож йўқдур.

...Инсонни бу қадар ахлоқлиги ажибдур. Бизга лозимки, тўй ва таъзияларни кичик қилиб ва ҳолимизча ҳаракатда бўлуб, келар замонамизни ўйлайлук.

Бизни ақлсизлигимизни охири ва мисрларимизни хотимаси динимизга футур келмоқга сабаб бўлур. Дин учун. Масжид ва мактаб учун ақча, сарват, давлат, сомон керакдур. Тўй ва таъзияга сарф қилинатургон оқчаларимизни биз, туронийлар, илм ва дин йўлига сарф этсак, анқариб, Оврупоелардек тараққий этармиз ва ўзимиз-да, динимиз-да обрўй ва ривож топар. Йўқ, ҳозирги ҳолимизга давом этсак, дин ва дунёга зиллат ва мискинатдан бошқа насибамиз бўлмайдур”.

“Зўраки бой” мақоласида²¹ ҳам “...исрофгарлик этмаса, тўй ва аъзо деб ўзини барбод этмаса одам албатта ортдурарди. Тўй лозим, хатна, никоҳ, унинг орқасидан кетиб узулмас бир сурук маърака ва қоидалар лозим. ...Тўй қилмаса, бўлмайдур. Бас,ноилож ўйлаб-ўйлаб дўкандорлик, яъни баззозлик ва чойфурушлик ва ё бошқасини қилмоқчи бўлуб дўкон очар. Бонкалардан кредит (эътабар) очар. Ўн минг сўмлик меросий мулки бор экан. Беш бонкадан уч минг сўмдан 15 мин сўм қарз олур... Қавму-қариндошдан вексел олиб, бонқага қўяр. Эгасиз фабрикант молини тўғри келган кишига насия берар. Бир тарафдан яхши от ва аробаларга ҳаваси кетар, экипаж, файтунлар ва маскав отлари олинур. Дигар тарафдан, ҳовлига замона одамий ўлтуратургон иморатлар қилинур. Бу иморатларни ва дастгоҳни одамларга кўрсатмоқ учун зиёфатлар, базмлар керак. Ферма ва онкаларни мудир ва аъзоларини-а аларанг шампанскилик зиёфатлар қилмоқ керак. “Зўраки бой” жанобларини (нг) хотун ва ўғли ҳам мундан ранг олиб, исрофга юз қўяр. Чунки Худо берган давлат қаердан келиб, қаерга кетар? Зўраки бойни ўзи ҳам билмас. Бир вақт тўй навбати етти. Энди терламоқни замони келди. Машваратлар, прўграмлар тузалур. Босмахонадан зархаллик хатлар сипориш берилур. Ёддан чиқғони тилгиром таклиф қилинур. У қадар беҳуда масори бўлурки, ҳисоби сингандан сўнгра маълум бўлур. Бу тўйни базми, жувони, кўбқариси, фашианги инъоми у қадар кўб, у қадар қизиқ бўлдики. Мунга ўхшаган бошқа бир зўраки бой ҳам ўзини анга ўхшатмоқ, балки ўткармок учун ўзини жардан ташламоқга ҳозирланур. Яъни мундан зиёда этмоқчидур...

Маҳмудхўжа Бехбудий бу масалани “Эҳтиёжи миллат” мақоласида ҳам давом этган²².

Абдурауф Фитратнинг “Оила” асарида эса ижтимоий омил сифатида оиланинг жамиятдаги ўрни, болаларнинг ижтимоий, ахлоқий ва меҳнат тарбиясига алоҳида эътибор берилган. Шу билан бирга соғлом, маърифатли оила ва у вояга етказадиган ҳар томонлама етук авлоднинг шу миллат ва

²¹ Ойна, 1914, 16-сон, 270-273-бетлар.

²² “Самарқанд” газ., 1913, 12 июль.

мамлакат иқтисодий-сиёсий ривожининг, шу юрт шону-шуҳрати, қудратининг пойдевори абадул-абад мавжудлигининг муҳим шартларидан эканлиги таъкидланган. Шу жумладан, *"...тўй муносабати билан бир қатор диндош ва ватандош ёр-биродарлар бир жойда йиғилиб, хурсандчилик қилиб, самимий суҳбат қилсалар, албатта, бир миллат аъзолари ўртасида бўлган муҳаббат ва меҳрибонлик зиёда бўлади. Баъзилар орасидаги олдинги кек ва кудурат шу баҳонада йўқолади. Бунинг устига қанча мискин ва муҳтож одамлар шу маврид билан тўй неъматларидан баҳраманд бўладилар. Шунинг учун ҳам тўй фойдали маросимдур. Имом Бухорий ва Имом Муслим саҳоба Анас бин Моликдан бир хил ривоят келтирадилар: "Абдурахмон ибн Аввор уйланмоқчи бўлганини Пайғамбарга хабар берганида шундай деб буюрдилар: "Муборак бўлсин. Битта қўй сарф бўлса ҳам тўй қил. Лекин ҳар бир ишнинг муайян ҳадди ва чегараси бўлади. Тўй фойдали бўлса ҳам чегарадан ўтса, зарардан бошқа нарса бўлмайди".*

Бизнинг мамлакатимизда тўй кўп зарарларга сабаб бўлган ҳоллари мавжуд. ...Шундай одамлар борки, ўн-ўн икки йил давомида беш-олти минг сўм маблағни зўр бериб йиғадилар. Бир ҳафта ичида ҳаммасини "тўй" номи илан nobуд қиладилар, яна қарздор ва камбағал бўлиб қоладилар. Тўй кунлари сарпо кийган, еб ичган одамлар тўй эгасининг аҳволини кўриб, масхара қиладилар. Ҳатто, келиб аҳволин сўрамайдилар ҳам. Агарда бу беандишадан: *"Шунча мол-ҳолни нимага беҳудага сарф ва ҳарж қилиб, бу қора кунга тушдингиз? Қайси дин, қайси мазҳаб, қайси ҳукумат ва қандай қонун сизларни бу аҳмоқона ишга мажбур қилди?"*, – деб сўрасангиз, албатта, жавоб бера олмайдилар. Бундай тўйлар ислом шариатида йўқ, чунки бу исрофгарчиликдир, исроф эса шариатда ҳаромдир. Ибн Маъсуд (р.а.) ривоят қиладилар: *"Пайғамбар (с.а.в.) дедилар: "Тўйда биринчи куннинг таоми ҳақ, иккинчи куннинг таоми суннатдир, лекин учинчи куннинг таоми риёдир. Ким риёкорлик қилса, Худо унинг иккиюзламачилигини ҳалойиқ ичида ошкор қилади".* Абу Ҳурайра (р.а.в.) ривоят қиладиларки: *"Набий алайҳис-салом дедилар: "Икки одам бир бирларидан ўтиш учун тўй ва зиёфат қилсалар, биронтасиникига борманглар, уларнинг таомларидан еманглар".* Аммо сўраганларимиз иккинчи жавобни берганларга: *"Ахир бу исрофгарчилик-ку",* - деймиз. Одам ва ҳайвон ўртасида фарқ шундаки, одам қилмоқчи бўлган ишини ўзининг ақл кучи билан ҳар томонлама ўйлаб оқибатини андиша ва мулоҳаза қилади. Ҳайвонлар бундан мустасно. Энди сиз бир одат ва русумнинг зарари ё фойдасини ўйламай, уни урф-одат деб жорий қилсангиз, ҳайвондан қандай фарқингиз қолади?"²³, деб кескин фикр билдирган.

И. Ибрат, С. Сиддиқий-Ажзий, М. Сўфизоданинг асарлари ва шеърлари ва публицистик мақолаларида ҳам илғор илм-фан, маданият янгиликларини

²³ Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари // Масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. Тарж. ва изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов. – 2-нчи нашр – Т.: "Маънавият". 2000. – 31-33-бетлар.

ўз халқига тарғиб қилиши, зарарли урф-одатларга қарши кураш олиб бориш ғояларини кузатиш мумкин²⁴.

Абдулла Авлоний ҳам давр учун кераксиз исрофгарчилик, зарарли урф-одатларнинг ҳаётга, инсонга салбий таъсири ҳақида ўзининг “Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ” асарида фикр-мулоҳазалар билдирган. “Ким нимани яхши кўрар” мақоласида *“Тўй ва маъракаларда болаларнинг умрини бекор ўтқаришини яхши кўрарлар...”*, “Маданият тўлқунлари” номли мақоласида эса *“...тўй деб мингларча ақчаларни беҳуда исроф қилмак, тўйларда жомафурушлик қилмак, вайрона ва харобазорликга солади... Бир оз орқа-ўнғга қарамак, ҳамёнингиз оғзини маҳкам илмак, иқтисодни риоя қилмак, исрофдан сақланмак лозимдур. Ажабо. Бу исроф тўлқунлари бизларни на ерга олиб борадур?.. “Дард устига чипқон” дегандек, кундан кун бидъат устига бидъат ортмакда”*, деб муносабат билдирган²⁵.

Шамсиддин Нажмий “Сайлов муносабати ила хотунлар масаласи” деб номланган мақоласида *“Ажабо, асрлардан бери туй, аъза, маърака, сир зиёрат, мазорларга чиқиб юрган хотинларимизни ихтисоб этмаган зотлар, энди ўз дин ва миллий ҳуқуқимизни қўлга келтурмок учун, аёлларнинг мундай азоб ва ҳижоб доирасида сайловга катнашмоқларигами каршилиқ кўрсатурлар? Хар ишининг оқибатини андиша ва фикр қилиб, сўнгра ул ишга киришмок керак”*²⁶, деб ушбу масала ва хотин-қизларнинг аянчли аҳволига нисбатан ўз муносабатини билдирган.

“Садои Туркистон” газетасида чоп этилган “Идорага мактублар” мақоласида даъват сифатида қуйидагича ёзилган эди: *“Эй, муҳтарам оталар! Эркаклардан кўпроқ қизлар учун латта-путталар учун исроф қиладургон сўмларингизни дин ва дунё учун керакли бўлган тарбия ва таълим қўлига сарф қилмоқлигингизни...таманно қилурмиз...”*²⁷.

Тўлаган Хўжамеров (Тавалло) ҳам бу масалани четлаб ўтмади ва “Хамширалар тилиндан шеър”и билан ўз ижодида унга муносабат билдирди:

“...фойда йуқ сизлара тўй зиёфатдан...

...Маржонлар керакмасдур...

Кечдик баргак ва олтун зираклардан

*Ўқитинг, қутқаринг дунёда бизларни маломатдан”*²⁸.

Миллий тараққийпарварлар қаерда ва қайси асрда тарих саҳнасида пайдо бўлмасин, улар бутун бир халқ тақдирида чуқур из қолдириб кетганлар. Афсуски, улар яшаган тарихий шароит ва уларни вужудга келтирган халқнинг ижтимоий-маданий даражаси улар ғояларининг қанот ёзиши ва реал кучга айланишига имкон бермади. Лекин халқ миллий онгининг кўз очиши. улар қалбида ҳуррият, Ватан, миллат ва истиқлол сингари сўзларининг нурларини таратишида Беҳбудийлар, Фитратлар,

²⁴ Ибрat. Сиддикий-Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар. – Тошкент, “Маънавият”, 1999.

²⁵ Авлоний А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: “Маънавият”, 1998. 304 б.

²⁶ Хуррият. -1917.-25июль.

²⁷ “Садои Туркистон” газетаси, 1914, 24 декабрь.

²⁸ Ўша жойда

Чўлпонлар, Қодирийлар, Авлоний ва бошқаларнинг хизматлари оз эмас. Бинобарин, уларни асарларидаги ғояларининг халққа етиб бориши истиқлол даврига, истиқлол мафкурасига, истиқлол самараларининг мустаҳкамланишига, албатта, хизмат қилади.

JADIDLAR FALSAFASIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASINING IFODALANISHI

Axrorova Maxina

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada komil inson konsepsiyasi, jadidlar falsafasida komil inson g'oyalarining ilgari surilishi haqida so'z yuritilgan va asarlarida komil inson haqidagi g'oyalar misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, komil inson, timsol, konsepsiya, umummilliy g'oya, barkamol, badiiy adabiyot.

Аннотация: В статье говорится о понятии идеального человека, пропаганде идеалов идеального человека в философии древних, а идеи идеального человека в его произведениях анализируются на примерах.

Ключевая слова: современный, совершенный человек, символ, концепция, национальная идея, совершенный, фикция.

Abstrakt: The article talks about the concept of the perfect man, the advancement of the ideals of the perfect man in the philosophy of the ancients, and the ideas about the perfect man in his works are analyzed based on examples.

Keywords: modern, perfect person, symbol, concept, national idea, perfect, fiction.

Insoniyat tarixida kishilar eng ko'p o'ylagan va o'rganishga ehtiyoj sezgan muammolardan biri – insonning tabiati masalasidir. U aqlini tanibdiki, o'zining kelib chiqishi, mohiyati va tutgan o'rnini hamda aqli doirasida bajaradigan vazifalarini har doim diqqat markaziga qo'yib keladi. Qadimda Sharqda ham, G'arbda ham insonga nisbatan Koinotning buyuk mo'jizasi, noyob hodisasi sifatida qarashgan. Shu sababli ham butun dunyoda insonda qalb va aql uyg'unligiga erishish, ya'ni barkamol avlod tarbiyasi masalasiga milliy ma'naviyat sifatida katta ahamiyat beriladi. Komil inson masalasi qadimdan bashariyatni qiziqtirib, u haqidagi ma'lumotlar manbalarda, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy merosi va badiiy adabiyotda saqlanib kelgan [1].

Komil inson asrlar mobaynida kishilarning orzusi, istagi, ideali bo'lib kelgan. Komillik to'g'risidagi fikrlar nafaqat faylasuflarni, balki shoir va yozuvchilar, ta'lim fidoyilarining diqqat markazida bo'lgan. Komil inson g'oyasi o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi.

Jadid ma'rifatparvar allomalarning fikrlari, o'z navbatida XX asr boshida millatimiz taqdiri va hayotida naqadar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, ushbu fikr hozirgi davrda ham muhimdir. Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspralining ta'kidlashicha, g'oya yoki milliy g'oya, millat va yurt ravnaqiga kerak bo'ladigan mustahkam poydevordir. Ismoil Gaspralining "Rossiyada musulmonchilik: fikrlar, qaydlar va kuzatuvlar" asarida Rossiya hukumatining musulmon mamlakatlari aholisiga va islom jamiyatida yuzaga kelayotgan har xil o'zgarishlarga munosabatlariga to'xtaladi. Rossiya musulmonlari madaniy rivoji uchun milliy maktablar va umummilliy dorilfununlarni yaratish hamda boshlang'ich ta'limni ona tilida olib borishga mo'ljallangan o'zining dasturni targ'ib etadi. Ushbu dasturni amalda qo'llash va tizimlashtirish uchun esa Ismoil Gasprali millat foydasi uchun "umummilliy g'oya" ishlab chiqishni taklif qiladi. "Umummilliy g'oya"ning tub mohiyatiga millatni ulug'lash, millat maqsadlarini yuqori ko'tarish, millatning haqiqiy birligini saqlash kabi eng ulug'vor maqsadlarni qo'yadi [2].

Adabiyotshunos H.Boltaboyev jadidchilikning ma'naviy ildizlarini quyidagicha sanab o'tadi:

1) jadidchilik o'zining dastlabki bosqichida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-huquqiy asoslarini Amir Temur tuzgan markazlashgan davlat tizimida ko'rdi. Shuning uchun ham hatto 1910-yillar jadid dramaturgiyasida Amir Temur siymosini tiriltirishga intilish (Temur nomi Fitratning 30 dan ortiq ilmiy, publisistik asarlarida tilga olinadi) kuchaydi;

2) jadid madaniyati ma'naviy hayotda temuriylar davri adabiyotining cho'qqisi sanalgan Alisher Navoiy ijodini o'ziga namuna bilib, o'ziga singdirish orqali yangi adabiyotni yuksaltirishga yo'l topdi. Shuning uchun ham "Chig'atoy gurungi" v.b. madaniy-ilmiy muassasalarda dastlab Navoiy davri adabiyoti, tili, ilmi hamda madaniyatini o'rganishga chaqiriq seziladi;

3) xalqning shonli tarixi, madaniyatini jahonga tanitishni; taraqqiy etgan millatlar safida o'zini ko'rishni istadi, buning uchun:

- a) istiqlol g'oyasini ilk bor kun tartibiga chiqardilar;
- b) konstitutsion monarxiya tarafdori bo'ldilar, Turkiston tarixida o'z Nizomi, dasturiga ega bo'lgan siyosiy partiyalar tuzildi;
- d) musulmon Renesansiga tayanib, dinni isloh qilishni ko'zlatdi;
- e) ma'naviy hayotda tasavvufni, ayniqsa, naqshbandiylik tariqatini kamolot yo'li deb tanidi; Bedil, A.Donish falsafiy qarashlaridan foydalandi;
- f) yangicha o'qita oladigan murabbiylar yetishtirish, milliy darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga urindi;
- g) teatr, matbuot, matbaa, kutubxonalar tashkil etish: fransuz, rus, turk madaniy o'choqlari bilan bog'lanishga intildi;
- h) til siyosatini yo'lga qo'yimoqchi bo'ldi;
- i) jahon adabiyotining sara namunalarini o'qib-o'zlashtirishga chaqirdi, milliy kadrlar masalasini ko'tardi [3].

Turkiston o'lkasida jadidlarning milliy birlik borasidagi harakatlari musulmon aholisi o'rtasida matbuot, adabiyot va san'at orqali zamonaviy bilimlarni egallashga, jamoat ishlarida qatnashishga qiziqish uyg'ota olganlar. Turkiston jadidlari milliy g'oyani Rossiya musulmonlaridan olgan bo'lsalar ham, milliy lashtirib, moslashtirib shakllantirganlar. Turkiston ma'rifatparvar jadidlari dastlab ta'lim, zamonaviy bilimlar targ'iboti va mahalliy aholining turmush darajasini o'zgartirishga qaratilgan dastur asosida faoliyat olib borganlar. Jadidchilik ta'limoti o'zining ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga ko'ra, falsafiy nuqtayi nazardan ezgulikka asoslangan insonparvarlik g'oyalaridan oziqlangan holda o'z davridagi qoloq va tarqoqlik holatiga tushgan yurtni jaholat botqog'idan olib chiqish va taraqqiyot yo'liga boshlash uchun milliy ongni ma'rifat nuri bilan yoritmoq zarurati paydo bo'ldi. Shuning uchun ham komil insonni tarbiyalash, barkamol avlodni shakllantirish jadid ziyolilarining bosh maqsadiga aylandi, ular falsafasida yangi davr qahramoni obrazi shakllandi. Komil inson konsepsiyasining Sharqona genezisi va vorisiyligi umumlashtirilganda, ruhiy-ma'naviy yetuklik, barkamol inson - o'tkir aql, teran his – tuyg'ular, o'tkir sezish qobiliyati, idroki va yuksak fazilatga ega bo'lgan inson ekanligi ma'lum bo'ladi. Komil shaxs fazilatlarida kishi aqlni huda-behuda narsalarga sarf etmasligi, har bir so'zi aql va odob tarozisida tortilib, mulohazasi e'tiqodiga monand bo'lmog'i, bajargan har bir ishidan afsus chekmaslik uchun odobi bilan boshqalarga namuna bo'lmog'i va ajralib turmog'i lozim.

Mazkur jadidchilikning ma'naviy ildizlari "umummilliy g'oya" dasturida o'z aksini topdi hamda Turkiston o'lkasi jadidchiligi, ya'ni Xiva, Buxoro, Toshkent va Samarqand maktablarining vakillaridan iborat bo'lgan ziyoli qatlami tomonidan musulmonlari dunyoqarashida shakllantira boshlangandi. Xuddi shunday marifatparvarlarning dunyoqarashini o'zgartirgan norasmiy dasturi sifatida qabul qilingan Abdurauf Fitratning "Munozara" va "Hind sayyohi" asarlaridir.

Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy vasiyatida shunday yozadi: "Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevanu bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur; bevanlik darbadarlik, asorat faqir va zaruratu xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir [4]". Behbudiyning bashorati orqali inson, dunyoga taraqqiy qilgan xalq faqat ilm vositasi bilangina kamolotga erishishi mumkinligini anglaymiz.

Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan har sohadagi ishlar bitta g'oya - milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayonini tashkil qildi. Milliy uyg'onish birgina adabiyot doirasida qolgani yo'q, ijtimoiy turmushning barcha qatlamlarini qamrab oldi, hatto "bosmachilik" nomi bilan "g'alati mashhur" bo'lib tarixga kirgan hodisaning ham mafkurasi milliy uyg'onishga, uning samarasi bo'lmish mustaqillik uchun kurashga kelib bog'lanardi [5]. Ana shu g'oya ostida jadid adabiyotida qahramon ijobiy bo'ladimi, salbiymi, baribir, birinchi navbatda to'laqonli inson bo'lib, uning har bir harakati, qiligi, so'zlari ham baquvvat ichki mantiqqa ega edi, kitobxonni hech qanday gap-so'zsiz ishontirishga qaratilgan edi.

Shunday obrazlar haiqda atqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov yozadi: "Agar yozuvchi ijobiy obraz yaratayapman deb, uni maqtab ko'klarga ko'tarsa, faqat ajoyib fazilatlar-u, nodir sifatlarining egasi qilib tasvirlasa, obraz emas, chuchmal siropday me'daga tegadigan farishta mijoz sxema tug'iladi, xolos. Ijobiy qahramon ham, salbiy qahramon ham mushtarak badiiyat qonunlari asosida yaratilmog'i kerak [6]". Chunki, asar o'quvchini hayajonga sola olmasa, uning estetik dunyosini boyita olmasa, uning yaxshilikka va yomonlikka munosabatini o'tkirlashtira olmasa, unda nimalar aytilmasin, qanday mavzu va muammolar qo'yilmasin, u haqiqiy san'at namunasi bo'la olmaydi [7].

Davr adabiyotida qahramon ijobiy yo salbiy bo'ladimi inson bo'lgan. Jadidlarning asosiy konsepsiyasi – komil insonni tarbiyalash bo'lgan. Abdulla Avloniy yozadi: *Islomiyat – komil insoniylikdir. Insoniylik esa yaxshi xulqdan iborat* [8]. Ushbu fikrlar zamirida Abdulloh ibn Amir roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadis yotganini anglash mumkin: "Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uyimizda o'tirganlarida onam meni chaqirib: "Beri kel, bir narsa beraman", - dedi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam unga: "Nima bermoqchisan?", - dedilar. "Men unga xurmo bermoqchi edim", - dedi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam unga: "Ammo, agar hech narsa bermaganingda, senga yolg'on yozilar edi", - dedilar. (Abu Dovud va Bayhaqiy rivoyat qilganlar). Ushbu hadisi sharifda onaning bir og'iz gapida ham bola tarbiyasiga katta ta'sir qiladigan omil borligi uqtirilmoqda. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, har bir farzand ko'proq ta'lim-tarbiyani o'z onasidan oladi. Chunki ona bolasi tarbiyasiga qanchalik ko'p e'tibor qaratsa, farzandlari odobli, komil insonlar bo'lib yetishadi. Shu sababli ham, ota-onaning o'zi tarbiyali va odobli bo'lsalargina, bolalarga namuna bo'la oladilar. A.Avloniyning "*Islomiyat – komil insoniylikdir*" deyish bilan farzandlarimizga yaxshi axloqlarni o'rgataylik, dunyoning o'tkinchi lazratlariga, zebu-ziynatiga ruju' qo'yishiga yo'l qo'ymaylik, ularga yoshligidan halol-haromni o'rgataylik kabi fikrlarni olg'a suradi. Islomiyat, ya'ni islom dini, tasavvuf bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, islomiyat so'fiylar axloqi hamdir. Bu haqda adabiyotshunos olim M.Muxiddinov shunday keltirgan: "So'fiylar axloqi – komil inson axloqidir. Bu kamtarinlik xoksorlik niyozmandlik sabru chidam sohibi bo'lish, xushtavoze'lik saxiylik rahmdillik va hokazolardir [9]". Demak, kamtarinlik, xushtavoze'lik so'z bilan bog'liq. A.Avloniy so'zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi rolga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho berdi. So'zning ma'nosiga alohida diqqat qildi. Til va so'z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi: "... so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadur gon tarozudir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar..." "Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lub, o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadur gon bo'lmasa, asalarilar orasida g'o'ng'illab yurgan qovoqari kabi quruq g'o'ng'illamoq, faqat bosh og'rig'idan boshqa bir narsa emasdir. Boshimizga keladur gon qattiq kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun «ko'p o'yla, oz so'yla» demishlar":

*Kim izoh qilibdi husn nimasi:
Kelishgan ko'krakmi, xushbichim qomat?
Yo shaxlo ko'zlarimi? Lekin goho biz
Bularning hech birin husn demaymiz.
So'z bilmas lablarni mumkinmas sevmak;
Otashsiz nigoh u - hidsiz bir chechak!*

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston..." da aql va ilmning ulug'lanishi adib ma'rifatchiligining mazmunidir. Bu haqda u shunday yozadi: "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir... Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidin keladurgon zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson... aql va idroki soyasida o'ziga keladurgon zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo'ynidan boylab, iplarining uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidur".

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, jadidchilik davridagi komil inson ta'limoti xalqning orzu-istaklari, fikr-o'ylarini aks ettirgan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad xalqni komil inson qilib tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirish, turli aqida va toifaga mansub kishilarning ongu-shuuriga ilohiy xislatlar, iymon-e'tiqod, axloq, go'zal fazilat va xulq-odob qoidalarini singdirish bo'lgan. Ikkinchidan, jadid ziyolilar tomonidan komil insonga xos xususiyatlarning ochib berilishi keyingi shoir-yozuvchilarning asarlari, qarash va g'oyalarining ma'naviy asosi bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. –Тошкент: Ўзбекистон, 1995; Ўзбекистонда ижтимоий-ахлоқий ва гуманистик фикрлар тарихининг муҳим босқичлари. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.
2. Амриддинова Д. Комил инсон концепциясининг жадиdlар фалсафий меросида ривожлантирилиши // Yangi O'zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7. – Б. 129.
3. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадиdчилик. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.68-70.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent, 2022. -B.143.
5. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент, Маънавият, 2004. – Б.2.
6. Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. Эссе. – Тошкент: Ёш гвардия, 1998. – Б.63.
7. Соатова Н. Анъанавийлик ва ворислик. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2019. - B. 116.
8. Abdulla Avloniy. – Toshkent, 2022. - B.90.
9. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2015. – Б.230.

TARAQQIYPARVARLIK HARAKATINING O'LKA IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIGA TA'SIRI

Tagayev Ganisher Xasanovich

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi dosenti v/b.*

Annotasiya. Mazkur maqolada Taraqqiyparvarlik harakatining vujudga kelishi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati, madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy g'oyalarining o'lka hayotiga ta'siri haqida fikr yuritgan. Shu bilan bir qatorda, mahalliy iqtidorli yoshlarni chet davlatlarga o'qishga yuborish, Turkiston xalqini ma'rifatli qilish, ilm o'rgatish, maktablar ochish, qoloqlik davrida insonlarni dunyoqarashlarini o'zgartirish, Turkiston o'lkasini rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish, bir so'z bilan aytganda uchunchi renessansga poydevor yaratish kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: Taraqqiyparvarlar siyosiy maqsad va vazifalarini, mustamlakachilik siyosati, jadid matbuoti, milliy an'ana va urf-odatlar, yosh avlod tarbiyasi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot, chor imperiyasi yuritgan mustamlakachilik siyosati, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongdagi turg'unlik – jadidlarni jahon taraqqiyoti tajribasidan foydalanib, tezlikda bu holatdan chiqish yo'llarini izlab topishga chorladi.

Taraqqiyparvarlar o'z asarlarida asosan Turkiston va Buxorodagi mavjud urf-odatlar, eski madrasa ta'limi, xurofot va jaholatni, mahalliy boylarning savodsizligini tanqid ostiga oldilar. Taraqqiyparvarlar vaqtini o'ynab o'tkazuvchi zamonlar o'tib ketganini, endi bilim olish, ilm-fan kuchi bilan turmush tarzini o'zgartirishni talab etuvchi yangi davrning kelganini aytmoqchi bo'lgan: «Hozir yangi va boshqa zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalq boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo'lidan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar.... Buning uchun biz musulmonlarni o'qutmoqqa sa'y qilmog'imiz lozimdur...»[3:156]. Bu fikrga jiddiy, xalq va mamlakat taqdiri bilan bog'liq g'oya olg'a surilganiga hattoki, bu masalaning umummilliy darajagacha ko'tarilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Ushbu g'oyaviy yo'nalishni Munavvarqori Abdurashidxonov, Hoji Muyin, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Shakuriy, Abdulla Badriy, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab jadidchilik harakati namoyandalari ham o'z asarlari, maqolalarida yoritdilar.

Taraqqiyparvarlar o'lka maktab va maorif ishlarini rivojlantirish, uni yuksaklarga olib chiqish borasida ko'plab ishlar qilishdi. Xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishidan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirishi;
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish;

3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil yetishga qaratilgan gazetalarni chop etish;

Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxoniy, Ubaydullaxo'ja Asadulla Ho'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qigan musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi[4:289-291].

Taraqqiyparvarlar o'z kurashlarida nafaqat madaniy-ma'rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni ham belgilab berdilar. Ular Turkistonning mustaqilligi, istiqloli uchun, uning chor hukumati mustamlakasidan ozod etish g'oya va maqsadlarini aniqlab, o'z kurash yo'llarini belgiladilar. Ular o'z siyosiy maqsad va vazifalarini, shu bilan birgalikda madaniyat, ma'rifatparvarlik g'oyalarini xalqqa yetkazish, ularning ongiga singdirish yo'lida Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Buxoro shaharlarida gazeta va jurnallarini nashr etishni kuchaytirdilar. Kundan kunga bu gazeta va jurnallarning soni ko'paya bordi. 1917-yilgi fevral inqilobiga qadar "Taraqqiy" (1906), "Xurshid" (1907), "Tujjor" (1907), "Shuhrat" (1907), "Osiyo" (1908), "Samarqand" (1913), "Sadoi Turkiston" (1914), "Sadoi Farg'ona" (1914) gazetalari, "Oyna" (1914), "Al-isloh" (1915) jurnallari xalq ommasida keng tarqaldi. Manbalar guvohlik berishicha, jadid gazetalari mahalliy xalqni madaniyat va ma'rifatga chorlagan. Bu gazetalar asta-sekin bo'lsa-da, barcha eskirgan aqidalarga qarshi mahalliy xalqning ko'zini ochishga harakat qildi.

Taraqqiyparvarlar matbuot vositasi bilan el va xalqni zabunlikdan, g'aflat va jaholatdan, chor mustamlakasidan qutqarishni o'z oldilaridagi maqsad va vazifa deb belgiladilar hamda "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Oyna", "Turon", "Buxoroi sharif" gazeta-jurnallari orqali o'z g'oyalarini targ'ibot qildilar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning 1906 yil 11 oktabrda «Xurshid» gazetasida chop etilgan maqolasida ta'kidlanishcha, jadidlar birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butun Rossiya musulmonlari ittifoqi tarkibiga kirishlari zarur. Shu bilan ular Rossiyadagi barcha turkiy xalqlar orasidagi progressiv kuchlarga taxnishga intildilar. Behbudiy ushbu maqolasida sotsial – demokratlar partiyasiga nisbatan o'zining salbiy munosabatini bildiradi va bolsheviklar partiyasi dasturining musulmonlar turmushi talablariga muvofiq kelmaydigan xayoliy (utopik) qarash ekanligini 1906 yildayoq bashorat qilgan edi. XX asr tarixi Behbudiy fikrlari to'g'ri ekanligini to'liq isbotlab berdi[2:56]. Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-huquqlarini ovrupoliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi»[4:296-297].

Jadidlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o'z g'oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurashga alohida ahamiyat berganlar. Bu vazifalarni amalga oshirishda ular taraqqiyparvar, bilimli yoshlarga

tayanganlar. Ular o'z ishlarida Yevropa davlatlari taraqqiyotga qanday yo'llar bilan yetib kelganligini aks ettirib, tarixiy misollar keltirganlar. Jadidlar til o'rganish va fan-texnika taraqqiyotining ahamiyatiga alohida e'tibor berib, Turkistonning o'tmishdagi hamda zamonaviy holatining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda, uning kelajagini quyidagicha tasavvur qilganlar: kuchli dunyoviy hokimiyat, xususiy mulkning daxlsizligi. Ular qurmoqchi bo'lgan davlat islomga hurmatini saqlagan holda barcha yo'nalishdagi madaniyatlarning erkin rivojlanishiga xayri xoh bo'lishi lozim edi. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Ular davlat kelajagi yoshlar qo'lidaligini juda yaxshi anglaganlar[5].

Mahmudxo'ja Behbudiy ma'rifat haqida, mahalliy xalqdan yetishib chiqishi lozim bo'lgan yosh milliy mutaxassislar haqida fikr yuritib, mahalliy bolalarni Peterburg, Qozon va boshqa yirik shaharlarga ilm olish uchun yuborishga chaqiradi. Bu tashabbuslar keyinchalik butun Taraqqiyparvarlar tomonidan Turkiston hamda Buxoro amirligi xududida ham targ'ibot etiladi. Afg'oniston orqali Germaniyaga umidli Turkiston yoshlari kelajakda o'z yurtlarini rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish maqsadida o'qishga jo'natiladi. Uchinchi Renessans davriga poydevor sifatida yosh avlod tarbiyasi, ta'lim olishi aynan taraqqiyparvarlik xarakatlari davrida ilgari surildi. Ming afsuslar bo'lsinki, mustamlakalik yuki, xalqning bilimsizligi, yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik bu maqsadlarni ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qildi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan umumiy xulosa qilsak, bugungi yosh avlod tarbiyasida Taraqqiyparvarlik harakati ijtimoiy-siyosiy qarashlari, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning amalga oshirgan amaliy ishlari, Turkiston farzandlarini o'qitish uchun olib borgan sa'yi-xarakatlari, ilmiy merosi namunalaridan yosh avlodni o'qib, kamol topishida foydalanish bugungi ta'lim tizimining asosiy mezoniga aylanib borishi kerak.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021.
2. Алиев А. Бехбудий. Т., 1994. 56-бет
3. Бехбудий М. Аъмолимиз ёинки муродимиз. // Ойна. 1913. № 7.
4. Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. 2- том. Тошкент, 2010.
5. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати", 1999 йил, 25 июнь.

IJTIMOIIY DAVLATDA IJTIMOIIY HAMKORLIK VA ADOLAT TAMOYILLARINING O'ZARO BIR-BIRIGA BOG'LIQLIGI

Jaxongir Anarbaev Botir o'g'li
JDPU, tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy hamkorlik hamda bu munosabat mezonini bo'lgan adolat tushunchasiga alohida urg'u qaratilgan. Hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy hamkorlikning hamda ijtimoiy adolatning o'rni va ahamiyati qay darajada muhim ekanligi e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, Jamiyatning demokratlashuvi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy adolat, bozor iqtisodiyoti

Abstract: This article focuses on social cooperation and the concept of justice, which is the criterion of this relationship. It was also recognized how important the role and importance of social cooperation and social justice is in building a civil society.

Key words: Social state, democratization of society, civil society, social cooperation, social justice, market economy

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется социальному сотрудничеству и понятию справедливости, которая является критерием этих отношений. Также было признано, насколько важны роль и значение социального сотрудничества и социальной справедливости в построении гражданского общества.

Ключевые слова: Социальное государство, демократизация общества, гражданское общество, социальное сотрудничество, социальная справедливость, рыночная экономика.

Bugungi kunda yurtimizda kechayotgan huquqiy demokratik davlat va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi asosida fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida demokratik tartibot, barqaror rivojlanish muammolariga e'tibor oshib bormoqda. Albatta, bu jarayonlar jamiyat hayotining barcha sohalarida qonuniylik, ijtimoiy adolat, erkinlik va demokratiyani qaror toptirish bilan bog'liq. Aynan shunday ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarga tayanuvchi ijtimoiy hamkorlik tizimini shakllantirish hamda mustahkamlash keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar sharoitida kechadi. Zero, amalga oshirilayotgan yangilanish va taraqqiyot siyosatining maqsadi – yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun munosib hayot sharoitini yaratish, negizida moddiy jihatdan ta'minlangan, axloqiy jihatdan mustahkam oila bo'lgan adolatli jamiyatni shakllantirishdir. Biroq hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyoti ildiziga bolta urayotgan illatlar soni kam emas. Proteksionizm, korruptsiya, buyrokratizm, mahalliychilik, boqimandalik va shu kabilar yaqqol misol bo'la oladi. Yuqorida sanab o'tilgan illatlar jamiyat rivojiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi jarayon ekanligi hammamizga ma'lum. Bunday illatlarga qarshi kurashish yakka fuqaroning irodasiga bog'liq bo'lmaganini

inobatga olsak, biz birgalikda, bir butun kuchga aylanib tinchlik va barqarorlik yo'lida faol ishtirokchi bo'lishimizni davrning o'zi talab qilmoqda. Mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan bugungi kunda fuqarolarimiz o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda kishilarning bir maqsad yo'lida birlashib, yakdillikda, adolat mezonini asosidagi ijtimoiy munosabat muhitini yaratishi o'ta muhim masaladir. Shunday ekan ijtimoiy hamkorlik jamiyatning demokratlashuvi va ijtimoiy adolatni amalga oshirishning omili sifatida ham ahamiyatlidir. Bu borada T.B.Mattiboevning "...mamlakatimizda erkin va farovon jamiyat barpo etish – maqsad, amalga oshirilayotgan islohotlar – vosita bo'lib, jamiyatimizda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, o'z navbatida, islohotlar uchun shart-sharoitlardir. Bularning barchasi adolatning jamiyatimiz hayotiga nechog'lik joriy bo'lishiga bog'liq, zero adolat bo'lmasa, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishilmaydi. Busiz esa, o'z navbatida, ijtimoiy hamkorlik ham qaror topmaydi" [1,b–89-90]–degan fikrni keltirib o'tishimiz mumkin. Demak, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi, uni yangi rivojlanish bosqichiga ko'taruvchi muhim tamoyillardan biri adolatdir. Aynan adolat tufayli jamiyatda ijtimoiy hamkorlik keng ko'lamli va mustahkam poydevor yaratiladi. Shu ma'noda adolatni jamiyat hayotining tub va asosiy qonunlaridan biri sifatida tushinib, uning ijtimoiy hamkorlik tamoyillari bilan vositaligi va bu bog'liqlikning jamiyat barqaror taraqqiyotidagi o'rnini tahlil qilish zarur.

Darhaqiqat, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish bizning, o'zbekona ma'naviyatimizning uzviy bir bo'lagiga aylanib ulgurgan. Uni amaliyotda to'liq joriy qilish orqali ko'plab ijtimoiy muammolarning yechimiga javob topish mumkin. Jamiyatdagi tuzulmalarning birgalikda, umumiylikdagi hamkorligi – bu jamiyatda faol ijtimoiy munosabatlar o'rnatilganidan dalolat beradi. Tabiiyki, "faol ijtimoiy hamkorlik bu – jamiyat barcha a'zolarining, ijtimoiy guruhlarining umumiy maqsad yo'lida, birgalikda faoliyat olib borishi, shuningdek, ularning o'zaro hamjihatligini ifoda etadigan tushunchadir. Ijtimoiy hamkorlik shu ma'noda jamiyatda tinchlikni, barqarorlikni va taraqqiyotni ta'minlashning muhim omilidir" [2,b–80.]. Shunday ekan, ijtimoiy hamkorlik o'zaro ishonch, hurmat, adolat mezonini asosida tashkil etilganligi, uning samarasini belgilab beradi. Biroq, jamiyatimizda jamoaviylik muhitiga putir yetkazadigan ayrim tushunchalar jamiyatimiz rivojiga g'ov bo'lmoqda. Misol sifatida ba'zilarini keltirib o'tishimiz mumkin. Jumladan, proteksionizm (lotincha protection – himoyalash) ijtimoiy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlardan biridir. Bu haqida J.Y.Yaxshilikovning "... ijtimoiy hayot uchun xavfli bo'lgan illat bo'lib, yuqori mansab va mavqega ega bo'lgan shaxs tomonidan o'zga shaxsning muammolarini hal qilish uchun noqonuniy homiylik ko'rsatish hisoblanadi" [3,b.–236.] –degan tarifini keltirib o'tishimiz mumkin. Demak, yuqori mansab va mavqega ega bo'lgan shaxs hokimiyatni o'z manfaatlari yo'lida, g'arazli maqsadlarni amalga oshirishda noqonuniy qo'llash bilan bog'liq holatdan iborat bo'lgan jinoyatdir. Boqimandalik ham aynan shunday jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlardan sanalib, birinchi holatda, o'zini o'zi munosib baholay olmaslik, o'z

qobiliyati va jamiyatdagi o'rnini noto'g'ri tushnish oqibatidir. Natijada u "odamlar menning oldimda qarzdor" qabilidagi soxta tasavvurlar bilan o'ziga ko'proq imtiyoz talab qila boshlaydi. Ikkinchi holatda esa shaxs o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaydi va buning oqibatida noshud, tashabbuskorlik salohiyati past, irodasiz, qaram odamga aylanib, "bersang-eyman, ursang-o'laman" degan naqldagi ayanchli holatga tushib qoladi. O'z navbatida, bunday illatlarga qarshi kurashishda ijtimoiy hamkorlikning asosi bo'lgan, adolatning ahamiyati kuchli. Zero, biz qurayotgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatining tub asosida ijtimoiy adolat tushunchasi yotadi. Haqiqatdan ham adolatsiz jamiyat tuzumiga hech kim bardosh bera olmaydi. Inson kamolati uchun ma'naviyat qanchalik muhim ozuqa bo'lsa, adolat ham shunchalik zarur. Ikki tushuncha bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "adolat va ma'naviyat – o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat ham bo'lmaydi" [4]. Bundan quydagi fikrni anglash mumkinki, adolat mezoni asos bo'lgan har qanday faoliyat turida ma'naviyat mezoni ham aks etadi. Demak, adolatni ma'naviyatimizning bir bo'lagi sifatida qabul qilib, keyin ijtimoiy munosabatlarga kirishish orqali faol ijtimoiy hamkorlik subyektiga aylanamiz.

Mamlakatimizda jadal suratlarda amalga oshirilayotgan yangilanish va jamiyat taraqqiyotiga yo'naltirilgan siyosatning maqsadi yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun munosib hayot sharoitini yaratishdir. Bunda asosiy maqsad rivojlangan demokratik mamlakatlar darajasida kafolatlanadigan turmush darajasini ta'minlash, avvalo, negizida moddiy jihatdan ta'minlangan, axloqiy jihatdan mustahkam oila bo'lgan adolatli jamiyatni shakllantirishdir. Shu ma'noda ijtimoiy adolat mustaqil va barqaror taraqqiyot yo'lini tanlagan hamda bu yo'lda ma'lum tajribalar to'plagan O'zbekistonning bundan keyingi rivojlanishning zarur sharti bo'lib qolmoqda. Ushbu fikrdan kelib chiqqan holda ijtimoiy adolat g'oyasining tadrijiy rivoji va umuminsoniy mohiyati, uning ijtimoiy hamkorlik qadriyatlariga mos tomonlarini anglab olish katta ahamiyat kasb etayotganligi tabiiydir.

Jamiyatda adolat o'rnatish orqali faol ijtimoiy hamkorlik muhitini yaratishda birinchi galda davlat hokimiyati organlarining o'rnini ahamiyatlidir. Amaldagi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev jamiyatda adolatni qaror toptirish uchun adolatsizliklarning har qanday ko'rinishlariga barham berish ishiga qattiq kirishdi va har bir so'zlagan nutqlarida ham buni ko'rishimiz mumkin. Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "Xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo'yadigan adolat tuyg'usini hayotimizda yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali vazifamiz, deb hisoblaymiz. Bu masala, eng avvalo, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, butun sud tizimi, prokuratura, ichki ishlar, nazorat organlari rahbarlari va hodimlarining, shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining bevosita vazifasidir" [5, b-10.]–deb ta'kidlagan. Darhaqiqat, yuqori mansab egalarining odilona boshqaruv siyosati birinchi o'rinda jamiyatda haqiqatda adolat borligini

ko‘rsatadi. Kishilarning qonunga bo‘lgan hurmatini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida kishilarning bir birlari bilan ijtimoiy faol munosabatda bo‘lishi, maqsadlar va manfaatlar yo‘lida hamkor bo‘lishiga olib keladi. Jamiyatda tartibni yuzaga keltiradi. Tartib albatta, nafaqat jamiyat taraqqiyotining hamda hammaning baxtli va farovon hayot kechirishining asosiy omillaridan biridir. Ikkinchidan esa, bu borada nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolarning faoliyatidagi tashabbuskorlik va hamkorlik muhiti yaratilgan bo‘lib, davlat hokimiyati organlari faoliyati bilan adolat mezoni asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bir-biriga o‘zaro mutanosib kelgandagina fuqarolarning baxtli turmush tarzi kafolatlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, jamiyatning demokratlashuvida, shu bilan birgalikda biz barpo etayotgan fuqarolik jamiyatida adolat ustuvorligi asosida, fuqarolar davlat bilan bir qatorda siyosiy hayotning mustaqil sub’ekti bo‘lishi kerak. U hokimiyat bilan baxsga kirishishi, hokimiyat bilan birga ichki va tashqi siyosatning eng muhim muammolarini muhokama qilishida ishtirok etishi, shu bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda faol va erkin hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi darkor. Siyosiy tashabbuskorlik, huquqiy savodxonlik, tadbirkorlik, vatanparvarlik kabi tushunchalariga ijtimoiy adolat, o‘zaro kelishuv va hamkorlikning ma’naviy mezoni sifatida qarash, jamiyatning demokratlashuvda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mattiboev T. B. O‘zbekistonda ijtimoiy hamkorlik tizimi: shakllanishi, rivojlanishi va istiqbollari. –T.: Akademiya, 2014.
2. Mattiboev T. B. O‘zbekistonda ijtimoiy hamkorlik tizimi: shakllanishi, rivojlanishi va istiqbollari. –T.: Akademiya, 2014.
3. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiev N.E. Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi. –T.: Akademiya, 2017.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash-barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 14-iyun.
5. Mirziyoev Sh. M. Erkin va Farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA UNING FALSAFASI

*Oripov Jamshid Yaxshiboyevich
Samarqand viloyati PYMO‘MM o‘qituvchisi
Sariqboyeva Mastura G‘ulomjonovna
Samarqand shahar 98-MTT tarbiyachisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif Mahmudxo‘ja Behbudiyning xalqimizning taraqqiyoti, ilmiy-ma’rifiy yuksalishidagi xizmatlari, shuningdek,

ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy fikrlarining o'ziga xos xususiyatlari borasidagi qarashlarini nazariy asosda yoritib bergan.

Kalit so'zlar. *Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, dramaturg, teatr, noshir, journalist, maorif.*

Аннотация. *В данной статье автор на теоретической основе изложил взгляды Махмудходжа Бехбуди на развитие нашей нации, его заслуги в научно-образовательном развитии, а также особенности его общественно-политической и духовно-просветительской мысли.*

Ключевые слова. *Джадидизм, просветитель, драматург, театр, издатель журналист, педагог.*

Annotation. *This article article, the author on a theoretical basis, outlined the views of Mahmudhodja Behbudi on the development of our nation, his merits in scientific and educational development, as well as the features of his socio-political and spiritual-educational thought.*

Keywords. *Jadidism, educator, playwright, theater, publisher, journalist, teacher.*

Dunyoda qaysi bir xalq yoki millat bo'lmasin o'z o'tmishi va tarixiga egadir. O'zbek xalqi ham ana shunday qadimiy tarixga ega xalaqradan biri hisoblanadi. To'g'ri xalqimizning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti jarayoni bir tekisda kechmagan. Bu jarayon goh turg'unlik, goh yuksalish boshqichlarini bosib o'tgan. Eng muhimi mintaqamiz ilm-ma'rifat, madaniyat va ma'naviyatning yuksak darajada rivojlanganligi, boy madaniy-ma'naviy merosga ega ekanligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mana shunday buyuklik, mana shunday yuksaklik, o'z-o'zidan sodir bo'lmay, balki kimlarningdir aql ziyosi, ilmu-ma'rifati va xatti-harakatlari natijasidir. Ana shunday tarixiy shaxslardan biri, xalqimizning jonkuyar farzandi Mahmudxo'ja Behbudi bo'lib, u tariximizda ma'rifatparvar, jadidchilik maktabining yirik namoyondasi, dramaturg sifatida o'chmas iz qoldirgan.

Behbudi, Mahmudxo'ja (1875-1919) – ma'rifatparvar, Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi. U yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi: yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatirchi, noshir, jurnalist [1: 73-b]. Bundan ko'rinib turibdiki Mahmudxo'ja Behbudi zamonasining serqirra ijodkor shaxsi sifatida gavdalanadi.

Mahmudxo'ja Behbudi: "ma'rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo'lib qolmay, balki o'lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko'rsatdi"[2]. Bundan ko'rinib turibdiki Behbudi ta'lim-tarbiya, maorif sohasini isloh qilish borasida faqatgina nazariy fikrlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyatga joriy etish masalasiga ham alohida e'tibor qaratgan. Masalan, Samarqand yaqinidagi Rajabamin, Halvoyi qishloqlarida maktablar ochganligi hamda ushbu maktablar uchun darslik va o'quv qo'llanmalarini yozganligi yuqoridagi fikrimizning dalili bo'la oladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari balki ma'rifat, maorif, ta'lim, tarbiya sohasida ilgari surgan fikrlari bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Behbudiyning: "o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun"[3], – degan fikridan, otalarning o'z farzandlarini ilm-ma'rifatli bo'lishi, ta'lim olishi uchun shart-sharoitlarni yaratib berish eng muhim vazifalaridan ekanligiga e'tibor qaratar ekan, mazkur masala bugungi kunda dolzar ahamiyat kasb etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Behbudi yosh avlodga diniy yoki dunyoviy ta'lim berishni ularning kamolati, shaxs sifaida shakllanishi va ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lishida muhim omil sifatida qaraydi.

Mahmudxo'ja Behbudi y ilm-ma'rifatning jamiyat, inson hayotida tutgan o'rnini ijobiy baholar ekan, o'z navbatida ilmsizlik insonni jaholat, nodonlik, buzuvchilikka olib kelishi mumkinligi borasidagi fikrlarini o'zining "Padarkush" dramasida ochiq-oydin yoritib berganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Mahmudxo'ja Behbudi xalqni milliy ongini uyg'otish, dunyoqarashini yuksaltirish yo'lida ularni ilmi, ma'rifaatli qilishga kuchli ta'sir ko'rsatadigan o'z davrida mavjud usul va vositalardan tashqari, yangi zamonaviy teatr, yangi usuldagi maktablar, matbuot, jumladan "Oyna" jurnali, "Nashryoti Behbudiya" nomli nashryotidan keng foydalandi. Behbudi ushbu jurnal va nashryotlarida millat, vatan, jamiyat, ijtimoiy adolat, hurriyat va ahloq haqidagi maqolalari chop etilgan bo'lsa, aynan ushbu vositalar orqali millatimizni yangicha milliy tafakkurini, hayotga, turmushga yangicha qarashini shakllantirish, haq-huquqlarini tanitishda keng foydalaniganligi tahsinga sazovvordir.

Behbudi istiqlol, ozodlik, ijtimoiy adolat haqida fikr yuritir ekan, bunda zo'rovonlikni inkor etadi. U zo'ravonlikni g'ayriaxloqiy xatti-harakat, deb qaraydi. Shu sababdan ham davlat va jamiyatning yuksalishi hamda taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan salbiy tushuncha, deb biladi. Shu sababdan ham davlat va jamiyatni yuksalishi, xalqni ongu-tafakkurini shakllantirishda ta'lim, maorif, teatr va matbuot vositalaridan keng foydalanishga e'tibor qaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Behbudiyning merosini o'rganish va yosh avlodga o'rgatish orqali ularni vatanparvarlik, millatparvarlik, xalqparvarlik ruhida tarbiyalash, o'ziligini anglash, millat taqdiri uchun daxldorlik hissini shakllantirishda muhim omili, asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi, deb to'liq ishonch bilan aytaolishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. - Т., "Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи", 2010.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/turkiston-jadidchilik-namoyondasi-mahmudxo-ja-behbudi>.
3. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudi.-Toshkent: Yozuvchi. 1994.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'NAVIYATI

D.A.Abduvoxidov

Toshkent davlat texnika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.d., prof. R.E. Xoliqova

Annotatsiya: Maqolada Mahmudxo'ja Behbuduyning noshir, teatrshunos, adib, mufti, siyosiy arbob sifatida faoliyati, hayoti va ijodi yoritilgan.

Kalit so'zlar: mutafakkir, olim, islom tarixi, Samarqand, maorif, jadidchilik, "Oyna" jurnali.

Аннотация: В статье освещены деятельность, жизнь и творчество Махмудхуджи Бехбуди как прозаика, театроведа, литератора, муфтия, политического деятеля.

Ключевые слова: мыслитель, ученый, история ислама, Самарканд, маориф, колдовство, журнал «Зеркало».

Abstract: The article highlights the activities, life and work of Mahmudhuji Behbudi as a novelist, theater critic, writer, mufti, and politician.

Keywords: thinker, scientist, history of Islam, Samarkand, Maori, witchcraft, magazine "Mirror".

Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi.

(Sh.Mirziyoyev)

Turkiston tarixida muhim rol o'ynagan, o'lkaning ijtimoiy va madaniy hayotini yangilash, uni taraqqiyotning yuksak bosqichlariga olib chiqish uchun kurash harakati sifatida yuzaga kelgan ijtimoiy harakat jadidlik harakati edi. Maorifni isloh qilish, ta'limdan eskilik sarqitlarini chiqarib tashlash, yangi imloni joriy qilish, taraqqiy etgan dunyoning ilg'or ijtimoiy qadriyatlarini o'zlashtirish dasturi bilan chiqqan, ya'ni oddiy ma'rifatchilikdan boshlangan jadidlik harakati 1917- yilning boshlarida siyosiy harakat darajasiga ko'tarildi [1].

Turkistonda jadidlik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanishiga kuchli turtki berdi, albatta. Turkistonda jadidlik, ya'ni taraqqiyparvarlik harakatiga Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitratlar asos soldilar va bu harakatga rahbarlik qildilar [2]. Bu kishilar mamlakatimiz tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Ular mamlakatimiz mustaqilligi uchun o'z jonlarini fido qilishgan. Ana shunday yurtimiz tarixida beqiyos o'rin tutgan shaxslar orasidan "O'zbek jadidchiligi tarixining otasi" sifatida e'tirof etiladigan shaxs bo'lmish Mahbudxo'ja Bexbudiy haqida to'xtalib o'tamiz.

Behbudiy (*forscha: 1. Yaxshilik, sog'lomlik; 2. Foyda, najot*) juda oz umr ko'rdi (atigi 44 yil). Shu qisqa umrning katta qismi tazyiq va tahdidlar ostida kechishiga qaramasdan, xayrli ishlarni amalga oshirishga ulgurdi, kelajak avlod taqdiri to'g'risida qayg'urdi. U noshir, teatrshunos, adib, mufti, siyosiy arbob sifatida faoliyat ko'rsatdi va barcha sohada o'chmas iz qoldirdi.

Behbudiy tarjimaiy holini yoritishda Hoji Muinning 1922-1923-yillarda o'zi muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" (1922), "Zarafshon" (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Behbudiy haqida XX asrning 70-yillaridan bugungi kungacha e'lon qilingan ko'pgina tadqiqotda Hoji Muin ma'lumotlari asos qilinib oladi. Hoji Muin Behbudiyning biografiyasini yozar ekan 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida diniy olim oilasida dunyoga kelganligini ta'kidlaydi. Ammo oxirgi olib borilayotgan tadqiqotlarga tayanadigan bo'lsak, Behbudiy tug'ilgan sana va joyi biroz boshqacharoq ko'rsatilmoqda. Taniqli olim Sirojiddin Ahmedovning ta'kidlashicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahrining Yamini mahallasida tavallud topgan. Olim bu sana bo'yicha yetarlicha isbot va dalil ketiradi.

Hoji Muinning ma'lumot berishicha, Behbudiyning otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja Urganchlik bo'lib, amir Shohmurod hukmronlik qilgan davrda Samarqandga ko'chib kelgan. Behbudiy 6-7 yoshlarida tog'asi Muhammad Siddiq huzurida o'qib savod chiqaradi, otasi Behbudxo'jadan esa Qur'ondan saboq olib, qisqa muddatda qorilik martabasiga erishadi. 15 yoshga kirganda yana bir tog'asi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada tahsilini davom ettiradi va arab tili grammatikasi, aqida va shariat qonunlari bo'yicha bilimlarini kengaytiradi.

1893-yil onasi, 1894-yili esa otasi vafot etadi. Otasi vafot etishidan biroz avval uylangan Behbudiy to'rt o'g'il, bir qiz ko'rgan.

Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqidagi ma'lumotlar nihoyatda kam. Sirojiddin Ahmedovning bergan ma'lumotiga ko'ra, Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, keyinroq Buxoro madrasalaridan tahsil olgan. Behbudiy Buxoro madrasalarida tahsil olar ekan, u yerdagi mullalar bilan kelisha olmagan bo'lsa Samarqandga qaytib kelgan. Bu fakt haqiqatga yaqin sababi, Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yili "Turkestanskiye vedomosti" gazetasining muxbiri Grigoriy Andreyev bilan suhbatda Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olganligi haqida so'zlaydi va bu madrasalardagi mulla, qozi va imomlarning johilligidan shikoyat qiladi. [3]

Behbudiyning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar ochadi va shu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. "Risolayi asbobi savod" (1904), "Risolayi jug'rofiyayi umroniy" (1905), "Risolayi jug'rofiyayi Rusiy" (1905), "Kitobat-ul atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi kitoblarini yaratadi. Behbudiydan 200 dan ziyod ilmiy-publitsistik

maqolalar, 6 ta darslik, "Sayohat xotiralari" kitobi, "Vasiyatnoma", "Padarkush" nomli pyesa meros bo'lib qoldi.

Milliy dramaturgiyamizning birinchi namunasi bo'lgan "Padarkush" dramasi XX asr o'zbek adabiyoti tongida yorug' yulduz sifatida yosh ijodkorlarga nurli yo'l ochadi. "Padarkush" dramasi ta'sirida A.Avloniyning "Advokatlik osonmi?", "Pinak", A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Badriyning "Juvonmarg", "Ahmoq", Hoji Muyinning "Ko'knori", "Eski maktab – yangi maktab", Hamzaning "Zaharli hayot" singari o'nga yaqin pyesalarining yaratilishi o'zbek adabiyotining boyishiga xizmat qiladi.

"Padarkush" dramasi 1911-yil yozilgan, lekin 1913-yil bosilib chiqadi. Dramaning bosilib chiqishi qiyin kichadi, faqatgina " Borodina janggi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan halos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi" degan yozuv va Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etiladi.

Behbudiy o'zbek va fors-tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yozgan. Jumladan, "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy" ("Qisqacha umumiy jug'rofiya" 1903), "Kitob-ul-atfol" ("Bolalar uchun kitob", 1904), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi", 1904), " Amaliyoti Islom" (1905), " Rusiyaning qisqacha jug'rofiyasi" (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan.

Behbudiy 1913-yilda "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalini chiqardi. Gazeta dastlab 2, so'ng 4 betlik bo'lib, haftada 2 marta chiqqan va moddiy tanglik tufayli 45-sonidan keyin to'xtagani ma'lum bo'ladi.

"Oyina" o'lkadagi o'zbek tilida chiqqan 1-jurnaldir. U xalq orasida ancha mashhur bo'lgan. Boshida haftada bir, 1914-yildan boshlab 15 kunda bir marta chiqqan. Kavkaz, Tatariston, Eron, Avg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi [4].

Behbudiy kitob nashrini ham yo'lga qo'yadi. Fitratning "Bayonoti sayyohi hindi" asarini ruschaga tarjima qildirib bostirdi (1913). Behbudiy 1914-yil 29 - mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatiga chiqadi. Sayohati davomida Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov, Odessa shaharlarida bo'ladi, 8-iyunda Istanbulga keladi. Undan Adanaga o'tib, yana Istanbulga qaytadi va 20-iyunda Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. So'ng Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port-Said, Shom shaharlarida bo'ladi. Sayohat xotiralari "Oyna" jurnalida bosilib turadi. Bu "xotiralar" har jihatdan muhim bo'lib, an'anaviy tarix-memuar janrining XX asr boshidagi o'ziga xos namunasi edi. Muallif unda yo'l taassurotlariga, kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o'rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar to'playdi. Turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi.

"Oyina" jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan

chiqib, o'zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (mas, fransuz) tilini bilish shart deb hisobladi. Ayni paytda tilning muhofazasi ("Har millat o'z tili ila faxr etar" — 1914), o'zaro munosabatlari ("Til masalasi" — 1915) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Uning xususiyatlarini belgilashga urindi. Boshqa adabiy janrlar bilan teng huquqligi masalasini ko'tardi ("Tanqid saralamoqdir" — 1914). Millat sha'nini oyoqosti qiluvchi fikr-qarashlarga zarba berib, Turkiston xalqini o'z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqdi ("Sart so'zi majhuldur" — 1915).

Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, "xayoliy", "bu toifaga qo'shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik", deb yozgan edi [5].

O'zlikni anglashni muhim biladi. "Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni "marquq" derlar", deb yozadi [6].

1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo'layotgan bir paytda o'lka xalqlarini birlikka chaqiradi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Aslida bu faoliyat 1906-yildan boshlangan. Shu yili "Rusiya musulmonlari ittifoqi"ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. Toshkentda bo'lib o'tgan (1917) Turkiston musulmonlarining qurultoyida ishtirok etib, nutq so'zladi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqdi. Behbudiy shu qurultoyda o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylandi. 1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" e'lon qilindi. Uning g'oyaviy asoschilaridan biri Behbudiy edi. Muxtoriyat sho'rolar tomonidan vahshiyona bostirildi. Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda ko'p tura olmay Toshkentga keladi. Turkiston sho'rolar hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi, ammo natija chiqmaydi.

Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919-yil 25-martda Shahrisabzda qulga olinib, sirli ravishda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytda poytaxt Samarqandga bir yildan keyin ma'lum bo'ladi [7].

1977-yil Behbudiyning "Saylanma" to'plami chop etildi. Bu to'plamda biz darslik va o'quv qo'llanmalarini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda esa Behbudiyning nomini abadiylashtirish maqsadida, ko'plab joylarga uning nomi berilgan.

O'zbekistonda (H. Sayid, N. Avazov, Z. Ahrorova), Tojikistonda (R. Xodizoda), Germaniyada (I. Baldauf B. Qosimov bilan hamkorlikda), AQShda (E. Olvort) va boshqa mamlakatlarda Behbudiy hayoti va ijodi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Bugungi kunda Toshkent shahrida ko'cha va maktabga Behbudiy nomi qo'yilgan. Qarshi shahri 1920-1930-yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan. Behbudiy nomi 1937-yilga kelib qatag'on qilinadi va 1956-yilda oqlanadi [8].

Behbudiy vafotidan so'ng ko'plab taniqli shaxslar uni e'tirof etishdi: "Behbudiy hayotiy tajribasi XX asr boshlarida O'rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining eng ko'zga ko'ringan siymosi bo'lganligi bilan alohida ahamiyatga ega. U davrining yirik shaxsi bo'lib, dunyoni o'zidan oldingi avlod va zamondoshlaridan farqli anglay olgan hamda u vaqtda ularning tasavvuriga sig'maydigan aloqa va tashkiliy shakllardan foydalana olgan", – deb aytgan, amerikalik olim Adib Xolid [9].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Туркистонда жадидларнинг истиқлол учун курашлари тарихидан// Маҳмудхўжа Беҳбудий -ўзбек жадидчилигининг асосчиси. Республика илмий-амалий конференция материаллари. 2020. –Б. 260.
2. Курахмедов А., Холикова Р. Туркистон жадидларининг маданий-маърифий карашлари // Мустақиллик йилларида Ватанимиз тарихини янгилаш ўрганишининг долзарб муаммолари. 11-қисм. – Самарқанд. 2002. –Б. 39.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar Nashriyot Uyi. 2022. –Б. 6-7-8.
4. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.13-14 betlar.
5. Xayrul umuri avsatuho (Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir). "Xurshid" gazetasi, 1906. 6-son.
6. Sart so'zi majhuldur. "Oyna" jurnali, 1914. –Б. 23.
7. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. 217-220-betlar.
8. Ziya uz.com. sayti.
9. Mahmudxo'ja Behbudiy.– Toshkent: Yoshlar Nashriyot Uyi, 2022. 152-bet.

ВЗГЛЯДЫ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДРЕВНИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА

И.А.Раимкулова

старший преподаватель НЦОПНМ Самаркандской области

Аннотация. Во все времена и во все века образование, просвещение, культура, духовность и наука являлись основной движущей силой развития государств, а учитель всегда был основным звеном в передаче этих знаний и примером для учеников.

Ключевые слова: образование, педагог, просвещение, реформы, социальная роль.

Annotation. At all times and in all ages, education, enlightenment, culture, spirituality and science have been the main driving force behind the development of states, and the teacher has always been the main link in the transfer of this knowledge and an example for students.

Key words: education, teacher, enlightenment, reforms, social role.

Центральная Азия является одним из древнейших центров человеческой цивилизации. Древнейшая история народов Востока представляет собой огромный период, охватывающий сотни тысяч лет. Впервые народы Центральной Азии упоминаются в письменных источниках Ближнего Востока в VIII в. до н. э. Республика Узбекистан издавна является центром науки, культуры и просветительства. Многие выдающиеся деятели науки и культуры являются представителями Средней Азии. Их имена прославлены на весь мир. Это такие личности как Абдурахман Джами, Бобур, А.Навои, Махмуд Кашгарий, Юсуф Хос Хожиб и многие другие. Их трудами пользуются и по сей день. К примеру, из педагогических произведений Навои видно, что он ценил человеческий разум и науку. «Знание и мудрость – украшение человека» – писал он. Вопросы воспитания и обучения широко представлены в его поэтических и прозаических произведениях. Педагогические взгляды Навои являются глубоко гуманистичными.

Вопросам формирования и воспитания ребенка он уделял отдельное внимание, говоря, что дети - это светилom в доме, приносящее в семью радость и счастье. Навои осуждая принудительные методы воспитания, выступал против телесных наказаний. Говорил, что невежественные учителя искажают доброе мнение. Выражаясь о компетенции он говорил, что учитель должен обладать прочными и глубокими знаниями, в совершенстве знать свой предмет, с пониманием относиться к нуждам народа, быть всегда и во всём примером. В древних школах – мактабах не было учебных программ и расписаний уроков. Ученики не делились на классы, а группировались в зависимости от изучаемых предметов и обучались поэтапно, в зависимости от пройденного материала. В некоторых городских школах обучали письму, элементарным действиям арифметики, географии, истории. Девочки обучались на дому, у учительницы - бабахалфы, жены имама. В эпоху А.Темура стали появляться многочисленные медресе, сыгравшие важную роль учебных заведений в странах Востока. Улугбек говорил, что учебники для медресе должны быть написаны простым и доступным языком. Именно он отменил систему индивидуальных занятий и ввел метод «джамоа», т.е. коллективное обучение. Большая группа шагирдов насчитывала 70 человек, так проводилась общая лекция, практические же занятия проводились в малых группах по 10-15 человек. Одним из важных методов обучения в медресе были диспуты, которые оживляли занятия, побуждая шагирдов листать пособия, развивали память, находчивость, сообразительность, речь и логическое мышление. Лучшие выпускники медресе приглашались Улугбеком в обсерватории. Он очень серьёзно относился к подбору кадров мударрисов и лично занимался отбором штата медресе, привлекая к преподавательской работе выдающихся ученых того времени. Он говорил: «... В лице шагирдов можно увидеть и мударрисов». Наставлял преподавателям работать над собой, совершенствовать имеющиеся знания и

педагогическое мастерство и сам же старался быть примером для подражания. Мастерски излагал свои мысли, обладал энциклопедическими знаниями. И в те времена в медресе Улугбека был четко организован учебный день, строгое расписание занятий, обязательное и для шагирдов (учеников), и для мударрисов (преподавателей), отмечалась посещаемость обучающихся.

Многие видные деятели Востока посвятили работы воспитанию молодого поколения, науке и образованию. У каждого из них был свой подход. Одним из таких величайших личностей был Нуриддин Абдурахман ибн Ахмед Джами. Он родился в 1414 году в городе Герате. Джами получил прекрасное образование, в совершенстве владел арабским языком, философией, законоведением, математикой, богословием. Он провёл свою жизнь среди книг, занимаясь научной работой, окруженный учениками и друзьями, сред которых был великий узбекский поэт Алишер Навои. Произведения Джами преследуют воспитательные цели. Он считает, что овладение знаниями является важным фактом в жизни молодого поколения. Джами верил, что при помощи воспитания можно сформировать такие человеческие качества, как гуманизм, чувство дружбы и товарищества, скромность, правдивость, щедрость и трудолюбие. Он продолжал гуманистические традиции своих предшественников. Ещё одним просветителем, внёсшим вклад в развитие образования является великий поэт и писатель - Алишер Навои, который тоже родился в Герате в 1441 году. Творчество поэта, философа, лингвиста, историка, живописца, композитора и покровителя ученых Алишера Навои стало высшей точкой развития педагогической мысли в эпоху восточного ренессанса. Навои высоко ценил человеческий разум и науку. «Знание и мудрость – украшение человека» – писал он. В его поэтических и прозаических произведениях широко представлены вопросы воспитания и обучения. Навои придерживался основных направлений и методов суфийской педагогической мысли, впитавшей мудрость веков, представляющей собой часть общечеловеческой педагогики, главными среди которых являются призыв к учению, получению разносторонних знаний и применение их на практике; развитие ума; совершенствование нравственности с опорой на духовное учение суфийской традиции, соблюдение которых устранил имеющиеся многочисленные человеческие пороки и приведет к оздоровлению общества. Педагогические взгляды Навои глубоко гуманистичны. Большое внимание он уделял вопросам формирования и воспитания ребенка, которого считал светилom в доме, приносящим в семью радость и счастье. Профессия учителя является одной из древнейших. С развитием общества она претерпевала изменения. На это действовали эволюционные и революционные перемены, происходящие в обществе. В разные эпохи социальная роль педагога менялась. Итак, примеры истории доказывают, что социальная роль и функции учителя зависят от самой истории общества. Однако цели педагогов

оставались прежними – воспитание и образование. У сегодняшнего учителя задачи сложнее чем у политика, финансиста или другого деятеля. Учитель является главным субъектом радикальных преобразований государства, лидером мировой культурной революции. Социальная роль учителя определяется как главная в воспитании гармонично развитого, образованного молодого поколения. В наше время функции учителя соответствуют программным установкам государства по строительству демократического общества в стране. На современного педагога возложены большие требования. Проводимая на сегодняшний день главой государства последовательная работа по совершенствованию системы образования и науки страны определила цели и задачи, предусматривающие коренные изменения в обеспечении необходимыми условиями для подготовки высококвалифицированных специалистов, способных конкурировать на рынке труда, обеспечить ускоренное развитие отраслей экономики и социальной сферы. Овладение знаниями является важным фактом в жизни молодого поколения. Знания помогут человеку преодолеть все трудности и препятствия, встречающиеся на пути к достижению цели. Но этим значение знания ничуть не ограничивается. Так же, как и значение знания необходимо для практики человека, так и значение практики необходимо для закрепления имеющихся и получения новых знаний. Педагогам следует воспитывать у молодого поколения и такие нравственные качества, как трудолюбие, гуманизм, патриотизм, милосердие, доброту, правдивость, справедливость, честность, уважение к родителям и учителям.

Список использованной литературы:

1. Абдуль-Кадыр И. Истина. - М: ИД Ансар, 2004. – 288 с.
2. Андреев, В. И. Педагогика: учеб.курс для творческого саморазвития / В. И. Андреев. – 2-е изд. – Казань: Центр инновац. технологий, 2003. 608 с.
3. Бертельс Е. Э., 1965. Бертельс Е. Э Навои и Джами. - М., 1965, Избранные труды. -195с. 11. Гуревич М. Проблемы дифференциальной психологии. — М.: МОДЭК, 2008. — 384 с.
4. Есипова А. А., Сатывалдиева Б. Образ современного педагога высшей школы // Педагогика высшей школы. — 2015. — №3.1. — С. 75-78.
5. Концепция непрерывного педагогического образования педагога новой формации Республики Казахстан // [ЭР]. Режим доступа: adilet.zan.kz.
14. Кричевский Р.Л. Если вы руководитель. – М.: Дело, 1998. – 400 с.
6. Окрепилов В.В. Управление качеством: учебник для вузов. — М.: Наука, 2010. — 912 с.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ВЕЛИКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА

М.К.Якубжанова

старший преподаватель НЦОПНМ Самаркандской области

Аннотация. В данной статье показывается педагогические идеи и воззрения великих мыслителей Востока. Говорится об актуальности их взглядов, которые являются основой для подрастающего поколения.

Ключевые слова: наследие, мыслители, воспитание, личность учителя, мышление, совершенство.

В мировоззрениях мыслителей Востока - несравненная духовная сила, преемственность принципов, масштаб педагогического мышления, высокий гуманизм, патриотизм, правдивость и миролюбие.

Богатое педагогическое наследие великих мыслителей Востока составляет основу формирования профессионального уровня и культуры учителя. Великие личности Востока - Фараби, Авиценна, Хайям, Навои, Бехбуди, Авлони, Югнаки и др. выдвинули немало идей, критическое изучение которых способствуют развитию педагогической науки и обогащению истории педагогики.

Абу Наср аль Фараби ставил проблему всестороннего развития и совершенствования человека. Его философия заключается в воспитании всесторонне развитой личности. Рассматривает круг вопросов обучения и воспитания, о роли учителя в учебном и воспитательном процессе. По его мнению нравственное воспитание и интеллектуальные качества в значительной степени гарантируют достижение наивысшего совершенства, правильное нравственное воспитание начинается с воспитания благородных свойств и качеств, достигает выработки у воспитанника очевидных нравственных норм поведения и практических навыков овладения искусством (ремеслом), в чем большое значение имеют нравственные примеры поведения и действий, так как это воспитание зависит от окружающей среды, воли и желания воспитуемого, а также социальной направленности воспитательной деятельности.

Педагогические воззрения Абу Наср аль Фараби, реализуемые в процессе целостного развития личности будущего учителя. По воспитанию личности будущего учителя.

Абу Али ибн Сино большое внимание уделял роли воспитателя и учителя. От учителя он требовал: «В обращении с детьми учитель должен быть сдержанным. Он с особым вниманием должен следить за тем, как ученики реализуют полученные знания. В процессе обучения, — считал ученый, необходимо применять разнообразные методы и формы работы с детьми, учитывать их индивидуальные особенности, заинтересовывать

занятиями. Мысли учителя должны быть доступны всем обучаемым. Слово свое он должен сопровождать мимикой и жестом, чтобы обучение было более доходчивым и вызывало у детей эмоциональное отношение»

Эти мысли учёного в корне противоречили методике, господствовавшей обучения в школах того времени. Он глубоко понимал сложности и трудности процесса воспитания. Анализ его произведений убеждает в том, что он предлагал разрешить их с гуманистических позиций, дает советы, как говорить с детьми о их недостатках и путях их исправления. «...Такие разговоры не должны быть назойливыми, надоедать ребенку, тем более задевать его самолюбие. Говорить с ребенком можно, только зная его индивидуальность».

Основными педагогическими идеями Алишера Навои являются гуманизм, уважение к человеку, интернационализм - уважение не только к своему, но и другому народу, природа как средство, совершенствующее человека и просветительство. Значительное место в педагогических трудах Алишера Навои занимают требования к учителю. Здесь главным эпитафией может служить такое утверждение великого мыслителя: «Знания и мудрость украшают человека». Однако, акцентирует Навои следующее: овладение науками и ремеслами - не самоцель: «Они должны быть полезными народу, ибо тот, кто получил знания и не сумел их применить, похож на крестьянина, вспахавшего поле, но не засеявшего его». По мнению Навои, любовь к обучающим: «Главное - это любовь к детям. Невежество учителя - большой бич для школы. Учитель должен не только в совершенстве знать свой предмет и обладать глубокими знаниями, но и понимать нужды народа, показывать во всем пример». И это совершенно справедливо, поскольку, считает Навои, главное - уважение к Человеку, самому высокому и ценному дару природы: приветливость к нему (порождает чувство дружбы, долга), вежливость, уважение (отучает от насмешек и издевательств).

Навои за нравственное и трудовое воспитание, но при соответствующих знаниях педагога: «... преподаватель не должен ... пытаться преподавать то, чего не знает сам, ... не должен делать то, что не позволено. Иначе он не преподаватель ...». Итак, учитель обязан в совершенстве знать свой предмет, свое дело, а долг школы - давать учащимся многосторонние знания [2].

Абдулла Авлони - о личности учителя: высокий нравственный облик; педагогическая этика и знания как великая сила в работе и в личной жизни; совершенствование нравственного воспитания ребенка (привитие хороших манер, ознакомление с этикой); развитие, совершенствование и тренировка умственных способностей детей, их памяти; обучение не только чтению и письму, но и анализу сущности каждой вещи, умению отличать хорошее от плохого. Как преданный сын своего народа, открывая школы, стремился к всеобщему образованию, воспитанию молодежи на опыте передовых идей. Его деятельность, произведения и книги оставили огромный след в развитии педагогической мысли начала XX века.

Махмудходжа Бехбуди считал, что смысл национального прогресса заключается в воспитании всесторонне развитого образованного гражданина, в экономике и образовании. Что будущее Туркестана в новых кадрах, специалистах и образованной молодежи. А поэтому нужны новые методы обучения.

В трудах Махмудходжи Бехбуди описывается педагогическая интерпретация воспитания молодежи в духе патриотизма и уважения к национальным ценностям. Взгляды М.Бехбуди в сфере образования тесно связаны с психикой, образом жизни, национальными ценностями узбекского народа, его богатое педагогическое наследие послужило ценным источником в развитии национальной школы, национальной педагогики. Бехбуди в сотрудничестве с передовой интеллигенцией открыл школы "Усули жадидий", в которых преподавались светские науки. Он думал о роли воспитания детей как учитель.

Имя М.Бехбуди - его наследие и судьба являются предметом исследования ученых Германии, Турции, Америки, Японии, государств Центральной Азии.

Таким образом, наследие великих мыслителей Востока, их философские учения о человеке, личности, педагогические воззрения, идеи, суждения, принципы и руководства, методические указания и рекомендации, требования к учителю актуальны сегодня и являются основой для подготовки подрастающего поколения к жизни.

Литература:

1. Педагогические взгляды Абу Али ибн Сины (Авиценны) / Ш.У.Камалова, Р.У.Мунарова, Н.А.Ахмедова [и др.]. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 9 (89). — С. 1068-1070.
2. Навои А. Асарлар. 15 томлик. - Т.: Ф. Гулом ном. бадий адабиёт нашриёти, 1963. Т.13: Махбубул-кулуб. Муншаот. Вакфия. - 243 б.
3. Педагогические идеи великих мыслителей востока - основа подготовки педагогических кадров. Р.Х.Джураев, Ш.К.Мардонов.
4. <http://samxorfil.uz/images/source/pdf/2021/1/Begbudiyeve-Parvina.pdf>
5. <https://elibrary.ru/item.asp?id=47222201>
6. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А., Халикова Г.И. История педагогики (Учебник). 2017, 258 стр.

3-SHO'BA. JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI VA TURKISTON JADIDLARINING XALQARO ALOQALARI

ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ ЖАМИЯТ ИЖТИМОЙ, МАЪНАВИЙ ВА ПЕДАГОГИК ФИКРЛАР РИВОЖИДАГИ ЎРНИ

Ибраимов Холбой Ибрагимович

*Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот
институтини директори, педагогика фанлари доктори, профессор*

Мамлакатимизда буюк алломаларнинг, Туркистонлик жадидларнинг фалсафий меросини ўрганиш ва тадқиқ этиш, ёш авлодни аجدодларимизнинг анъаналари, миллий ва умиминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш бўйича фаолият изчил давом эттирилмоқда. Маънавий – маърифий соҳадаги ислохотлар самарасини ошириш зарурати бу йўналишдаги ишларни сифат жиҳатдан янги босқичга кўтаришни талаб қилмоқда. Бу борада амалга оширилаётган илмий тадқиқот ишлари натижасида ёшларнинг онгу тафаккури, дунёқараши ўзгармоқда.

Янги тараққиёт босқичида ёшлар тарбияси, яъни комил инсоннинг шаклланишига оид, инсониятнинг бой маънавий хазинасидан муносиб ўрин олган тарихий, миллий, маънавий маданий меросимиз, урф-одатларимиз ва қадриятларимиздан самарали фойдаланиш, ёш авлодни ватанпарвар, фидокор, юксак маданиятли ва маънавиятли қилиб тарбиялашнинг асосий омилларидандир.

Маълумки, кишилик жамиятининг кўп асрлик тарихи хилма-хил ҳаракат, таълимот, сиёсий оқим ва фирқаларни вужудга келтирди. Бунинг асосий сабаби башариятнинг адолатли, инсонпарвар жамият қуриш учун, зулм ва зўравонликдан, куллик ва мустабидликдан, тенгсизлик ва жаҳолатдан қутулиш учун тинимсиз изланиши эди. XIX аср охирида Чор Россияси босқини туфайли Туркистонда юзага келган тарихий вазият илғор фикрли зиёлилар олдида миллий мустақилликка эришиш учун нима қилмоқ керак, қайси йўлдан бормоқ лозим деган саволларни кўндаланг қўйди. Жамиятдаги илғор кучларнинг қарашлари натижаси ўлароқ шаклланаётган миллий уйғониш мафкура тарзида маърифатпарварликни кенг миқёсда тарғиб этиб майдонга чиқди.

Тарихга жадидчилик номи билан кирган бу ҳаракат намояндалари ўз ғояларининг ҳаётдан мустаҳкам ўрин олиши, оқибат натижада миллий мустақилликка эришиш мумкинлиги учун курашга бел боғладилар. Бу давр Туркистоннинг ижтимоий тараққиётида янги босқични ташкил этади.

Мустақилликка эришиш учун курашиш лозимлиги ҳақидаги ижтимоий мотивлар ва мазкур хулосага келинишининг яна бир сабаби тарихий шароит эди. Чиндан халқ ғалаёнларининг аёвсиз қонга ботирилиши маълум маънода огоҳликка ҳам даъват бўлди – ҳаётга тийрак кўз билан қарашга ундади. Иккинчи томондан, “жамият тараққиётида бир системанинг табиий равишда янги сифат ўзгаришига учраши ўзига хос маърифатчиликни тақозо этади”[1].

“Қизғин руҳли ёшларимиз миллатга хизмат этиб, анинг маданий даражасини ўстирсалар, ул вақтда биз синфий ихтилофлар тўғрисида сўйлашурмиз, фикр юритишурмиз. Маданияти йўқ бир миллатнинг саноати бўла олмас. Модомики, ул йўқ экан, ҳали синфий низоларга эрта. Бизнинг бугунги вазифамиз ҳозирча маданий ўсувлар ва шунга йўллар ҳозирловдангина иборат”. Ф.Амирхон тарихга жади́дчилик номи билан кирган ҳаракат дарғаси Исмоил Гаспиринский тўғрисида ёзган “Улуғ миллатчи тўғрисида кичик бир хотира” номли мақоласида жади́дларнинг кураш дастури хусусида айнан шундай деб қайд ёнган эди.

Дарҳақиқат, миллий озодлик ҳаракатларининг аёвсиз қонга ботирилиши жади́дларнинг кураш тактикасига муҳим ўзгаришлар киритди.

Халқни илм-маърифатли қилиш орқали жипслаштириш лозим эди. Халқ сиёсий онгининг заифлиги бир томондан илм-маърифатга, бошқа жиҳатдан маънавиятга дахлдор эди.

1892 йилги “вабо кўзғолони”дан ўзига яраша хулоса чиқарган миссионер Н.Остроумов ёзади: ”Кўп жиҳатдан айб ўзимизда албатта. Уларнинг (сартларнинг) феъл-атворини ва қонун-қоидаларини ўрганганимиз йўқ ва ҳалиям ўрганмаяпмиз”.

Чор ҳукумати бундай ўрганишни турли воситалар ёрдамида амалга ошира бошлади. Рус-тузем мактаблари шу мақсадга қаратилди. Унга қарши усули жади́д мактаблари ташкил топа бошлади. Бу мактаблар учун М.Абдурашидхоновнинг “Адиби аввал”, Саидрасул Саидазизовнинг “Устои аввал”, А.Авлонийнинг “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ”, “Биринчи муаллим”, “Иккинчи муаллим”, С.Айнийнинг “Таҳзиб ус-сибён”, “Қиз бола ёки Холида”. Ҳамзанинг “Енгил адабиёт”, “Ўқиш китоби”, “Қироат китоби”, М.Бехбудийнинг “Китобат ул атфол” каби дарсликлари яратилди. Жади́дчилик ғоялари талқинида маориф билан бирга матбуот ҳам муҳим рол ўйнади. “Тараққиёт”, “Хуршид”, “Шухрат”, “Осиё”, “Самарқанд”, “Садойи Туркистон”, “Садойи Фарғона” газеталари, “Ойина”, “Ал-ислоҳ” журналлари чоп қилина бошлади. Бундан ташқари, жади́дчилик қарашлари хайрия жамиятлари фаолиятида ҳам ўз аксини топа бошлади. Айниқса, “Турон”, “Тарбият ул -афтол”, “Шўрои Ислом” жамиятлари хайрли ишлари билан миллий-озодлик ҳаракатларида ижобий фаолият кўрсатди.

Лазиз Азизода М.Бехбудий ҳақидаги мақоласида “Туркистоннинг уйғониш даврини уч қисмга – маориф, матбуот ва жамиятга бўлиб, шу даврда катта рол ўйнагонларни текширмоқ” фикрини илгари сурганида шу масалаларни назарда тутди.

Ижтимоий турмушдаги ислохотчилик адабиёт ва санъатни ҳам четлаб ўтмади. Анъанавий йўсиндаги адабиёт янгича йўналишлар, янгича жанрдаги асарлар ҳисобига бойиди, романчилик, публицистика, адабий танқид, маърифий шеърият, драматургия майдонга келди [4].

Бу ҳақда “Маориф ва ўқитувчи” журнали 1928 йил 3-сониди куйидагиларни ёзган эди: “Жадидлар ўз мафкураларини тарқатиш, ўз идеалари йўлида ташвиқот олиб бориш учун адабиёт яратдилар” [2].

Чунончи, ўша давр дарсликлари таркибида яратилган болалар адабиёти намуналари ёш авлодни билим олишнинг афзалликлари, Ватан эрки учун курашнинг муқаддаслиги, иймон, ахлоқ, эътиқод, ростгўйлик, садоқат, эрк руҳида тарбиялашга қаратилиши билан алоҳида эътиборга лойиқ.

А.Авлонийнинг “Мактаб”, “Нима, кимники”, “Миллатга хитоб”, Ҳамзанинг “Китоб”, “Мактаб” асарлари шулар жумласидандир. А. Авлонийнинг “Миллатга хитоб” шеъри илм-маърифат орқали миллий уйғонишга даъваткорлик руҳи билан алоҳида ажралиб туради.

Миллатга хитоб

Кўзларинг оч, эй миллат!

Кўп замон ғофил ётдинг.

Умринг ўтди ётмакда

Қайғуга тоза ботдинг.

Кетди шону шарафинг,

Мозор тошидек қотдинг.

Эй! “Токайгача ғафлат ичида ётамиз!”

Келинг, ёшлар, жаҳолатни отамиз!

Бизга бу кун илма киришмак керак!

Бизга бу кун илма тиришмак керак!

Абдулла Авлоний бола тарбиясига алоҳида муҳаббат билан қараган эди. Шу сабабдан ҳам адиб, - “Тарбияни туғилган кундан бошламак, вужудимизни қувватлантирмак, ахлоқимизни кучлантирмак лозим”, дейди у, - “Шунинг учун тарбия қилувчи муаллимларнинг ўзлари илмларига олим бўлиб, шогирдларига ҳам берган дарсларини амал ила чақиштириб ўргатмаклари лозимдир. Бу равш таълим ила берилган дарс ва маълумот шогирдларнинг дилига тез таъсир қилиб, улар илмли – одобли бўладилар”. Адиб юқоридаги ҳурфикр гаплари билан болаларни туғилган кунидан бошлаб, таълим-тарбияга ўргатмоғимиз керак дейди.

Абдула Авлоний бола камолотида заковат ва фикрнинг ижобий таъсир кучига ғоят зўр баҳо берар экан, у шундай дейди; “Заковат инсоннинг энг яхши фазилатларидандир. Заковатли кишилар бирон ишни бошламоқчи бўлсалар уни ҳар тарафлама ўйлаб кўрадилар. Шунинг учун ҳам улар катта ҳаётий тажриба орттириб, камолатга эришадилар. Заковат ҳаётнинг барча мушкул ва жумбоқ масалаларини ҳал қилишда одамга ҳамроҳдир: - Фикр тарбияси эса, энг керакли, кўп замонлардан бери тақдир қилиниб келган, муаллимларнинг диққатларига суянган, виждонларига юкланган вазифадир.

Шунинг учун Абдулла Авлониё боланинг фикрлаш қобилиятини ўстиришда муаллимнинг роли катта аҳамиятга эга эканлигини таъкидлайди.

Абдулла Авлониё болалар тарбиясига эътибор қаратар экан, болаларнинг ўқиб, таълим олишида мактабнинг ўрни бекиёслигини таърифлайди. Масалан, "Иккинчи муаллим" асари "Мактаб" шеъри билан бошланади. Шеърда кимки мактабга борса, ўқиса саводхон бўлса, жуда кўп нарсаларга эришиши чиройли таърифланади:

Мактаб дур-у гавҳар сочар,
Мактаб сизга жаннат очар,
Мактаб жаҳолатдан қочар,
Ғайрат қилиб ўқинг ўғлон!
Мактаб сизни инсон қилур,
Мактаб ҳаё эҳсон қилур,
Мактаб ғами вайрон қилур,
Ғайрат қилиб ўқинг ўғлон!

Абдулла Авлониё "Мактаб гулистони" асарининг кириш қисмида қуйидаги:

"Мактаб –ҳазинаи адабу илм(у) иззатинг,
Мактаб- боғи жаннати фирдавс, неъматинг,
Мактаб кишини жаҳл(у) донийдан қилур халос,
Мактаб –калиди каъбаи қалб (у) заковатинг"

парчасини эпиграф қилар экан, адиб шундай дейди: "Адабий ахлоқий мароқ-у шавқ ила ўқуладурган ҳикоялар, шеър ила Туркистон мактабларининг иккинчи синфларидан бошлаб ўқутмоқға мувофиқ равишда ёш болалар учун енгил вазн ва осон шева узра тартиб берилди". Адиб болаларнинг таълим олиши ҳақида қанчалик қайғурганлигини юқоридаги гаплардан ҳам кўришимиз мумкин.

Ёки қуйидаги парчага эътибор қилайлик: "Фикр агар яхши тарбия топса, Ханжар олмосдан бўлур ўткир. Фикрнинг ойнаси ўлурса занг, Рух равшан, замин бўлур бенур"[3]. Бу парча улуғ педагог Абдулла Авлониёнинг дил сўзларидир. Адиб илм билан тарбия орасида бироз фарқ бўлса ҳам иккиси бир – биридан айрилмайдиган, бирининг вужуди бировга боғланган жон ила тан кабидур дея ўзининг ибратомуз фикрларини келтириб ўтган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ризаев Ш. Жаҳид драмаси. –Т.: Шарқ. 1997. 35- бет.
2. "Маориф ва ўқитувчи", 1928 йил. 3-сон, 39-бет.
3. Абдулла Авлониё.(2009)Танланган асарлар.Мактаб гулистон(1-жилд) Т: Маънавият.195 и.
4. Тоджибаева К. С. К. Мыслители востока о профессии педагога и педагогическом мастерстве //Academy. – 2016. – №. 12 (15). – С. 73-75.
5. Ибраимов Х., Қуронов М. Умумий педагогика. Дарслик. -Т., «Sahhof», 2023.
6. Ибраимов Х., Абдуллаева Ш. "Педагогика назарияси (дарслик)." Т.: Фан ва технология 288 (2008).

7. Ибраимов Х. И. Организация самостоятельной работы студентов в условиях цифровизации вузовского образования //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 7 (54). – С. 74-75.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ВА АНВАР ПОШО

Қаҳрамон Ражабов

*Ўзбекистон ФА Тарих институти бош илмий ходими,
тарих фанлари доктори, профессор.*

Аннотация. Мақолада XX асрда Туркистонда вужудга келган миллий уйғониш ҳаракатининг атоқли раҳбарларидан бири, машҳур драматург ва публицист, жамоат арбоби ва машҳур уламо, йирик олими, ношир ва матбуотчи ҳамда саёҳатчи, маърифатпарвар Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг тарих, маданият тараққиётига қўшган ҳиссаси таҳлил қилинган. Унинг Болқон урушлари ва турк халқининг буюк фарзанди ҳарбий саркарда Анвар Пошо билан ҳамкорлик муносабатлари тўғрисида фикр билдирилган.

Таянч нушунчалар: жади́дчи́лик, тарих, маънавий, маданият, илм, маърифат, дин, ахлоқ, санъат, сиёсат, маънавий баркамоллик.

Abstract. In the article, Turkestan in the 20th century The contribution of Mahmudhoja Behbudi, one of the famous leaders of the emerging national revival movement, a famous playwright and publicist, a public figure and a famous scholar, a great scientist, a publisher and a journalist, and a traveler, an enlightener, to the development of history and culture is analyzed. His opinion was expressed about the Balkan wars and his cooperation with the great son of the Turkish people, military leader Anwar Pasha.

Keywords. modernity, history, spirituality, culture, science, enlightenment, religion, morality, art, politics, spiritual maturity.

Туркистондаги жади́дчи́лик ҳаракатининг таниқли намояндаси Маҳмудхўжа Беҳбудий (1874 – 1919) нафақат машҳур драматург ва публицист, жамоат арбоби ва машҳур уламо бўлишидан ташқари у ўз даврининг йирик олими, ношир ва матбуотчи ҳамда саёҳатчиси сифатида ўзидан чуқур из қолдирди. Беҳбудий ўз асарларида фақат Туркистон тарихи ва маданияти тўғрисида фикр юритмасдан XX аср бошларида ўзи кўрган ва гувоҳи бўлган воқеалар: Усмонли турк султонлигидаги аҳвол, Болқон урушлари, Биринчи жаҳон уруши, Европадаги йирик жаҳонгир давлатларнинг дунёни қайта бўлиб олиш сиёсати ҳамда оқибатлари ҳақида ҳам сўзлаб ўтади. Ушбу мақолада сўз Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг Болқон урушлари ва турк халқининг буюк фарзанди ҳарбий саркарда Анвар Пошо (1881-1922) ҳақидаги фикрлари тўғрисида боради.

Тарихдан маълумки, 1908 йил мартда Эдирна (Усмонли турк султонлигининг Европада жойлашган йирик шаҳри ва дастлабки

пойтахтларидан бири) шахрида ҳарбийлар томонидан мавжуд тузумга қарши исён кўтарилди. Ёш турклар бу исённи қўллаб-қувватлашди. Султон ҳукумати эса бу исённи тўхтатишга ҳаракат қилди.

1908 йил 3 июлда Ёш турклар инқилоби ғалаба қилди. Ғарбча кайфият ва ислохот тарафдорлари бўлган Ёш турклар партияси аъзоларининг фаолияти Усмонли турк султони Абдулҳамид II томонидан 24 июлда 1876 йилдаги конституция қайта тикланганлиги тўғрисида фармон қабул қилишга олиб келди [3; 111].

1908 йил октябрда “Иттиҳод ва тараққий” (“Бирдамлик ва тараққиёт”) ташкилотининг конгресси бўлиб, унда сиёсий партия тузиш ҳақида қарор қабул қилинди. Янги партия дастурида султон ҳокимиятини чеклаш, парламентнинг ваколатларини кенгайтириш, вазирларнинг парламент олдида жавобгарлиги тартибини ўрнатиш, 21 ёшдан ошган барчага сайлов ҳуқуқини бериш зарурлиги ҳақида айтилади. Сўз, матбуот ва йиғилишлар эркинлиги эълон қилинди.

Бироқ султон Абдулҳамид II ўз тарафдорларига таяниб, 1909 йил 13 апрелда Истанбулда Ёш туркларга қарши ҳарбий ҳаракатларни бошлади. Ёш турклар йўлбошчилари Истанбулдан Салоникига қочишга улгурдилар ҳамда ўз ҳарбий кучларини (100 000 аскардан иборат 2та армия корпуси) тўплаб, пойтахт Истанбулга юриш бошладилар. Пойтахт куруқлик ва денгиздан ўраб олинган, қисқа ҳарбий тўқнашувлардан сўнг ҳокимият Ёш турклар қўлига ўтди (5; 443).

1909 йил 27 апрелда Ёш турклар томонидан султон Абдулҳамид II тахтдан туширилди ва ўрнига султон Меҳмед V Рашид тахтга ўтирди. Мамлакатда Ёш турклар инқилоби ғалаба қозонди. Султон вазирларни тайинлаш ва бўшатиш, парламентни чақириш ва тарқатиб юбориш ҳуқуқларидан маҳрум қилинди.

Туркиянинг кучсизланиб қолганлиги ва халқаро обрўсининг тушиб кетганлигидан фойдаланиб, Австрия-Венгрия империяси Сербиянинг эътирозига қарамай 1908 йил 5 октябрда Босния ва Герцеговинани босиб олди. Бундан сал олдин – 1908 йил 22 сентябрда Болгария Усмонли турк султонлигидан ўз мустақиллигини эълон қилди [3; 112].

Бу пайтда Болқон муаммоси кескинлашди. Болқон ярим оролининг асосий қисми бу пайтда турклар қўлидан бўлган. 1911 – 1913 йилларда бўлган учта уруш: Италияга қарши Ливия учун ва иккита Болқон урушидаги мағлубиятлар Туркия жамиятини ларзага келтирди. Италия билан муваффақиятсиз урушдан кейин 1912 йил июлда янги давлат тўнтариши юз бериб, Ёш турклар иккинчи марта ҳокимиятдан четлаштирилди. Янги ҳукумат 1912 йил 15 октябрда Италия – Туркия ўртасидаги Лозанна битимини имзолади. Бу битимга кўра Усмонли турк султонлиги Киренаика ва Триполитания (ҳозирги Ливия)ни Италияга топширди.

1912 йил 13 мартда Туркияга қарши Болгария – Сербия иттифоқи тузилган эди. Кейинчалик бу иттифокқа Греция ва Черногория қўшилди.

Болқон давлатлари иттифоқи билан Туркия ўртасида 1912 йил 9 октябрь – 1913 йил 30 майда бўлган биринчи Болқон уруши ҳамда 1913 йил 29 июнь – 10 августда бўлган иккинчи Болқон урушида асосан турклар мағлубиятга учради. Усмонли турк давлати Истанбул ва Шарқий Фракиянинг бир қисмидан ташқари Болқондаги барча мулкларидан маҳрум бўлди. Бироқ иккинчи Болқон урушини бошлаган Болгария бу урушда мағлубиятга учраб, Эдирна (Адрианополь) шаҳрини туркларга қайтаришга мажбур бўлди. Македония парчалаб юборилди [3; 118 - 120].

Уруш ҳаракатлари даврида султон ҳокимияти ва тарафдорларининг қатъиятсизлиги ҳамда бепарволигидан фойдаланган Ёш турклар ҳокимиятни қайта қўлга киритишди. 1913 йил 23 январда Анвар Пошо ва Талъат Пошо бошчилигидаги 200га яқин Ёш турклар ҳукумат қароргоҳини ўраб олиб, ҳарбий вазир Нозим Пошони ўлдирдилар ҳамда Бош вазир, ички ишлар ва молия вазирларини ҳибсга олдилар. Шундан сўнг Ёш туркларнинг янги ҳокимияти шакллантирилди.

1913 йилдан бошлаб мамлакатда ҳокимият Ёш турклар партиясининг 3 нафар йўлбошчиси: Талъат Пошо (Бош вазир), Анвар Пошо (ҳарбий вазир), Жамол Пошо (ҳарбий денгиз кучлари вазири) қўлига ўтди. Улар даврида Туркия ташқи сиёсатда Германияга суяниб ҳаракат қилди (5; 444 – 445). Талъат Пошо, Анвар Пошо, Жамол Пошодан иборат триумфират (учлик) мамлакатни 1918 йилнинг охиригача бошқаришади.

Анвар Пошо Болқон урушлари даврида ҳарбий корпуснинг штаб бошлиғи лавозимида ишлаган пайтида унинг қўл остида майор Мустафо Камол (1881 – 1938) ҳам хизмат қилар эди. Мустафо Камол кейинчалик Отатурк сифатида машҳур бўлди, у Туркия Республикасининг биринчи президенти бўлган.

Иккинчи Болқон уруши даврида Анвар Пошо қўшинлари болгарларга кучли зарбалар беради. Биринчи Болқон урушида Туркиядан тортиб олинган Эдирна шаҳри болгарлар босқинидан озод қилинди [5; 43].

1914 йил июнда Ҳаж зиёратига бориш пайтида Эдирнага борган Маҳмудхўжа Беҳбудий Анвар Пошонинг ҳарбий жасоратлари ва Эдирна қамалини “Ойина” журналида ўша пайтда чоп қилдирган “Саёҳат хотиралари” кундаликларида самимият билан тасвирлайди. Беҳбудий Эдирнага киргач, шаҳар қиёфасини қуйидагича кўрсатади:

“Адирнаға (Эдирнаға – Қ.Р.) кирдук: барча йўллари тош фарш қилинган ва ҳар тараф олий кубба ва минораси булутларга узайган жомеълардур. Ҳар кўча ва ҳар ерда бузулган ва ёнилган ҳовлиларга учралур. Шаҳарнинг энг обод ерида энг харобазорлар учраладурки, муҳорабанинг зараридур. Муҳорабадан аввал бу шаҳарда юз мингдан зиёда киши бор экан, энди 40 минг қолибдур. Мундаги рум ва яҳудийларға ҳам булғорлар жабр қилибдурлар. Румлардан бир кишини ўтундек бирга боғлаб, Мериц наҳрига отиб, йўқ қилибдурлар. Мусулмонларни тириклай қудуқға солиб

тўлдурубдурлар. Энди бу жойларда мазор ва ёдгорийлар бино қилинур” [2; 90].

Биринчи Болқон уруши даврида Туркияга қарши урушган булғор (болгар), серб, қоратоғ (черногория) ва юнон (грек) ҳукуматлари ўртасида Адирна шаҳрини босиб олишдаги ихтилофлар ва Турк қўмондонлигининг бу масаладаги позициясини Беҳбудий қуйидагича айтиб ўтади:

“Адирнани олмоқга ёлғиз булғорни кучи етмади. Анга ёрдам учун серб аскардан 20 минг қадар келди. Ва охири очликдан Адирна сукут этди. Турк аскари очликдан дарахтлар пўстини ва гиёҳлар томурини ебдурларким, қабуғи очилган ва тикка турган юзлар ила дарахтларни кўзум билан кўрдум. Аскарлар очликдан кўб ўлубдур, қувватсизликдан бир тўп ўқини ўн қадар аскар зўрға тўпга қўяр эмишлар. Бовужуд, шул ўлганча ишдан қолган ва ё қочган аскар бўлинмабдур. Шу ҳолда бўлса ҳам шаҳарни душманга топшурулгани учун аскар норозилик қилибдур. Сербия аскари келгандан сўнгра Адирна қахрамони Шукри Пошо яна аввалгидан зиёдароқ қаттиғлик ила Адирнани муҳофаза қилиб, ҳам душман ва ҳам очлик ила мубораза қилибдур. Дигар тарафдан, Истанбулда Комил Пошо Буюк Мажлисни жамлаб, Адирна аҳволи ва Туркиянинг қувватсизлиги ва Оврупо давлатларининг: “Адирнани булғорларга берингиз”, деган таклифини музокара қилиб, охири сулҳан Адирнани булғорларга бермоққа қарор берилиб, ҳатто қоғозлар ҳам ёзиладур. Муни Ёш туркларнинг катталаридан ҳозирги Анвар Пошо ва шаҳид бўлган Маҳмуд Шавкат Пошо ва бошқалари эшитиб, ихтилол чиқариб, Боби олийни босиб, ҳарбия вазири Нозим Пошони ўлдируб, Комил Пошони банди этиб, Султонга маъқул қилиб, Маҳмуд Шавкат Пошони садри аъзам қилдуруб ва Анварбек бош бўлуб, Галибули тарафидан Адирна устига аскар чиқарди. Чаторча тарафида урушлар ҳам бўлди. Охири, ноиложона суратда очлик сабабидан Шукри Пошо Адирнани таслим этмоқчи бўлди. Адирнани топшурди, аммо булғорға эмас, сербларға... ва мунинг сабаби булғорлар ила серб орасида ихтилоф солмоқ эди. Ва ҳақиқатда Шукри Пошонинг бу сиёсати душман орасига ихтилофга сабаб бўлди” [2; 93 - 94].

Беҳбудий ўз сафарномасининг кейинги бетларида Анвар Пошо томонидан Адирна шаҳрининг душман қўлидан озод этилишини қуйидагича тасвирлайди:

“Булғорлар мунга кўнмади ва охирда серб ила юнон бир бўлиб, булғорларни урдилар. Бул аснода Анварбек тўрт кунлик йўлни бир кунда юриб келиб, Адирнани босиб, булғорлардан қайтиб олди. Булғорлар муни билиб, Адирнанинг обод еру хонау аскархонау анборлариға ўт кўюб эканларким, бу ўтларни ҳам вақтида турк аскарлари етиб, сўндуруб, булғорлардан бениҳоят озуқа, асбоб, милтиқ ва кўп адад тўпларни ўлжа олибдурлар. Ва Султон Салим жомеъи шарифини калиса бўлмоқдан қутқардилар...

Хулоса, Адирнанинг қайтиб олинганлигининг шарафи Ёш туркларга ва Анвар Пошога насиб бўлди” [2; 94].

Бехбудий бу ўринда фахр ва ғурур билан жасоратини кўрсатиб ўтган Анвар Пошо номи ўша йилларда Туркистон аҳолиси ўртасида ҳам машхур бўлиб улгурган эди. Бу ҳол Ўзбекистондаги архив ҳужжатларида ҳам акс этган. “1913 – 1914 йиллардаги (аслида 1911 – 1912 йиллардаги – Қ.Р.) италян-турк уруши пайтида Туркистон аҳолиси Анварнинг ҳаракатига қандай муносабат билдирганини эслайлик, биз бунда шуни кўрамизки, ҳатто мактабларда таҳсил олувчи ўсмирлар Анвар Пошо кўшинининг ҳар бир ҳаракатини интиқлик ва фахр билан кузатиб, унинг жасоратига тасаннолар айтишарди, халқ эса беш йил мобайнида унинг шарафига туғилган ўз ўғлонларига Анвар исмини кўяр эди”, - деб расмий ҳужжатларнинг бирида сал кейинроқ ёзган эди Туркистон АССР раҳбарларидан бири Назир Тўракулов [6; 131].

Хулоса қилиб айтганда, Маҳмудхўжа Бехбудий қолдирган бой илмий меросни бугунги кунда фақат Ўзбекистон тарихи фани нуқтаи назаридан эмас, балки жаҳон тарихи фани контекстида ўрганиб, буюк аждодимиз фикрларини теранг англашимиз керак. Шунинг учун ҳам Бехбудий вафот этганлигига 100 йил тўлган бўлишига қарамасдан у ҳозир ҳам мангу тирик зот сифатида биз билан замондош ва ҳамнафас ҳисобланади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2-нашри. Нашрга тайёрловчи, тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов. –Тошкент: “Маънавият”, 1999. – 280 бет.
2. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. II жилд. Сўзбоши муаллифи, тўплаб, изоҳлар ва луғат билан нашрга тайёрловчи: Сирожиддин Аҳмад. –Тошкент: “Akademnashr”, 2018. – 312 бет.
3. Ражабов Қ., Қандов Б. Жаҳон тарихидаги сулола ва давлатлар: қисқача сиёсий тарихи ва муҳим саналари (1795 – 1960 й.). Учта китоб. 2-китоб. Тўлдирилган ва қайта ишланган 2-нашри. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2015. – 288 бет.
4. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920 – 1924 й.). –Тошкент: “Маънавият”, 2002. – 144 бет.
5. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи. Янги давр. 1800 – 1918 й. II қисм. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2015. – 568 бет.
6. Ўзбекистон Миллий архиви, 17-фонд, 1-рўйхат, 45-иш, 131-варақ.

JADIDCHILIK HARAKATI ASOSCHISI ISMOIL GASPIRALI VA BUXORO AMIRI ABDULAHADXON IJODI

Sherxon Qorayev

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola jadidchilik harakati asoschisi Ismoilbek Gaspiralinig Turkistonga, xususan Buxoro amirligiga safari, xon bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlari hamda hukmdorlar shoiri Amir Abdulahadxon saroyi adabiyoti va adabiy kechalari tarixiga bag'ishlangan. Hukmdor shoir Abdulahadxon atrofida shoirlar to'planib, adabiy kechalar o'tkazganlar. Bu esa xonlikda adabiyot va san'atni rivojlanishiga xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: Saroy shoirlar, adabiy muhit, tazkiralar, sohibdevon shoir, mushoiralar.

Абстракт. Данная научная статья посвящена истории Исмаилбека Гаспиринского, основоположника джадидизма, его поездка в Туркестан, особенно в Бухарский эмират, его встречам с ханам, а также истории литературы и литературных вечеров поэта правителей Амира Абдулахад-хана.

Poets gathered around the ruling poet Abdulahad Khan and spent literary evenings. This served the development of literature and art in the khanate.

Ключевые слова: придворные поэты, литературная среда, тазкиры, сахибдеван поэт, мушаиры.

Abstract. This scientific article is devoted to the history of Ismailbek Gaspirinsky's journey to Turkestan, particularly to the Bukhara Emirate, the meeting with the khan, and the history of the court literature and literary evenings of the poet of rulers Amir Abdulahad Khan.

Poets gathered around the ruling poet Abdulahad Khan and spent literary evenings. This served the development of literature and art in the khanate.

Key words: Court poets, literary environment, tazkiras, sahibdevan poet, mushaira.

XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda vujudga kelib, jadidchilik nomini olgan ma'rifatparvarlik harakati bevosita Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bog'liq. Matbuot, adabiyot va teatr, yangi usuldagi jadid maktablarining Turkistonda ochilishi va rivojlanishida Ismoilbek Gaspiralinig xizmatlari katta.

Mahmudxo'ja Behbudiy Ismoilbek Gaspiralinig g'oyatda hurmat qilgan va u bilan uchrashgan. Ayniqsa, Istanbulning Gulxona bog'ida ustozi bilan suhbatlashgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Ismoilbek Gaspirali muloqot davomida Turkistondagi jadid maktablari, maorif, ma'rifat, noshirlik ishlari bilan qiziqqan.

Ismoilbek Gaspirali Buxoro amiri Abdulahadxon huzurida bir necha marta bo'lib, 1893 yilda hukmdor bilan davlat taraqqiyotida "usuli jadid" maktablarining ahamiyati haqida suhbatlashgan. "Turkiston sayohatlari"da yozilishicha, *"bu safargi suhbatimizda hazrat davlatli Abdulahadxon Rusiyaga qilgan sayohatlarim borasida so'z ochdilar, ko'rgan va eshitganlarimdan so'ylarkanman, ko'p xursand va mamnun bo'lganlarini lutfan bayon ayladilar. Xususan, o'zlarining Peterburgda o'tkazgan kunlari hech yoddan chiqmasligini, hayojonli tuyg'ularga to'la ekanligini ifoda etdilar"*.

Buxoro amiri jadidlar rahnamosini III darajali "Oltin yulduz ordeni" bilan taqdirlagan. Buxoro hukmdori ham Qrimga borib, Ismoilbek Gaspirali bilan ko'rishgan. Ismoilbek Gaspirali "Turkiston sayohatlari" asarida yozishicha, *"shu yilning fevral oyida nuroniy amir Abdulahad hazratlarining Bog'chasaroyga tashrif buyurib, men ojizlarga lutfan ko'rsatganlari iltifoti shohonalari necha yillardan beri ko'ngulda kuyub-kullanib turgan otashni ochiq olovlantirib yubordi va bir oz tadorikdan so'ngra, 10 mayda Bog'chasaroydan chiqib, Turkistonga yo'l tutdim"*. Ismoilbek 1908 yilda Turkistonga ikkinchi marta keladi. Safar tafsiloti "Buxoroda na ko'rdim?" sarlavha ostida "Tarjimon" gazetasida bosilgan. Adabiyotshunos Begali Qosimovning yozishicha, *"Buxorodagi no'g'oylar Ismoilbekni mehmonga chaqirib, "Jamiyati xayriyalari"ga faxriy a'zo qiladilar. Yangi ochilgan bir maktabni uning sharafiga "Ismoiliya" deb atamoqchi ekanliklarini aytadilar. Ismoilbek unamaydi. Amir Abdulahadxonning marhum padari hurmatiga "Muzaaffariya" deb nomlashni maslahat beradi. "Ey davlatlular! – deb yozgan edi Buxoro va Xiva xonlariga murojaatida,- maydoni siyosatda mag'lub o'lub, istiqlolni boy berdingiz. Bu zamonda g'aflat edilursa, maydoni iqtisod va maishatda millat mag'lub tushub, sabab o'lanlari dunyo turdiqcha mas'ul tutajakdir..."*

Ismoilbek Gaspirali Buxoro amiri Abdulahadxon ijodi bilan yaxshi tanish bo'lgan. Uning Karmana va Shahrisabz saroylaridagi adabiy majlislari va bazmlarida ishtirok etib, hukmdorlar shoiri she'rlarini mutolaa qilgan.

Ma'lumki, XVII – XX asr boshida Xiva, Qo'qon va Buxoro xonlari saroylarida o'ziga xos adabiy muhit shakllangan edi. Jumladan, Buxoro amirlari atrofida ham adabiy muhit namoyandalari bo'lgan ko'plab iste'dodli shoirlar bo'lib, saroyda muntazam mushoira kechalari tashkil etganlar. Buxoro xoni Muzaffarxonning o'g'li 1885 – 1910 yillarda hukmronlik qilgan, zullisonayn sohibdevon shoir Abdulahadxon (1859-1911) ham "Ojiz" taxallusi bilan forschatojikcha hamda o'zbekcha she'rlar bitgan bo'lib, o'z she'rlarini she'riy majlislarda o'qigan.

***Qil muruvvat holima ey xo'blarning sarvari,
Toki bo'lg'ay mehnatu anduh hijrondin nari,
Ojizi bechorag'a ko'rsat yuzingning axtari,
Chehra ko'rsat qilma istig'no Amirg'a ey pari,
Ko'rmasa bir dam qachon sabru qarori bor ekan.***

O'zbekcha (va forscha) she'rlar yozgan Abdulahadxon Umarxon Amiriyning qator g'azallariga muxammaslar bog'lagan [Qayyumiy, 1999.460-b].

Muhammad Ali Baljuvoni "Tarixi nofeiy" asarida hukmdor shoirni "*sultoni zamon, shoiri ofoq va davron, bulbuli bo'ston*" [Baljuvoni, 2001.44-b] deb atagan. Amir Abdulahadxon juda o'qimishli va ziyoli bo'lgan. O'zbek tilidan tashqari fors va rus tilini mukammal bilgan. Farang tilida ham gapira olgan. Arab tilida Qur'onni yaxshi o'qigan.²⁹ Amir Abdulahadxonning madaniyatli, ma'rifatli va odil rahbar bo'lganligini Sadridin Ayniyning "Esdaliklar" kitobida, Afzal Pirmastiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarlarida ham yoritilgan (Buxoroda bitilgan baytlar, T.:1962. –B.110).

Amir Abdulahadxon hayoti davomida doim ziyoli, ilm – fan namoyandalarini atrofiga to'plagan. Adabiyot va san'at ixlosmandlaridan moddiy va ma'naviy ko'magini darig' tutmagan. Buxoro shahrida eng boy shaxsiy kutubxona amirning qozikaloni Sharifjon Maxdum kutubxonasi hisoblangan. Yana biri Abdulahadning ukasi Siddiqxon to'ra (taxallusi Hashmat)ga qarashli bo'lgan. Hashmat Karmanada yashagan va shaxsan Amirning topshirig'i hamda uning tarafidan ajratilgan mablag'larga qimmatbaho qo'lyozma kitoblar yiqqan.

Shuhrat Xalilovning yozishicha, Afzal Pirmasti, Mullo Sharif Anbar, Mirza Shamsiddin Doyi, Muhammad Aminxo'ja Eshon kabi ko'plab shoirlar amir homiyligida ijod qilgan. Ularning ijodida Olloh taolaga iltijo, ma'shuqani tasvirlash, (hukmdorni) madh etish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shoir "Ojiz"ning quyida Mullo Sharif Anbarga yozgan she'riy javob g'azalining matnini (parchani) keltiramiz:

Halli mushkilho, zi lutfi hayyi akbar yoftam,

Hosili maqsud az rohi payombar yoftam.

O' zi ro'yi osmon gufto – vumo taxti falak,

Soli ta'rixash chunun az mashqi Anbar yoftam.

(Mazmuni: Mushkullar hallini Xudo lutfidan topdim, Maqsadlarim hosilini payg'ambar yo'lidan topdim. U osmon yuzidan aytdiyu, biz falak ostida, Ta'rix yilini Anbar mashqidan topdim.)

Aftidan shoir Anbarning she'rida abjad usulida biror bir sana berilganki, amir ziyraklik va did bilan buni nazmda ifoda etgan.

Manbalarda qayd etilishicha, "“Fazilat va suxan gulistonining bulbuli” bo'lgan mazkur amir o'z zamonasining balandpoya, balandparvoz shoiri bo'lib, u yaxshi she'r yozar, ko'ngilga yaqin gaplar ayta olar, voqeanavislikda o'z davrining yagonasi edi. Uning misra va ruboiylari bizgacha yetib kelgan. Chunonchi, Hoji Ne'matillo Muhtaram tomonidan mazkur amir topshirig'i bilan tuzilgan "Tazkirat ush-shuaro"da "Ojiz" taxallusli amir Abdulahadxon she'rlaridan namunalar keltirilgan.

Amir Sayyid Abdulahad fiqh, mantiq, falsafa ilmlarini zamon ustozlaridan o'rganib, adabiyot sohasida ham chuqur bilimga ega bo'lgan. Uning saroyi fozillar, shoirlar, yozuvchilar bilan doim to'la edi [Olimiy, 2004.68-b].

"Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligida yozilishicha, *"Buxoro adabiy muhitida an'anaviy ikki tillilik bu davrda ham davom etdi. Amir Abdulahadxon (1859-1910) siyosiy hayotninggina emas, adabiy hayotning ham eng e'tiborli vakili edi. Ayniqsa bu uning amirlik davri (1885-1910)da yaqqol namoyon bo'ldi... Sohibdevon hukmdor shoirning adabiyotga yaqinligi shu darajada ediki, ayrim tuman hokimlari, masalan, Hisor hokimi Avliyoqulibek "Husayniy" taxallusi bilan devon tartib qilgan edi. Boshqa hokimlar ham amirga yaxshi ko'rinish uchun ham she'rlar yozishgan.*

Abdulahadxonning rag'bat va himmati bilan Afzal Pirmastiy (1915 y. v.e.), Ne'matulla Muhtaram (1920 y. v.e.), Mirsiddiq Hashmat (Amirning ukasi), Abdi kabilar tazkiralar tuzib, an'anaviy tazkirachilikni yangi-yangi asarlar bilan boyitganlar [Qosimov, 2004.14-b.]".

Amir "Abdulahadxonning Rossiyaga navbatdagi safari 1892 yil dekabrda boshlangan bo'lib, bunda u o'g'li Mir Sayyid Olimxonni Peterburgdagi harbiy oliy maktabga o'qishga joylashtirish maqsadida borgan va o'zining 1892 yil dekabr – 1893 yil fevral oylari davomidagi safari tafsilotlarini kundalik tarzida yozib borgan. Ushbu kundalik Ismoilbek Gaspinskiy tomonidan 1894 yilda Qozonda "Buxoro amiri hazratlarining kundaligi" sarlavhasi ostida nashr qilingan. Ushbu asar 1998 yilda "Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari" jurnalining 3-4 sonlarida o'zbek tilida chop etilgan [<https://www.bukhara.uz/?p=12632>].

Sayyid Mansur Olimpiyning yozishicha, *"Amir Abdulahad daxmasiga kiradigan binoning tepa qismidagi toshga amir Sayyid Olimxon buyrug'i bilan quyidagi misralar (Forschadan S.Inoyatov, I.G'aniev, Yu.Azimov tarjimai) yozilgan:*

***Ko'ngil, ey ko'ngil, yayra, u jannatga otlandi,
Abdul – Ahad bin Sayyid Amir Xusravu zamon.
Karamu saxovatda u qadar yo'qdir, pesha,
U gavhari sharifdir, tuproqqa qorishdi, esiz u jon...
Qabring boshida turib, vodarig'o yig'ladim,
Umr daraxti yanglig' xazon bo'ldi borlig'im.
Fazlu suxan bog'ining bulbuli, deb ingradim,
Yuz vohkim bo'stondan uchdi bulbul, orligim.
Aning vafotin raqam aylagayman, xun bo'lib,
U jahon borligida maqom topgan shoh erurdi.
Sening qabr-xokingdan g'unchalar ungay behad,
Nuri rahmat yog'ilib, abadiy umr ko'rurdi [Olimiy, 2004.61-b.].***

Shuhrat Xalilovning yozishicha, Sangtarosh Mullo Abdurayim G'azg'oni tomonidan toshga yozilgan (bu) marsiya hozirgacha yaxshi saqlangan. Marsiyani Amir Abdulahadxonning saroy shoiri Mirzo Hayit Sabho yozgan bo'lishi ehtimol.

Ma'lumotlarga ko'ra, "Buxoro amiri Abdulahadxonning tavsiyasi bilan Buxoroda XX asr boshida Afzal Maxdum Pirmastiy tuzgan "Afzali ut tazkor fi zikrish shuaro val ash'or" ("Shoirlar va she'rlar haqida Afzal tazkiras") deb nomlangan tazkirada XIX asr oxiri va XX asr boshida yashab, ijod qilgan 135 shoir haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Bu davrda yana qator tazkiralari tuzilib, an'anaviy tazkiranavislik yangi asarlar bilan boyitilgan. Xususan, (Buxoro shahzodasi) Said Mir Muhammad Siddiq Hashmat tuzgan "Tazkirat ush – shuaro" nomli tazkirada Buxoroda yashab ijod qilgan 60 dan ortiq shoir, ularning taxallusi, tarjimai holi, mashhur she'rlari haqida so'z boradi. Hoji Abdulazim Shar'iy tuzgan "Tazkirai shuaro Abdulazim Shar'iy" nomli tazkirada XIX asr oxirida Buxoro, Samarqand va Toshkentda yashab ijod qilgan shoirlar va olimlar xususida so'z yuritiladi. Ne'matulla Muhtaramning nasriy matnda fors tilda yozgan "Tazkirai Hoji Ne'matulloh Muhtaram" nomli tazkirasida XIX asr va XX asr boshida Buxoroda yashab ijod qilgan shoirlarning taxallusi, ismi, nasabi, yozgan asarlari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Abdiy Mirabdullaxo'janing "Tazkirai Abdiy" (Yoki "Tazkirat ush-shuaro mutaaxxirini Buxoro") hamda "Tazkirat ush-shuaro" (1904) nomli tazkiralari Amir Abdulahad davrida yashab ijod qilgan 118 nafar shoir haqida ma'lumotlar jamlangan [<https://www.bukhara.uz/?p=12632>].

Naql qilinishicha, saroy shoiri va tarixchi Mirzo Somiy "qarigan chog'ida Abdulahadxon saroyida quviladi. U saroyga qaytish va oldingi mavqeini tiklashga ancha harakat qilgan. Sayohat qilishni xush ko'radigan va sayohatlari haqida kitoblar yozgan Amir Abdulahad nazariga tushish uchun arab yozuvchisi Husayn at-Tavironiyning sayohatga bag'ishlangan asarini tarjima qilib, tarjimasini Abdulahadga bag'ishlaydi. Bundan tashqari, o'zining "Mi'rot al-xayol" asari bilan ham xuddi shunday yo'l tutadi. Asarining boshida, oxirida va maxsus boblarda Amir Abdulahadni xushomadgo'ylik bilan maqtaydi:

Vale maxdumi man shaxsest dono,

Suxanro nazdi u qadrest volo.

Dilash az garmiyi ma'ni ba cho'sh ast,

Rauf astu halimu aybpo'sh ast.

"Mir'ot al-xayol"ning xotimasida Somiy amirga murojaat etib: "Yomg'iru shamol ta'sir etmaydigan ustuvor bino ijod qilib, uning qabuliga havola qilayotganini" ta'kidlaydi hamda podshohdan o'zini avf etishini so'raydi:

Talab fi rizoyi shahriyoram,

Ba xabari afvu rizo matlab nadoram. (Mazmuni: "Shahriyoram rizoning talabgoriman, Uning kechirimi va rizoligi xabaridan boshqa maqsadim yo'q").

Xullas, Mirzo Somiy saroydan chetlatilganidan to "Mir'ot al-xayol" yozib tugallangan 1904 yilga qadar amir Abdulahadga uzrxohlik bilan qasidayu she'rlar bitib, undan kechirim so'raydi va o'zining og'ir ahvolini bayon qiladi, bir necha asarlari va tarjimalarini unga bag'ishlaydi"³⁰.

³⁰ <https://www.bukhari.uz/?p=15879>

Muxtasar aytganda, Buxoro amiri Abdulahadxon saroyidagi adabiy muhit hamda uning huzurida o'tkazilgan adabiy kechalar mumtoz adabiyotimiz va san'atimiz rivojiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan manbalar

- 1.Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy. - T.: Qo'lyozmalar instituti, 1999.-B.460-463.
- 2.Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi nofeiy. - T.: Akademiya, 2001.-B.44.
- 3.<https://m.facebook.com/726997644080431/photos/a.729005473879648/1532782686835252/?type=3>
- 4.Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro – Turkiston beshigi. - Buxoro, 2004.-B.68.
- 5.Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. - T.: Ma'naviyat, 2004.-B.14-15.
- 6.<https://www.bukhara.uz/?p=12632>
- 7.<https://ziyouz.uz/jahon-nasri/ismoilbek-gasprinskiy/ismoilbek-asprali-turkiston-sajo-atlari/>

ТУРКИСТОНДА ЕВРОПА ЯХУДИЙЛАРИ: ТАРИХИ ВА МАКТАБ-МАОРИФИ (XIX аср иккинчи ярми-XX аср бошлари)

Кадирова Сохиба Боликуловна

*Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти академик лицейи
ўқитувчиси*

Annotatsiya: Turkiston hududi azaldan turli millat va elat vakillari qo'nim topgan mintaqa sifatida mashhur bo'lgan. Ayniqsa XIX asr ikkinchi yarmida o'lka hududining Rossiya tomonidan istilo qilinishi natijasida aholisining etnik tarkibi yana-da murakkablashgan. Jumladan, o'lka hududiga muayyan miqdorda yevropa yahudiylari ham ko'chib kelgan va uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etgan. Maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda yevropa yahudiylari jamoasining shakllanish tarixi va maktab-maorifiga oid ayrim masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turkistonda yevropa yahudiylari, yahudiylarning o'troqlik chegaralari, rus-tuzem yahudiy maktabi, gimnaziya, yahudiy ayollari to'garagi.

Аннотация: Территория Туркестана издавна известна как регион, где селились представители разных национальностей и народов. Особенно во второй половине XIX века в результате завоевании края Россией этнический состав населения усложнился. В частности, определенное количество европейских евреев иммигрировало на территорию края и активно участвовало в ее социально-экономической и культурно-просветительской жизни. В статье освещена история формирования европейской еврейской общины в Туркестане во второй половине XIX - начале XX века и вопросы, связанные со школьным образованием данной общины.

Ключевые слова: европейские евреи Туркестана, черта оседлости евреев, русско-туземная еврейская школа, гимназия, еврейский женский кружок.

Abstract: The territory of Turkestan has long been known as a region where representatives of different nationalities and peoples settled. Especially in the second half of the 19th century, as a result of the conquest of the region by Russia, the ethnic composition of the population became more complex. In particular, a certain number of European Jews immigrated to the territory of the region and actively participated in its socio-economic, cultural and educational life. The article covers the history of the formation of the European Jewish community in Turkestan in the second half of the 19th - early 20th centuries and issues related to the school education of this community.

Key words: European Jews of Trukestan, Jewish Pale of Settlement, Russian-native Jewish school, gymnasium, Jewish women's circle.

XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда асрлар давомида маҳаллий аҳоли билан ёнма-ён яшаб келаётган бухоро (Ўрта Осиё, тузем) яҳудийларидан ташқари европа (ашкенази, рус) яҳудийлари этноними билан аталган яҳудийлар ҳам яшаган.

XVIII аср охирларида Речь-Посполитаянинг тақсимланиши ва унинг шарқий ҳудудларини кўшиб олиниши натижасида Россия империяси ҳудудида ҳам европа яҳудийлари диаспораси шаклланган. 1791 йилда император Екатерина II фармони билан Россияда яҳудийларнинг доимий ўтrockлик чегаралари белгиланган. Унга кўра, яҳудийларнинг махсус белгиланган шаҳар типдаги аҳоли пунктларидан ўзга ҳудудларда яшаши тақиқланган. Истисно тариқасида биринчи гильдия савдогарлари, олий маълумотли мутахассислар, ҳарбий хизматни ўтаган захирадаги оддий аскар ва истеъфодаги ҳарбийлар, ҳунармандчилик цехларининг аъзоларидан иборат яҳудийларга ўтrockлик чегараларидан ўзга ҳудудларда яшашга рухсат этилган [1].

XIX аср иккинчи ярмида Туркистоннинг Россия томонидан истило қилиниши натижасида ўлка ҳудудига ҳам европа яҳудийлари келиб ўрнашган. Мазкур яҳудийларнинг дастлабки вакиллари XIX асрнинг 60-80 йилларида Туркистонга юриш қилган рус кўшинида аскар ва зобит бўлиб хизмат қилган ҳарбийлардан иборат бўлган [1, с.297]. Жумладан, Волин губернияси яҳудийларидан бўлган М.Каменев ва А.Броверман 1864-1865 йилларда Россия кўшини таркибида Тошкентни эгаллаш учун олиб борилган ҳарбий ҳаракатларда иштирок этган [3, с.133]. Шунингдек, Россия истилосидан кейин ўлка шаҳарларига империянинг ички губернияларидан истеъфодаги яҳудий ҳарбий хизматчиларининг оилалари кўчиб келиб ўрнашган. 1871-1873 йилларда Тошкент шаҳрига Петербургдан И.Слонимский, Оренбургдан истеъфодаги ҳарбий зобит М.Зельманович,

Минский губерниясидан ҳарбий-фельдшер Розанель, Гроднодан ҳарбий зобит Юдовичнинг оилалари кўчиб келган [4].

Шунингдек, Самарқанд шаҳрига заҳирадаги оддий аскар А.Кнорпель, истеъфодаги ҳарбий зобит И.Капачник, Г.Фляр каби кам таъминланган ёки ўрта ҳол ҳарбий хизматчиларнинг оилалари келиб ўрнашган [5]. Туркистоннинг Россия капиталистик иқтисодий тизимига киритилиши, ўлкада ҳўжалик тараққиёти ва темир йўллар қурилишини тезлаштирган. Бу эса, Россиянинг ички губернияларидан фуқароларнинг, шу жумладан, яҳудийларнинг ҳам ўлка ҳудудига кўчиб келиш суръатларини оширган. Кўпгина европа яҳудийлари Тошкент-Оренбург темир йўли қурилишида пудратчи, врач, юрист сифатида иштирок этган [2, с.316].

1887 йилда Тошкент шаҳрининг 180 304 нафар аҳолиси таркибида 460 нафар европа яҳудийлари бўлган [6, с.79]. XX аср бошларига келиб эса генерал-губернаторликнинг деярли барча вилоятларида маълум миқдорда европа яҳудийлари яшаган. Хусусан, 1882-1908 йилларда Каспийорти вилоятининг Красноводск уездига европа яҳудийларининг 17 та оиласи келиб ўрнашган. Улар ижтимоий таркибига кўра, босмахона эгаси, депо машинисти, тикувчи, тунукасоz, соатсоz, этикдўз, иш юритувчи котиб, савдогар ва бошқа касб эгаларидан иборат бўлган. Фармацевт, аптекачи ёрдамчиси ва тиш доктори лавозимларида олий маълумотли уч нафар европа яҳудийси хизмат қилган. Асхабад (ҳозирги Ашхабод) шаҳрида ҳам европа яҳудийларининг 76 та оиласи яшаган [7].

1897 йилда ўтказилган аҳоли рўйхатига кўра, ўлкадаги бухоро ва европа яҳудийлари диний мансублигидан келиб чиқиб, умумий ҳисобда қайд этилган. Бироқ маҳаллий маъмурият маълумотларига кўра, XX асрнинг дастлабки йилларида Туркистонда 5 мингдан ортиқ европа яҳудийлари бўлиб, улар ўлка аҳолисининг 2,5%ини ташкил этган. Мазкур яҳудийларнинг 2,5 минг нафари Самарқанд вилоятида, 1,5 мингга яқини Фарғона вилоятида, 400 нафари Тошкент ва Верний (ҳозирги Алмати) шаҳарларида жойлашган. Бир неча юз нафар европа яҳудийлари Бухоро амирлигида, асосан, Янги Чоржуй шаҳрида яшаган. 1910 йилда мазкур шаҳарда яшаган 121 та европа яҳудийлари оиласи асосан пахта ҳомашёси, мануфактура, пойабзал, кийим-кечак, озиқ-овқат, тамаки каби маҳсулотлар савдоси билан шуғулланган. Шунингдек, улар орасида соатсоz, тикувчи, этикдўз, слесарь, дурадгор, муқовасоz, темирчи, буёкчи, фотографлар ҳам бўлган [8].

Туркистон яҳудийларнинг доимий ўтrockлик чегараларига киритилмаган. Шу боис, ўлка ҳудудига юқори даражада билим, малака ва маблағни талаб этадиган соҳа мутахассислари – биринчи гильдия савдогарлари, ҳунармандчилик цехи аъзолари, фан номзодлари ва магистрлари, шунингдек, заҳирадаги собиқ аскар ва истеъфодаги зобитлардан иборат европа яҳудийларининг келишига руҳсат этилган. Бироқ ўлкадаги европа яҳудийлари орасида тикувчи, телпакдўз, темирчи, темир йўл ишчилари ва бошқа касб эгалари ҳам кўпчилиқни ташкил этган.

Туркистондаги европа яҳудийларининг аксарияти ўқимишли бўлган ва улар фарзандларининг ҳам яхши таълим олиши учун ҳаракат қилган. 1882 йили Тошкентда европа яҳудийларининг болалари учун хусусий мактаб ташкил этилган. Мактаб харажатлари асосан ўқувчилар томонидан 4 рубль ҳажмида йиғиладиган ўқиш пули ва шунингдек, яҳудий жамоасининг хайрия маблағлари ҳисобидан бўлган. 1884 йили мактабдаги 39 нафар ўғил ва 11 нафар қиз ўқувчиларга 2 нафар ўқитувчи қадимги яҳудий (иброний) тили ва рус тилидан дарс берган. 1887 йили мактаб мабалағ етишмаслиги туфайли ёпилган [6, с.205].

1900 йили Тошкент шаҳрида рус-тузем яҳудий мактаби очилган. Мактаб таъминоти асосан бадавлат европа яҳудийларининг шахсий маблағлари ва шунингдек, жамоанинг хайрия концертлари ҳамда кечаларидан тушадиган маблағлар ҳисобидан бўлган. 1906 йилдан ушбу мактаб эҳтиёжлари учун 600 рубль миқдорида давлат маблағлари ҳам ажратилган. Бироқ ушбу маблағ арзимас бўлиб, унинг йиллик харажатлари 3500 рублни ташкил этган. Мактабда 4 нафар ўқитувчи фаолият кўрсатган. Мавжуд 60-75 нафар ўқувчиларнинг 1/3 қисмини қизлар ташкил этган. Мактаб эҳтиёжлари ва харажатларини назорат қилиш учун ҳар йили яҳудийлар жамоаси орасидан 10 кишидан иборат мактаб кўмитаси сайланган [6, с.208].

1899 йилда Туркистондаги энг кўп сонли европа яҳудийлари жамланган Самарқанд шаҳрида 4 синфли эркаклар билим юрти, Маринский номли 4 синфли аёллар билим юрти (1899 йил 1-июлдан аёллар гимназиясига айлантирилган), эркаклар ва аёллар учун алоҳида приход билим юртлари, рус-тузем билим юрти ва рус-тузем мактаби каби таълим муассасалари фаолият кўрсатган [12]. Мазкур таълим муассасаларида европа яҳудийлари ҳам ўқиган.

1902 йили Тошкентда яҳудий аёллари тўғараги ташкил этилган. Юзга яқин тўғарак аъзоларидан қуйи, ўрта ва олий ўқув юртларида ўқиётган яҳудий ёшларининг ўқишига моддий кўмаклашув мақсадида 3 минг рубль ҳажмида аъзолик бадаллари йиғилган. Шунинг таъкидлаш жоизки, замондош муаллифлар Тошкентдаги ҳеч бир миллат вакилларида европа яҳудийларидаги каби бирлик ва ҳамжиҳатлик, яқинларига беғараз кўмаклашиш ҳолатлари кузатилмаганлигини қайд этган [6, с.242].

Нафақат бой, ҳатто ўрта ҳол ва ҳатто камбағал яҳудий оилаларининг болалари ҳам бошланғич таълимдан сўнг гимназияларда ўқишни давом эттирган. Хусусан, ўлкада мохир тикувчи сифатида танилган Кассирскийнинг набиралари Скобелев (ҳозирги Фарғона) шаҳридаги гимназияда ўқиган [13]. Гимназияда ўқишни тугатган яҳудий болаларининг таълимни узлуксиз равишда давом эттириши анча қийин кечган. Шундай бўлсада, Туркистондаги европа яҳудийлари орасида олий маълумотли мутахассислар, хусусан, тиббиёт соҳаси вакиллари кўпчиликти ташкил этган.

Жумладан, олий маълумотли врач Моисей Ильич Слоним (1875-1945) узоқ йиллар Туркистонда шифокорлик фаолияти билан шуғулланган. Унинг отаси XIX аср 70 – йилларида Тошкентдаги босмахонада ҳарф терувчи бўлиб ишлаган [6, с.297]. Слонимлар оиласининг 4 нафар фарзандлари Тошкент гимназиясини муваффақиятли тамомлаган. Уч нафари Қозон университетининг тиббиёт факультетини, бир нафари политехника факультетини битирган [2, с. 304]. Айниқса 1899 йили университетни муваффақиятли тамомлаб Тошкентга қайтган Моисей Ильич Слоним шифокор сифатида кенг танилган. У дастлаб тропик экспедицияга ёлланиб, чекка қишлоқлардан бирига хизмат сафарига юборилган. Моисей Слоним бир ярим ой давомида 2,3 минг нафар беморни қабул қилган. Уларнинг 1,4 минг нафарини безгак (малярия) касаллиги билан оғриган беморлар ташкил этган [2, с. 305].

Хулоса қилиб айтганда, XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда беш минг нафардан ортиқ европа яҳудийлари яшаган. Мазкур яҳудий жамоасининг олий ва ўрта махсус маълумотга эга бўлган шифокор, инженер, ўқитувчи, аптекарлардан иборат малакали мутахассислари, шунингдек, биринчи гильдия савдогарлари, уста ҳунарманд ва косиблари ўлканинг ижтимоий-иқтисодий, маданий-маърифий ҳаётида фаол иштирок этган.

Адабиётлар:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Черта_оседлости
2. Гитлин С.И. Европейские евреи в русском Туркестане на рубеже XIX–XX веков//Вестник РУДН. Серия: История России. 2018. Т.17. №2.
3. Рабич Р. Российские евреи в дореволюционном Туркестане (Правовое и социальное положение, 1864–1914 гг.) // Евреи в Средней Азии: прошлое и настоящее. Экспедиции, исследования, публикации. Сб. науч. трудов. Составитель: И.С. Дворкин. Ответ. ред. Т.Д. Вишневская. СПб., 1995. С. 133.
4. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви (ЎРМДА). Фонд 1. Рўйхат 2. Сақлов бирлиги 1033. Ҳужжат 57 орқа варақ.
5. ЎРМДА. Ф. 1. Р. 2. С.б. 224. Ҳ. 46–67 в.
6. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент, 1912. -542 с.
7. ЎРМДА. Ф.1. Р. 17. С.б. 848. Ҳ. 109–121 в.
8. ЎРМДА. Ф.1. Р. 13. С.б. 554. Ҳ. 198 орқа в.
9. ЎРМДА. Ф. 1. Р. 4. С.б. 1640. Ҳ. 5–10 в.
10. ЎРМДА. Ф. 1. Р. 13. С.б. 554. Ҳ. 197 орқа. – 198 в.
11. ЎРМДА. Ф. 1. Р. 20. С.б. 7689. Ҳ. 2 в.
12. Адрес-календарь Самаркандской области на 1899 год. Издание Самаркандского обл.статистического комитета. Составитель М.Вирский. Выпуск VII. – Самарканд, 1899. -164 с.
13. ЎРМДА. Ф. 1. Р. 13. С.б. 115. Ҳ. 16 орқа в.

14. Махмудов М. Доктор Слоним // Ташкентская правда. 28 сентября 1990.

15. ЎРМДА. Ф.1 Р. 4. С.б. 874. Ҳ. 24-24 орқа, 25, 68-68 орқа в.

16. ЎРМДА. Ф. 1. Р. 17. С.б. 848. Ҳ. 109-121 в.

САМАРҚАНД ЖАДИДЛАРИНИНГ ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИДА TUTGAN ЎРНИ

Курахмедов Азамат Эркинович

СамДУ мустақил изланувчиси, т.ф.н., доцент

XIX аср иккинчи ярмида бутун Туркистон ўлкасида кузатилгани каби, Самарқанд маданий ҳаётида ҳам маънавий-маърифий йўналишда ўзига хос янги оқим яъни *жадидчилик* соҳаси тарих саҳнасига кириб келди. Жадидларнинг асосий мақсадлари ўлкада «янги усул» мактабларини очиб, эски ўқув усулини янгича асосда қуриш эди. Самарқандда бундай мактабларга асос солган атоқли вакиллардан – Маҳмудхўжа Бехбудий, Абдулқодир Шакурӣ ва Ҳожи Муинларни кўрсатиш мумкин.

Туркистон жадидлари отаси номини олган буюк маърифатпарвар, педагог, журналист, муфтий Маҳмудхўжа Бехбудий турли таъқиб ва қийинчиликларга қарамасдан 1903 йил охирида Ражабаминдаги Абдулқодир Шакурӣ мактабини Самарқанднинг Эски шаҳар «Қўшҳовуз» маҳалласида жойлашган ҳовлисига кўчириб келтиради ва бу мактабга беғараз ёрдам кўрсатади. 1905 йили Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ўзи Самарқанднинг Кафтархона қишлоғида жадид мактаби очади. Унга 40 га яқин ўқувчи таълим олади. 1906 йили «Самарқанд» газетаси муҳбири Алматовнинг ёзишича: «Оддий мактабларда 3-4 йил ичида ўрганиладиган билимларни бу мактабда ўқувчилар бир йилда ўзлаштириб олганлар. Шу билан бирга, мактабда дунёвий илмлар қаторида диний билимлар ҳам берилган»³¹.

Маҳмудхўжа Бехбудий ўқувчилар учун 1904 йили «Мунтахаби жуғрофияи умумий» («Қисқача умумий жуғрофия»), «Китобат ул - атфол» («Болалар мактуби»), «Мухтасари тарихи ислом» («Исломнинг қисқача тарихи»), 1905 йили «Амалиёти ислом» («Ислом амалиёти»), «Мадҳали жуғрофияи умумий» («Умумий жуғрофия»), 1908 йили «Мухтасари жуғрофияи Русий» («Русиянинг қисқача жуғрофияси») каби дарслик ва ўқув қўлланмаларни ёзган. Миллий маориф ва маданиятни ривожлантириш учун Бехбудий Самарқандда 1908 йили Туркистонда биринчи марта мусулмонлар учун бепул кироатхона-кутубхона³² очиб, ўз маблағи ҳисобига уни бойитиб боради. У Туркистоннинг биринчи географик харитасини тузади ва мактабларда фойдаланиш учун нашр қилдиради³³.

³¹ Алматов. Новометодные школы // Самарканд. 1906. 20 май. №37. – С.3.

³² ЎЗР МДА, Ф. И-36. Оп-1. Д-4982. Л-89

³³ М.Ф. Маҳмадхожа Бегбудӣ // Наука и просвещение. 1922, №1. – С.23.

Умуман олганда Бехбудий маориф тизимини ислоҳ қилиш учун фаолият олиб борган. Бехбудийнинг ёзишича, ислоҳни мактаб ва мадрасалардан бошлаш зарур, чунки миллат ҳаёти таълим-тарбия билан белгиланади³⁴. Янги усул мактаблари Самарқандда бирин-кетин очила бошлайди. Шундай мактаблардан бирини шаҳарда Абдушукуров 1907 йили³⁵ очади. Натижада усули жаҳид мактаблари халқ орасида, аста-секин бўлса-да, обрў топа бошлаган. Жаҳидлар маърифат, маданиятни ривожлантириш, мусулмонларни билимли ва маърифатли қилиш учун курашганлар.

Самарқанд жаҳидлари мактаб-маориф ишларига шу қадар қаттиқ киришдиларки, ёшларни кўпроқ тил билишга, шу билан билим доирасини кенгайтиришга даъват этдилар. Кўп тилларни билиш билан кофир бўлмайди, деган ақидани тарғиб қилдилар, ўзлари ҳам рус тилини ўрганиб, ўқувчиларни ҳам ўргата бошладилар. Улар бошқа миллатларнинг, айниқса, ривожланган Европа тиллари, маданиятини ўрганиш, мактаб-маориф ишларида уларнинг тартибларини жорий этишни тарғиб қилдилар. Журналист Андреевнинг ёзишича: «Маданиятли мусулмонлар замонавий, тараққий этган келажак ҳаётда уларнинг фарзандларидан нималарни талаб қилаётганини англаб, рус-тузем мактабларидан қоникмай, ўз фарзандларини маълумотли қилишнинг бошқа янги йўллари ахтариб топиб, 1900-1905 йиллари янги усул мактаблари очишни бошладилар ва уларнинг сони аста-секинлик билан бўлса-да, ўлкада кўпайиб борди»³⁶.

Жаҳидлар мактаб-маориф ишларини Самарқандда янада ривожлантириб, мактабларнинг халқ орасида обрў қозониши натижасида уларнинг сони кўпая бошлади. «Туркестанский учитель» газетаси муҳбири А.Еникеевнинг ёзишича, янги усул мактаблари ўзининг тараққиётида туриб, маҳаллий халқ орасида обрў қозонди³⁷. Ўз халқи равнақи, ривож учун курашган жаҳидлар «тараққиётга эришишимиз учун, ўз врачларимиз, иқтисодчиларимиз ва маълумотли кишиларимиз бўлиши учун тезда мактаб ва мадрасаларни янгича ислоҳ этишимиз керак»³⁸, - деган шиор остида ҳаракат бошлаганлар, - деб ёзади «Тужжор» газетаси.

Янги усулдаги мактабларни нафақат Самарқандда, балки Туркистон ўлкасида кўпайиши, мусулмонларнинг ижтимоий-сиёсий ҳолига ижобий таъсир кўрсатди. Бу эса чор маъмурларининг янги усул мактаблари устидан назоратни кучайтиришига олиб келди. Жаҳидлар ўлкадаги матбуот саҳифаларида мазкур мактабларнинг моҳияти, мақсади, тараққиёт йўлидаги аҳамиятлари ҳақида илмий-назарий, публицистик мақолалар ёзиб жаҳидчиликни тарғиб этдилар.

³⁴ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан // акад. М.М.Хайруллаев таҳрири остида. - Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б.224.

³⁵ ЎзР МДА, Ф. И-1. Оп-31. Д-943. Л- 23.

³⁶ Андреев Г. Туземцы и просвещения // Туркестанский голосъ. 1916, 12 ноябрь. №103.

³⁷ Еникеев А. Мусульманская школа в Туркестане и ее прошлом и настоящем виде // Туркестанский учитель. 1917, №7. – С.197.

³⁸ Пясковский А.В. Революция 1905-1907 гг. в Туркестане. – М.: 1958. – С.558.

Маҳмудхўжа Бехбудий ёзадики: «Сиз мухтарамлар ҳам ўз авлодингизни ва азиз болаларингизни агарда хоҳласангизки сиздан кўра тараққий этса (дин ва миллатга хизмат илм ва оқиллик ила бўлур) шу илм замони таҳсил қилмоғи учун ҳаракат қилмоғингиз лозимдур»³⁹. Жадид мактабларида ўқиб, илмли ва замон талабига жавоб бера оладиган кадрларни етказиш учун жадидлар курашдилар. Бу билан эса ижтимоий-сиёсий, миллий-маданий тараққиётда муҳим ўринларда бўлишимизни, Туркистонни мустақил бўлиб раванқ этишини уқтирдилар. Шунинг учун ҳам, Туркестанский голосъ газетасида ёзилишича «Рус-тузем мактабларининг вақти ўтди. Мусулмонлар бунга аниқ ишонч ҳосил қилиб, рус мактаблари, ўрнига ўзларининг маҳаллий мактабларини очишни кўпайтирдилар»⁴⁰.

Мустамлака маъмурлари ва полиция назорати остида бўлишига қарамасдан жадидлар маърифатпарварлик ҳаракатларини кучайтириб бордилар. Улар газета, журналлар, кутубхоналар, нашриётлар ва театрлар ташкил қилдилар. Буларнинг ҳаммасини ўзларининг шахсий маблағлари ёки хайрия жамиятлари ҳисобига очдилар. Мисол учун, Самарқандда 1913 йилнинг май ойидан бошлаб Маҳмудхўжа Бехбудий бошчилигида «Самарқанд» газетаси чиқа бошлади. Газета Самарқандда «Газаров ва Смеянов» типографиясида наш⁴¹ этилган. Бу газетани нашр этиш учун Тошкентда очилган тараққийпарвар мусулмонларнинг «Умид» хайрия жамғармаси Мунавварқори Абдурашитхонов орқали 500 рубль⁴² жўнатганлар. «Самарқанд» газетасида Туркистон мустақиллиги, ижтимоий-иқтисодий ҳаёт тўғрисида мақолалар ўз аксини топган эди. Бу газетанинг 44 та сони чиққанидан кейин маблағ етишмовчилиги сабабли нашр иши тўхтатилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ўрганилаётган даврда вилоятда руслар маҳаллий аҳолини руслаштириш, иложи борича ташқи дунёдан ажратиб қўйиш мақсадида рус-тузем мактаблари очдилар. Маҳаллий халқни бу мактабларга жалб этишга интилдилар. Лекин мажбурий очилган рус-тузем мактаблари маҳаллий халққа бегона эди. Шундай вазиятда жадид намояндалари ўз ғоялари билан тарих саҳнасига кирдилар. Бу буюк маърифатпарварлар халқимизни маърифатли, дунёвий билимларга эга бўлиши учун курашдилар. Фарзандларимиз чет давлатларнинг олий ўқув юртларида ўқиб, илм ўрганиши керак, деб курашдилар. Мактаблар очиб, китоблар, дарсликлар ёзиб мусулмон фарзандларини бепул ўқишлари учун шароитлар яратдилар. Бу мактаблар Туркистон халқлари тарихида маърифат ўчоғи бўлиб қолди. Улар XX аср бошида Туркистон аҳолисининг миллий онг ва маданиятини қайтадан юксалишига туртки бўлди.

³⁹ Авазов Н. Туркистонда ҳақ олинмади, берилди // Ёшлик. 1991, №10. – Б.43.

⁴⁰ Андреев Г. Туземцы и просвещения // Туркестанский голосъ. 1916, 12 ноябрь №103.

⁴¹ ЎзР МДА, Ф. И-18. Оп-1. Д-8752. Л-12.

⁴² ЎзР МДА, Ф. И-461. Оп-1. Д-2144.Л-46.

JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI VA IJTIMOIIY MUHIT

Jurakulov Voxidjon Nurdullayevich
Samarqand Davlat Universiteti 2-bosqich Tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Jadidchilarni ijtimoiy-siyosiy qarashlarining falsafiy asoslari, jadidchilik va ijtimoiy-siyosiy harakatchanlik o'rganilib hozirgi davrda yoshlarni ijtimoiy-siyosiy tarbiyalashda foydalanish jihatlari olib qaralgan.*

Kalit so'zlar: *Jadidchilik, Turkiston, chorizm, millat, yoshlar.*

Аннотация. *Философский основы общественно-политических воззрений джадидов, Джадидизм и с с оциально-политическая мобильность изучены в настоящий период с учетом использования молодёжи в социально-политическом воспитании обдуманной.*

Ключевые слова: *Джадидизм, Туркистан, чаризм, нация, молодёжь.*

Annotation. *The philosophical foundations of the socio-political views of the Jadids, Jadidism and socio-political mobility are being studied at the present time bringing aspects of its use in the socio-political education of young people blacked out.*

Keywords: *Jadidism, Turkestan, Tsarizm, Nation, Young people.*

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib, Turkistonda millat taqdiriga tahdid soluvchi o'ta qaltis va og'ir ichki tarixiy muhit paydo bo'ldi. Bir tomondan, Rossiya imperiyasi musatamlakachiligi siyosiy jihatdan mustahkamlandi. Mustamlaka va zo'ravonlikka mukkasidan ketgan rus bosqinchilari esa endi o'z mafkurasini singdirish orqali ma'naviy ustunlikka ham ega bo'lishi uchun mahalliy xalqni ruslashtirish, uning g'ururini sindirish, o'zligini yo'qotishdek, o'ta razil shovinistik siyosatni kuchaytirdilar. Ikkinchi tomondan esa, millat va xalqimiz o'z siyosiy, ma'naviy huquqlari, erki va hohish-irodasini yo'qotdi. Uchinchidan, umuman musulmon mutaassibli (konservatizm va bid'at) kuchaydi. Millatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli hamda ma'naviyati tubanlashdi. Buning ustiga ustak, din peshvolari orasidagi mutaassiblarda yangilikka, dunyoviy ma'rifat va taraqqiyotga qarshilik ham avj oldi. Bu esa, Islom dini hamda shariatiga mutlaqo zid ravishda avj oldi.

Chorizmning O'rta Osiyoga nisbatan amalga oshirilgan har bir harakati aniq strategik maqsadga yo'naltirilgan edi. Uning bu maqsadi mustamlakachilik bosqichining dastlabki yillaridan boshlab, O'rta Osiyo yerlarida keng ko'lamli qidirish ishlari olib borishi, xonliklarning hududiy yahlitligini buzib ularning chegaralariga qo'pol ravishda bostirib kirishi hamda strategik jihatdan qulay bo'lgan mudofaa inshootlarining jumladan, Sirdaryoning qo'yi oqimlaridagi Raim(1847y),Oqmachit (1857y) hududlarini zabt etish bilan belgilanadi.

Rossiya Turkistonni boshqarish strategiyasida ham ikkita muhim masalani hal qilishga to'g'ri keldi. Birinchidan iloji boricha tezroq mintaqada Rossiya

tartiblari va qonunlarini o'rnatishga harakat qilish ikkinchidan, o'zining turmush tarzi, an'anlari va qadriyatlarini o'zgartirishni xohlamayotgan mahalliy aholi bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish edi. Rossiya odatda Turkistonni boshqarish masalasida boshqa o'lkalarda jumladan, Volga buyi, Sibir, Qozog'iston, Qrim, Kavkaz va boshqa o'lkalarni boshqarishning harbiy va fuqarolik hokimiyatlarini birga qo'shish tamoyilini ko'chirib kelib foydalandi. Bunday boshqarish tamoyili Turkistonning birinchi general gubernatori K.P.Kaufman rahbarligida ishlab chiqildi va hujjatlarniig asosida o'lkamizning ma'muriy tizimi "harbiy-xalq boshqaruvi", deb atalgan edi.

Chorizmning bu bosqinchilik harakati o'zga mamlakatda mustamlakaga aylantirish bilan chegaralanib qolmay, mahalliy aholining madaniyati va ma'naviy asoslarga putur etkazishga ham qaratilganligi uning siyosati davomida o'z aksini topib bordi.

Adabiyotshunos olim B.Qosimov chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini izohlar ekan, shunday yozadi. "Rusiyadan millionlab mujiklarni ko'chirib keltirib, serhosil erlarga joylashtirish va mahalliy xalqni esa quvib chiqarish avj oldi. O'lkani mustamlakachilik tartiblari bilan idora eta boshladilar. Maorif va ijtimoiy sohalarida esa islomni buzush, erli xalqni ruslashtirish – chor hukumatining bosh yo'li qilib belgilandi [1, 104-bet].

Viloyat hisobidagi uezdlarga katta-kichik shaharlar, qishloq va ovullardan tashkil topgan volostlar kirgan.

O'lkadagi qo'yi boshqaruvda, hususan, volost, qishloq va ovul oqsoqollik lavozimlariga mahalliy aholining vakillari "saylov" yo'li bilan tayinlangan. Ular rus ma'muriyatining ko'rsatmalarini so'zsiz bajaradigan va o'ta itoatkor kishilar xisoblangan. Shu tariqa, mahalliy yuqori tabaqa vakillari oliy va o'rta boshqaruv lavozimlaridan mahrum etilib siyosiy maydondan surib tashlandi.

Rossiya iloji boricha O'rta Osiyo o'lkalarini rivojlantirish va ushlab turish uchun ketadigan harajatlarni ham shu o'lkaning o'zidan undirishni rejalashtirgan edi. "Mamlakatdagi ichki osoyishtalikni saqlash uchun zarur bo'lgan qo'shnlarni ta'minlash va bu mablag'larni pullash bilan shug'ullanadigan ma'muriy tarkibni ta'minlashga mo'ljallangan mablag'lar o'lkaning o'zidan olinsin", deb o'qtiriladi, "Moskva gazetasi saxifalarida [2, 31-bet]. Bunday qoloqlikning sababini jadidchi Ubaydulla Xujaev xalq orasida ayniqsa yoshlar orasida tirishqoqlik va faollikning sustligidir. Bularsiz esa, mavjud holatni o'zgartirib bo'lmaydi. Bu masalada Ubaydulla Xo'jaev, Andijon va Quqon yoshlariga Toshkentlik ziyolilardan ko'proq o'rganish zarurligi haqidagi da'vatlarni aytib o'tadi.

Behbudiy o'zining "Qonuni Ovrupo", "Xaqolinur, berilmas!", "Loyiha", "Qozi va biylar haqida loyiha" maqolalarida Turkistonda vujudga kelgan xuquq sohasidagi og'ir vaziyat haqida yozadi. Shuningdek, xuquqni masalalarni hal qilishni ellikboshi va qozilarning ixtiyoriga butunlay topshirib quyganligi oqibatida, ular nafaqat dinni balki maishiy masalalarni ham poraho'rlik asosida hal qilayotganliklari uchun rus xukumatini tanqid qiladi.

Bu masalani hal qilish uchun Behbudiy qozilik sudlari tizimini bekor qilish

zarurligi, ularning o'rniga Turkistondagi beshta viloyatning birida appelyasiya komissiyasi tashkil etilgan davlat sudlarini tuzish, okrug sudlarini nazorat qilish uchun rais, o'rinbosar va uchta sud a'zosidan iborat. Oliy sud palatasi ochish kerakligi haqidagi hulosaga keldi [3, 5-bet].

Demokratiyani o'zicha talqin qilgan Behbudiy volost saylovlarida 20 yoshga etgan har bir Turkistonlik qatnashishi kerak, deb da'vat qildi. Ko'rinib turibdiki, xalqning noroziligi va xalq ichidan etishib chiqqan ziyolilarning mustabid tuzumiga nisbatan noroziligi va nafrati hali XIX asrning 80 yillariga qadar ham shakllanib va kuchayib borganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Chorizmning mustamlakachilik siyosatini haloskorlik, yordam berish niqobi ostidagi maqsadlarida uchta asosiy narsa yashirinib yotar edi: birinchidan, O'rta Osiyoni to'liq bosib olish, ikkinchidan, ruslashtirish siyosatini amalga oshirish va uchinchidan, rus Turkistonini tashkil qilishdan iborat edi.

Millat va xalqimiz mana shunday ikki tomonlama o'ta ayanchli va havfli ijtimoiy-siyosiy muhit hamda vaziyatga duch kelgan bir paytda musulmon ziyolilar din homiylari orasidan yangi bir taraqqiyparvar guruhning harakati paydo bo'ldi. Ular «jadid» (yangi) degan ulug' nomga muyassar bo'lgan holda, Millat va Vatan, musulmon xalqlari uchun ma'naviy qalqon bo'lib, kurash maydoniga otildilar. Jadidlar millatni bo'yin egishi va tanama-taqdir qilish havfidan qutqarishning birdan-bir to'g'ri yo'li avval tarbiya va ma'rifat, so'ng islohot ekanligini juda to'g'ri anglab yetdilar. Shuning uchun ham jadidlar millat va xalqni g'alayon va qo'zg'olonga, inqilobiy buzg'unchilik kabi yovvoyilikka da'vat etmadi. Aksincha, ularni diniy-dunyoviy ma'rifat, ilm-fan, madaniyat va yangiliklar bilan qurollantirib tarbiyalash, o'zligini anglatish, ijtimoiy-ma'anviy g'aflat uyqusidan uyg'otib, turmush tarzi, tafakkuri, ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti va maorifini o'zgartirishga bel bog'ladilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Б.Косимов Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Тошкент, 104 -бет.
2. Дмитриев. Г.Л., Депенша Е. Скайлера и проблемы Среднеазиатской политики царизма 70-х гг. XIX век. Материалы по истории, историографии и археологии. Сб. научных трудов ТашГУ, № 517, - Т., 1976.С, 31.
3. Бехбудий М. Қози ва бийлар ҳақида лойиха // Ойна. №5 . -Б. 106.

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI

*Hoshimova Sabina Ural qizi
Ergasheva Nilufar Xo'jaqulovna
Pastdarg'om tumani 2-maktab o'qitvchilari*

Har kuni umr daftarimizdan yangi bir sahifa ochilgani kabi atrofimizdagi olamni, ya'ni tabiat, jamiyatning ham surati har kuni yangilanadi. Bu yangilanish insonni tafakkurga chorlaydi. Xuddi shunday, XIX asrning 90-yillaridan O'rta

Osiyoda jadidchilik harakati, avval, madaniyat sohasidagi harakat sifatida, so'ng yangi taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashish sifatida jamiyatga kirib keldi.

Jadidchilik Toshkent, Samarqand, Xorazm, Buxoro, Qo'qon shaharlarida keng yoyildi. *Samarqand jadidchilik maktabi* Abdulazim Sipandiy (1829—1909), Ochildimurod Miriy (1830-1899), Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Saidahmad Vasliy (1869/70-1925), Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919); *Toshkentda* Qodirqori Ramziy (1861-1943), Afandixon maxzum Axtariy (1870-1946), Sayyid Haybatullo Xislat (1880-1945), Mullo Qo'shoq Miskin (1880-1937), Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934), Abdulla Avloniy (1878-1934), Elbek (1898-1939), Abdulla Qodiriy (1894-1938), G'ulom Zafariy (1898-1937), Karimbek Kamiy (1865-1922), Almaiy (1851-1894), Muhammad Yusuf Chokar, Avaz O'tar Yusuf Saryomiy (1845-1912), Saidrasul Aziziy (1866-1933); *Buxoroda* Mirzo Salimiy (1850-1930), Bahrombek Davlatshoh o'g'li (1873-1933), Sadridin Ayniy (1878-1954) va Abdurauf Fitrat (1886-1938), Mirzo Sahbo (1845/46 - 1918), Ahmad Donish (1826-1897), Abdulqodir Savdo (1823), Jonmuhammad Joniy (1839-1881), Mirzo Sirojiddin (1877-1912); *Marg'ilonda* Xo'jaxonxo'ja Rojiy (1838-1918), Oraziy (1869-1942); *Namanganda* Nodim Namangoniy (1844-1910), Zavqiy (1853-1921); *Qo'qonda* Ziyovuddin Haziniy (1867-1923), Zavqiy (1853-1921), Nisbatiy (1903), Dilshod Otin (1800— 1905/06), Anbar Otin (1870-1914/1917), Muhayyir (1845-1918), Qori Yusuf Muntazir (1899), Usmonxo'ja Zoriy (1839-1916), Muhyi (1835-1911), Ziyovuddin Haziniy (1867-1923), Muqimiy (1850-1903), Furqat (1859-1909), Ziyovuddin Haziniy (1867-1923); *Andijonda* Abdurazzoq Bimiy (1847-1918), *Xo'jandda* Toshxo'ja Asiriy (1864-1916), *Sayramda* Yusuf Saryomiy (1845-1912), *Xivada* Komil Xorazmiy (1825-1899), Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910), Ahmad Tabibiy (1869-1911), Muhammad Yusuf Bayoniy (1840-1923), Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fi (1860-1916), Mutrib Xonaxarobiy (1870-1925), Avaz O'tar o'g'li (1884-1919), Abdurazzoq Faqiriy (1884-1925), Muhammad Rahim Rog'ib (1918 y.vafot etgan) kabi ma'rifatparvar ijodkorlar o'zi mansub davr va muhitni asarlarida to'la aks ettirardi.

Nafaqat Samarqand, balki Turkiston jadidchilik harakati asoschisi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist Mahmudxo'ja Behbudiy birinchi bo'lib o'lkada bu yangicha -«usuli jadid» maktablarini tashkil etdi va targ'ibotchi hamda amaliyotchilaridan biri sifatida ko'zga tashlandi. Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihon olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minoti masalalari va boshqa jihatlarini Ismoilbek G'aspiralidan o'rgandi. Shular asosida Turkistonda «usuli jadid» maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. U bu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida

bepul kutubxona, qiroatxona, o'z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abduqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o'z hovlisiga ko'chirib keladi. 1918 -yili Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho'ra» tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi. Shunda u yangi maktablar tarmog'ini yanada kengaytiradi. O'quv rejalari tuzish, yangi darsliklar yaratish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarni rivojlantiradi. Mahmudxo'ja Behbudiy «usuli jadid» maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jo'g'rofiya umroniy» («Aholi jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo'g'rofi rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Amaliyoti islom» kabi kitoblari darslik sifatida o'qitiladi. «Usuli jadid» maktablarida kambag'al, boy, musofir –hamma o'qish huquqiga ega bo'lgan. Mazkur maktabni sakkiz sinf, ya'ni ikki bosqichni tamomlagan shogird arabcha, forsa, turkcha va ruschada bemalol so'zlab, yoza olgan. Turkistonning boshqarma mahkamalarining barchasida ishlash, maktabda muallimlik qilish, tijorat va tadbirkorlik qilish, muharrirlik qilish imkoniyatiga ega kadr bo'lganlar. Samarqand maktablariga Shakuriy birinchi bolib mehnat va musiqa darslarini kiritgan. U bolalarni qishloq xo'jalik va bog'dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatar edi, bu mashg'ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan edi.

Behbudiy aytgan ekan: «Kelib ko'rsunlar, durust bo'lsa, rivoj bersunlar, nodurust bo'lsa, dalil ila isbot qilsunlar... maqsadimizda xizmatdan va millatdan boshqa narsa yo'qdur». «Usuli jadid» maktabini yo'lga qo'yish oson kechmagan. Behbudiy va Shakuriy buning uchun barcha taraqqiy etgan musulmon shaharlaridagi maktablarni o'rgangan. Bunday mustamlakachilik davrida Turkistonning istiqboli uchun o'z hovlisida ilm-ma'rifat o'chog'ini ochgani uchun Behbudiy va Shakuriyning boshida necha-necha tayoqlar sindi. Shunga qaramasdan jafokash muallim «usuli jadid» maktabini qattiq turib himoya qildi.

Behbudiy va Shakuriy butun vujudi bilan muallim edi. Behbudiy «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilm fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'lur» - degan shiorga sodiq harakat qilgan. Uning ilmiy-pedagogik fikrlari nafaqat u yashagan davr uchun, balki hozirgi yoshlar tarbiyasi, ta'lim tizimini rivojlantirishda ham samarali xizmat qilib kelmoqda.

1923-yilning boshlarida «Pravda» gazetasi mamlakatimiz bo'yicha eng namunali ilg'or maktab hamda mohir va tajribah o'qituvchilar uchun tanlov e'lon qildi. 1923-yilning 8 iyulida gazetada shu tanlov natijalari e'lon qilinadi. Ana shu o'qituvchilar tarkibida respublikadagi maktab o'qituvchilaridan A. Shakuriy bor edi. Boshqa ilg'or o'qituvchilar qatorida uning nomi ham «Pravda» gazetasining qizil taxtasiga kiritiladi hamda pul mukofoti topshiriladi va Shakuriy haqida bir yaxshi maqola e'lon qilinadi. Bundan ko'rinadiki, ma'rifatparvar pedagog Shakuriy yangi usuldagi maktablar tashkil qilishda, o'qish-o'qitishning yangi tartiblarini joriy etish va o'qituvchilarning katta guruhini tarbiyalab etishtirishda xizmatlari juda katta bo'lgan va gazeta redaksiyasi tomonidan yuqori baholangan.



Biz pedagoglar ham ajdodlarimiz g'oyalariga amal qilib, uni bugungi kun – ta'limi Uchinchi Renesans davriga tatbiq etsak samara beradi, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. –Тошкент: Ўзбекистон, 1995.
2. Ўзбекистонда ижтимоий-ахлоқий ва гуманистик фикрлар тарихининг муҳим босқичлари. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent, 2022. -B.143.
4. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент, Маънавият, 2004. – Б.2.

KO'P MILLATLI O'ZBEKISTONDA XALQLARNING RAVNAQI

Madumarov Talantbek Tolibjonovich

Andijon davlat universiteti

Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti dekanı, yuridik fanlari, doktori, professori

G'ulomjonov Odiljon Raximjon o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti

Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin nafaqat mamlakatning tub aholisi – o'zbek xalqi uchun, balki muqaddas zaminda umrguzaronlik qilayotgan turli millat va elat vakillarining ham millat sifatida o'zining tili, madaniyati, qadriyatlari va an'alarini saqlab qolishi uchun teng sharoitlar va imkoniyatlar yaratib berishga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakat rahbariyati bu masalani qonun yo'li bilan hal qilishga doir chora-tadbirlarni ko'rdi. Bu borada mamlakatimizda, eng avvalo, Konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutildi. Aholining barcha tabaqalari va turli millat vakillari e'tiborini tinchlikni, osoyishtalikni va millatlararo totuvlikni ta'minlashga, mamlakat oldida turgan eng muhim qadriyat – mustaqillikni mustahkamlashga qaratildi. Qonun oldida hammaning tengligi ta'minlandi. Har bir fuqaro qalbida "O'zbekiston – umumiy uyimiz" g'oyasiga xizmat qiluvchi yagona zamin, yagona makon, yagona vatan uchun javobgarlik hissini kuchaytirdi.

So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri - jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilyabdi.

Respublikada millatlararo munosabatlarni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlardan yana biri bu – aholining milliy trakibiga mos ta'lim-

tarbiya tizimini yo'lga qo'yilganligidir. Bugungi kunda respublikamizda 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qirg'iz tilida, 7 ta maktabda koreys tilidi ta'lim berish yo'lga qo'yilganligini qayd etish zarur. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga qarashli pedagogika institutlarida o'zbek tilidan tashqari rus, tojik, turkman, qozoq, qoraqalpoq tillarida ham mashg'ulotlar olib boradigan maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlanmoqda. Respublikamizda yashayotgan aholi milliy tarkibining rang-barang ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilayotgan ommaviy axborot vositalari 8 tilda, ya'ni o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman, ingliz, koreys tillarida chop etilib kelinmoqda. 12 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshqird, koreys, uyg'ur tillarida) teleradio eshittirishlari efirga uzatilmoqda. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonning millatlararo davlat siyosati insoniylikka, demokratiyaga asoslangandir. Chunonchi, "2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" V bobida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi Farmonida, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida, Oliy Majlisga Murojaatnomasida, Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag'ishlangan nutqida, boshqa ko'pgina hujjatlarda millatlararo munosabatlarga, bu muhim sohadagi vazifalarga alohida ahamiyat berildi.

O'zbekiston televideniyesi orqali qator xorijiy tillardagi ko'rsatuvlarning muntazam ravishda namoyish qilinishi va maxsus radio eshittirishlarning turli tillarda efirga uzatilayotgani ham diqqatga sazovor. Zero, **12 (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshqird, koreys, uyg'ur)** tillarida teleradio eshittirishlar efirga chiqmoqda. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonning millatlararo siyosati insoniylikka, demokratiyaga qarshi bo'lgan siyosatning har qanday ko'rinishlarini to'liq va mutlaq rad etishga asoslangan. Mamlakatimizda milliy-madaniy markazlari soni 140 dan ziyod bo'lib, ular Respublikamizning jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shuni diqqatga sazovorki, bu markazlar faoliyatida, millatidan qat'iy nazar, barcha yurtdoshlarimiz qatnashishlari mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, Respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar [1].

Amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlar sur'atini, keng ko'lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O'zbekiston xalqi yagona g'oya - O'zbekiston

Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha oliyjanob maqsadlar va g'oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta'kidlash uchun barcha asoslarni beradi.

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq o'tkazilgan Prezidentlik saylovi yana bir bor jamiyatimizning siyosiy yetukligi, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to'liq qo'llab-quvvatlaganidan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda [2].

Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish borasida:

➤ "Yosh kitobxon" tanlovini qo'shimcha ravishda **6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg'iz va turkman)** o'tkazish.

➤ Ta'lim xorijiy tillarda olib borilayotgan maktablardagi badiiy adabiyotlar fondini **2 barovarga** oshirish.

➤ Millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-ommabop maqolalar sonini 3 baravarga oshirish.

➤ Do'stlik jamiyatlari sonini **60 taga** yetkazish hamda birodarlashgan shaharlar sonini **2 barovarga** oshirish [3].

O'zbekistonda ko'pmillatli madaniyat, o'ziga xos siyosiy tizim mavjud, deb ishonch bilan aytish mumkin. Qarorlar qabul qilishda yuzdan ortiq millat va elatning manfaatlarini e'tiborga oluvchi demokratik institutlar mavjud.

Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan xulosa shuki, bag'rikengiik tarbiyasini o'quv jarayoni bilangina cheklamasdan, mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda ham uzluksiz davom ettirish kerak. Buning uchun bag'rikengiik mavzusida turli tadbirlar, anjumanlar, spektakllar, ijodiy ko'riklar o'tkazib turish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik: darslik / R. Murtazayeva. - Toshkent: «Go To Print», 2020. - 344 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.11.2019 yildagi PF-5876-son. <https://lex.uz/docs/-4597662>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. <https://lex.uz/docs/-6600413>

MAHMUDXO`JA BEHBUDIY ILMIY MEROSIDA AXLOQIY TARBIYA MASALALARI.

Sevara Asanbayevna Qurbonova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

"Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar" kafedrası mustaqil izlanuvchi

Annotasiya: Ushbu maqolada jadid Mahmudxo`ja Behbudiyning pedagogik va ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlil qilingan. Mahmudxo`ja Behbudiy milliy uyg`onish va ta`lim-tarbiya masalalariga, maktablar uchun darsliklar yaratish va jamiyatni iqtisodiy yuksaltirish uchun yoshlarga zamonaviy bilimlar berishning hozirgi kundagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Jadid, jadid-ma`rifatparvarlar, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, yoshlar, ilm-fan, yangi usuldagi maktablar, tarbiya.

Jahon falsafiy tafakkuri taraqqiyotida sodir bo`layotgan ilm-fandagi o`zgarishlar asosida buyuk mutafakkirlarning ma`naviy merosini ilmiy-nazariy jihatdan o`rganish yangidan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishga sabab bo`lmoqda. XX asr boshida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida paydo bo`lgan jadidchilik harakatining fidoyilari – Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So`fizoda, Tavallo, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalar xalqni qoloqlikdan xalos etishning yagona yo`li – ma`rifatda, deb o`z asarlarida yangi usul maktablarini tashkil etish, ta`lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish hamda ijtimoiylashuvi muammolariga asosiy e`tiborni qaratdilar. Jadidlar xalq maorifiga, yangi usuldagi maktablar, davriy nashrlar tarmog`ini rivojlantirishga, ilg`or Yevropa madaniyatini amirlikda yoyishga katta hissa qo`shdilar. Xalq ommasi doimo siyosiy hayotdan himoyalangan va xalq ta`limi tizimi o`ta konservativ, uslubiy va moddiy jihatdan qoloq, hokimiyat e`tiboridan mahrum bo`lgan Buxoro amirligi sharoitida jadidlar ta`lim-tarbiyani joriy etishni o`zlarining burchi, deb bilganlar. bolalarni o`qitish mazmuni va uslublarini zamonaviylashtirishga qaratilgan g`oyalarni omma, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish. Mahmudxo`ja Behbudiy ilm-fan va madaniyatda boshqa xalqlardan orqada qolish sabablarini tahlil qilib berar ekan, shunday deydi: «Oxirgi yarim ming yil biz musulmonlar fan va falsafada orqada qoldik. Qaranglar, boshqa davlat xalqlarida dunyoqarash qanday o`zgargan. Biz ham ilm-fan va falsafaning yangi cho`qqilariga yetishishda materializm, ateizm va sotsial-demokratlar bilan muvaffaqiyatli kurashmog`imiz kerak. Chunki materialistlar, ateistlar va sotsial-demokratlar bilan besh yuz yil oldingi falsafa, kalom tartibotlari va dalillari bilan kurash olib borish mumkin emas» [2.56]. Behbudiyning o`sha davrda millat manfaatini himoya qilish, savdo, tijorat, dexqonchilik, ilm-fan, texnikani rivojlantirish bobida Yevropadan o`rnak olish, jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini egallash va unga qo`shilishi uchun yoshlarni xorij mamlakatlariga o`qish uchun yuborish zarurligi kabi masalalarni aniq

qo'rganligi endilikda ham katta ahammiyatga ega bo'lib, dolzarblikligicha qolaveradi. Behbudiy o'z qarashlarida o'lkada o'ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish, bu vazifalarni amalga oshirishda islom dinini mutaassiblikdan ozod etish, ilg'or texnologiya va fan yutuqlarini egallash muammolarini yechish lozimligini ilgari suardi [3.160]. Behbudiyning fikricha, "bu zamonda ikki sinf ulamo kerak, ya'ni olimi diniy va olimi zamoniy". Birinchi sinf: imom xatib, mudarris, qozi, mufti bo'lib, xaloyiqni diniy va ahloqiy ishlarini boshqaradi. Olimi zamoniy esa, dini va millat tilini chuqur bilgan holda dorilfununlarda o'qib, mutaxassislar sifatida yuqori mansablarda Vatan manfaatini himoya qiluvchilardir, — degan muloxazalari bugungi kun uchun ham hamohang va dolzarb hisoblanadi. [4] Behbudiy 1913-yilda "Samarqand" nomli gazetani va shu yili "Oyna" jurnalini ta'sis etib o'z maqolalarida xalqni dunyoviy bilim olishga chaqirdi. U endilikda dunyoning taqdirini faqat diniy bilimlar emas, balki dunyoviy ilmlar ham belgilashini asoslashga harakat qilgan [5]. Shu boisdan ham Behbudiy qarashlarida islomiy qadriyatlar bilan dunyoviy ilmlarni egallagan mahalliy millat vakillarini tarbiyalash ustuvor ahamiyat kasb etgan [7]. U ma'rifatsiz na taraqqiyot va na adolat bo'lishi mumkin emasligini qayta-qayta takrorlashdan charchamagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" dramasidagi ziyoli tili bilan davr qahramonini tarbiyalash xususida shunday fikr yuritadi: «Olimi zamoniy bo'lmoq uchun bolalarni avvalo musulmoniy xat va savoduni chiqarib, zaruriyati diniya va o'z millatimiz tilini bilaturgan so'ngra hukumatimizni(ng) nizomli maktablariga bermoq kerakdur... so'ng Peterburg, Moskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi himmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qitmoq lozimdur [3.112]. Ular axloqiy masalalarni hal qilish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligini teran anglaganlar. Xususan, mahalliy aholi turmushidagi ba'zi urf-odat va an'analarning mohiyatini tahlil qilib, ularga axloqiy nuqtai nazardan baho berganlar. Ayniqsa, jadidlarning to'y-ma'rakalar va dafn marosimlari haqidagi qarashlari ayni kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Behbudiyning ta'kidlashicha, to'y va azadagi har qanday dabdababozlik va manmanlik yuqumli kasallikdan yomonroq bo'lib, bu illatlar kishilarni xonavayron va g'arib etuvchi, inqirozga sabab bo'luvchi dushmandir. U ayrim kimsalarning Qur'ondagi o'zingizni o'zingiz tahlikaga solmangiz, degan qoidaga amal qilmasdan, bor-yo'qlarini to'y va azaga sarflashlarini kofirlik, deb hisoblaydi. Bu haqda Behbudiy shunday deydi: «Biz bo'lsa, o'luk va to'y uchun haftalar, hatto oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore'i a'zam, payg'ambari akram sallollohu alayhi vassalam hazratlari o'lganni tez ko'mub va ko'mgandan so'ngra tez tarqalib, ishg'a ketmoqg'a va o'lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta'ziya tutmasg'a, qaro kiymasg'a, kir, falokat bo'lmasg'a amr etarlar» [8]. Mahmudxo'ja Behbudiy xalqni ma'rifatli bo'lishga chorlab, bir nechta asarlar va maqolalar yozadi. U musulmonlardan dunyoga ochiq ko'z bilan qarashni, zamonaviy xo'jalik yuritishda bilim, fan bilan qurollanib faollik ko'rsatishni talab qilib, "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur",

degan xaqqoniy fikrlari bilan xalqni uyg'otishga xarakat qiladi. Taraqqiyotga eltadigan birdan-bir ishga yaroqli tarbiya usuli sifatida I.Gaspirinskiyning "usuli jadid"ini tinmay targ'ib qiladi. Hayotning turli sohalariga taaluqli zamon ruhidagi bilimlarni yuksak tarbiyaviy talabchanlik bilan boshqalarga qaraganda qiziqarliroq, oddiyroq tarzda, xalq tilida yoyishga harakat qiladi [6.120].

Shu o'rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti [1]. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"[8.145-146] – degan fikrlari barchamizga dasturilamal bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: "O'zbekiston", 2021 yil, - 464 b.
2. Муминов И. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане конца XIX и начала XX вв. –Ташкент: Узгосиздат, 1957. - С.212.
3. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997. - 280 b.
4. Khalid A. Printing, publishing and reform in Tsarist Central Asia // International Journal of Middle East Studies. - 1994. - No 2. - Vol. 26.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy merosining milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati. Ilmiy maqolalar to'plami. - Toshkent: "Mumtoz So'z", 2014.
6. Maxmudova G.T. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. - Toshkent: "Davir Press", 2006. -136 b.
7. Amridinova D.T. Samarqand jadidchiligining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. -Toshkent. O'zRFA I.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti, 2006.
8. Behbudiy M. Bizni kemirguvchi illatlar // Tanlangan asarlar (To'plovchi, so'zboshi va izohlar; B. Qosimov. - 2-nashri, tuzatilgan va to'ldirilgan).— Toshkent.: Ma'naviyat, 1999.- B.145-146.

TURKISTON JADIDLARINING AXLOQIY QARASHLARI

Boltayev Baxtiyor Yunusovich

*O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi
huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi o'qituvchisi,
kapitan*

Annotatsiya: Maqolada jadidchilik harakati, jadid namoyandalarning ma'rifatparvarlik g'oyalari, asarlarida ilgari surilgan ta'limiy, axloqiy qarashlar haqida so'z yuritilgan hamda asardan keltirilgan parchalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvarlik, tarbiya, axloq, barkamol avlod, ma'naviyat.

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lkaxalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. "Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda "jadid" degan nomga musharraf bo'ldilar. Ularning harakati esa jadidchilik deb nomlandi.

XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyandalari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyilar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor, Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g'oyalar avvalambor yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda g'oyaviy jipslashtirish, ularni o'lkataqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar [1].

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan, o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmushini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Jumladan, uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib borishga katta e'tibor qaratdilar. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va

matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmiy - ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi. Mahmudxoja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi" [2].

Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi.

Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxoja Behbudiy "Padarkush" dramasida yoshlarni diniy va dunyoviy ilmlar asosida tarbiyalab voyaga yetkazish, farzandni nazorat qilish, yomon illatlardan qaytarish har bir otaning burchi ekanligi g'oyalari yotadi. U ruslar tomonidan ochilgan mayxonalarni qattiq tanqid ostiga oladi. Bunday mayxonalar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi va turli xil noxush holatlar hamda fojialarni yuzaga kelishiga kelishi mumkinligini aytadi. Behbudiy ushbu asar orqali barchani, kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini o'rzu qiladi. Manbalarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o'qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo laboratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo'lib, ona-Turkistonning taraqqiyoitdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi va "Oyna" jurnalida quyidagi jumlar orqali Turkistonni taraqqiy ettirish yo'llaridan biri ekanligini aytadi: "To'y va ta'zilarimizga sarf qilinaturg'on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovropoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimizda, dinimizda obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur" [3].

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" asarida faylasuf pedagog sifatida, avvalo, millatni tarbiyalashni o'z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to'xtaladi: otalar – to'ychi, uloqchi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar – o'zlari tarbiyaga muhtoj, dorilmualliminni tugatishi kerak bo'lgan, mudarrislar esa – darslari beimtixon, isloh yaqiniga yo'lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari ta'lim - tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, isloh qilishga intilayotgan ziyolilar qo'lga olishi kerak. Avloniy Rossiya hukumati u yer - bu yerda yangicha maktablar ochgani – shunchaki jahon jamoatchiligini chalg'itish ekanini, ochiq bo'lmasa ham, quyidagi

ishora bilan aytib o'tadi: "... hukumat hammaning otasidir. O'z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmak lozim. Shuning uchun bizning Rusiya hukumatimiz o'gay bo'lsa ham, har yerda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni tekin o'qitir". Avloniy ana shu "o'gay tarbiyadan" ko'ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va va o'z davrini "Tarbiyaning zamoni – tarbiyaning ayni vaqti deb ataydi. Uning bu boradagi qarashlari hanuz o'z kuchini yo'qotganmaganligini, tarbiya - hozir ham jamiyat uchun dolzarb muammo ekanini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlarida Avloniydan mana bunday ko'chirma keltiriladi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo ha'lokat, yo saodat, yo fa'lokat masalasidir". Avloniy tarbiyani, qadimgilar va o'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an'alariga suyanib, uchga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga a'lohida urg'u berib, uni "insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi" tarbiya deb baholaydi. Fazilatlarni Avloniy yaxshi xulqlar, illatlarni esa – yomon xulqlar deb ataydi. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "yomon xulqlar"ga – illatlar tahliliga katta o'rin ajratadi. Millat taraqqiyotiga eng kuchli to'siq bo'ladigan illatlardan biri sifatida alloma jaholatni keltiradi: "Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarning boshlig'idir". Fatonat, diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an'anaviy bo'lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymak singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida a'lohida to'xtaladi. Vatanni suymoq lozim bo'lsa, uning yo'lida jonini fido etmoq yuksak axloqiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. "Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskimoslar Shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z Vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi", - degan fikrlarni keltiradi [4]. Shuningdek, jadid axloqshunosligining allomasi intizom, iqtisod, idrok va zako singari o'sha davrlarda hali kup quloq o'rganmagan fazilatlarni ham a'lohida e'tibor bilan nazariy - amaliy tahlildan o'tkazadi, o'quvchiga iloji boricha qisqa va lo'nda tarzda taqdim etishga intiladi.

Abdurauf Fitrat Turkiston jadidchiligining rivojida muhim rol o'ynagan hamda o'z asarlari bilan ushbu harakat g'oyalarining yoyilishiga juda katta hissa qo'shgan. Fitratning tarbiyaga doir eng mashhur asarlarlaridan biri "Oila" kitobidir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmiy, har jihatdan yuksak axloq - odob egasi bo'lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy harakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya'ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo'lida ekani hammaga ayon bo'lib qoladi. Shu bois ilg'or, ziyoli ayollar nafaqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki axloqiy - tarbiyaviy risolalar yozish yo'li bilan ham bo'lajak ziyoli onalarni voyaga yetkazishga hissa qo'shadilar. Fitratning ushbu asari ham shu yo'sinda paydo bo'lgan. "Oila" asari Turkiston milliy uyg'onishida benihoya katta rol o'ynadi. Ayni paytda, u hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ajoyib axloqiy - ma'rifiy risola sifatida a'lohida e'tiborga

molik. "Agar xotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak - shubhasiz biladi. Bolalarini esa go'zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nihoyat Alloh Taoloning amriga muvofiq hayot kechiradi", – deydi risola muallifi. Unda ayollarning turmushdagi o'rni, oilaviy vazifalari, er - xotin orasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi uy tutish, nikoh va muhabbat borasida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, uy xizmatchilariga munosabatda insof va adolat yuzasidan, ularning ham uy egalariga o'xshash inson ekanliklarini hisobga olib, ish ko'rish lozimligi ta'kidlanadi, turmushning oqilona uyushtirilishi uchun xizmat qiladigan ibratli maslahatlar beriladi. Risolada ham tanqidiy ruh, ham da'vat ruhi kuchli Fitrat ona Turkistonni ozod ko'rishni istaydi, buning uchun har bir turkistonlik oila bilim, axloq, a'mol va erk o'chog'i bo'lmog'i lozim. Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da'vat etadi. Har jihatdan sog'lom bo'lgan oila etishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi: «Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jism-u tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol - aslahamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor...» [5] – deydi alam bilan Fitrat.

Jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatish orqali yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviy yuksaltirishga chorlaganlar. Jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlar asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning ong-saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi kunda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "...farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o'rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" [6] degan fikrlari bilan qorishgan holda mustaqil O'zbekiston uchun dasturul amal sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Oblomurodov, A. Hazratqulov va boshqalar. O'zbekiston tarixi. - Toshkent, 2011. –B.178.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimiznio'z qo'limiz bilan quramiz. - T: O'zbekiston. 1999. – B.385.

3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - T: Ma'naviyat, 1999. – B.169.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. - T: Ma'naviyat, 2009. – B.38.
5. Abdurauf Fitrat. Oila. - T: Cho'lpon, 2013. – B.109.
6. Sh. Mirziyoyev: Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidan. 2023-yil 6-mart. <http://daryo.uz>.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СВЯЗИ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ НАЧАЛА XX ВЕКА

Алимова Дилбар Халимовна

*кандидат филологических наук, доцент кафедры методики преподавания
языков Национального центра обучения новым методам работников
народного образования Самаркандской области*

Джадидизм - общественно-политическое и интеллектуальное движение среди мусульманских (преимущественно тюркских) народов конца XIX - начала XX века⁴³. Тема джадидизма, тесно связанная с нашими корнями и является основополагающим потоком развития нынешнего времени, очень актуальна в наше время, причем не только в Узбекистане, а так же в странах, где есть массовое признание исламоисповедания (Египет, Алжир, Иран, Турция, Индия, Бангладеш, Ирак). Этот все возрастающий интерес объясняется тем, что идеи, провозглашенные, но не до конца претворенные в жизнь джадидизмом, имеют актуальное, не потерявшее свою остроту значение в нынешнем Узбекистане, достигшем независимости, о чем мечтали и ради чего вели свою просветительскую деятельность джадиды.

Движение джадидизма не было чисто религиозным или светским, хотя имело различные течения. Оно было синтетическим, захватывающим не только систему образования, но и общественно-философской мысли, этических норм. Движение джадидизма относительно органично утверждало связь ислама с просвещением и наукой, реформу старой системы мусульманского образования (обучение грамоте путём зазубривания отдельных сур Корана), необходимость европейского образования для мусульман, распространение просвещения, развитие тюркских языков и литературы, изучение светских дисциплин, использование достижений науки, равноправие женщин, а в политической сфере пыталось "помирить" ислам с демократическими идеями.

Основными деятелями формировавшие это культурное явление в Средней Азии были просветители: в Ташкенте — Мунаввар кары

⁴³ Арабским словом джадид (буквально новый), впервые были названы те, кто под влиянием педагогических идей Исаила Гаспринского (1851-1914), выдающегося крымско-татарского просветителя, открывал новометодные школы, где преподавались не только религиозные, но и светские науки.

Абдурашидханов, Абдулла Авлони, Убайдулла Ходжаев, в Самарканде — Махмудходжа Бехбуди, Абдукадыр Шакури, Саидахмад Сиддики-Аджзи, в Бухаре — Фитрат, Файзулла Ходжаев, Садриддин Айни, в Ферганской долине — Хамза, Ибрат, Чулпан, а в Хиве — Палваннияз Ходжи Юнусов и Баба Ахун Салимов.

Возникновение джадидизма связано именно с этой новометодной школой («усули жаид»), основателем которой был Исмаил Гаспринский. Еще в годы своей учебы в Сорбонне он, ознакомившись с новым аналитико-звуковым методом преподавания азбуки, мечтал на основе этого метода реформировать мусульманскую устаревшую систему образования.

Гаспринский пропагандировал свои идеи со страниц издаваемой им газеты «Таржимон» («Переводчик»). Слава основателя нового метода и газеты, всколыхнувшей весь тюркский мир, дошла и до Средней Азии. Среди первых подписчиков изданной в 1883 г. газеты были и наши соотечественники из Маргелана, Ташкента, Бухары, Самарканда. Эмир Бухарский Саид Абдулла Ахад Баходир, в 1892-1893 гг. путешествовавший по центральным городам России, в феврале 1893 г. специально приехал в Бахчисарай и встретился с Гаспринским. Эмир щедро наградил семью редактора и его сотрудников. Самого Гаспринского он сделал кавалером «Золотого ордена Восходящей Звезды» III степени. По приглашению эмира Гаспринский в мае того же года впервые приезжает в Ташкент, посещает Самарканд и Бухару, где открывает вместе со сторонниками его педагогических идей первую в Туркестане новометодную школу [3. 230].

Узбекский джадидизм питался не только идеями Гаспринского. Можно усмотреть тесные связи с идеей таких джадидов просветителей как Шигабутдин Марджани, Хусаин Фаизханов, Муса Бигеев, Ризаэтдин Фахретдинов, Мифтахетдин Акмулла, Мухаметсалим Уметбаев, Зайнулла Расулев), прогрессивные представители татарской буржуазии (братья Хусаиновы и Рамеевы из Оренбурга, Яушевы из Троицка, С.Назирова и Г.Хакимов из Уфы) и мусульманского духовенства (З.Камалетдинов, К.Закир, А.Абубакиров).

В становлении и формировании узбекских джадидов определенную роль сыграли также издания «Сарвати фунун» («Прекрасное ремесло», Стамбул), «Хабл ул-матин» («Крепкие узы», Калькутта), «Чехранамо» («Зеркало», Искандария), «Парвариш» («Воспитание», Каир), распространившиеся в Туркестане после 1905 года, а так же «Икбал» («Счастье», Баку), «Молла Насретдин» (Тифлис), «Вакт» («Время», Оренбург), «Шуро» («Совет», Уфа) и др., распространившиеся в 1914-1915 гг.

Но, не ограничиваясь открытием новометодных школ в Туркестане, джадиды инициировали отправления молодежи учиться и получать высшее образование в России, Турции, Египте и Западной Европе. Ведь обученные в лучших восточных и европейских университетах или медресе молодые люди, овладев как светскими, так и религиозными науками, могли верно служить

народу и родине в качестве врачей, инженеров, юристов, агрономов, религиозных и государственных деятелей.

Лидер джадидского движения, известный просветитель, политический деятель, драматург, величайший мыслитель Махмудходжа Бехбуди, изучив государственную структуру не только восточных, но и европейских стран много путешествовал по странам мира. Совершив паломничество в Мекку, в 1903–1914 гг. посетил Москву, Петербург, Казань и Уфу, путешествовал по Турции, Египту и другим арабским странам. Махмудходжа Бехбуди считается одним из первых основателей и пропагандистов новометодных школ, автором учебников и учебных пособий для учителей и учеников.

На страницах национальной периодической печати Туркестана было опубликовано множество его статей, посвященных социальным и политическим проблемам Туркестана, а также вопросам культуры, религии и воспитания молодежи. В своих статьях «Мурожаат» («Обращение»), «Саёхат хотиралари» («Воспоминания о путешествии»), «Сарт сузи мажхулдир» («Слово сарт неизвестно») и других он постоянно обращался к вопросам образования и просвещения, подвергал критике консервативное духовенство, реакционную традиционность и невежество как в образовании, так в культуре, быту и религиозном сознании. В 1913 г. в Самарканде М. Бехбуди основал газету «Самарканд» и журнал «Ойна», поддерживал и другие джадидские издания и сотрудничал в газетах «Садои Туркистон», «Садои Фаргона», «Хуршид» и др.

Махмудходжа Бехбуди обозначил состояние и задачи языковой культуры региона так: язык семьи — это тюрки, словесности — фарси, религии — арабский, конъюнктуры — русский, интернациональный — французский. Однако в жизни должны быть использованы по практической необходимости термины и обозначения из английского, итальянского, немецкого и японского языков. В своей статье, посвящённой языкам, ещё в 1913 году отметив: «Сегодня османские, кавказские и казанские тюрки перевели и размножили сочинения современных учёных, полезные книги со всех других языков. Человек, владеющий тюркским, оказывается сведущ в современности» провозглашал лозунг «Овладеть не двумя, а четырьмя языками!», имея ввиду, кроме узбекского и персидского, русский и один из европейских языков [2].

Среди крупных представителей джадидизма получивший образование за рубежом были Файзулла Ходжаев, Фитрат, Мунаввар кары Абдурашидханов и другие, уделявших впоследствии особое внимание на подготовку высококвалифицированных национальных кадров в области просвещения, науки, культуры, сельского хозяйства и др. С этой целью, в начале 20-х годов, они отправляют на учебу в Германию более 60 талантливых узбекских, казахских, киргизских, татарских, таджикских юношей и девушек. Руководители Бухарской и Туркестанской республик Файзулла Ходжаев, Турар Рыскулов и другие, посещая в 1922-1923 годах

Германию, постоянно заботились о жизни и учебе туркестанской молодежи и препятствовали силам, мешающим их успешной учебе [5].

Написанные и изданные в Турции книги Фитрата «Спор» и «Индийский путешественник», беспощадно разоблачающие реакционное духовенство и государственные устои эмирата, тайно привезенные в Бухару, потрясли молодежь.

«Вот она, священная Бухара, — говорит Индийский путешественник, — воспитавшая 400 тысяч ученых людей и разославшая их во все концы мира. Раньше она была владычицей таких могучих научных сил... Теперь, увы! К великому несчастью, я сознаюсь, что это небо светил образованности, этот рай мира человечества, этот благоустроенный дом наук мира... при наличии всех путей для прогресса стала страной, окруженной горами глубости и закованной в цепи презрения! Наши отцы прекрасно поняли смысл великого изречения: «Разве равны между собою знающие и незнающие?» — и, вполне оценив степень важности изучения наук, устроили двести медресе, в каждом из которых от 10 до 150 комнат..., учредили 11 библиотек, собрав в них все существовавшие в то время книги. Нет никакого сомнения, что все это наши предки сделали для нас. А мы?.. Мы, дорогие их дети, при наличии всех этих полезных учреждений, несчастны, необразованны, дики и бедны!..» [4].

Таким образом, программа джадидов, главных носителей просветительских идей в конце XIX – начале XX веков в Туркестане, заключалась в следующем: во-первых, провести реформу мусульманского народного образования и подготовить высококвалифицированных специалистов по жизненно важным отраслям культуры, науки и техники; во-вторых, с их помощью развивать экономику, промышленность и сельское хозяйство Туркестана; в третьих, поднимать жизненный уровень народа, улучшить его благосостояние; в-четвертых, образовать национальный капитал, способствовать увеличению числа богатых и состоятельных людей, и, наконец, в-пятых, с помощью квалифицированных местных кадров изменить инфраструктуру общества, т.е. провести коренизацию государственного аппарата, что было бы большим и важным шагом в образовании в Туркестане независимого узбекского государства.

Вся деятельность туркестанских джадидов является примером для нынешнего поколения узбекистанцев. Сегодня, когда наша страна вошла в мировое сообщество, нужны культурные, эрудированные, высококвалифицированные специалисты, самоотверженный труд которых превратит Узбекистан в одну из высокоразвитых стран мира.

Список использованной литературы:

1. Алимова Д. Джадидизм в Средней Азии: пути обновления, реформы, борьба за независимость. — Ташкент, 2006.
2. Бехбудий М. Танланган асарлар (Избранные произведения). — Тошкент: Маънавият, 1999. — С.18-19, 146-150.

3. Исмаил Гаспринский и Туркестан. Сборник статей. – Ташкент: Шарк, 2005. – С. 230.
4. Фитрат А. Рассказы индийского путешественника, — Звезда Востока, 1990, № 7. – С. 134.
5. Ходжаев Файзулла. Избранные труды в 3-х томах. Т. 1. – Ташкент: Фан, 1970. – С. 128.

JADIDCHILAR HARAKATINING IJTIMOIIY-SIYOSIY MOHIYATI

Qandaxarov Mirjalol

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan.

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g'oyalar avvalambor yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda g'oyaviy jipslashtirish, ularni o'lka taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar.

Jadidlar ta'limoti - o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini o'rz u qilgan. Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmi, ma'rifatli, eng asosiysi esa otaonalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar.

Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyatdarajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi

haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun.

Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o'rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: "Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub,.millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmatva yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas. Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz".

Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumatimustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlar asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning on-saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar.Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda.

4-SHO'BA. TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH METODIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI

GLOBALLASHUV SHAROITIDA HAMKORLIKNING SHAKLLANISHI

*Jaysanov Abduvahob Baxtiyorovich
O'zbekiston Milliy universiteti, Siyosatshunoslik kafedrası*

Annotatsiya: Bugungi kundagi aniqrog'i globallashuv sharoitida hamkorlikning o'ziga xosligi unga zamonaviy tendensiyalarning ta'siri mavjud. Globallashuv sharoitida hamkorlik o'ziga xos tarzda kechmoqda. Ya'ni zamonaviy tendensiyalar hamkorlikning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qilmoqda. Bu jarayondagi hamkorlikning bir qancha jihatlarini qayd etish mumkin. Ushbu maqolada hamkorlikning globallashuv bilan qiyosiy tahlili ochib beriladi. Tadqiqotchilarning yondashuvlari tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: hamkorlik, globallashuv, muammo, konflikt, umummanfaatdorlik, davlatlararo hamkorlik, subyekt.

Keywords: cooperation, globalization, problem, conflict, common interest, interstate cooperation, subject.

Globallashuv sharoitida hamkorlikning bir qancha jihatlarini qayd etish mumkin. Ular quyidagilar hisoblanadi. Globallashuv sharoitida hamkorlikni ko'lami kengaymoqda buning uchun globallashuvning imkoniyatlari zamin yaratmoqda. Masalan bugun globallashuv natijasida dunyoning bir burchagidagi bir subyekt ikkinchi burchagidagi subyekt bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Mavjud imkoniyatlar makon omilini keyingi darajaga tushirib tashladi.

Hamkorlik rivoji uchun informatsiya va kommunikatsiya tizimi rivojlandi. Birgina internet tizimini oladigan bo'lsak bu global tarmoq avvalo yangi hamkorlar topishda an'anaviy makon omilini inkor etmoqda. Bu esa bir tomondan raqobatni kuchaytirsak ikkinchi tomondan imkoniyatlarni ham maksimal ro'yobga chiqarish imkonini bermoqda.

Erkin dasturiy ta'minot va yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sharoitida hamkorlik noaniq muhitda shakllanishi mumkin emas. Chunki bugungi informatsion baza har qanday jamoa yoki tashkilot haqida hamkorlik uchun yetarli ma'lumot olish imkonini beradi.

Yana bir tomondan globallashuv hamkorlik uchun zaruriyatni his qilgan subyektlar uchun tajriba ortirish uchun yetarli ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini ham beradi. Natijada tomonlarning muvaffaqiyatsizlik xavfi minimallashtiriladi

Globallashuvning yana bir tomoni hamkorlik uchun cheklovlarni yuqorida biz ta'kidlaganimizdek makon omilini, hamkor tomonlarning yetarli emasligi oldini

oladi. Shu bilan birga globallashuvni hamkorlik jarayoniga salbiy ta'sirlarini ham qayd etish mumkin. Jumladan, bu borada ustozimiz Oybek Sirojov hamkorlikning bir shakli bo'lgan mintaqaviy hamkorlik va globallashuvni qiyosiy tahlil qilib quyidagilarni qayd etadilar. "Zero, globallashuvning talabi bo'lgan barchaning manfaati aynan bir vaqtda va bir masalada bir xilda bo'lishi mumkin emas, unga intilishning o'zi yangi muammolarni tug'diradi. Bundan tashqari, globallashuv davlatlar yoki tomonlarning ma'lum masalada manfaatdorligini turlicha bo'lishiga olib keladi. Chunki o'yin qoidalarini birxilashtirishdan rivojlangan davlatlar ko'proq manfaatdor bo'ladilar. Bunday sharoitda norozilik, manfaatlar qarama-qarshiligi kuchayadi. Natijada insoniyat yangi mojarolar, urushlar girdobiga tushib qolishi mumkin".

Yoki yana bir masala borki bu qadriyatlar masalasi hisoblanadi. Aynan globallashuv sharoitida shakllangan ma'naviy qashshoqlik ham turli qadriyatlarga ega tomonlarning hamkorligi uchun salbiy ta'sir qilishi mumkin. Masalan bir jinsli nikohni qo'llab quvvatlaydigan yoki unga amal qiladigan tashkilot rahbari bilan bunday yondashuvlarga toqatsiz bo'lgan tashkilot rahbari hamkorlik qilishdan tiyiladi albatta. S.Otamuratovning bu masalaga qarashlari diqqatga sazovor. "Globallashuv real jarayon sifatida bir qator omillar bilan bugun yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning ustuvorligini ta'minlashga, kam taraqqiy qilgan yoki taraqqiyot yo'liga kirayotgan mamlakatlar va ularda yashayotgan xalqlarning ongi, qalbi va dunyoqarashida "boqimandalik" ruhiyatini rivojlantirmoqda. Fikrimizcha, ular quyidagilar orqali yuzaga kelmoqda: a) iqtisodiyot omili; b) fan-texnika va texnologiya yutuqlarini ommalashtirish; v) yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning qudratli iqtisodiy, intellektual va uddaburonlik salohiyati ustuvorligi asosida vujudga kelgan "ommaviy madaniyat"ni jahon xalqlari o'rtasida keng yoyish va ular ongiga singdirish borasida olib borayotgan faoliyatlar orqali o'z ifodasini topmoqda". Ko'rinib turibdiki, globallashuv hamkorlik uchun to'liq ijobiy ahamiyat kasb etmaydi.

Yana bir muhim masala hamkorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida ham to'xtalsak. Hamkorlikning rivojlanishi turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Bu omillar hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Mavzumizning obyektidan kelib chiqib aynan ma'lum tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida to'xtalsak. Ularni quyidagilarga ajratish mumkin.

Birinchi omil tashkilotlararo munosabatlarning umumiy xarakteri. Bunda asosiy masala munosabatlarning konstruktiv yoki destruktiv ahamiyat kasb etishi, munosabatlarning holati va darajalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tashkilotlar o'rtasida hamkorlik o'rnatilgan ammo qandaydir voqelik sababli bu munosabatlarga dars ketishi yoki mustahkamlanishi mumkin. Ya'ni munosabatlar xarakteri o'zgarishi hamkorlikka jiddiy ta'sir qiladi.

Ikkinchi omil tashkilotlar o'rtasida tarixan o'rnatilgan aloqalar. Ya'ni subyektlarning hamkorlik tajribasi, tarixi o'zaro ishonchni mustahkamlab boradi. Tomonlar o'rtasida bir-birini tushunish va qo'llab quvvatlash tendensiyasi kuchayadi. Ishonch va qo'llab quvvatlash har qanday sharoitda hamkorlikni

mustahkamlaydi. Yillar mobaynida hamkorlik yo'lga qo'yilgan tashkilot va yaqinda hamkorlik o'rnatilgan tashkilot o'rtasidagi hamkorlikda ma'lum farqlar bo'ladi ya'ni ikkinchi misolda hamkorlik yillar sinovidan o'tmagan, o'zaro ishonch mustahkam bo'lmaydi. Qolaversa tarix buyuk murabbiy sifatida tomonlarga hamkorlikni qo'plab qirralarini ochishga va mustahkamlashga imkon beradi. Hamkorlik jarayon sifatida ibtido, rivojlanish va intihoga ega ekan bu bosqichlarni bosib o'tish uchun ham vaqt aniqrog'i ma'lum bir tarixiy davr talab etiladi.

Uchinchi omil tashkilotlarning resurslari va ijtimoiy-iqtisodiy holati. Avvalo tashkilot resurslariga iqtisodiy va siyosiy resurslari va uning zamirida yotgan inson kapitali kiradi. Avvalo holat va resursni tahlil qiladigan bo'lsak. Holat ayni mavjud imkoniyati nuqtai nazardan talqin qilinsa resursi esa uning istiqboldagi imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Ijtimoiy-iqtisodiy holat esa tashkilotning iqtisodiy, moliyaviy va xodimlar o'rtasidagi munosabtlari, diplomatik ko'nikmalari hisoblanadi. bu omillar hamkorlikni shakllanishi va rivojdanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi omil madaniy omillar hamkorlikka intiluvchi tomonlarni yaqinlashtiradigan turli madaniy kechalar va uchrashuvlar, davra suhbatlarining tashkil qilinishi ham hamkorlikni mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Sababi bunday uchrashuvlar tashkilotlar xodimlari o'rtasida do'stlik munosabatlarini shakllanishiga zamin yaratadi, ularni yaqinlashtiradi.

Beshinchi omil tashkilotlarning jamiyatdagi legitimligi hisoblanadi. ya'ni bu tashkilotga nisbatan boshqa tashkilotlarning e'tirofi, xodimlarining e'tirofi, jamiyatning e'tirofi ham hamkorlik rivojiga zamiya yaratadi. Ya'ni legitimligi yuqori bo'lgan tomonlarning hamkorligi mustahkamlanadi.

Oltinchi omil tashkilot rahbari va xodimlarining hamkorlik yo'lidagi tashabbuskorligi. Hamkorlik uchun qaror qabul qiluvchi rahbar va uni ijrosini ta'minlovchi xodimlarning xoxishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi tashabbuslarga hamkorlikni mustahkamlaydi. Buning uchun hamkorlik ishtirokchilarining yangi tashabbuslarni ilgari surishi zarur hisoblanadi.

Yettinchisi hamkorlikka ishtirok etayotgan tomonlar jamiyatlaridagi siyosiy barqarorlik. Har qanday hamkorlik barqarorlik zamirida shakllanadi. Yoki barqarorlik hamkorlikni rivojlanishi uchun ham zamin yaratadi. Beqaror jamiyatda shakllangan tashkilotlarni hamkorlar izlashi yoki biz yuqorida qayd etgan turli madaniy tadbirlarni o'tkazishi uchun ham monelik qiladi. Masalan, Afg'onistonda faoliyat yuritayotgan tashkilot boshqa bir jamiyatdagi tashkilot bilan hamkorlik qilishida jamiyatdagi beqarorlik jiddiy to'siq bo'lishi aniq.

Bu jarayonda hamkorlikka yetaklovchi yana bir omil bu o'zaro bog'liqlik hisoblanadi. O'zaro bog'liqlik - bu tashkilotdagi hamkorlikning poydevorlaridan biridir. U mehnat taqsimoti yoki bir guruhga mansublikni tan olish orqali tuzilishi mumkin. Bir-birini to'ldiruvchi hamkorlikda o'zaro bog'liqlik har birining boshqalarga tegishli resurslarga bo'lgan bog'liqligidan kelib chiqadi. Ushbu manbalarsiz maqsadga erishish mumkin emas. Jamoa hamkorligida o'zaro

bog'liqlik har bir kishining boshqalar tomonidan guruh a'zosi sifatida tan olinishi zaruratidan kelib chiqadi.

Tashkilotlar yoki shaxslar o'rtasidagi hamkorlikka undovchi yana bir omil bu majburiyat hisoblanadi. Majburiyat - bu tashkilotdagi hamkorlikning o'lchovidir, Bu o'lchov guruh ichidagi shaxslararo majburiyatlardan yoki tashqi guruh bilan qabul qilingan majburiyatlardan iborat bo'lishi mumkin". Bir-birini to'ldiruvchi hamkorlikda majburiyatlar uning to'g'ri ishlashi va uning ichida ma'lumotlar aylanishini ta'minlash zaruratidan kelib chiqqan holda, guruhning ichki qismidir. Jamoa hamkorligida majburiyat guruhdan tashqarida ham rivojlanadi, u o'z shaxsini tan olish uchun tashqi guruhlar yoki tashqi guruhlar bilan munosabatlarini saqlab turishi kerak. Bog'liqlik va majburiyatni o'zaro taqqoslaydigan bo'lsak. Bog'liqlik hamkorlik uchun uni shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etsa majburiyat uni rivojlanishini ta'minlaydi. Tomonlar bog'liqlikdan kelib chiqib hamkorlik qilishga intiladilar. Majburiyatdan kelib chiqib uni rivojlantiradilar. Ana shu jihatlari bilan ular bir birini to'ldiradi yoki farqlanadi.

Umuman olganda, bu omillarni uzoq muddatli va asosan uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shu omillardan samarali foydalanish tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Намазова А.С., Эмерсон Б. История европейской интеграции (1945-1994) – М., 1995;
2. Обердорф А. Политическое становление Европы. – Европейская интеграция: современное состояние и перспективы. Минск, 2001, 12-бет.
3. Отамуратов С.С. Глобаллашув миллий-маънавий хавфсизлик. (сиёсий-фалсафий таҳлил) –Т.: “Ўзбекистон” Иккинчи нашр 2015 й., 81-82-б.
4. Хўжанов Б.Халқаро муносабатларда ўзаро боғлиқлик ва аҳил қўшничилик. Сиёсий фанлар соҳасида тадқиқотлар. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: «Complex Print», 2022. 142-бет.
5. “Глобал муаммо” тушунчасининг фалсафий талқини. Ўзбекистон файласуфлари 1-конгресси олдидан замонавий ўзбек фалсафаси тараққиёт истиқболлари мавзусидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари 21 январь 2015 – Т.: 2015й. б.-131-133.
6. Цыганков П.А. Политическая социология международных отношений. Содержание и формы международного сотрудничества. http://society.polbu.ru/tsygankov_sociology/ch41_all.html.
7. Kohl H. Die Europäische Gemeinschaft - Bilans und Perspective // Europe - unsere Zukunft. Herford. 1989 -S.21
8. Сирожов О. Марказий Осиёдаги минтақавий ҳамкорлик жараёнларида Ўзбекистон манфаатлари мавзусидаги сиёсий фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2018й. 17-бет.

9. Кусков А.П. Сущность межфирменного сотрудничества в современном этапе. <https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-mezhfirmennogo-sotrudnichestva-v-sovremennyh-usloviyah/viewer>

10. Лякишева, В.Г. Межмуниципальное сотрудничество как неотъемлемый элемент социально-экономического развития территории / В.Г. Лякишева, А.А. Шлегель // Экономика и управление в XXI веке: тенденции развития: Сборник материалов XXXV Международной научно-практической конференции. 2017. С. 254-261.

ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ДОСТОНЛАРДА АКС ЭТГАН ЧОРВАДОР АҲОЛИ ТУРМУШ ТАРЗИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАЪЛУМОТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Норбўтаев Парда Панжиевич

*Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти Гуманитар фанлар
кафедраси профессори, т.ф.д.*

Раҳматова Дилдора Нурматовна

*Қашқадарё вилояти педагогларни янги методикага ўргатиш Миллий
маркази ўқитувчиси*

Аннотация. Ушбу мақолада тарих фанини ўқитишда достонларда акс этган чорвадор аҳоли турмуш тарзи билан боғлиқ маълумотларнинг аҳамияти масаласи илмий жиҳатдан таҳлил этилган.

Таянч сўзлар: “Ёзи билан Зебо”, “Шоҳнома” ва “Гўрўгли”, этнос, фольклор, эпос, баҳши, этник компонент, қўнғирот.

Аннотация. В данной статье научно анализируется вопрос о значении информации, связанной с образом жизни скотоводов, отраженным в былинах, в преподавании истории.

Ключевые слова: “Ёзи и Зебо”, “Шахнаме” и “Гороглы”, этнос, фольклор, эпос, бахши, этнический компонент, кунграт.

Annotation. In this article, the issue of the importance of information related to the lifestyle of pastoralists reflected in epics in the teaching of history is scientifically analyzed.

Key words: Yazi and Zabo, Shah-Name and Gor-ogli ethnos, folklore, the epos, bakhshi, an ethnic component, a Kungrat.

Қашқадарё воҳаси аҳолиси (ўзбеклар, туркманлар, араблар) учун чорвачилик асосий сердаромад тармоқ ҳисобланган. Масалан, қўйчиликнинг ривожланиши орқали озиқ-овқат маҳсулотлари: гўшт, сут, харидоргир хомашёлар-жун ва чарм олинган. Қўйлардан олинадиган энг қимматли муҳим маҳсулот қоракўл терисидир. Қоракўл терига жаҳон бозорларида талаб ниҳоятда катта эди. Қўй жунидан кигиз, гилам, хуржун, чакмон, қоп каби турли уй-рўзғор анжомлари ва кийим-кечаклар тайёрланган [1, 40.]

Бу тарихий-этнологик маълумотлардан маълум бўладики, Қашқадарё воҳаси аҳолиси турмуш-тарзида чорвачилик муҳим ўрин тутган бўлиб, бу воҳа бахшилари куйлаган дostonларда ҳам талқин этилган. Жумладан, «Ёзи билан Зебо» дostonи шундай дostonлардан бири ҳисобланади. Бу дostonнинг бир неча вариантлари мавжуд бўлиб [2, Инв. №. 1512, 1514, 1557, 1606, 1601, 9351, 16.], улар ичида Қодир бахши Раҳимовнинг «Ёзи билан Зебо» дostonи чорвадор аҳолининг турмуш тарзи ва меҳнат турларини мукаммал талқин этган бадий-этнографик асардир. Масалан:

Тошмоқларинг қотибди-ё, турей-турей,

Сийроғингга ботибди-ё, турей-турей,

Тушимда-ё бир йигит-а, турей-турей,

Сой бўйида ётибди-ё, турей-турей...[3, 44].

Дostonда турей-турейлар, чирий-чирийлар, хўш-хўшлар-соғим қўшиқлари чорва молларига қилинадиган мурожаатлар бўлиб, қайсарроқ, сут бермайдиган сигирга ёки боласини бегона қиладиган қўй-эчкига нисбатан айtilган. Ўзбек халқ меҳнат қўшиқлари тадқиқотчиси К.Очилов шундай ёзади: «Агар қўзиларга бошқа бирорта хайвоннинг ёки ётган жойининг ҳиди уриб қолган бўлса, ўз боласини эмизмайди. Воҳада дала этнографик маълумотлар асосида ҳам мазкур ҳолатни тасдиқловчи мисоллар келтириш мумкин. Масалан, Ғузор туманининг Чўмичли қишлоғилик Жўраев Эргаш бобонинг таъкидлашича, ўтмишда чорва молларига қилинадиган турей-турей, чирий-чирийлар, соғим қўшиқлари, асосан, сут бермайдиган сигирларга ва ўз боласини бегона қиладиган баъзида эса, бироз бетоб бўлиб қолган қўй-эчкиларга нисбатан айtilган [4, 2023 йил 3 август].

Демак, дostonда талқин этилган турей-турейлар ва чирий-чирийларда қўзи ёки улоқни эмизиш, шу орқали Чўпон-отага атаб дуолар қилиб, уларни асраб қолиш нияти устун туради. Чорвадор аҳолининг турмуш тарзи чорва моллари билан боғлиқ бўлганлиги учун уларнинг ҳаётини ўзларининг ҳаёти билан боғлашган». Зеро, қадимги даврлардан, яъни жониворларни қўлга ўргатиш ва хонакилаштириш жараёни бошлангандан эътиборан чорвачилик билан маросимлар ва урф-одатларда элнинг хайвонот оламига бўлган муносабати акс этган [5, 145.] Элшунос олим О.Бўриевнинг ёзишича, воҳада қўйчивонлар баҳорги яйловга сурувни хайдаш олдидан маълум ирим-сирим ва удумларни бажаришган. Қўйларни офатдан сақлаш учун чўпон қўлида машғала билан қўтон ичига кириб айланган. Қўйлар қўтондан чиқиши олдидан исириқ ҳам тутатилган. Отар эгаси баҳорги яйловга қўчиш олдидан қишлоғдаги обрўли кишиларни ва кекса чўпонларни чақириб, қўй сўйиб зиёфат берган. Мулла чўпонлар пири-Чўпон отага бағишлаб дуолар ўқиган. Баҳорги ва ёзги яйловлардан қишки қўтонга қайтишда ҳам қўйларни турли бало-қазолардан асрасин деб қўтон олдига олов ёқилган, исириқ тутатилган ва яна қўй сўйиб зиёфат берилган ва Чўпон-ота ҳақиқа дуолар қилинган. Демак, воҳа чорвадор аҳолиси ўз чорваларини бало-қазолардан сақлаш учун ўзига хос ирим-сиримларни ўтказишган.

Ўрта Осиё халқларида қадимги даврлардан бошлаб чорва молларига муносабат кучли бўлганлиги табиий ҳолдир. Элшунос олим А.Ашировнинг ёзишича, «Авесто» матнларида майда молларга ҳомийлик қилувчи илоҳ Фродат-Фшова номи билан зикр этилган. Зардушт Ахурамаздадан «ҳаммадан кўра бахтиёрроқ бўлган дунёдаги тўртинчи жой қаер?»-деб сўраганида, Ахурамазда: «Бундай жой кўйлар суруви ва тевадар уюри энг кўп парвариш қилинадиган заминдир», деб жавоб берган. Шунингдек, «Авеста» нинг бирмунча кейинги қисмлари ҳисобланган «Хорда «Авеста»да «Айатрима», яъни «Чорвани отарларга қайтариш байрами» ўтказилганлиги ҳақида маълумотлар бор [6, 146]

Достонда йирик шоҳли ҳайвонларга бўлган муносабатлар ҳам муҳим ўрин тутган:

Сен бормасанг сендек ҳўкиз туғилмас,
 Мен бормасам улуғ машғул ёқилмас,
 Қора ерни қарсиллаткин жонивор,
 Қаерларда менинг ёрим чувҳа-я,
 Анов сойда сенинг ёринг, чувҳа-я...[7, 39].

Йирик шоҳли ҳайвонлар воҳада ярим ўтроқ ва ўтроқ деҳқончилик билан шуғулланувчи аҳоли томонидан боқилган. Ҳўкизлар асосан, тоғ-олди туманларида яшовчи ўтроқ аҳоли турмуш тарзида муҳим ўрин тутган. Чунки бу ҳудудларда йирик шоҳли ҳайвонларни боқиш учун яхши табиий мавжуд бўлган. Масалан, XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида Қашқадарё воҳасида яшовчи бойларда чорва моллари 2000 бошгача, ўртача ҳўжаликларда 10-15 бошгача етган бўлиб, камбағал оилаларда 2 бошдан ошмаган. Чунки бу ҳайвонларни боқиш учун катта озуқа талаб қилинган. Бу ҳолат бошқа воҳалар аҳолиси турмуш тарзида ҳам кузатилган. Масалан, Зарафшон ва Фарғона водийсида яшовчи деҳқонлар дала ишлари тугаганидан сўнг, ўз ҳайвонларини сотиб юборишган ва баҳор бошланиши билан яна сотиб олишган [8, 289]. Чорвадор аҳоли турмуш-тарзида кўй ва эчкилардан фарқли ўлароқ, қора моллар ерни шудгорлаш, текислаш, жуяклар олиш каби деҳқончилик ишларида ёрдамчи восита сифатида муҳим ўрин тутди. Шунинг учун, дастлабки чорвадор жамоаларининг илк ривожланиш даврида ҳўкизнинг тотем тарзида тараққий этиши илк бронза давридаги мавжуд иқтисодий шарт-шароит билан чамбарчас боғлиқ эди. Бу ҳолат энеолит давридаёқ қарор топган.

«Ёзи билан Зебо» достонидан ташқари «Алпомиш» достонида ҳам кўпгина эпизодлар чорвачилик билан боғлиқлигини кўришимиз мумкин. Бу табиийки, туркий қабиаларнинг асосий машғулоти чорвачилик эканлигини кўрсатади. Чунки, чорва қадимги даврлардан кийим, овқат ва ишлаб чиқарувчи куч сифатида муҳим ўрин эгаллаган. Жумладан, достонда «камар» сўзининг учраши ва унинг ҳайвон терисидан тайёрланганлиги, жўнидан эса кийим-кечак тикилганлигини тасвири фикримиз далилидир [9, 118]. Л.Н.Гумилевнинг фикрича, туркий тилли халқлар асосан, чорвачилик

билан шуғулланишган. Чорва ҳайвонлари териларидан кийим-кечак, бош кийимлари тикиб кийиб юришган. Туркий тилли халқлар майда туёқли ҳайвонлар, яъни кўйларни кўпроқ боқишган. Кўп йиллар давомида шу оилани сут, қатиқ билан таъминлаган чорва молларидан бири нобуд бўлса, бу шу оила учун катта йўқотиш ҳисобланган.

Халқ достонларида ҳам отларнинг чорвадор аҳоли турмуш тарзидаги ўрни таърифланади. Жумладан, «Алпомиш» достонининг Фозил Йўлдош ўғли вариантида келтирилишича:

Бобо, сиру ҳолим маълум қилайин,
Биздан энди бир бедовни сўрайин,
Бедов миниб қалмоқ элга борайин,
Қалмоқ элдан ёрим олиб келайин...[10, 85].

Достон парчасида отнинг чорвадор аҳоли турмуш-тарзидаги ўрни, яъни бирор узоқ манзилга боришда муҳим транспорт воситаси сифатидаги аҳамияти келтириб ўтилган. Маълумки, Ўрта Осиёда яшовчи чорвадор қабилалар орасида от культининг жуда кенг тарқалганлигини кўплаб фактлар тасдиқлайди. Ҳатто бир қатор юлдузлар, масалан, Оқбўзот, Кўкбўзот юлдузлари ҳақида мифлар ҳам мавжуд [11, 9]. Мана шунга биноан достонда қаҳрамоннинг жанговар оти унинг содиқ, ғамхўр ҳамроҳи сифатида тасвирланади. У ўз эгасини турли хавф-хатарлардан огоҳлантириши, душман қуршовидан олиб чиқиб кетиши, хуллас, сафар давомида унга ҳомийлик қилиши лозим. Ўзбек халқ достонларида чорвадор аҳоли турмуш-тарзида от культининг мана шу муҳим белгиси яхши сақланиб қолган. Масалан, «Алпомиш»даги Бойчибор, «Гўруғли» туркумидаги Ғирот, «Шоҳнома»даги Рахш ана шундай отлар жумласига киради. Шунинг учун Ғирот мерганлар ўқидан гоҳ қирқ газ юқорига сакраб, гоҳ ётиб олиб Авазни саклаб олади. От култи ва унинг инсонга ҳомийлик қилиши ҳақидаги мифологик тасаввурлар бевосита мифлар орқали достонга кириб келган.

Хулоса қиламизки, тарих фанини ўқитишда достонларда акс этган чорвадор аҳолиси турмуш тарзи билан боғлиқ маълумотлар муҳим этнографик манба ҳисобланиб, улар халқ турмуш тарзига оид турли хил аспектлар бўйича қизиқарли материаллар беради.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

- Бўриев О., Хўжамбердиев Т. Ўзбек халқи боқий қадриятлари. – Қарши. «Насаф», 2005. – Б. 40.
1. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти фольклор архиви. Инв. №. 1512, 1514, 1557, 1606, 1601, 9351, 16.
 2. Эргашев А., Халилова Д. «Ёзи билан Зебо». - Қарши. «Насаф», 2000. - Б. 44.
 3. Дала ёзувлари. Ахборотчи: Жўраев Эргаш бобо 73 ёшда. Ғузор тумани, Чўмичли қишлоқ фуқаролар йиғини. 2008 йил 3-4 август.
 4. Аширов А. Ўзбек халқининг эътиқод ва маросимлари. – Т.: «Ўзбекистон Миллий кутубхонаси», 2007. – Б. 145.

5. Аширов А. Ўзбек халқининг эътиқод ва маросимлари. – Т.: «Ўзбекистон Миллий кутубхонаси», 2007. – С. 146.
6. Эргашев А., Халилова Д. «Ёзи билан Зебо». - Қарши. «Насаф», 2000. - Б. 39.
7. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. - СПб., 1882. - С. 289.
8. Хошниязов Ж. Историко-фольклорная характеристика каракальпакской версии эпоса «Алпамыс». - Нукус, 1978. - С. 118.
9. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. – Т.: «Фан», 1968. – Б. 85.
10. Об эпосе «Алпамыш». Материалы по обсуждению эпоса «Алпамыш» - Т.: «Типография Из АН Уз ССР», 1959. - С. 9.

DESTUKTIV FAOLIYAT ASOSIY MOTIVLAR VA SABABLAR (HARBIY XIZMATCHILAR MISOLIDA)

Fazilat Oripovna Qo'ysinova

*O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi Markaziy apparat xodimi
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Mazkur maqola destruktiv tendensiyalar va ularning inson hayotiga ta'siriga bag'ishlangan. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ushbu makonda inson ongi va ruhiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, uning barqaror hayot faoliyati buzishga va izdan chiqarishga qodir axborotlarning tarqalishi bilan bog'liq jarayonlar va tendensiyalarning destruktiv (buzg'unchi) ahamiyati ortib borayotganligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, inson, destruktiv g'oyalar, ma'naviyat, radikallashuv, deradikalizatsiya, diniy reabilitatsiya.

Аннотация: Данная статья посвящена деструктивным тенденциям и их влиянию на жизнь человека. Анализируется стремительное развитие современных информационных технологий и возрастающее деструктивное значение процессов и тенденций, связанных с распространением информации, оказывающих негативное воздействие на сознание и душу человека, способных нарушить и сорвать его стабильную жизнедеятельность.

Ключевые слова: общество, человек, деструктивные идеи, духовность, радикализация, дерадикализация, религиозная реабилитация.

Annotation: This article is devoted to destructive tendencies and their impact on human life. The rapid development of modern information technologies and the increasing destructive significance of the processes and trends associated with the dissemination of information that have a negative impact on the consciousness and soul of a person, capable of disrupting and disrupting his stable life, are analyzed.

Key words: society, person, destructive ideas, spirituality, radicalization, deradicalization, religious rehabilitation.

Bugun axborot makonida, insonning hayot makoni va sohasida ham yuz berayotgan mafkuraviy, ma'naviy, ruhiy salbiy o'zgarishlar insonlararo munosabatlarning jiddiy shikastlanayotganligiga, jamiyatlar, millatlar, etatlar, madaniyatlar hattoki, davlatlar o'rtasidagi nizolarning ham asl sababchisiga aylanayotganligi guvoh bo'lib turibmiz. Insoniyatning texnik va texnologik taraqqiyoti, har doim ham uning baxtli yashashining garovi emas, gohida uning hayotini murakkablashtiruvchi, turli-tuman yangidan-yangi muammolarni, halokatlarni keltirib chiqaruvchi, ba'zida esa uning baxtsizligiga sabab bo'luvchi omil bo'lib qolayotganligini alohida e'tirof etmoq joiz.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi islohotlar avvalo xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash, strategik taraqqiyot sari olg'a harakatlanishga qaratilgan bo'lib, bu borada komplekschora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Insoniyatga xos bo'lgan xususiyat, bu uning doimiy tinchlikka, farovonlikka, baxtli yashashga bo'lgan intilishidir. Buning uchun esa turli uslublar, vositalar, sharoitlar yaratiladi va barchasi inson uchun tatbiq qilinadi. Ammo, uning turli qarashlarga, turli manfaatlarga egaligi natijasida esa doimiy ziddiyatlar paydo bo'ladi va turli yo'llar va tendensiyalar asosida rivojlanadi, amalga oshadi, kerak bo'lsa, davlat va jamiyat uchun yetarlicha xavf-xatarlarni keltiradi. "Shaxs uchun destruktivlik – bu mavjud ijtimoiy, xulq-atvor, timsoliy tuzilmalardan voz kechishga undovchi madaniyatning bir komponentidir" [1].

Destruktiv, ya'ni vayronkor, buzg'unchi tendensiyalar o'zining uzoq yillik tarixiga ega ekanligini, ya'ni insoniyat paydo bo'libdiki, ularni bunday xatarlar aslo tark etmagan. Xoh diniy bo'lsin, xoh milliy yoki etnik bo'lsin, xoh siyosiy bo'lsin va xoh mafkuraviy bo'lsin, ularning hammasi inson hayoti uchun ma'lum bir kulfatlarga sababchi bo'lgan. Sababki, o'z nomidan destruktiv, ya'ni buzg'unchidir.

Destruksiya so'zi - lotinchadan olingan bo'lib, destructio — "konstruksiya yoki qurilmaning buzilishi, sochilishi", de — rad qilish (yoki voz kechish) va structio — tashkil qilish yoki qurish ma'nolarini anglatadigan termin. Falsafiy nuqtai-nazardan olib qaraganda, destruksiya buzg'unchi ta'sirining asosiy mo'ljali – bu o'zaro bog'langan birliklarni bir-biridan ajratish uchun, konstruksiyaning nozik joyini ishdan chiqarish, tortib olish yoki zarba berishdir. Bu yerda u asosiy elementlar ichida nozik hududni, qismni tanlaydi va unga qarshi zarba berish orqali voqelik funksiyasini buzadi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, destruksiya (yoki destruktivlik) — o'z mo'ljaliga ko'ra konstruktivlikning teskarisi, ya'ni antonimidir. Bunyodkorlik yoki bir butunlikning buzilishi uchun ro'y beradigan, tashkil qilinadigan, amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Umuman olganda, destruktiv faoliyat amaliy jihatdan barcha sohalarga (ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, diniy, moliyaviy, kasbiy va xokazo) tegishlidir, ya'nikim ushbu barcha sohalarda yuz berishi mumkin bo'lgan holatdir. Bugungi kunda destruktiv tendensiyalar tobora ko'chayayotgan va insoniyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan (kerak bo'lsa, katta xavf-xatarlar va kulfatlar keltirayotgan)

soha bu insoniyat **tinchliligi va barqarorligidir**. "Davrlar o'tishi bilan progress, taraqqiyot, pozitivlik, bunyodkorlik naqadar jadallashsa, regress, tanazzul, negativlik, vayronkorlik ham shu qadar ildiz ota bordi. Vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolar va negativ holatlar o'zining o'ta murakkab tabiati, oqibatlari ko'lami bilan jiddiy tashvish tug'dirmoqda. Shu munosabat bilan **destruktiv holatlarning** shakllanishi qonuniyatlarini aniqlash, buning uchun esa mazkur jarayonlarning mohiyati va sabablariga doir mulohazalarni umumlashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda" [2]. Tinchlik va barqarorlikka nisbatan amalga oshirilayotgan destruktiv faoliyat boshqa barcha sohalarda o'z ta'siri ko'rsatmoqda va namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, inson ongu-tafakkuriga nisbatan radikal g'oyalarni, ekstremistik, millatchilik, diniy, irqchilik va xokazo destruktiv g'oyalarni, mafkuralarni, inson hayotini izdan chiqarishga qodir madaniyatni axborot makonida tarqatish singari tendensiyalarning ortib borayotganligi o'tgan XX asrning oxiri va XXI asrning birinchi yarmida sodir bo'layotgan eng dahshatli va kulfatlarga to'la ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilish mumkin.

Chunki, so'nggi yillardagi o'zgarishlar kishilar hayot sifatini, madaniy turmush darajasini, jamiyatning dunyoqarashini butkul o'zgartirdi. Bunday jarayonlarning barchasi ham ijobiylik sari emas, balki salbiy tomonga ham ro'y berganligi kuzatildi. Qanchalik taraqqiyot ilamlab borgani sari jamiyatda regressiv, negativ, vayronkorlik jarayonlari ham yuz bermoqdaki, ular insoniyat hayotini turli negativ va vayronkorlik holatlari bilan cho'lg'ab olayotganligi o'z isbotini topmoqda.

Zamonamizda ro'y berayotgan bunday destruktiv xususiyatdagi tendensiyalardan, jarayonlardan hech kim kafolatli darajada himoyalangan emas. Chunki, destruktiv xususiyatlarga ega bo'lgan mafkuralarning tarqalishi va uning insoniyat hayotiga ta'siri borasida juda ko'plab tadqiqotlar va qarashlar shakllanganligiga qaramasdan, bugungi kunda ularga qarshi kurashish bo'icha yagona bir standartlar yoki xalqaro hamjamiyatning o'zaro birdamlik tamoyillari afsuski mavjud emas.

Harbiy xizmatchilarning o'rtasida radikal qarashlarning keng tarqalishining asosiy motivlari yoki sabablari asosan ikki xil bo'lib, ularni quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

Birinchi motiv - harbiy xizmatchilarning ruhiy holatiga tez va kuchli ta'sir ko'rsatadigan diniy, milliy, turli adovatni qo'zg'aydigan, toqatsizlikka sabab bo'ladigan axborotlarning hech bir to'siqlarsiz "nishonga" yetib borishi, diniy, siyosiy yoki milatchi targ'ibotchilarning siyosiy va mafkuraviy maqsadga qaratilgan ma'ruzalarining, video va audio roliklarini harbiy xizmatchilar ma'naviy va ruhiy olamiga jiddiy zarar yetkazishi bilan bog'liq jarayonlar;

Ikkinchi motiv – harbiy xizmatchilarining o'z shaxsiga nisbatan, yon-atrofidagilarga yoki qarindosh-urug'lariga nisbatan yetkazilgan ba'zi bir adolatsizliklar (harbiy karyerasida uzoq vaqtlar o'zgarish bo'lmasligi, ijtimoiy ta'minot, o'zlarini haqli hisoblasalarda, uzoq vaqt uy-joyga ega bo'lolmaslik, ishda nohaq jazolanish yoki bo'shatilish, qarindoshlarga kimlar tomonidandir nohaq deb

hisoblaydigan darajada zarar yetkazilishi va xokazo) aharmi xizmatchilarda radikal kayfiyatni vujudga keltiradi va ularda jamiyatga, davlatga nisbatan norozilik kayfiyati tug'ilishiga sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda ushbu tendensiyalar avvalo, insonning ongiga ta'sir ko'rsatish va uning qalbiga turli nafrat va isyon ruhiyatini singdirish yo'li bilan davlat, xalq, jamiyat yoki biror bir millatga qarshi jinoyatlarga boshlashi mumkin bo'lgan ijtimoiy va mafkuraviy holat ekanligini alohida e'tirof etmoq joiz. Insonning hayotda uchraydigan har qanday kulfat, tushkunlik, omadsizlik, adolatsizlikka nisbatan qalbida g'alayon bo'lishi, unga nisbatan darmon izlashi, ko'p hollarda, unda jamiyatni ayblash bilan bog'liq kechinmalarni hosil qilishi psixolog olimlarimiz tomonidan isbotlab berilgan. Xususan hayot murakkabliklariga, tashvishlariga duch kelgan shaxs hayotida destruksiya jarayoni kuzatiladi. Destruksiyaning asl mohiyati — bu insonning ma'lum bir jiddiy sabablar tufayli hayotdagi barqarorlikdan beqarorlik sari ketishidir. Bunday holatlarning asosiy resursi esa inson hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Трошин А.А. Теоретические основы деструкции в обществе. Доклад, 2015. С. 1. [Электронный ресурс] URL: https://bookscafe.net/read/troshin_a-teoreticheskie_osnovy_destrukcii_v_obschestve-203507.html#p1 (дата обращения: 27.06.2020).
2. Bekmurodova G. Ijtimoiy - destruktiv holatlar talqini dinamikasi. National University of Uzbekistan Volume 3 | NUU Conference 2 | 2022 Google Scholar indexed Current Issues of Social Sciences and Humanities. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-2-661-667 Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari.
3. Лучко А.А. Как интернет влияет на психику и организм человека // Афиша-Daily. 17.03.2016. [Электронный ресурс] URL: <https://daily.afisha.ru/brain/928-kak-internet-vliyaet-na-psihiku-i-organizmcheloveka/> (дата обращения: 28.06.2020).
4. Top 10 types of information security threats for IT teams. <https://www.techtarget.com/searchsecurity/feature/Top-10-types-of-information-security-threats-for-IT-teams>mac.

ЭТНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ФОЛЬКЛОР МАНБАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Норбўтаев Парда Панжиевич

*Қариш ирригаци ва агротехнологиялар институти, Гуманитар
фанлар кафедраси профессори, т.ф.д.*

Раҳматова Дилдора Нурматовна

*Қашқадарё вилояти педагогларни янги методикага ўргатиш Миллий
маркази ўқитувчиси*

Аннотация. Ушбу мақолада олий ўқув юртларида этнология фанини ўқитишда фольклор манбаларнинг ўрни ва ўзаро алоқалари масаласи илмий жиҳатдан таҳлил этилган.

Калим сўзлар: этнология, этнофольклористика, этнос, фольклор, совчи қўймоқ, никоҳ шартлари, қиз яширди, ит ириллар, ойна кўрсатар, соч сийпатар.

Аннотация. В данной статье научно анализируется роль фольклорных источников и их взаимосвязь в преподавании этнологии в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: этнология, этнофольклористика, этнос, фольклор, жених, условия брака, девичьи шкуры, лай собак, зеркальные зрелища, причесывание.

Annotation. This article scientifically analyzes the role of folklore sources and their relationship in the teaching of ethnology in higher educational institutions.

Key words: ethnology, ethnofolkloristics, ethnic group, folklore, groom, marriage conditions, girls' skins, barking dogs, mirror shows, combing.

Этнология фанининг методологик масалаларига бағишланган асарларда келтирилишича, «этнология» фани этнос ҳақидаги барча маълумотларни назарий жиҳатдан таҳлил қилади ва бу хусусда умумий хулосалар чиқаради [1, - Б. 28]. Этнология фанида этноснинг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ жиҳатларни ўрганувчи (этноантропология, этносоциология, этнопсихология, этнолингвистика, этнофольклористика) йўналишлар мавжуд. Ана шу йўналишлар ичида муҳим ўрин тутувчи соҳа этнофольклористикадир. Ушбу йўналишга оид Б.Саримсоқов, О.Муродов, М.Жўраев, Ж.Эшонкул, А.Диваев, Б.Путилов, Г.Снесарев, О.Сухарева каби олимларнинг тадқиқотларида этнографик принципларга мос келувчи фольклорнинг халқ турмуш тарзи, урф-одат ва анъаналари масалалари билан боғлиқ бадиий реликтлари таҳлилга тортилади.

Мазкур асарларда «этнофольклористика» йўналишига илмий-назарий таъриф берилмаган бўлса-да, бу йўналишнинг асосини белгиловчи илмий қараш ва маълумотлар учрайди. Масалан, «Фольклор и этнография» номли

асарни таҳлил этиш этнофольклористика соҳасининг илмий моҳиятини белгиловчи хусусиятлар бўйича қуйидаги хулосаларни беради [2, 3-15].

Биринчидан, этнофольклористика - фольклор материалларини этнология фани учун муҳим этнографик манба сифатидаги ўрнини илмий асослайди;

Иккинчидан, фольклор материалларидаги этнографик маълумотларни тарихий-этнологик манбалар билан қиёсий ўрганиб, уларда акс этган материаллар реал тарихий заминга эга эканлиги бўйича тўғри илмий хулосалар беради;

Учинчидан, этнофольклористика - маълум бир халқларнинг қўлёзма манба, ҳужжат ёки археологик ёдгорликларда қайд этилмай қолган тарихий-этниқ хусусиятлари, ўтмишдаги ижтимоий турмуши, диний эътиқодлари, ижтимоий психологияси ва моддий маданиятига оид қимматли маълумотларни ўзида акс эттирган фольклор материалларини этнология фани методологияси негизида тадқиқ этади;

Тўртинчидан, фольклор материалларида халқ турмуш тарзи, уруғ-қабилаларни ўтмишда ва ҳозирда яшаётган географик-ҳудудий жойлашуви, уларнинг ҳўжалиқ юритиш ва оилавий-маиший маросимларига оид маълумотларнинг акс этиши жараёнини аниқлайди.

Демак, этнофольклористика йўналишининг тадқиқот доирасини тасдиқловчи муҳим омиллар:

- ўзбек халқ достончилиқ анъаналарининг тарихий-этнографик асослари ва этнофольклористик таҳлили;
- қадимги диний эътиқодларнинг халқ оғзаки ижоди намуналарида акс этишининг этнофольклористик тадқиқи;
- ўзбек халқ достонларида этниқ хусусиятлар билан боғлиқ этнографик материалларнинг қиёсий этнофольклористик таҳлил қилиш;
- ўзбек халқ достончилиқ анъаналари шаклланган ҳудудлар аҳолиси этниқ таркибини қиёсий илмий тадқиқ этиш;
- ўзбек халқ достонларида акс этган ҳўжалиқ юритиш анъаналарига оид этнографик маълумотларни таҳлил этиш;
- халқ достонларида ижтимоий ва оилавий-маиший маросимлар, урф-одат ва миллий қадриятларнинг тарихий-этнографик хусусиятларини тадқиқ этиш.

Этнофольклористика-этнологик ва фольклор материалларнинг бевосита ҳамда узвий боғлиқлигини белгиловчи етакчи мезонлар, яъни эпос ва маросим масалаларини ўрганишда ҳам муҳим ўрин тутди. Масалан, Б.Путилов эпос ва маросим масалаларига тўхталиб, уларни бир-бирига боғлаб турувчи энг муҳим жиҳат, эпоснинг ўзига хос халқ ижоди намунаси сифатида маросим ва маросим фольклори билан бевосита алоқадорлигидадир – дейди [3, 76].

Ж.Эшонқул эса, қадимги маросимлар эпик тафаккурнинг тадрижий ривожига орқали достонлар таркибида сақланиб қолишини аниқлаб, ушбу эпик

форманинг бевосита маросим билан алоқадор томонларини тадқиқ этиш эпоснинг туб асосларини ёритишда муҳим аҳамият касб этишини таъкидлайди [4, 12]. Унинг фикрича, бу ўринда икки жиҳатга алоҳида тўхталиб ўтиш керак:

Биринчидан, эпоснинг маросимдаги ўрни ва вазифаси. Бугунги кунда Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида ўзининг жонли ижро ҳолатини давом эттираётган қадимий анъаналар, тўй-томошалар ва бошқа маросимларнинг баҳши иштирокида ўтказилиши;

Иккинчидан, маросимларнинг эпосда акс этиши, яъни маросимларнинг эпос сюжетида тутган ўрни. «Алпомиш» достонини, таъбир жоиз бўлса, халқнинг кўҳна маросимлари, урф-одатлари, ирим-сирим ва табуларининг қомуси, деб аташ мумкин. Чунки, ҳеч бир эпосда халқнинг маиший ҳаёти бунчалик кенг кўламда ўзининг бадиий ифодасини топмаган.

Шунинг учун, «Алпомиш» достонида бола туғилиши, чақалоққа исм қўйиш, бешик тўйи, суннат тўйи, «бешиккерт» қилмоқ, «қаллиққа бормоқ», «совчи қўймоқ», «никоҳ шартлари», «қиз яширди», «ит ириллар», «ойна кўрсатар», «соч сийпатар» каби турли хил урф-одат ва маросимларнинг жой олиши муҳим аҳамиятга эга бўлиб, этнофольклористика йўналиши учун фундаментал тадқиқ талаб масалалардан биридир.

Этнофольклористика соҳасига оид маълумотлар интернет саҳифаларида ҳам келтириб ўтилади. Мазкур материалларнинг тасдиқлашича, этнофольклористика - бу халқ ўтмиши билан боғлиқ моддий ва маънавий маданиятнинг фольклор асарларида акс этиши ҳамда маросим фольклорига оид этнографик масалаларни илмий тадқиқ этиш демакдир.

Халқ достонларини этнофольклористик тадқиқ этишда уларда тавсиф этилган тарихий ва этнографик фактларнинг туб моҳиятини илмий асосда яққол, теран идрок қилиш керак. Чунки, достонларни илмий тадқиқ этиш, унда акс этган тарихий-этнографик маълумотларнинг ҳақиқатга яқинлик даражасини белгилаш имконини беради. Этнофольклористика халқ достонларида ифодаланган этнографик маълумотларни этнологик аспектдаги тадқиқотлар билан қиёсий ўрганади ва мазкур маълумотларнинг:

- ҳақиқийлик даражаси (реальность);
- бўрттирилганлик даражаси (идеализированность);
- тарихийлик даражаси (историчность);
- ҳаёлий уйдирмалик даражаси (фантастичность) бўйича илмий хулосалар беради. Биз бу ҳолатни Фозил Йўлдош ўғлидан ёзиб олинган «Алпомиш» достонидаги оилавий-маиший маросимлар таркибига кирувчи никоҳ тўйи маросими билан боғлиқ «кампир ўлди» удуми мисолида қисқача таҳлил этишимиз мумкин.

Достонда акс этган «кампир ўлди» удуми ҳам никоҳ тўйи таркибига кирувчи қадимий удум ҳисобланади [5, 237]. Бу удум баъзи жойларда келиннинг уйида, айрим ҳудудларда куёв хонадонида амалга оширилган. «Алпомиш» достонида эса бу удум Барчиннинг уйида амалга оширилади:

«Бахмал ўтовда чимилдик тутиб, куёв нўкарлари билан куёвни киргизмоқчи бўлиб, бир неча аёллар «кампир ўлди» бўлиб, ўлганига бир нима олиб, «ит ириллар» деган расмини қилиб, бунга ҳам бир нарсa бериб, ҳар замон салом солиб, уйдан ичкари кириб, чимилдикда ўтириб, олдига дастурхон солиб, қўйларнинг тўшини пишириб олиб келиб, буларнинг олдига қўйиб, хўп еб тўйиб, куёв нўкарларга тўппи, рўмол, сармой бериб, ҳаммаси ўз расми-қоидасини бажариб, куёв нўкарлар чиқиб кетади, булар ҳам ўз манзили жой-жойларига қараб кетади».

Демак, дostonда келтирилишича, куёв келин турган хонага кириши учун бир қанча тўсиқлардан ўтиши керак бўлган. Куёв келин турган хонага яқинлашганда аёллар эшикни ёпиб, уни ичкарига киритишмаган. Аёллардан биттаси эшик олдида ўтириб олиб, итдай ириллайди. Куёвнинг ёнидаги яқин ўртоғи ўша аёлга маълум миқдорда пул ёки совға бергандан кейин эшик очилган. Куёв очилган эшикдан кираман деганда бўсағада ёши катта ҳурмат-эътиборга сазовор бир кампир юзини рўмол билан ёпган ҳолда ўтирганини кўриб тўхтаган. Бу удум «кампир ўлди» деб аталган. Бўсағада турган кампир ўрнидан туриб, хонага киришга рухсат бермагунча, куёв ичкарига кира олмаган. Куёв кампирга пул бергандан кейингина у ўрнидан турган.

Илмий таҳлилимиз шуни кўрсатадики, «Алпомиш» дostonида келтириб ўтилган «ит ириллар» ва «кампир ўлди» удумини этнологик материаллар билан қиёсий ўрганганимизда, дostonда бир нечта янгилишмовчиликлар мавжудлигини сезамиз. Яъни, дostonда, «ит ириллар» удуми «кампир ўлди» удуми ўтказилганидан кейин келяпти, аслида эса, даставвал «ит ириллар» удуми бажарилгач, «кампир ўлди» ўтказилган. Лекин бу ҳолат этнографик маълумотларнинг дostonда акс этиши масаласига у даражада салбий таъсир кўрсатмайди.

Этнофольклористика - миллат таркибига кирувчи субэтниқ гуруҳларнинг маълум бир ҳудудда муқим ўтrockлашув жараёни (этниқ жараён) билан бирга уларда ўзига хос оғзаки бадий ижод намуналарининг тарихий-этнографик жиҳатларини тадқиқ этади. Хусусан, халқ дostonлари тарихий-этнологик ижтимоий тараққиёт билан узвий боғлиқ ҳолда тарихан шаклланган.

Хулоса қиламизки, этнофольклористика соҳасининг тадқиқот доираси ўзбек халқ дostonчилиқ анъаналарининг шаклланиш тарихи, дostonларда талқин этилган халқ этниқ тарихи, уларнинг моддий ва маънавий маданият анъаналари ҳамда маросимларига оид этнографик материалларни этнологик манбалар асосида тарихий-қиёсий тадқиқ этиш билан белгиланиши аниқланди.

Адабиётлар

1. Садохин А.П., Грушевская Т.Г. Этнология. - М., 2000. – С. 28; Этнология. Краткий этнологический словарь. - М.: фонд «Социальный мониторинг», 1994.
2. Фольклор и этнография. - Л.: «Наука», 1970. – С. 3-15.

3. Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. - Л., 1974. – С. 76.
4. Эшонкулов Ж. Эпос ва маросим // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2002. № 5. – Б. 12.
5. Кармышева Б.Х., Васильев Г.П. Этнографические очерки узбекского сельского населения. - М.: «Наука», 1969. – С. 237.

TADQIQOTCHILIKKA ASOSLANGAN O'QITISH TEKNOLOGIYASINI BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI O'RNI

Raximqulova Maxbuba Baxronovna

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası
dotsenti*

Raximqulova Komila Komilovna

*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika ta'lim
fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tadqiqotga asoslangan texnologiyani boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati, hamda ta'lim jarayonida qo'llanilishi, maqsadlari va natijalari haqida fikr-mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'quvchi, izlanish, yangilik, tadqiqotga asoslangan o'qitish, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается важность научно-исследовательских технологий в начальном образовании, а также их образовательное использование, цели и результаты.*

Ключевые слова: *учащийся, исследование, инновация, обучение на основе запросов, независимое мышление, критическое мышление.*

Annotation: *This article examines the importance of research technology in primary education, as well as its educational uses, purposes and results.*

Keywords: *learner, exploration, innovation, inquiry-based learning, independent thinking, critical thinking.*

Boshlang'ich ta'limda tadqiqotga asoslangan o'qitish tarixi 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida ta'lim tadqiqotlarining alohida tadqiqot sohasi sifatida paydo bo'lishidan kelib chiqishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan tadqiqotchilar va o'qituvchilar yosh o'quvchilar uchun eng samarali o'qitish usullari va strategiyalarini tushunish uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazdilar. Boshlang'ich ta'limda tadqiqotga asoslangan o'qitish tarixidagi ba'zi muhim bosqichlarga to'xtalib o'tsak:

20-asr boshlari: 1900-yillarning boshlarida kabi ta'lim psixologlari Edvard Torndayk va Jon Dyui o'rganish nazariyalari va pedagogik yondashuvlar bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Ularning ishi yosh bolalar uchun faol o'rganish, muammolarni hal qilish va amaliy tajribalar muhimligini ta'kidladi.

20-asr o'rtalari: 1950-1960 yillarda Jan Piaget va Lev Vygotskiy kabi tadqiqotchilar bolalarda kognitiv rivojlanishni tushunishga katta hissa qo'shdilar. Ularning nazariyalari iskala, ijtimoiy o'zaro ta'sir va o'yinning erta ta'limdagi rolini ta'kidladi. 1960-yillarda Devid Elkind va Lilian Kats kabi o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlangan "rivojlanishga mos amaliyot" tushunchasi paydo bo'ldi. Ushbu yondashuv yosh o'quvchilarning rivojlanish bosqichi va individual ehtiyojlariga mos keladigan tikuvchilik bo'yicha ko'rsatmalarni ta'kidladi.

20-asr oxiri: 1970-1980 yillarda ta'lim tadqiqotlari samarali o'qitish usullari va o'quv dasturlarini loyihalashni tushunishga qaratilgan. Robert Marzano va Jon Xetti kabi tadqiqotchilar o'quvchilarning bilim olishiga eng katta ta'sir ko'rsatgan o'quv strategiyalarini aniqlash uchun ta'lim tadqiqotlarining meta-tahlillarini o'tkazdilar. 1990-yillarda ta'limda texnologiyaning paydo bo'lishi boshlang'ich sinflarda o'quv dasturlari, multimedia va raqamli resurslardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlarga olib keldi. Ushbu tadqiqot texnologiya o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini va o'quv natijalarini qanday oshirishi mumkinligini o'rganib chiqdi.

21-asr: So'nggi yillarda boshlang'ich ta'limda tadqiqotga asoslangan o'qitish shaxsiylashtirilgan ta'lim, aralash ta'lim va ijtimoiy-emotsional ta'limni o'quv dasturiga qo'shilishi kabi sohalarni qamrab oldi. Tadqiqotchilar texnologiya, ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatmalar va dalillarga asoslangan amaliyotlar yosh o'quvchilar uchun ta'lim natijalarini qanday yaxshilashi mumkinligini o'rganishni davom ettirmoqdalar.

Boshlang'ich ta'limda tadqiqotga asoslangan o'qitish tarixi davomida bolalar qanday qilib eng yaxshi o'rganishlarini tushunishga va samarali o'qitish strategiyalarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Ta'lim tadqiqotlari natijalari boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlari, pedagogik yondashuvlar va o'qituvchilarning malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish to'g'risida ma'lumot berdi. Tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi o'quv tajribasini oshirish va samarali pedagogik amaliyotni targ'ib qilish orqali boshlang'ich ta'limda muhim rol o'ynaydi. Bu erda uning ahamiyatini ta'kidlaydigan ba'zi asosiy jihatlar:

Tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini yaratishga imkon beradi. Adaptiv ta'lim platformalari va ta'lim dasturlari o'quvchilarning qobiliyatlari asosida o'qitish mazmuni va tezligini moslashtirishi, ularning o'quv salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun maqsadli qo'llab-quvvatlash va muammolarni ta'minlashi mumkin. TAOT o'quvchilar uchun shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini osonlashtiradi. Adaptiv ta'lim platformalari va aqlli repetitorlik tizimlari orqali o'quvchilar o'zlarining shaxsiy ehtiyojlari, o'rganish uslublari va taraqqiyotiga qarab moslashtirilgan tarkib va tadbirlarni olishlari mumkin. Ushbu shaxsiy yondashuv o'quvchilarga o'z tezligida o'rganishga va ko'proq qo'llab-quvvatlash yoki qiyinchiliklarga muhtoj bo'lgan sohalarga e'tibor qaratishga yordam beradi.

O'quvchilarni interfaol doskalar, o'quv dasturlari va multimedia resurslari kabi texnologiyalarga asoslangan o'qitish vositalari o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladi. Ushbu vositalar interaktivlik, hamkorlik va amaliy tadqiqotlarni rag'batlantiradi, o'rganishni yanada yoqimli qiladi va tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Interaktiv darslar, kompyuter dasturlari, interaktiv doskalar, interaktiv o'qish qurilmalari va boshqa online vositalar yordamida o'quvchilarga qiziqarli va oson o'rganish imkoniyatini beradi. Ular o'quvchilarning o'zlarini sinash, masalalar yechish va bilimlarini amalga oshirishlari uchun interaktiv vazifalarni bajarishlari mumkin.

Ushbu texnologiya o'quvchilarga an'anaviy sinf sharoitidan tashqari ko'plab axborot va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Onlayn tadqiqot ma'lumotlar bazalari, elektron kitoblar, ta'lim veb-saytlari va virtual simulyatsiyalar o'quvchilarga mustaqil ravishda ma'lumot to'plash va to'plash, tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatmalar asosida esa tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi o'quvchilarning ishlashi va taraqqiyoti to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishga imkon beradi. O'qituvchilar ushbu ma'lumotlardan o'zlarining o'quv qarorlarini xabardor qilish, kuch va takomillashtirish sohalarini aniqlash va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun foydalanishlari mumkin.

Raqamli savodxonlik va 21-asr ko'nikmalari tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim dasturlari, onlayn hamkorlik vositalari va raqamli media yaratish platformalaridan foydalangan holda o'quvchilar texnologiyadan samarali foydalanish, raqamli muloqot qilish va hamkorlik qilish va o'z g'oyalarini ijodiy ifoda etish malakasiga ega bo'ladilar. Tadqiqotchilik asosida o'qitish texnologiyasi ta'limni yaxshilash uchun turli xil vakillik va aloqa usullaridan foydalanadi. U bir nechta formatdagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun videolar, simulyatsiyalar, infografika va interaktiv veb-saytlar kabi multimedia resurslarini o'z ichiga oladi. Ushbu multimodal yondashuv turli xil ta'lim uslublariga mos keladi va o'quvchilarga vizual, eshitish va kinestetik vositalar orqali tushunchalarni tushunishga yordam beradi. TAO'T tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. So'rovga asoslangan faoliyat bilan shug'ullanish orqali o'quvchilar ma'lumotni tahlil qilish, dalillarni baholash, aloqalar o'rnatish va o'z xulosalarini chiqarishga da'vat etiladi. TAO'T gipotezani sinash, ma'lumotlarni tahlil qilish va ijodiy muammolarni hal qilish kabi yuqori darajadagi fikrlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

O'quvchilar birgalikda ishlashlari, fikr almashishlari va mazmunli munozaralarda qatnashishlari mumkin bo'lgan hamkorlikdagi o'quv muhitini osonlashtiradi. Onlayn platformalar, munozarali forumlar va hamkorlikdagi vositalar o'quvchilarga tengdoshlari bilan bevosita o'rganish hamjamiyatida ham, global miqyosda ham hamkorlik qilish imkonini beradi. Ushbu hamkorlikdagi

yondashuv jamoaviy ish, samarali muloqot va turli istiqbollar almashinuvini rivojlantiradi.

TAO'T davom etayotgan baholash va o'z vaqtida teskari qo'llab-quvvatlaydi. Raqamli vositalar va platformalar o'quvchilar ishini zudlik bilan baholashga imkon beradi, ularning o'quv jarayonini boshqarish uchun tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi. O'qituvchilar individual taraqqiyot kuzatib borish mumkin, takomillashtirish uchun maydonlarni aniqlash, va shunga ko'ra ta'lim rostdash. Ushbu shakllantiruvchi baholash yondashuvi o'quvchilarga o'z bilimlarini kuzatishga va kerakli tuzatishlarni kiritishga yordam beradi.

Tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi boshlang'ich sinf o'qituvchilarning malakasini oshirish imkoniyatlarini ham ochib beradi. O'quv dasturlari, seminarlar va onlayn resurslar o'qituvchilarga texnologiyani o'qitish amaliyotiga samarali integratsiya qilish, o'qitish strategiyasini takomillashtirish va o'qitish va o'qishga innovatsion yondashuvlarni ilgari surish uchun bilim va ko'nikmalarni beradi. Internet orqali o'quvchilarga kirish imkoniyatini taqdim etilgan onlayn resurslar va dars materiallari o'quvchilarning o'zlarini o'rganishlari uchun yaxshi manba sifatida ishlatiladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga kirish, ma'lumotlarni izlash va o'rganishning oson yo'lini ta'minlaydi. Multimedia vositalar, video darslar, animatsiyalar, audio qo'llanmalar, grafikalar va boshqa interaktiv elementlarni o'z ichiga olgan dars materiallari yordamida o'quvchilarni qiziqtirish va o'rganishni osonlashtirish uchun ishlatiladi. Ushbu vositalar o'quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv ta'lim muhitini yaratishda foydalaniladi.

Onlayn ta'lim platformalari o'quvchilarning darslarga kirish, vazifalarni topish, o'zlashtirish va o'rganish jarayonini nazorat qilishga imkon beradi. Bu platformalar o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni osonlashtiradi va bilim almashishni o'rganishning interaktiv usullarini taqdim etadi. Boshqa qurilmalar va dasturlar, masalan, plansetlar, smartfonlar, interaktiv ta'lim dasturlari, jadvallar va boshqa yordamchi vositalar orqali o'quvchilarning o'rganish jarayonini osonlashtirish uchun ishlatiladi. Ta'lim jarayonida ota-onalarning ishtiroki va aloqasi boshlang'ich o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida samarali muloqotni osonlashtiradi. Onlayn platformalar, xabar almashish dasturlari va raqamli portfellar o'quvchilarning taraqqiyoti to'g'risida real vaqtda yangilanishlarni ta'minlaydi, ota-onalarga farzandining ta'limida faol ishtirok etishlariga imkon beradi. Uy va maktab o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradi. Shunda, o'quvchilar haqiqiy muammolarni o'rganishlari, tadqiqotlar olib borishlari va mazmunli echimlarni topish uchun tengdoshlari bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Ta'limni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab, TAOT o'quvchilarning tushunchalarini oshiradi va ularni bilimlarni amaliy qo'llashga tayyorlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tadqiqotga asoslangan o'qitish texnologiyasi individual ta'lim, faol ishtirok etish, ma'lumotlarga kirish, hamkorlik, ma'lumotlarga asoslangan o'qitish va raqamli savodxonlik va 21-asr ko'nikmalarini rivojlantirish orqali boshlang'ich ta'limni yaxshilaydi. Bu o'quvchilarga o'zlarining o'quv sayohatlarining faol ishtirokchilari bo'lish

imkoniyatini beradi va ularni tez rivojlanayotgan dunyo muammolariga tayyorlaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga tadqiqotchilikka asoslangan o'qitish texnologiyasini o'rgatish juda muhimdir. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'rganish jarayonini osonlashtirish, ularning qiziqishlarini oshirish va o'zlashtirish, ko'nikmalarni amalga oshirish va bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatini beradi. Quyidagi boshqa o'qitish texnologiyalari bilan boshlang'ich ta'limda foydalanish mumkin:

Boshlang'ich ta'limning tadqiqotchilikka asoslangan o'qitish texnologiyalari o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish, o'zlashtirish va bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'ziga xos o'rganish yo'nalishlarini tanlash, bilim olishni osonlashtirish va ularni qiziqishlari bo'yicha qamrab olishda yordam beradi.

TAO'T o'quvchilarga o'zlarining bevosita o'quv muhitidan tashqari ko'plab resurslar va tajribalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Onlayn kutubxonalar, raqamli arxivlar, ta'lim veb-saytlari va virtual mehmon ma'ruzachilari orqali o'quvchilar keng ko'lamli ma'lumotlar, istiqbollar va ekspert bilimlarini o'rganishlari mumkin. Ushbu kengaytirilgan kirish ularning dunyoqarashini kengaytiradi va umrbod o'rganishga yordam beradi. TAO'T boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning samarali, interaktiv va o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'rganishini ta'minlaydi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'zlashtirishni oshirish, kreativlikni rivojlantirish, maslahat olish va o'zlashtirishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Ular o'quvchilarning ma'lumotlarini samarali shaklda o'zlashtirishlarini, ularning o'zlashtirish jarayonini nazorat qilishlarini va o'quv jarayonini takomillashtirishlarini ta'minlayadi.

Umuman olganda, TAO'T faol o'quvchilarga tanqidiy fikrlash va muammolarni samarali hal qilish imkoniyatini beradi. Bu qiziquvchanlik, hamkorlik va 21-asrning muhim ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan qiziqarli va dinamik o'quv muhitini yaratadi hamda ta'lim tajribasini oshiradi. Tadqiqotchilikka asoslangan o'qitish texnologiyalari (TAO'T) boshlang'ich ta'limda juda muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu imkoniyatlar esa o'quvchilarni ma'lumotlarni oson va samarali o'rganishga yondashadi va ularni o'zlashtirish jarayonini kuchaytiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish shaklidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari guruhlar uchun ishchi-o'quv dasturi. Samarqand, 2023-yil

4. Baxronovna R.M. (2023). Boshlang'ich ta'limda xorijiy metodikalar asosida o'qish savodxonligini oshirish. *Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi*, 408-411. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1196>

5. Raximqulova M. Ta'limga innovatsion yondashuv–o'qitish samaradorligini oshirish omili sifatida // *Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi*. – 2021. – C.118-121.

6. Jamilovna N.D. Boshlang'ich ta'limdagi sinf rahbarlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning roli (malaka oshirish kurslar misolida) // *Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi*. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 124-129.

7. Baxronovna, R. M. (2023). boshlang'ich ta'limda xorijiy metodikalar asosida o'qish savodxonligini oshirish. *Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi*, 408-411. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1196>.

“GEOMETRIK YASASHLAR” MAVZUSINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Ortiqov Aziz Xursonali o'g'li

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chizmachilik darslarida o'quvchilarni kreativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ilg'or pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlard haqida tavsifalar keltirib o'tilgan*

Kalit so'zlar. *Interaktiv, klaster, ijodiy ish, grafik organayzer, sinov, intellectual, debat, sinkveyn texnologiyasi.*

Аннотация: *В данной статье даются рекомендации по передовым педагогическим технологиям и интерактивным методам, развивающим творческие способности учащихся на занятиях рисованием.*

Ключевые слова. *Интерактивная, кластерная, творческая работа, графический органайзер, тестовая, интеллектуальная, дискуссионная, технология синквейн.*

O'qituvchi ta'lim jarayonida interaktiv ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interaktiv metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi. Interaktiv

ta'limni tashkil etishda interaktiv ta'lim texnologiyalari qo'llaniladi. Interaktiv metodlar ana shunday texnologiyalarning eng ommalashgan turi sanaladi. Interaktiv metodlar – ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, o'quvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar sanaladi.

Quyida interaktiv metodlarning ayrimlari xususida to'xtalib o'tiladi. "Chizmachilik" fanini o'qitishda interaktiv metodlardan yana biri "Klaster" grafik organayzeridan ham samarali foydalanilmoqda. "Klaster" (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni o'quvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi: Grafik organayzer yordamida o'quvchi (talaba)lar topshiriq bo'yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:

Interaktiv metodlar – ta'lim jarayonida talabalar va o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, talabalar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar sanaladi.

Nimani o'ylagan bo'lsangiz, uni qog'ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o'ylab o'tirmay, shunchaki yozib boring!

Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang!

Belgilangan vaqt nihoyasiga etmagunicha, yozishdan to'xtamang! Agar ma'lum muddat o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang!

Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguniga qadar davom ettiring!

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikni korsating!

"Ijodiy ish" metodi o'quvchilarni ijodiy faollikka undash orqali ularda o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida mavzu mohiyatini yoritish, yangicha talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodni qo'llash jarayonida talabalarning erkinligi ta'minlanadi, mustaqil fikrlashlari uchun imkoniyat yaratiladi. Ular mavjud bilimlariga tayangan holda o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib beradilar. Yagona talab talabalar mantiqan to'g'ri fikrlay olishlari, shaxsiy mulohazalarini dalillar bilan isbotlay bilishlari lozim. "Test" (ingl. "sinov", "tekshirish") texnologiyasi shaxsning psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyat, ko'nikma va malakalarini tekshirishga xizmat qiladi. Ushbu metod talabalar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

"Debat" (fr. "debattere" so'zidan olingan bo'lib, "debats" – "bahslashmoq") texnologiyasi yig'ilish, majlis yoki mashg'ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan

ishtirokchilar o'rtasida o'zaro bahs uyushtirish, ularning fikr almashishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi: 1) o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bahs yuritilishi zarur bo'lgan muammo tanlanadi; 2) bahslashish uchun ikki nafar talaba, guruh yoki juftliklarning e'tiborlariga tanlangan muammo havola etiladi; 3) talaba, guruh yoki juftliklarning muammo yuzasidan fikrlari tinglanadi; 4) ekspertlarning fikrlari o'rganiladi; 5) debatda bildirilgan fikrlar yuzasidan xulosa chiqariladi; 5) debat yakunlanadi. "Sxema" texnologiyasi o'rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala mohiyatining asosiy xususiyat yoki belgilariga muvofiq sxema, tasvir yoki rasm orqali ifodalashini ta'minlaydi. Texnologiyani qo'llash talabadan masalaga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar o'rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini yodga oladi, eng muhim xususiyat, belgilarni aniqlaydi, ularni umumlashtiradi yoki tarkibiy qismlarga ajratgan holda sxemani yaratadi. Talabalarda fikrlash, ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiluvchi ushbu metod g'oyaning qisqa, aniq ifodalanishi uchun sharoit yaratadi. Ta'lim tarbiya jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish talabalarda mustaqil, ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni asoslash, muammoli vaziyatlar yuzasidan oqilona qarorlarni qabul qilish, kichik guruhlarda o'zaro hamkorlikda ta'lim olish ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umronxo'jaev A., Jumanov Sh., Norqulov A. Mashinasozlik va qurilish chizmachiligi. – Toshkent, 2005.
2. Muhandislik chizmasi va eskiz / Umirzaqov R., Safarov T., Berdiyev A., Saidova D., Yunusov N. va boshq. - Toshkent: «Barkamol fayz media», 2018.
3. Yodgorov J.Y., Sobirov F.R., Yodgorov N.J. Geometrik va proyeksion chizmachilik, - T, –2007.
4. Chizmachilik. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. 2016.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

*Samayev Anvar Kadirovich,
Ikramova Munisa Sheraliyevna
Samarqand VPYMO 'MM o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada PISA halqaro baholash dasturi, uning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati, O'zbekistonda halqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik hamda geografiyada darslarida PISA topshiriqlaridan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Halqaro baholash dasturlari, mantiqiy fikrlash, qaror va loyihalar, mahalliy vaqt, mintaqa vaqti, dunyo vaqti.

Аннотация: В данной статье рассматривается программа международной оценки PISA, ее роль и значение в системе образования, подготовка к программам международной оценки в Узбекистане, а также использование заданий PISA на уроках географии.

Ключевые слова: международные программы оценки, логическое мышление, решения и проекты, местное время, региональное время, мировое время.

Abstract: This article discusses the PISA international assessment program, its role and importance in the education system, preparation for international assessment programs in Uzbekistan, as well as the use of PISA tasks in geography lessons.

Key words: international assessment programs, logical thinking, solutions and projects, local time, regional time, world time.

Bugun mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Ta'lim-tarbiya sohasini modernizatsiyalash, o'quv jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, o'quvchilarni mantiqiy fikirlashga o'rgatish va olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tez suratlarda rivojlanib borayotgan jahon hamjamiyatida yoshlarimizning o'z o'rnini belgilashi uchun xalqaro baholash dasturlari muhimdir. PISA dasturi har 3 yilda o'tkazilib 15-yoshli o'quvchilar bilimi baholanadi. Ushbu dastur o'qish, matematika, tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholaydi. Dastur topshiriqlari o'quvchilarni ma'lumotni qabul qilish, ularni qayta ishlash, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish va eng muhimi mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. O'quvchilarda mantiqiy fikirlash amaliy mashg'ulotlarsiz shakllanmaydi. Geografiya fanida o'quvchilarga mantiqiy fikirlash va olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishi uchun amaliy mashg'ulotlarning o'rni katta.

PISA topshiriqlariga o'tishimizdan oldin biz o'quvchilarga 7-sinf darsligidagi "Vaqt o'lchovi va soat mintaqalari" mavzusini tushuntiramiz. Vaqt o'lchovidan xalqaro miqyosida foydalanishni osonlashtirish maqsadida mahalliy vaqt, mintaq vaqti va dunyo vaqti tushunchalari kiritilgan.

Shimoliy va Janubiy qutbgacha bitta meridianda joylashgan nuqtalarda vaqt bir-xil bo'ladi, yani bitta meridianning hamma joyida vaqt bir xildir. Bu vaqt **mahalliy vaqt** deyiladi. Mahalliy vaqt o'lchovi quyidagicha aniqlanadi. Yerning shakli sharsimon bo'lib uning aylana yuzasi 360^0 ga teng. Yer o'z o'qi atrofida 23

soat 56 minut 4 soniyada to'liq aylanadi va biz uni yaxlitlab 24 soat deymiz. Yerning aylana yuzasini 24 soatga bo'lsak 15 chiqadi. Demak har 15^0 oralig'ida 1 soat farq bo'ladi. Soatdagi farq sharqqa oshib borsa, g'arbga qarab kamayib boradi. Yuqoridagi ma'lumotdan ko'rinib turibdiki meridianlar orasida mahalliy vaqt farqi har bir gradus oralig'ida 4 minut bo'ladi.

Eslab qoling: $15^0 = 1$ soat yoki 60 minut.

$1^0 = 4$ minut.

Butun dunyo davlatlarining xalqaro kelishuviga ko'ra yer yuzasi shartli ravishda 24 soat mintaqasiga bo'lingan ($360:24=15^0$). Mintaqa doirasida shu mintaqaning o'rta qismidan o'tgan meridianning mahalliy vaqti qabul qilingan. Bu soat mintaqasidagi vaqt – **mintaqa vaqti** deb ataladi. Berilgan daraja (gradus), yani meridian yoki uzunlik qiymati orqali soat mintaqasining tartib raqami aniqlanadi. Buning uchun berilgan uzunlik yoki meridian sharqda joylashgan bo'lsa to'g'ridan-to'g'ri 15^0 ga bo'linaveradi, agar g'arbda joylashgan bo'lsa, qiymat avval 360^0 dan ayirib, so'ng 15^0 ga bo'linadi. Mintaqa vaqti quyidagi jadval asosida oson topiladi. Masalan, Toshkent shahri 69^0 sharqiy uzoqlikda joylashgan va u jadval bo'yicha 5-soat mintaqasida joylashgan.

Soat mintaqalari

Soat mintaqalari	Sharqiy Uzunlikda	Soat mintaqalari	G'arbiy uzunlikda
1 soat	$7,5^0-22,5^0$	13 soat	$172,5^0-157,5^0$
2 soat	$22,5^0-37,5^0$	14 soat	$157,5^0-142,5^0$
3 soat	$37,5^0-52,5^0$	15 soat	$142,5^0-127,5^0$
4 soat	$52,5^0-67,5^0$	16 soat	$127,5^0-112,5^0$
5 soat	$67,5^0-82,5^0$	17 soat	$112,5^0-97,5^0$
6 soat	$82,5^0-97,5^0$	18 soat	$97,5^0-82,5^0$
7 soat	$97,5^0-112,5^0$	19 soat	$82,5^0-67,5^0$
8 soat	$112,5^0-127,5^0$	20 soat	$67,5^0-52,5^0$
9 soat	$127,5^0-142,5^0$	21 soat	$52,5^0-37,5^0$
10 soat	$142,5^0-157,5^0$	22 soat	$37,5^0-22,5^0$
11 soat	$157,5^0-172,5^0$	23 soat	$22,5^0-7,5^0$
12 soat	$172,5^0-.....$	24 soat	$7,5^0-7,5^0$

Bosh meridandan 7.5^0 sharqiy va 7.5^0 garbiy uzoqliklar oralig'i XXIV soat mintaqasi yoki – **dunyo vaqti** deb ataladi.

Mavzuga doir PIZA topshiriqlari tuzish.

1-Topshiriq. Toshkent aeroportidan 16^{00} da uchgan samolyot 139^0 shq.u. da joylashgan Tokio aeroportiga soat nechada yerga qo'nishini toping . Samolyotning uchish (parvoz) vaqti 4 soat.

Bunda o'quvchilar jadval orqali Toshkent 5-chi, Tokio 9-chi soat mintaqasida joylashganligini , Tokioda vaqt Toshkentdan 4-soat oldin yurishini bilishi kerak. Shundan so'ng topshiriqni echishadi. Toshkentda 16^{00} bo'lganda Tokioda vaqt 20

⁰⁰ bo'lgan bo'ladi. Tokiodagi vaqtga samolyotning uchish (parvoz) vaqti qo'shiladi: $20^{00} + 4^{00} = 24^{00}$

Yuqoridagi topshiriqga o'xshash misollar o'quvchilarni kreativ va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi № 187-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Samyayev A.Q., Yarashev Q.S., Eshquvvatov B.B. Geografiya fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish metodikasi. Umumta'lim maktablarining geografiya fani o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma. - Samarqand, 2018-yil. 70-bet.
4. Samyayev A.K., Raximov I.N. Geografiya darslarida amaliy mashg'ulotlar va PISA tadqiqotlari. Umumta'lim maktablarining geografiya fani o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma. - Samarqand, 2022 yil. 72-bet.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ ЗАДАНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Нигора Зоҳиджоновна Рузиева
Учитель СамОНЦППНМ

Аннотация. В данной статье рассматриваются задания предназначенные для учеников инклюзивного образования. Предоставлены принципы разработки заданий инклюзивного образования, и показаны несколько примеров заданий инклюзивного образования.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, незрячие ученики, типы заданий, дискуссия, индивидуальный.

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchilarga mo'ljallangan topshiriqlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Topshiriq tayyorlashning asosiy prinsiplari hamda ushbu prinsiplar asosida tayyorlangan topshiriqlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Inklyuziv ta'lim, ko'zi ojiz o'quvchilar, topshiriq turlari, bahsmunozara, individual.

Annotation. In this article we have analyzed some principles of preparing tasks for inclusive education, types of tasks and some examples for inclusive education are given.

Key words. Inclusive education, disabled pupils, types of tasks, discussion, individual.

Инклюзивное образование - это процесс обучения детей с особыми образовательными потребностями (ОВЗ) в общеобразовательных учреждениях вместе со сверстниками без ОВЗ. Для успешной реализации инклюзивного образования необходимо, чтобы задания, которые выполняются детьми, были адаптированы с учетом их индивидуальных потребностей [1,15].

По нашему мнению, принцип инклюзивности также предполагает, что дети с ограниченными возможностями должны жить в семьях и учиться с ровесниками в обычной школе для того, чтобы получить положительное эмоциональное и социальное развитие. Инклюзивная система обучения гарантирует, что ребенок в инвалидном кресле может заниматься в любой ближайшей школе, имеющий трудности в постижении знаний получит специальную помощь, чтобы научиться читать и писать, а ребенку, который перестал посещать школу, будет оказана помощь в возвращении в школу.

А далее представлены несколько принципов разработок заданий для инклюзивного образования.

1. Принципы разработки заданий инклюзивного образования

При разработке заданий инклюзивного образования необходимо учитывать следующие принципы:

- **Доступность:** задания должны быть доступны для всех детей, независимо от их ОВЗ.
- **Удовлетворенность:** задания должны быть интересны и полезны для всех детей.
- **Учебная эффективность:** задания должны способствовать достижению образовательных целей.

2. Типы заданий инклюзивного образования

Задания инклюзивного образования могут быть разделены на следующие типы:

- Задания с открытыми ответами: такие задания позволяют детям проявить свою индивидуальность и творчество.
- Задания с выбором ответа: такие задания подходят для детей с разными уровнями подготовки.
- Задания с практической направленностью: такие задания позволяют детям применить полученные знания на практике.

3. Примеры заданий инклюзивного образования

- Задание с открытым ответом: написать рассказ о своем любимом животном.
- Задание с выбором ответа: выбрать правильный ответ на вопрос о том, какова столица Узбекистана.
- Задание с практической направленностью: приготовить несложное блюдо.

4. Рекомендации по разработке заданий инклюзивного образования

- Учитывайте индивидуальные особенности детей: прежде чем разрабатывать задания, подумайте о том, какие особые образовательные потребности у ваших учеников.

- Используйте различные типы заданий: это позволит вам охватить широкий спектр индивидуальных особенностей детей.

- Обеспечьте обратную связь: дайте детям возможность обсудить свои ответы с учителем или одноклассниками.

Разработка заданий инклюзивного образования - это сложный и трудоемкий процесс. Однако при соблюдении определенных принципов и рекомендаций можно создать задания, которые будут доступны и интересны всем детям.

Задания по говорению для незрячих

Задания по говорению являются важным компонентом инклюзивного образования. Они помогают детям с нарушениями зрения развивать навыки устной речи, которые необходимы для общения и социализации.

При разработке заданий по говорению для незрячих необходимо учитывать следующие особенности:

- Незрячие дети могут иметь ограниченный словарный запас и осведомленность о мире. Поэтому задания должны быть адаптированы с учетом этих особенностей.

- Незрячие дети могут испытывать трудности с восприятием устной речи. Поэтому задания должны быть четко сформулированы и произноситься внятно.

- Незрячие дети могут иметь трудности с пониманием невербальных сигналов. Поэтому задания должны быть адаптированы таким образом, чтобы не требовать от детей понимания невербальных сигналов

Несколько примеров заданий по говорению для незрячих:

Описание: незрячий ребенок описывает предмет, который он чувствует или слышит.

Рассказ: незрячий ребенок рассказывает историю, которую он прочитал или услышал.

Дискуссия: незрячий ребенок участвует в дискуссии на заданную тему.

Презентация: незрячий ребенок представляет информацию аудитории.[2,78].

Далее несколько примеров заданий, которые можно использовать в классе:

1. Опишите, что вы чувствуете, когда держите в руках мяч.
2. Расскажите, как вы представляете себе Париж.
3. Обсудите, что вы думаете о важности инклюзивного образования.
4. Представьте свою любимую книгу.

Эти задания можно адаптировать в соответствии с индивидуальными потребностями учеников. Например, для учеников с ограниченным словарным запасом можно использовать задания, которые требуют

использования простых слов и выражений. Для учеников с трудностями в понимании устной речи можно использовать задания, которые требуют использования письменной речи.

При выполнении заданий по говорению для незрячих важно обеспечить обратную связь. Учитель должен давать детям возможность услышать свои ответы и получить комментарии. Это поможет детям улучшить свои навыки устной речи.

Список использованной литературы

1. Барина, Е. Б. Теория и практика инклюзивного обучения в образовательных организациях : учебное пособие для вузов / Е. Б. Барина. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 97 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-13878-8. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/519666>.
2. Вишнякова, Ю. А. Социальный маркетинг. Инклюзивные формы : учебное пособие для вузов / Ю. А. Вишнякова. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 140 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-12509-2. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/518902>
3. www.ziyonet.uz
4. www.google.com

ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ: ФИНСКАЯ МОДЕЛЬ К УЗБЕКСКОМУ КОНТЕКСТУ

Илясова Фируза Фузулий кизи

*Магистр Ташкентского государственного педагогического
университета имени Низами*

Аннотация: В статье рассматривается концепция физического воспитания в образовательных учреждениях Узбекистана и Финляндии. Особенности содержания программы физического воспитания в учреждениях высшего образования.

Ключевые слова: физическое воспитание, физическое развитие, программа, мероприятия, возраст, высшее образование, исследование, содержание, студенты.

Abstract: The article discusses the concept of physical education in educational institutions of Uzbekistan and Finland. Features of the content of the physical education program in higher education institutions.

Key words: physical education, physical development, program, activities, age, higher education, research, content, students.

В 2000 году результаты сравнительного исследования PISA (Programme for International Student Assessment – Международная программа по оценке

образовательных достижений учащихся) оказались неожиданным сюрпризом для образовательной и научной общественности, в частности, западные экономические центры, такие как США и Германия, продемонстрировали относительно низкие результаты, а небольшая страна Финляндия показала высокие результаты [1]. С этого момента и уже более 20 лет Финляндия сохраняет репутацию мирового лидера в области образования. Финская модель стала привлекательным примером для потенциального заимствования политики качества странами, стремящимися совершенствовать национальные образовательные системы. В статье хотим изучить предмет «Физическое воспитание» в высших учебных заведениях Финляндии и Узбекистана.

В отношении совершенствования самооценки физическому воспитанию в Финляндии принадлежит решающая роль. В высших учебных заведениях Финляндии курс физкультуры обязателен для изучения. Немаловажно, что финские студенты имеют возможность самостоятельно выбрать углублённый курс физкультуры, в рамках которого, в свою очередь, они могут выбрать интересующее их направление. Предмет «физическое воспитание» в вузах Финляндии предполагает освоение теоретической и практической части. В рамках теоретического блока студенты изучают влияние различных факторов, таких как алкоголь, вредная еда, количество и качество сна, физические нагрузки, на физическую форму. Практическая часть практически не отличается от занятий физкультурой в Российских вузах, при этом занятия вызывают зачастую больший интерес за счет индивидуализации подхода к каждому студенту. Занятия по физическому воспитанию нередко проходят на улице, в них присутствуют игровые элементы обучения. В рамках занятий студенты не только отрабатывают положенные упражнения, но ещё и играют в различные нестандартные подвижные игры. Студентам финских вузов предоставляется бесплатный и неограниченный доступ к бассейну и спортивному спортзалу, оснащённому специальным оборудованием и инвентарем. Отдельным категориям студентов, имеющим ограничения по показаниям здоровья, и не имеющим возможность заниматься физической культурой наравне с другими, предлагается курс лечебной физической культуры. В начале учебного года в рамках программы организуются мероприятия с целью ознакомления с физкультурой. Занятия проходят, как правило, 1-2 раза в неделю. Студенты, выбравшие направления, связанные с физическими нагрузками, к примеру, «физическое воспитание», сдают нормативы [2].

В Узбекистане большое значение придается формированию политических, экономических и социальных основ дальнейшего развития физической культуры как мощнейшего фактора развития культуры общества. Воспитание здорового поколения стало одной из основных задач государства при определении молодежной политики. В связи с этим был создан фонд «Соглом авлод учун», в сентябре 2015 года принята новая редакция Закона «О физической культуре и спорте», изданы Указы Президента и

постановления правительства о развитии футбола, тенниса, кураша, бокса и других видов спорта. Особым толчком в развитии физической культуры явилось Постановление Кабинета Министров №271 «О мерах по дальнейшему развитию физической культуры и спорта в Узбекистане», определившее основные параметры развития отрасли [3].

Кроме того, национальная программа по подготовке кадров и система организации массового спорта в непрерывном образовании стали основополагающими факторами в формировании интеллектуальных и физических ресурсов страны. С принятием национальной программы по подготовке кадров организация и проведение регулярных массовых спортивных соревнований с охватом всей учащейся молодежи, приобрели стройную систему, последовательность и преемственность, сущность которой заключается в организации массового спорта, состоящей из 3-х звеньев: 1 звено – игры «Умид нихоллари», (для учащихся общеобразовательных школ); 2 звено – игры «Баркамол авлод» (для молодежи, обучающейся в академических лицеях и колледжах), 3 звено – «Универсиада» (для студентов высших учебных заведений). Все эти звенья являются этапами подготовки к участию в международных соревнованиях различного ранга, чемпионатах мира, Азиатских и Олимпийских играх. Республика Узбекистан может гордиться созданием организованной системы физического воспитания всего населения от дошкольного до пожилого возраста, которая представлена в нормативных тестах «Алпомиш» и «Барчиной» в сочетании с нормативами Единой спортивной классификации и учебными программами в учебных заведениях. Внедрение этих тестов и нормативов в повседневную жизнь народа позволило развернуть активную деятельность во всех звеньях физической культуры и рассматривается как фактор дальнейшего физического развития нации. Наряду с многочисленными физкультурно-спортивными мероприятиями проводятся фестивальные игры «Алпомиш» с участием мужского населения и «Тумарис» с участием женщин [4, с. 260]. Огромным вкладом в развитие физической культуры среди детского населения является Указ Первого Президента Республики Узбекистан от 24 октября 2002 года «О создании фонда развития детского спорта Узбекистана» и создании Попечительского Совета Фонда развития детского спорт

Однако, педагогическое сообщество и родительство в Узбекистана и Финляндии отмечают, как отрицательный аспект тот факт, что количество обязательных уроков недостаточно. Данный вопрос в настоящее время поднимается педагогами-учеными и подлежит особому исследованию. «Вполне вероятно, что при наличии строгих научных данных нынешние усилия по выделению большего количества времени для физического воспитания должны быть более легко оправданы и поддержаны». Недостатком системы физического воспитания также является то, что в дополнительных занятиях задействована, как правило, та часть школьников и

молодежи, которая уже и без того занимается физической культурой и спортом. Этому способствует в значительной степени политика в области образования, ориентированная на воспитание здоровья и здорового образа жизни детей и молодежи посредством вовлечения их в различные формы двигательной активности на протяжении всей жизни.

Список литературы

1. Салиева А.Ж., Токатлыгиль Ю.С., Сомжүрек Б.Ж., Салиева К.А. Практика современного образования в начальных школах Финляндии: скандинавский опыт к казахстанскому контексту // ВЕСТНИК Евразийского национального университета имени Л.Н. Гумилева. № 4(141)/2022. Серия Педагогика. Психология. Социология. стр. 239-240.
2. Гуськов С.И., Дегтярева Е.И. О физическом воспитании дошкольников в зарубежных странах. Режим доступа: <http://sportlib.info/Press/FKVOT/1996N3/p43-49.htm> 2. Sami Yli-Piipari (2014) Physical Education Curriculum Reform in Finland, Quest, 66:4, 468-484, DOI: 10.1080/00336297.2014.948688
3. «Закон Республики Узбекистан о физической культуре и спорте». Ташкент, 2015.
4. Юнусова Ю.М. Теоретические основы физической культуры и спорта. Ташкент: УзГосИФК, 2005. С. 260.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Samatova Maxliyo Samatovna

*Samarqand viloyati Ishtixon tumani 21-maktabning ona tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda pedagog tomonidan yangicha g'oya, metodlarning dars jarayonida qo'llanilishi, o'quvchilarni darsga qiziqtirishda samarali usullar va mashg'ulotlarni qo'llashda zarur tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z: texnologiya, ona tili, izlanish, nutq, adabiyot, "Mozaika", "Aqliy hujum", ko'nikma, rivojlanish.

"Jahon sivilizatsiyasiga dahldor bo'lgan eng zamonaviy ilmlarni egallamay turib, mamlakat taraqqiyotini ta'minlash qiyin".

(Islom Karimov)

Zamon tobora rivojlanib borayotgan bir paytda, axborot texnologiyalari hayotimizning bir bo'lagiga aylanib ulgurmoqda. Hozirgi paytda har qanday axborotning yashin tezligida dunyoning u chekkasidan bu chekkasiga yetib borishi uchun soniyalar yetarli xolos. Bu quvonarli hol, albatta. Ta'lim sohasida pedagog

hodimlarning tajriba almashishi, malaka oshirishi va dars jarayonining ko'rgazmalilik asosida tashkil qilinishida ham texnika muhim ro'l o'ynamoqda. O'qituvchi qanchalik talabchan, izlanuvchi va ijodkor bo'lsa, yosh avlod kelajagiga mustahkam poydevorni qura oladi.

Mamlakat kelajagi, uning go'zal istiqboli saloyihatli yoshlarning ilg'or va innovatsion g'oyalari asosida yuksaladi. Bunaqangi taraqqiy topgan davlat barpo etish uchun esa, bugungi kun juda ham mas'uliyatli va shijoatli pedagog xodimlarimizdan intiluvchan, bilimga chanqoq o'quvchilarni voyaga yetkazishimizni talab qiladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon uchun yosh avlodni munosib ravishda tayyorlab borish, tarbiyalash, zamonaviylik tushunchasi bilan, insoniylik xususiyatlarini chambarchaslikda ular ongiga singdira olish ota-ona bilan bilan teng qatorda o'qituvchilardan ham ko'p mehnat talab qiladi. Izlanish, intilish va xohish bo'lsagina bu kabi vaziyatlar ijobiy tus oladi.

Bugungi kunda respublikamizda joriy qilingan ta'lim tizimini jahon tajribasi asosida, yangicha dastur va metodlar orqali isloh qilish ishlari o'z samarasini bermoqda. Joylarda ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyatini tubdan yaxshilash, ulardagi ta'lim berish jarayonlarining sifatini ikki hissa oshirish va har bitta fanning o'qitish metodikasida yangicha yondashuvlarni joriy qilish bugungi kun talabiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, ijtimoiy fanlar o'qitish metodikasini zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirishdagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadga muvofiqdir.

Umumta'lim maktablari va oliy ta'limda ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ham bugungi kunda yangi texnologiyalar ustida bosh qotirilmoqda. Aksariyat o'quvchilar, eshitganiga qaraganda ko'rganini tezroq eslab qolishadi. Mashg'ulotlar asosida tashkil qilingan darslar ham o'quvchida yuqori ko'nikmani shakllantirishga xizmat qiladi. Mana shu boisdan, dars tashkil qilishda eng so'nggi texnologiyalardan foydalanish afzalroq. Ona tili darslarida "Sinkveyn" metodini so'z turkumlarini o'rgatishda, "Bumerang" metodini o'tilgan mavzularni mustahkamlash, matn ustida ishlashda, "Venn diagrammasi" metodini gap bo'laklarini o'rgatishda, "FSMU" metodini matn va rivoyatlarni tahlil qilishda, "Blits" so'rov metodini yangi mavzuni mustahkamlashda yoki yangi mavzu tushuntirishdan oldin qo'llash samarali natija beradi. Adabiyot darslarida esa, asosan, o'quvchilarni gapirishga, erkin fikrlashga, mustaqil qaror chiqarishga undovchi mashg'ulotlar asosida dars jarayonini olib borish yaxshi natija beradi. "Aqliy hujum", "Baliq skeleti", "Mozaika" kabi metodlar o'quvchilarni zukkolikka, chaqqonlikka va tez fikrlashga undaydi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'proq gapirtirish, rasm asosida gaplar tuzishga o'rgatish, 5-6-sinf o'quvchilariga mustaqil matn tuzdirish, yuqori sinf o'quvchilariga erkin mavzular asosida insholar yozdirish ona tilini o'zlashtirishida yaxshi yordam beradi. O'quvchilarni erkin fikrlash, ravon gapirish, nutqini bexato yetkazib berishga o'rgatishda matn ustida ishlash, diktant, insho va og'zaki nutq muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda, axborot texnologiyalari va internet keng rivojlangan bir davrda yoshlarning mobil telefon, kompyuter kabi texnikalar bilan band bo'lib qolayotganliklari ziddiyatli vaziyatlarning ko'plab yuzaga kelishiga sababchi bo'lib qolmoqda. Bola tarbiyasida ota-onalarning ko'p vaqt ajratmasligi muammoga aylanib, og'ir yuk o'qituvchilar zimmasiga tushib qolyapti. Biz o'zimizdan shunday bir pedagog yaratishimiz lozimki, bizga kelajakda uchrab qolgan o'quvchi buyuk bir shaxsni, ulug' insonni ko'rgan kabi munosabatda bo'lsin. Yosh avlod dunyoga bizning ko'zlarimiz bilan qarashni o'rganar ekan, ularga qanday tasavvur yaratib berish va o'sha tasavvurda yashashga o'rgatish o'zimizga bog'liq. Shijoat va tinimsiz mehnat asosida qilingan har bir ish o'z mevasini, albatta, beradi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 13-yanvar.
2. Kurbanov Sh.Y., Seytxalilov Y.A. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: Sharq. 2020.
3. Zamonaviy axborot texnologiyalari. komphy.info.uz

TARIX FANINI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION PEDAGOGIK USULLARNING O'RNI

Xudoyberdiyev Farxod Zokirovich

Samarqand viloyati Jomboy tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi metodisti

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Maktabgacha va Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturi qabul qilindi. Tarix fanini tadqiq etish va o'qitishda yangi metodologiya kirib keldi. Tarix fanini o'qitishda ta'limi mazmun-mohiyatini zamon ruhida o'quvchilarga yetkazish uchun o'quv-metodik majmua yangilandi.

Kalit so'zi: innovatsiya, metod, usul, metodika bo'yicha o'qitish.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu-o'qituvchi va

o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi. Hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi an'anaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim. O'tmish va tarixiy xotira insoniyat tarixining barcha davrlarida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Bu e'tibor natijasida ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar orqali tarixiy hodisalar, shaxslar va jarayonlar bilan bog'liq ko'plab savollarga javob izlangan. Ushbu jarayon inson o'tmishda nima sodir bo'lganligini yozishni boshlashi bilan va tarixshunoslikni paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Tarix qiziqarli soha sifatida ko'rilgan va odamlarning e'tiborini jalb qilish uchun ishlatilgan. Ayniqsa, tarixiy suhbatlar har bir davrda odamlarning e'tiborini tortuvchi targ'ibot vositasi sifatida foydalanilgan. XIX asrdan boshlab rasmiy ta'lim muassasalariga kirishni boshlagan tarix darslarining mazmuni va maqsadlarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taniqli metodist A.I.Strajev aytganidek: —Tarix o'qitish metodi tarixiy material bo'yicha qilinadigan ana shu mantiqiy amaliyotlardan tashkil topadi. O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir.

A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi: • tarixiy faktlarni o'rganish metodlari; • xronologiyani o'rganish metodlari; • mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari; • asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari; • sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari; • tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari. Ma'lumki, tarix o'qitish va o'rganishni tashkil etish jarayonidan iborat. Metodist A.Strajevning klassifikatsiyasidan ham ko'rinib turibdiki, u faqat o'qituvchining o'quvchilarni o'qitishini ko'zda tutadi, o'quvchilarning o'rganishini tashkil etish va ularning o'rganishiga o'qituvchining rahbarlik qilishini e'tiborga olmaydi.

Metodlar haqidagi nazariyaning metodologi asosini, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish tashkil etadi. Shuningdek, bugungu kunga kelib, tarix fanining maktab kursi, asosan uchta vazifani bajarishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni: - o'quvchilarga tarixiy bilimlarning asoslarini berish, ularning chuqurligi va mustahkamligini ta'minlash; o'quvchilarda tarixni ilmiy tushunishning shakllanishi va milliy tarix, - xorijiy mamlakatlar va xalqlar tarixiga hurmat munosabatida bo'lishni ta'minlashga; - o'quvchilarda tarixiy ong, tarixiy xotira, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va o'quvchilarning bilimlarini mustaqil o'zlashtirish va qo'llashga birinchi navbatda o'rgatishdir. O'quvchilarning tarixiy tafakkuri ularning umumiy dunyoqarashining shakllanishi bilan birgalikda boradi. O'quvchilarning dunyoqarashida tarixiy tafakkurning rivojlanishi uning amaliy faolligini ta'minlaydi. Ya'ni, tarixan

dunyoda mavjud bo'lgan fan-texnika yangiliklarini o'zlashtirishi bilan o'z faoliyatida yangilikka intilish o'zida yaratuvchanlik faoliyatini shakllantiradi. O'quvchi tarix fanidan bilimlar asosini o'zlashtirganda millatimiz va boshqa xalqlarning o'tmish, kecha va bugungi taraqqiyoti to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi.

Tarix fanini o'qitishda metodikaga e'tibor bergan holda har bir odamga etnomilliy, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam berishi lozim. Bu o'quvchini shaxs, fuqaro, inson sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. O'quvchilar O'zbekiston tarixi fanini o'rganish davomida umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirib boradi. Tarix darslari o'quvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazib beruvchi vositagina emas, balki ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanib borishlarini ta'minlovchi kuchli ta'sirga ega bo'lgan omil hamdir. Maktabda tarix fanini o'qitishda zamonaviy konsepsiya tarixni tizimli o'rganishni saqlab qoladi. Lekin tarix uning tamoyillari asosida o'rganiladi. Tarix o'quv fani o'rta maktabda gumanitar fanlarning rivojlanishi uchun metodologik shart-sharoit yaratadi. Tarix fanining ma'lumotlari, tushunchalari, atamaları va tamoyillari boshqa fanlarda ham keng qo'llaniladi, o'z navbatida tarix fanida boshqa fanlardagi tushuncha, atamalardan foydalaniladi. Mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirish sohasidagi ishlar kompleks va tizimli davom ettirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tarixini o'rganishda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rin tutadi: 1. Tarix fanini o'rganishning metodologik asoslarini rivojlantirish. Bunda tarix metodikasi bo'yicha mavjud turli xil ilmiy konsepsiyalarni o'rganish orqali ulardan foydalanish. 2. Tarix fanini organish uchun ishlab chiqilgan yagona konsepsiyani amalga tadbiiq etish. 3. O'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim uchun yaratilayotgan darsliklarni yangi avlodini ishlab chiqishda yagona konsepsiyaga tayanish zarurligi bugungi o'z isbotini topgan. 4. Tarix fanining dolzarb muammolarni o'rganishda turli fanlarning yutuqlari, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda klaster modeli asosidagi samarali hamkorlik faoliyatini tashkil etish. 5. Tarix fanini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarni otkazish va fanning dolzarb muammolarini o'rganish jarayonida erishilgan yutuqlarni monitoringini olib borish va tarix faniga tadbiiq etish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti, 3- maxsus son.-T.: —Sharq, 1999.
2. Tarix o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2005.
3. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov: 2008 5.JI (2020). Tarixni o'qitish metodikasi rivojlanishi tarixidan. Fan va ta'lim.

O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA MASALALAR TANLASH TEXNOLOGIYALARI

Xaydarova Mehriniso Boboqulovna
Surxondaryo viloati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish yo'llari ko'rsatilgan bo'lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Faoliyat, mustaqil fikrlash, tafakkur, texnolog, didaktik o'yinlar, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, modulli ta'lim texnologiyalari.

Аннотация. В этой статье показаны способы использования модульных образовательных технологий при обучении учащихся начальных классов самостоятельному мышлению, подчеркивая важность и преимущества современных педагогических технологий.

Ключевые слова. Активность, самостоятельное мышление, мышление, дидактические игры, педагогические технологии, инновация, модульные образовательные технологии.

Abstract. This article shows how to use modular learning technologies to teach elementary students to think independently, and highlights the importance and benefits of modern pedagogical technologies.

Key words: Activity, independent thinking, thinking, technologies, didactic games, pedagogical technologies, innovation, modular educational technologies.

O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish va ularning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida, qiziqarli masalalarni tanlashga alohida e'tibor berish zarur. Darsga doir tanlanadigan masalalar aniq bir sistemani tashkil qilishligi, o'ziga xos tanlash usuliga va o'qitishning aniq bir maqsadiga qaratilishi zarur. Yechiladigan masalalar sistemasini ishlab chiqish murakkab ishdur. Shuning uchun matematika o'qituvchisi ayrim mavzuga, bobga va butun kursga oid masalalar tanlash ishiga alohida ahamiyat berishi zarur.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, tanlangan masalalar sistemasi ma'lum metodik talablarni qanoatlantirishi kerak:

1. Barcha tanlangan masalalar sistemasining, shuningdek har bir masalaning aniq didaktik maqsadini aniqlash.

2. Murakkablashishning ketma-ketligi.

3. Tanlangan masalalar sistemasi barcha ko'rinishdagi masalalarni (hisoblashga yasashga, isbotlash va tekshirishga oid) o'z tarkibiga olishi kerak. Bu esa bir masalani turli usullar bilan yechishga yordam beradi, yangi masalalar tuzish va ularni yechishga boy material va katta imkoniyatlar beradi.

Masalaning qo'yilishi aniq va real bo'lishi kerak. Tanlangan masalalarni aniq o'zlashtirish natijasida o'quvchi aniq ilmiy bilimga va amaliy malakaga ega bo'lishi kerak.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, agar tanlangan masalalar sistemasi shuningdek, masala quyidagi talablarga javob bersa, bunday holda tanlangan har bir masalalar sistemasi va har bir masala tarbiyaviy-pedagogik yutuqqa ega bo'ladi:

1. Har bir masalada qanday maqsad ko'zda tutilgan?
2. Bu masalaning boshqa masalaga nisbatan zaruriyligi nimada?
3. Nima uchun bu masala tanlangan, masalalar sistemasiga kiritilgan? Bu masalani kiritish bilan qanday tarbiyaviy-pedagogik maqsad ko'zda tutilgan?
4. Bordi-yu, masala o'quvchi uchun qiziqarli bo'lsa, uning javobi va yechish usuli o'quvchini o'ziga jalb qiladimi?
5. Berilgan masalani o'quvchilar mustaqil yecha oladimi? Buning uchun u nimani bilishi, eslashi va qila olishi kerak?
6. Qiynalib qolganda unga o'qituvchi qanday darajada yordam berishi mumkin?
7. Qo'yilgan masalani yechish davomida o'quvchilarning qanday yutuqlarga erishishini istaymiz?
8. Yechiladigan masala o'quvchilarning oldingi va keyingi masala bilan qanday bo'liqligi bor?

O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish maqsadida tanlangan masalalar sistemasini tuzishda ta'limning didaktik tamoyillarini hisobga olish kerak.

Masalalar yechish jarayonida tanlangan masalalar sistemasi o'quvchilar mustaqil fikrlashining effektiv vositasi bo'lishligi uchun matematikani o'qitish va o'rganishning asosiy tushuncha va qonuniyatlariga mos bo'lishligi kerak. Bu tanlashning asosida o'qitish va o'rganishning asosiy tamoyillari yotishi kerak. Bunday tamoyillarning mazmunini geometrik masalalar tuzish uchun to'plangan materialning strukturasi aniqlaydi. Bu yerda masalalarni sistemaga solishni ikkita prinsipi haqida gap boradi. Prinsiplarning biri tavsiya qilinadigan masalalarning murakkabligi doimiy ravishda o'sib borishligi, ikkinchi prinsip esa yangilik, bilishga undash hisoblanadi. Bunday normativ holat alohida olingan masalalar tanlash yo'lini va masalalar tanlash sistemasining butunlayicha xarakterini aniqlab beradi.

Keyingi va oldingi masalalar orasidagi qonuniy bog'lanish ularning ichki sifati birligidan kelib chiqadi. Bu sifatiy birlik har bir to'plam masalalarning qanday maqsad uchun tuzilish strukturasi bilan kelib chiqadi.

O'qitish davomida har bir to'plam masalalarini o'rganish o'quv rejasining ma'lum bir qismini tashkil qiladi. Bunday turkum masalalarni yechib, masala talabini qanoatlantiruvchi javoblar olinadi. O'quvchilarda masalalarni yechib tahlil qilish davomida yana qiziqarli savollar paydo bo'lishi mumkin.

Geometrik masalani yechish jarayonidagi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini

rivojlantiruvchi ishlarni tashkil qilish uchun ijodiy faoliyat jarayonini oldindan belgilab, aniqlaydigan va ushba jarayonning kechishiga olib keluvchi asosiy faktlarni bilish muhimdir. Boshqacha soʻz bilan aytganda oʻquvchilarning shunday sifatini bilish kerakki, bu sifatlarni rivojlantirish bilan oʻquvchilarda shakllangan rivojlanish boʻyicha ulardagi ijodiy mantiqning rivojlanishida erishilgan yutuqlar aniqlanadi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun shunday psixologik elementlarni (komponentlarni) hisobga olish zarurki, qaysiki mustaqil fikrlashning muvaffaqiyatli oʻtishi uchun shart-sharoitni ifodalasin. Bunday imkoniyatlar: boy tasavvur qila olishlik, kuzatuvchanlik, fikrlashning koʻlami, mantiqiy fikrlashning rivojlanganligi, yaxshi xotira va boshqalar.

Masalalar yechishda uddaburonlik bilan xulosalar chiqara olishligi, paydo boʻlgan muammolarni yechishning yoʻllarini topa bilishligi ham zarur. Masalalar yechishda oʻquvchilarda shakllangan bilimdan toʻliq foydalanishga imkoniyat beradigan eng qulay va sodda masalalarni yechishdan ishini boshlash kutilgan natijalarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bunday ishlarni amalga oshirish tanlangan masalalarning mazmuniga ularning turli-tumanligiga, yechish usullariga, qolaversa darsning tashkil qilinishiga ham bogʻliq boʻladi.

Maktabda har bir dars tugallanadigan maqsadni oʻzida mujassamlashtirilgan boʻlishi kerak. Buning uchun geometriya darsi yetarli darajada qoniqarli va muvaffaqiyatli oʻtishligi uchun oʻqituvchi darsning umumiy taʼlim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifasini uni amalga oshirish usullarini aniq tushungan va egallagan boʻlishi kerak. Darsda masalalar yechish jarayonida har bir oʻquvchi uning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga imkon beradigan matematik bilimlar sistemasiga ega boʻlishligi, maxsus va umumiy oʻquv koʻnikma va malakalariga, rivojlanganlik va tarbiyalanganlik darajasiga erishgan boʻlishi kerak.

Darsning har bir maqsadi aniq boʻlib, bilimda aniq bir sifat oʻzgarishni koʻzda tutgan boʻlishi kerak. Oʻquvchida masalalar yechish uchun tegishli koʻnikma va malakalari, mantiqiy va ijodiy fikrlash faoliyati, qolaversa unda ahliqiy tarbiyasi ham tugal shakllangan boʻlishi kerak. Darsning mazmuniga tegishli boʻlgan materiallar esa oʻquvchilarning aniq masalalarni ijodiy qilinishiga, ularning mustaqil fikrlashining rivojlanishiga qaratilgan boʻlishi kerak. Oʻqitish usullari esa oʻqituvchi va oʻquvchilarning birgalikdagi ish faoliyatidan kelib chiqib, oʻquvchilarni bilim olishga maksimal tartibiga qarab tanlanishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oʻquvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish maqsadida tanlangan geometrik masalalar sistemasi asta-sekin murakkabligi oʻsib borish prinsipiga asoslanib tanlangan boʻlib, oʻquvchilarni har tomonlama fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, yangiliklar ochishga qaratilgan boʻlsa, albatta bunday tanlangan masalalar sistemasi oʻquvchilar shaxsining ijodiy shakllanishiga katta taʼsir qiladi, oʻquvchini ijodiy manzilga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

- 1.Oʻzbekiston Respublikasining "Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida"gi OʻRQ-595-son Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. www.lex.uz.
- 2.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm fanni

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyacini tacdiqlash to'g'ricida"gi PF-6097-con Farmoni. www.lex.uz.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312 - sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. www.lex.uz.

4. Djumaev M.I. (2023) Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. *J Mathe & Comp Appli*, 2023. Volume 2(2): 1-5.

5. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori

TARIX TA'LIMINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALIKLARI VA UNING ROLI

S.Sh.Tilabjonova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tarix yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.n., prof. Y.X.G'afforov

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o'qitishda yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali tarix darslarida har xil metodlar, sifatli va samarali uslublar hamda yaratilayotgan imkoniyatlar orqali tarix ta'limini yoshlarga va kelajak avlodga yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanganlikdagi afzaliklar haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'z: tarix, yangi pedagogik texnologiya, interfaol metod, kompyuter, ta'lim, uslub, kadr, axborot texnologiya.

Аннотация: В данной статье представлены мнения и соображения о преимуществах исторического образования для молодежи и будущих поколений с использованием новых и современных педагогических технологий в преподавании истории посредством различных методов, качественных и эффективных методов на уроках истории, а также создаваемых возможностей.

Ключевое слово: история, новые педагогические технологии, интерактивный метод, компьютер, образование, методика, персонал, информационные технологии.

Annotation: this article provides feedback and feedback on the use of new and modern pedagogical technologies in teaching history through the use of various methods, qualitative and effective methods in history lessons and the opportunities created to educate history to young people and the future generation in the use of new pedagogical technologies.

Keyword: history, new pedagogical technology, interactive method, computer, education, style, frame, Information Technology.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, barcha sohalarda o'zgarishlar sodir bo'lib, eng katta e'tiborni yosh avlod va ularning sifatli ta'lim olishga yo'naltirdi. Mustaqillik yillarida davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshirish istiqboli taqdirimizni belgilaydigan va jahon hamjamiyatida o'z o'rnimiz bo'lishini ta'minlaydigan jarayoniga aylandi.

Ya'ni, Vatanimiz kelajagining ustuni bo'lgan yosh avlod ongida milliy g'oya tafakkuri, vatanparvarlik va insonparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar, ayniqsa tarix fanining o'rnini va roli beqiyos bo'lib, uni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish va ilg'or metodikalardan foydalanish, alohida bir muhim ahamiyatga egadir. Tarix darslarida yoshlarni dunyoviy, diniy va zamonaviy ilmlardan boxabar bo'lishini o'rganganlarini chuqur tahlil etish va hayotga tatbiq etish, fidokorlik, fidoiylilik xislatlarini shakllantirib borish lozim. Tarix xotirasi, xalqning jonajon o'lkani, davlatning xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi [1, 36-b]. Shuni ta'kidlash joizki, tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda desak hech xato bo'lamaydi. Shu sababli ham tarix fanini samarali va ilg'or metodlar orqali o'rgatish yosh avlodga milliy g'oyani singdirish va ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, hozirgi zamon tarqqiyotining asosiy tendentsiyalari va ziddiyatlari mohiyatini to'g'ri tushunishiga tayyorlashning muhim vositasidir.

Tarix ta'limi tizimi sohasiga tashqi tomondan doimo bo'lib turadigan o'zgarishlar amaldagi ta'lim tizimi oldiga fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish madaniyat va kundalik pedagogik amaliyot talabalarning ko'nikuvi muammolarini uzluksiz ravishda ko'ndalang qo'ymoqda. Shu sabab bilan tarix ta'limi tizimida tarix fanining tadqiqot jarayoni samaradorligini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni zamonaviy o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqarish, ta'lim mazmunini shakllantirish va uzluksiz ta'lim bo'g'inlariga moslab davlat standartlari tuzib chiqishga kirishilgan va u har fan xususiyatidan kelib chiqib amalga oshirilmoqda [2, 210-b].

Mamlakatimizdagi ta'lim tuzilishi va mohiyati, kadrlar tayyorlash isloh qilish tarix fani oldiga ham aniq vazifalarni qo'ydi. Bunday vzaifalar qatoridagi Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi muvaffaqiyatlar istiqbollarini hisobga olgan holda tarbiyalash va ta'lim berishning maqsad, mohiyat, usul, vosita va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash bilan bog'liq muammolarning barcha majmuasi kiradi.

O'zbekiston jadallik bilan rivojlanayotgan davlat qatoriga kiradi. Hozirda davlatimizda yoshlarda ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda, xususan davlatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 8-sentyabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining bo'lib o'tgan qo'shma majlisida so'zlagan nutqlarida "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni-saqlash, madaniyat va

san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallanishi ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi" – deya ta'kidlagan edilar [3, 16-b].

Yurtboshimizning bu nutqlaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki davlatimiz yanda tezkor shiddat bilan rivojlanishi uchun birinchi o'rinda ta'lim-tarbiya sohasiga va yoshlarga katta e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi. Shundan so'ng ta'lim va boshqa sohalarda bir qator qonunlar qabul qilindi. Ayniqsa Ta'lim to'g'risidagi va kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p karra takrorlanadi. Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta'lim metodlaridan nimasi bilan farq qiladi?

"Pedagogik texnologiya — bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir". Aslini olganda pedagogik texnologiya bu o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha (inovatsiya) yondashuvdir.

Tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiya masalalari, muammolari o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llash zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qitish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchi talabanning natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quv o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi [4, 118-119-b].

Tarix ta'limi tizimida har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor bo'lib, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon hamda u o'qituvchi-talabalarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Biz hozirgi zamon tarix darslariga bo'lgan talablar hamda yangi pedagogik texnologiyalar xususida gap borar ekan, albatta ularni noan'anaviy va muammoli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilish, darslarni atroflicha tahlil etish, ularni tarix muzeylarida, tabiat qo'ynida va taniqli olimu-fuzalolar bilan tashkil etiladigan hamda samarali usullar bilan olib borish talab etiladi.

Tarix darslarini samarasini oshirishda va tarixni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali bu fanni mukammal va puxta o'rganishimiz aniq. Umuman olgand, bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rnatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi hamda shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari — interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoyat kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi [2, 211-b].

Tarix ta'limining yangi mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning afzalliklaridan to'liq foydalanishga yordam beradigan usul va vositalarni ilmiy jihatdan asoslab berish kun tartibiga qo'yildi. Metodist (uslubchi)lar ta'lim usul va vositalarini tanlashda o'qitishning maqsadi, mazmuni va o'quvchilarning o'rganish faoliyatini asos qilib olishni taklif etadilar, ilmiy tadqiqot ishlarining ko'pchilik qismi ham shu yo'nalishda olib borildi. P.S.Leybengrub o'zining "O'rta maktablarda tarix darslariga didaktik talablar" nomli kitobida tarix ta'limi usullari tasnifiga o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati xususiyatlarini, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning tarixiy haqiqatni bilib olishga yordam beradigan vositalar (manbayi)ni asos qilib olishni tavsiya qildi va o'qitish usullarini quyidagi guruhlariga bo'ldi: 1.Hikoya usuli. 2. Maktab ma'ruzasi. 3. Suhbat usuli. 4. Ko'rgazmali uslub. 5. Darsliklar bilan ishlash uslubi va boshqalar.

P.S.Leybengrub o'qitish uslublari haqidagi o'z fikrini keyinchalik rivojlantirib, 1968-yilda Kiyevda ukrain tilida nashr qilingan "Tarix darsi didaktikasi" nomli kitobida o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish darajasi ta'lim uslublari tasnifiga asos qilib olinishi kerak, degan fikrni olg'a surdi [5, 114-115-b].

Tarix fanlarini o'qitishning rivojlantiruvchi vazifasi o'quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohasini rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'quv jarayonida o'quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, ob'ektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat, maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

Tarix fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning o'rnini beqiyosdir. Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kun zamon talabi sifatli kadrlar tayyorlash va ular kelajak yosh avloga hamda davlatimiz ravnaqiga xissa qo'shishlari uchun birinchi o'rinda tarix ta'limini rivojlantirib uni sifatli va samarali o'qitilishini ta'minlashimiz kerak. Chunki tarixni bilmay turib komil bir fikrlovchi shaxs bo'lishning iloji yo'q. Hatto birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ham "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida tarix fani qanchalik insonning ma'naviy jihatdan yetuk, teran fikrlovchi bo'lishida tarixiy xotiralar va voqealarning hissasi katta ekanligini ta'kidlagan. Tarix darslarini o'quvchi yoshlarga shunday qat'iy tushunchani mustahkam shakllantirmog'i kerakki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XV sessiyasida alohida qayd etilganidek "Kelajak o'z-o'zidan kelmaydi. U bugungi kunda mashaqqatli mehnat bilan yaratiladi. Bugun yaratgan narsamiz kelajakka ham o'tadi. Agar bugun shoshilib nimanidir unutsak, kelajak avlodlar o'sha narsadan mahrum bo'ladilar. Jamiyat madaniyatsiz, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Ularni pisand qilmagn jamiyat pirovard-oqibatda tanazzulga yuz tutadi" degan fikrlariga e'tibor berishimiz lozim. Shu sababli ham tarixni o'qitishda yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerakligiga ko'p urg'u berilmoqda. Bu pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida va darslarni samaradorligini oshirishida qo'llanilsa, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfiylik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'afforov Ya.X., Abduraxmonova J.N., Toshtemirova S.A. Mutaxassislik fanlarini kasbga yo'naltirish metodikasi. – Toshkent: "MALIK PRINT CO", 2021, B.36.
2. G'afforov Ya.X. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: TURON-IBOL, 2022, B.210.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. – T: O'zbekiston, 2019, 1-jild, 16-bet.
4. G'afforov Ya.X. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. – Toshkent: Shafolat nur fayz, 2021, 118-119-betlar.
5. Лейбенгруб П.С. Дидактические требования к уроку истории в средней школе. – М., 1980. стр.114-115.

РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ НА УРОКАХ

Рахманова Райхон Эркиновна

Преподаватель школы №2 Пастдаргомского района Самаркандской области

Аннотация: в статье рассматриваются проблемы формирования грамотного чтения где система заданий способствует формированию читательской грамотности младших школьников, что является базой функциональной грамотности.

Ключевые слова: читательская грамотность, культура чтения, младший школьный возраст, исследования PISA.

Перед школой стоит сложная задача – формирование у каждого школьника желания, умения и устойчивой привычки выбирать и читать книги, то есть формирование школьника-читателя.

Идея формирования младшего школьника как читателя развивается в Федеральном государственном стандарте начального общего образования, согласно которому «приоритетной целью обучения литературному чтению в начальной школе является формирование необходимого уровня читательской компетентности младшего школьника, осознание себя как грамотного читателя, способного к использованию читательской деятельности как средства самообразования».

Проблема формирования младшего школьника как читателя была поставлена в 60-е годы XX века в работах Н.Н.Светловской. В наше время проблемой формирования читательской компетентности младших школьников занимаются Е.Л.Гончарова, Н.Н.Сметанникова, Т.А.Чабанова и другие.

Наиболее общее определение читательской компетентности дает Н.Н.Сметанникова. По ее мнению, «читательская компетентность – это качество сохранения прочитанного, сформированное на основе общей культуры человека, обеспечивающее возможность решения возникающих учебно-академических, социальных и профессиональных задач адекватно ситуациям в широком социальном взаимодействии и образовательно-профессиональной деятельности» [3]. Е.Л.Гончарова рассматривает читательскую компетентность как психологическую систему. Она считает, что все компоненты этой системы подчинены ее главной функции: превращению содержания текста в личный, смысловой, познавательный и творческий опыт читателя. Определение читательской компетентности Т.А.Чабановой включает в себя перечень качеств личности младшего школьника, которые формируются в процессе самостоятельного детского чтения. В свое время они были названы Н.Н.Светловской в ее определении читательской самостоятельности.

«Читательская самостоятельность – это личностное свойство, позволяющее читателю при первой необходимости привычно обращаться в мир книг за недостающим ему опытом и с минимальными затратами времени и сил находить в этом мире и «присваивать» на максимально доступном ему уровне нужный опыт или устанавливать, что интересующий его опыт пока в книгах не описан» [2].

Объективными показателями читательской самостоятельности являются устойчивая потребность и способность читать книги по осознанному выбору, применяя все знания, умения, навыки, которыми читатель располагает к моменту чтения. Мы считаем, что помимо названных признаков читательской компетентности не менее важными следует считать эстетическое отношение к действительности, отражённой в художественной литературе и сформированность нравственных ценностей и эстетического вкуса младшего школьника, понимание духовной сущности произведений.

Таким образом, обобщая все выше сказанное, назовем компоненты читательской компетентности, которые были выделены в результате сравнения исследований разных авторов и др.:

1. Владение техникой чтения (когнитивный аспект);
2. Владение приёмами понимания прочитанного и прослушанного произведения (когнитивный аспект);
3. Знание книг и умение их самостоятельно выбирать (когнитивный и мотивационный аспект);
4. Эстетическое отношение к действительности, отражённой в художественной литературе (ценностно-смысловой аспект);
5. Сформированность нравственных ценностей и эстетического вкуса, понимание духовной сущности произведений (ценностно-смысловой аспект).

Читательская грамотность сегодня рассматривается как один из самых важных параметров готовности к жизни в современном обществе. Успешное обучение в начальной и основной школе невозможно без сформированности у обучающихся читательской грамотности. Несмотря на то, что вопросам обучения чтению в образовании всегда придавалось большое значение, задача развития читательской грамотности является новой областью для современной школы.

Формирование грамотного читателя, умеющего читать и анализировать большой объем информации, является мировой проблемой. Проведенные исследования PISA (международное сравнительное исследование образовательных достижений) подтвердили это экспериментально.

Основы функциональной грамотности закладываются в начальной школе, где идет интенсивное обучение различным видам речевой деятельности - письму и чтению, говорению и слушанию. Одним из главных путей формирования функционально-грамотной личности, является введение детей через литературу в мир человеческих отношений, нравственных ценностей. В этом возрасте основной является коммуникативная сфера

развития личности ребенка. Ему жизненно необходимо позитивное общение со стороны окружающих.

В связи с этим становится актуальным коммуникативно-деятельностный подход, предполагающий такую организацию учебного процесса, в которой на первый план выдвигается деятельностное общение учащихся с учителем и между собой, учебное сотрудничество всех участников урока..

Чтение как предмет и как средство обучения существует в начальных классах параллельно. Ученик младшего школьного возраста играет две роли: собственно, читателя, мотивированного личным интересом, и читающего ученика - в процессе выполнения учебного задания, когда чтение выступает средством его реализации. Научить пользоваться чтением как средством обучения — важная задача, ибо работа с учебными материалами требует не только владения технической стороной навыка чтения, но и содержательной, т.е. понимания разных по форме, структуре и логике текстов.

Усилия учителей начальных классов должны быть направлены не только на формирование навыка чтения как необходимого условия полноценной читательской деятельности, но и на формирование и развитие читательских умений младшего школьника. Именно читательские умения обеспечат младшему школьнику возможность самостоятельно приобретать новые знания, а в дальнейшем создадут основу для самообучения и самообразования на последующих ступенях обучения.

Культура чтения, умение извлекать максимум информации из прочитанного - главные факторы, определяющие успешность развития личности в целом и являющиеся составляющей развития читательской грамотности.

На разнообразных ступенях обучения дублируются умения и навыки, без которых на сегодняшний день невозможно справляться с решением жизненно важных задач:

осознанно читать и воспринимать на слух, а также продуцировать тексты разнообразных типов (информационного и прикладного характера, литературные тексты), уметь извлекать информацию из разнообразных источников;

учиться находить и критически оценивать информацию из СМИ и Интернета, уметь пользоваться источниками и ссылаться на них;

осуществлять разнообразные стратегии чтения при деятельности с текстом.

Если систематически и целенаправленно применять методические приемы в работе над развитием чтения, то это будет содействовать развитию читательской самостоятельности школьников. Еще совсем недавно ценность книги и чтения была неопровержима. Таким образом, для формирования читательской грамотности и воспитания гармонично-нравственной личности необходимо использовать самые передовые технологии, опираясь на

литературный источник, с применением различных форм урочной и внеурочной деятельности.

Список литературы:

1. Савенков, А.И. Методика исследовательского обучения младших школьников/ А.И. Савенков. - Самара: Издательство «Учебная литература», 2007. - 208 с.
2. Светловская Н.Н. Обучение чтению и законы формирования читателя // Начальная школа. – 2003. – № 1. – С. 11-18.
3. Сметанникова Н.Н. Чтение и грамотность: Размышления в контексте Национальной программы поддержки и развития чтения / сост. Е.И. Кузьмин.

MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM YONDASHUVINING AHAMIYATI

Kadirov Tulkin Baxridinovich

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Yangiboyeva Moxigul Kulmuxammad qizi

*Samarqand viloyati, Samarqand tumani 49-umumiy o'rta ta'lim maktabi
matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvining ahamiyatli jixatlari o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari va ularning tashkil etuvchilari tadqiq qilingan bo'lib, innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalar, ularning o'ziga xos g'oya va strategiyalari o'rganib chiqilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, noan'anaviy, innovatsiya, yondashuv, hamkorlik, dars.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish jahon ta'lim standartlari darajasida bilim berish hamda ta'lim innovatsiyalarini joriy etish orqali har tomonlama yetuk ijodkor manaviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalangan, o'z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan har bir fan o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tubdan o'zgartirishi lozim. Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o'qituvchisi o'zining mutaxassisligini, chuqur o'zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallagan, ta'lim tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta'lim

jarayoniga qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi bilan birga innovatsion faoliyat egasi bo'lishi lozim. Har bir dars o'qituvchidan o'ziga xos innovatsiyalarni, ya'ni ijodiy yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqola darslarni shunday talablar asosida tashkil etishda yordam beradigan noan'anaviy ta'lim yondashuvlariga bag'ishlangan.

Agar biror tizimni yangilashga qaratilgan faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u "novatsiya" (yangilanish) deb yuritiladi. Bordiyu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u "innovatsiya" (yangilik kiritish) deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda innovatsiya deb, muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatga aytiladi. Ta'lim oluvchida yangi g'oya, meyor qoidalarini yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni, meyor, qoidalarini tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limga innovatsion ta'lim deyiladi. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalar yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardan iborat deb aytish mumkin. Ayni paytda o'qituvchi har bir darsning muallifi hisoblanadi. Chunki o'qituvchi ushbu darsni tayyorlashda ilg'or o'qituvchilar tajribasiga tayanadi, uslubiy qo'llanmalarni o'rganadi va hokazo. Matematika darsida o'quv tarbiya jarayonining barcha elementlari o'zaro uyg'unlikda bo'ladi. Bular maqsad va mazmun, vositalar, metodlar, ta'limni tashkil qilish shakllari bilan uzviy bog'liq. Noan'anaviy ta'limda 4 komponent uzviylikda amalga oshiriladi. Bular maqsad, mazmun, faoliyat va natija. Demak hozirgi zamon matematika darsining asosiy belgilari quyidagilardan iborat: darsning dastur talabiga mosligi, har bir dars maqsadlarining aniq rejalashtirilishi, o'quvchilarni sinfda toliqtirmasdan faol ishlashlarini taminlash, o'quvchilarning fanga va bilimlarni egallash jarayoniga bo'lgan qiziqishiga etibor qaratish va hokazo.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, matematika fanini o'qitishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari. Pedagogik va psixologik hamda fanlarni o'qitish metodikalariga bag'ishlangan ko'plab o'quvchining individual xususiyatlarini ochib berishga, uning qobiliyatlarini rivojlantirish, qiziqishlarini etiborga olgan holda shaxs sifatida shakllanishiga yordam beruvchi yakka tartibda olib boriladigan ta'lim shaklini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb qaraladi. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarni ko'zda tutadi. Bu esa ta'lim loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishini nazarda tutadi.

Ta'lim tarbiya jarayonida qo'llaniladigan barcha usullar shaxsga qaratilganini etirof etgan holda alohida olingan o'quvchiga ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir etish usulini ham shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usuli deb ataymiz. Ananaviy ta'lim asosini tushuntirish tashkil etib, bu tushunchalar farqi quyidagicha sharhlanadi: tushuntirish - bitta subekt, monolog; anglash - ikkita subekt bir-birini tushunishi, hamkorlik dialogdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tushuntirishdan anglashga, monologdan dialogga, ijtimoiy nazoratdan rivojlanishga, boshqarishdan o'z-o'zini boshqarishga o'tish tashkil etadi. Pedagog fanini o'quvchilar bilishiga emas, ularning hamkorlik qilishiga, ijodkorlik xususiyatlarini namoyon qilishiga erishishi kerak. O'quvchini pedagogik qo'llab quvvatlash o'qituvchining asosiy vazifasi bo'lishi kerak. O'quvchining qo'yilgan masala ustida ijodiy izlanish, masalani tadqiq etishga tajribasi, imkoniyatlari, salohiyati yetarli emas. O'qituvchining maslahati va yordamiga muhtoj. O'qituvchining qo'llab quvvatlashi, taniqli pedagog olim va amaliyotchi Shalva Aleksandrovich Amonashvili takidlashicha quyidagi tamoyillarga asoslanadi: bolani sevish, bola yashayotgan muhitni odamiylashtirish, o'z bolaligini bolada ko'rish. Xorijiy psixologik tadqiqotlar pedagogning vazifasi "bola shaxsini shakllantirishda, rivojlantirishda"- deb takidlaydi. O'qituvchi sinfda o'quvchining individual rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhitni yaratish uchun quyidagilarga amal qilishi kerak: o'quv jarayoni javomida o'quvchilarga to'la ishonchni namoyon qilish, har bir o'quvchi va sinf oldida turgan maqsad va vazifalarni aniqlashtirish va ifoda qilishda ko'maklashish, o'quvchilarga ichki rag'bat (motiv) mavjudligiga asoslanishi, har bir o'quvchi uchun o'qituvchi turli-tuman tajribalarga ega, zarur bo'lganda doimo murojaat etishi mumkin bo'lgan manba bo'lishi, o'qituvchi o'quvchilar guruhi ruhiyatini sezishi va uni qabul qilishi, guruhdagi o'zaro muloqotning faol ishitirokchisi bo'lishi, o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda etishi, har bir o'quvchi his-tuyg'ular va kechinmalarini tushunishga erishishi, o'z-o'zini va o'z imkoniyatlarini yaxshi bilishi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etuvchi o'qituvchi bolaga, madaniyat va ijodga qadr qiymatli munosabatda bo'lish, insoniy pedagogik munosabatni namoyon qilish, bolaning ruhiy va jismonan sog'ligini saqlashi, o'quv-rivojlantiruvchi va madaniy-axborot muhitini yaratishi va muntazam boyitishi, ta'lim mazmunini o'quvchi shaxsini shakllantirishga qarata takomillashtirishi, o'quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli-tuman pedagogik texnologiyalarni egallashi, har bir o'quvchining o'ziga xos tomonlarini qo'llab-quvvatlashi va rivojlantirishi kabi talablarga javob berishi kerak. Ana shundagina bu yondashuvning natijasi samarali bo'lishi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi (Umumiy masalalar). – Toshkent: Abu Matbuot Konsalt, 2015. – 280 b.
2. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi.- Toshkent-2011.-303 b.
3. Yunusova D.I. Ta'lim texnologiyalari asosida matematik ta'limni tashkil etish. T., "Universitet", 2005.- 131 b.

INGLIZ TILINI O'QITISHDAGI ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

Akbarova Durdona

Qo'shrobot tuman 37-umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va uni o'rganishda foydalaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan bir nechtasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Til, ingliz tili, AKT, ta'lim texnologiyalari, loyiha, qiziqish, faollik, interaktiv metodlar.

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые из современных образовательных технологий, используемых при изучении языка.

Ключевые слова: английский язык, ИКТ, образовательные технологии, проект, интерес, активность, интерактивные методы.

Annotation. In this article we have analyzed modern interactive technologies in teaching and learning foreign language.

Key words. English language, ICT, educational technologies, project, activity, interactive methods.

Til asosiy aloqa vositasidir, usiz inson jamiyatining borligi va rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda bizning dunyomizda ijtimoiy munosabatlarda katta o'zgarishlar bo'layotgan bir pallada aloqa axborot vositalari (axborot texnologiyalari) o'quvchilarning kommunikativ malakasini oshirishni talab qiladi, ular muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro muloqot qilish jarayonida turli vaziyatlarda fikrlarni almashishi, til va so'zlashuv normalarini to'g'ri ishlatishi taqazo etadi.

Bunday sharoitda, xorijiy tilning asosiy maqsadi kommunikativ qobiliyatni shakllantirishdir, ya'ni chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishni talab etiladi.

Maktab ta'limining ushbu bosqichida pedagogik jarayonning deyarli barcha qirralarini qamrab oladigan muhim o'zgarishlar mavjud. Ular ta'lim jarayoniga muayyan maqsadlar va vazifalarni qo'ydi.

Asosiy vazifalaridan biri, bu zamonaviy o'qitish va ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish orqali o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishdir. Har qanday yangi texnologiyalarni qo'llash bilan o'qituvchining yangi pedagogik g'oyalari boshlanadi: tizimli, metodologik tilning ravshanligi, o'quv uslubiyatida aniq taktika paydo bo'lishi.

O'quv jarayonining eng muhim vazifasi — o'quvchining shaxsiy qiziqishi. Rejalashtirilgan natijalarni olish uchun ta'lim jarayonida qaysi texnologiyalardan foydalanishi kerakligini bilish kerak. Ko'rinib turibdiki, har qanday aniq ta'lim texnologiyasidan foydalanish qanchalik mukammal bo'lmasin, o'quvchilarning

malakalarini aniqlash va rivojlantirish uchun eng samarali shart-sharoitlarni yaratmaydi.

Pedagogik (ta'lim) texnologiyasi — o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va o'tkazish uchun o'quvchilar va o'qituvchilar uchun qulay muhit bilan birgalikda o'quv-pedagogik faoliyatning yaxshi o'ylangan modeliga aytiladi. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonining to'liq nazorat qilinadigan g'oyasini amalga oshirishni o'z ichiga oladi [1]. Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga quyidagilar kiradi:

- rivojlanish;
- muammolarni o'rganish;
- ko'p bosqichli ta'lim;
- kollektiv ta'lim tizimi;
- ixtirochilik muammolarini texnologik o'rganish;
- o'qitishda tadqiqot usullari;
- loyihani o'qitish usullari;

O'yin uslublarini o'rgatishda foydalanish texnologiyasi:

- rol o'ynash, biznes va boshqa ta'lim o'yinlar turlari;
- hamkorlikda ta'lim (jamoat, guruh ishi);
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;

Dizayn va interfaol o'qitish usullari haqida aloxida to'xtalganda, ularning kombinatsiyasi va integratsiyalashuvi ingliz tilini o'qitish jarayonida eng samarali va unumli vositalardan biri deb hisoblanadi.

Ulardan biri bu liyoha usuli. Loyiha usuli bolani faol mustaqil fikrlashni rivojlantirish va uni nafaqat bilimlarni yodlash va takror ishlab chiqarishga o'rgatish, balki uni amalda qo'llash uchun mo'ljallangan. Loyiha ustida ish olib borishda bolalar hamkorlik qilishni o'rgatishlari muhim, va hamkorlikda ta'lim berish o'zaro yordam, xohish va qobiliyatni kuchaytirishga ko'maklashadi, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va faoliyati shakllantiriladi. Loyiha usuli o'quvchilarning mustaqil harakatlari natijasida ushbu natijalarni majburiy taqdim etilishi natijasida muayyan muammolarni hal qilish imkonini beradigan ta'lim va bilim texnikasi to'plamidir. Loyiha usuli o'quvchilar mustaqil alohida-alohida yoki guruhda o'zingizni ifoda etishga, qobiliyatini sinashga, o'qituvchi o'z bilimlarini amalda qo'llashga, jamoatchilik tomonidan erishilgan natijalarni ko'rsatishga imkonini beruvchi faoliyatdir. Ushbu metod o'quvchilarning o'zlari tomonidan yaratilgan qiziqarli masalalarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Masalan davraga "Bugun men nima uchun darsga kech qoldim?" ya'ni "Why am I late for class today?" savoli tashlanadi. Shu tariqa o'quvchilar o'z bilimini chet tili orqali ifoda etishga harakat qilishadi, hamda boshqa o'quvchilarga o'zining arzimasi sabablarini ko'rsatib, boshqa bu holni takrorlashmaydi.

Pedagogik texnologiya sifatida loyihalash usuli tadqiqot, izlanishlar, muammoli usullarning kombinatsiyasini o'z ichiga olgan texnologiyadir. O'quvchilar uchun loyiha o'zlarining ijodiy salohiyatlarini maksimal darajaga ko'tarish uchun imkoniyat bo'lib, printsiptial jihatdan muammoni hal qilish uchun

o'quvchilar aniq ijodiy, intellektual va kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Shuning uchun loyiha usulidan to'g'ri foydalanish uchun integratsiyalashgan ta'lim tizimida amalga oshiriladigan katta tayyorgarlik talab qilinadi.

Faol yoki interaktiv metodlar kognitiv faollikni va o'quvchi avtonomligini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Interaktiv usullar barcha o'quvchilar bir-birlari bilan faol muloqot qiladigan qulay o'quv muhitini tashkil qilishga yo'naltirilgan. Interaktiv ta'limni tashkil qilish hayot sharoitlarini modellashtirishni, rol o'ynash o'yinlaridan foydalanishni, vazifa va vaziyatlarni tahlil qilish asosida axborotlarni umumiy yechimini, axborot oqimlarini aqlga kiritishni o'z ichiga oladi, bu uning faol faoliyatini keltirib chiqaradi. Interaktiv yondashuvlarning ajralmas qismi o'quvchilar tomonidan bajariladigan interaktiv mashqlar va vazifalardir. Interaktiv mashqlar va odatiy ishlardagi asosiy farqlar, ular nafaqat o'rganilgan materialni birlashtirishga, balki yangi narsalarni o'rganishga ham qaratilgan.

Zamonaviy pedagogika ko'plab interaktiv yondashuvlarga boy bo'lib, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- ijod vazifalari
- kichik guruhlarda ishlash
- tarbiyaviy o'yinlar (rol ijro etish, taqlid qilish, biznes o'yinlar va ta'limiy o'yinlar)
- davlat resurslaridan foydalanish (mutaxassislarni taklif qilish, ekskursiyalar)
- ijtimoiy loyihalar (ijtimoiy loyihalar, tanlovlar, radio va gazetalar, filmlar, namoyishlar, ko'rgazmalar, ijrolar, qo'shiqlar va ertaklar)
- yangi materiallarni o'rganish va mustahkamlash (interfaol ma'ruza, ko'rgazmali qo'llanmalar, video va audio materiallar bilan ishlash, «o'qituvchi sifatida talaba», «barchani hamma o'rgatadi».
- murakkab va munozarali savollar va muammolar muhokamasi.

Interaktiv ta'lim usuli bilan o'quvchilar o'quv muhitida bevosita muloqot qilishadi, bu esa o'z navbatida tajriba manbai bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik usullarni tushunishda o'zaro munosabatlar o'quvchilarni va o'qituvchilarni o'qitishni tashkil etganda, ularni tayyorlash nazarda tutadi.

O'quvchi-tinglovchi, kuzatuvchi sifatida ishlamaydi, lekin darsda faol ishtirok etadi. O'quv jarayonini tashkil etishning bunday shakli bilan nafaqat maktab bali litsey, kollej hattoki oliy ta'lim o'quvchilari ham to'liq ishtirokchiga aylanishadi. O'qituvchi vazifasi, asosan, mustaqil faoliyatni rag'batlantirish, ularning maqsadlariga erishish yo'llarini topishdir [2].

Shunday qilib, darsda turli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, ingliz tilini o'qitish jarayoni butunlay yangi nuqtai nazardan qaralishi va shaxsni shakllantirishning yangi mexanizmlarini o'zlashtirish, qulay sharoitda sifatli natijalarga erishish mumkin.

Adabiyot:

1. Xorijiy tillarni o'rgatishda rol o'ynash o'yinlari // INR № 4, 1989.

2. Ingliz tilini o'qitish bo'yicha loyiha ustida ishlash // INR Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi usuli // INR № 2, 3, 2000.

МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ XXI ВЕКА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

М.А.Гапоненко

*Преподаватель школы №68 Пайарыкского района
Самаркандской области*

Аннотация. Навыки XXI века направлены на то, чтобы школьники в процессе обучения и воспитания смогли приобрести такие способности и компетенции, которые помогут им успешно развиваться, легко адаптироваться в различных условиях. В данной статье представлен опыт работы по развитию навыков XXI века на уроках русского языка в начальной школе. Подробно описано использование в практике проектной деятельности и организация работы на минутке чистописания. Обращается внимание на развитие навыков сотрудничества и коммуникативных качеств личности. Статья будет полезна учителям русского языка.

Ключевые слова: навыки, проектная деятельность, информационная компетентность, технология деятельностного обучения, коммуникативность и сотрудничество.

Сегодня, в век информатизации, когда современный мир быстро изменяется и создается множество чудо - машин, облегчающих жизнь человека, мы столкнулись с рядом проблем. Во-первых, информация, которую получает человек, многообразна, и не всегда правдива. Во-вторых, те знания, умения, навыки, которые мы освоили, быстро устаревают и не всегда позволяют получить результат, отвечающий современным требованиям.

По мнению руководителя международного научного проекта по оценке и преподаванию навыков и компетенций XXI века Патрика Гриффина, профессора Мельбурнского университета, в ближайшем будущем следует ожидать кардинальных изменений всей системы образования, которые приведут к тому, что учебные программы будут сначала вмещать в себя преподавание этих навыков в рамках традиционных дисциплин, а затем постепенно переходить от содержания того или иного предмета к развитию навыков и личностных качеств учащихся. Он подчеркивает, что творческий подход, коммуникативность, критическое мышление или любознательность, конечно же, появились вовсе не в постиндустриальную эпоху, но именно с её приходом эти качества стали жизненно необходимы, примерно в той же степени, что и чтение, письмо и арифметика .

Таким образом, навыки XXI века направлены на то, чтобы школьники в процессе обучения и воспитания смогли приобрести такие способности и компетенции, которые помогут им успешно развиваться, легко адаптироваться в различных условиях, свободно работать в команде, сотрудничать и выстраивать коммуникации, уметь логически мыслить и при этом находить нестандартные подходы в решении учебно-практических и учебно-познавательных задач.

Основными способами работы становятся коммуникация и сотрудничество, а инструментами работы - общая осведомленность и умение пользоваться информационно-коммуникационными технологиями. Какие приемы, методы и технологии наиболее продуктивно позволяют развивать навыки XXI в начальной школе на уроках русского языка.

В последнее время, метод проектной деятельности зарекомендовал себя с хорошей стороны. Считаю, что данный метод учит детей находить, выбирать информацию из различных источников, оформлять её, сотрудничать в процессе работы с учителем и родителями, презентовать свою работу одноклассникам.

Уже во 2 классе на уроках русского языка дети выполняют первые проекты по темам «Моя любимая буква». Вместе с детьми в устной форме составляем план проекта. Фиксирую его на доске, далее оформляю памятку для каждого ребенка, с которой знакоблю родителей на собрании.

Проект простой: детям предлагается нарисовать любимую букву; найти и написать загадки, где отгадками будут слова на эту букву; сочинить небольшую сказку о букве; приклеить картинки с предметами или нарисовать свои рисунки предметов, которые начинаются на эту букву. Заранее обговариваем, как оформляем проект, при этом дается выбор сделать проект от руки или в печатном варианте. После подготовки проектов дети готовят их защиту в классе для одноклассников и родителей.

Далее с каждым классом темы проекты усложняются. «Тайна имени», «Тайна словарных слов», «Семья слов», «Откуда пришло слово», вот небольшой перечень детских проектов, которые мы выполнили на уроках русского и родного языка.

Небольшие индивидуальные проекты перерастают в научно-исследовательскую работу. Так, после написания проекта «Тайна словарных слов» родилась одноименная работа. Два мальчика подготовили научно-исследовательскую работу, в которой на практике провели анализ эффективности способов запоминания словарных слов. В ходе работы у детей появилась идея, нарисовать картинный диктант для игры «Найди словарное слово». Для этого они отобрали по 30 словарных слов из словарей «Пиши правильно» учебников «Русский язык» 2 и 3 классов. Затем сами нарисовали картинки к этим словам и придумали ребусы.

В 5 классе начинаю детей учить делать презентации к проектам. Для этого разработала курс внеурочной деятельности «В мире презентаций»,

цель которого познакомить детей с правилами создания презентаций. На занятиях, в кабинете информатики, изучаем простейшие технологические приемы создания презентаций: вставка рисунка, таблиц, диаграмм, настройка анимации и дизайна в презентации. Думаю, такая работа будет полезной для всех детей, так как овладение информационными технологиями, необходимое качество любого современного специалиста.

Несмотря на все изменения, урок остается ведущей формой обучения. В начальной школе современный урок - место взаимодействия учителя и ученика, где дети активные участники образовательного процесса.

Всем известна истина «нельзя научить, можно научиться», а научиться можно, только самостоятельно осуществив свои деятельностные пробы.

В своей практике на уроках русского языка применяю деятельностный метод обучения. Так при организации минутки чистописания предлагаю задания, в которых дети должны сами определить букву, написание которой будут отрабатывать на уроке. Например: урок русского языка во 2 классе.

На слайде или доске записаны слова: корова, собака, лисица. Детям предлагается задание: «Определите, какую букву мы будем сегодня писать на уроке, она находится в одном из этих слов и обозначает мягкий, непарный, согласный звук». Дети определяют, что это буква «Л». Затем им предлагается записать цепочку, состоящую из строчных поочередно идущих букв «л» и букв, которые обозначают разные гласные звуки, встречающиеся в этих словах. Получается цепочка строчных письменных букв: *лолали*.

На этом работа со словами не заканчивается. Предлагаю, ребятам еще раз прочитать эти слова и рассказать всё, что они о них знают (все, что относится к уроку русского языка). Дети вспоминают, что это словарные слова, имена существительные, одушевленные, женского рода, единственного числа, в них 3 слога, второй слог ударный, обозначают животных и т.д.

Продумывая урок, включаю новые словарные слова, или слова в которых есть орфограмма, которую еще не изучали, дети легко это находят, определяют тему и цели урока, что является формированием регулятивных универсальных действий. Такая работа развивает мышление, тренирует память.

На данном этапе урока включаю каждого ребенка в активную работу, каждый из детей вспоминает что-то своё, поэтому каждый - успешен. А если кто-то что-то забыл, то одноклассники напомним.

Для того чтобы научить детей сотрудничать с учителем и одноклассниками на каждом уроке использую парную и групповую работу. Ребята не только вместе выполняют задания, но и учатся давать оценку друг другу, оценивать свою работу, приводя аргументы, доказывают свою точку зрения. При этом учу их оказывать взаимопомощь, видеть в каждой работе что-то хорошее, замечать малейший успех: «Сегодня у Мансура хорошо

получилась буква «Р», «Вика допустила всего одну ошибку, молодец!», «Какие красивые прилагательные к слову осень нашел Салим!» и т.п.

Таким образом, на уроках русского языка у детей развивается мышление, формируются начальные навыки сотрудничества и коммуникации, отрабатывается умение работать с информацией, преобразовывать и представлять ее другим участникам образовательного процесса. Все это необходимо для формирования личности, которая будет востребованной и успешной в условиях XXI века.

Список литературы:

1. Воробьева О. Я. Коммуникативные технологии в школе. – М: Учитель, 2008. – 144 с.
2. Карпов А. В. Психология менеджмента: учебное пособие. – М: Гардарики, 1999. – 584 с.
3. Коммуникативные технологии двадцатого века.– М: Рефл-бук, Ваклер, 2000 г. – 352 с.
4. <https://infourok.ru/zachem-uchaschimsya-nuzhni-naviki-i-veka-1112079.html>

ПРИМЕНЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Гуломов Аслиддин

*Преподаватель школы №122 Ургутского района
Самаркандской области*

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы, встречающиеся при обучении русскому языку учащихся начальных классов национальных школ. Одним из эффективных методов повышения интереса к изучению русского языка в начальных классах является внедрение в учебный процесс современных педагогических технологий. Инновационный подход в обучении русскому языку в национальных школах, организация обучающих игр способствует активизации деятельности учащихся, обогащению словарного запаса, развитию их разговорной речи и быстрому усвоению изучаемой темы.

Ключевые слова: инновационные процессы, интерактивные методы, коммуникативная компетенция, игровые методы обучения.

Annotatsiya. This article discusses the problems encountered in teaching Russian the pupils of primary schools. One of the effective methods of improving interest in the study the Russian language in primary grades is the introduction of new pedagogical technologies to the educational process. Innovative approach to Russian language teaching in national schools, the organization of training games promote to improving of pupils' activity, enrichment of the vocabulary, the development of their colloquial speech and the rapid assimilation of the theme.

Keywords: *innovative processes, interactive methods, communicative competence, educational gaming methods.*

Модернизация содержания непрерывного образования в Узбекистане, как и во всём мире, характеризуется внедрением в учебный процесс инновационных технологий. Современная школа и образование в целом, выступают авангардом социального и экономического развития общества, что обуславливает особую значимость изучения и развития инновационных процессов в системе образования. Реализация инновационных подходов в обучении русскому языку в национальных школах способствует активизации деятельности учащихся, позволяет разнообразить процесс обучения, повышает интерес к языку, стимулирует их творческую активность, способствует расширению кругозора, повышает речевую культуру. Согласно государственным стандартам, основная цель обучения русскому языку в школе — это формирование у учащихся языковой, культуроведческой и коммуникативной компетенции. Проблема коммуникативного развития в современной образовательной среде является одной из важнейших, поэтому существует острая необходимость разработки таких подходов, концепций, которые бы обеспечивали возможность реализации качественно новой личностно-ориентированной, развивающей модели начальной школы, связанной с обеспечением речевого и коммуникативного развития учащихся. Обучая русскому языку, учителя — русисты сталкиваются с рядом трудностей, которые необходимо преодолеть, особенно в работе с учащимися младших классов. Основная трудность — отсутствие русскоязычной среды: учащиеся лишь на уроках имеют возможность услышать русскую речь и общаться на русском языке. Многолетний опыт в школе показывает, что одним из самых эффективных методов повышения интереса к овладению русским языком в младших классах является организация игровой деятельности, которая является основным интерактивным методом обучения. Именно в игре происходит тренировка многих важных жизненных навыков, формируются черты характера. Детям интересны игры — соревнования, состязания, ролевые игры. Школьники охотно копируют речевые образцы, имитируют интонацию, с которой их произносит учитель, любят участвовать в хоровой работе, с удовольствием поют русские песни. Задача учителя состоит в том, чтобы сделать каждый урок интересным, увлекательным, чтобы он развивал познавательный интерес, побуждал учащихся к активному участию в учебном процессе.

Рассмотрим несколько игровых методов и приёмов, которые можно использовать как интерактивные технологии в начальной школе. Наилучшим материалом для активизации речевой деятельности учащихся, для развития навыков самостоятельного мышления являются занимательные словарные игры по русскому языку. Они повышают интерес к изучению русского языка, развивают память, логическое мышление, языковую интуицию. Урок, на

котором используются лингвистические игры, никогда не бывает скучным. Задания такого рода не только развивают интеллект учащихся, но и стимулируют занятия русского языка. Приведу несколько примеров из своей практики. Игра «Загадочные слова». Эту игру можно проводить с учащимися 3–4-5 классов. Чтобы отгадать правильное слово, ученик должен заменить в данном слове одну букву другой, тогда он получит нужное слово. Например: Венок пил молоко. Рустам — мой круг. Раъно испекла сорт. Мне мама купила красивый салат. Также использую такие лексические игры, как: «Какое слово лишнее», «Мяч», «Домашние и дикие животные», «Овощи», «Фрукты». При повторении или закреплении изученной темы можно использовать кроссворды, составленные самим учителем, направленные на закрепление изученных слов. Например, в 3 классе можно составить такой кроссворд: Впишите в клетки: Самое нужное слово Самое родное слово Самое дорогое слово Ребята вписывают в клеточки слова: мир, мама, Родина. В более старших классах кроссворды усложняются. Использование интерактивного задания «Кластер» по теме «Моя Родина» в четвёртых классах развивает не только коммуникативные, но и социолингвистические компетенции детей.

Организация игровой деятельности на разных этапах обучения отличается задачами, объемом, соотношением с другими формами и образовательными методами. Ведущую роль в развитии коммуникативных компетенций принадлежит сюжетно-ролевым и деловым играм. Их форма проведения предполагает импровизированное разыгрывание определенной ситуации и формирование следующих коммуникативных умений: — готовность к сотрудничеству; — толерантность; — терпимость к чужому мнению; — умение вести диалог; — умение находить компромиссное решение.

В процессе игры между детьми устанавливаются такие отношения, которые они потом воспроизводят в реальной жизни. Ребята обучаются таким приемам и правилам общения, которые в дальнейшем смогут использовать в сходных по форме жизненных ситуациях. Проигрывание ситуации несколько раз дает возможность школьникам поменяться ролями, испробовать другие варианты поведения, провести рефлексию деятельности. Предлагая детям такую игру, стоит подумать о ее практической значимости. Сюжетно-ролевые и деловые игры обладают огромным потенциалом по формированию у младших школьников готовности к самостоятельной деятельности в реальной жизни. Их использование в начальной школе позволяет увлечь детей, способствовать их развитию, раскрытию талантов и индивидуальных качеств. Таким образом, в процессе изучения программных тем целесообразно использовать педагогические технологии в форме игровых заданий, направленных на обогащение словаря учащихся, развитие их разговорной речи. Игры, подобные описанным, вызывают у младших школьников большой интерес, активизируют их деятельность, способствуют быстрому усвоению изучаемой темы. Игра — как форма воспитания, также

выполняет функции нравственного и эстетического развития, в ходе игры между детьми формируются дружеские коллективистские отношения.

Литература:

1. Шабалина З.П. Учебно-воспитательная работа в первом классе четырёхлетней начальной школы. - Москва. «Просвещение» 1988.
2. Рахматова М.Р. Кроссворды и ребусы к каждой теме урока. Узбекский, русский языки и литература в школе. № 6. 1991. с.32.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI

Asqarov Akmal Ne'matovich
Pastdarg'om tumani 7-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: *Biologiya eng muhim fan va shu bilan birga inson hayotida har kuni uchraydi. Shuning uchun o'qituvchilar biologiyani o'qitishga jiddiy yondashadilar, darslarni boyitadilar. O'qituvchilar darslarni qiziqarli va ko'ngilochar o'tkazish uchun bilim qiziqishini rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar muhim rol o'ynaydi.*

Kalit sozlar: *Biologiya fani, interfaol metodlar, o'yin, didaktik o'yinlar, kognitiv, «O'tkazish» metodi, «Qatorni davom ettirish» metodi, «Zanjir» metodi, «Kompozit tasvir» metodi.*

Abstract: *Biology is the most important science and at the same time it occurs every day in human life. That is why teachers take biology seriously, enriching the lessons. Didactic games that develop cognitive interest play an important role for teachers to make lessons fun and entertaining.*

Keywords: *Biology, interactive methods, games, didactic games, cognitive, «Transfer» method, «Continue the line» method, «Chain» method, «Composite image» method.*

Inson qayerda bo'lmasin, hayvonlar va o'simliklar dunyoi bilan bilan o'ralgan. Biologiya juda murakkab fan bo'lib, ular nafaqat o'simlik va hayvonot dunyosining tur tarkibini, balki ko'plab tushunchalar, ta'riflar, qonuniyatlarni tajribalar asosida o'rganadi. Bunday tajribalarni qiziqarli, ayni paytda ilmiy va ma'lumotli bajarish, o'quvchilarning fanga qiziqishini, faolligini oshirish zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Hozirgi vaqtda maktabning asosiy muammosi o'quvchilarning o'qishni istamasligi. Ammo o'yin jarayonida hatto eng passiv o'quvchi ham darsga kiritiladi, o'quvchilarhar qanday qiyin topshiriqlarni ham bajara oladilar.

Faylasuflarning o'yin borasida o'z nuqtai nazari bor, ular quyidagilarni ta'kidlaydilar: «O'yin o'quvchilarning rivojlanishini boshqarish uchun jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yoki yaratilgan o'quvchilar hayotining o'ziga xos shakli, bu ma'noda bu maxsus pedagogik ijoddir».

O'yin o'quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishi va tarbiyasining muhim vositalaridan biridir, bu o'quvchining shaxsiyati uchun yoqimsiz yoki taqiqlangan tajribalarni olib tashlaydigan vosita.

Didaktik o'yinlar - bu o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash maqsadida pedagogika tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o'yinlarning bir turi, chunki bu ikki jarayon bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Biologiya darslarida didaktik o'yinlar oddiy o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular maxsus moddiy bazani va texnik tayyorgarlikni talab qilmaydi. Bunday darslarda o'qituvchining roli quyidagi operatsiyalardan iborat: vaqtni belgilash;

joyni aniqlash (stollarni joylashtirish, guruhlarini shakllantirish); mablag'larni tanlash (jadvallar, videofilmlar, diafilmlar, gerbariylar, namoyish materiallari);

rollarni taqsimlash;

yangilik elementlarini kiritish;

hissiy jihatdan kuchaytirish («qo'rquvni yo'qotish», dalda berish);

umumiy yetakchilik.

O'quvchilar nafaqat o'ynashni, balki topshiriqlar muallifi bo'lishni ham yaxshi ko'rishadi. Buning uchun siz mavzuni chuqur o'rganishingiz kerak. Afzalligi shundaki, o'yin jarayonida tushunchalar ularning xususiyatlari to'liqligi jihatidan ko'p jihatdan ko'rib chiqiladi.

O'yinlarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga turtki beradigan to'g'ri va noto'g'ri bayonotlar qo'llaniladi. Qaror qabul qilishda mustaqillik namoyon bo'ladi, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, o'z bilimiga ishonchni his qilish, tinglovchilar qo'rquvini yengish mumkin. Natijada maktab o'quvchilarining ijodiy salohiyati oshkor bo'ladi.

Turli xil o'yin vaziyatlari biologiya darsida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'ynash paytida o'quvchilar o'zlariga ijodiy vazifalar qo'yadilar, ularni hal qilishda ularga chuqur bilim, turli ko'nikma va malakalar, ixtiro, tasavvur, xayol yordam beradi.

Ko'pincha, biologiyani o'qitishda nazariy bilimlarni ularni amaliy qo'llash bilan samarali birlashtirishga qaratilgan rol o'ynash va ishbilarmon o'yinlar ishlatiladi. Ushbu o'yinlarda, vaqt etishmasligi, to'liq bo'lmagan ma'lumot va o'yinning boshqa ishtirokchilarining qarshiliklariga duch kelgan holda, ishtirokchilarni muayyan qarorlarni qabul qilishga majbur qiladigan keskin, ziddiyatli vaziyat yaratiladi.

O'quvchining har qanday tadqiqot ishlarida ishtirok etishi, uning faoliyati natijasidan ko'ra, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun muhimroqdir. O'yinlar o'quvchilarni o'ziga xos g'oyalar bilan chiqishga va ijodiy qarorlar qabul qilishga undashi mumkin. Ba'zan bu boshqa qarashlarning tarafdorlari bilan ziddiyatga, o'z nuqtai nazarini himoya qilish zarurligiga olib keladi. Shunday qilib, didaktik o'yin ijodiy fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

O'yin davomida o'quvchilarning ijodiy xatti-harakatlarini rag'batlantirishning bir necha psixologik tamoyillari mavjud. Mehmondo'st, ijodiy va qulay sinf muhiti

juda muhimdir. O'qituvchi ijodkorlik namunasini ko'rsatishi, ijodiy ishlarni baholash va tanqid qilishdan saqlanishi, o'ziga xos g'oyalarni rag'batlantirishi va shu tariqa aqliy hujumni yaratishga intilishi kerak. O'qituvchi savollar berish va maktab o'quvchilarining fikrlash yo'nalishini boshqarish orqali ularning faoliyatini nazorat qiladi, yuzaga keladigan muammolarni ijodiy hal qilishga hissa qo'shadi. Shunday qilib, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ijodiy hamkorlik amalga oshiriladi.

Sinfagi o'quvchilarga asoslanib, siz o'yinni amalga oshiradigan asosiy maqsadlarni shakllantirishingiz mumkin:

- mavzuga qiziqish uyg'otish;
- o'quv adabiyotlari bilan ishlash zarurligini keltirib chiqaradi;
- fikr jarayonlarini masalaning mohiyatini mustaqil idrok etishga yo'naltiring.

Shunday qilib, biologiya darslarida rol o'ynash o'yinlari o'quvchilarni aloqa faoliyatiga jalb qilishning samarali usuli bo'lib, ular jamoaviy vakolatni rivojlantirishga yordam beradi.

Biologiya darslarida rol o'ynash o'quvchilarning qobiliyatini shakllantiradi, muammolarni jamoaviy hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi, tezkor ravishda qarorlar qabul qiladi, amalga oshirilgan harakatlar oqibatlarini bashorat qiladi, tashabbuslarni rivojlantiradi va biologik hamda tibbiy tushunchalar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish - bu o'quvchilarning o'qituvchi bilan birgalikda faol ish olib borishi, o'quv jarayonida ongli ravishda aks etishi, bilimlarimizni, yangi g'oyalarimiz, his-tuyg'ularimiz yoki fikrlarimizni kuzatishi, tasdiqlashi, rad etishi yoki kengaytirishi uchun atrofdagi dunyo haqida shunday o'rganish muhitini yaratishdir. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish pedagogikaning abadiy muammolaridan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy jamiyatda dinamizm va o'zgaruvchanlik kabi tubdan yangi xususiyatlar ta'lim tizimiga tobora ko'proq xos bo'lib bormoqda. Kommunikativ ko'nikmalar, vaziyatlarni modellashtirish, dialog, munozaralarda tajriba orttirish va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyati hayotda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, o'rganishga qiziqishning pasayishi, intellektual passivlik mavjud. Bu o'qituvchining faol aqliy faoliyatni talab qiladigan usul va usullardan foydalanishga tobora doimiy e'tiborini tushuntiradi, uning yordamida tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, muammoni ko'rish, gipotezani shakllantirish, echim izlash, olingan natijalarni to'g'rilash ko'nikmalari. shakllanadi (aslida bu ko'nikmalarni o'rgatish ijodiy faoliyatga boshlashdir).

O'quvchilarning bilim faolligini oshirish tamoyillari:

- o'quvchilarning mustaqil faoliyati printsiipi;
- bilimlarni anglash printsiipi;
- barcha o'quvchilarni, shu jumladan eng zaiflarni umumiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli va tizimli ish printsiipi;

Didaktikaning muhim muammolaridan biri bu sinfda o'quvchilarning bilim faolligini oshirish muammosi. Bu o'qituvchining maktab o'quvchilarida ta'lim

faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha maqsadga muvofiqligini anglatadi. Darsda o'quvchining faol aqliy ishi, kognitiv mustaqillik muvaffaqiyatli o'rganish garovidir. o'quvchilarning mustaqil bilim faoliyatini rivojlantirish variantlaridan biri bu didaktik o'yinlardan foydalanishdir.

Ta'lim o'yinlari bir nechta funktsiyalarga ega:

- o'quvchining shaxsiyatiga ta'sir qiladi, uning tafakkurini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi;

- muayyan vaziyatda navigatsiya qilishni va nostandart ta'lim muammosini hal qilish uchun bilimlarni qo'llashni o'rgatadi;

- o'quvchilarning bilim faoliyatini rag'batlantiradi va rag'batlantiradi, kognitiv qiziqishni rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Biologiya o'qitish amaliyotida tez-tez ishlatiladigan intellektual o'yinlari va o'yin texnikasining ba'zi bir misollari:

a) «O'tkazish» metodi bir nechta jamoalarga bo'linishi kerak (bu qatorlar bo'yicha mumkin). Jamoa a'zolari birin-ketin o'tirishadi. Birinchi stolga bir varaq qo'yiladi va masalan, xochga mixlangan oilaning bir xususiyatiga (yoki boshqa biron bir narsaga) qog'ozga yozib, orqada o'tirganga berish uchun topshiriq beriladi. Oxirgi o'yinchi tugagach, u qo'lini ko'taradi. Vazifaning to'g'riligi va tezligi baholanadi, guruh tomonidan eng tezkor bo'lgan belgilar yoziladi. Boshqa jamoalar o'zlarining varaqlaridan nomlangan belgilarni kesib tashlashadi. To'g'ri belgilarni chizib tashlamagan va o'yinni boshqalardan oldinroq tugatganlar g'olib bo'lishadi.

b) "qatorni davom ettirish" - bu bitta mavzuga tegishli so'zlar ketma-ketligi, ammo unga qo'shilishi kerak bo'lgan bir nechta tushunchalar etishmayapti.

c) «Zanjir» «Oziq-ovqat aloqalari» mavzusini o'rganish uchun yaxshi. Bir o'yinchi fotosintezga qodir organizmni, ikkinchisi o'yinchi oldingisi bilan oziqlanadigan organizmni (o'txo'r), keyingisi yirtqich hayvonni va boshqalarni nomlaydi. Zanjirning keyingi a'zosini nomlay olmagan kishi jarima nuqtasini oladi va o'yinni qayta boshlaydi. G'olib eng kam penaltilar soniga ega bo'lgan hisoblanadi.

Xuddi shu o'yin texnikasini hayvonlar va odamlarning organlar tizimini o'rganishda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

d) «Kompozit tasvir» - maktab o'quvchilari guruhi - bu politsiya bo'limi. O'yin boshlovchilari politsiya bo'limidan yo'qolgan o'simlik (botanika fanini o'rganayotganda) yoki hayvonni (zoologiya fanini o'rganayotganda) topish uchun yordam so'rashadi. Tashqi tuzilish yoki fiziologiyaning xususiyatlarini hisobga olgan holda obyektni tavsiflash yoki uning tarkibini yaratish kerak. e) Ta'lim o'yinlari - juftini top.

Juftini top. Hashoratlarni top.

Biologiya darslarida didaktik o'yinlardan tizimli ravishda foydalanish biologiyadan bilim darajasini oshiradi. O'yin o'quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishi va tarbiyasining muhim vositalaridan biridir, bu o'quvchining shaxsiyati uchun yoqimsiz yoki taqiqlangan tajribalarni olib tashlaydigan vosita.

Biologiya darslarida didaktik o'yinlar o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular maxsus moddiy bazani va texnik tayyorgarlikni talab qilmaydi. Shunday qilib, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va biologiya darslariga kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun har xil didaktik o'yinlar va o'yin texnikasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Didaktik o'yinlar bilimdan tashqari, biologik tushunchalar imlosi ham mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, maqolada biologiya darslarini tashkil etishda interfaol metodlar, didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchining kognitiv faolligini oshirishi haqida fikr yuritilgan. Chunki biologiya darslarida rol o'ynash o'quvchilarning qobiliyatini shakllantiradi, muammolarni jamoaviy hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi, tezkor ravishda qarorlar qabul qiladi, amalga oshirilgan harakatlar oqibatlarini bashorat qiladi, tashabbuslarni rivojlantiradi va biologik va tibbiy tushunchalar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abramenkova V.V. O'yin bolaning ruhini shakllantiradi // V.V. Abramenkova Psixologiya dunyosi. - 2009. - № 4.
2. Bezux K.E. Biologiya darslarida o'quvchilar bilimlarini faollashtirishning o'ziga xos usullari // O'quv-uslubiy va ilmiy-ommabop gazeta. - M.: «1 sentyabr» nashriyoti, 2005 yil - №18. - S. 22
3. Borzova Z. V.,. Biologiya bo'yicha didaktik materiallar: Uslubiy qo'llanma. / Z. V Borzova, A.M. Dagaev - M.: TC Sphere, 2005. - 400 p.
4. Bukatov V.M. Didaktik o'yinlarning pedagogik sirlari / V.M. Bukatov . - M.: «Flint» nashriyoti, 2007. -96 b.
5. Vysotskaya M.V. 5-11 sinflarda biologiyadan noan'anaviy darslar / M.V. Vysotskaya - Ed. O'qituvchi: Volgograd, 2004.489 b

O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN SAMARALI FOYDANISH YO'LLARI

*Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna
Termiz davlat pedagogika instituti
Makrtabgacha ta'lim metodikasi kafedrası
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda ta'lim metodlaridan va innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari, o'qitish jarayonida, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishning samarali yo'llari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Metod, innovatsion faoliyat, texnologiya, pedagogik yangilik, sifat, samara.

Ta'lim metodi psixologik asosga ega. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkoniyatini beradi.

Ta'lim oluvchining yaratuvchilik qobiliyati, uning munosabat qila olish qobiliyatini, ta'lim olish madaniyatini, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatni oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasini bajarishini va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qo'lga kiritishni kafolatlaydi. Bunda faol ta'lim jarayoni amalga oshiriladi. Faol ta'lim - bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimli pedagogik jarayondan iborat.

Ta'lim metodlari nazariy jihatdan yaxshi asoslangan bo'lishi, pedagogik nazariyadan kelib chiqishi kerak.

O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1.Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).

2.Ko'rsatmali metodlar rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar.

3.Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar).

Bular malum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarni tanlashda aynan shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasini hisobga olib, shu asosda, masalan, rag'batlantirish, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib boromoqda.

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim oluvchilarni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.


Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatiarga ega bo'lib, ular:

- o'quvchi -talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchi -talabalni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy

ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi -talabani bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talabani hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Pedagogik texnologiyani eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchi-talabani belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi - talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.



1-rasm

Maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qitishda zamonaviy metodlardan samarali foydalanish uchun o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak. rasm(1).

O'qitish jarayonida turli texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi.

«Aqliy hujum» metodi - o'qituvchi o'quvchi egallashi kerak bo'lgan mavzuni oddiydan - murakkabga tomon bosqichma bosqich loyihalab beradi.

«Tarmoqlar» metodi - o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

«3x4» metodi - o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

«Blis-o'yin» metodi - harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

«Intervyu» texnikasi - o'quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

«Bumerang» texnikasi - o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

«Talaba» treningi - o'quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

«Muloqot» texnikasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

«Boshqaruv» texnikasi o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda axborot kommunikatsiya tizimlari rivojlanib borayotgan bir davrda pedagoglar texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratish darajasida ilmiy va mahoratli bo'lishi talab etiladi. Shu jihatdan ta'limni tashkil etish jarayonida barcha bilim oluvchilarga sodda, tushunarli va oson bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali vositalar hamda, pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishi hozirgi davr talablaridan biridir. Pedagog kreativlik asosida ta'limni qiziqarli tashkil qila olsa, ta'lim oluvchilarning bilishga bo'lgan intilishi ortib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Djamilova.Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi.T.2017y.
- 2.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: 2000y.
- 3.Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2012y.
4. A.K. Xamrayevna . Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga doir zamonaviy yondashuvlar - Scientific Impulse, 2023y.
5. Allaberdiyeva Kumri. Formation Of Creative Abilities For Students At Presidential Schools Based On Akmeological Approach // International Journal of Advenced Science and Texnology. 2020y.

10-12 YOSHDAGI GANDBOLCHILARNING TEZKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

M.A.Hotamov

SamDU Pedagogika ta'limi fakulteti Sport faoliyati o'qituvchisi

Talaba: Rahmatova Muqaddas Asliddin qizi

Annotasiya. Ushbu maqolada gandbol bilan endi shug'illanishni boshlagan 10-12 yoshli bolalarda maxsus mashqlar bilan bir qatorda, tezkorlik jismoniy sifatlarni ixtisoslashtirilgan masqlar yordamida shakllantirish samaradorligini o'rganishdan iborat dastur va test ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: gandbol, sport, musobaqa, ko'nikma, sport mahorati, maxsus mashqlar, tezkorlik, tajriba natijalari.

Annotasiya. In this article, along with special exercises, a program and test have been developed to study the effectiveness of the formation of physical qualities of speed with the help of specialized exercises in children 10-12 years old who have just started playing handball.

Key words: handball, sport, competition, skill, sportsmanship, special exercises, speed, experimental results.

Annotasiya. В данной статье наряду со специальными упражнениями разработаны программа и тест для изучения эффективности формирования физических качеств быстроты с помощью специализированных упражнений у детей 10-12 лет, только начавших заниматься гандболом.

Ключевые слова: гандбол, спорт, соревнование, мастерство, спортивное мастерство, специальные упражнения, скорость, результаты опыта.

Hozirgi zamonaviy gandbolda maxsus mashqlar bilan bigalikda jismoniy sifatlar ham o'ta muhim harakat qobiliyatlari tarkibida mansub bo'lib, o'yin davomida yuz beradigan turli vaziyatlarda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Har xil yo'nalishlarda to'psiz va to'p bilan raqib qarshiliklarini engib, tez, aniq va maqsadga muvofiq harakat qilish o'yin yoki uning ayrim lahzalari taqdirini belgilab berdi. Ma'lumki, yosh gandbolchilar sekin harakatlanganda ijro etiladigan o'yin malakasi texnikasi, koordinatsiyasi va aniqligi yuqori bo'ladi. Aksincha, jismoniy rivojlanishlari ortgan sari sport mahoratining bunday ko'rsatgichlari o'z samarasini susaytira boshlaydi.

Binobarin, har bir murabbiy, ayniqsa BO'SM murabbiylari, o'z kasbiy-pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishi istedadli yosh gandbolchlarni tayyorlash muammosining prinsipial jihatlaridan biridir. Mazkur ishning maqsadi gandbol bilan endi shug'illanishni boshlagan 10-12 yoshli bolalarda maxsus mashqlar bilan bir qatorda tezkorlik sifatlarni ixtisoslashtirilgan masqlar yordamida shakllantirish samaradorligini o'rganishdan iborat.

Ganbolda darvozaga to'p kiritish usuli o'yin davomida ustivor sanalgan va samarali natija keltiruvchi eng unumli malaka bo'lib hisoblanadi. 10-12 yoshli gandbolchilarni tezkorlik va sakrovchanlik sifatleri qancha rivojlangan bo'lsa, shuncha top kiritish imkoniyati ortadi. Darhaqiqat, darvozaga sakrab to'p kiritishda tezkorlik va sakrash koordinasiyasi to'p kiritish texnikasiga ixtisoslashmagan bo'lsa, natija samarasiz bo'lish mumkin. Shuning uchun maxsus mashqlar hamda tezkorlik va sakrovchanlik sifatleri gandbolga xos hususiyatga moslashtirib rivojlantirish nafaqat sport mahoratini takomillashtirish guruhlarida katta rol o'ynaydi, balki bunday ixtisoslashtirilgan sifatleri dastlabki o'rgatish bosqichidanoq boshlab shakllantira borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport o'yinlarida texnik malakalarni aniq, tez va samrali ijro etish, taktik kombinasiyalarni vaziyatga mos mo'ljallangan maqsad sari amalga oshirish har bir sport o'yini turinining o'ziga hos hususiyatga mos jismoniy sifatler bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy asoslab berilgan. Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol va gandbol) hususiyatiga mos jismoniy sifatleri rivojlantirishga mo'ljallangan ko'pgina mashqlar majmualarini alohida-alohida guruhlashtirib qo'llashni tavsiya etishgan. Jumladan;

- 1-guruh mashqlari o'yin qoidalari doirasida ijro etiladi;
- 2-guruh-o'yin qoidalari doirasidan tashqari vaziyatda;
- 3-guruh-mashqlari yakuniy zarba yoki to'p otish (gandbol, basketbol) bilan tugamaydi (shug'llanuvchilar faqat bir-biriga to'p uzatishadi);
- 4-guruh har bir shug'llanuvchi yakka holda o'z mahoratlerini shakllantiruvchi mashqlarni bajaradi.

V.I.Izaak e'tiborni jalb qiluvchi ilmiy g'oyani ilgari surgan bo'lib, uning fikriga ko'ra, gandbolchi tomonidan mashg'ulot va musobaqa davomida ijro etiladigan harakat malakalari o'z mohiyati va tuzilishi (srukturasi) jihatdan bir-biridan talaygina farq qilar ekan. Demak, muofiq malakalar mashg'ulot va musobaqa davomida turlicha maxsus mashqlar va jismoniy sifatler asosida ijro etiladi, ya'ni mashg'ulotda ijro etiladigan sifat va malakalardan anchagina farq qiladi.

Ushbu ishni yoritishda to'plagan ma'lumotga qaraganda, bir o'yin davomida gandbolchi o'rtacha 4955 m masofani bosib o'tar ekan. Shu jumladan, 1235 m qisqa masofalarga, 3733 m uzoq oraliqlarga yugurish to'g'ri keladi. Har bir hujum harakatida 5-10 m, himoya harakatida 3-5 m dan masofa bosiladi. Maydonda harakatlanish tezligi va masofa gandbolchilarning o'yin funksiyalariga bog'liqligi ayon bo'ldi. Bir o'yin davomida 44,12 marta hujum qilinsa, bir bora hujumga o'rtacha 28,3 sek vaqt ketar ekan, 388 tadan 548 tagacha to'p uzatish 19 dan 24 holatgacha to'pni urib yurish va 31 tadan 37 tagacha darvozaga to'p yo'llanar ekan.

Qizig'i shundaki iboratki, 10-12 yoshli gandbolchilarning tezkorlik sifatlerini rivojlanganlik malakasi qancha yuqori bo'lsa, ular shuncha to'p bilan yugurish harakatlerini kam bajarar ekan. Bu yosh gandbolchilarning bir-biriga tez va aniq to'p uzatish bilan harakat qilishlari evaziga amalga oshirilishi oshkor

bo'ldi. Yuqorida qayd qilingan malakalarning soni, texnik qiymati, shiddati va aniqliligi tezkorlik sifatlarining qanchalik shakllanganligi va ixtisoslashganligiga bog'liqligi asoslandi. Yuqorida qayd qilingan nazariy g'oyalar va uslubiy mulohazalar mazkur ish mavzusini tanlashga va shu yo'nalish bo'yicha 10-12 yoshli gandbolchilar ishtiroki bo'yicha pedagogik tajriba o'tkazishga da'vat etdi. Olib borilgan kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, 10-12 yoshli gandbolchi bolalardan iborat nazorat va tajriba guruhlarida maxsus mashqlar va jismoniy sifatlarga oid ko'rsatgichlar pedagogik kuzatishdan avval deyarli bir xil darajada ekanligi kuzatildi.

10-12 yoshli gandbolchilardan iborat nazorat (N) va tajriba (T) guruhlarida maxsus va tezkorlik sifatlarini to'rt oylik pedagogik tadqiqot davomida rivojlanishi. (n-10)

(1-jadval)

Me'yoriy mashq	Tajribadan oldin		Tajribadan so'ng	
	H	T	H	T
30 m ga yugurish (sek)	5,8=0,6	5,9=0,9	5,4=0,7	5,0=0,8
30 m ga to'pni urib yurish (sek)	7,0=0,9	7,1=0,7	6,7=0,4	6,2=0,6

Jumladan, tik turgan holatdan 30 m ga yugurish ko'rsatgichlari pedagogik tajribadan oldin nazorat guruhi ham, tajriba guruhida ham talabga javob bermasligi ma'lum bo'ldi.

Xususan, nazorat guruhida bu ko'rsatgich 5,8 sek, tajriba guruhida-5,9 sek ga teng bo'ldi. 30 m ga to'p urib yurish, nazorat guruhida 7,0 sek, tajriba guruhida 7,1 sekni tashkil etdi. Ma'lumki, gandbol bo'yicha tavsiya etilgan BO'SM dasturida shu yoshdagi bolalarni gandbol to'garagiga qabul qilishda tanlov me'yori 30 m ga yugurish-5,5 sek, 30 m ga to'pni urib yugurish-6,5 sekga teng.

Pedagogik tajribada muddati tugaganidan so'ng amaldagi dastur asosida shug'ullangan nazariy guruhda 30 m ga yugurish 5,8 sekdan 5,4 sekgacha tezkorlik sifati yaxshilandi.

Tajriba guruhida bu ko'rsatgich 5,9 sekdan 5,0 sekgacha ijobiy tomonga o'zgardi. 30 m ga to'pni urib yugurish birinchi guruhda 7,0 sekdan 6,7 sekga yaxshilangan bo'lsa, ikkinchi tajriba guruhida ushbu ko'rsatgich 7,1 sekdan 6,2 sekga o'zgardi. Demak, pedagogik tajriba davomida qo'llanilgan maxsus va tezkorlikka oid estafetali-o'yin mashqlari o'ta samarali qiymatga ega ekanligi isbotlandi. Shuni ham alohida e'tirof etish joizki, tajriba guruhiga mansub bolalarda nazorat guruhiga qaraganda nafaqat to'p urib yugurish texnikasi tez sur'atlar bilan shakllana bordi, balki ularda to'pni nishonga yo'llash texnikasi va uni ijro etish koordinatsiyasi ham progressiv yo'nalishda o'zlashtirilayotganligi kuzatildi.

Yuqorida qayd etilgan pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, sinab ko'rilgan estafetali-o'yin mashqlari faqatgina maxsus hamda tezkorlik sifatlarini samarali rivojlantira qolmay, shu sifatlar asosida ijro etilishi kerak bo'lgan o'yin malakalarini ham unumli sayqal topishiga imkon yaratdi.

Binobarin, jismoniy va texnik tayyorgarlikning bir-biriga chambarchas bog'liqligi va shu jarayonlarga oid mashqlar majmualarini dastlabki o'rgatish bosqichidan boshlab bir-biriga birikkan holda qo'llash texnologiyasi o'zining nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy jihatlardan qanchalik dolzarb ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.Ye. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: Darslik.-T."Fan va texnologiya", 2017 y
2. Abdurahmonov F.A., Pavlov Sh.K. Gandbol. Jismoniy tarbiya institutlari uchun namunaviy dastur. – T.: O.,zDJTI, 2005.
3. Gancharova O.V. "Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish" O.,zDJTI nashriyoti-manba bo'limi 2005 y.
4. Pavlov Sh.K, Akramov J, Abduraxmonov F "Gandbol" Darslik Leder Press nashriyoti 2005 y.

O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TAYYORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Oqilova Kamola Sadullayevna

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalatga o'rgatish milliy markazi "Pedagogika va psixologiya ta'lim texnologiyalari kafedrası

Annotasiya. Maqolada o'qituvchilarning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish va uning o'ziga xosliklari yoritilgan, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish masalalari, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish tushunchalari yoritilib berilgan.

Tayanch so'zlar: pedagog, motivatsiya, kompetentlik, rivojlanish, uzluksizlik, motivatsion tayyorlik, uzluksizlik, malaka oshirish.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы развития компетентности мотивационной готовности педагогов и ее особенности, вопросы непрерывного профессионального развития педагогов, концепции развития компетентности мотивационной готовности педагогов в процессе профессионального развития.

Ключевые слова: педагог, мотивация, компетентность, развитие, преемственность, мотивационная готовность, преемственность, профессиональное развитие.

Abstract. The article deals with the issues of developing the competence of motivational readiness of teachers and its features, issues of continuous professional development of teachers, the concept of developing the competence of motivational readiness of teachers in the process of professional development.

Key words: teacher, motivation, competence, development, continuity, motivational readiness, continuity, professional development.

Ta'lim yoki ta'lim jarayonining modelini yaratish nisbatan qiyin, chunki bu vaziyatda obyektning xatti-harakati asosida uning oqibatini bashorat qilish lozim bo'ladi. Obyekt faoliyatini amaliyotga joriy etilgan model asosida tartiblashtirib borish har doim ham muvaffaqiyatli hal etilavermaydi. Natijada, aynan predmetga tegishli modellarni ishlab chiqishdagi kattagina qiyinchiliklar tufayli ta'lim jarayonini modellashtirish sekin rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Ammo bu pedagogik jarayonlarni modellashtirib bo'lmaydi, degani emas.

Bugungi kunda pedagogikaga doir aksariyat ilmiy izlanishlarda uning mazmuni, shuningdek, ayrim o'ziga xos fazilatlarini aniqlashtirish, shakllantirish maqsadida modellarning turli sxemalari hamda turlarini zaruriy element sifatida kiritish faollashgan va mamnuniyat bilan qabul qilinadigan tendensiyaga aylangan. Buni yorqin misollar yordamida ko'rish mumkin, biroq taklif etilayotgan shakllarning ayrimlari modelga o'xshamaganligini ko'pgina tadqiqotlar tahlili isbotlaydi. Pedagogik modellashtirish qanchalik murakkab bo'lmasin, unda ilgari surilgan g'oyaning mavjudligi, maqsadning konkretligi, ifodalanayotgan jarayon bosqichlarining ketma-ketligi, izchilligi, uzviyligi, harakatlarning algoritmlashtirilganligi, o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy samaradorlikka ishonch, kutilmalarning aniqligi modelni amalga oshirishdagi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Izohlayotganimiz ushbu tushunchaning mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da model hamda modellashtirmoq tushunchalariga quyidagicha ta'rif berilgan:

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan talablar asosida ishlab chiqilgan samarali hisoblangan tushunchalardan foydalanishni ifodalovchi, mazkur jarayonni tashkil etish bosqichlari va fnuksiyalari aks ettirilgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda qo'llanishi mumkin bo'lgan andaza. Ma'lumki, modellashtirish pedagogik izlanishlar jarayonida muvaffaqiyatli va universal bilish amaliyoti sifatida qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri hisoblanadi. Modellashtirish tadqiqot jarayonida empirik, nazariy va amaliy ma'lumotlarni yaxlitlash, ilmiy abstraktlash, mantiqiy zanjirni paydo qilish hamda tajriba-sinov ishlarida uyg'unlashtirish uchun sharoit yaratadi. Shu ma'noda, uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini kompetent yondashuv asosida modellashtirishda loyihalashtirilayotgan model "...obyekt tarkibiga kiruvchi komponentlar, ularning o'zaro aloqadorligi, shuningdek, ishlash va rivojlanish xususiyatlarini aniq belgilash maqsadidagi tadqiqot predmetining ko'rgazmali-mantiqiy namoyishi" sifatida qaraladi hamda jarayonning mazmun-mohiyati tushuntiriladi. Modellashtirishning maqsadi "...tashqi muhit va o'zaro aloqada bo'lgan obyektlar haqidagi ma'lumotlarni olish, ishlatish, tasvirlash va qayta ishlashdir".

Sohadagi o'zgarishlar, jumladan, ta'lim tizimidagi ba'zi tub burilishlar, qadriyatlarni qayta yo'naltirish, bu jarayonda o'qituvchilarning rolini jamoatchilik tomonidan tushunish va boshqalar, o'qituvchilarning malakasiga, ularning malaka darajasiga va zamonaviy ta'lim uchun ishlashga tayyorligiga qo'yiladigan yangi

talablarni belgilaydi. Shuning uchun o'qituvchilarning kasbiy takomillashuvga motivatsion tayyorgarligi va maktab o'qituvchilari malakasini oshirishning o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik muammolari o'zining yaxlit ilmiy yechimiga ega bo'lishi zarur.

Pedagogika sohasida uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish va olib borish borasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, o'qituvchilarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish muammosi yetarlicha o'rganilmagan. Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki,

- o'qituvchining innovatsion faoliyatini belgilovchi mezonlar ishlab chiqilgan va bu faoliyatni shakllantirish texnologiyasi, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning amaliy ahamiyati yoritilgan ;

- xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish sohadagi barcha tur, resurs, shakl va tajribalarni integratsiyalash va ko'p vektorli modelning tarkibiy komponentlari mazmunini belgilash hamda pedagogning kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuvni amaliyotga joriy qilishning zaruriy omillariga ustuvorlik berish asosida kengaytirilgan ;

- o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmining komponentlari (motivatsion, kognitiv, protsessual, kreativ) va amalga oshirish bosqichlari (mustaqil malaka oshirish, o'quv kurslari, mahorat darslari) texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha yangiliklarni o'zlashtirish dinamikasini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan ;

- pedagogik kadrlar kompetentligini rivojlantirishning strategik tuzilmasi kompetensiyaviy mezonlar(ijtimoiy, kasbiy, refleksiv, akmeologik)ni malaka oshirish jarayonida innovatsion faollikni rivojlantirish usullari (refleksiya sinergiyasi, zaruriy motivlar) bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

- o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirishning boshqaruv tizimi komponentlari (motivatsion-qadriyatli, kasbiy-faoliyatli, refleksiv-kommunikativ) onlayn tarmoq hamkorligi asosida mazmunan takomillashtirilgan;

- malaka oshirish jarayonida ta'lim sifati hamda boshqaruviga alohida e'tibor qaratilgan ;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta'minoti va ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimi takomillashtirilgan;

- malaka oshirish jarayonlarining uzluksizligi va uzviyligidan ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantiruvchi, harakatchanligini ta'minlovchi pedagogik tizim sifatida foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan .

Yuqoridagi o'rganishlardan farqli ravishda, tadqiqotimizning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun "tayyorlik" atamasiga umumiy ilmiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilishga e'tibor qaratdik. Shunday qilib, tayyorlik hodisa sifatida ilmiy tadqiqot predmeti bo'lib, u turlicha ta'riflangan:

- shaxsning ma'lum bir jarayondagi ruhiy holati ;

- jamiyatdagi ijtimoiy omillar ta'siri ostida bajaradigan muayyan turdagi xatti-harakati (faoliyati);
- shaxsning kasbiy ahamiyatga ega qimmatli fazilatlariga, mahorat va insonparvarlikka yo'naltirilganligi;
- o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, o'zini-o'zi tarbiyalashi inson xatti-harakatlarini tartibga solishning sifat ko'rsatkichi ;
- ongda ruhiy stereotiplarning yo'qligi bilan bog'liq rivojlangan shaxsiy munosabatlar tizimi (kognitiv to'siqlar).

Psixologik va pedagogik manbalarni tahlil qilish "o'qituvchining kasbiy va pedagogik faoliyatga tayyorligi" atamasiga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu pedagogik hodisaning tadqiqlash mazmuni umulashtirilganda, olimlar tomonidan asosan ikki nuqtayi nazardan o'rganilgani ma'lum bo'ldi:

a) kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlikning umulashtirilgan natijasi (kasb tanlash, kasbiy ta'lim, kasbiy o'zini-o'zi belgilash) ;

b) kasbiy funksiyalarni yetarlicha yuqori darajada bajarishga imkon beradigan maxsus bilim, ko'nikma va malakalar majmui, o'quvchilarning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni tekshirish qobiliyati .

Shaxsning oliy ta'lim muassasasidan boshlab, kasbda faoliyat boshlagunigacha bo'lgan davridagi eng muhim turtki – bu undagi o'z kasbiga nisbatan motivatsiyasi bo'lib, uning saqlanib qolishi va, ayniqsa, ichki motivatsiya shakliga o'zgarishi, keyinchalik uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq davr talablariga moslashishi, jumladan, kasbiy rivojlanishni integrativ xarakterdagi uzluksiz ta'limga aylantira olishi uchun asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Pedagogning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish doirasidagi tadqiqotlarimizni har tomonlama tahlil qilish bizga "motiv", "motivatsiya", "tayyorlik", "o'qituvchining uzluksiz kasbiy ta'limga tayyorligi", "kompetensiya", "kompetentlikni rivojlantirish" atamalarining ko'plab talqinlarini umulashtirish va o'qituvchining o'z ustida ishlashga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, biz "o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligi" toifasini subyektning pedagogik faoliyatni amalga oshirish qobiliyati bilan bog'ladik, maxsus bilim, ko'nikma, fazilatlar, mahorat va qadriyatli-motivatsion amaliy tajriba kabi yaxlit shaxsiy-kasbiy ehtiyojdan iborat bo'lgan qiymat yo'nalishlari asosida UKRni tashkillashtirish hamda joriy etish lozim, degan xulosaga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – QHMMB, 29.04.2019. 06/19/5712/3034-son.

2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

3. Pedagogika / V.A.Slastyonin, I.F.Isayev, Ye.N.Shiyanov; Pod red. V.A.Slastyonina. – M.: «Akademiya», 2002. – 576 s.

4. Shodmonova M.B. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 182 b.

5. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: diss. ... ped. fan. dok. (DSc). – Toshkent, 2019. 237 b.

6. Elektron resurs: <http://www.yspu.ru/projects/infomet/preemstvennost/Ssilki.htm>.

TA'LIM OLUVCHILARNING BILIMLARINI BAHOLASHNING AHAMIYATI VA UNING TURLARI

G.A.Ergasheva

*Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada **bilim**, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shunda-ki, ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi.

Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarining qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq-ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shunda-ki, ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, sinfdoshlari bilan hamkorlik, o'zaro bir-birlariga yordam berish sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onalarining unga, uning maktabdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabatlariga hech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqtov,

ma'qullash, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga ega.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

O'quvchilarni baholashning hozirda keng tarqalgan test sinovlari, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, mustaqil amaliy ishlar va boshqa shakllari bilan birga quyidagi ayrim shakl, usullardan foydalanish aynan o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni shakllariga mos keladi:

Suhbat. O'quvchi bilan suhbat dialog va hamkorlik tamoyillariga asoslangan bo'lishi kerak. Bunda o'quvchi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va aniq vazifalari belgilanadi. O'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali kamchiliklarni barataraf qilish yo'l-yo'riqlari ko'rsatib beriladi. O'qituvchi suhbatni oldindan rejalashtiradi va o'quvchi bilan suhbatni olib borganda, boshqa o'quvchilar so'zini bo'lmasligi uchun oldindan kelishib olishi zarur. Har bir suhbat natijasini sinf rahbari jurnaliga yozib borish maqsadga muvofiqdir. Suhbat natijasida o'qituvchi va o'quvchi bir necha muhim bo'lgan yo'nalishlarni belgilashlari lozim. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha qisqa muddatli, erishib bo'ladigan maqsadlar kelishib olinadi va bu maqsadlarga erishishda yordam berishi mumkin bo'lgan mavjud imkoniyatlarni muhokama qilib belgilab olinadi.

Sinfdoshlar bilan baholash. O'quvchilarni sinfdoshlar tomonidan baholash ko'nikmalariga sinfdosh o'quvchilarni o'rgatib borish lozim. Yaxshisi, baholashni kichik guruhlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning ma'lum bir aniq bajargan ishini baholaydi. Sinfdan oldindan qoidalar ishlab chiqilishi muhimdir. Ulardan asosiylari quyidagilar bo'lishi kerak: barcha ishtirokchilar bir-birlarini eshitishi kerak, do'stlarining so'zini bo'lib bo'lmaydi, sabr-toqatli bo'lishlari, fikrni ochiq bildirish, ijobiy yutuqlardan boshlash lozim(ular 3 tadan kam bo'lmasligi lozim), ishini yaxshilash bo'yicha o'z tavsiyalarini berish. Barcha ishtirokchilarni eshitib bo'lgandan so'ng, ishi muhokama qilingan o'quvchi o'z fikrini bildirishi mumkin.

O'z-o'zini baholash. O'quvchilar qo'yilgan maqsadga erisha olishlari uchun nimalar kerakligini aniqlay bilishlari kerak, buning uchun ularni o'z-o'zini baholashga o'rgatish zarur. O'z-o'zini baholash o'qituvchi bilan dialog olib borishga asoslangan. O'quvchilarni o'z-o'zlarini baholashga tayyorlaganda o'qituvchi quyidagi savollarni ishlatishi mumkin:

- Siz ushbu topshiriqni yaxshi bajarish uchun nimalar qildingiz?
- Qayerda xatolar bor?
- Boshqa o'quvchilarga qaysi bo'limlarni tushuntirib berishingiz mumkin?
- Ushbu masalalar bo'yicha maktabdan tashqari qanday tajribangiz bor?
- Ushbu mavzu bo'yicha qanday qo'shimcha ma'lumotlarni bilasiz?

Kuzatuv – baholashning muhim usuli bo‘lib, u ta’lim olish jarayonini tahlil va nazorat qilishga qaratilgan. Quyidagilarni talab etadi:

- Faqat ishning natijasiga emas, balki o‘quvchilar qanday ish olib borayotganligi bilan ham tanishib borish.
- O‘quvchilarning fikrlarini eshitish va zarur xulosalar chiqarish.
- O‘quvchilar erkin fikr yuritishlarini namoyon etishlari uchun muammolarni muhokama qilish.

Xulosa qilib aytganda bilimlarni tekshirish va baholashning ta’limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o‘quv materialining o‘zlashtirganligi haqida ta’lim beruvchi ham, ta’lim oluvchi ham muayyan ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, baholash natijalari ta’lim beruvchining o‘quv dasturidagi materiallarni ta’lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqishi va baholashi uchun ham muhimdir.

РАССОМ-ПЕДАГОГ ТАРБИЯЛАШДА КОМПОЗИЦИЯНИНГ ТУТГАН МУҲИМ ЎРНИ

Алишер Берикбаев

ГулДУ “Амалий санъат ва дизайн” кафедраси в.б доценти

Аннотация: Ушбу мақолада рассом педагоглар учун композиция қонуниятларини амалда қўллай олиш ва уларни етказишида амалий ва назарий жихатдан ечим беришга педагогларнинг касбий компетенцияларини қўллай олиш имкониятлари ёритилган.

Калит сўзлар: компетенция, фазо, ритм, олтин кесим, фронтал, чуқурлик, хажм.

Композиция асосларини ўрганишдан мақсад, амалий машғулотлар жараёнида ижодкорликка йўналтириш ва мустақил тасвирий санъат устида ишлашни шакллантиришдан иборатдир. Санъатда мазмун ва ғоянинг яхши ечимини, умум ижодий маҳоратини ошириш, нафосат тарбиясининг муҳим омилларидан биридир. Ҳар қандай ижодкор ўтмишдаги ранг тасвир санъат усталари меросини ва тажрибаларини ўрганиш билан бирга, томошабинга чуқур таъсир этувчи тасвир қонунлари ва услубиятини ҳам ўрганади. Амалиётда композициянинг зарур хусусиятлари, услубий шартлари бўлган соя-ёруғ, ранг ечими ҳамда унинг жозибадорлиги, чизиқлар, тус доғларини кетма-кет такрорланиб узвийлик ҳосил қилиши, катта ва кичик ўлчамлар билан белгиланган нисбат перспектива ўзгаришлар муносабатлари, кўриш бурчаги биргаликда ишлар мазмунини очиб берувчи восита бўлиб хизмат қилади.

Композициянинг тузилиши ва турларини ўрганишда ғарб ва Шарқ тасвирий санъати мактаби ва ижодкорлари асарларидан бир қанчасининг намуналари мисол бўлиши мумкин. Композиция турларини ўрганишда

нафақат реалистик ранг-тасвир, балки монументал асарлар композициясини, амалий санъат турлари, картина сатхини ифодаловчи перспективасиз композиция тузилишини ҳам ўрганиш тавсия этилади. Шу билан бирга ижодкорлар фантазияси тасоввурини бойитадиган табиат дунёси, сув ости дунёси, табиатдаги тасодифий воқеалардан тасаввур олиб, картина ечимида фойдалана олиши мумкин. Картина яратишда халқларнинг миллий хусусиятларида, кийимларни ўша ерга таалуқли манзара хусусиятларини услубий жиҳатдан ўрганиш керак.

Ранг тасвирни архитектура, театр ҳайкалтарошлик, музика, адабиёт ва шерият билан бевосита боғлаш композиция мазмунини бойитади композиция ҳар тарафлама чуқур ўрганиш иши маълум вақт шахсий иш тажрибасини, маҳорат ва чуқур идрокни талаб қилади. Турли даврлардаги санъат жамияни янги шакл, янги илғор тушунча билан бойитиб алоҳида ўзига хос мазмун киритади. Жамиятнинг қуриш имкониятлари, идроки ўшиши билан санъат оламида ҳар доим ескириб қолган турмуш ғоялари, турғунлик билан янги оқимлар ўртасида кураш боради [3].

Композиция ҳақида тушунчалар жуда кенг қамровли ва маъноларга эга бўлган тушунчадир. У барча ижодий жараёнларга талукли бўлиб, деярли ҳамма санъат турларининг асосини ташкил этади. Композиция унсурлари музикада ҳам, театрда ҳам фотографияда ҳам, адабиётда ҳам, ҳайкалтарошлик ва албатта бошқа тасвирий санъат билан алоқадор соҳаларда мавжуддир.

Композиция хусусиятлари бўлган–мутаносиблик, мувозонат, яхлитлик сингари сифатларни олиб қарасак, улар ҳар бир табиат воқеаларида мавжуд эканлигини сезиб олишимиз кийин эмас. Масалан, биз оддий дарахтни кўриб ундаги гўзалликдан хайратланишимиз табиий. Чунки ҳар бир нарса маълум тамойил ва қонуниятлар ичида мавжуддир. Уларнинг шакли ва мавжуд ўлчамлари, тузилиши ўзаро мутаносиб кўринишлар касб этиши унда композицион мутаносиблик, шакл тузилишидаги мувозанатнинг мавжудлигидан дарак беради. Бундай мисолни табиатдаги барча жисмларга тадбиқан келтириб ўтсак, кўп нарсани англаб олишимиз енгил кечади. Бунинг маъноси шундан иборатки, демак композиция қандай шакл ва мазмунда бўлмасин, авваломбор у тафаккур маҳсулидир. Буни бадиий ижоднинг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда тушунишимиз маъқул. Чунки табиатдаги тайёр шакллар билан бадиий ижод маҳсули бўлган шаклларни ўзаро фарқлашимиз даркор [4].

Маълумки композиция тушунчасининг барча санъат турларига алоқадор умумий жиҳатлари ва шунингдек, ҳар бир соҳага оид ўзига хос жиҳатлари бор. Уларни атрофлича ўрганиш, таҳлил қилиш ижодий фаолиятининг ўсишида муҳим аҳамият касб этади. Композицияни унинг қонуниятларини ўрганиш назария ва амалиётга бўлиниш табиий билиб, уни яхши ўзлаштириш учун нафақат йиллар, балки асрлар давомида бу соҳада яратилган назариялар ва тажрибаларнинг туб моҳиятини англаб, ўқиб ўрганиш керак. Амалиётда қўллай билиш ҳам муҳимдир. Шунинг ҳам унутмаслик керакки, мактаб ва ўқув юртларида

дарс берувчи мутахассис, рассом-педагог композицияга оид билимлар билан тўла қуролланган бўлиши керак. Чунки болаларга расм чизиш сирларини ўргатиш жараёнининг кўп қисми мавзули расмлар чизиш амалиёти билан узвий ҳолда олиб борилади.

Маълумки «композиция» сўзи орқали рассомлар бадиий тасвирий санъат асарининг барча қисмларининг ўзаро муносабатларининг қонуниятларини тушунади. Айрим шундай боғлиқликлар албатта кўз орқали кўриб англашилади (сон жиҳатлари), бошқалари эса (сифат жиҳатлари) идроклаш, фикрлаш орқали қабул қилинади [1].

Қаламтасвир ёки ранг тасвир асарининг композицияси «структураси»сига алоқадор тушунчани моҳиятини қисқача тарзда кўриб чиқайлик. Бунинг учун композициянинг сон боғлиқлиги муносабатларини бирма-бир келтириб ўтайлик: бу чизилаётган нарсанинг абсолют ўлчамининг унинг аслига нисбати, чизилаётган ўлчам томонларининг ўзаро нисбатлари, предметларнинг масштаби, улар орасидаги масофалар, нарсаларнинг қандай бурилиб турганлиги (тўғридан кўрингани—«фас», ёндан—«профил», ярим бурилган ҳолати, «комбинациялашган»—мураккаб ва х.к.), уфқ сатҳи даражаси, ёруғлик манбаининг ҳолати? Соя-ёруғнинг тақсимланиши, туси, соя ва ёруғнинг нисбий мувозанати, шунингдек асосий ранг доғлари мувозанати, тасвирланаётган объектларнинг бўлақларининг ўзаро жойлашиши, қиёфалар ва фонга нисбатан «контраст»лар фарқи (ранг, соя-ёруғ, ўлчам), композиция унсурларини фазодаги кўринишини ташкил қилиш (метр, ритм) ва бошқалар [2].

Юқорида келтириб ўтилганларнинг барчаси предметларнинг сондаги белгиларидан. Уларни ўлчаш ва санаб кўрсатиш мумкин. Композицияда қанча нарса иштирок этаётганини аниқлаш имконияти аниқ. Шундай қилиб, кўриш орқали қабул қилиш мумкин бўлган белгиларни композициянинг воситалари деб аташимиз мумкин. Бу асосда эса расом уларнинг бевосита ёрдамида ўз фикрини ифодалаш имкониятига эга бўлади. Худди мусиқа яратаётган композитор ноталардан фойдалангани сингари рассом ҳам юқорида санаб ўтилган воситалардан фойдаланиб, ўз асари ғоясини юзага чиқаради, тасвирларда кўрсатиб беради. Сондаги композиция сифатини таъминловчи, фикрни тўлиқ ифода этишга хизмат қилувчи белгиларни жамловчи ҳолат мазмуни композиция тамойиллари дейилади. Улар яхлит, мутаносиблик, ўлчамлар мувофиқлиги, мувозанат, бирлик ва узвийликдир. Булар орқали рассом ишнинг сифат даражасини таъминлайди. Натижада асар композицияси юзаки эмас, балки чуқур маъно касб этади, тафаккурлаш натижасида тушунилади. Рассом композиция тамойилларини усталик билан қўллаб, ҳар томонлама ютуққа эришади, композиция бекаму-кўст бўлади.

Маълумки, композиция тамойиллари уч хил кўринишда намоён бўлади. Уар куйидагича: фронтал, ҳажм-фазовий ва чуқурлик-фазовий кабилардан иборат.

Фронтал композицияда асар мустақиллигига эришишга ҳаракат қилинади. Уни яратишда ижодий изланиш маълум чегара ичидаги юзада олиб борилади. Композиция иккита координата орқали (вертикал ва

гаризонтал) ривожланишини билдиради. Унда учинчи координат чуқурлик қолган иккисига бўйсунган ҳолатда иштирок этади. Бундай композиция амалий безак композицияларида кўп қўлланилади.

Ҳажмий композицияда уч ўлчам (узуңлиги, эни ва баландлиги) ичида ижодий изланиш олиб борилади. Унда композициянинг барча воситаларидан унумли фойдаланилади. Ҳажм фазовий композицияларида эса шакллар уч ўлчамли ҳолатларда яратилади. Улар ҳар томондан туриб, айланиб кўришга мўлжалланган бўлиб, ҳайкалтарошликда қўлланилади. Чуқурлик фазовий композиция предметларини картина текислигида тасвир этишда қўлланади ва дастгоҳли рангтасвирда фойдаланилади.

Чуқурлашган-фазовий композиция яратишда уйғунлик қонунлари: *мувозанат қонуни, бирлик қонуни ва бир-бирига бўйсунуш қонуни* ҳамда контраст, ритм, нюанс, ўхшашлик, пропорция ва масштаб каби уйғунлик воситаларидан фойдаланилади. Чуқурлашган-фазовий композиция рассомчиликда, ҳайкалтарошликда ҳам кенг қўлланилади. Меъморчиликда юқоридаги қонун ва воситаларнинг биронтасига амал қилинмаса, бундай композиция, биринчидан, мукаммал бадиий асар даражасига етмайди. Фазовий композиция яратишда фактуранинг аҳамияти катта. Фактура шаклларнинг умумий кўриниши, рангларнинг сўниқ-равшанлиги даражасига таъсир кўрсатади [1].

Тарихдан маълумки ўтмишнинг улуғ рассомлари композиция масалаларига жуда жиддий ёндошганлар ва ўз асарларини яратишда умум қоида бўлиб қолган тамойилларга амал қилганлар. Композициянинг «вертикал», «горизантал», «доиравий», «квадрат», «бурчак» ва бошқа кўринишларини қўллаб юксак натижаларига, гўзал ифодавийликка эришганлар. «олтин кесим» композиция усулидан унумли фойдаланиш ҳар соҳада қўл келгани ҳам маълум [4].

Композиция тузишга мохир бўлган ва уни ўз асарларида мукаммал даражага олиб келган мўйқалам усталари кўп, уларга мисол қилиб қуйидагиларни қисман атаб ўтсак ўринли бўлади. Бундай ўтмиш тасвирий санъат усталари: Леонардо да Винчи, Микеланджело, А.Дюрер, Ж.Д.Энгр, П.Рубинс, Рафаэль, А.Иванов, К. Брюллов, И.Е.Репин, Я.Матейко ва бошқалардир.

Хулоса қилиб айтсак Ўзбек рассомларидан тасвирий санъатнинг турли тур ва жанрларида ижод қилган ва ҳозирги пайтда ажойиб асарлар яратиб келаётган мусаввирлардан айримларини санаб ўтишимиз мумкин. Ў.Тансиқбоев, И.Икромов, З.Иноғомов, Ч.Ахмаров, Х.Хусниддинхўжаев, А.Абдуллаев, Р.Ахмедов, Р.Чориев, И.Жаббаров, А.Бойматов, Ж.Умарбеков, Ш.Абдурашидов, А.Мирзаев, С.Абдуллаев, А.Икромжонов, Б.Жалолов, А.Нуритдинов, О.Гозоков ва бошқа кўплаб ижодкорларни бемалол композиция усталари деб аташимиз уларнинг асарларини ижобий жиҳатларини таҳлил қилиб, ибрат олишимиз мумкин, бу албатта ўқув машқларини бажаришда назарий асос вазифасини ўтайди.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Назилов Д.А. ва бошқалар. Композиция асослари. Дарслик. - Т.:2009.

2. F.Абдурахмонов Композиция асослари ўқув қўлланма.Ўқув қўлланма Т.:2009.

3. Alikulovich B.A. Subject Training Disciplines as a Means of Forming Professional Competence in Future Teachers of Fine Arts //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 8965-8989.

4. А.Берикбаев. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш: Дис. ... докт. фил пед. наук: 13.00.01 2023.-67 с.

YANGI BAHOLASH TIZIMI: AFZALLIKLAR VA QULAYLIKLAR

Bekmirzayev Hasan Safarovich

SVPYMO 'MM Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i ,

Norboyeva Gulhayo Nabijonovna

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi, ona tili va adabiyot fani metodisti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta'lim maktablaridan joriy etilgan "Mezonlarga asoslangan baholash tizimi" ning mohiyati, afzalliklari hamda qulayliklari yoritib berildi, formativ va summativ bahoning qo'yilish talablari yoritildi.*

Kalit so'zlar: *formativ, summativ, CHSB, BSB, reproduktiv, produktiv.*

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, joriy qilinayotgan yangicha va zamonaviy yondashuvlarning zamirida yosh avlodni yanada bilimli, salohiyatli va yetuk qilib voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Shunday islohotlardan biri bugungi kunda maktab ta'limi tizimida yangicha baholash tizimining kirib kelishi bo'ldi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 16-avgustda 248-sonli buyrug'i ishlab chiqildi va shu buyruq asosida Respublika bo'yicha 500 ta umumta'lim maktablarida tajriba- sinov sifatida yangi baholash tizimi joriy etildi.

Mavjud baholash tizimi nimasi bilan bizni qanoatlantirmadi?

Amaldagi baholash tizimida chorak yakuniga ko'ra o'quvchi qanday bilim va ko'nikmalarni egallaganini baholash mumkin bo'lgan aniq mezonlar mavjud emas. An'anaviy baholash tizimi o'quvchining darsga tayyorgarligini muntazam tekshirish va uni baholash bilan tavsiflanadi. Mavjud bo'lgan baholash jarayonini quyidagicha izohlash mumkin:

-kimdir jon berib ishlasa, kimdir faqat kelb-ketadi. Lekin choraklik natijasi hammasida bir xil;

-bir o'quvchining hamda bir sinf o'quvchining bilim darajasi bitta insonning potensialiga bog'liq;

-o'quvchining past o'zlashtirayotganini bilamiz, lekin asl sababini ko'ra olmaymiz;

-har bir o'quvchiga zamon talabi bo'yicha individual yondashishning imkoni yo'qday ko'rinadi;

-o'qituvchida ham, o'quvchida ham belgilangan maqsadning aniq emasligi;

-baholash uchun aniq mezonlarning yo'qligi;

-baholashning obyektivligi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Respublikamizning bir qator maktablarida tajriba tariqasida o'quvchilar bilimini baholashning 5 ballik tizimi o'rniga mezonga asoslangan 100 ballik baholash tizimi joriy etildi. Yangi tizim zamirida 4K usuli – ijodiy fikrlash, tanqidiy yondashish, kolloboratsiya (hamkorlik) hamda mulohaza yotadi. Tizim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

-reproduktiv daraja (bilim)-reproduktiv darajadagi topshiriqlar mazmuni o'quvchilarning o'quv materialini qayta ishlamagan holda esda saqlab qolish qobiliyatini aniqlab beruvchi qonunlar, xossalari, formulalar, tushuncha va atamalarining mohiyatini o'rganish, eslab qolish va idrok etishga mo'ljallangan.

-produktiv daraja(qo'llash)-topshiriqlar mazmuni mavzuni o'zlashtirishda fanning qonun va qonuniyatlari xossalari va formulalarini qo'llash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash,tahlil qilish, taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish bir qancha qonun va qonuniyatlardan foydalanishdan iborat.

- mulohaza yuritish- intellektual darajadagi topshiriqlarning mazmuni o'zlashtiilgan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, qonun va qonuniyatlardan foydalangan holda tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirishni talab etadi.

Yangi baholash tizimi- aniq mezonlarga asoslangan bo'lib obektiv, aniq, haqqoniy, ishonchli va shaffofligi bilan farq qiladi. Bunda o'quvchilar ikki turda baholanadi: a) formativ baholash; b) summativ baholash.

Formativ baholash- muntazam ravishda rejalashtirilgan holda olib boriladigan jarayon bo'lib, unda dars davomida o'quvchilar savol-javob, o'yinlar, loyihalar, taqdimotlar, guruh faoliyati orqali baholanadi. Natijalar o'qituvchiga o'z faoliyati samaradorligini kuzatib borishi va zaruriyati bilan o'qitish metodikasini tahlili uchun kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni rag'batlantirish maqsadida 10 ballgacha baholaydi. Darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasining o'sishi kuzatib boriladi va ta'lim olishdagi ehtiyojlari o'rganiladi. O'quvchiga bajarilgan ish sifati haqida fikr bildiriladi. Choraklik bahoning 10%ini formativ baho tashkil etadi.

Summativ baholash - ma'lum bir o'quv davri yoki o'quv dasturining qismi (chorak, trimestr, o'quv yili, bob, bo'lim) oxirida amalga oshiriladigan baholash turi bo'lib, ikki bosqichda :BSB va CHSB orqali baholanadi.

Bo'lim bo'yicha summativ baholash (BSB)- har bir bo'lim oxirida o'quvchi erishgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasi tekshiriladi. O'quvchilar va ularning ota-onalariga bo'lim bo'yicha to'plangan ballar haqida ma'lumot oladi. Bo'lim bo'yicha summativ ish ballari Choraklik bahoning 50%ni tashkil etadi.

Chorak bo'yicha summativ baholash (CHSB) - chorak bo'yicha o'quv rejasi mazmunini o'zlashtirish darajasi tekshiriladi. O'quvchilar va ularning ota-onalari

chorak bo'yicha to'plangan ballar haqida ma'lumot oladi. Chorak bo'yicha summativ ish ballari umumiy choraklik ballarini 40% ni tashkil etadi. Formativ bahoda ham summativ bahoda ham har bir ball uchun alohida mezon ishlab chiqilgan.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktori, loyiha muallifi D. Davidovanning ta'kidlashicha " endilikda faqatgina nimanidir shunchaki bilish muhim emas. Fikrlash , olingan bilimlarni amalda qo'llash , tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, to'g'ri va adolatli baholash tizimi ta'lim sohasini isloh qilishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'quvchini bilimini obyektiv baholash uni to'g'ri yo'naltirishga asos yaratadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari // Akademnashr-Toshkent, 2020, 196-bet.

2. Oxunova D. O'quvchilar bilimini baholashda zamonaviy yondashuvlar // <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilar-bilimini-baholashga-zamonaviy-yondashuvlar>, Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 2 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-2-870-876 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1

ОРИЕНТАЛИЗМЫ В ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ РУССКОЯЗЫЧНОЙ ПРЕССЫ УЗБЕКИСТАНА

Ш.Н.Маматова

*преподаватель кафедры русского языка Самаркандского
государственного университета*

Аннотация: в статье рассматривается функционально-прагматический статус ориентальной лексики публицистических текстах русскоязычной прессы Узбекистана, определены лексико-семантические параметры ориентальных лексем, на примере заимствованных эргонимов из узбекского языка.

Ключевые слова: ориентальная слова, заимствование, восточная лексика, эргонимы, публицистика, русскоязычная пресса.

Annotatsiya: «O'zbekiston matbuoti rus tilidagi badiiy va publisistik matnlarda Sharq leksemalarining leksik-semantik parametrlari» maqolada O'zbekiston rus tilidagi matbuotining badiiy va publisistik matnlarida sharq so'zlarining funksional-pragmatik maqomi ko'rib chiqiladi, o'zbek tilidan olingan ergonimlar misolida sharq so'zlarining leksik-semantik parametrlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Sharq so'zlari, ergonimlar, jurnalistika, rus tilidagi matbuot.

Abstract: the article « Lexico-semantic parameters of oriental lexemes in artistic and journalistic texts of the Russian -language press of Uzbekistan»

examines the functional and pragmatic status of Oriental vocabulary in the artistic and journalistic texts of the Russian-language press of Uzbekistan, defines the lexical and semantic parameters of oriental lexemes, using the example of borrowed ergonyms from the Uzbek language.

Keywords: *oriental words, borrowing, Oriental vocabulary, ergonyms, journalism, Russian-language press.*

В результате длительного межъязыкового взаимодействия в в материалах русскоязычной республиканской прессы Узбекистана, широко представлен пласт лексических единиц, заимствованных из восточных языков - ориентализмов, основную часть которых составляют заимствования из узбекского языка.

Под ориентализмами мы понимаем неоднородные лексемы, заимствованные из восточных языков, преимущественно - из алтайской группы тюркских, а также иранских и арабо-семитских языков. Ориентализмы вошедшие в русскую речь, как устную, так и письменную, а часть закрепились в лексической системе русского языка, используются в тексте для обозначения реалий, понятий и явлений, нехарактерных для русской культуры и имеющих особый восточный колорит.

Актуальность темы обусловлена активностью и динамизмом появления в настоящее время ориентализмов и неразработанностью этой проблемы в аспекте исследования системно-функционального и коммуникативного статуса ориентализмов в русском языке, типологически неродственных, структурно отдаленных языков.

Главным источником языкового материала в нашем исследовании являются такие современные издания русскоязычной прессы Узбекистана как газеты: «Народное слово», «Правда Востока», «Молодежь Узбекистана», «Самаркандский вестник», «Даракчи», новые независимые издания «Наставник» и др.; журналы «Звезда Востока», «Русский язык и литература в школе», «Корреспондент», а также электронные СМИ.

Газетно-журнальный текст в силу своей специфики как наиболее оперативный источник сведений обо всем новом в лексиконе личности, социальной среды и общества в целом, позволяет установить связь совершающихся в данный отрезок времени общественных процессов с изменением в лексической системе и выявить особенности проникновения, освоения и употребления лексических единиц, заимствованных из других языков; отражает особенности русско-восточных языковых, межкультурных связей в Узбекистане.

По степени освоенности ориентализмы можно разделить на 3 группы:

1) «Обрусевшие» и вошедшие в общерусский словарь, среди них выделяются, с одной стороны, слова, настолько прочно закрепившиеся в русском языке, что многими уже не воспринимаются как заимствования из

восточных языков (кирпич, лошадь, сарафан и др.), такие единицы не являются объектом нашего анализа;

2) слова полностью освоенные или активно входящие в русский литературный язык, во внешнем облике сохраняющие восточный колорит («мечеть», «минарет», «мулла»).

3) Слова, появляющиеся в русской речи лишь при определенных условиях, используемых на определенной территории и в языке ограниченной группы людей, среди них выделяются различные единицы: с одной стороны, основу ее составляют ориентализмы, характерные, как правило, для русской речи, не встречающиеся в других регионах, например, «вилоят», «лаган», «хурджук», «хоким», «юзбоши», «атола», «казы», «димляма» вряд ли будут поняты русскоязычным на территории России, тем не менее, в русскоязычном Узбекистане они не являются чем-то особенным и широко применяются. В последние годы границы между группами становятся все более нечеткими, вследствие значительной изменчивости слов, они из одной группы могут переходить в другую.

По цели использования в тексте ориентализмы разделены на две группы:

1) Слова-обозначения новых предметов и явлений, использующиеся для номинации реалий, отсутствующих в русской культуре и характерных только для восточного мира (бастурма, закят, сура). Большинство ориентализмов относится к этой группе.

2) Слова, не связанные с обозначением новых для русской культуры реалий, это универсальные объекты духовной и материальной культуры, характерные для разных народов, в данном случае заимствования являются средствами создания восточного колорита (рахмат, юк), эти единицы легко переводятся на русский язык, при этом исконное слово и перевод мало отличаются, поскольку некоторые из ориентализмов имеют в русском языке полный эквивалент (дуст- друг), а другие- частичный (хайр - милостыня, подавание).

Лексический состав восточных заимствований, употребляющихся в русскоязычной прессе нашей республики, неоднороден. По степени освоенности и употребительности, по цели использования в тексте можно выделить группы: слова, описывающие бытовые предметы, взаимоотношения между людьми, местную топонимику, блюда местной кухни животный мир и прочие характерные для местности предметы и явления.

Способы представления ориентализмов в русскоязычных текстах связаны с процессами двойного характера. Во-первых, ориентальное словосочетание или целое предложение используются в русском тексте без изменений; во-вторых, введение ориентализма сопровождается различными модификациями. Ориентализмы, используемые в текстах без изменений, могут даваться с переводом или, в другом варианте, не переводятся для русскоязычного читателя.

Рассмотрим ориентализмы, используемые в газете «Самаркандский вестник»⁴⁴

Как правило, не переводятся и не модифицируются:

- эргонимы - наименования разных организаций, предприятий, культурных, медицинских, спортивных учреждений: «Шайдо» (очарование) - цех по пошиву одежды; «Кишлок курулиш банк» (кишлок – село; курилиш – строительство); «Чорсу» (тип крытого рынка в Средней Азии, как правило сооружается на перекрестке главных магистралей города) арт-галерея, это же название дано одной из станций ташкентского метрополитена; комплекс «Марифат маркази» (марифат- просветительство, марказ - центр); СП «МАДАТ» (помощь, поддержка), специализирующийся на производстве техники и изделий медицинского назначения; АО «Узбекистон хаво йуллари» (хаво – воздух; йул – дорога, путь) - воздушные пути Узбекистана; АО «Дори дармон» (дори – лекарство; дармон-сила); оздоровительный центр «Устоз» (устоз – учитель, наставник) ; «Оила» (семья) научно-практический центр; «Соглом авлод учун» - (соглом – здоровый; авлод – поколение) благотворительный фонд для здорового поколения; «Камолот» (камолот - совершенство) - общественное движение молодежи; центры пропаганды духовности фонды «Нурони» («нур» - свет, человек приносящий свет) и вспомогательный орган управления власти на местах «Махалля»; центр «Баркамол авлод» (баркамол – совершенствующийся; авлод - поколение), направленный на выявление талантливых и одаренных детей и их развития; детские дома «Мехрибонлик», (мехрибонлик – доброта); международный женский общественный фонд «Шарк аёли» - (шарк – восток; аёли- женщина), оказывающий помощь женщинам в общественной жизни; дома «Саховат» (саховат – милосердие), где проживают люди, оставшиеся в пожилом возрасте без близких и родных; ассоциация народных мастеров, ремесленников, художников «Хунарманд» (хунар – ремесло; хунарманд-человек, обладающий ремеслом); театр «Ильхом» (ильхом - муза);

Названия должностей и титулов:

- хоким - (правитель) лицо, занимающее руководящую должность в областях и районах; аксакал – (старейшина, председатель) схода граждан;
- нагрудный знак «Узбекистон белгиси», орден «Эл-юрт хурмати» (эл-народ, юрт – родина), орден «Мехнат шухрати» (мехнат – труд; шухрат – слава, трудовая слава), орден «Буюк хизматлари учун» (буюк - великий,

⁴⁴ «Самаркандский вестник» - областная общественно политическая газета на русском языке, учредителями которой являются Самаркандский областной Совет народных депутатов и Хокимият (Администрация) Самаркандской области, одна из старейших газет в Узбекистане. В первые годы своего существования газета называлась «Самарканд». В последующие годы газета выходила под названиями «Голос Самарканда», «Пролетарий», «Узбекистанская правда» и «Ленинский путь». В сентябре 1991 года газета получила свое нынешнее название. Является одной из самых популярных русскоязычных газет в Самарканде.
https://ru.wikipedia.org/wiki/Самаркандский_вестник

выдающиеся; хизматлари – заслуги), звание «Узбекистон ифтихори» (ифтихор - гордость);

- название мероприятий: суннат туй (суннат – обрезание, туй - свадьба специальное мероприятие (свадьба), проводимое во время обрезания мальчиков в мусульманских семьях, традиционный ритуал, освященный исламом;

- «Наследники Сахибкирана» - фестиваль детского творчества (сахибкиран – великий, икки кудрат сохиби обладатель счастливого сочетания звезд); «Палов сайли» и «Сумалаяк сайли» (сайл- народное гулянье) - это весенний праздник, народное гулянье, сад для прогулок, т.е. гулянья во время которых можно не только понаблюдать за приготовлением национальных блюд «плова» и «сюмалаяка», но и оценить и выбрать лучшее блюдо; Навруз дастурхони» (наруз – новый день, дастурхон-скатерть) - скатерть, которая накрывается национальными блюдами, традиционно во время празднования весеннего праздника Навруз; «Нихол» - конкурс (нихол - росток), поддерживающие молодых и талантливых людей в области музыкального искусства; «Она юрт оханглари» (она юрт – родной край; оханглари – мелодии родного края) международный конкурс исполнителей на народных инструментах; «Шарк Тароналари» (мелодии Востока) - международный музыкальный фестиваль

- Ориентализмы используемые при описании культуры и быта нашего народа: айвân — в исламской архитектуре обозначает сводчатое помещение, с трех сторон обнесённое стеной и открытое с четвёртой стороны; дастархан (скатерть, используемая во время трапез, сервированный стол); курпача/тушак» - легкие стёганные матрацы, шириной 0,7-0,8 м., стол, который накрывают в национальных семьях; чапân (вариант кафтан) - верхняя национальная одежда до пола, который мужчины и женщины носят поверх одежды, как правило, в течение холодных зимних месяцев; Хан-атласа – (хан – король, атлас - шелк) «королевский шелк» (набивная хлопчатобумажная ткань с восточным рисунком);

- Названия национальных блюд: «тухум барак» (тухум – яйцо и барак - варенный) «шивит ош» (шивит – укроп; ош – еда), «гумма» - пирожки с начинкой из патрахи, «патир» - слоенная лепешка.

Для русскоязычной прессы характерны словосочетания, объединяющие узбекское и русское слово, например, как мардикор-бозор - место, где стоят подённые рабочие; дехканин - крестьянин, земледелец; арык - оросительный канал, канава; мужчина - дехканин, чайхана – ресторан. Например: «...Стоят скульптуры женщины-матери, мальчика и мужчины - дехканина, у ног которых находится полная корзина, символизирующая природные богатства» [5. 2023. 14].

В русскоязычных текстах нередко встречаются орфографические варианты узбекского слов. Так, например, в газетах можно увидеть варианты слов молла/мулла, где мулла - мусульманское духовное лицо;

суманак/сумаляк, -ритуальное блюдо. Например: «Накануне праздника обязательно готовятся сложные ритуальные блюда - суманак (проросшее зерно с добавлением муки и специй на дровяном огне) и халиса (халим) (мясная каша с пшеницей, горохом и овощами) «С тех пор сумаляк стал одним из главных традиционных блюд» [5. 2023. 12].

В результате сплошной выборки ориентализмов из материалов русскоязычных газет и журналов республики и их многостороннего анализа, мы пришли к следующим выводам, что семантико-стилистические особенности ориентализмов в совокупности с их аналогами из заимствованных языков могут выступать как. мощное средство экспрессивации речи. Исследование ориентализмов русскоязычной прессы на лексико-семантическом уровне дает возможность выявить особенности функционирования русского языка в Узбекистане.

Список литературы:

1. Абдусаидов А. Язык газеты и литературная норма (на материале местных и республиканских газет 70-80-х годов): Дис. канд. филол. наук. - Самарканд, 1988.- 222 с.
2. Асфандияров И.У. О некоторых фонетико-орфографических проблемах узбекских заимствований в русском языке // Языкознание: Тез. докл. и сообщ. - Ташкент: Фан, 1980.- С.238-239.
3. Бушеева А. И. Ориентализмы в системно-функциональном аспекте (на материале русского и французского языков). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. - Чебоксары - 2009.
4. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. - М.: Русский язык, 1998.- 848 с.
5. https://ru. Самаркандский_вестник.
6. https://ru.wikipedia.org/wiki/Шарк_Тароналари.

THE CONCEPT "FAMILY" AND ITS REFLECTION IN THE ENGLISH AND UZBEK LINGUAL CULTURES

Ruzieva Sitara Asrorovna

Samarkand State University, English teacher, associate professor

Abstract. *In the present article the author examines the concept "family" and its actualization in the English and Uzbek language units. The author makes a deep linguistic analysis of the concept "family" on the material of English and Uzbek phraseological units and proverbs.*

Key words: *concept, family, semantics, analysis, phraseological unit, proverb, lingual culture.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muallif "oila" tushunchasini va uning ingliz va o'zbek tillarining til birliklarida aks etishini o'rganadi. Muallif ingliz va o'zbek*

tillarining frazeologik birliklari va maqollari asosida "oila" tushunchasini chuqur lingvistik tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: kontsepsiya, oila, semantika, tahlil, frazeologik birlik, maqol, lingvokulturologiya.

Аннотация. В данной статье автор исследует концепт «семья» и его отражение в языковых единицах английского и узбекского языков. Автор проводит глубокий лингвистический анализ концепта «семья» на материале фразеологических единиц и пословиц английского и узбекского языков.

Ключевые слова: концепт, семья, семантика, анализ, фразеологическая единица, пословица, лингвокультурология.

The present investigation is devoted to comparison of the reflection of the concept “family” in the English and Uzbek languages on the material of phraseological units and proverbs containing semantics of family and kindred relations.

Actuality of the theme of investigation is vivid. The concept “family” belongs to one of the most essential humankind relations. Actual becomes comparison of reflection of this concept in two different languages: English and Uzbek. These languages differ not only by their language systems, but by national-cultural peculiarities and historical backgrounds as well.

The object of the research is the reflection of the concept “family” in the English and Uzbek lingual cultures on the material of phraseological units, proverbs and sayings.

Before studying the concept “family” we should give explanation of the term “concept”. N.D.Arutyunova explains a concept as “the notion of practical philosophy, appearing as the result of interrelation of such factors as national tradition, folklore, religion, ideology, live experience, arts styles, system of human feelings and values”. [1.] In the present investigation we mostly base on the notion of concept as scientific, collective knowledge.

Integrative definition of concept is presented by M.V. Pimenova, who comprehends concept as multihued culturally-essential social-psychic formation in social conscience, reflected in lingual expression. [2.]

As the subject of the research – language units revealing the concept “family”, it is necessary to enlighten this lexical unit itself. According to the information given in The Dictionary of Modern Literal Language” in 17 volumes, the word “family” has 4 main meanings [3.]:

1. the group of kindred relatives, living together (husband and wife, parents and children, etc.);
2. the group of animals, birds, consisting of one male animal or bird and some female animals and their babies.
3. the group of languages, having similarities (Germanic languages, Romanic languages, etc.
4. generation, dynasty, etc. (the family of Browns).

The American Heritage Dictionary gives the following explanation of the word «family»⁴⁵:

1. parents and their children;
2. a group of persons related by blood or marriage;
3. the members of the household;
4. a group of things with common characteristics;
5. biol. A group of related plants or animals ranking between a genus and an order.

The basic semantics of the English word “family” and Uzbek word “oila” is similar and denotes a limited group of people, living in one place and having close kindred relations or relations by blood or by marriage. The basic key words of the concept sphere “family” in both languages are: mother and father in English, ota va ona in Uzbek.

In both languages there can be found many phraseological units and proverbs, containing these components in their structure. Some of them have equivalents or analogues, but most of them do not. The reason is a sharp difference in the national and cultural, traditional and historical background of both language systems.

An English proverb Like father, like son is very popular among Englishmen. Similar semantic is revealed in the Uzbek expression Otasiga tortdi which means “looks like his/her father” or Otasining bolasi with meaning “the child of this father”.

There is an English proverb Many a good father hath but a bad son, there is no equivalent in the Uzbek language.

An Uzbek phraseological unit Otasining bahosini so'radi means “he (she) made very expensive price for smth” has no an English analogue.

Sometimes component related to a member of family can be replaced in two analyzed languages. Thus, the meaning “to teach an adult, experienced member of family” is transferred by component grandmother in English and component ota (father) in Uzbek.

English: to teach one's grandmother to suck eggs or Don't teach your grandmother to suck eggs,

Uzbek: Otangizga o'rgatmang (Don't teach your father).

Total similarity in semantic, morphological and structural organization of English and Uzbek language units, dealing with the concept “family”, is rarely met;

English: mother tongue,

Uzbek: ona tili (mother tongue);

English: Mother Land (or Motherland),

Uzbek: Ona Vatan (motherland);

English: expectant mother,

Uzbek: bulgusi ona (expectant mother, she will be a mother soon).

In most cases there is a semantic similarity but difference in grammatical and morphological structure:

English: Does your mother know you're out?

Uzbek: Ona suti ogzidan ketmagan (mother's milk is still on smb's lips);

English: Like mother, like daughter

Uzbek: Onasini ko'rib qizini ol (First look at her mother, and then marry her daughter).

So, the sphere of present investigation is not only interesting but actual as well. It will enlighten national-cultural peculiarities of the English and Uzbek languages and will help to understand another language culture in the process of intercultural communication and thus maintain friendship between representatives of these two languages.

References

1. Арутюнова Н.Д. Образ. Метафора. Символ. Знак. – М., 1990. С. 85.
2. Пименова М.В. О типовых структурных элементах концептов внутреннего мира (на примере концепта душа) /М.В. Пименова //Язык. Этнос. Картина мира. – Сб. науч. тр. – Кемерово, 2003. С.30.
3. The Dictionary of Modern Literal Language in 17 volumes. - M., 1962. P. 637-638.
4. The American Heritage Dictionary. - Boston, 1987. P. 254.
5. Рузиева Ситора Асоровна. (2023). Сравнительный анализ концепта «семья» в английской и узбекской паремиологии. 18–21.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7969085>

ADVANTAGES OF USING TEACHING STRATEGIES AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

Ruzieva Sitora

associate professor English language department

Qudratova Farida Rustamovna

Undergraduate Samarkand State University named after Sharof Rashodov

Abstract. *Emphasizing the communicative competence is one of the most influential developments in language education. The implementation of communicative activities in EFL/ESL classroom prepares learners to use English in the world beyond based on their own needs, interests and opportunities.*

Keywords: *communicative competence, communicative approach, social language, task-based language learning, text-based teaching.*

Аннотация. *Коммуникативная компетентность является одним из наиболее важных аспектов в языковом образовании. Внедрение коммуникативного подхода в преподавание английского языка способствует тому, что обучаемые языковые навыки могут использоваться за пределами*

своей страны на основе собственных потребностей, интересов и возможностей.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, коммуникативный подход, социальный язык, проблемное обучение, обучение на текстовой основе.

Annotatsiya. Kommunikativ kompetentsiya til ta'limining eng muhim jihatlaridan biridir. Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvni joriy etish o'qitiladigan til ko'nikmalaridan o'z ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlari asosida o'z mamlakatlaridan tashqarida foydalanish mumkinligiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetentsiya, kommunikativ yondashuv, ijtimoiy til, muammoli ta'lim, matnga asoslangan ta'lim.

The communicative approach in language teaching starts from a theory of language as communication. The goal of language teaching is to develop what referred to as "communicative competence." There are following directions in communicative language teaching:

Focuses on language as a medium of communication. Recognizes that all communication has a social purpose - learner has something to say or find out. The teacher sets up a situation that students are likely to encounter in real life. The real-life simulations change from day to day. Students' motivation to learn comes from their desire to communicate in meaningful ways about meaningful topics.

Communicative approach places great emphasis on helping students use the target language in a variety of contexts and places great emphasis on learning language functions. This means that successfully learning a foreign language is assessed in terms of how well learners have developed their communicative competence.

More emphasis on active modes of learning, including pair work and group-work. Emphasis on oral and listening skills in the classroom. Not just hearing teacher, but having personal contact themselves with language, practicing sounds themselves, per mutating sentence patterns and getting chance to make mistakes and learn from doing so.

Makes use of topical items with which pupils are already familiar in their own language - motivates pupils arouses their interest and leads to more active participation.

Communicative approach seeks to use authentic resources. More interesting and motivating. In Foreign language classroom, authentic texts serve as partial substitute for community of native speaker. Newspaper and magazine articles, poems, manuals, recipes, telephone directories, videos, all can be exploited in variety of ways. Communicative approach is much more pupil-orientated, because dictated by pupils' needs and interests.

The principles of communicative teaching are following:

- Teaching is learner-centered and responsive to the students' need and interests.

- The target language is acquired through interactive communicative use that encourages the negotiations of meaning.

- Genuinely meaningful language use is emphasized, along with unpredictability, risk-taking, and choice-making.

- The formal properties of language are never treated in isolation from use. language forms are always addressed within a communicative context.

- There is exposure to examples of authentic language from the target language community.

- The students are encouraged to discover the forms and structures of language for themselves.

- There is a whole-language approach in which the four traditional language skills (speaking, listening, reading, and writing) are integrated.

Different aspects of the communicative approach:

Learner-centered instruction: As opposed to teacher centered, it assumes the student is the most importance person in the class.

Cooperative and collaborative learning: This is opposed to a competitive classroom, where students work against each other to achieve a goal.

Interactive learning: Because communication is interactive, so then must be language instruction. This means that we both listen and speak when we communicate, and that both affect each other. Thus, we should prepare our students to be able to engage in negotiation of meaning with another person in a series of gives and takes in the real world.

Content-based instruction: This is the study of content at the same time as the study of language. For example, students can learn about a topic that is important to them while they develop their language skills.

Task-based instruction: This is a method of instruction that provides for students to problem-solve, write and perform role-plays or come to an agreed conclusion alone, in groups or pairs with the goal always being meaningful communication.

Communicative approach of teaching has the following **three advantages**:

1. The interaction between students and teachers. Communicative teaching is becoming increasingly clear feature is the change in the way as the internship, students develop the subject, initiative and become increasingly important. Teacher-student relationship is an interactive, harmonious relationship, rather than the traditional education, the kind of master-servant relationship.

2. To impart the basic knowledge and ability to skillfully combine the development. The communicative teaching emphasizes the learner's cognitive ability and operational capabilities, which allow the students themselves to think about and express their views, thus trained in real life the ability to use language to communicate.

3. Greatly enhanced the student's interest. Communicative teaching students to participate in, sometimes accompanied by scenes or simulated scenarios, so that

students more close to life, the students became the main character, naturally they were interested in the English language, to learn English as a pleasure.

The communicative approach is based on the idea that in order to learn a second language successfully, you have to communicate real meaning. Thus, when learners are involved in real communication, their natural strategies for language acquisition will be active and used, and this will allow them to learn to use the language.

References:

1. Brandl, K. (2008). Communicative Language Teaching in Action, New Jersey, Pearson Prentice Hall.
2. Brumfit, C. J. (1984). Communicative methodology in language teaching: The Roles of Fluency and Accuracy. Cambridge, Cambridge University Press.
3. Spada, N. (2007). Communicative Language Teaching: Current Status and Future Prospects. International Hand Book of English Language Teaching (Part I). New York, Springer.
4. Newmark, P. (1981). Approaches to Translation (Language Teaching Methodology Senes). Oxford, Pergamon Press. <https://doi.org/10.1017/S0272263100005222>.
5. S.A.Ruziyeva (2023) Key issues in teaching and learning of ESP. Samarqand davlat chet tillar institute nashriyoti.

5-SHO'BA. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALALARI: AN'ANA VA INNOVATSIYA

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИНИНГ МАЪНАВИЯТИНИ ЮСКАЛТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна

*Тошкент давлат иқтисодиёт университети профессори, педагогика
фанлари доктори*

Аннотация. Мазкур мақолада маънавиятнинг инсон ҳаётида тутган ўрни, бугунги глобллашув шароитида ёшлар маънавиятини юксалтиришнинг муҳим жиҳатлари ва мамалакатимизда маънавий соҳани ривожлантириши борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар тўғрисида маълумотлар берилган.

Калим сўзлар. Маънавият, маънавий озуқа, руҳият, қадрият, ислоҳот, тарбия, аҳли маъни вакиллари.

Аннотация. В этой статье говорится о духовности человека, живущего в тутган-юнаше, о глобальном бугунге, об условиях, связанных с духовностью юксальнинга, о том, что важно, чтобы духовность и духовность развивались, действовали согласованные реформы.

Ключевые слова. Представители духовности, духовного питания, духовности, ценностей, Реформации, воспитания, духовности людей.

Annotation. This article talks about the spirituality of a person living in tutgan-yunash, about the global bugung, about the conditions associated with the spirituality of yuksalning, that it is important that spirituality and spirituality develop, coordinated reforms work.

Key words. Spirituality, spirituality is food, spirituality, appreciation, reforms, education, piety of deputies.

Маънавият – жамият ҳаётининг шундай бир нозик, аҳамиятли йўналишики, бу борада ҳўжакўрсинга иш қилиш турли жабҳаларда кутилмаган мураккабликларни келтириб чиқариши мумкин. “Маънавият – инсонларнинг ўзаро муносабатлари, уларнинг ҳаётий тажрибалари давомида шаклланган ва ривожланган қадриятлар тизими. Инсон маънавиятини ўзини шахс сифатида англагандан бошлаб, умрининг охиригача шакллантиради ва ривожлантириб боради. Инсоннинг ўз маънавиятини ривожлантиришга бўлган эҳтиёжи чексиздир. У инсоннинг бутун онгли фаолияти давомида шаклланади, ривожланади” [1; 255б.] Айни пайтда янги Ўзбекистонни барпо этишда барча соҳаларда янгича ташаббуслар илгари сурилмоқда. Маънавият соҳасидаги ўзгаришлар эса ушбу ташаббусларга қанот бўлиши шубҳасиз.

Бутун дунёда ғоялар кураши, ахборот хуружи, рақобат ва мафкуралар олишуви кузатилмоқда. Глобаллашув жараёнларида миллий қадриятларни асрамоқ миллий маънавиятимиз барҳаётлигини таъминлаш эса энг муҳим вазифадир.

Асосий мақсадимиз – фуқаролик жамиятини қуриш ва бу жамиятда инсон қадрини юқорига кўтариш экан, уни амалга ошириш воситаси сифатида ОАВнинг аҳамияти ва ўрни жуда юқори бўлиши лозим. Афсуски, ҳозирги пайтда бу муаммо бўлиб турибди, чунки юқорида айтганимиздек, кўпроқ иқтисодий масалаларга эътиборни қаратиб, инсоннинг маънавий – руҳий қиёфасини шакллантириш оқсамокда.

Бунга ОАВ орқали тарқатилаётган материаллар яққол мисол бўла олади. Шу маънода, диққатингизни Президентимизнинг куюнчаклик билан маънавий–маърифий ишларимизга эътибор қаратиш лозимлигини таъкидлаган иқтибосларига қаратмоқчиман: “Моддий ва маънавий ҳаётни уйғун ривожлантиришимиз керак. Мафкура соҳасида бўшлиқ деган нарсанинг ўзи ҳеч қачон бўлмайди. Чунки, инсоннинг қалби, мияси, онги, тафаккури ҳеч қачон ахборот олишдан, фикрлашдан, таъсирланишдан тўхтамайди. Демак, унга доимо маънавий озуқа керак. Агар шу озуқани ўзи яшаётган муҳитдан олмаса, ёки бу муҳит уни кониктирмаса, нима бўлади? Бундай озуқани у аста – секин бошқа ёқдан излайди. Шунга йўл бермаслигимиз керак” [2;16].

Бежиз “Таълимда танаффус бўлиши мумкин, тарбияда бўлмайди”, дейишмаган. Бу ҳикматнинг моҳиятида чуқур фалсафа яширинган. Биринчи бўлиб она ўз фарзандига сўзлари орқали – боланинг онгини, дунёқарашини шакллантиради. Она ва ота тарбияда ўз тилига қанчалик безътибор бўлса, келажакда бола тарбиясиз бўлиб вояга етади. Кейинчалик “ойнадан ўпкалаб” юрмаслик учун ҳам фарзандларимиз маънавий дунёсини бойитишга эътибор қаратишимиз лозим.

Албатта, Президентимиз маънавият масаласига бежиз эътиборни кучайтираётгани, жон куйдираётгани йўқ. Миллийлик, аслида ҳар бир халқнинг маънавий бойлигининг ажралмас қисми. Шу боис сўнгги йилларда ана шу қадриятлар занжирини давом эттириш борасида самарали ишлар амалга оширилмоқда.

Дунёвий илм нима учун керагу, ботиний илм нима учун керак, деган саволларга аниқ жавоб топиб, уни ёшларга етказиш биз педагоглар олдида турган асосий вазифадир.

Маънавият – курашиб-курашга тўймайдиган, ҳеч қачон енгилмайдиган, тарозуда тортиб бўлмайдиган, мағлубиятга учрамайдиган, “қалбан улғайишга чорлайдиган, инсоннинг ички дунёси, иродасини бақувват, иймон-эътиқодини мустаҳкамлайдиган, виждонини уйғотадиган беқиёс куч, унинг барча қарашларининг мезонидир” [3;196].

Мақоламиз бошида айтиб ўтганимиздек, мен президент бўламан, мен учувчи бўламан, мен Ўзбекистон қахрамони бўламан, буюк ёзувчи бўламан, машхур артист бўламан, профессор бўламан дейишдан тортинмасин.

Комилликка интилувчи инсонларни ҳазрати Навоий ўз даврида “аҳли маъни” беб атаган эди. Аҳли маъни бу бамаъни фикрли одамлардир. Фикрлашида маъни чуқурлиги бўлган инсон ҳамма нарса тўғрисида мустақил мушоҳада қила олади. Одам ва олам тақдирига виждон билан қараш қобилияти шаклланади. Улар учун ҳаёт гўзаллиги инсоф, диёнат, камтарлик, фидоийлик, мурувват, садокат, ҳақиқат ва имон каби хислатлар билан чамбарчас боғлиқ. Бундай фазилатли инсонлар орамизда жуда кўп, эл–юрт ичида обрў топган, Янги Ўзбекистоннинг мустақамлигига ҳисса қўшаётган инсонлар кўп, улар жамиятимизнинг ҳақиқий бойлигидир.

Алишер Навоий фикрича "аҳли сурат" орасида шох бўлгунча, “аҳли маъни” орасида гадо бўлган яхши. Аҳли маънилар кимлар? Аҳли маънилар маънавияти етук шахслар бўлиб, улар туфайли ҳам юртимизда, маҳалламизда, оиламизда, Янги Ўзбекистонимиз заминида маънавият ҳамиша барқарордир.

Қуйидаги талабларни бажариш мақсадга мувофиқдир:

1. Маънавий– ахлоқий тарбия ахлоқсизликка қарши курашдаги “компания” га айланмай, мақсадга мувофиқ, узлуксиз, тизимли ва изчил амалга оширилиши зарур;

2. Талабаларда маънавий – ахлоқий хислатлар ва фазилатларни тарбиялаш фаол ҳаётий вазиятлар, ахлоқий меъёрлар бузилган ҳолатларда тарбияланувчиларнинг ўз нуктаи – назарларини ифодалашлари билан амалга оширилиши;

3. Талабаларда ўз идеалига интилишига бўлган ҳис–туйғуларига уйғотишга йўналтирилган ҳатти–ҳаракатларни ташкил этиш борасидаги кўникмаларни тарбиялаш;

4. Маънавий тарбияга доир ишларни тарбияланувчиларнинг тажрибаси, тарбия қоидаларини қабул қилишлари ва бунга тайёрликлари, яхши ва ёмон ҳатти–ҳаракатларнинг моҳиятини тушунишларини ҳисобга олган ҳолда амалга ошириш;

5. Тарбияланувчиларда юксак маънавий – ахлоқий сифатлар – инсонийлик, инсонга ҳурмат, меҳр–саҳоват, ҳушмуомалалик, ижтимоий муносабатларни ташкил этишда муомала маданияти ва ахлоқ қоидаларига риоя қилиш каби ҳолатларни таркиб топтириш;

6. Фуқаролик маданияти, онгли интизом, жамоани ҳурмат қилиш ва бошқа жуда кўп маънавий–ахлоқий сифатлар – бошқаларга ғамхурлик қилиш, одамларнинг ғам- ташвиши, қувончини тушуна олиш, ўз манфаатидан ўзгалар манфаатини устун қўйиш, ахлоқий меъёрлар ҳамда мавжуд қонунларга зид ҳатти – ҳаракатларни тўхтата олиш, маълум ҳатти – ҳаракатларни амалга оширишда жамоа аъзоларининг фикри билан ўртоқлашиш, масъулиятни ҳис этиш кабиларга асосланиши керак.

Хулоса қилиб айтганда, ёшлар – бизнинг таянчимиз, эртанги кундан умидимиз, савоб ишларимизнинг давомчилари. Нафақат хавфсизлигимиз, балки давлатимизнинг келажакдаги барқарор тараққиёти ҳам ёшларимиз дунёқараши қандай шаклланишига бевосита боғлиқдир. Иморатнинг пойдевори қанчалик бақувват бўлса, у шунчалик умрбоқий туради. Шундай экан Янги Ўзбекистон ёшларининг маънавий қиёфасини яхшилаш мамлакатимиз тараққиётининг энг муҳим вазифаларидан бири сифатида эътироф этилаверади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Фалсафа қомусий луғат. "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти". –Т.: 2004, –Б.255.
2. <https://oyina.uz/kiril/article/534>
3. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. "Маънавият" нашриёти – Т.: 2008 – Б.19

МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИЙ МУАММОЛАРОИНИ ҲАЛ ҚИЛИШДА МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ – ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТИ

Аҳрарова Зебунисо Баҳромовна

ЎзМУ Ижтимоий фанлар факультети доценти

Аннотация. Бугунги кунда ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялашда буюк маърифатпарварлар қараишларини ўрганиши, педагогик таълимотлар тарихига ҳолисона баҳо бериши, хусусан, Туркистонда жадиидчилик ҳаракати ва унинг йирик намояндаси Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг маънавий- ахлоқий қараишлари ва ижодини ўрганиши ҳам долзарблик касб этади. Мақолада буюк маърифатпарварнинг маънавий – ахлоқий қараишларидан Олий таълим ташкилоти тарбия жараёнларида фойдаланиши механизмлари ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар. Маънавий-маърифий, тарбия, ижтимоий-педагогик, ватанпарварлик, жадиидчилик.

Ўзбекистонда мустақиллик йилларида педагогик таълим жиддий ўзгаришларни бошдан кечирди. Миллий ғояга асосланган янги услубий ёндашувлар пайдо бўлди, илм-фаннинг муаммоли соҳасига илгари ишлаб чиқилмаган мавзулар кириб келди, кўплаб тарихий, ижтимоий-педагогик воқеалар янгича талқин қилинди, янги таълим стандартлари, дастурлар, дарсликлар ва ўқув қўлланмалар яратилди. Мамлакатимизда ёшларни ижтимоий муносабатлар томон йўллаш натижасида уларнинг ўзини, ўз илдизларини тушуниши, фуқаролик, маданий, кўп маданиятли ва конфессияли жамиятга интеграциялашувига имкониятлар кенгайди. Ўзбекистон

Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги “2022–2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармонида янги мазмундаги узлуксиз таълим тизимини яратишнинг ҳуқуқий-меъёрий асосларини модернизациялаш устувор йўналиш сифатида белгиланди. Натижада миллий ментал характеримизга мос келадиган юксак ахлоқий дунёқарашга эга бўлган республикаимиз ёшларини маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий ахлоқий фазилатлар, эмпатик ғамхўрлик билан боғлиқ маънавий туйғулар йўналишдаги фазилатларни намоён қилувчи психологик-педагогик тизимни такомиллаштиришга катта имкониятлар яратилди. Шу ўринда, буюк маърифатпарвар аждодлар маънавий бойлигидан фойдаланиш, уларнинг таъсирчан механизмларини таълим-тарбия жараёнига татбиқ қилиш асносида бўлажак касби учун зарур бўладиган педагогик қарашлар тизимини таркиб топтириш зарурати мавжуд бўлиб, бунда педагогик таълимотлар тараққиётига улкан ҳисса қўшган маърифатпарварлар, алломалар ижодини ўрганиш, уларнинг фаолиятига замонавий позициядан туриб, ҳолисона баҳо бериш эҳтиёжи мавжуд. Туронкистон заминида таълим-тарбиянинг ривожига улкан ҳисса қўшган Махмудхўжа Беҳбудийнинг маънавий-маърифий қарашларини ўрганиш механизмларини такомиллаштириш воситасида ёшларда ўтмишга ҳурмат билан муносабатда бўлиш, ватанпарварлик туйғусини шакллантириш, миллий ўзликни англаш, тарихий тафаккур кўникмаларини эгаллашга хизмат қилиши шубҳасиз. Бўлажак мутахассис сифатида талабалар ҳар қандай вазиятда танқидий фикрлаш ва муаммолар ечимини топиш, ўзаро ҳамкорлик асосида етакчилик қобилиятини намоён этиш, инновацион билимларга чанқоқлик ва вазиятга мослашувчанлик, тadbиркорлик ва ишбилармонлик, инсонлар билан самарали мулоқотни ташкил этиш, ишлаб чиқариш жараёнида маълумотларни баҳолаш ва таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиришга йўналтирилган тизимни ишлаб чиқишга эҳтиёж сезилмоқда. Бу вазифаларни амалга ошириш учун олий таълим муассасалари таҳсил олувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни ривожлантириш стратегиясини ўқув жараёнига татбиқ этиш долзарб муаммо ҳисобланади.

Бугунги кунда ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялашда маърифатпарварлар қарашларини ўрганиш, педагогик таълимотлар тарихига ҳолисона баҳо бериш, хусусан, Туркистонда жадиदчилик ҳаракати ва унинг йирик намояндаси Махмудхўжа Беҳбудийнинг маънавий- ахлоқий қарашлари ва ижодига бўлган қизиқиш хорижлик олимларнинг доимий диққат марказида бўлган. Жумладан, америкалик олимлар- Адиб Холид, Э Олворт, франциялик А.Беннингсон, германиялик И.Балдауф орлеанлик профессор Э.Лазери, япониялик Х.Команцу каби шарқшунос, тарихчи олимларнинг жадиदшуносликка оид тадқиқотларида мазкур масаланинг у, ёки, бу жиҳатлари тадқиқ қилинган. Умумжадидчиликка бағишланган бу

тадқиқотларнинг барчасида Бехбудий Туркистон жадидларининг етакчиси сифатида эътироф этилади ва унинг фаолиятидаги ўзига хос жиҳатлар атрофлича талқин қилинган.

МДХ давлатларида А. Маниёзов, Г.Ашуров, М.Шукуров, О.Сайфуллаев, Р.Ҳодизода, А.Мираҳмедов, И.Нуриллин каби тадқиқотчи ва олимлар жадидларни адабий-тарихий фаолиятини тадқиқ қилган. Уларнинг ҳам ишларида М.Бехбудийнинг фаолияти алоҳида эътирофга сазовор бўлади.

Учинчи Ренесанс куришнинг талаблари асосида таълим тизимини прогрессив ислоҳ қилиш ва ривожлантириш, таҳсил олувчиларнинг қизиқиш ва эҳтиёжлари асосида сифатли билим бериш, таҳсил олувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш вазифасини қатъий тарзда белгилаб берган. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиянинг 5-бандида Маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш масаласи белгиланган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 сентябрдаги “Маърифатпарвар жадидчилик ҳаракати намояндаларини мукофотлаш тўғрисида”ги фармонида, миллий таълим ва тарбия тизимини яратишга бекиёс ҳисса қўшган мутафаккир Маҳмудхўжа Бехбудий “Буюк хизматлари учун” ордени билан тақдирланди. Бу албатта юртимизда улуғ аجدодларимиз хотирасини абадийлаштириш, уларга ҳурмат кўрсатиш каби хайрли ислоҳотларни амалга ошириш ва албатта алломанинг илмий меросини янада чуқур ўрганишга кенг йўл очади.

Юксак маънавият ва ахлоқий баркамоллик ҳар қандай халқ, ҳар қандай давлат ривожининг бош мезони бўлиб хизмат қилган. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев: “Янги Ўзбекистон орзуси, бугунги кунларимизга нисбатан айтганда, ҳозирги даврнинг тақозоси, унинг асл қиёфасини, ҳаракатлантирувчи кучлари ва омилларини белгилайдиган ғоявий-маънавий асос, халқимизга хос яратувчанлик шижоати ва кенг кўламли ислоҳотларимизнинг яққол ифодасидир”, – деб таъкидлашлари бежиз эмас.

Бўлажак мутахассис сифатида талабалар ҳар қандай вазиятда танқидий фикрлаш ва муаммолар ечимини топишни, ўзаро ҳамкорлик асосида етакчилик қобилиятини намоён этишни, замонавий билимларга чанқоқликни ва вазиятга мослашувчанликни, тadbиркорлик ва ишбилармонликни, инсонлар билан самарали мулоқатни ташкил этишни, ишлаб чиқариш жараёнида маълумотларни баҳолашни ва таҳлил қилишни, янгиликларга қизиқувчанлигини ва тасаввур ҳосил қилиш кўникмаларини эгаллашларини устувор вазифалар қилиб қўйилган.

Маълумки, XIX аср охири XX аср бошларида Чор Россиясининг Ўрта Осиёдаги ёки ўша даврда номланган, Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати фақатгина сиёсий ҳукмронликни эмас, иқтисодий ҳукмронликни ҳам англатар эди. Ишлаб чиқариш, саноат корхоналарининг яратилиши, техника, транспорт тармоғининг кенгайиши меҳнатга янгича муносабатни талаб

қилар эди. Чор Россияси учун айнан мана шу жараён янги рус Туркистонини ташкил этишга ёрдам берди берди.

Ишлаб чиқаришнинг янгиланиши, янги алоқалари вужудга келди, саноат, темир йўллар, қурилиш ва бошқа соҳаларда дастлабки ишчи гуруҳлари пайдо бўлди.

Кейинги вақтларда олиб борилган тадқиқотлар, кузатувлар туфайли Чор Россияси Туркистонни мустамлакага айлантириш жараёнида маҳаллий халқларга нисбатан камситувчилик сиёсатини олиб борган, дея оламиз. Айнан бу ғоя ўша давр маъмурларининг Ўрта Осиёдаги стратегик режаларини асосини ташкил қилган. Бундай ҳаракат Туркистонда амал қилган ижтимоий ҳаёт қонунлари ва анъаналарини издан чиқариш, маҳаллий жамиятнинг диний-маънавий негизини барбод қилиши, миллий маданият ва таълимни обрўсизлантириш ва секин-аста бетарафлаштириш, пировард натижада Туркистонни янгича руслаштиришдан иборат бўлган.

Ўлкани Россиянинг хос-ашё манбаига ва тайёр маҳсулотлар бозорига айлантирилиши, чексиз таланиши ва қашшоқланиши жадиждларнинг ҳамда миллий буржуазиянинг нафратини уйғотиб, юртнинг иқтисодий мустақиллигини тиклаш ғояси ва курашини шакллантирди.

Туркистоннинг ўша даврдаги зиёли қатлами рус ҳукмронлигини четдан сунъий равишда яратилганлиги, бу миллий қадриятларни ифодалай олмаслигига ишонч ҳосил қилиб, ўз мамлакатини ўзгалар эмас, ўзлари бошқаришлари лозимлигини тушуниб етдилар. Бунинг учун эса курашиш лозимлигини, бу йўлда бор имкониятдан фойдаланиш Ватанининг озодлиги шунчаки оддий кураш билан эмас, балки етук сиёсий ирода билан амалга оширилиши лозимлигини бор бўйи билан англаб етдилар. Маҳмудхўжа Беҳбудий шунинг учун ҳам “ҳақ олунур, берилмас”, деган эди.

“Эллик йилдан бери, – деб ёзган эди Фитрат, – эзилдик, таҳқир этилдик. Қўлимиз боғланди. Тилимиз кесилди. Оғзимиз қопланди. Еримиз босилди, молимиз таланди. Шарафимиз емирилди, номусимиз ғасб қилинди. Инсонийлигимиз оёқ-ости қилинди. Тузимли турдик, сабр этдик. Кучга таянган ҳар бир буйруққа бўйсундик. Бутун борлиғимизни бердик”.

Мавжуд ҳолат XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистон заминида мустамлакачилик ва улуғ миллатчиликка асосланган сиёсий-маъмурий тизимни бошлаб берди. Жумладан, Беҳбудийнинг ҳам бу борада ўз фикри ва маслағига эга эди. Жадиждлар ўз асарларида асосан Туркистон ва Бухородаги мавжуд урф-одатлар, эски мадраса таълими, хурофот ва жаҳолатни, маҳаллий бойларнинг саводсизлигини танқид остига олдилар. Улар ўлкани маданий-маърифий, ижтимоий-иқтисодий қолоқликдан қутқариш учун дунёвий ва диний илмларни ўрганувчи ёшлар кераклигини ўқтирдилар. Бундай ёшлар ривожланган мамлакатларнинг шаҳарлари Москва, Санкт-Петербург, Истамбул, Берлин, Лондон, Париж олий мактаб ва мадрасаларида таълим– тарбия, савод ва маърифат олганлиги, уларнинг Туркистонга кераклигини оммага тарғиб қилдилар. Жадиждларнинг

бу ғоявий қарашлари шу даврдаги қатор мақола ва асарларда, айниқса, Маҳмудхўжа Бехбудийнинг «Падаркуш» («Отасини ўлдирувчи») (1911) пьесасида зиёлининг саводсиз бойга ўғлини диний ва дунёвий илмлардан хабардор қилиш зарурлиги борасида берган насиҳатларида очиқ-ойдин кўрилади. Жадиждларнинг бу борадаги фикр-ғоялари асардаги Зиёлининг дунёқарашини орқали ифодаланган ва деярли бутун ўлканинг ёш авлодига қаратилган эди, деб айтиш мумкин. Жадиждлар вақтни ўйнаб ўтказувчи замонлар ўтиб кетганини, энди билим олиш, илм-фан кучи билан турмуш тарзини ўзгартиришни талаб этувчи янги даврнинг келганини айтмоқчи бўлган: «Ҳозир янги ва бошқа замондир. Бу замонга илм ва ҳунарсиз халқ бойлиги, ери ва асбоби кундан кун кўлидан кетгандек, ахлоқ ва обрўи ҳам кўлдан чиқар. Бунинг учун биз мусулмонларни ўқутмоққа саъй қилмоғимиз лозимдур» [8]. Бу фикр жиддий, халқ ва мамлакат тақдири билан боғлиқ ғоя олға сурилганига ҳаттоки, бу масаланинг умуммиллий даражагача кўтарилганлигига ишонч ҳосил қилиш мумкин. Ушбу ғоявий йўналишни Мунавварқори Абдурашидхонов, Ҳожи Муйин, Абдулла Авлоний, Абдулқодир Шакурий, Абдулла Бадрий, Абдурауф Фитрат ва бошқа кўплаб жадиждчилик ҳаракати намояндалари ҳам ўз асарлари, мақолаларида ёритдилар. Туркистонда маърифатчилик Европа маърифатчилигидан фарқли ўлароқ икки асосий йўналишда кечди. Агар Европа маърифатчилиги илғор қарашлар маҳсули бўлиб майдонга чиққан бўлса, Шарқ маърифатчилиги унга ёнма-ён чоризмга қарши кайфиятни ҳам ифода этди. Моҳиятан илғор ва антиколониал негизга эга бўлган маърифатчилик, асосан тартиботларга қарши кураш хусусиятини намоён қилди. Чунки мустамлака ҳукмронлигига 1875 йилда Туркистон генерал-губернаторлиги таркибида тузилган Туркистон ўқув ишлари бошқармаси қошида маҳаллий мактаб ва мадрасалар бўйича назорат комиссияси ташкил этилиб, уни бошқариш В.Наливкинга берилди. Маориф ноziри бўлган Наливкиннинг 1901 йилда Тошкент шаҳридаги эски мактабларнинг шу вақтлардаги ҳолати ҳақидаги маълумотига қарасак, эски мактаб машғулотлари учун алоҳида бинолар қурилмаган. Эски мактабларда дарслар асосан масжидларда, ҳужраларда ва қишлоқ оқсоқолларининг уйларида олиб борилган. Бу мактаблар санитария-гигиенанинг талабларига умуман жавоб бермас эди. Биз бу маълумотларни адиб С.Айнийнинг “Эски мактаб”, М.Муҳаммаджоновнинг “Эски мактабларда хат - савод ўргатиш” номли қитобларида ҳам атрофлича маълумотлар берилган. Ўқувчилар похол буйраларда ўтиришган. XIX аср охири – XX аср бошларида оммалашган отинчилик қизлар учун бошланғич таълим вазифасини адо этди. Уларга бибиҳалифа ёки бибиотинлар дарс берганлар. Мактаб йилларида қизлар ўз бибиотинлари бошчилигида асосан «Ҳафтияк»ни, Қуръоннинг 2-3 сурасини ўқиб ўрганганлар. Қуръоннинг бошқа сураларини эса уйларида ўргатишган. «Қизлар учун илм мутлақо ортиқча. Қизларни тикиш, бичиш ва тўқишга ўргатинглар, ўқиш ва ёзишни четга суриб қўйинглар, – деган жамоагчилик фикрининг мавжудлиги

адабиётларда келтирилади. – Тарихий билимлар эса асосан пайғамбар ва авлиёлар ҳақидаги афсоналарни ўз ичига оладилар. Камдан-кам кизлар ўқишга ўргатилади, ундан ҳам кам ҳодисаларда – ёзишга; улардан кўпчилиги асосан кундузги ибодат, намоз ўқиш билан банд», – деб, шу давр мактаб-маорифига баҳо берилади. Туркистондаги мактабларда қизлар кўпроқ форс ва турк шеърятини ўрганиб, ёзувга кам эътибор берганлар. Мактабларни тугатишлари билан қизларнинг ўқишлари ҳам тугаган. Уларга умуман дунёвий фанлар ўқимаган ва дунёвий ишларга аралашаиш мумкин бўлмаган. Баъзи жойларда қизлар мактаби бўлсада, ота-оналар бир йилдан кейинок қизларининг ўқишини тўхтатиб қўяр, одатда уларни жуда ёш эрга бериб юборардилар. М.Бехбудийнинг маърифий қарашларига эътиборни қаратадиган бўлсак, хотин-қизларни илм-у урфонга жалб этиш масаласи етакчи ўринларда турганини кўрамыз. Хотин-қизларни энди, дорилмуаллимин ва дорилфунунларга тортиш вақти етган эди. Туркистонда хотин-қизлар саводи масалалари ҳам Маҳмудхўжа Бехбудийнинг энг катта эътиборли муаммоларидан бири эди. Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, Бехбудий яратган усули жаҳид руҳидаги ўзбекча ва форсча дарсликлари ўз замонасидаёқ жуда машҳур бўлиб кетган ва улардан баъзилари қайта нашр этилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Аҳмад С. Қаюм Рамазоннинг ушалмаган орзулари. – Т, 2005.-Б. 58.
2. Аҳророва З. Жаҳид педагогикаси асослари. - Т: Университет, 2006, - Б. 66.
- 3.Баёний Муҳаммадюсуф. Шажараи Хоразмшоҳий. - Т: Камалак. 1991. Б.124.
4. Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. - Т: Фан, 2004.-Б. 157.
5. Балдауф Ингеборг. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. - Т: Маънавият. 2001.-Б. 70.
6. Бартольд В.В. Сочинение. 2 том (часть 2). - М: Изд. Восточной литературы, 1963. - С. 745.
7. Бендриков К. Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. - М: Изд. Педнаук РСФСР. 1960. -С. 510.
8. Бехбудий М. Аъмолимиз ёинки муродимиз. // Ойна. 1913. № 7. Б.156.

JADIDCHILIK HARAKATIDA INSONPARVARLIK VA VATANPAVARLIK TUYG'USI

Farhod Mamadqulov

JDFPU "Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi" kafedrası f.f.n.dots.

Jasur Shodiyev

"Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi" kafedrası o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar tomonidan XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O'rta Osiyo, Kavkaz, O'rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy, madaniy-ma'rifiy tiklanish – jadidchilik harakati sifatida namoyon bo'ldi. Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g'oyasini ilgari suradilar. Ushbu maqolada yuqorida muallif tomonidan qayd etilgan fikrlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jadidlar, Turkiston, jamiyat, majlis jadid, ma'rifat, usuli jadid, milliy ko'tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g'oya, "Behbudiya".

Аннотация: В данной статье национально-культурное и просветительское возрождение, начавшееся среди народов Средней Азии, Кавказа и Средней Сибири, считавшихся джадидистами российскими колониями в конце 19 - начале 20 веков, проявилось как джадидизм. движение. Джадиды Туркестана продвигают идеи освобождения народа от отсталости и религиозных предрассудков, реформирования принципов шариата, распространения просвещения народа, достижения национальной автономии. В данной статье рассматриваются моменты, упомянутые автором выше.

Ключевые слова: современники, Туркестан, общество, медресе джадид, просвещение, метод джадид, национальный подъем, пресса, автономия, национальная идея, «Бехбудия».

Abstract: In this article, the national-cultural and educational revival that began among the peoples of Central Asia, the Caucasus and Central Siberia, considered Russian colonies by Jadidists in the late 19th and early 20th centuries, manifested itself as Jadidism. movement. The Jadids of Turkestan promote the ideas of liberating the people from backwardness and religious prejudices, reforming the principles of Sharia, spreading education of the people, and achieving national autonomy. This article addresses the points mentioned by the author above.

Key words: contemporaries, Turkestan, society, Majlis Jadid, education, Jadid method, national upsurge, press, autonomy, national idea, "Behbudiya",

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning: "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuchi" asarida: Ma'naviyatni shakllantiruvchi asosiy mezonlar ko'rsatib berilgan. Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish

masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan, unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odati va an'analari, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, ma'naviy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, bu bashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniksa, islom dini bilan bog'liq bilimlarni tarixi eng yuqori boskichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug'allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rku-tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy- ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YuNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaxo asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta me'rosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.

Ma'lumki, dunyoda har qaysi millatning o'z afsonaviy qaxramonlari, o'zi sevib ardoqlagan pahlavonlari bo'ladi. Xalqimiz azaldan o'z vujudi, o'z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo'lmoqqa intilib, o'z o'g'lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida el yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan.

Agarki mana shu muqaddas zaminimizda tavallud topib, voyaga yetgan, o'z hayoti va faoliyati bilan nafaqat tarixda, ayni vaqtda bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir va allomalарimiz, aziz-avliyolarimizni ta'riflashda davom etadigan bo'lsak, bu borada uzoq gapirish mumkin.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xalqimizning asli tabiatida mavjud bo'lgan ana shunday ilmiy- ma'naviy salohiyat va fazilatlar haqida gapirar ekanmiz, "Oqkan daryo oqaveradi", degan naql beixtiyor yodimizga tushadi. Chindan ham, tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yakqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadidchilarning faoliyati bunga yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munvvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoiy insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi.

Yuqoridazikr etilgan misollarni umumlashtirgan holda, muhim bir fikrni hulosa tariqasida ta'kidlash zarur. Gap shundaki, tariximizda bunday benazir siymolarning mavjudligi - takroran aytishga to'g'ri keladi - o'ziga xos o'ta noyob hodisadir. Bu esa nafaqat bugungi, ayni paytda ertangi avlodlarimizning ham ma'naviy boyligiga aylanib, xalqimizga xech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydigan ruhiy kuch- quvvat va madad berishi muqarrar.

Lekin ayni paytda, biz bir haqiqatni ham yaxshi anglaymizki, faqat o'tmishga, ajdodlar merosiga mahliyo bo'lib yurishning o'zi bilan uzoqqaborib bo'lmaydi.

Tariximiz sahifalari shundan dalolat beradiki, yurtimiz rivoji hamma zamonlarda ham bir tekis kechmagan. Ayniksa, temuriylar hukmronligidan so'ng - XVII asrdan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrda Turkiston zamini siyosiy parokandalik, jaholat va qoloqlikka yuz tutdi. Uch xonlikka bo'linib ketgan mintaqalar uzoq muddat o'zaro ziddiyat va qarama-qarshiliklar, urush-janjallar girdobida qolib ketgani nafaqat iqtisodiy, moliyaviy va harbiy salohiyat nuqtai nazaridan, balki ijtimoiy-ma'naviy fikr rivojida ham ko'p salbiy oqibatlarni keltirib chiqargani barchamizga ma'lum.

Tarix g'ildiragining aylanishi bilan, avvalambor, yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning takdiri va kelajagi haqida qayg'urish o'rniga, o'z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yib, jaholat va g'aflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqalar umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi.

O'zaro nizo va adovatlarning kuchayishi, faqat o'z qobig'iga, umrini o'tab bo'lgan aqidalarga o'ralashib yashash natijasida bir vaqtlar buyuk madaniyat va taraqqiyot davrlarini boshidan kechirgan el- yurtimizning bu paytga kelib qanday og'ir ahvolga tushib qolganini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymizki, ko'p narsa o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Ya'ni, tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o'z ahilligi va birdamligini saqlab, o'z milliy manfaatlarini yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va

hushyorligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir-oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi, shubhasiz.

Ming afsuski, ana shunday mash'um qismat Turkiston xalqlarini ham chetlab o'tmadi: XIX asrdagi chorizm istilosi ko'pgina sabablar bilan bir qatorda avvalambor o'sha paytda mavjud bo'lgan siyosiy boshboshdoqlik, hukmron kuchlarning uzoqni ko'rolmasligi, ma'naviy zaifligi oqibatida ro'y berganini tarixiy misollar isbotlab turibdi. Bu achchiq haqiqat barchamizga, ayniqsa, butun hayotga katta umid va ishonch bilan kirib kelayotgan yoshlarimizga saboq bo'lishi lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, biz o'z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shishimiz, shu asosda bugungi jaxon ilmu fani va madaniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev. N O'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachligi davrida). 1-kitob. – T: Sharq, 2011-yil . 409 bet.
2. G'ofurov I. Milliy hayollar va fiboiy Turkiston // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1998-yil 11-mart.
3. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917)- Akademiya. - T.: 2000 yil
4. Avloniy A. Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. –T: Ma'naviyat, 1998, 288- bet.
5. Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston", 1927-yil, 7-iyun. Ziyo uz. Com.
6. Qosimov B. "Milliy uyg'onish", - T: Sharq, 2004, 53-bet.
7. Toshqulo J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi // Xalq va demokratiya, 1992,3-4-son.
8. Behbudiy B. Behbudiy kutubxonasi. "Oyina" jurnali, 1914-yil 26-aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, 2018, 14-bet.

MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA FALSAFA ILMINING O'RNI

B.E.Toshboyev

JizzaxDPU. f.f.b.f.d. (PhD)

O.Sadullayev

JizzaxDPU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada ma'naviy tarbiya jarayoni va uni amalga oshirish zaruriyati, bu jarayonda falsafa ilmining o'rni hamda ma'naviy tarbiya jarayonida uchrab turadigan ayrim moammolar va ularning oldini olish yo'llari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ma'naviy tarbiya, yuksak ma'naviyat, ta'lim, falsafa, fan, san'at, Oliy ta'lim, degradatsiya.

Аннотация: в данной статье рассматривается процесс духовного образования и необходимость его осуществления, роль философии в этом процессе, а также некоторые проблемы, возникающие в процессе духовного образования, и пути их предотвращения.

Ключевые слова: образование, духовное образование, высокая духовность, образование, философия, наука, искусство, высшее образование, деградация.

Abstract: this article discusses the process of spiritual education and the need for its implementation, the role of philosophy in this process, as well as some problems that arise in the process of spiritual education and ways to prevent them.

Keywords: education, spiritual education, high spirituality, education, philosophy, science, art, higher education, degradation.

Tarbiya jarayoni hamma davrlarda dolzarb masalalardan biri sanalib kelgan va hozir ham u o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jamiyatning, davlatning va kelajakning taqdiri hamisha tarbiya jarayonga bog'liq sanaladi. Fikrimizga dalil sifatida Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslash kifoyadir. Tarbiya jarayoni o'z-o'zdan sodir bo'lib qoladigan mexanik hodisa emas. Hamisha u e'tibor, parvarish va nazoratni talab qiladigan uzluksiz jarayondir. Tarbiya jarayonida ma'naviy tarbiya muhim o'rin tutadi. "Ma'naviy tarbiya – yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha" [1].

Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan abadiy jihatidir. Ma'naviy tarbiya masalasida hushyorlik va sezgirlik, qat'iyat va mas'uliyat yo'qotilsa, bu o'ta muhim ish o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan minglab yillik milliy-etnik asoslarga ega millat ma'naviyati va tarixiy xotirasidan ayrilib, oxir-oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishi mumkin. Mamlakatimizning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma'naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o'lmas merosni chuqur o'rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho'qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan. Chunki, ertaga kattalar o'rnini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdirdagina komil insonlar bo'lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma'naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar ma'naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi.

Har qanday ma'naviy tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar. Ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shu bois ma'naviy tarbiya tizimida muhim o'rin tutuvchi falsafa ilmini talaba-yoshlarga to'g'ri tushuntirib bermasdan va kelajak avlodning falsafiy dunyoqarashini shakllantirmasdan turib to'laqonli ma'naviy tarbiya jarayonlarini amalga oshirish qiyin. Falsafa oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda doimo majburiy fanlardan biri bo'lib kelgan. Uning maqsadi har bir talabaga oliy ta'lim muassasida ta'lim olishni anglab etishiga ko'maklashishdir. Oliy ma'lumotli mutaxassis o'z kasbi doirasida faqat yodlangan bilimlarni bajara oladigan hunarmandga o'xshamasligi kerak. U mutaxassis sifatida hayotdagi o'rniga baho bera olishi, o'rganayotgan bilimlarining ma'nosi va ahamiyatini anglab eta olishi kerak. Shu bilan birgalikda u kelajakda kasbining asosiy tamoyillarni tushunishi lozim. Buning uchun talaba tanlagan mutaxassisligi haqidagi bilimlarni birlashtirgan yaxlit dunyoqarashga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik ta'lim muassasalarida falsafa ilmini o'rganishning asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchida yaxlit va izchil pedagoglik kasbi haqida dunyoqarashni shakllantirish va uning ma'naviy tarbiyasini takomillashtirishdir. Falsafa fan sifatida o'z qonun, kategoriya va metodlari orqali bo'lajak pedagogga o'qitishning uslublari, pedagogikaning mazmun-mohiyatini tushunishga yordam berishi, mutaxassislikka doir bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashga, fan haqiqatini isbotlashga o'rgatishi lozim. N.P.Rojdestvenskiyning so'zlariga ko'ra, "Haqiqat to'g'ri tushunilsa, shunda u yorqinroq bo'ladi, uning su'rati haqida to'liq tasavvur hosil bo'ladi" [2, 17-b.]. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlari orqali olinadigan olamning ma'lum bir qismi haqidagi parcha-parcha bilimlar haqiqatni bilishda odamda ko'pincha noto'g'ri xulosalarga olib kelib uning ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sir emas mamlakatimizda ham ayrim texnik yoki aniq va tabiiy bilim egalari orasida ijtimoiy-gumanitar ilmlar ayniqsa, fanlar "qaymog'i" sanalgan falsafa ilmiga munosabat ijobiy emas! Deyarli keying davrda hatto oliy ta'limda majburiy fanlar orasidan o'zi bitta qolgan falsafa ilmini ham olib tashlab faqat mutaxassislik fanlarini o'qitish masalasi kun tartibiga ko'yidi. Bizningcha bunday fikr yuritayotgan odamlarning ma'naviy tarbiyasi to'g'ri shakllanmagan yoki shakllantirilmagan.

Shunday qilib, falsafaning vazifasi haqiqatni tushunishdagi nomutanosiblikni yo'q qilish, olamdagi barcha narsa va hodisalar qanday va nima ekanligini ko'rsatishdir.

Falsafani bunday tushunish insoniyat madaniyatining (fan, san'at va falsafa) haqiqiy yutuqlarining izchilligini tan olishdan iborat bo'lishi kerak. Ta'kidlash joizki, islom va nasroniylik ta'lim mussasalarida ham falsafa ilmi o'qitilgan. Ayrim diniy manbalarda ham uning ahamiyati ko'rsatib berilgan masalan, "...falsafa donolikka muhabbatdir; Xudo haqiqiy donolikdir. Shunday ekan, haqiqiy falsafa Xudoga muhabbatdir" [3, 57-b.] – deb yozilgan.

Shunday qilib, falsafani to'g'ri va aniq o'rganish va o'rgatish joiz aks xolda odamning ma'naviy tarbiyasida degradatsiya jarayoni sodir bo'lib u o'ta dunyoviy tatriblarga nigilistik ko'z bilan qarovchi mutaasib yoki ilohiy ta'limotlarni inkor qiluvchi ateistik ta'limotlarga berilib ketishi mumkin. Har qanday odam doimo o'zini qiziqtirgan savollariga javob izlaydi falsafani tushunsa, u albatta ba'zi tasodifiy noto'g'ri nazariya ta'siriga tushib qolmasligi mumkin. Ma'lumki, har qanday mavzuni o'zlashtirishda oddiydan murakkabga qarab borishni asos qilib olish yaxshiroqdir. Maktab va universitet ta'limi shunday o'rganiladi. Masalan, matematika fanida (Pifagor va Evkliddan Dekart, Leybnits va Gaussgacha), fizika (Arximed va Nyutondan Plank va Eynshteyngacha) va boshqalar izchil falsafiy g'oyalarni kashf etilgan tartibda o'zlashtirish insonparvarlik, talabani falsafa muammolari bilan uyg'un ravishga yordam beradi.

17-asrda yaratilgan matematik tahlilni o'rganmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas ilgari paydo bo'lgan pre-algebra yoki geometriyani; 19-asrda kashf etilgan elektrodinamika qonunlarini tushunmasdan mexanikani tushunish imkonsiz; Gogolni o'qimasdan Dostoevskiyni chinakam tushunish mumkin emas va hokazo. Agar maktabning birinchi sinfida matematik tahlil, algebra, differensial tenglamalar va boshqalar bo'lsa nima bo'ladi? Bolalar hech narsani anglamaydi va ularda fanni yomon ko'rish hissiyoti paydo bo'ladi. Shu bois ma'naviy tarbiyaning asosi va fundamenti shakllanadigan maktab ta'limida ta'limni dialektik jarayon va uning qonun va kategoriyalari asosida uzviylik va bog'liqlik, oddiylilik va murakkablik, sabab va oqibat zanjiri ko'rinishida o'rgatilishi joiz. Shunda ko'pchilik odamlar muloqatida uchraydigan men bu fanni yomon ko'raman, bu fan menga yoqmaydi, degan fikrlar kamayishi mumkin.

Oliy ta'lim tizimida falsafa odatda statik tarzda: amalga oshirilgan, tayyor, turli fikrlar va ta'riflar to'plami sifatida o'rganiladi. Natijada, u o'z mohiyatini yo'qotadi. Natijada, talabalar falsafani tushunmaydilar chunki bu jarayonda rivojlanish yo'lidan borib fan tushuntirilmaydi.

Shunday qilib ma'naviy tarbiya jarayoni uzviylik va ketma-ketlikda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorlik tamoyillarini inobatga olgan xolda falsafa fani tamoyil va uslublari, qonun va kategoriyalari asosida amalga oshirish bizningcha ma'naviy tarbiyada o'sish va tarbiya jarayonida uchraydigan ayrim muammolarning oldini olishda qo'l kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Munozara:Ma%27naviy_tarbiya
2. Рождественский Н. П. Христианская апологетика: курс основного богословия: в 2 т. Т. 1 / Н. П. Рождественский. – СПб., 1893. – С. 17.

3. Иоанн Дамаскин, прп. Творения. Источник знания / прп. Иоанн Дамаскин. – М., 2002. – С. 57.

YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALALARI TARG'IBOTINING AHAMIYATI

Vaisov Azad Xasanovich

*Xorazm viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrası muduri, PhD*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari va uning tarixiy ildizlarining jamiyat hayotida namoyon bo'lishida ajdodlarimizning boy merosi bilan sug'orilgan g'oyalarning o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilish orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarixiy zarurat, ma'naviy meros, milliy g'oya, targ'ibot-tashviqot.

Аннотация: В данной статье научно анализируется роль и значение идей, пропитанных богатым наследием наших предков, в проявлении вопросов духовно-нравственного воспитания в Новом Узбекистане и его исторических корней в жизни общества.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, духовно-нравственное воспитание, историческая необходимость, духовное наследие, национальная идея, пропаганда.

Abstract: This article scientifically analyzes the role and significance of ideas imbued with the rich heritage of our ancestors in the manifestation of issues of spiritual and moral education in New Uzbekistan and its historical roots in the life of society.

Key words: New Uzbekistan, spiritual and moral education, historical need, spiritual heritage, national idea, propaganda.

Yangi O'zbekistonning buyuk ne'mati bo'lgan erki va ozodligi xalqimizning sa'y-harakati, barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga, Turon zaminda voyaga etgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shib, o'z g'oyalari, tafakkuri bilan o'zbek milliy g'oyasiga asos solgan ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi va sermazmun tariximizga ham tayanadi.

Har bir millatning o'ziga xos jihatlarini, xususan, ma'naviyatini shakllantirishda eng avvalo, beqiyos ta'sir kuchiga ega bo'lgan milliy qadriyatining o'rni katta. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, buyuk zotlar ma'naviy merosining, xususan, allomalarimiz ta'limotlarining o'rni va ahamiyati katta.

Katta umidlar bilan olg'a qadam tashlayotgan O'zbekiston bugungi kunga kelib, taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Dunyo tamaddunida yurtimizni "Yangi O'zbekiston", "Yangilanayotgan O'zbekiston" kabi nomlar

bilan e'tirof etmoqdalar. "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan ezgu ishlarning amalga oshirilayotgani bu yurtida istiqomat qilayotgan har bir insonning baxt-saodati uchun xizmat qilmoqda. Bu e'tirof yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida tarixiy ishlarni amalga oshirgan xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati, bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlari hamda olib borilgan keng ko'lamli islohotlarga nisbatan izhor etildi, deyish mumkin. Buyuk ajdodlarimizga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyat hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish bugungi kunda eng dolzarb vazifadir.

O'zining noyob asarlari hamda olamshumul kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olimlardan biri, Ilk Renessans davrining yorqin namoyandasi Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma'rifiy merosini yanada chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 avgustdagi "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida" gi PQ-361-son qarori"[2] ning qabul qilinishi va unga ko'ra, buyuk ajdodimiz yubiley tantanalarini nishonlashga jiddiy tayyorgarlik ko'rilishi va munosib nishonlashga doir vazifalarning belgilanishi ayni muddao bo'ldi. Jumladan, 2022-2023 yillarda buyuk mutafakkir, qomusiy olim, tabiatshunoslik asoschilaridan biri Abu Rayhon Beruniy majmuasi qurilishining rejalashtirilishi, bog' barpo etilishi, kitoblarining chop etilishi va shu kabi ezgu ishlarning amalga oshirilishi maqsad etib qo'yilganligi yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan bugungi kunda mamlakatimizga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyatimiz va ma'naviy qadriyatlarimizni jahon ahli tan olayotgan bir davrda ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shunda biz, o'tmishdagi buyuk zotlarimiz: "Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o'z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g'oyalarida mujassam bo'ldi"[1.16], deb ayta olamiz. Ular qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan o'rnak va ibrat olib, bu g'oyani yoshlar ongiga tezroq etkaza olamiz hamda ularning ilmga, tariximizga bo'lgan hurmat-ehtiromini yanada oshiramiz, ularda milliy g'urur shakllanishiga, ma'naviyatini yanada yuksaltirishga imkon yaratgan bo'lamiz.

O'zbekistonda Beruniyning ijodiga katta e'tibor berib kelinmoqda. Uning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi haqida H.Abdullaev, I.Mo'minov, V.Zohidov, Y.G'ulomov, U.Karimov, S.Bulgakov, A.Sharipov kabi olimlar risola, asarlar yaratdilar. Unga bag'ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazildi va bugungi kunda ham bu ishlar davom ettirilmoqda. Beruniyning "Qadimgi yodgorliklar", "Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Geodeziya", "Saydana" kabi asosiy asarlarini o'z ichiga oluvchi ko'p tomli saylanma asarlari o'zbek va rus tillarida

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilib, kitobxonlar jamoasiga etkazildi. SHuningdek, 2010 yilda chop etilgan kitoblar orasida faylasuf olim B.Turaev tomonidan "Abu Rayhon Beruniy" kitobchasi, 2019 yilda esa olim G.Masharipovanning "Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri" nomli monografiyasi ham nashr qilindi"[3].

Dunyo ilm-fani rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan ulug' alloma Abu Rayhon Beruniyning nomi mangu bo'lib qoladi. Uning ilmu ma'rifat o'rganish orqali olamni ezigulikka, taraqqiyotga etaklash maqsadida avlodlarga qoldirgan buyuk merosi insoniyat uchun bebaho xazina, shu bilan birga, biz avlodlarga qoldirgan ilmiy va ma'naviy merosi beqiyosdir.

Qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy Al-Xorazmiy, Forobiy va Ibn Sino bilan bir qatorda turuvchi musulmon Sharqi "Uyg'onish davri"ning eng mashhur namoyandasi. O'z davrida birinchi bo'lib Erning shar shaklida ekanligini va u quyosh atrofida aylanishi g'oyasini ilgari surgan, keyinroq Er radiusini katta aniqlik bilan o'lchagan.

Buyuk alloma o'zidan so'nggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o'z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma'lum. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakologiya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug'ullanib she'rlar yozdi. "Astrologiyaga kirish", "Astronomiya kaliti", "Jonni davolovchi quyosh kitobi", "Ikki xil harakatning zarurligi haqida", "Ko'paytirish asoslari", "Ptolemey "Almagest"ning sanskritchaga tarjimasi", "Foydali savollar va to'g'ri javoblar", "Farg'oniy "Elementlar"ga tuzatishlar", "Turklar tomonidan ehtiyotkorlik", "Oq kiyimlilar va karmatlar haqida ma'lumotlar", "She'rlar to'plami", "Al-Muqanna haqidagi ma'lumotlar tarjimasi", "Ibn Sino bilan yozishmalar" shular jumlasidandir. Bularning bari Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosining keng o'rganilishi, yoshlar qalbi va ongiga milliy g'oyaning chuqur singdirilayotganligi bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekistonning bugungi yoshlari sharoit va yangi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk allomalar va ustozlardan ibrat olib ish yuritsalar, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini to'liq egallaydilar, mamlakat taraqqiyoti, yuksalishi uchun etuk va malakali kadrlar bo'lib etishadilar.

Yangi O'zbekistonda boshlangan islohotlar, kelajak sari tashlanayotgan dadil qadamlar bardavom bo'lishini ta'minlashda dunyoda o'ziga yarasha yuksak salohiyati, benazir nufuziga mos ravishda o'rin egallayotgan mustaqil O'zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtda ana shu nomga munosib millat yashamoqda. Bu yurtda uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari, buyuk zotlari yashab o'tgan. Ayni paytda bu borada to'plangan tajriba, ana shu buyuk zotlarimizning bebaho merosi

hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, o'zbek millatining kelajagi buyuk davlat qurishda jahon ayvonida turib, o'z iymoni, e'tiqodlari, ma'naviy ruhlari bilan qo'llab-quvvatlab, olg'a etaklaydi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2022 yil 20 dekabrda Parlament va o'zbek xalqiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur"[4].

Yangi O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yilgan hozirgi davrda Uchinchi renessans poydevorini yaratishga bel bog'langan. Ana shu maqsadni ko'zlagan Prezident Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "milliy ma'naviyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ulug' allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo'lyozmalarini o'rganish, mavjud nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tadqiq qilib, xalqimizga etkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilishi"[5.34] yo'lida amaliy harakatlarga undab kelmoqda. Ana shu maqsadda Yangi O'zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho merosini chuqur o'rganish va uni keng jamoatchilikka etkazish ustuvor masalalardan biriga aylangan. Zero, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz hamda jadid bobolarimiz, xalqimizning ma'rifatparvar farzandlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi buyuk bobolarimiz vasiyatlari va ular qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan o'rnak va ibrat olib, bu g'oyaviy ta'limotni yoshlar ongiga singdira qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo'lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan bo'lamiz.

Yoshlar masalasi e'tibor markazidan, kun tartibidan o'rin olganining sababi, avvalo, aholining yarmidan ko'prog'ini tashkil etadigan yoshlar miqdor jihatidan yirik qatlam, katta kuch hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar kuch-quvvatga to'la, g'ayratli bo'lgani uchun ular boshqa guruhlariga nisbatan faol, yangiliklarga ochiq, innovatorligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. Shu bois, Prezident, "biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"[6], deb ta'kidlagani ham bejiz emas.

Vatanimiz kelajagi bo'lgan barkamol avlodni etishtirish uchun millatimizning har bir vakili o'z farzandini milliy g'oyamiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, qadimiy

tariximiz, madaniy boy o'tmishimizda chuqur iz qoldirgan buyuk siymolarimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga, jahoniy o'zigagina xos bo'lgan insonparvarlik, baynalmilallik, samimiylik va bag'rikenglik ruhida ham tarbiyalashimiz, bugungi kunda har qachongidan ham zarurroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.16.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-361 sonli qaror www.xabar.uz > jamiyat > abu-rayhon-beruniy- <https://lex.uz/docs/6172044>.
3. Masharipova G. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent: Navro'z, 2019.
4. www.xabar.uz > jamiyat > Shavkat-mirziyoyevn.. Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.34.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

MA'NAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMASIYASI SHAROITIDA YOSH OILALALAR TURMUSH TARSINI BARQARORLASHTIRISH MUAMMOLARI

*Isaxonov Ja'farxon Akbar o'g'li
SamDCHTI tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ijtimoiy-tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan o'z an'analariga ega bo'lgan tusilmalardan biri yosh oila instituti va uning turmush tarzi hisoblanadi. Oilaning sog'lom va obod turmush tarzini shakllantirishning falsafiy-estetik jihatlari yuzasidan tadqiqotlar olib borish ob'ektiv zaruriyatdir.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy hayot, ma'naviyat, qadriyatlar, an'ana, oila, yosh oila, oila instituti, nikoh, turmush tarzi.

Аннотация. Институт молодой семьи и ее образ жизни – один из образов, имеющий свои традиции с социально-исторической и современной точки зрения. Объективной необходимостью является проведение исследований философско-эстетических аспектов формирования здорового и благополучного семейного образа жизни.

Ключевые слова. Социальная жизнь, духовность, ценности, традиции, семья, молодая семья, институт семьи, брак, образ жизни.

Annotation. The institution of the young family and its way of life is one of the images that has its own traditions from a socio-historical and modern point of

view. *It is an objective necessity to conduct research on the philosophical and aesthetic aspects of the formation of a healthy and prosperous family lifestyle.*

Key words. *Social life, spirituality, values, tradition, family, young family, family institution, marriage, lifestyle.*

Oila kishilik jamiyatining eng katta kashfiyoti bo'lib, unda kishilarni tabiiy-biologik (jinsiy, ko'payish, o'z avlodini davom ettirish), moddiy-iqtisodiy (mulkni saqlab qolish, uy-ro'zg'or, xo'jalikni yurgizish), huquqiy (jamiyatda nikohni qonuniylashtirish, fuqarolik holatlarini qayd etish), ma'naviy-axloqiy (bola tarbiyasi, ayol va erkak o'rtasidagi nikohga sodiqlik, muhabbat tuyg'usini shakllantirish), estetik (oilada ikki jins vakillarining sevgi-muhabbati, sog'lom turmush tarzini yaratish, obodonlashtirish, ro'zg'or tutishni go'zallashtirish, etnoestetik qadriyatlarni saqlash) munosbatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir.

Ijtimoiy-tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan o'z an'alariga ega bo'lgan masalalardan biri yosh oila instituti va uning turmush tarzi hisoblanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd etilishicha "oila – bola chaqa, xonadon, urug' avlod. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui" [1, 17-b]. Oila – ayol bilan erkakning ixtiyoriy ravishda turmush qurish uchun tuzgan ittifoqi bo'lib, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizmdir[2, 6-b].

XX asrning 90-yillarida oila qadriyatlari transformasiyasining dunyoqarashga asoslangan jihati siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq holda faollashdi. Zamonaviy jamiyatda nikohlanishning qisqarib ketishini, ajrimlarning, noto'liq oilalarning ko'payishini kuzatish mumkin. Bu esa salbiy ijtimoiy oqibatlarini yuzaga keltirmoqda.

Har qanday jamiyatda oila noyob tarixiy hodisa sifatida ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan - u ijtimoiy institut, boshqa tomondan, u bilan kichik guruh ularning ishlash va rivojlanishning o'ziga xos naqshlari. Nikoh instituti oila instituti bilan chambarchas bog'liqdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan ta'rifga ko'ra, "oila - bu birgalikda yashaydigan ikki yoki undan ortiq kishidan iborat guruhdir. Oziq-ovqat yoki boshqa eng zarur narsalarni etkazib berish maqsadida umumiy uy xo'jaligini yuritadigan va ma'lum bir tarzda qarindoshlik, farzand asrab olish yoki nikoh (shu jumladan, fuqarolik nikohi) bilan bog'liq bo'lgan shaxslar"[3, 173-b].

Jamiyatning globallashuvi va modernizatsiyasi jarayonlari oilaning individualligi va avtonomiyasining kuchayishiga olib keladi, bu ajralishlar sonining ko'payishiga, tug'ilishning pasayishiga, nikohsiz bolalar sonining ko'payishiga va elg'iz odamlar sonining ko'payishiga olib keladi. Bularning barchasi ko'plab xorijiy tadqiqotchilarni inqiroz va hatto oilaning yo'q bo'lib ketishi haqida ijtimoiy institut sifatida e'lon qilishga majbur qildi.

Hozirgi vaqtda sotsiologik adabiyotlarda va rasmiy hujjatlarda "yosh oila" tushunchasini aniqlashga yagona yondashuv mavjud emas. "Yosh oila" ning eng keng tarqalgan tushunchasi - bu nikohdan keyingi dastlabki uch yil ichida oila

(nikoh davomiyligini cheklamagan holda bolalar tug'ilganda), unda har ikkala turmush o'rtog'i 30 yoshga to'lmagan, shuningdek, ota-onalardan biridan iborat bo'lgan oila 30 yosh va voyaga etmagan bola.

Shunday qilib, yosh oilaning asosiy xususiyatlari - rasmiy ravishda tuzilgan nikoh uyushmasi va turmush o'rtoqlarning èsh chegarasi - 17 yoshdan 30 yoshgacha. Yosh oila - bu o'z rivojlanishining dastlabki bosqichida, oilaviy tanlovni amalga oshirish bosqichida oila. Bu murakkab odamni boshqasida kashf qilishning odatiy hodisasini namoèn qiladi va belgilarning "silliqlashi" boshlanadi, ya'ni. butun turmush tarzini o'zgartirish. Bag'rikenglik, asta-sekinlik, izchillik, janjalda èn berish qobiliyati - bunday fazilatlarsiz belgilarni "silliqlash" davri ancha qiyin va murakkablashadi. Ammo "silliqlash" - bu oila tuzilishi va turmush o'rtoqlar munosabatlarining shakllanishining boshlanishi.

Bugungi kunda ajrashishlar sonining ko'pligi ham ma'naviy tahdid hisoblanadi. Manbaga kora, "2022 yilda O'zbekistonda 48 734 ta nikohdan ajrashish holatlari qayd etilgan. Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, har ming nafar aholiga to'g'ri keladigan nikohdan ajrashishlar soni – 1,4 promilleni tashkil etgan. Hududlar kesimida nikohdan ajrashish holatlari soni eng ko'p Toshkent shahrida qayd etildi – 5901 ta. Undan keyingi o'rinlardan ajrashish holatlari soni mos ravishda 5445 ta hamda 5098 tani tashkil etgan Farg'ona viloyati va Toshkent viloyati joy oldi" [4, 1-b].

Jamiyatning taraqqiyoti yoshlarni turli ijtimoiy vazifalarni bajarishga, to'plangan munosabatlarga oid tajribalarga, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga har tomonlama va uzoq tayyorlash lozimligini talab etmoqda. Yoshlarni oilada tarbiyalashda muhim ob'ektiv shart-sharoit va sub'ektiv omillarni anglash maqsadga moliqdir.

Ob'ektiv shart-sharoitlarga oilaning moddiy farovonligi, daromadlarning turlari, o'ziga xosligi va saviyasi, uy-joy bilan ta'minlanish darajasi, jamiyatda mavjud ta'lim tizimidan foydalanish darajasi, shuningdek oila a'zolarining soni, tarkibi (ota-onalarning hayotligi) va boshqalarni kiritish mumkin.

Sub'ektiv omillarga oiladagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ota-onalarning ma'lumoti, oila a'zolarining madaniy-ma'naviy saviyalari, ota-onalarning muomala madaniyati, oilada sog'lom turmush tarzining shakllanishi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash qobiliyatlari hamda yoshlarni ma'naviy barkamol o'stirish uchun olib borgan harakatlari va boshqalar kiradi.

Shu nuqtai nazardan, jamiyatda sog'lom ijtimoiy-madaniy muhitni, sog'lom tafakkur tarzi, sog'lom tarbiya tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda oilaning jamiyatdagi rolini oshirish, oilada sog'lom va obod turmush tarzini shakllantirishning falsafiy-estetik jihatlari yuzasidan tadqiqotlar olib borish obyektiv zaruriyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3 жилд. – Т., 2006. - Б. 17.
2. Бўриев О., Усмонов М. Ўзбек оиласи. Т.: Ўзбекистон, 2012.- Б. 6.

3. Социальная работа: Введение в профессиональную деятельность: учебное пособие / Отв. ред. А.А. Козлов. — М.: Логос, 2004. — С. 173.

4. <https://kun.uz/uz/news/2023/01/20/2022-yilda-qariyb-50-mingta-nikohdan-ajrashish-holati-qayd-etildi>.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA MA'NAVIY-AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASH

Ravshanova Xafiza Komilovna
Sam VPYMO'MM o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari, afzalliklari, muammo va yechimlari xususida so'z yuritiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida xalq og'zaki ijodi namunalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muhim vazifa sanaladi. Shu boisdan ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari ertak, topishmoq, maqol kabi janirlarning roli haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, axloq, odob, ma'naviy tarbiya, xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, topishmoq, hikoya.

Аннотация: В статье дети дошкольного возраста морально нравственны. Обсуждаются возможности, преимущества, проблемы и пути решения образования. Духовно-нравственное воспитание дошкольников на примерах фольклора считается важной задачей в организации дошкольного образования. Поэтому в данной статье рассматриваются примеры народного устного творчества, такие как сказки, загадки, пословицы в духовно-нравственном воспитании детей. дошкольников рассматривается важная задача, обсуждается роль жандармов.

Ключевые слова: Воспитание, нравы, нравы, духовное воспитание, фольклор, сказка, пословица, загадка, рассказ.

Abstract: In the article, preschool children are morally moral opportunities, advantages, problems and solutions of education are discussed. The spiritual and moral education of preschool children based on examples of folklore is considered an important task in the preschool education organization. Therefore, in this article, examples of folk oral creativity such as fairy tales, riddles, proverbs in the spiritual and moral education of preschool children are considered an important task. The role of gendarmes is discussed.

Key words: Education, morals, manners, spiritual education, folklore, fairy tale, proverb, riddle, story.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda

vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi o'z mashg'ulotlarida xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishi ta'lim tarbiya jarayonini yanada samarali kechishiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida biz yangi texnologiyalardan foydalanishimiz bilan bir qatorda an'anaviy ta'limni ham esdan chiqarmasligimiz zarur. Bolalarning milliy ruhda tarbiyalashimiz, milliy urf-odatlarimizni o'rgatishimizda ularni ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalashimizda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanmaslikni iloji yo'q. Sababi, o'zbek xalqi qadimdan mexnatkash, farzandlar tarbiyasiga juda qattiq e'tibor beradigan xalq bo'lgan. Bolalarga ta'lim–tarbiyada ko'proq xalq og'zaki ijodi bilan ta'sir qilish yo'lidan borganlar. Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiya berishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan bo'lgan ertaklar bizga qo'l keladi. Sababi ertaklar barcha yoshdagi bolalarga birdek yoqadi va ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ertaklarning ta'limiy xamda tarbiyaviy ahamiyati katta. Maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Sababi, ushbu metodlar bolalarning axloqiy tasavvurlari hamda bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan barcha metodlar orqali bolalarga axloqiy normalar va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi. Bolalarda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Bolalarga axloqiy tarbiya normalarini o'rgatayotganda ularni noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish mumkin emas. Bu o'rinda barcha metodlardan o'z o'rnida izchillik bilan kompleks ravishda foydalanish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ahloqiy sifatlarini shakllantirishda tushuntirish va namuna ko'rsatish metodidan foydalanish katta natija beradi.

Tushuntirish odatda bolalarga yangi axloqiy tushunchalarni, normalarni, axloqiy qonun–qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslanadi. Masalan, o'zidan kattalarga qo'lini ko'ksiga qo'yib "Assalomu alaykum" deb aytish va h. Tarbiyach axloqiy mavzulardagi suhbatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hamma guruhlarida qo'llashi mumkin. Suhbat uchun tanlanayotgan ertak yoki hikoyaning mazmuni yorqin, tushunarli bo'lib, bolalarning his-hayajoniga yetarlicha ta'sir etishi kerak.

Axloqiy mavzulardagi ertaklardan namunalar ko'rsatish orqali bolalar axloq normalari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallaydilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab boorish tarbiyachidan ziyraklik talab etiladi. Ertakdagi qahramonlarning hatti–harakatlarini tahlil qilish jarayonida bolalar o'z fikr-

mulohazalarini aytishlariga o'rganadilar. Ertak qahramonlarining har bir xatti-harakatini ongli ravishda, axloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Badiiy adabiyotni o'qib berish, san'at asarlari va amaliy san'at buyumlarini tomosha qilish, multfilmlar tomosha qilishda, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uyg'otardi, shu bilan bir qatorda axloq qoidalari va normalarini singdirib boradi. Bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida turli xil metodlardan foydalaniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy kamolotida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rganiladigan topishmoq, topishmoqli ertaklarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviyaxloqiy tarbiyalashning samarali shakl va metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi yoritib beriladi. Topishmoq azaldan xalq pedagogikasining oliy namunasi hisoblanadi. Zero, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va eng faol janrlaridan biri ham topishmoq hisoblanadi. Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, hammavaqt real zaminga asoslanadi. Unda atrofimizni o'rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan mustaqil bir asardir. Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgilar, tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go'zal obrazli ifodalar bilan aks ettiriladi. Topishmoq aytish, asosan, bolalarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Ular tarbiyalanuvchilarni ko'proq narsa va buyumlarni, tabiat va uning hodisalarini idrok qilishga yordam beradi.

MTM (maktabgacha ta'lim muassasasi)da maktabgacha yosh davrida bolalarga topishmoq aytish, uning javobini topish va xulosalar chiqarish bolalarni faqatgina o'sha aytilayotgan topishmoqning javobini topish uchun harakat qilishidagina emas, balki bolalar o'rtasida bir- biriga mehr, do'stlik, o'rtoqlik, hamjihat bo'lib yashash kerakligi haqida fikrlar bildiriladi MTT (maktabgacha ta'lim tizimi)da xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda MTT pedagog-tarbiyachilar tomonidan bolalarni ma'naviyaxloqiy tarbiyasida amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo'nalishiga ko'ra rejalashtirish va tashkil qilish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi: maqsadi, vazifasi va shakliga ko'ra turli mashg'ulot va uchrashuv, suhbat jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish; modellashtirish, ya'ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash bo'yicha vazifalarni oldindan belgilash; yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud vaziyatlarga ko'ra tarbiyalanuvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini nazorat qilish, ibrat, namuna ko'rsatish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida



rag'batlantirish. MTTda bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda sanab o'tilgan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash uchun pedagogik yondashuvni tatbiq qilish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha Rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" Qarori 2019-yil 5-may PQ-4312.
2. "Maktabgacha ta'lim- tarbiya to'g'risida"gi Qonun. -T.: O'zbekiston. 2020.
3. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. – T: Ma'naviyat. 2013.
4. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogika.- T: O'qituvchi, 1993.
5. Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta'lim pedagogika. – T: Ilm ziyo. 2006.
6. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T: Tafakkur sarchashmalari, 2013.
7. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING HUQUQBUZARLIKKA QARSHI KURASHINING MA'NAVY-AXLOQIY MASALALARI

Ismoilov Jaxongir

Jizzax viloyat Ichki ishlar boshqarmasi mayori, tadqiqotchi

Annotatsiya. Ichki ishlar tizimi jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda muhim kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarlikka qarshi kurashi jamiyatda ma'naviy barqarorlikni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Aholi, ichki ishlar idoralari, huquqbuzarlik, inson xavfsizligi, ma'naviyat, turmush tarzi, ijtimoiy barqarorlik, tinchlik, osoyishtalik.

Аннотация. Система внутренних дел становится важной силой в обеспечении мира и спокойствия в обществе. Борьба с преступностью органами внутренних дел имеет важное значение для повышения нравственной стабильности в обществе.

Ключевые слова. Население, органы внутренних дел, преступность, безопасность человека, духовность, образ жизни, социальная стабильность, мир, спокойствие.

Anotation. The internal affairs system is emerging as an important force in ensuring peace and tranquility in the society. The fight against crime by internal affairs bodies is important in improving moral stability in society.

Keywords. Population, internal affairs agencies, crime, human security, spirituality, lifestyle, social stability, peace, tranquility.

Bugungi kunda O'zbekiston davlati siyosatining asosiy yo'nalishi jamiyatdagi har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi uchun to'la sharoit yaratish, shuningdek tinch va osuda hayotini ta'minlashga qaratilgandir. Mamlakatda barqarorlik, fuqarolar totuvligi va millatlararo murosani ta'minlash maqsadlarini ham ham keng qamrovli va istiqbolli asoslarda yuksaltirishni zarurat qilib qo'ymoqda. Jamiyatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning samaradorligi aholi huquqiy ongidagi yangilanish jarayonlarib islohotlarga daxldorlik tuyg'usining keng namoyon bo'lishi bilan belgilanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, aholi bilan doimiy muloqot tarzi tufayli ichki ishlar idoralari inson hayotiy xavfsizligi va uning turmush tarzini yuksaltirishda ham doimiy chora-tadbirlar olib bormoqda. Ichki ishlar tizimi jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda muhim kuch sifatida maydonga chiqmoqda. "Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at"ga ko'ra, "Barqarorlik- tinchlik-osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat'iy, uzil-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muqim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy shartidir" [1, 18-b].

Ichki ishlar organlari aholining huquqiy faolligi, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini huquqiy tartibot faoliyati bilan muvofiqlashtiradi, bu esa, ijtimoiy hayot barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham davlat organlarining jamoat tashkimlolar bilan hamkorligi jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash kafolatlaridan biridir. Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi Nizomda "Xalq bilan tizimli manzilli muloqotni, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikni o'rnatish, aholining eng muhim muammolarini hal etishga har tomonlama ko'maklashish"[2, 1-b], deb ta'kidlangan.

Hozirgi davrimizda jamoat tartibini saqlash jarayonida mavjud bo'lgan muammolar va salbiy ko'rinishlarni aniqlash, o'rganish va tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Mazkur muammolarni o'z vaqtida bartaraf etib bormaslik boshqa xavf va tahdidlarning vujudga kelishiga yoki kuchayib borishiga olib keladi. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan mazkur mantiqiy jarayonlarni jarayon ishtirokchilarining o'z vaqtida tushunib olishi ham profilaktik masalalarni o'z vaqtida hal etilishiga ko'maklashadi. Bu jarayon o'z navbatida ichki ishlar organlarining umumiy ishida juda ham foydali voqelik bo'lib maydonga chiqadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni qaror toptirish orqali ichki ishlar tizimida ijtimoiy faol, ongli, irodali, o'z manfaatidan vatan manfaatini ustun qo'yuvchi siyosiy madaniyatli yoshlarni tarbiyalash jarayoni sodir bo'ladi. R.Jumaevning ta'kidlashicha, "Fuqarolari ma'naviy barkamol jamiyatgina ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksak cho'qqilarga ko'tariladi. Ma'naviyati yuksak bo'lgan jamiyatda taraqqiyotning o'ziga xosligi yaqqol ko'rinadi. YUksak ma'naviyatning belgisi shuki, unda bilim va ko'nikmalar insoniy qadriyatlar va insoniy axloq bilan uyg'unlashib ketadi" [3, 126-b].

Yoshlarda yuksak ijtimoiy mas'uliyat, innovatsion tafakkur, mehnat intizomi va ma'naviy fidoyilik fazilatlarini tarbiyalashda ma'naviyat va ma'rifat borasida faoliyat olib borayotgan tuzilmalarning o'rni va ahamiyati kattadir. Bu esa, har bir yoshlar vakilining o'z mas'uliyatini his qilishi, yuksak intizomga rioya etishi va belgilangan vazifalarini o'z vaqtida bajarib borishini ta'minlaydi. Shuningdek, ularning atrofdagi kishilar, jamoatchilik, jamiyat oldida o'z faoliyati uchun axloqiy jihatdan javobgar ekanligini bilishi, qonunsiz xatti-harakatlari yomon oqibatlariga olib kelishini anglashini ham amaliy namoyon bo'lishini ta'minlab beradi.

Ma'naviy targ'ibot ishlarini takomillashtirish maqsadida "Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi" tasdiqlangan. Konsepsiyaga ko'ra "Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish - oliy burchimiz!" konseptual g'oyasi asosida tashkil etilishi, xodimlarning ongu tafakkuriga Vatan va xalq manfaatlariga xizmat qilish sharaflari va muqaddas burch ekanligini anglash, davlatimiz va ichki ishlar organlarining timsollari bilan faxrlanib, qasamyodiga sodiq bo'lish hamda kasbiy burchini bajarishda qonuniylikka qat'iy rioya etish tuyg'usini chuqur singdirish" [4, 1-b], - asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Yoshlarni zararli oqimlarga ergashib ketmasligi uchun ichki ishlar organlari yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik profilaktikasini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bunday jarayonlarni tahlil etishda yoshlar huquqbuzarligi geografiyasi, yoshlarning toifalari bo'yicha klassifikatsiyasi va ularning bandlik darajalari bo'yicha toifalarga ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birgalikda mazkur tizimlar o'zaro hamkorlikda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar darajasi va ko'lamini aniqlab borish maqsadida turli sotsiologik so'rovlar ham o'tkazib borish ahamiyatli jarayonlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T: Sharq, 1998. -B.18.
2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risida Nizom. <https://bviib.uz/uz/menu/vazifalar-funksijalar>
3. Jumaev R. va boshqalar. Shaxs va jamiyat. –Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B. 126.
4. Ichki ishlar organlari va hamkor tashkilotlar memorandumi imzolandi. 19-iyun 2021. <https://qviib.uz/uz/news/ichki-ishlar-organlari-va-amkor-tashkilotlar-memorandumi-imzolandi>.

YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA TA'LIM-TARBIYA TIZIMINING O'RNI

Idiboev Abror Jamolovich

Jizzax viloyati yuridik texnikumi direktori, tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish, huquqiy ong, huquqiy madaniyat hamda ushbu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnini oshirish masalasini davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirish borasida muayyan ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, yoshlarning huquqiy tarbiyasi, huquqiy immunitet, odob-axloq qoidalari, konsepsiya, qonun ustuvorligi, huquqiy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье акцентируется внимание на необходимость проведения определенных научных исследований по вопросу повышения правовой культуры молодёжи, правосознания, правовой культуры и повышения роли институтов гражданского общества в этом процессе.

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, правовая грамотность, юридическое воспитание молодёжи, правовой иммунитет, правила этикета, понятие верховенства права, правовые ценности.

Annotation. This article focuses on the need to conduct certain scientific research on the issue of increasing the legal culture of young people, legal awareness, legal culture and increasing the role of civil society institutions in this process.

Key words: legal awareness, legal culture, legal literacy, legal education of youth, legal immunity, rules of etiquette, concept, rule of law, legal values.

Mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati huquqiy va siyosiy sohalarda yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim belgisi sifatida yoshlarda yuksak huquqiy madaniyatni rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi". Bu vazifani bajarishda esa aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini rivojlantirish va yuksaltirish yo'llarini, fundamental asoslarini maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida falsafiy kategoriyalar vositasida tadqiq etish hozirgi kunda obyektiv zaruriyat hisoblanadi [1, 1-2-son, 7-m.].

Huquqiy madaniyatni shakllantirishda asosiy maqsad qilib esa yoshlarni qonunga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ular tomonidan davlat va jamiyatga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini bilishlarida belgilanadi.

Aynan huquqiy tarbiya jahon hamda milliy huquqiy madaniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan siyosiy-huquqiy g'oyalar, normalar va prinsiplarni aks ettiradigan choralar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda huquqiy tarbiya bu alohida shaxslarda va butun jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanishi jarayonidir. Bu jarayon ommaviy axborot vositalari orqali yoki boshqa turli ko'rinishlarda davlat organlari, mansabdor shaxslar, ta'lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar orqali amalga oshiriladi. Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish kuchli huquqiy ongni taqozo etadi. Ko'pgina olimlarning fikricha xozirgi kun huquqiy ta'limning oldida turgan eng ustivor maqsadlardan biri bu huquqiy tarbiyadir. Huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat konsepsiyasini ishlab chiqish va shakllantirish jarayoni huquqshunos olimlar, faylasuflar, sotsiologlar, madaniyatshunoslarning birgalikdagi sa'y-harakatlari oqibatida yuzaga keladi. Ta'kidlash lozimki, huquqiy me'yorlarni o'zlashtirish shaxsning diniy e'tiqodi va kasbidan qat'i nazar butun umri davomida amalga oshiriladi. Uzlaksiz huquqiy ta'lim konsepsiyasini shakllantirishda shaxs huquqiy ongining psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy tarbiya jarayoni huquqiy ta'lim bilan bevosita bog'liqdir: tarbiyani ta'limsiz tasavvur qilish mumkin emas, o'z navbatida tarbiya esa ohir oqibat ta'lim beradi. O'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, olim Abdulla Avloniyning bu borada aytilgan gaplari asrlar osha o'z ahamiyatini yoqotmaydi [2]. Mazkur masaladagi farqni shartli ravishda ta'sir etish obyektiga ko'ra belgilash mumkin: tarbiya asosan inson ongining emotsional-irodaviy, qadriyat, dunyoqarash tomoniga ta'sir etsa, o'qitish esa axborot bilan tanishtirish maqsadida ongning kognitiv-ratsional tomonlariga ta'sirini ko'rsatadi.

Huquqiy tarbiyaning mazmunini insonlarda davlat va huquq, qonuniylik, shaxs huquq va majburiyatlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish, huquqiy ta'limotlarning mazmunini anglab yetish va fuqarolarni qonunga itoat etish ruhida tarbiyalash tashkil etadi.

Yoshlarning huquqiy madaniyati to'g'risida gap borganda, birinchidan, uning o'z xuquq erkinlik va majburiyatlarini bilishi tushunishi va to'g'ri anglashi baholashi uchun ikkinchidan esa ulardan amaliy faoliyatida foydalanishi haqida so'z yuritish joizdir. Huquqiy savodxonlik, bu faqat ma'lum bir huquqiy normalar, xuquq tarmoqlari xaqida ma'lumotga ega bo'lishgina emas, balki turli xil huquqiy ko'rinishlar, davlat va jamiyat hayotini huquqiy asoslarini rivojlantirish to'g'risida xabardorlik ham demakdir. Shunday qilib huquqiy savodxonlik, huquqiy bilimlarga ega bo'lish huquqiy madaniyatning bazasini tashkil etadi va jamiyatda insonlarning xulq-atvoriga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy savodxonlik, yuqorida ta'kidlab o'tganidek, faqat xuquqni bilishgina emas balki, to'g'ri tushunish hamdir, qonun amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy vazifalarni bajarishdir. Bugun yoshlarda qonunlarga bo'lgan chuqur hurmatni shakllantirish davr talablaridan biri. Qonunga xurmat bilan yondoshish, bu xurmatni amalda namoyon etishning o'zi huquqiy madaniyatining oliy darajada namoyon bo'lishidir. Huquqqa xurmat — shaxs huquqiy

madaniyatining muhim xususiyatlaridan biridir. Bu esa xuquqning ijtimoiy qadriyatini, uning ko'rsatmalarini bajarishning zarur va foydaliligini, xuquq bilan qoniqqanlik tuyg'usini undagi talablarning adolatligini, qonuniy va burchlarni amalga oshirishda faol va ijodiy munosabatni tan olishdan iborat. Ayniqsa, insonning oila oldidagi ijtimoiy — huquqiy javobgarligi va burchi tuyg'usi bebahodir. Chunki, bu tuyg'ularni qaror topishi avvalo ular tarbiyalanayotgan oilada shakllanadi va kelajakda jamiyat, davlat oldidagi mas'uliyat, javobgarlik his-tuyg'ularining poydevoriga aylanadi. Bugungi kunga kelib mamlakatimiz ta'lim tizimida ham huquqiy madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyat hayotining barcha bo'g'inlarida huquqiy tarbiya va huquqiy targ'ibot masalasi ustuvor yo'nalishlardan sanalmoqda. Aytish mumkinki, so'nggi yillar ichida ko'rilgan chora-tadbirlar besamar ketmadi. Katta avlod vakillari, ustozlarimizning e'tirof etishicha, bugungi yurtdoshimizning huquqiy bilimlari, huquqiy madaniyati darajasi sobiq sho'ro davridagiga nisbatan sezilarli darajada o'sgan. Mazkur tizimli muammolarni izchil hal etish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida 2019 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi [1]. Mazkur Farmonga ilova sifatida ikkita juda muhim hujjatlar tasdiqlandi. Bular, birinchisi: "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi" [3, 1-ilova] tasdiqlandi. O'z navbatida, Konsepsiya to'rt qismdan iborat bo'lib, birinchi qism "Umumiy qoidalarni" o'z ichiga olgan; ikkinchi qism "Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari"ga bag'ishlangan; uchinchi qism "Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari" deb nomlangan bo'lib, besh bobni o'z ichiga olgan va nihoyat to'rtinchi qism "Konsepsiyaning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar" bashoratiga bag'ishlangan. Ta'kidlash lozim, konsepsiyaning har bir qismi, har bir bobi ilmiy-amaliy tadqiqot va tahlillar, milliy va xorijiy tajribaga asoslangan bo'lib o'ta puxta ishlangan. Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan ikkinchi muhim hujjat, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini 2019 yilda samarali amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" [4, 2-ilova] bo'lib, unga ko'ra Konsepsiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash uchun xayotiy zarur bo'lgan, o'ta muhim 88 ta banddan iborat chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Bugungi kunda jamiyatning umumiy madaniyatini, jumladan huquqiy madaniyatini yuksaltirish — huquqiy davlatni barpo etish, shuning barobarida adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili sifatida maydonga chiqmoqda. Shu sababli, mamlakatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda uning beqiyos o'rni va ahamiyatini ilmiy-

nazariy jihatdan keng tadqiq etish ijtimoiy-gumanitar fanlarimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Huquqiy tafakkurning birinchi sharti va zarurati insonning ozodligi va yana bir sharti va zarurati o'ziga xos demokratik muhitning mavjudligidir.

Jamiyatda, eng avvalo yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish, yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish bugungi kunning zarurati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish — O'zbekistonning strategik maqsadi qilib qo'yilgan har tomonlama rivojlangan, erkin va farovon, qonun ustuvor bo'lgan, zamonaviy demokratik davlatlar qatoriga qo'shilishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Komillik kaliti yuksak huquqiy madaniyatga erishishdadir. Mamlakatimizda yoshlarni ilmiy, yuksak ma'naviyatli komil insonlar qilib tarbiyalashga katta e'tibor karatilayotganligi bejizga emas. Yurtimizda yuksak huquqiy madaniyatli kishilar qanchalik ko'p bo'lsa, qonun ustuvorligiga erishish shunchalik oson bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-5618-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019 y., 1-2-son, 7-modda.

2. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-avloniy/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq/>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi LEX.UZ rasmiy sayti. PF-5618. 9-yanvar 2019-yil.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga 2-ilova. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi Lex.uz rasmiy sayti. PF-5618. 9-yanvar 2019-yil.

YOZUV PAYDO BO'LISHINING MINTAQAMIZ ETNOMADANIYATIGA TA'SIRI

Kushanova Dilfuza Ubaydullayevna
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi o'qituvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda mil.avv. I-mingyillikda dastlab oromiy yozuvlari, so'ngra sug'd, xorazm va baqtriya yozuvlari tarqalishi, yozma manbalar qoyalarga, taxta va matolarga, pergament qog'ozlarga yozilgan bitiklar, Oks sivilizatsiyasida piktografik belgi, piktografik yozuv va ashyoviy yozuv turlari keng tarqalganligi kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: Yozma manbalar, dastlab oromiy yozuvlari, sug'd, xorazm va baqtriya yozuvlari, yunon, kushon, turk va arab yozuvlari.

Аннотация. Этой статье в Средней Азии до н.э. В I тысячелетии прекратилось распространение арамейской письменности, затем сугдийской, хорезмийской и бактрийской письменности, письменных источников, написанных на камнях, досках и тканях, пергаментной бумаге, широкое использование пиктографических знаков, пиктографического письма и материальных видов письменности в цивилизации Окса.

Ключевые слова: Письменные источники, ранняя арамейская письменность, сугдийская, хорезмийская и бактрийская письменности, греческая, кушонская, тюркская и арабская письменности.

Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy qismi hisoblanadi. Markaziy Osiyoda mil.avv. I mingyillikda dastlab oromiy yozuvlari, so'ngra sug'd, xorazm va baqtriya yozuvlari tarqaldi. Keyinchalik bu mintaqada yunon, kushon, turk va arab yozuvlari yoyildi. Qadimgi Fors, Sug'd, Xorazm, Qadimgi turk, fors-tojik, eski o'zbek, rus va boshqa tillarda bitilgan yozma manbalar ko'p asrlik tariximizni o'rganishda katta rol o'ynadi. Yozma manbalar qoyalarga, taxta va matolarga, pergament qog'ozlarga yozilgan bitiklardan iborat. Yozma manbalar davrlar bo'yicha nihoyatda notekis bo'lingandir. Eng qadimgi davrlar bo'yicha yozma manbalar nihoyatda oz bo'lib, keyingi asrlarga oid manbalar esa tobora ko'payib boradi. Yozma manbalarning katta qismi jangu jadallar va tabiiy ofatlar natijasida nobud bo'lgan.

Bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarning asosiy qismi milodiy X-XX asrlarga mansubdir. XIX asrning - XX asrning boshlaridan yozma manbalarning miqdori keskin oshib bordi.

Nazariyotchi va urbanist olimlar sivilizatsiyaning ta'rifi to'g'risida gap ketganda uning eng asosiy belgisi sifatida yozuvning mavjudligini e'tirof etishadi. Insoniyat tarixida harfga asoslangan yozuvga mil. avv. II mingyillik so'nggida finikiyaliklar asos solgan. Shu yozuv asosida oromiy, yunon alfavtlari paydo bo'lgan» [5:61].

Markaziy Osiyoda arab yozuviga qadar yunon, xitoy, oromiy yozuvi, oromiy yozuvi asosida paydo bo'lgan qadimgi boxtariy, xorazmiy, sug'diy yozuvlari bo'lganligi e'tirof etiladi [5:89-124].

Sivilizatsiyaning asosiy belgisi sifatida e'tirof etilayotgan yozuvning paydo bo'lishi muammosi Markaziy Osiyo, qolaversa O'zbekiston tarixida alohida mavzu sifatida o'rganilgan emas. Sababi, yaqin-yaqingacha bu mavzu bo'yicha deyarli manbalar yo'q edi.

Ma'lumki, Qadimgi Xorazmda joylashgan Katta Oybuyirqal'a yodgorligidan topilgan, mil. avv. VI - V asrlarga oid xumga bitilgan qisqa oromiy yozuvi eng qadimgi yozuv hisoblanadi. Xorazmdagi Quyqirilganqal'a va Baktriyadan topilgan Amudaryo xazinasidan ham oromiy yozuvda bitilgan xatlar topilgan. Mavjud manbalar asosida tadqiqotchilar Markaziy Osiyoda tarqalgan eng qadimgi yozuv oromiy yozuvi deb e'tirof etib kelindi.

Sopoli madaniyati piktografik belgi-yozuvlarining Janubiy Turkmaniston, Eronda tarqalgan piktografik yozuvlar bilan bir xilliligi yoki o'xshashligi o'sha xalqlar bilan juda yaqin madaniy aloqada bo'lganligidan dalolat beradi.

Oks sivilizatsiyasida piktografik belgi, piktografik yozuv va ashyoviy yozuv turlari keng tarqalgan. Tan olib aytish lozimki, bular ilk yozuvning ko'rinishlaridir. Shu tipdagi yozuv juda ko'plab sivilizatsiya darajasiga chiqqan olmagan qadimgi xalqlarda ham bo'lgan [1:103]. Bir qator tadqiqotchilar, albatta ularning fikrlari to'g'ri, yozuvni sivilizatsiyaning eng asosiy belgisi sifatida qaraydilar va ibtidoiy jamiyat va sivilizatsiyani farqlab turadigan atribut sifatida baholaydilar. I.E.Gelbning xulosasiga ko'ra yozuv faqat sivilizatsiyalar vaqtida yuz beradi, sivilizatsiyalar yozuvsiz shakllanishi mumkin emas [2:211].

Jarqo'ton yodgorligi tadqiqotchilari asarlariga murojaat qilinganda ular qabrlardan juda ko'plab predmetlarning mitti shakllari topilganligi to'g'risida ma'lumotlar berishadi [4:21]. Ular ko'pincha bronzadan va loydan yasalgan bo'lib, shakl jihatdan doira shaklli altar, ish va jang qurollari, narvon, haykal kabi ko'rinishda ifodalangan. Yana shu narsa ham ma'lumki, mitti predmetlar hech qachon bir dona emas, eng kamida uchta, ya'ni kompleks holatda uchraydi.

Predmetli yozuv o'sha vaqt insonlari uchun juda ham oddiy, tushunarli bo'lganligi va tez anglab olinganligi tabiiy hol, albatta. Chunki bu yozuv usuli ularning falsafiy dunyoqarashlari hosilasidir.

Ularning ongida ifodalangan fikrlarning ashyolar ko'magida ifodalanish holatidir. Bu tabiiy hol albatta, xuddi o'zbek xalqi etnografiyasida mavjud bo'lgan so'zlarning va odatlarning ekvivalent ma'nolarining mavjudligi bu fikrga asos bo'ladi.

Predmetli yozuvlarni o'qish, aniqrog'i tushunish uni yaratgan xalqlarning mifologik va falsafiy dunyoqarashlarini bilish, anglash bilan chambarchas holda kechadi. Agar mitti predmetlarning paydo bo'lishini

professor N.A.Avanesova ilgari surayotgan Andronovo madaniyatining ta'siri natijasida paydo bo'lgan degan fikriga qo'shiladigan bo'lsak, Oks sivilizatsiyasining predmetli yozuvlarini o'qishni indoariy xalqlariga tegishli vedalar yordamida yondashishga to'g'ri keladi. Baqtriyaning hududi, ya'ni Andronovo va Xarappa madaniyatlari oralig'ida joylashishi ham bu manbadan to'liq foydalanishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Moddiy madaniyat manbalari yozma manbalarga nisbatan ancha qadimiyroqdir. Eng qadimgi tarixiy voqealar ko'pincha yozma ma'lumotlar bo'lmagan davrlarga mansubdir. Kishilik jamiyati tarixidagi oxirgi 5000-3000 yil qismini yozma manbalar bilan birga moddiy manbalar orqali o'rganish mumkin, ammo tarixning ulkan qismini faqat moddiy arxeologik topilmalar orqaligina tiklash mumkin [6:6].

Asli milliy madaniyat va ma'naviyatning rivoji yozuv bilan bog'liq bo'lgan Sharq mamlakatlari ichida eng qadimiy yozuv namunalarini o'lkamizda yashagan ajdodlarimiz yaratganligi fanda aniqlangan. Xorazm tuprog'ida joylashgan Quyqirilganqal'a xarobalaridan topilgan sopol idishlarga o'yib yoki qora bo'yoq, bilan bitilgan oromiy tipidagi yozuv milodan avvalgi VI – I asrlarga oiddir.

Bundan tashqari, xorazmshoxlar poytaxti Tuproqqal'ada kashf etilgan milodning III asriga mansub arxiv xujjatlari, Nisodan topilgan hamda miloddan avvalgi I asrga oid Parfiya arxivi hujjatlari O'rta Osiyoliklarning ilk antik zamondayoq savodli bo'lganligini isbotlaydi [3:183].

Har bir xalqning madaniyati va ma'naviyati umuminsoniy qadriyatlar bilan naqadar bog'liq bo'lganligi, uning jahon sivilizatsiyasi tarixiga qo'shgan hissasi va tutgan o'rni bilan belgilanadi. Nafaqat Sharqda, balki butun jahonda qadimiy elatlardan biri hisoblangan o'zbek xalqining milliy madaniyati uzoq, tarixiy davrni qamrab oladi. Asli milliy madaniyat va ma'naviyatning rivoji yozuv bilan bog'liq bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, garchi madaniyat yaratilishining ildizlari yozuv shakllanidan ham oldinroq davrga borib taqalsa-da, aynan yozuvning shakllanishi madaniyatning tez va har tomonlama rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Боқиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Окс маданияти. Тошкент: "Yangi nashr", 2015.
2. Гельб И. Е. Опыт изучения письма. М., 1982.
3. Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). – Тошкент: Шарқ, 2008.
4. Ионесов В.И. Становление и развитие раннеклассовых отношений в оседло земледельческом обществе Северной Бактрии. Автореф. дис.... канд. ист. наук. – Самарканд. ИА АН Уз. ССР. 1990.
5. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. –Тошкент: Адолат, 2001.
6. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма. Т., 2004.

YAQUB CHARXIY NAQSHBANDIYA TARIQATINING NAMOIYANDASI

Mansurov Farrux Najmitdinovich

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada naqshbandiya tasavvufiy ta'limotida komil inson talqini aks ettirilgan. Tasavvufda tariqatlar ko'p. Naqshbandiya tariqati o'zining mazmun-mohiyati jihatidan boshqa tariqatlardan ajralib turadi. Naqshbandiya tariqati Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limot g'oyalari orqali komil insonni tarbiyalashni targ'ib qilgan va umumbashariyat tan olgan tariqatdir.

Kalit so'zlar: tasavvuf, nafs, tariqat, zikr, naqshbandiya.

Sharq xalqlari tafakkuri, ma'naviyati va ma'rifatiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan tasavvuf – inson kamoloti to'g'risidagi ta'limot bo'lib, komil inson bo'lish uchun avvalo jism va nafs ehtiyojini yengish talab etiladi. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish insonni nafsiga qul qilib qo'yadi. Tasavvuf yo'lini tutgan kishi nafsni rad etadi. Nafs barcha razolat, va ma'naviy halokatning sababchisi sanalib, insonni tubanlik botqog'iga yetaklovchidir. Ushbu illatlardan forig' bo'lishning birdan-bir to'g'ri yo'li nafs ehtiyojini yengib o'tishdir. Nafs va ko'ngilni poklash riyozat chekish orqali amalga oshiriladi. Riyozat chekish shunchaki, sabr-toqatli bo'lish emas balki, Haq yo'lida o'z oldiga ulug' bir maqsadni qo'yib, unga yetishish uchun ixtiyoriy ravishda barcha qiyinchiliklarni zimmasiga olish va maqsad sari intilishdir. Tasavvuf inson qalbiga sayqal berish ilmidir.

Charxiy ham Mavlono Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy qarashlaridan yetarlicha xabardor bo'lib, deyarli har bir asarida zarur o'rinlarda Jaloliddin Rumiyning baytlaridan foydalangan. Jumladan, "Risoi unsiya" ("Do'stlik haqida risola") asarida ham bir necha o'rinlarda Jaloliddin Rumiyning baytlaridan iqtiboslar keltirib "Orifi Rumi" deb e'tirof etgan. Ya'qub Charxiy Jaloliddin Rumiyning she'riyatiga alohida ehtirom bilan munosabatda bo'lib, "Masnaviy"ning baytlaridan iqtiboslar keltirgan va o'zi ham "Nay nolas" nomli risola yaratgan. Manbalarda keltirilishicha, Ya'qub Charxiyning "Nay risolasi" Shayx Hasan Xorazmiyning "Javohirul asror" asaridan so'ng Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy"sining ikkinchi sharhi sanaladi.

Ya'qub Charxiyning "Naynoma" asari Jaloliddin Rumiyning masnaviyiga yozilgan sharh hisoblanadi. Ushbu asar 1973-yilda Qobul shahrida H.Xaliliy tomonidan nashr etilgan [1].

"Ya'qub Charxiyning "Nay risolasi" masnaviyshunoslikda juda katta ahamiyatga ega bo'lib, barcha masnaviyshunos olimlar hozirga qadar ushbu asarga murojaat etadilar. Risola tariqat soliklarining tafakkur darajasi va dunyoqarashini

nazarda tutib yozilgan. Chunki, asarda ayrim tasavvufiy atamalar borki, ularning mohiyatini faqat tariqat nazariyasidan to'la xabardorlargina tushunadi. Ya'qub Charxiy Shayx Kamoliddin Hasan Xorazmiydan keyin birinchilardan bo'lib "Masnaviy"ni sharhlagan bo'lsa, undan keyin Abdurahmon Jomiy va Voiz Koshifiylar bu ishni davom ettirishgan. Eng muhimi, Ya'qub Charxiy va Abdurahmon Jomiy "nay" tushunchasini naqshbandiya tariqatining talablari asosida talqin va tahlil qilishgan. Risola qachon va qayerda yozilgani ma'lum emas. "Nay risolasi"da keltirilgan har bir bayt yoki hikoyat mazmunini Ya'qub Charxiy ko'proq Xoja Bahouddin Naqshband aytgan so'zlar va boshidan kechirgan holatlar bilan tasdiqlagan [2]".

Tasavvufning xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmasdan, balki tamoyillarini tariqatlar yo'li orqali amaliy tatbiq etishdir. "Tasavvuf" deb atalgan bu ta'limot amaliy hayotda "tariqat" deb nomlanadi.

Tasavvufda inson ruhiy kamolotida shariatdan keyingi, ma'rifat va haqiqatdan oldingi kamolot darajasi ham tariqat deyiladi.

Tariqat diniy-falsafiy kamolot yo'lidir. To'g'ri yo'lning boshida bu harakat shariat doirasida bo'ladi. Keyinchalik uning darajasi yuksaladi. Haqiqat darajasiga yetgan yo'lchi uchun diniy, jinsiy, irqiy, kastaviy, milliy va boshqa chegaralar qolmaydi. Uning harakati umumbashariy, umumjahoniy doirada yuksala boradi. Shuning uchun tariqatni ruhiy, ma'naviy taraqqiyot yo'li deyish lozim. Bu yo'l ma'lum chiziqdagi yoki ma'lum doiradagi yo'l bo'lmay, inson ruhini oliy had darajasiga yuksaltiradigan kamolot yo'lidir.

Tariqat – arabcha "tariyq", ya'ni "yo'l" degan ma'noni bildirib, tasavvuf adabiyotida "Ollohgacha yaqinlashmoq va Uning roziligiga erishish maqsadida pir rahbarligida yurish kerak bo'lgan yo'l" demakdir. Ushbu yo'lga yurgan kishiga esa "solik" deyiladi. Solik bu yo'lda yurish davomida Ollohnin bilib-tanigunga qadar turli manzillar va maqomlarni bosib o'tadi. Tariqat tushunchasidagi yo'l moddiy hayotdagi bir manzilni boshqasiga tutashtiruvchi ma'nosida emas, balki ruhiy kamolot yo'li ma'nosida qo'llaniladi.

"Tariqat – haqiqatni mistik bilishning uslubidir" [3]. "Tariqat" – amaliy uslub bo'lib, tolibni tafakkur, hissiyot va amallarga yo'naltiradi, uni bosqichma-bosqich maqomlardan o'tkazib, holatlar, deb nomlanuvchi psixologik tajribalar bilan ilohiy haqiqatga yetkazadi"[4] deydi tariqatlarni islomshunoslikda maxsus tadqiq etgan ingliz olimi Dj.S.Trimingem. Tariqat "ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan kishining ruhiy-axloqiy yo'lidir. Tariqat tasavvufning amaliy qismi" degan ta'riflar ham bor. Professor N.Komilov tariqatga "taraqqiyot yo'li"[6] deb baho beradi. Taraqqiyot yo'ligha kirgan tolib bunga o'zini ongli ravishda bag'ishlab, bu jarayonni tezlashtirmoqchi bo'ladi, o'zligidan, nafsidan g'olib keladi.

Tasavvuf "tariqat yo'ligha kirgan"larni dunyoviy zavq-shavqdan voz kechishga, kamtarin hayot kechirishga, tarki-dunyochilardan ibrat olishga chaqirgan, ammo ilohiy ishqni tarannum etib, shu bilan birga o'zining ilohiy g'oyalari bilan hayotbaxshlik kuychilari bo'lmish Nizomiy Ganjaviy, Hofiz Abro',

Abdurahmon Jomiy, Umar Hayyom, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarga ilhom bag'ishlagan.

O'z davrida buyuk "ikkinchi muallim" hisoblangan Abu Nasr Forobiy ta'kidlaganidek, tasavvuf — jaholatparastlik illatidan butunlay forig' ta'limotdir. Tariqat amallari shariat amallarini yanada mukammal bajarishga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Tariqat islom shariatiga asoslangan ibodatlarni bajarishga qaratilgan maxsus ma'naviy yo'ldir. O'z-o'zidan ma'lumki, qancha ko'p ibodat qilinsa, shuncha ko'p savob hosil bo'ladi. Ushbu ta'limot va vazifalarni murshidi komil muridlariga o'rgatadi va rahnamolik qiladi. Tariqat ota-onaga, piru ustozga muhabbatli bo'lish, Najmiddin Kubro kabi ona Vatan uchun jon fido qilish, Xoja Ahrori Valiy kabi yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun bor kuch va imkoniyatini baxshida etishdir.

Mavlaviya tariqati qat'iy markazlashtirilgan tasavvuf yo'li bo'lib qolganiga qaramay, uning tarkibidan boshqa yana bir mustaqil oqim yaratilmagan. Dastlab, suluklar tarkibining asosini savdogarlar, bozor ahli, hunarmandlar tashkil qilgan bo'lsa-da, asta-sekin tariqatning ijtimoiy tarkibiy ko'rinishi o'zgarib boy-badavlat kishilar sulukiga aylangan. Usmonli sultonlarning ko'pchiligi ham aynan mavlaviya tariqati bilan aloqador bo'lganlar. Shuningdek, mavlaviya tariqati Bag'dod, Damashq, Qohira, Quddus, Kichik Osiyoda va qisman O'rta Osiyoda keng tarqalgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida "Ko'ngil ko'zgusi dunyoviy istaklardan mosuvo bo'lgach, ya'ni yaratuvchi yodidan boshqa narsalardan poklanib sayqal topganidan keyin unda ilohiy nur tajalliy qilishi — porlashiga munosib bo'ladi. Inson qalbi ilohiy sirlar xazinasiga aylanadi" [5], deb ta'kidlagan.

Tasavvuf ilmi-mohiyatan insonlarni hamisha poklik va ezgulikka chorlagan, to'g'rilik, rostgo'ylik, halollik va tinchlikni targ'ib qilgan, yomonlarni yo'lga solishga da'vat etgan ta'limotdir. Tasavvuf shayxlari hamda ularning shogirdlari tariqat yo'lini tutgan kishilarni na dunyodan va na oxiratdan ta'ma qilmaslikka, nafs ko'chasidan o'tmaslikka undaganlar.

Tasavvuf inson kamoloti to'g'risidagi ta'limot bo'lib, komil inson bo'lish uchun avvalo jism va nafs ehtiyojini yengish talab etiladi. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish insonni nafsiga qul qilib qo'yadi. Tasavvuf yo'lini tutgan kishi nafsni rad etadi. Nafs barcha razolat va ma'naviy halokatning sababchisi sanalib, insonni tubanlik botqog'iga yetaklovchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования). Сост. и отв. редактор А. А. Хисматулин. Санкт-Петербург: Филологический фак-т СПбУ, 2001. - С. 121.
2. Хусрав Ҳамидов. Яъқуб Чархий ва унинг "Най рисоласи". "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 2015 йил 17-сон.
3. Тарикат. Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991С.224.

4. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. Пер. с англ. А.А.Ставиской. Москва: Наука, 1989. С.17.
5. Алишер Навоий. Садди Искандарий. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 122.
6. Комилов Н. Комиллик тариқати.Тафаккур. 2-сон. 1998. – Б. 61.

ЎҚИТУВЧИ ШАХСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАЪНАВИЙ- МАЪРИФИЙ ФАОЛИЯТНИНГ ЎРНИ ВА ВАЗИФАЛАРИ

Рахимов Асомиддин Анорбоевич

*Самарқанд вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий
маркази*

Аннотация. Ушбу мақолада ўқитувчи шахсини ривожлантиришда маънавий-маърифий фаолиятнинг ўрни ва вазифалари кўрсатиб берилган. Шунингдек, олий таълим муассасаларида маънавий-маърифий фаолиятни ташкил қилиш ва бошқаришнинг йўналишлари изоҳланган.

Таянч сўз ва иборалар: шахс, таълим, тарбия, ривожланиш, демократик жамият, маънавият, маърифат, фаолият, қадрият, олий таълим.

XXI асрга қадам қўйган Ўзбекистон халқининг миллий тараққиёт йўлидаги бош ғояси – бу озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этишдир. Албатта ушбу ғояни амалга оширишда сиёсий, иқтисодий, ижтимоий йўналишлар билан бир қаторда маънавий-маърифий соҳа ҳам муҳим ўрин тутди. Дарҳақиқат, бугунги кунда маънавий-маърифий фаолият фуқаролик жамиятини қуришда давлат сиёсатининг устувор йўналишга эга бўлиб келмоқда. Қадриятларни тиклаш, уларни илм-фан ва тараққиёт ютуқлари билан бойитиб бориш, миллий ўзликни англаш, миллий истиқлол ғоясининг тамойилларини халқимизнинг қалби ва онгига сингдириш, муқаддас динимиз ва тарихимизга садоқатли бўлиш маънавият соҳасидаги асосий вазифалардан ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги ПҚ-3160-сонли Қарорининг қабул қилиниши муносабати билан кейинги йилларда маънавият ва маърифат масаласига алоҳида эътибор берилмоқда.

Бугунги кунда маънавий-маърифий ишларни юксак даражага кўтариш орқали баркамол авлодни вояга етказиш муҳим вазифа ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» да «Ёш авлодни маънавий-ахлоқий тарбиялашда халқнинг бой маданий-тарихий анъаналарига, урф-одатлари ҳамда умумбашарий қадриятларига асосланган самарали ташкилий, педагогик шакл ва воситалари ишлаб чиқилиб,

амалиётга жорий этилади. Шахсни тарбиялаш ва уни ҳар томонлама камол топтиришнинг устуворлиги таъминланади. Умумий ҳамда педагогик маданиятни ошириш мақсадида, мамлакат аҳолиси орасидаги маънавий-маърифий ишлар такомиллаштириб борилади» (11,8) - деб таъкидланади.

Шунингдек, ушбу дастурда олий таълимда бакалавр ва магистратурада мутахассисларни тайёрлашда «Халқнинг бой маънавий ва интеллектуал мероси ва умумбашарий қадриятлар асосида таълимнинг инсонпарварлик йўналишини таъминлаш»га эътибор бериш зарурлиги кўрсатилади.

«Олий таълимнинг давлат таълим стандарти»да ҳам бакалавр йўналишида гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар блоки биринчи кўрсатилиб, унинг мазмунида, миллий истиқлол ғояси ва демократия, миллий ва умуминсоний қадриятлар негизида миллий ва гуманитар дунёқарашни, юксак маънавият ва демократик маданиятни, иқтисодий, ҳуқуқий ва ижодий тафаккурни, эътиқоди ва ижтимоий-сиёсий фаолликни шакллантириши» каби талабларни таъминлаш лозимлиги уқтирилган.

Демак, ушбу қонун ва ДТСларида узлуксиз таълим турлари, жумладан олий таълим тизимида ҳам таълим соҳасини бошқаришда ягона давлат сиёсатини амалга ошириш билан бирга ёшлар онгида маънавий қадриятларни ривожлантириш, аждодларимиз томонидан, яратилган бебаҳо маънавий ва маданий меросини тиклаш, маънавий тикланишнинг ижобий, бунёдкорлик моҳиятини кучайтириш, маънавий бой шахс шаклланиши учун зарур шарт-шароит яратиш, таълим олувчиларда юксак маънавият, маданият ва ижодий фикрлашни, ифтихор ва инсоний қадр-қиммат туйғусини шакллантириш, талабаларнинг миллий - маданий эҳтиёжларини қондиришда кўмаклашиш, уларда фуқаролик туйғусини шакллантириш, мустақил ҳаётга тайёрлаш каби йўналишлар чуқур ўрин олган. Албатта, бунда маънавий-маърифий фаолиятни олий таълим фаолиятида амалга ошириш Ўзбекистонда фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг негизини ташкил этади. Бугунги кунда талаба-ёшларда Ватан равнақи, юрт тинчлиги, халқ фаровонлиги, комил инсон, ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, динлараро бағрикенглик каби миллий истиқлол ғоясининг асосий йўналишларини шакллантириш олий ўқув юртларидаги маънавий-маърифий фаолиятни янада такомиллаштиришни тақозо этмоқда. Чунки, озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этиш Ўзбекистон халқининг миллий тараққиёт йўлидаги бош ғоя эканлигини ҳар бир талаба чуқур хис этиши ва уни мустаҳкамлашда фаол иштирок этишни таъминлаш олий ўқув юртида амалга оширилаётган маънавий-маърифий фаолиятнинг энг асосий вазифаси бўлиб ҳисобланади. Шунинг учун ҳам талаба-ёшларга маънавий-маърифий билимларни бериш, кўникма ва малака ҳосил қилиш муҳим масалалардан биридир. Чунки, бу соҳада маълум иш тажрибалар тўпланди. Шу билан бирга баъзи бир камчиликлар ҳам аниқланди. Лекин шунга қарамай, ушбу муаммонинг педагогик ечими тарбия назариясида тўлиғича ўз ифодасини топгани йўқ. Олий таълим муассасаларида маънавий-маърифий фаолиятни

ташкил этиш ва бошқариш бўйича ягона, изчил бир тизим ишлаб чиқилмаган. Ушбу соҳани ривожлантиришга оид махсус адабиётлар етарли эмас.

Республика олий таълим муассасаларининг амалдаги ҳолатини ўрганиш шуни кўрсатдики, маънавий-маърифий фаолиятни ташкил этиш ва бошқаришда баъзи бир муаммолар мавжудлиги аниқланди. Шу боис тадқиқотимизда олий ўқув юртида маънавий-маърифий фаолиятни ташкил этиш ва бошқариш муаммосини ёритишга, унинг илмий-педагогик асосларини ишлаб чиқишга эътибор қаратилди.

Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини қуришнинг энг муҳим таркибий қисми маънавият ва маърифат соҳасида, шахсни мунтазам камол топтириш борасида узлуксиз иш олиб боришдан иборат эканлиги ҳеч кимга сир эмас. Ушбу масалалар жамият ривожининг асоси ва шартига айланмоғи ҳамда ўзида яхлит бир тизимни мужассам этмоғи лозим. Бу тизим марказида маънавият, ахлоқ, маърифат каби ўлмас қадриятлар турмоғи керак.

Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамият асосларини қуришни тезлаштиришда маънавий-маърифий фаолиятнинг ўрни бекиёслигини ҳис қилган ҳолда Республикаимизда маънавий-маърифий ислоҳотларни фаоллаштириш мақсадида маънавий-маърифий фаолиятнинг асосий йўналишларини ишлаб чиқди. Булар:

1. Энг олий неъмат мустақилликни бундан буён ҳам асраб-авайлаш, ҳимоя қилиш ва мустаҳкамлаш.

2. Мамлакатимизда хавфсизлик ва барқарорликни, давлатимизнинг ҳуқуқий яхлитлигини, сарҳадларимиз дахлсизлигини, фуқароларимизнинг тинчлиги ва осойишталигини таъминлаш.

3. Бозор ислоҳотларини янада чуқурлаштириш, кучли бозор инфратузилмасини яратиш, барқарор ва ўзаро мутаносиб, мустаҳкам иқтисодиётнинг муҳим шарти бўлган эркин иқтисодий тамойилларини жорий этиш.

4. Инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини, сўз ва матбуот эркинлигини, шунингдек, ошкораликни, жамиятда ўтказилаётган ислоҳотларни таъминлайдиган демократик тамойилларни сўзда ёки қарорда эмас амалий ҳаётда жорий қилиш.

5. Жамият ҳаётида нодавлат ва жамоат ташкилотларининг ўрни ва аҳамиятини кучайтириш мақсадида «Кучли давлатдан кучли жамият сари» деган тамойилни амалда ҳаётга жорий этиш.

6. Суд-ҳуқуқ соҳасини ислоҳ қилиш бўйича бошланган ишларни изчил давом эттириш. Бу соҳадаги энг муҳим вазифа суд-ҳуқуқ идораларининг мустақиллиги ва таъсирчан фаолиятини сўзда эмас, амалда таъминлаш.

7. Барча ислоҳотларимизнинг бош йўналиши ва самарадорлигининг пировард натижасини белгилаб берадиган инсон омили ва мезони эканлигини ҳисобга олишдир.

Албатта, бу йўналишлар мамлакатда маънавий-маърифий ислохотлар стратегиясини амалга ошириш ва халқ хўжалигининг ҳамма йўналишларини такомиллаштириш билан бирга жамият маънавий-иқтисодий баркамоллигини янада ривожлантиришга ўз ҳиссасини қўша олади.

Шунга асосан Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш ва ривожлантиришнинг маънавий-ахлоқий негизларини мустаҳкамлаш зарурияти туғилди. Бу заруриятни маънавий-маърифий фаолиятнинг қуйидаги вазифалари ёрдамида амалга ошириш мумкин:

Биринчидан:

- Маънавий маданиятни эркин, соғлом рақобат асосида ривожланишига кўмаклашиш, миллий истиқлол ғоясига ахборот хуружи ва таъсир ўтказишга йўл қўймаслик;

- Маънавий-маърифий соҳани муҳофаза қилиш ва такомиллаштириш;

- Маънавият соҳасидаги ривожланишнинг тарихий ва назарий асосларини яратиш ва мустаҳкамлаш;

- маънавият бевосита халқ билан боғлиқлиги сабабли, бу соҳадаги ишларни давлат ўз зиммасига олиши;

- халқимизнинг маънавий қарашларига зид келадиган асарлар тарқалишини олдини олиш;

- маънавият ривожига давлат томонидан бюджетга маблағ ажратишни такомиллаштириш;

- ҳар бир ишлаб чиқариш корхонаси томонидан маълум фоиз маблағни маънавият масалалари учун ажратиш;

- оммавий ахборот воситаларининг маънавий-маърифий фаолиятни тарғиб қилишни янада яхшилаш ва имкониятларини кенгайтириш;

- ишлаб чиқариш корхоналарида маънавий маданиятни ривожлантиришга доир маърузалар уюштириш;

- жамоатчилик ўртасида маънавият масалаларига бағишланган мунозаралар ташкил этиш. Маънавий-маърифий фаолиятни бошқаришда демократик, илмийлик, жамоатчилик ва масъуллик, ижрони текшириш, бошқаришнинг режалилик бўлиши, бошқаришда самарадорлик ва тежамкорлик каби тамойилларга асосланиш;

- демократик ошкоралик – ҳар қандай мунозарали масалаларни тинч йўл билан ҳал этиш, музокаралар йўли билан фикр алмашиш, ҳамма учун бирдай манфаатли бўлган хулосаларга келиш, ҳар қандай зўравонликка, куч ишлатишга қарши равишда шарқона демократик тамойилларга асосланиш;

- маънавиятни иқтисод, сиёсат ҳуқуқ ва бошқа ижтимоий онг шакллари билан ўзаро боғлиқлигини таҳлил қилиш ва ўзига хос хусусиятларини илмий ўрганиш;

- ахлоқ, хулқ-одоб, меъёрлари, қоида ва қадриятлари ўртасидаги зиддият, қарама-қаршиликларини аниқлаш билан бирга уларни бартараф этиш усулларини илмий ва амалий тадқиқ қилиш;

- умуминсоний қадриятлар устуворлиги асосида маънавий маданиятни педагогик таҳлил этиш услубини белгилаш;

- кенг халқ ўртасида маънавий маданиятини шакллантириш жараёнида моддий ва маънавий омиллар таъсирчанлигини ошириш йўллари аниқлаш;

- умуминсоний, миллий ва ахлоқий қадриятларнинг замонавий амалий жиҳатларини таҳлил қилиш;

Иккинчидан:

- олий таълим жараёнида қуйидаги вазифаларни амалга ошириш зарур:

- талабаларга мустақилликнинг тарихий илдизлари, назарий ва амалий йўналишлари ҳақида тушунча бериш;

- миллий истиқлол ғояси ва мафкурасини тарғиб қилиш;

- миллий истиқлол мафкурасини мустаҳкамлаш ва Ватанга, бошқа мамлакат халқларига бўлган ижобий муносабатини шакллантириш;

- Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори бўлган баркамол авлодни вояга етказиш;

- миллат, Ватан, халқ истиқболи деган муқаддас тушунчаларни талаба қалбига сингдириш;

- мустақиллик тарбияси, унинг назарий ва амалий йўналишларини талабалар онгида ривожлантириш;

- маънавий-маърифий фаолият режаси ва дастурини ишлаб чиқиш;

- шу йўналиш бўйича методик қўлланмалар тайёрлаш ва чоп этиш;

- ижтимоий институт ва жамоатчилик фаолиятида талабаларнинг маънавий маданиятини шакллантиришга аҳамиятни кучайтириш;

- соғлом авлод баркамоллигини таъминлашда оиланинг бурч ва масъулиятини ошириш;

- олий таълим мутахассислиги бўйича махсус билимлар бериш;

- олий ўқув юртларида талабалар маънавиятини шакллантиришга доир тадбирлар, кечалар ўтказиб бориш;

- меҳнатга, ўзининг вазифаларига ва бурчига масъулиятли бўлиш;

- миллий байрамлар ва моддий қадриятларга ҳурмат билан қараш;

- табиатга ва шахсий нарсаларга эҳтиёткорлик, ўзига ва одамларга ҳурмат билан муносабатда бўлиш;

- маънавий ва маърифий фаолиятни ривожлантириш ва такомиллаштириш.

Юқоридаги маънавий-маърифий фаолият функцияларини ҳар томонлама амалга оширилиши инсон ҳаётининг ҳамма қирраларини ижтимоий тараққиёт жараёни билан уйғунлаштиришда катта ёрдам беради. Талаба шахсида шакланган маънавий-маърифий дунёқараш жаҳон маърифат тараққиёти ва жамиятнинг юксалишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Бу вазифаларни қўйишдан асосий мақсад, биз XXI асрга озод ва эркин халқ, мустақил ва қудратли давлат бўлиб, кириб бормоқдамиз. Шундай экан, баркамол авлод шахсини шакллантириш, жамиятни иқтисодий, сиёсий,

маънавий йўналишларини такомиллаштиришда маънавий-маърифий фаолиятнинг муҳим ўрин тутишини эсдан чиқармаслик лозим.

Миллий қадриятлар, миллий ўзликни англаш, миллий ғоя, маънавий-ахлоқий тарбия, аجدодларимизнинг бебаҳо мероси кабилар маънавий-маърифий фаолиятнинг асосини ташкил этади. Маънавий-маърифий фаолият асосида баркамол авлод шахсини шакллантириш бугунги куннинг энг долзарб муаммоларидан ҳисобланади.

Маънавий-маърифий фаолият олий ўқув юртининг кундалик ҳаётида, меҳнат, ижодий, оммавий хуллас ҳамма-ҳамма ишларида амалга оширилиши ва Ўзбекистон фуқаросининг эътиқодли, ўз Ватанига ҳақиқий содиқ бўлишига қаратилиши керак. Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Ўзбекистон байроғи, герби, Ўзбекистон мадҳияси – бу ўзбеклигимиз, ҳақ-ҳуқуқимиз, ҳуриятимиз, озодлигимиз, мустақиллигимиз рамзи эканлигини, истиқлол ва истиқбол, Ўзбекистоннинг мустаҳкам пойдеворини мустаҳкамлаш – маънавий-маърифий фаолиятнинг асоси ҳисобланади.

Маънавий-маърифий фаолиятнинг мақсади халқимизнинг миллий меросига ворислик ва умумбашарий бойлигини ижро эта оладиган, кадрлайдиган маданиятли, маърифатли баркамол шахсни шакллантиришдир. Бунинг учун ҳар бир ўқитувчи ўз талабаларида иймон, эътиқод, садоқат каби одамийлик фазилатларини шакллантириш, миллий истиқлол ғояси асосида тарбиялаши лозим. Бугунги кунда ҳар бир талаба халқимизнинг асрлар давомида вужудга келган ўзига хос маданияти, нодир қадриятлари, анъаналари, урф-одатларини уларнинг мазмунидаги ахлоқ, одоб, инсоф, иймон, виждон, диёнат, адолат, инсонпарварлик каби куртаклар миллий истиқлол мафкураси туфайли янада ривожланаётганлигини, таълим-тарбия жараёнида кенг фойдаланиши лозим. Чунки бугунги талаба миллий истиқлол мафкураси асосида Ўзбекистоннинг ахлоқли, одобли жаҳон аҳолисининг ҳурматига сазовор бўлиши лозим. Шундай экан, узок йиллар давомида маънавий-маърифий фаолият деган тушунчани на ўқув жараёнида, на илмий тадқиқот ишларида чуқур ўрганилмаганлигини назарда тутиб, олий таълим талабасида маънавий-маърифий билимларни эгаллаш ва уни ҳаётга татбиқ этиш кўникма ва малакаларини шакллантириш эҳтиёжи сезилмоқда. Зеро, у миллий истиқлол ғояси асосида баркамол шахсни шакллантиришнинг муҳим воситаси ҳисобланади. Шунинг учун ҳам баркамол авлод шахсида миллий онг, миллий ғурур, ўз-ўзини англаш туйғуси, ўз Ватан ва халқи билан фахрланиш ҳислари, миллий кадр-қиммат, масъулият, ватанпарварлик ва халқпарварлик-туйғусини шакллантириш муҳимдир. Шу билан бирга миллий анъаналарни, маърифат тажрибаларини таълим-тарбия жараёнида амалга ошириш талабаларни, халқимизнинг маънавий меросини ўрганишга бўлган қизиқишини оширади. Бу эса мустақил Ўзбекистоннинг истиқболи ва истиқлолини мустаҳкамлаш ва ривожлантиришда, жамиятдаги барқарорлик,

тинчлик, миллатлар ва фуқаролараро тотувлигини таъминлайди. Инсоннинг рухий покланиши ва юксалишига даъват этади. Инсон ички оламини бойитади. Маънавий-маърифий фаолиятнинг асосий мақсади – баркамол авлод шахсини вояга етказиш, уларни жамиятимизнинг ҳақиқий фуқаросига, онгли фидойисига айлантиришдир.

Албатта, бу вазифаларни амалга оширишда олий ўқув юртида маънавий-маърифий фаолиятни ташкил этиш ва уни бошқариш муҳим аҳамиятга эга. Чунки талаба маънавиятини шакллантириш – маънавий-маърифий фаолиятнинг асосий омили ҳисобланади, бу биринчидан. Иккинчидан, олий ўқув юртида маънавий-маърифий фаолиятни юқори даражада ташкил этиш жамият маънавияти, мамлакат барқарорлиги тараққиётининг муҳим шарти ва кафолатидир. Ўсиб келаётган ёш авлод онгида маънавий-ахлоқий қадриятларни ривожлантирмай жамиятда юксак тараққиётга эришиб бўлмайди. Шундай экан, олий ўқув юртида маънавий-маърифий фаолиятни ташкил этиш ва бошқариш муҳим аҳамиятга эга. Учинчидан, маънавий-маърифий фаолият жараёнида олий таълим муассасалари қуйидаги йўналишлардаги масалаларни ҳал этишни назарда тутиши мақсадга мувофиқдир:

- Мустақил Ўзбекистонни ривожлантиришнинг маънавий-ахлоқий негизларини талабалар онгига етказиш;

- Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг маънавият, маърифат ва ёшлар тарбияси ҳақидаги асар ҳамда фикрларини талабалар ўртасида чуқур ўрганиш;

- олий таълим тизимида таълим-тарбия ишларини такомиллаштириш, талабалар билан олиб бориладиган тадбирларнинг таъсирчанлигини ошириш;

- олий таълим муассасаси жамоасида маънавий-ахлоқий муҳитни яратиш, ўқитувчи ва талабалар ҳамкорлигини уюштириш;

- маънавий-маърифий фаолиятни яратишга қаратилган тадбирлар тайёрлаш ва уларни ўтказишда талабаларнинг имкониятлари, қизиқишлари ва жамоат ишидаги малакаларини ҳисобга олиш;

- маънавий-маърифий тадбирлар ёрдамида талабаларнинг маънавий-маърифий қарашларини тарбиялаш ва уларни таҳлил этиш, тадбир иштирокчиларининг ақлий, ҳиссий ва иродавий томонларига таъсир этиш, уларнинг ахлоқий меъёрларига муносабати, тегишли билимлари, кўникма ва малакаларини бойитиш;

- онгли интизомни ривожлантириш, фан ва маданиятга бўлган қизиқишини тарбиялаш, китобхонлик маданиятини ривожлантириш мақсадида ўқиладиган асарларни тавсия қилиш;

- талабалар учун устоз ва шогирд қоидаларини жорий қилиш, талабаларнинг ижтимоий фойдали, унумли меҳнатни ташкил этиш, паст ўзлаштирган талабаларга ёрдам уюштириш ва уларнинг ота-оналари билан ишлаш;

- маънавий-маърифий фаолиятда санитария ишларни олиб бориш, гуруҳда гигиена режимини йўлга қўйиш;

- талабаларнинг мустақил таълим олиши, ўз устида ишлаши, маънавий ақлий даражаси, унинг савияси, қизиқишларини ривожлантириш ва бошқалар;

Маънавий-маърифий фаолият жараёнида олий ўқув юрти профессор-ўқитувчилари қуйидагиларни амалга оширишлари мақсадга мувофиқдир:

- дарс ва аудиториядан ташқари машғулотларда баркамол авлод шахсини шакллантиришда изчилликка эришиш;

- миллий истиқлол ғояси асосида соғлом авлод шахсини шакллантириш тажрибаларини ривожлантириш;

- Марказий Осиё мутафаккирларининг ҳаёт ва фаолиятини талабаларга намуна сифатида кўрсатиш;

- баркамол авлод шахсини шакллантиришни таъминловчи машғулотларни ишлаб чиқиш;

- баркамол авлод шахсини шакллантиришни такомиллаштириш мақсадида миллий кадриятларни ўрганишга шарт-шароит яратиш;

- миллий кадриятлар ҳақида эгаллаган билим малакаларни ўз ҳаётида ва кенг жамоатчилик фаолиятида қўллашни ҳис этиш;

- миллий истиқлол ғояси асосида баркамол авлод шахсини шакллантириш услублари ва шакллари ишлаб чиқиш;

- асрлар давомида аجدодларимиз яратган буюк маънавий мерос сарчашмаларига мурожаат қилиш. Уларни чуқур ўрганиб, соғлом авлод шахсини ушбу хазинанинг битмас-туганмас дурдоналаридан баҳраманд қилиш;

- миллий кадриятларимиз, халқимизнинг ўзига хос урф-одатлари ва унинг юксак ахлоқий фазилатларини ўқувчилар онгига сингдириш;

- маънавий-маърифий фаолият жараёнида ҳар бир талабани билимлар билан қуроллантириш, маънавий етуклигини таъминлаш ва ушбу вазифани амалга оширишда олий таълим муассасаси маънавият ва маърифат маркази ишини ривожлантириш;

- миллий истиқлол ғоясини талабалар орасида кенг тарғиб қилиш, унда оммавий, маънавий-ахлоқий ишларнинг шакл ва воситаларидан фойдаланиш;

- баркамол авлод шахсини шакллантиришда олий таълим, оила ва кенг жамоатчиликнинг ҳамкорлигига эришиш ва бошқалар.

Маънавий - маърифий фаолият ҳеч қачон ҳозиргидек долзарб вазифага айланмаган. Маънавий-маърифий ислохотлар давлат сиёсатининг устувор йўналиши бўлгани, мафкуравий таҳдид ва ахборот хуружлари кўпайиб бораётгани, одамлар онги ва қалбини эгаллаш йўлидаги кураш жараёнлари кучайгани учун ҳаётнинг барча жабхалари, ишлаб чиқаришнинг ҳамма соҳалари, аҳолининг ҳамма қатламлари, айниқса, ёшлар орасида маънавий - маърифий фаолият соҳасида жадал ишларни амалга ошириш олдимизда турган энг муҳим вазифа бўлиб тураверади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури". Т., 1997 й., 20 бет.
2. Махкамов У. Ўқувчиларнинг ахлоқий маданиятини шакллантириш муаммолари. – Т.: Фан, 1995. – 200 б.
3. Олимов Ш. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари. Тошкент, "Fan va texnologiya", 2015, - 228 бет.

MADANIYAT KOMPETENTLIKNING BARKAMOL SHAXSNI RIVOJLANTIRISHDAGI ASOSIY FUNKSIYALARI

Usmonova Feruza Saidaxmadovna
Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada barkamol shaxsni rivojlantirishda madaniy kompetentlikning funksiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: barkamol shaxs, kompetentlik, madaniyat, muhit, jamiyat.

Аннотация. В статье представлена информация о функциях культурной компетентности в развитии совершенной личности.

Ключевые слова: совершенная личность, компетенция, культура, среда, общество.

Annotation. This article provides information on the functions of cultural competence in the development of a perfect individual.

Keywords: perfect person, competence, culture, environment, society.

Moddiy madaniyatning madaniyatdan tarixan ayriligi faqat insoniyat taraqqiyotining boshlang'ich davrlarigagina xosdir. Jamiyatda madaniy faoliyat maxsus sohaga aylangach axloqiy mezonlar, din, san'at, huquq, siyosat, fan shakllanib, ma'lum doiradagi kishilar bu soha bilan shug'ullana boshladi.

Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda faqat ma'naviy madaniyat ko'zda tutildi. Negaki, borliqni haqiqat, yaxshilik, go'zallik belgilaydi deb hisoblashgan. Shuning uchun, birinchi o'rinda ilmiy tadqiqotlarning asosi fan axloq, nafosat bo'lib keldi. Natijada, jamiyatning moddiy hayoti, uning iqtisodiyotini o'rganishga e'tibor berilmadi. Madaniyat tadqiqot uchun qiziqarsiz, hisoblangan.

Olimlar madaniyat kompetentligining turli funksiyalarini ta'kidlab o'tishgan:

Olamni o'zlashtirish va qayta o'zgartirish; bunda mavjud narsalarning jismoniy talablarini, shuningdek ijoddagi hayotiy talablarni qondirish zarurati bilan bog'liq.

Himoya-moslashuv vazifasi; jamiyat va atrof muhit o'rtasidagi muvofiqlikni saqlash. Keyingi vaqtlarda o'ta jiddiy bo'lib turgan muammo tabiatni himoya qiluvchi vositalarni yaratish, bunda ekologik tafakkurning keng ko'lamda yoyilishini amalga oshirish zarur.

Signifikativ funksiya mazmun, ma'no, nom, belgilar ko'lamini ishlab chiqish vositasida dunyoning qiyofasida, voqelikni belgi tizimining yaratilishi. Sezgilar ham, tashqi idrok ham, na shuurning bevosita kechinmalar holidagi yig'indisi ham yo'nalishni aniqlash tizimini insonga ta'minlab bermaydi. Bu vazifani ma'lumotlarni o'zida saqlamasdan, nazariy modellar va axborotlar bilimini to'plashni vujudga keltirish uchun faqat material bo'lib xizmat qiluvchi mazmun beradi.

Axborotlarni o'zlashtirish va yig'ish funsiyasi xabarlarini yig'ish va saqlash vositasi tabiiy xotira yoki xabarlarni narsalarga yozish (qo'lyozmalar, kartinalar, plastinkalar, kitoblar yoki raqamli yozuvlar) bo'lishi mumkin. Har qanday holatda axborotlarni tashkil qilish, uning qadri va mazmuni bo'yicha tartibga solishning ma'lum usuli va belgilar tizimi zarur. Hozirgi davrda til belgilari tizimining keng ko'lami va o'ta ahamiyatlisi bo'lib qolmoqda.

Kommunikativ funksiya (aloqa almashuv)- mohiyatni aniqlashda bilimlar, fikrlar, ma'naviy kuchlarni almashlash. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda energiya, axborot, o'zaro amaliy hamkorlikni taqazo qililadi, negaki, faqat turli tiplarning munosabati (an'anaviy, funksional-ahamiyatli, shaxslararo, ishlab chiqaruvchi, ma'rifiy-madaniy) jamiyatning tuzum sifatida mavjudligini va uning keyingi taraqqiyotini ta'minlashga qodir.

Normativiylik funksiya (mezon-me'yoriy)- kishilar xulqini tartibga solish, ularning kuchini bir me'yorda va jamiyatni bir butunlikda saqlash sifatida muvofiqlashtirish. Me'yor-qoida qandaydir yoki qandaydir predmetlar, narsalarni yaratish sohasida aniq ko'rsatmadir. Ongli ravishda o'rnatilgan yoki ko'p asrlik an'analarga tayanuvchi majburiy, taqiqlovchi me'yorlar mavjud (huquqiy, axloqiy me'yorlar), biroq ularning mazmuni bor jamiyatni barbod qilmaslik uchun kishilar faoliyatini tartibga solish, aniq chegaralar bilan belgilash.

Ruhiiy yoki «loyihaviy» mo'tadillik – bayramlar, diniy marosimlar, o'yin, tomosha jarayonlarida ruhiy zo'riqlashlarni bartaraf qilish. Qoniqarsiz istaklar, ro'yobga chiqmaydigan niyatlar, amalda taqiqlanuvchi janjallar mavjudligi ruhiy zo'riqlashga olib kelib, nafaqat ma'lum bir shaxs salomatligiga zarar yetkazadi, balki, ommaviylik kabs etib, jamiyat harakatini izdan chiqarishi mumkin. Shuning uchun madaniyatda keraksiz xissiyotdan xolos bilish mexanizmi ishlab chiqilgan. Xullas, kishilar yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, boyliklar ularning qobiliyatlari, munosabatlari va mohiyatli kuchlari nomoyon bo'lishidan iborat. Inson madaniyat sohasida bu ma'naviy qadriyatlarga o'z munosabatini bildirar ekan, ayni vaqtda, o'zi rivojlanadigan, o'zi o'zgarib turadigan mohiyat sifatida ham nomoyon bo'ladi. Demak, madaniyat narsalar shaklida, inson faoliyatining tayyor mahsulotlari shaklida va insonning jonli qobiliyatlari, bilimlari shaklida yashab turadi.

Madaniyat kompetensiyasining quyidagi funksiyalari bevosita shaxs bilan bog'liq:

- **«Gominizatsiya»** - urug'doshchilik xususiyatlarini o'rganish. Madaniyat «aqilli odam» uchun xos bo'lgan nutq, narsalarni ramziy ifodalash (yoki mavhum tafakkur) xususiyatlarini har bir odam o'rganishiga imkon yaratadi.

- **Sotsializatsiya** – (umumlashtirish) – jamiyat hayoti uchun uning haqiqiy a'zosi sifatida zarur hisoblangan ma'lum miqdordagi shartlarni o'zgartirish. Bu funktsiya idrok, tafakkur, nutq, so'zlarni qo'llanilishi, ohangi, imo-ishora va shama, tipik hodisalarga munosabat tarzi, shuningdek, talab va qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirish kabi andozaviy usullarning mustahkamlanishi bilan bog'liq.

- **Inkulturratsiya** – avvalo o'z xalqining, keyin esa umuminsoniy madaniy merosga (aralashish) munosabatda bo'lish.

- **Individualizatsiya** - **madaniyat** ma'lum shaxslar qobiliyati, iqtidori, xususiyatini o'ta rivojlantirishga mo'ljallangan. Shaxs madaniyati qolgan barcha madaniyatlar doirasida – (jamiyat, insoniyat) eng asosiy bo'g'in bo'lib, bu har bir aniq shaxs madaniyatining barkamollik darajasiga jamiyat yoki butun insoniyat madaniyati bog'liq bo'lishini bildiradi.

Shunday qilib, talabalarning madaniyat kompetensiyasiga ega bo'lishi deganda kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, saxovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, saxiylik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish, axloqiy qoidalarga to'la amal qilish, o'z millati hamda boshqa xalqlarni hurmat qilish xislatlari anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, mustaqil O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

3. Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Xalq so'zi», 2017-yil 1-iyul.

4. Qurbonov J.A. Talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning falsafiy- pedagogik jihatlari // Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2019. №10 (83).

5. Qorayev S.B., Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari // Academic research in educational sciences. 2022. №1.

6. Braun H.and Kanjee. Using Assessment to improve Education in Developing Countries. Cambridge. 2007. -303 p.

ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ

Файзиева Мўтабар Мардоновна

*Самарқанд вилояти педагоглари янги методикаларга ўргатиши миллий
маркази бўлим бошлиғи*

Мустақиллик йилларида тарих фанига эътибор давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Давлатимиз раҳбарининг кўрсатмалари асосида Ватан тарихини мустақиллик руҳи билан суғорилган ҳолда халққа етказиш бўйича кўплаб ишлар амалга оширилди. Зеро, "... ўз тарихини билмайдиган, кечаги кунини унутган миллатнинг келажаги йўқ" дир [1; 4].

Таълим тизимидаги замонавий ислохотлар, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳамда бозор иқтисодиёти чуқур илдиз отиб бораётган даврда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурига мувофиқ бир қатор янги вазифаларни юзага келтиради. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, "Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз"[2;14] деб, ёшлар сиёсий фаоллигини оширишга даъват этдилар.

Мамлакатимиз истиқлолга эришганидан кейин халқимизнинг ўзлигини англаши, миллий қадриятлар, тарихий анъаналарга бўлган эътиборнинг ортиши ва миллий-этник ўзликни англаш ҳиссини кучайиши натижасида ўзбек халқи этногенези ва этник тарихига оид салмоқли тадқиқотлар яратилди. Қолаверса, узоқ йиллар давомида аجدодларимиз томонидан яратилган бебаҳо меросимизни, миллий қадриятларимиз ва урф-одатларимизни қайтадан жонланиши ҳамда уларнинг энг ибратли жиҳатларини жамият ҳаётига олиб кириш борасида қатор хайрли ишлар амалга оширилди. Бошқа томондан эса айнан кейинги ўн йилликларда дунё миқёсида кечаётган улкан глобализацион жараёнлар ва турли тарихий-этнографик минтақалараро коммуникация тизимини такомиллашуви этномиллий анъаналарга жиддий таъсир қилмоқда [3; 6].

Миллий қадриятлар шахснинг ижтимоий тараққиётида нечоғлик зарурлиги, халқимизда юксак инсонпарварлик қадриятлари тикланаётганлиги ва такомиллашаётганлигини ифодаловчи ўзига хос дунёқарашида кўришимиз мумкин.

Миллий қадрият деб, муайян халқнинг расм-русуми, анъанаси, фазилатлари, ахлоқ ва одоби, яшаш тарзи, байрамлари, шу халқнинг аксарият қисми томонидан эъзозланишга лойиқ бўлган иншоотлар, миллий кийимлар, уй-рўзғор буюмлари, рўзғор тутишлари айтилади. Масалан, ўзбекларнинг меҳнатсеварлиги, меҳмондўстлиги, хушхулқлиги ва мулойимлиги, турли тоифадаги одамлар билан ўзаро иноқлашиб кетишлиги, кечиримлилиги,

мулоҳаза ва тафаккур билан иш кўриши, тинчликсеварлиги ўзбек миллий қадриятлари бўлиб ҳисобланади.

Асрлар давомида аждодлардан-авлодларга мерос бўлиб қолаётган анъана ва удум, қадрият ва маросимларнинг ҳар бирида тарбиянинг ўзига хос кўриниши мавжуд. Ёш авлодни маънан баркамол этиб тарбиялашда шубҳасиз, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланиш зарур. Бунинг учун этнопедагогикадан фойдаланамиз.

Этнопедагогика халқ таълимининг моҳиятини очиб беришга хизмат қилади ва ундан ҳозирги замон шароитларида қандай фойдаланиш йўлларини таклиф этади, халқ анъаналарини табиий равишда кўп асрлик тараққиётга асосланган этник (эл-элатлик) гуруҳлари тажрибаларини тўплайди ва тадқиқ қилади. Этнопедагогиканинг мавзу соҳаси ўзгармайди: ижтимоий ўз-ўзини англаш ҳаракатига тааллуқли ижтимоий шартлар ўзгаришига боғлиқ равишда вазифалар шаклланади ва аниқланади.

Ўзбек халқи педагогикаси тарихида ёш авлодда ҳаётий кўникмаларни шакллантиришда кўп асрлар давомида қўлланилган кўплаб усул ва воситалар, миллий урф-одат ва анъаналар, тарбия ҳақидаги ғоялар мужассамдир. Халқ педагогикасида ифодаланган ғоялар, тажрибалар халқ яратган афсоналарда, оғзаки ижод намуналарида, ёзма ёдгорликларда ўз ифодасини топган, улуғ мутафаккир олимларнинг илмий ва амалий жиҳатдан асосланган асарларида баён этилган.

Ўзбек халқининг ёш авлодни ҳаётга тайёрлашда кўп асрлар давомида қўллаган усул ва воситалари, тадбир шакллари, ўзи хос урф-одати ва анъаналари, тарбия ҳақидаги ғоя ва ҳаётий тажрибаси халқ педагогикасида мужассамлашди. Ҳали мактаб бўлмаган, педагогик фикр таркиб топмаган даврдаёқ қабила аъзоларининг болаларда меҳнатсеварлик, жанговорлик, ахлоқ-одоб, нафосат, дўстлик, меҳр-шавқат, инсорпарварлик сифатларини таркиб топтириш соҳасидаги ақл-идроки ва усуллари ўша даврдаги ҳаётий тажрибанинг меваси сифатида бизнинг давргача етиб келди ва халқ педагогикаси сифатида шаклланди [4; 10-11].

Ҳар бир халқ педагогикаси бошқа халқлар маънавий-маданияти билан ўзаро алоқада бойиб боради. Халқлар ҳаётида урф-одат ва анъаналардаги ўхшашлик улар яратган ёдгорликлар мавжуддир. Аммо, бундан қатъий назар, ҳар бир ёдгорлик уни яратган, ижод этган халққа мансубдир, унинг миллий ёдгорлигидир. Шу сабабли ҳам халқ ижодий асарларида миллийлик хусусияти намоёндыр. Асарлар номи, уларда тилга олинган ҳудуд, буюм, ўсимлик, қушлар, ҳайвонлар, турмушда қўлланган асбоблар номи ҳам бунинг ёрқин далилидир.

Шахснинг ижтимоий тараққиётида давомида этник қадриятларни ёшлар онгига самарали сингдиришда этнопедагогика фани ўз олдига бир қатор вазифаларни қўяди:

- халқимизнинг миллий қадрият ва анъаналарини оила муҳотида таркиб топтириш, бунинг учун эса ота-оналар, бобо-бувиларнинг фарзандлар билан бўладиган кундалик мулоқот вақтларини кўпайтиришга эътибор қаратиш;

- таълим муассасаларида билим ва тарбия уйғунлигига эришиш, педагоглар ва жамоатчилик томонидан ёшларнинг интернет тизимидаги мулоқотлари мазмунини жиддий назоратга олиш, уларни вайронкор ғояларни тарғиб этувчи хорижий сайтлар таъсиридан ҳимоя қилиш;

- таълим муассасаларида адабиёт, санъат, фан ва маданият соҳаларида ўтказилаётган маърифий тадбирларни миқдорини ошириш;

- миллийлик ва миллий маънавий қадриятлар уйғунлиги мавзуида олимлар, ёзувчи ва шоирлар билан давра суҳбатлари ва учрашувлар ташкил этиб бориш;

- оила, мактаб ва таълим муассасаси ҳамкорлигидаги ишлар салмоғини оширишдан иборат ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар бир халқнинг ўзига хос миллий қадриятлари ва маданий мероси мавжуд бўлиб, улар шахснинг ижтимоий тарбиясида муҳим ўрин тутди. Шахснинг маънавий ва руҳий камолотида ижтимоий тарбиянинг ўрни бекиёс эканлигини инобатга олган ҳолда, унинг ушбу тарбия турини ривожлантиришда айнан миллий ва этник қадриятларнинг элементлари устувор бўлиши шарт.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. – Б.4.

2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. //Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. -Тошкент: «Ўзбекистан». НМИУ, 2016. – Б.14.

3. Аширов А. Этнология. Ўқув қўлланма. -Т.: Янги нашр, 2014. – Б.6.

4. Зуннунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи. -Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б.10-11.

АЖДОДЛАР МЕРОСИНING ЎҚИТУВЧИ МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ

У.Утанов

*Самарқанд вилоят педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази “Педагогика, психология ва таълим технологиялари” кафедраси
доценти, н.ф.ф.д(PhD).*

Бугун биз тарихий бир даврда халқимизнинг маданий мероси тикланиши ва жаҳон ҳамжамиятига аслича намоиш этилаётган бир даврда яшамокдамиз. Янгиланишлар даври ҳамиша ўтмишга қизиқишнинг бекиёс даражада ўсишидан бошланади. Бу эса маданий меросимизнинг ўзагини

ташкил этувчи педагогик санъатини ривожлантириш ва ўрганиш билан ҳам боғлиқ ҳисобланади. Ўтмиш воқеалари, тарихий ҳодисалар бугунги ҳулосаларимизни тиниқлаштиради, эртанги кунимизнинг, режаларимизнинг асосини ва ҳақиқатини кўрсатиб беради.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (2023 йил 30 апрел)нинг 61-моддасида ҳам фуқаролар Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий, маданий, илмий ва табиий меросини асраб-авайлаши шарт деб таъкидланган[1].

Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий, маданий, илмий ва табиий меросини нафақат асраб авайлаш қолаверса, ундан таълим-тарбия жараёнида фойдаланиш муҳим вазифаларни ҳал қилишда ижобий ёрдам беради. Бунинг учун буюк боболаримизнинг маънавий, маданий, илмий ва табиий меросини ўрганиш ва ундан педагогик фаолиятимизда оқилона фойдаланишимиз жуда муҳимдир.

Айниқса жаидчи боболаримизнинг мактаб, таълим-тарбия борасида, ўқитувчилик касбига ва бу касб соҳибларига нисбатан эътиборли, хайри-хох, талабчан ва улар фаолиятини юқори чўққиларга олиб чиқиш борасидаги хатти-харакатлари алоҳида эътиборга молик.

Бугунги тараққиёт даври ўз-ўзидан шу даражадаги юқори чўққиларни забт этгани йўқ. Бу йўлда қанчадан-қанча улуг алломалар, даҳолар, устозлар, олиму-фузалолар яшаб ижод этдилар. Ва улар бутун бир умрларини таълим-тарбияга, инсониятнинг эзгу ниятларини амалга оширишга сарф этдилар. Бу ўринда Туркистон жаидчилиқ ҳаракатининг "отаси" ҳисобланмиш Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг мактаб-маориф соҳасидаги фаолияти таҳсинга сазовор. У биринчи бўлиб ўлкада бу янгича усулдаги мактабларни ташкил этишни тарғиботчиларидан ҳамда амалиётчиларидан ҳисобланади. Бу соҳада Беҳбудий Исмоилбек Гаспиралидан кўп янги томонларни ўрганди. «Таржимон» газетаси Беҳбудий учун вазиятни англашда зарурий восита бўлди. Газетанинг дастлабки сонларида: «Бир бечора фақирни кўрсак, ачинамиз. Ўлаётган бечорани кўрсак, юрагимиз изтиробдан оринади. Ҳатто бирор ҳайвоннинг қийналиши раҳмимизни келтиради. Лекин бир эмас, минглаб кишиларнинг, бутун бир халқнинг жаҳолатдан мислсиз қийналаётганини кўрмаймиз . . . », деб ёзилган сатрлар бор. Кейин «Таржимон» саҳифаларида янги мактаблар ташкил этиш, илғор ва янги фикрларни бериш кенг ўрин эгаллади. Бу эса Исмоилбек Гаспиралининг биринчи томонидан миллатлар қариндошлигини ҳимоя этса, иккинчи томондан умумдемократик характерга эга эканлигини кўрсатади. Шунинг учун ҳам Беҳбудий ўзига Гаспиралининг тутган йўлини танлайди ва ундан маслаҳатлар олади ҳамда маслакдош бўлдилар.

Беҳбудий «усули жаид» мактабининг зарурлиги, унинг қонун-қоидалари, мактабда ўтиладиган дарслар, қандай имтиҳонлар олиниши, мактабнинг қай тарзда тузилиш, унга қандай асбоб-ускуналар кераклиги, муаллимларнинг вазифалари, уларнинг таъминот масалалари ва бошқа кўп

жиҳатларини Гаспиралидан ва унинг асарлари ҳамда мақолаларидан ўрганди. Шулар асосида Туркистонда «усули жаид» мактабларини ташкил этиш учун бор кучини сарфлади. Нафақат ташкил этиш, у шу мактабларни китоблар билан таъминлашда ҳам жонбозлик кўрсатди. У Самарқанднинг эски шаҳар қисмида бепул кутубхона, қироатхона, ўз ҳовлисида мактаб очди. Машҳур педагог Абдулқодир Шукурийнинг янги усулдаги мактабини ўз ҳовлисига кўчириб келди.

1918 йилда Самарқандда «Мусулмон ишчи ва деҳқон шўраси» тузилганда Бехбудий маориф комиссари этиб тайинланади. Шунда у янги мактаблар тармоғини янада кенгайтиради. Ўқув режалари тузиш, янги дарсликлар яратиш, ўқитувчилар тайёрлайдиган курслар очиш каби ишларини ривожлантириб юборди.

Маҳмудхўжа Бехбудий «усули жаид» мактаблари учун бир қанча дарсликлар ёзади. «Мухтараси тарихи ислом» («Исломнинг қисқача тарихи»), «Мадхали жўғрофия умроний» («Аҳоли жўғрофиясига кириш»), «Мухтараси жўғрофи русий» («Россиянинг қисқача жўғрофияси»), «Амалиётчи ислом» ва ҳоказо китоблари дарслик сифатида ўқитилганди.

«Усули жаид» мактабларида ҳамма ўқиш ҳуқуқига эга бўлган. Чор амалдорлари бу пайтда Туркистондаги янги усулдаги мактабларни бирон айб топиб дарҳол бекиттириб қуяр эди. Чунки, подшо ҳукумати «бегона халқ»нинг қисман бўлса ҳам илм-маърифатли бўлишини, дунёвий билимларни ўрганишини истамасди. Янги усул мактабларини фақат подшо ҳукумати эмас, балки маҳаллий руҳонийлар, эски мактабнинг домлалари ҳам ёқтирмас эдилар. Улар янги усул мактаблари «ислом динига раҳна солади», «бу мактабларнинг муаллимлари «кофир», деб ташвиқот юритар эдилар. Бундай қараш ва тўсиқларга қарамасдан Бехбудий ва унинг маслакдошлари «усули жаид» мактабларида Туркистон фарзандларини ўқитиш ишларини жадал суратда олиб борардилар.

Маҳмудхўжа Бехбудийнинг «усули жаид» мактабидаги ўқитиш ишлари қуйидаги тартибда олиб борилад эди: «Мактаб икки босқичдан иборат бўлиб, биринчи босқич – ибтидоий қисм, деб номланган(1-жадвал). Бунинг таҳсил муддати тўрт йил. Биринчи йилида: форсча ва арабча ёзув ҳамда ўқишни ўрганилган. Суралар ёд олинган. Ҳисоб дарси ўргатилган. Умуман бир йил давомида ёзма ўқимокни тўлиқ ўрганганлар. Иккинчи йилида: ҳафтияк, имон ва эътиқоддан дарс, форс, туркий ва араб тилида шеърлар, қасидалар ўқитилган. Учинчи йилида: қуръони Карим, ислом ибодати, тажвид, Саъдийдан насихатлар, форс ва туркий тил пухта ўргатилиб, ундан иншолар ёздирилди. Ҳисобдан турли тақсимот ва иш юритиш каби зарурий жиҳатлар ўқитилган. Тўртинчи йилида: эса Калому Шариф, муфассал тажвид, форсий ва туркий назм ва наср, ахлоқ дарси, туркий ва форсий тил, ҳисоб тарих, жўғрофия ўқитилган. Бу тўрт синфни тамомлаган болаларни муаллимларнинг ўзи тақсимлаган. Хохласа иккинчи босқичга қолдирар, уларнинг ўзлаштиришларига қараб мадрасага юборар,

боланинг ўзи хоҳласа Европа мактабларига юборар ёки тирикчилик учун ишлашга йўлланма берарди.

1-жадвал.

Махмудхўжа Бехбудийнинг «усули жаид» мактабидаги ўқитишнинг биринчи босқичи

Т.р	Йиллар	Ўқитиш мазмуни	
1	Биринчи йилда	Форсча ва арабча ёзув ҳамда ўқишни ўрганилган. Суралар ёд олинган. Ҳисоб дарси ўргатилган. Умуман бир йил давомида ёзма ўқимокни тўлиқ ўрганганлар.	
2	Иккинчи йилда	хафтияк, имон ва эътиқоддан дарс, форс, туркий ва араб тилида шеърлар, қасидалар ўқитилган.	
3	Учинчи йилида	Қуръони Карим, ислом ибодати, тажвид, Саъдийдан насихатлар, форс ва туркий тил пухта ўргатилиб, ундан иншолар ёздирилари. Ҳисобдан турли тақсимот ва иш юритиш каби зарурий жиҳатлар ўқитилган.	
4	Тўртинчи йилда	Калому Шариф, муфассал тажвид, форсий ва туркий назм ва наср, ахлоқ дарси, туркий ва форсий тил, ҳисоб тарих, жўғрофия ўқитилган.	

Мактабнинг иккинчи босқичи – рушадия бўлиб, бунга тўрт синф – ибтидоий қисми тамомлаганлар ўтказилар эди(2-жадвал). Бу босқичда ўқитиладиган дарс ва илмларнинг мундарижаси қуйидагича: биринчи йили араб тили, жўғрофия, шафақия, форс тили, таржима жумла мухтасар, тарихи анбиё ва ислом тарихи, Саъдийнинг «Ғулистон», туркий тили ўқитилган; иккинчи йил – араб тили, шифохия, тарих, ислом ахлоқ, турк тили, ҳисоб, форс ёзуви ва ҳоказолар; учинчи йил – араб тили, ҳисоб, хат ёзуви, тарих туркий тил, рус тили ҳам ўқитилган; тўртинчи йил – араб тили, рус қозихона хатлари, турк тили ва адабиёти, саломатлик, мактаб ва ҳаёт, ишқ ва муҳаббатсиз ахлоқ ва бошқа кўпгина ҳаётий дарслар ўқитилган.

2-жадвал.

Махмудхўжа Бехбудийнинг «усули жаид» мактабидаги ўқитишнинг иккинчи босқичи

Т.р	Йиллар	Ўқитиш мазмуни	
1	Биринчи йилда	араб тили, жўғрофия, шафақия, форс тили, таржима жумла мухтасар, тарихи анбиё ва ислом тарихи, Саъдийнинг «Ғулистон», туркий тили ўқитилган;	
2	Иккинчи йилда	араб тили, шифохия, тарих, ислом ахлоқ, турк тили, ҳисоб, форс ёзуви ва ҳоказолар;	

3	Учинчи йилида	араб тили, ҳисоб, хат ёзуви, тарих туркий тил, рус тили ҳам ўқитилган;	
4	Тўртинчи йил	араб тили, рус қозихона хатлари, турк тили ва адабиёти, саломатлик, мактаб ва ҳаёт, ишқ ва муҳаббатсиз ахлоқ ва бошқа кўпгина ҳаётий дарслар	

Беҳбудий мактабида ҳар йилнинг охирида тантнали имтиҳонлар ўтказилиб туриларди. Имтиҳонларга, албатта, ота-оналар ва бошқа меҳмонлар ҳам таклиф қилинарди. Бу биринчидан: «усули жаид» мактабларини кўпроқ тарғиб қилиш ва унинг ўқиш тартибларини кўрсатиш бўлса; иккинчидан: мактабни ҳаётийроқ қилиш, яъни оила ва мактаб бирлигини амалга ошириш эди.

Саккиз синф, яъни икки босқични тамомлаган шогирд арабча, форсча ва туркчада бемалол сўзлаб ёзарди. Русчани ҳам ўқиб, бемалол гаплаша оларди. Туркистоннинг бошқарма маҳкамаларининг барчасида ишлашга қурби етарди. Бу шогирд мактабда муаллимлик ҳам қила олар, тижорат билан ҳам шуғулланар, ҳатто муҳаррирлик ҳам қўлидан келарди.

Ҳар йилги имтиҳонларга барча жойдаги вакилларга хат юборилиб таклиф этиларди. Лекин кўпчилик мактабнинг ютуқларини кўра олмаганидан келмасди. Беҳбудий айтар эдики: «Келиб кўрсунлар, дуруст бўлса, ривож берсунлар, нодуруст бўлса, далил ила исбот қилсунлар... мақсадимизда хизматдан ва миллатдан бошқа нарса йўқдур».

Юқорида Маҳмудхўжа Беҳбудий таълим тизимини такомиллаштириш хусусида, ўқувчиларни имтиҳон қилмоқлик борасида ўзининг қимматли фикрларини баён этган.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Беҳбудий бобомизнинг таълим-тарбияга бағишланган бой илмий меросини ўрганиш бугунги кун таълим жараёнини янада такомиллаштиришда, таълим тизимини такомиллаштиришда ва энг муҳими ўқитувчилар маънавий қиёфасини ривожлантиришда асқотади.

Адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (2023 йил 30 апрел).
2. Ҳошимов К., Сафо Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. "Ўқитувчи" нашриёт-матба ижодий уйи. Тошкент-2010, 424 б.
3. Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005.
4. Sharq mutafakkirlari asarlarida o'qituvchi-murabbiy mahorati haqida <https://fayllar.org/reja-islom-dinining-tarqalishi-quron--dunyo-madaniyatining-ulk.html?page=3>

GLOBALASHUV DAVRIDA "OMMAVIY MADANIYAT"GA QARSHI KURASHISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY YO'LLARI

*Shukurova Nilufar Xaliyarovna
o'qituvchi Samarqand VPYMO'MM*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda butun dunyoga xavf solayotgan va yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat", unga qarshi kurashishda yuksak ma'naviy va axloqiy bilimlarni shakllantirish masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: "ommaviy madaniyat", milliy ong, yoshlar, axloq, madaniyat, ma'naviyat, globalizatsiya.

Аннотация: В данной статье речь идет о формировании высоких духовно-нравственных знаний в условиях борьбы с «массовой культурой», которая сегодня угрожает всему миру и оказывает негативное влияние на сознание молодежи.

Ключевые слова: «деструктивный культ», национальное самосознание, молодежь, этика, культура, духовность, глобализация.

Abstract: This article deals with the "mass culture" that threatens the whole world today and has a negative impact on the minds of young people, as well as the formation of high spiritual and moral knowledge in order to fight against it.

Key words: "mass cult", national identity, youth, ethics, culture, spirituality, globalization.

Insonlarning asrlar davomida erishgan yutuqlari hayotning adabiyligini davom ettiribgina qolmasdan, tiriklik olamidagi nabobot va hayvonot olamidagi yashash uchun kurashning yangi qirralarini vujudga keltira bordi. O'z ongi va aqliga ega bo'lgan mavjudot sifatida odamzod farzand tarbiyasining xilma-xil yo'llarini jamiyatlarda sinovdan o'tkazib, o'zining ijobiy natijalarga erishgan jihatlarini ommalashtirib bordi. Vaholanki, mana shunday taraqqiyotda ommaviy madaniyat ta'siriga tushgan ko'plab davlatlarda globallashuv o'zining sezilarli ta'sirlari bilan yoshlarni o'z domiga tortdi. Globallashuv ortidan o'zlari uchun demokratiyani jinsiy erkinlik sifatida qabul qilib, ko'plab yoshlar bir-birlari bilan oila qurib farzand ko'rishni emas, balki ko'ngilxushlik, jinsiy lazzatlanish, forig'lanish kabi tushunchalarga berila boshladilar. Buning oqibatida "AQSh va ayrim G'arbiy Yevropa davlatlarida 1989-yilga kelib bir jinsli odamlarning nikohini ro'yxatga olishga erishildi"[1]. Bu esa barcha dinlardagi oilaviy qadriyatlar ildiziga qattiq zarba berish bilan birga, uning muqaddasligiga rahna sola boshladi. Natijada bunday holat turli millatlarning kamayishiga olib keldi. Bugungi Yevropa davlatlarining asosiy muammosi ham ana shunday holatlar ta'sirida shakllandi. Jumladan, Rossiyalik olimlarning statistik ma'lumotlari bo'yicha rus xalqining aholisi 1990-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda 160 mln dan 143 mln gacha kamayib ketgan. Agar bu jarayon yanada keskinlashadigshan

bo'lsa, 2030-yilga kelib ruslar 120 mln gacha tushib qolishi taxmin qilinmoqda. Bu kabi muammolar Germaniya, Angliya, Fransiya, Italiya, G'arbiy Yevropa davlatlarining ham dolzarb muammosiga aylanib ulgurdi. Bugun bu xavf bizning xalqimizga ham hech qanday ta'sir etmaydi deb bo'lmaydi. Chunki yoshlarimiz orasida ommaviy madaniyat illatlari o'zining ba'zi unsurlarini namoyon etmoqda. Shuning uchun "madaniyat va san'at sohalari faoliyati butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning yetakchi o'rinni egallab olishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega"[2]dir. Chunki ilm-fanning taraqqiyotida axborotlar integratsiyasi vujudga kelib, ko'proq san'at sohasidagi to'siqlar yechimini topadi. Buning iste'molchilari esa bevosita yoshlar bo'lib, ular orasida o'smirlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Yoshlarimizda shaxsiy, hayotiy tajribaning kamligi tufayli san'atni faqatgina forig'lanish deb qarash, yuzaki munosabatda bo'lish ko'pincha ijobiy va salbiy hodisalarni chalkashtirib tasavvur qilishga, g'oyaviy yot, betayin harakatlarni haqiqiy badiiy qadriyatlardan ustun qo'yishga olib keladi. Bu tasavvurlar yoshlar orasida muloqotda takrorlanaversa, oxir-oqibat odatiy ishlatiladigan so'zga aylanadi va tengdoshlar o'rtasida quvvatlanishiga olib keladi. Shuning uchun yoshlar falsafiy ongini yuksaltirishga qaratilgan zamonaviy usullar bilan milliy g'oyaning asl ildizlarini ularga singdirish lozim. Milliy g'oya orqali "ong, qalb va tafakkurning o'zgalar ta'siriga tushib qolmasligi yoki ommaviy madaniyat ummonidan himoyalaniishi uni ta'minlashning nazariy konsepsiyasida o'z ifodasini topishi va uni amaliyotga aylantirish kutilgan samara beradi"[3]. Agarda jamiyatda siyosiy anglanmaganlik, an'naviy cheklanganlik, befarqlik, loqaydlik singari g'oyalar kuchaysa, ommaviy madaniyat rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratib bergan bo'lamiz. Unga qarshi falsafiy tafakkurni rivojlantirish, jamiyatda yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish san'at sohasida o'zining ijobiy natijasini beradi. "San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l topish"[4] bugungi kunda borliqda mujassam. San'at nafaqat inson taqdirleri, balki g'oyalar kurashini ham yoritishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarning obrazli tuzilishida san'atkorning nafaqat hayotiy tajribasi, balki g'oyaviy-estetik tamoyillari ham aks etadi. Jamiyatda yashab turib, jamiyatga befarq bo'lish mumkin emas.

Bugun yoshlarning ongida ommaviy madaniyat tuzog'iga tushirishda san'at asosiy vazifani bajarishini barchamiz yaxshi bilamiz. Shuning uchun biz undan jamiyatda o'zimiz uchun asosiy kuch sifatida foyalanib, uning milliy o'zlikni anglashga qaratilgan yo'llarini izlab topishimiz darkor. Ana shundagina birinchi navbatda, *estetik ongni* mafkuraviy immunitetni shakllantirishida o'zimiz uchun ijobiy qirralarini qo'llay olamiz. Ijtimoiy hayotda san'at yoshlarning ishonchiga aylanib, haqiqiy go'zallik, nafosat shaydosi bo'lishida milliy manfaatga yo'naltirilgan ehtiyojga ko'chishi lozim. San'at estetik ong orqali o'z tartibotini mafkuraviy tarbiyaning muhim yo'li sifatida turli janr va turlar asosida rivojlantiradi. Har bir yoshning kitob o'qishi, turli ko'rgazmalarga borishi, kino yoki teatrlarga borishi, filmlar tomosha qilishi odatda kunning turli vaqtlarida yuz

beradi. Ularning umumiy ta'sirini bo'lib, o'lchashning imkoni mavjud emas. Badiiy asarlarning ehtiros tuyg'ulari o'ziga xosligidan foydalanish muhimdir. Yorqin, obrazli bayon zerikarli, quruq, ustalik bilan tanlab terilgan misollar bilan bezatilgan sujetlardan ko'ra ko'p marta afzaldir.

Ommaviy madaniyat ta'siriga qarshi kurashda san'at yoshlarni ishontirish va tarbiyalash funksiyalarini bajaradi. Buning uchun tarbiyaviy jarayonni shunday tuzish kerakki, bachkana va haqiqiy san'at asaridan bittasini o'smirning o'zi erkin holda tanlab olsin. Bunda ehtiyotkorlik kerak va ehtiyotsizlik bilan bolalarga yoqadigan va ular nazarida badiiy va g'oyaviy ahamiyatga ega narsalarga putur yetkazmaslik kerak. Bunda nimani nima bilan almashtirishni va qanday almashtirishni bilish kerak. Yot mafkuralar targ'ibotchilari foydalanadigan xayoliy uydirmalarga haqiqatni boricha, uning bor murakkabligicha, ijtimoiy hayot hodisalarini, muammolarini, bo'yamasdan, lekin kamsitmasdan ko'rsatib, qarshi qo'yish kerak.

Yoshlarni san'at asosida mafkuraviy kurashishga chorlovchi yo'l bu – *ma'naviyat* hisoblanadi. Bunda har bir tadbirning tinglovchi yoki tomoshabinga yetib borishini nazoratga olish, yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqadigan, integratsion xarakterga ega faoliyat amalga oshirilishi lozim.

Yoshlarning to'garaklar, turli birlashmalar, festivallarda hamfikir bo'lib ishlashlari, ijodiy faoliyat turlarini hamfikrlik asosida yo'lga qo'yishi o'zaro muvofiqlikka xizmat qiladi. Bunda san'atning mafkuraviy mohiyati anglab olinadi, uning barcha ko'rinishlari g'oyasizlik, bachkanalik, badiiy noqislik, insonga nafrat va buzg'unchilik bilan kurashish istagini paydo qiladi.

Yoshlarni yot mafkuralarga qarshi tarbiyalashda g'oyaviy-ma'naviy tarbiyalashning rolini yanada oshirish zarur. Chunki jamiyatdagi ma'rifiy-ma'rifiy dasturlarida, tadbirlarda yoshlarni kuzatishdan ma'lumki, ulardagi g'oyaviy qarashlar to'g'risidagi tasavvurlar har doim ham umummilliy manfaat nuqtayi nazardan baholanmaydi. Ular har doim ham jamiyatning milliy g'oyasini, e'tiqodlarini chuqur anglab yetishga qodir emaslar, ko'pincha yoshlar yot g'oyalar targ'ibotida qoladilar, e'tirozlari bo'lsa ham aytishga qo'rqadilar.

Yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashishni amalga oshirish yo'llaridan biri *jamoatchilik fikrini* shakllantirish muhim o'rin egallaydi. Chunki yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi shakllanishida jamoalarda olib boriladigan turli nazoratlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, jamoaviy ehtiyojlarning ma'lum bir me'yorlarga amal qilishi, kiyinish madaniyati, o'z bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ma'naviy ongini yuksaltirib borish kabilar jamoatchilik fikrini shakllantiradi. "Jamoatchilik fikri – keng jamoatchilikning, ommaning, aholi ko'pchilik qatlamining qatlamining voqea-hodisalarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabatini ifoladovchi fikrlari, g'oya, qarash va tasavvurlari"[5]dir. Bunday turdagi masalalarni muhokama qilish odatda yoshlarni jamoaviy tahlil va baholash jarayoniga qiziqtiradi.

Ommaviy madaniyatga qarshi kurashishdaga muhim yo'llardan yana biri *mafkuraviy immunitet* sanaladi. Yoshlarda hayot bilan bog'liq falsafiy tafakkurni



shakllantirish, mustaqillikni mustahkamlash amaliyotini mafkuraviy bilimlarda asoslash muhimdir. Yoshlar faoliyatida qadriyatlarni e'zozlashi, maqsadlarini aniq belgilashi, haqqoniy hayotni solishtirish imkoniyatiga ega bo'lishida mafkuraviy immunitet dolzarbdir. U orqali yoshlar ommaviy madaniyatning tahdidlarini yaxshiroq idrok qilib, o'z tafakkurida milliy qadriyatlarni muvaffaqiyatli shakllantiradi va ularda faol hayotiy nuqtayi nazar yuzaga keladi. O'zbek xalqining baxti uchun kurashgan, vatan fidoyilarining jasorati yangi jamiyat qurishda o'rnak bo'lishini aniq tarixiy misollarda tushuntirib berish ijobiy samara beradi. Shuningdek yoshlarni masalaning nazariy asoslari bilan qurollantirish, mafkuraviy kurashning murakkab masalalarini yechishga amaliy tayyorlash hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda axloqsizlikni madaniyat deb bilib, milliy qadriyatlarimizga bepisandlik bilan qarash, yoshlar tarbiyasi hamda o'zligimizga katta xavf solmoqda. Bu kurashda turli mafkuraviy poligonlar, ommaviy madaniyatlar tomonidan har xil ta'sir vositalari ishga solinmoqda. Bu ta'sir vositalarining kishini o'ziga tortish g'oyalari bilan niqoblanganligi sababli ularni qay darajada xavfli ekanligini sezish oson bo'lmaydi. Masalan, OAV tomonidan namoyish etilayotgan multfilmlar, turli xil gazeta va jurnallarda aks ettirilayotgan jozibali rasmlar, ayniqsa, avjiga chiqqan kompyuter va qo'l telefonidagi o'yinlar yoshlar, bolalar e'tiborini tortmay qo'ymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. G'aniyev A. G'arb olamidagi ahloqiy muammolar. – Toshkent: Voris, 2007. -B.14.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. O'quv qo'llanma. - Toshkent: 2001. –B. 75.
3. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. –Toshkent: O'zbekiston, 2013. -B. 254.
4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 114.
5. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. –Toshkent: Akademiya, 2007. -B.148.

JADIDLARNING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MA'RIFIY-MADANIY TARBIYA MASALALARI

Raximova Dilshoda Baxritdinovna

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada barkamol avlodni tarbiyalashda jadidlarning qoldirilgan merosidan foydalanib ma'rifiy, ta'limiy, madaniy xususiyatlarni rivojlanishiga katta ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan. Shuningdek davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonunlar ham o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvar, barkamol, konsensus, ma'rifiy- madaniy, ateizm, qadriyat.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda jadidlarning tarbiyaviy faoliyati juda katta rol o'ynaydi. Ularning ko'rsatgan faoliyatini barkamol avlodni ma'rifiy-madaniy, ta'limiy tarbiyalashni rivojlanishida umumta'lim maktablarida, oiliy ta'lim muassasalarida keng miqyosda targ'ibot ishlarini olib borish shart va zaruriyatdir. Axborotlashgan davrda Yangi O'zbekistonda «Uchinchi renessans» ostonasida ekanmiz barkamol avlodni tarbiyalashda jadidlarning ko'rsatgan qahramonliklarni darslarda, teatrlarda, kinolarda, ommaviy axborot vositalari orqali keng holatda targ'ibot ishlarini olib borish kerak bo'ladi[1]. Darhaqiqat, ma'rifatchilik faoliyati juda katta ahamiyatga ega. Jadidlarning nazariy qarashlarida ikkita muhim xususiyat ko'zga tashlanadi: mustahkam irsiy ildiz hamda Sharq va G'arb ma'rifatchilaridir. Ular mamlakatni tarrafiyot yo'liga olib chiqishning garovi Sharq va G'arb madaniyatlarini uyg'unlashtirib, xalqni ko'zini ochishni bilgan. Maxmudxo'ja Behbudiy o'zining Jug'rofiya asarida shunday yozgan; "Dunyoga ishonmoq ushuni, komil va odil bo'lmoq tarixni o'qimoq va bilmoq kerak. Podshoyu vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o'qimoq kerak. Past qolgan va taraqqiy qilgan xalqlarni, jahongir bo'lgan davlat yo nopadid(mustamlaka) bo'lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak..... musulmon qanday ko'paydi va taraqqiy etdi, allahol na uchun musulmonlar tanazul etdilar? Buni bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak. Xulosa:diniy dunyodan boxabar bo'lmoqni xohlaydurgan har kim uchun tarix o'qimoq kerak. Chunki har narsa va shuning asli va nasli tarixdan bilinur.[2] Albatta bu fikrlarda barkamol avlodni tarbiyalashda o'quvchi yoshlarimiz tarixni bilsa o'zligini biladi, milliy his, milliy g'urur va milliy iftixor g'oyalari mujjam bo'ladi. Bejiz davlatimiz tomonidan qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiya - 2023 yulni 30-aprelida qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Konstitutsiyaning 78-moddasida belgilangan bolalar va yoshlarda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirishga oid qoidalarni amalga oshirish maqsadida 2023-yil 1-sentabrdan boshlab respublika fuqarosi hisoblangan va 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning madaniy meros obyektlariga, jumladan ko'rgazmalar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, shuningdek, davlat muzeylariga to'lovsiz kirish tartibi joriy etilsin.[3]

Mana huquqiy omillar ham jamiyatimizda o'z aksini topdi. Endi uztoz murrabiylar mana shunday imkoniyatdan unumli foydalanib barkamol avlodni tarbiyalashda hayotiy haqiqatga aylantirishdan iborat.

Moziyga qaytsak, XVII va XVIII asr ma'rifatparvar faylasuflar ta'riflaganidek, daxlsiz huquqlar Xudo tomonidan berilgan tabiiy huquqlar fuqarolar jamiyati barpo etilishi bilan barpo bo'lmaydi va jamiyat, na hukumat ularni tortib ham ololmaydi. Yangi davr Ovro'pa ma'naviy muhitiga xos qarama-qarshiliklar kurashidan keyin ham davom etadi. XVIII asr fransuz ma'rifatchiligi zaminida shakllangan ateizm yo'nalishi Gelvisiy (1715-1771), Gol'bax (1723-

1789), Didro (1713-1784) qarashlaridan olmon klassik falsafasiga o'tib, Feybarx (1804-1872) orqali Karl Marks va Fridrix Engel'sning murosasiz sinfiy kurash targ'ibiga qaratilgan kommunistik utopiyasiga olib keldi. Islom mintaqa ma'naiyatida bunday ziddiyatli holat yuz bergan emas. Alisher Navoyi va Mirzo Bedil talqinlaridagi Tavhid ta'limoti ma'rifatchilik va irfon bosqichlarida ba'zan ko'zga tashlanadigan ziddiyatli o'rinlarni engib o'tib, oily uyg'unlikka erisha bildi.

Turkiston o'lkasi xalqlarining milliy mustaqilligi uchun kurashi ikki bosqichga bo'linadi. Birinchisi qurolli kurash, ko'zg'olonlar, ikkinchisi madaniy-ma'rifiy yo'nalish bo'lib, bu yo'lning asosiy maqsadi, xalq ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish, milliy iqtisodiyotni yangi izlardan yuksaltirish yo'li bilan vaqti kelganda, nihoyatda qudratli harbiy siyosiy mavqega ega bo'lgan Rossiya hukumati bilan kelishuv murosayi modaro yani-konsensus yo'li bilan Ovro'paning ilg'or idora usullarini o'zlashtirib, millatning haqiqiy ozodligini ta'minlash edi.

Ma'rifachilik yo'li Ahmad Donish, Furqat, Feruz kabi XIX asr ikkinchi faoliyat ko'rsatgan yurt ulug'lari tashabbusi bilan boshlanib, XX asr boshida jadidchilik harakatida katta olamshumul o'zgarishlar yuz berdi. Har ikki yo'nalish ham XIX asrning oxirida kichikroq ko'lamlarda boshlangan bo'lsa, XX asr ikkinchi o'n yilligidan butun mihtaqada yalpi rivoj topib, Milliy uyg'onish harakati darajasiga ko'tarildi. Bir tomondan Turkiya, Eron, Xitoy kabi Sharq mamlakatlardagi yangilanish to'lqini, ikkinch tomondan Rossiya Kavkazorti o'lka musulmonlarning ta'sirida Turkistonda yangi davr nafasi shiddat bilan ufura boshladi [4].

Muxtoriyat tugatilgach "Ilmiy kengash", "Chig'atoy gurungi", "Nashr maorif" tashkilotlari va "Turon" teatrida adabiy, ilmiy-ma'rifiy ishlar bilan shug'illangan. Aleksandr Pushkinning "Bog'chasaroy fontani" va Mixail Lermontovning "Demon" dostonlarini mohirlik bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan, xayotdagi muhim voqealarni lirik qahramonlarining hissiyot va kechinmalari orqali ifoda etib ijod qilgan. Usmon Nosir ham millat ma'rifatini, ma'naviyatini rivojlantirish uchun katta hissa qo'shganligiga guvohmiz. Shaxs ma'naviyatini falsafiy talqinini chuqurlashtirish uchun millat tarixi, urfodat va an'analari, hayotiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar asosiy mezon bo'lib xizmat qilar ekan chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat, manaviyat keyinchalik milliy mustaqillik g'oyalarini ilgari surgan jadidlar harakati va ularning namoyandalrining faoliyatlarining ahamiyatining muhimligi alohida e'tirofga loyiq, deb xulosaga keldik.

Jahon ilmiy-falsafiy merosi taraqqiyoti tarixida jadid ma'rifatparvarligining ijtimoiy-falsafiy g'oyalarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan ilmiynazariy tadqiq etish yoshlar milliy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ularni axloqiy yuksaltirishda, turli xil yot g'oyalardan saqlash, g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish hamda ular ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda buyuk allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha islohotlar izchil

davom ettirilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zaruriyati bu yo'nalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, ularning g'oyalarini anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lida bormoqdamiz".[4] Bu borada jadidlarning nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida e'tirof etilgan Vatanga muhabbat va sadoqat, bag'rikenglik, oilani muqaddas qadriyat sifatida e'zozlash va mustahkamlash, ma'naviy ogohlik, gumanizm va ma'rifiy islom qadriyatlariga rioya etish, komil insonni tarbiyalash kabi g'oyalarining mazmunini ilmiy asosda ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, jadidlar mafkurasida hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib turgan inson ma'naviy kamoloti ijtimoiy jarayonlarini faollashtirish, taraqqiyparvar demokratik institutlarni vujudga keltirish, o'lkada o'ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi. Bu yo'lda jadidlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishga harakat qildilar. XVIII asr frantsuz ma'rifatparvarlari esa adolatli zamonning barcha fuqarolarini dunyoviy ilmlar bilan ma'rifatli qilish orqali erishish mumkin, deb chiqdilar. Ular ma'rifatli shaxs deganda, birinchi navbatda, dunyoviy ilmlar bilan qurollangan, tafakkurga ega bo'lish kerakligini e'tiborga olganlar. Ikkinchidan, o'z davri ijtimoiy muhit talablari asosida shakllangan axloq me'yorlariga to'la rioya qilishni nazarda tutganlar. Uchinchidan esa, ma'rifatli kishi, albatta, gumanizm ruhida (ya'ni boshqalarga ezgulik ruhida) tarbiya topgan bo'lishi kerak, deb tushunganlar. Jadidlar G'arb mamlakatlarining ma'naviy hayotida milliy an'alarimiz, xalqimiz ruhiyatiga to'g'ri kelmaydigan jihatlarni inkor etgan va komil insonni tarbiyalashda milliylikni bosh mezon deb bilganlar. Shu bilan birga, ular o'tmish adabiyoti va unda o'z ifodasini topgan komillik asoslarining davr talablariga to'liq javob bermasligini ham anglaganlar. G'arb va Sharq insonshunosligini payvand qilishga intilgan jadid yozuvchilarning birgina ijobiy qahramonlariga berilgan ta'rifida komillikning zamonaga muvofiq "ovrupocha andoza"si yaqqol ko'zga tashlanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" dramasidagi ziyoli tili bilan davr qahramonini tarbiyalash xususida shunday fikr yuritadi: "Olimi zamoniy bo'lmoq uchun bolalarni avvalo musulmoniy xat va savoduni chiqarib, zaruriyati diniya va o'z millatimiz tilini bilaturgan so'ngra hukumatimizni(ng) nizomli maktablariga bermoq kerakdur... so'ng Peterburg, Moskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi 115 himmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qitmoq lozimdur"1. Jadidlar matbuoti va ana shunday haqqoniylik va jasorat namunasi bo'la oladi. Asrimizning 20-yillaridayoq u milliy o'zlikni anglash, milliy iftixor va vatanparvarlik va xalq taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'ularini shakllantira oldi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatyaptiki, o'z davrining ko'zga ko'ringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidchilik milliy o'z-o'zini anglashning o'sishiga va milliy-ozodlik mafkurasining shakllanishi va taraqqiyotiga juda katta xizmat qildi. Yetuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy millat kelajagi bo'lgan yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, ularning ma'naviy-



axloqiy qiyofasini umuminsoniy qadriyatlarga mos qilib tarbiyalashga e'tiborini qaratadi. Uning ta'kidlashicha, inson yoshligidan boshlab yaxshi tarbiya topib, yuksak ma'naviy fazilatlarga ega bo'lib, buzuq xulqlardan saqlanib o'sgan bo'lsa, baxtiyor va osuda hayot kechiradi, o'ziga, oilasiga, jamoasi, xalqi, millati va Vataniga behad katta naf keltiradi. Xulosa qilib aytganda, jadidlar zamon kishisining komillik sifatlarini belgilashda ikki manbadan oziq oladilar: bir tomondan, milliy va islomiy an'analarga, xususan, mutasavvuf allomalarning komil inson haqidagi ta'limotiga tayangan, ularni zamon talablariga muvofiq tarzda rivojlantirgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, Ovrupo falsafasi va adabiyotida o'z talqinini topgan inson konseptsiyasidan davr va o'ziga xos milliy muhit, xalqning turmush tarzi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unumli foydalandilar.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarimizni tarbiyalashda jadidlarimizning konseptsiyalaridan, shuningdek, qoldirilgan ma'naviy-ma'rifiy fikr mulohazalaridan, boy axloqiy meroslardan barkamol avlodni tarbiylashda unumli foydalanib, tarbiya darsida, tarix fanida, ma'naviyat soatlarida keng amaliyotga tatbiq etilsa o'quvchi-yoshlarimizni har tomonlama barkamol bo'lib voyaga etishishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning davlat mustaqilligining 29-yilligiga bag'ishlangan ma'ro'zasida/Xalq so'zi 30 dekabr.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2009. – B. 17.
3. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini yangi tahriri. Lex. Uz.
4. Jadidlarning ma'rifatchilik faoliyati. Eshnazar Jabborov. \ Sharq yulduzi. 10|2019. 134-135b.



Samarqand VPYMO'MM. "BEHBUDIY O'QISHLARI-2023"

6-SHO'BA. ZAMONAVIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING NAZARIY-AMALIY JIHATLARI

TA'LIM MUASSASALARIDA TARIXIY BILIMLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRIB BORISHNING ILMIY METODIK JIHATLARI

Ya.H.G'afforov

CHDPI "O'zbekiston tarixi" kafedrası professori t.f.n.

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimi rivojlanishining bugungi bosqichida tarixiy bilimlarni shakllantirishning zaruriy metodlari tahlil etilgan.

Аннотация: В статье анализируются необходимые методы развитие исторических знаний на современном этапе развития образовательной системы.

Annotation: The article analyzes the necessary methods for developing historical knowledge at the present stage of development of the educational system.

Kalit so'zlar: meros, benazir, tafakkur, iftixor, jarayon, innovatsion boshqaruv, e'tiqod, metodologiya, konsepsiya, zamin, muruvvat, samaradorlik.

Vatanimiz tarixini o'rganish yoshlarni avlodlarimizning ko'p ming yillik madaniy va ma'naviy merosi, ularning jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimiz benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan faxrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

Ta'lim tizimi rivojlanishining bugungi kundagi bosqichida jahon mamlakatlarida jumladan, AQSH, Yaponiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya va Yevropaning iqtisodiyoti rivojlangan boshqa davlatlarida ta'limning tashkiliy va boshqaruv tuzilmalari, ularning rivojlanishlariga muhim ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida mamlakat umumiy boyligining 16 foizi moddiy kapitalga, 20 foizi tabiiy boyliklar, 64 foizi esa inson kapitaliga to'g'ri keladi, bu esa o'z navbatida, ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'lim tizimini boshqarishdagi jarayonlarda zamonaviy menejment hamda uning tamoyillariga amal qilish masalalariga katta e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi. Hatto, Germaniya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar milliy boyligining 80 foizini inson kapitali tashkil etadi [1]. Jahonning rivojlangan mamlakatlari boshqarish nazariyasi rivojlanishning har bir bosqichida inson kapitali, shaxsning kamol topishi, yosh avlodni tarbiyalashga doimo olimlar, izlanuvchilar, tadqiqotchilar, amaliyotchilar va keng jamoatchilik tomonidan alohida e'tibor berib kelinmoqda [2, 102-b].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, darhaqiqat, "Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga

sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi.

Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni ko'chaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart" [3].

Mamlakatimizda Xalq ta'limi tizimida davlat boshqaruvini takomillashtirish, vazirlik faoliyatini umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltirish, ta'limning boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini hamda mas'uliyatini oshirish, o'quv-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va AKTlarini samarali joriy etish orqali ta'lim sifatini ta'minlash sohalariga oid bir qator prezident va hukumat qarorlari qabul qilindi.

Zamonaviy jamiyatda ta'limning rivojlanishi va bu sohada innovatsiyalarni rivojlantirishdan iborat bo'lib, bunda ta'lim tizimidagi innovatsion boshqaruv amaliyotlarini joriy etish va ularning muvaffaqiyatli namunalarini tarqatishga yordam beradi. Innovatsion jarayonlarni boshqarish esa davlat ta'lim siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uni ayni paytda olimlar, siyosatshunoslar va jamoatchilik orasida muhokamalardan o'tkazilib kelinganligi ayni muddaodir.

O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarni hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz. "Mustaqil fikrlash katta boylikdir" [4, 8-9 b.].

Demokratik jamiyatda har bir fuqaro, birinchi galda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasalar, ta'lim samarasi past bo'lishi tabiiy. Tarix darslarida o'zligimizni anglash hususida gap borar ekan, avvalambor tarix o'qituvchisini o'zining o'z mutaxassisligiga bo'lgan e'tiqodi kuchli bo'lishi kerak. U Vatanimiz tarixi va uning o'qitish ahvoli sho'rolar davrida qanday ediyu, milliy mustaqilligimizni qo'lga kiritganimizdan keyin unda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi, degan aniq savolga aniq mantiqiy javobi bo'lmog'i kerak. Axir Qur'oni Karimda ham "Har bir musulmon savobni o'zidan boshlamog'i kerak" deyilgan-ku!

O'quvchilarning bilimlarini yuqori darajada bo'lishida maktabda pedagoglar jamoasi tomonidan o'zining kasbiga fidoiyligi bois yuqori obro'ga ega bo'lgan tarix o'qituvchisining shaxsi ham katta ro'l o'ynaydi. Shuning uchun tarix o'qituvchisi o'z ustidan tinmay ijodiy ish olib bormog'i lozim.

Tarix o'qituvchisi ma'lum zaruriy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi bilan bir qatorda shu bilimlarni o'quvchilar ongiga singdirib, ularni olgan bilimlarini shaxsiy e'tiqodlariga o'sib o'tishiga erishtirmoq metodikasidan ham mohirona foydalana olmog'i kerak. Aks holda "ta'lim - o'quvchilarga!" tamoyilining amalga oshmasdan, ta'limning harakatsiz konservatiya holida qolib ketishidan o'zi saqlasin.

Taniqli tarixchi-metodist olim A.I.Strajev tarix o'qituvchilari uchun egallashi zarur bo'lgan bilim va metodik mahorat xususida ikr yuritar ekan, shunday yozadi: *birinchidan*, tarixni ilmiy-metodologik jihatdan batafsil o'zlashtirib olmog'i kerak;

ikkinchidan, turli sohalar bo'yicha aniq tarixiy bilimlar bilan qurollangan bo'lmog'i kerak; *uchinchidan*, keng miqyosdagi umumma'naviy, umumbashariy dunyoqarashga ega bo'lmog'i kerak; *to'rtinchidan*, pedagogik va psixologik bilimlarni o'z ichiga olgan, mustaqil pedagogik fan va san'at sifatida shakllangan fan - tarix o'qitish metodikasi bilan har tomonlama qurollangan, zamonaviy tarix o'qituvchisiga hos sifatlar majmuining sohibi bo'lmog'i kerak" [5, 278-b].

A.I.Strajev fikriga qo'shilgan holda, biz bugungi jahon miqyosidagi ilmiy-texnikaviy axborot texnologiyasi avj olib borayotganligini hisobga olgan holda, ayniqsa tarix o'qituvchisining bizning mamlakatimiz sharoitida o'quvchi yoshlarda milliy g'oyasi va mafkurasini jadallik bilan shakllantirib borishda ta'limning texnika vositalaridan internetda keng targ'ib etilayotgan axborotlardan, umuman, davriy matbuot materiallariga chuqur tahliliy tafakkur bilan yondoshgan holda foydalanish tarix ta'limining samaradorligini oshirib borishda ijobiy natija berishi shak-shubhasizdir.

Eng asosiysi, Prezident Sh.M.Mirziyoev asarlari ijtimoiy fanlarni o'qitishning ilmiy-metodologik asosi ekanligini hisobga olgan holda, imkon bor joyda, har bir mavzuni o'tish jarayonida Prezident asarlari, nutqlari, ommaviy axborot vositalari hodimlariga bergan intervyularidan kelib chiqadigan ilmiy-nazariy konsepsion tushunchalarni o'quvchilar ongiga etkazish tarix o'qituvchisining jamiyat ustqurmasi sifatida o'zining demokratik bazasiga xolisona xizmatining ifodasi bo'lmog'i kerak.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, tarixiy bilimlar qanchalik cheksiz bo'lmasin, insonning bilish imkoniyati mutlaq emas, balki nisbatan bayon etiladi. Shu bois biz o'zimizning pedagogik faoliyatimizda hali O'zbekistonimiz sharoitida yuqori darajada ilmiy-pedagogik muammo – tarix o'qitish metodikasining takomillashtirish borasida turli davrlarda turli mamlakatlarda nashr etilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqdik. Ularni o'rganishimiz ularda bayon etilgan ilmiy-nazariy, metodik va didaktik fikr-mulohazalardan holi baqudrat foydalandik. Shu bilan birga, ularning ayrimlarida bayon etilgan fikr mulohazalarda dars variantlari, konsepsiyalar va xulosalarning bizning fikrimiz bo'yicha nomaqbulligi hususida ham o'zimizning tanqidiy emas, ularni qabul qilolmasligimiz hususida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirdik. Lekin, bizning maqsadimiz, mustaqilligimiz tufayli mamlakatimizda ilm-fan beqiyos taraqqiy etib borayotgan davrda yetilib kelayotgan bo'lajak metodist-olimlarimiz mamlakatimiz ilmgohlarida "tarix o'qitish metodikasi" deyilmish ilmiy-pedagogik fan taraqqiyotiga qo'l urganlarida biz ishora etgan adabiyotlar tahliliga yana bir bor e'tiborlarini qaratib, o'zlari yashab ijod etayotgan davr talablari bilan ilmiy-metodik jihatdan solishtirsalar, albatta, ilmiy-metodik jihatdan foydadan holi bo'lmas, degan umiddamiz [6, 7-b].

Chunki, mustaqillik yo'li Vatanimiz xalqlarining tarixiy an'analari va ma'naviy boyliklarini qayta tiklovchi, yangi mazmun bilan boyituvchi yo'ldir. Bu esa tarix o'qitishni milliy asosga qurishni, xalqimizning, mehnatsevarlik, hamkorlik, do'stlik, insonparvarlik, ozodlik va mustaqillik, ma'rifatparvarlik kabi an'analari, imon, insof, mehr-oqibat, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka muruvvat,

mehmondo'stlik, Vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi oliyjanob fazilatlarini chuqur o'rganishni, ularni asrab-avaylab, yoshlar qalbiga, qon-qoniga singdirishni, shu asosda ularning siyosiy ongini o'stirishni o'ziga anglashiga ko'maklashishni, Respublikamiz kelajagi uchun astoydil hizmat qiladigan yoshlarni etishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Mamlakatimiz tarixini o'rganish yoshlarning bu tarixiy an'analar va oliyjanob fazilatlar manbalarini, ular mustahkam zaminga egaligini, tarixan tarkib topganligini, avloddan-avlodga o'tib, mazmunan boyib borganligini, jamiyatning ravnaqi va farovonligi, insonlarning ma'naviy kamoloti uchun hizmat qilib kelganligini, ularni bundan keyin asrab-avaylab davom ettirish, avlodlarimizning insoniy fazilatlariga sodiq bo'lish o'zlarining muqaddas burchlari ekanligini anglab olishlariga yordam beradi [7, 3-4 b].

Zero, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Men barchangizni tarixni o'rganishda yanada uyg'oq, yanada faol bo'lishga chaqirmoqchiman. Tarixga sergak qaragan odamgina doimo hushyor va ogoh bo'lib yashaydi. Bugungi vaziyatga ham kelgusi jarayonlarga ham xolis va haqqoniy baho bera oladi. Bu esa hozirgi murakkab va shiddatli zamonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, yuksak taraqqiyotga erishishning eng muhim shartidir" [8, 147-b].

Adabiyotlar:

1. Ta'lim bo'yicha Butunjahon forumi. Yakuniy hisobot. - Dakar, Senegal: 2000. 26-28-aprel.
2. Muhamedov G., Hodjamqulov U., Toshtemirova S. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri. - Toshkent: Universitet, 2020y. B.102.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // O'zbekiston Milliy ahborot agentligi//28.12.2018/http:uza/uz
4. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997. B.8-9.
5. Strajev A.I. Metodika prepodavaniya istorii. Posobie dlya uchiteley. - Moskva: 1964. S.278.
6. G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. – T: Ishonchli hamkor, 2021, 7-bet.
7. Sa'diev A. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish. - Toshkent: O'qituvchi, 1993. B.3-4.
8. Shavkat Mirziyoev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. - Toshkent: O'zbekiston, 2019, 3-jild. B 147.

MAKTAB O'QITUVCHILARINING INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xakimova Dildora Mashrabjonovna
Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri,
p.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki motivlar, insonning xulq-atvori ong yoki his-tuyg'ular va ichki kechinmalar bilan boshqarilishi, o'qituvchi innovatsion salohiyatining mavjud darajasi, kasbiy va pedagogik faoliyatga qo'yiladigan talablar o'rtasidagi qarama-qarshilik kognitiv motivatsiyaning kuchayishiga va samarali ta'lim-tarbiya texnologiyalarini ijodiy izlashga intilishga olib kelishi o'qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning psixologik asoslari sifatida yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: innovatsiya, innovatsion salohiyat, qarama-qarshi printsiplar, psixologik ta'sirlar, ratsional harakat, voqelik, harakatlantiruvchi kuchlar, tasavvur.

Mamlakatimizda kasbiy-pedagogik faoliyatga maqsadli yo'naltirish tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan foydalanish layoqatiga ega, respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga munosib hissa qo'shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar tayyorlash, sohaga doir ilg'or o'qitish texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglik kasbiga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish" pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Bu esa, maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Insonda mavjud bo'lgan shaxsiy salohiyat, shaxsiy resurslar, ularni rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyati kasbiy rivojlanish jarayoniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, insonni faoliyat subyekti va shaxs sifatida rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari bu uning rivojlanishi jarayonida vujudga keladigan ichki qarama-qarshiliklardir.

Shaxs hayotida yuzaga keladigan maqsadlar, vazifalar va ularga erishish uchun mavjud vositalar o'rtasidagi ziddiyatlar, intilishlar, imkoniyatlar, shaxsiy salohiyat va uning manfaatlari, munosabatlari, yo'nalishlari o'rtasidagi ziddiyatlar faoliyat davomida hal qilinadi hamda shaxsning individual rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, shaxs salohiyatini rivojlantirishning uch bosqichi mavjud bo'lib, bular:

- 1) rivojlanish bosqichi (qarama-qarshilikni hal qilish);

- 2) yangi ichki qarama-qarshilikni yaratish bosqichi;
- 3) vujudga kelgan ichki qarama-qarshilikni bartaraf etish usullarini izlash bosqichi.

Harakatlantiruvchi kuchlar-bu shaxsning o'ziga xos ixtiyoriy harakatlarisiz har qanday shaxsiy xususiyatlar yoki fazilatlarni rivojlantirishni ta'minlaydigan mexanizm deb ataladi. Odatda, bunday kuchlar tashqi sharoitlar o'zgarganda yuzaga keladigan va odamdan xatti-harakatlar yoki munosabatlarni o'zgartirishni talab qiladigan ichki *qarama-qarshiliklardir*.

Qarama-qarshiliklar qarama-qarshi printsiplar o'rtasidagi ziddiyatni anglatadi. Ular ichki va tashqi, umumiy va individualdir. Ichki qarama-qarshiliklar odamda o'zi bilan kelishmovchilikda paydo bo'ladi, shu bilan birga ular uning istaklarini rag'batlantiradi. Tashqi qarama-qarshiliklar tashqi sharoitlar bilan faollashadi: insonning tabiatga, odamlarga, atrofdagi dunyoga munosabati. Umumiy qarama-qarshiliklar jamiyatning har bir a'zosining va umuman jamiyatning rivojlanishini rag'batlantiradi. Shaxsiy qarama-qarshiliklar faqat bitta shaxsga xosdir.

Agar yuqori darajadagi faoliyat amalga oshirilsa, paydo bo'layotgan qarama-qarshiliklarni hal qilish mumkin. Agar ehtiyoj qondirilsa va odam o'z rivojlanishining yuqori bosqichiga o'tsa, qarama-qarshilik yo'q qilinadi. Ammo qondirilgan ehtiyoj yangi ehtiyojni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, bir qarama-qarshilik boshqasiga almashtiriladi va takomillashtirish, shaxsni rivojlantirish jarayoni davom etadi.

Insonning xulq-atvori ong yoki his-tuyg'ular va ichki kechinmalar bilan boshqariladi. Ko'pincha psixologik ta'sirlar oqilona, hisoblangan harakatlarda ustunlik qiladi, chunki hissiy reaksiyalar ixtiyoriy harakatlarni talab qilmaydi, ular har qanday odam uchun tabiiy va tushunarli. Ratsional harakatlar odamdan diqqatni, kuch va o'rganishni talab qiladi, bu unchalik oson emas.

Ichki motivlar insonning motivlari va istaklarini aks ettiradi.

Tashqi motivlar-bu voqealarga, odamlarga, atrofdagi dunyoga qiziqishni uyg'otadigan rag'batlar.

Tashqi majburlash ham rag'batlantirishdir, lekin ularning harakatlari insonning majburiyatlari, muammo va jazodan qochish istagi bilan bog'liq. Bunday imtiyozlar ma'muriy ta'sir usullariga tegishli, masalan, qoidalar, buyruqlar, talablar va boshqalarga tegishli.

Ichki majburlash-bu ta'sirlar, qo'rquv hissi va taqiqlangan istaklarga qarshi kurashish. Bu yuqori kuch, uning asosida ichki yadro deb ataladigan narsa hosil bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, insonning xatti-harakati ko'pincha ichki va tashqi jihatlar bilan belgilanadi, shuning uchun majburlash yoki motivatsiya haqida emas, balki xatti-harakatlarni tashkil qilish haqida gapirish mumkin.

Inson rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari darajalar bo'yicha tuzilishi mumkin: tana darajasi, ruh darajasi, ong darajasi va qalb darajasi.

Ma'lumki, inson rivojlanishi maqsadli faoliyatda sodir bo'ladi, shuning uchun izchillik va uzluksizlik o'qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega. Ushbu holat bizni qiziqtirgan salohiyatni rivojlantirish uchun harakatlantiruvchi kuchlarni izlashni belgilaydi.

Tadqiqotimiz muammolariga kelsak, quyidagilarni ta'kidlash kerak:

Birinchi darajali harakatlantiruvchi kuchlar o'qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirishda o'zini ko'p ko'rsatmaydi, chunki odatlar, instinktlar va reflekslar ijodiy, o'zgartiruvchi faoliyat bilan deyarli bog'liq emas. Bundan tashqari, ma'lum o'qitish usullarini qo'llash odati innovatsion o'zgarishlarni sezilarli darajada sekinlashtirishi mumkin. Garchi, adolat uchun, pedagogik amaliyotda yangi narsalarni yaratish odat tusiga kirgan holda individual holatlarni topish mumkin. Masalan, ta'lim tashkilotidagi muammoning yechimini birinchi bo'lib taklif qilish odati. Bu xatti-harakat qisman jamoatchilik e'tiborida bo'lish, birinchi bo'lish istagi va qisman hamkasblar va rahbariyat orasida o'z obro'sini saqlab qolish istagi bilan bog'liq.

Albatta, *qo'rquvlar* avvalgi davrlarda keng miqyosda amalga oshirilgan kuchli harakatlantiruvchi kuch bo'lgan. Hozirgi vaqtda bu qo'rquvlar ishni yo'qotish yoki qisman yo'qotish bilan bog'liq bo'lib, bu o'qituvchiga asosiy ish yukiga qo'shimcha ravishda qo'shimcha soatlar bermaslikda ifodalanadi (ko'pchilik o'qituvchilar 1,5-2 stavkada ishlashlari sir emas), shuning uchun o'qituvchini qo'shimcha ish soatlari bilan bunday "rag'batlantirish" ta'lim tashkiloti ma'muriyatining qo'lidagi kuchli rag'bat hisoblanadi.

His-tuyg'ular va munosabat hissiy harakatlantiruvchi kuchlardir. Qanday munosabat va his-tuyg'ular inson rivojlanishiga hissa qo'shadi?

1) ijtimoiy ishonch va hurmatning proyektsiyasi bo'lgan qadr-qimmat va o'z-o'zini hurmat qilish hissi. Har bir inson o'z faoliyatini atrofdagilar va rahbariyat tomonidan tan olinishiga, yuqori baholanishiga intiladi. O'z-o'zini hurmat qilish ishdan qoniqish bilan chambarchas bog'liq, bu mehnat turiga bog'liq. Masalan, hunarmandlar mustaqillikdan, ijodkorlikdan va o'z mahoratidan qoniqish oldilar;

2) avtonomiya va o'zini o'zi ta'minlash hissi (shaxsiy resurslarga ishonch). Ushbu his-tuyg'ular ma'lum bir faoliyat erkinligi imkoniyati va qobiliyati bilan bog'liq. Biz qat'iy qoidalarining yo'qligi innovatsiyalarning muhim sharti ekanligiga qo'shilamiz;

3) o'zini namoyon qilishdan qoniqish hissi ma'lum bir faoliyatda o'z qobiliyatlari va iste'dodlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishdan kelib chiqadi. Bu tuyg'u har doim ijodiy jarayonga hamroh bo'ladi.

Ma'lumki, hissiyotlar o'qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun muhim motivatsion funktsiyani bajaradi. Keling, bunday his-tuyg'ularga misollar keltiraylik:

1) muammoga qiziqish – bilimga bo'lgan ehtiyoj tufayli ijobiy yo'naltirilgan hissiy jarayon biror narsa, hodisa yoki vaziyat haqida yangilik, unga e'tiborni kuchaytirish;

2) qiziqish-yangi narsalarni bilishga intilish, aslida bu hissiyot va kognitiv jarayonlarning integratsiyasi;

3) qo'rquv-bu siz ilgari ko'rmagan narsalarni hurmat qilish va kuzatishga asoslangan tuyg'u;

4) o'quvchilaringizga, o'quvchilarning ota-onalariga, hamkasblariga hamdardlik;

5) voqea yoki muloqotdan quvonch.

Ma'lumki, "kuchli" va "zaif" o'qituvchilar aql darajasi bilan emas, balki motivatsiya darajasi va tuzilishi bilan farq qiladi. Shunday qilib, A.A.Derkach innovatsion o'qituvchining muvaffaqiyati motivatsiya tarkibidagi ijodiy ehtiyojlarning mavjudligiga bog'liqligini isbotladi.

Innovatsiyalarda, boshqa har qanday sharoitda bo'lgani kabi, ikkita holat mavjud: haqiqiy voqelik va tasavvur, innovatsiyalar natijasida kutilgan. Faoliyatning butun dinamikasi voqelikning ushbu ikki modeli doirasida sodir bo'ladi, ammo "bu nafaqat vaqt o'tishi bilan, balki muammoning shartlari va vazifaning o'zi o'rtasidagi nisbatdagi dinamikadir".

O'qituvchi innovatsion salohiyatining mavjud darajasi va kasbiy va pedagogik faoliyatga qo'yiladigan talablar o'rtasidagi qarama-qarshilik kognitiv motivatsiyaning kuchayishiga va samarali ta'lim va tarbiya texnologiyalarini ijodiy izlashga intilishga olib kelishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish uning intellektual, psixologik va ijtimoiy sohalaridagi yangi shakllanishlarni egallashining murakkab, dinamik va maqsadli jarayoni sifatida, transformatsion faoliyatning yangi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish va ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirish orqali belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022-y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.

3. Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагогов высших образовательных учреждений в условиях информатизации образования: дисс. ... доктора философии. – Ташкент, 2017. – 172 с. – С.20

4. Jumaniyozova M. Innovatsion faoliyat – ta'lim sifatining kafolatidir. // j. Uzluksiz ta'lim. – T., 2004 - №6 – B.89.

5. Инновации. Деловой энциклопедический словарь / сост. В.Г. Гавриленко, В.М.Мясникович, П.Г.Никитенко и др. – М.: Право и экономика, 2006. – 476 с. – С.39.

6. Рой А. Дж. Креативное мышление. / Пер. с англ. Островский В. А. – М.: ИТ Пресс, 2007. – 176 с.

7. Kolb D.A., Rubin I.M., McIntyre J.M. Organizational Psychology: An experimental approach, Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1974. – 174 p.

OLIJ HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA HARBIY MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA PEDAGOGLARNING ROLI

Maxmudov O'ktam Raxmatovich

*O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Harbiy kadrlarni tayyorlash
boshqarmasi katta ofitseri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni o'quv jarayoniga moslashuvda pedagoglar o'rni borasida fikr yuritilgan. Bunda harbiy mutaxassislarning o'quv jarayoniga moslashishi bo'yicha turli olimlarning qarashlari va fikrlari bildirilgan.

Kalit so'zlar: oliy harbiy ta'lim, harbiy ta'lim muassasasi, kasbiy faoliyat.

Аннотация: В данной статье раскрыты место и роль педагогов при адаптации курсантов в учебный процесс в высшем военном образовательном учреждении. При исследовании данной проблемы изучены и проанализированы работы и взгляды различных ученых в данной области.

Ключевые слова: военное образование, военное образовательное учреждение, профессиональная деятельность.

Annotation: This article considers the issues of place and role of instructors in the adaption of cadets' to education process in higher military activities. In the study of this problem, works and views of various scientists in this field have been studied and analyzed.

Key words: military education, military educational institution, professional activities.

Bugungi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, jumladan, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini hozirgi zamon talablari darajasiga yetkazish, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini oshirish va yurtimiz sarhadlarini, xalqimizning tinch, farovon hayotini tashqi tajovuzlardan ishonchli himoya qilishga qodir zamonaviy Qurolli Kuchlarni qurishga qaratilgan.

Insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida shaxsning turmushga, kasbiy faoliyatga moslashuvi jarayoni va ushbu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi masalasi muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, turli mamlakatlar olimlarining asarlarini o'rganar ekanmiz, mazkur muammoning o'ziga xos yechimlarini ilmiy asosda yoritib berganliklarini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "... Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz ..." deb ta'kidlagan [1; 230 b.].

Oliy harbiy ta'lim muassasasining kursanti bo'lajak ofitser sifatida Qurolli Kuchlarda eng muhim ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega shaxsdir. Vatan himoyachisi va harbiy faoliyat subyekti sifatida u harbiy jamoaning muhim a'zosi hisoblanadi. Kursantning fikrlari, his tuyg'ulari va harakatlari, mulohaza hamda umidlari ko'p hollarda xizmatdoshlarining munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Yangi harbiy tuzilmaga kirib kelayotgan yosh fuqarolar qisqa vaqt ichida ijtimoiy-harbiy muhitga, kasbiy faoliyatga (jangovar tayyorgarlik, jangovar shaylik, jangovar trevoga) va shu kabilarga moslashtirilishi lozim [13; 14].

Kursantlarni yuqorida qayd etilgan vaziyatlarga moslashishi uchun albatta ushbu jarayonga adaptatsiyacining to'g'ri tashkil etilishi juda muhimdir.

Kursantlarning o'quv jarayonga adaptatsiyasi harbiy pedagogika va psixologiya sohasida rivojlangan mamlakatlarda yetarlicha o'rganilgan. Oliy harbiy ta'lim muassasalari sharoitida kursantlarning adaptatsiya jarayoni muammolarining o'rganilishini I.Y.Askarina, E.A.Budarin, C.Y.Dobryak, A.V.Mejuev, P.I.Obrazsov, E.V.Cafonova, C.V.Yanin va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Olib borilgan tadqiqotlarda muammo umumiy, an'anaviy uslublarda tadqiq etilgan. Harbiy pedagogikada adaptatsiya muammolari tadqiqotchilari ko'pincha "kasbiy adaptatsiya" tushunchasini ishlatadilar. P.I.Obrazsov va A.I.Kozachokning ta'kidlashicha, kasbiy adaptatsiya – kasbiy nuqtai nazardan kursantlar va o'qituvchilarning faol o'zaro munosabatlari sharoitida kursantlarning kasbda o'z o'rnini topishi va o'zini sohada ifoda etishiga imkon yaratib, kelajakdagi harbiy mutaxassisning muhim kasbiy sifatlarini ketma-ketlikda shakllantirish jarayonini o'zida aks ettiradi.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayonining bir qator o'ziga xosliklari talabalarning moslashishiga to'sqinlik qiladi, buni ayniqsa birinchi bosqich talabalarida yaqqol kuzatish mumkin bo'ladi, deb D. Muqimova o'z tadqiqotida fikr bildirgan [2; 58-60 b.].

Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning yangi ta'lim sharoitlariga moslashish jarayonini o'rganishida A.V. Mejuev "Harbiy ta'lim muassasalari muhitida kursantlarning faoliyatga tayyorligi" tushunchasini kiritdi hamda unda ilk bosqichdagi kursantlarni harbiy-kasbiy muhit sharoitlari va talablariga moslashtirish jarayonida ijtimoiy-psixologik va pedagogik xususiyatlarga ega bo'lgan qiyinchiliklarni keltiradi. U adaptiv tayyorgarlikni kursantning jamiyat va shaxslar bilan munosabatlarini samarali tashkil etish, ta'lim oluvchilarning ijtimoiy, ta'lim va boshqa turdagi faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan umumqabul qilingan meyorlar va qoidalar asosida bilim yurtining ta'lim muhiti bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyati sifatida belgilaydi [3; 22 b.].

Kasbiy faoliyat haqida fikr yuritilar ekan, turli kasb sohalarining o'ziga xos xususiyatlari va talablari bo'lishini ta'kidlash muhim. Jumladan, A.A.Satib-Aldiyevning fikriga ko'ra, harbiy pedagogik faoliyat bu o'qituvchi (komandir, boshliq)larning kursantlarni mamlakatni qurolli himoya qilish bilan bog'liq jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bilimlar, ko'nikmalar va malakalar bilan qurollantirish hamda harbiy-kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog'liq maqsadli faoliyati [4; 11-b.].

Bo'lajak harbiy mutaxassisni tayyorlash jarayoni harbiy-kasbiy tayyorgarlikning keng ko'lamli mahoratini, harbiy-texnik vositalarni qo'llash va ishlatish usullarini o'zlashtirish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, xizmat hujjatlarini ishlab chiqish va rasmiylashtirish hamda o'quv meyorlarini bajarishlarni o'z ichiga oladi.

Harbiy ta'lim tizimida davom etayotgan islohotlar jarayonida ijodiy fikrlaydigan mustaqil va noodatiy harakat qilish qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Oliy harbiy ta'lim muassasalarining kelajakda ofitser kadrlarni tayyorlaydigan o'qituvchilari uchun juda dolzarbdir. Shuning uchun kursantlarning o'quv jarayoniga jalb etiladigan harbiy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining kursantlar adaptatsiyasini to'g'ri yo'naltirishdagi o'ni juda muhim.

Ta'limning dastlabki bosqichida (1-2 bosqichlarda) fuqarolik oliy o'quv yurtlari talabalari kabi kursantlar ham harbiy bilim yurtining shartlariga moslashadi, ammo harbiy kadrlarni harbiy oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayoniga moslashtirish qiyinligi, bu davrda kursantlar o'qish bilan birga harbiy majburiyatlarni o'zlashtirishlari kerakligi bilan xarakterlanadi. Aynan ushbu davr davomida harbiy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini kursantlarni yangi shart-sharoitlarga moslashishida, o'zlariga bo'lgan ishonch va o'qishga bo'lgan qiziqishini ortirishida qo'llab-quvvatlashi lozim bo'ladi. Ba'zi hollarda a'loga o'qiydiganlarni qoloq kursantlar ustidan "otaliq"qa olishi bo'yicha jamoaviy muhokama tashkil qilish kerak bo'lgan mavzular paydo bo'lishi mumkin.

Biron-bir o'qituvchining kursantlarga nisbatan salbiy hissiyotni namoyon bo'lishini o'z vaqtida oldini olish muhimdir, bu faqatgina uning faniga emas, balki harbiy xizmatga bo'lgan munosabatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, professor-o'qituvchilar kursantlarga individual vazifalar va topshiriqlarni ularning layoqati, o'ziga xos muayyan xarakterlarni shakllantirish uchun axloqiy va jangovar sifatleri, intizomlilik, mas'uliyat va tashkilotchilik kabi shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda tanlashi kerak. Individual yondashuv orqali kursantlarda o'ziga ishonch va qat'iyatni rivojlantirish, vazifa va topshiriqlarni bajarilishida qat'iyatlik hamda jasorat ko'rsatishga undash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi: -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.

2. Muqumova D.I. Talabalarni o'quv jarayoniga moslashishining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish: / dis. ... Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD): 13.00.05 / D.I. Muqumova. – T., 2018. – 146 b.

3. Межуев А.В. Формирование готовности к жизнедеятельности в образовательной среде военного вуза у курсантов младших курсов: Автореф. дис. ... канд. педагог. наук. – Астрахань: 2008. – 22 с.

4. Satib-Aldiyev A.A. Ofitser-o'qituvchining pedagogik mahorati. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. – 264 b.

KASBIY KOMPETENTLIK: KOMPETENTLIKNING TURLI KO'RINISHLARI INTEGRATSIYASI

Masharipov Ibrat Yangiboyevich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikning tarkibiy mazmuni, ularda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish omillari hamda uning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil etilgan. Kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etayotganligi **ochib** berilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetentlik sifatlari, pedagog, rivojlantirish, mazmun, mohiyat, kadrlar salohiyati, malakali mutaxassis.

Аннотация: В государстве рассматривается предотвращение информационных угроз в военно-политической сфере. Научно доказано, что негативные тенденции, зарождающиеся в информационном пространстве, вызывают серьезные проблемы в политической, экономической, социальной и других сферах страны.

Ключевые слова: информация, информационный меконитизм, идеологический процесс, трансформация, тренд, глобализация, общество, идеология обмена.

Annotation: The article examines the prevention of information threats in the military-political sphere. It is scientifically proven that the negative trends occurring in the information space cause serious problems in the political, economic, social and other spheres of the countries.

Key words: information, information meconitism, ideological process, transformation, trend, globalization, society, exchange of ideologies.

Ta'limda biror bir o'zgarishni amalga oshirish uchun avval bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ongini tubdan o'zgartirish kerak. Bunda mutaxassisning faoliyati ta'lim kompetensiyasi asosida modellashtiriladi. Hozirgi kunda bo'lajak mutaxassislarda faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligi ma'lum bo'lmoqda.

Kasbiy kompetentlik mehnat subektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki

aynan, subektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. "Kasbiy kompetensiya — bu ma'lum bir sohada samarali ishlash uchun zarur bo'lgan va o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan shaxsning turli layoqatlari va hususiyatlarining yig'indisidir. Kompetensiya natijadorlikni ta'minlaydigan algoritmning inson imkoniyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Kompetensiya — insonning mutaxassis sifatidagi maqsadga yo'naltirilgan va uning imkoniyatlarini to'la namoyon etadigan harakatlari, faoliyatidir. Insonning bilish faoliyati natijalarini tizimlashtirish, uning tushuncha va g'oyalar ko'rinishida mavjud bo'lgan bilimlardan farqli o'laroq, kompetensiya faqat amalda aniqlanadi. Umuman olganda, kompetensiya mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llashdir, yetishmayotgan bilimlarni ta'minlash qobiliyati, o'z imkoniyatlarini namoyon etish bilan xarakterlanadigan zarur bilim, malaka, ko'nikmalarining hosilasidir. Shuning uchun bilimlardan farqli o'laroq, kompetensiyalar amaliy vazifani amalga oshirish imkoniyatlariga to'g'ri keladi" [2].

"Kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib boradi" [3].

Mutaxassislar kasbiy kompetentlik deganda alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Xususan, AQShning "Career Services" markazi tomonidan malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi mezonlar sifatida nostandart tafakkur tarzi, Singapurning Nanyan texnologiya universitetida esa kreativ qobiliyatlar muhim omillar qatorida sanab o'tilgan [4]. Butunjahon Iqtisodiyot forumida 2020 yil uchun eng muhim 10 ta bilim, ko'nikmalar ro'yxati e'lon qilingan [5]. S.Sanaqulov tadqiqotida 2015 yilga nisbatan 2020 yilda ustivorlik kasb etgan kasbiy kompetensiyalarning taqqoslama jadvali keltirilgan (1- jadvalga qarang) [6]:

1-jadval

2015	2020
1) Muammoni tizimli hal etish	1) Muammoni tizimli hal etish
2) Jamoa bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtirish	2) Tanqidiy fikrlash
3) Odamlarni boshqarish	3) Kreativlik
4) Tanqidiy fikrlash	4) Odamlarni boshqarish
5)Hamjihatlik, muloqotga kirishuvchanlik	5) Jamoa bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtirish
6) Sifat nazorati	6) Hissiy intellekt
7) Xizmatga moslashuvchanlik	7) Mulohaza va qaror qabul qilish

8) Mulohaza va qaror qabul qilish	8) Xizmatga moslashuvchanlik
9) Faol eshitish qobiliyati	9) Hamjihatlik, muloqotga kirishuvchanlik
10) Kreativlik	10) Kognitiv moslashuvchanlik

Kasbiy kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlar; noaniq vazifalarni bajarish; bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanish; kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda namoyon bo'ladi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislar o'z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida bo'lajak pedagoglar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat va yuqori samaradorlik bo'lajak pedagoglarning bilimlar majmuini o'zlashtirganligi va aynan shu bilimlar bir-birini to'ldirib, kuchaytirib, yuqori natijani yuzaga keltirganida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligining asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik, tajriba, o'zini-o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlari kiritiladi.

Pedagogik kasb bir paytning o'zida ham islohatchilik, ham boshqaruvchilik kasbi hisoblanadi. Shaxs kamolotini boshqarish uchun esa kompetent bo'lishi lozim. Shuning uchun o'qituvchini kasbiy kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda yuksak darajadagi mahoratini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasida «Yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega» ekanligi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligi tarkibi pedagogik ko'nikmalar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Kasbiy tayyorgarlik modeli umumiydan xususiy ko'nikmalar yo'nalishida belgilanishi maqsadga muvofiq. Ma'lumotlar va voqeylikni nazariy tahlil qila olish ko'nikmasi bilan uzviy bog'liqlikda pedagogik fikrlash va amaliyot yurita olish ko'nikmasi umumiy ko'nikmalar sirasiga kiradi. Bu har ikkala ko'nikmani sezgi, tajriba va nazariy darajalarda ro'y beradigan aniq fikrlashdan mavxumlikka o'tish jarayoni asosini tashkil qiluvchi ko'nikmalar birlashtirib turadi. Tahlilni nazariya darajasigacha

yetkaza olish ko'nikmasi - bo'lajak pedagoglarga ta'lim berishning muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, bo'lajak pedagogning kasbiy xususiyatlar talablariga mosligi pedagogik ko'nikmalarning pedagogik fikirlash va amaliyot yuritish bilan bog'liq jihatlarning mosligini anglatadi. Pedagogik vazifaning umumiylik darajasiga qaramay ilmiy asoslangan tizimini yaratish asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'hati:

1. To'rayev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish: P.f.f.d., (PhD) diss. – Toshkent, 2018. – B. 57
2. Кадырова М. Т. Компетентлик ёндашуви назарияси ва унинг педагогик мазмунига доир қарашлар / М. Т. Кадырова. — // Молодой ученый. — 2020. — № 43 (333). — С. 343-345. — URL: <https://moluch.ru/archive/333/74450/> (дата обращения: 02.10.2023).
3. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностью ориентированные технологии профессионального развития специалиста. – Екатеринбург, 1999. – 60 с.
4. Исследовательский центр Карнеги Мелона и Стэнфордский исследовательский институт. «Career Services Central». Наньянский технологический университет – Nanyang Technological University – специализируется на научном и инженерном обучении.
5. Всемирный экономический форум-2019 в Давосе. 10 ключевых навыков до 2020-го. <https://www.eduget.com/news>.
6. Санакулов С. Професионал таълимда “юмшоқ” компетенциялар (Soft Skills) ни жорий этишнинг долзарб масалалари. 2020 № 1 // Kasb-hunar ta'limi.
7. Xasanbayev X.X. Mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – B.21

O'SPIRINLIK DAVRIDA BILIMLARNI EGALLASHDA AQLIY INDIVIDUAL FAOLIYATNING RIVOJLANISHI

Karimova Madina Xolmuratovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'spirinlik davrida o'quvchilarning aqliy individual faoliyatning rivojlanishi haqida bo'lib, ularning kelajak haqidagi qanday his-tuyg'ular bezovta qilishi, bilimlarni egallashda individual tafovutlar va ularning psixologik asoslari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'spirinlik davri, individual, o'smir, qobiliyat, aqliy faoliyat, ehtiyoj, axloq.

Аннотация: В статье описывается развитие психической индивидуальной деятельности учащихся в подростковом возрасте, в том

числе их восприятие будущего, индивидуальные различия в приобретении знаний, их психологические основы.

Annotation: This article describes the development of students' mental individual activities during adolescence, including how they feel about the future, individual discrepancies in acquiring knowledge, and their psychological foundations.

Yosh davri taraqqiyotida o'spirinlik davri o'zining universialligi bilan ajralib turadi va u fan taraqqiyotida XIX asr oxiriga kelib industrializatsiya hamda urbanizatsiya ta'siridagina ushbu yosh alohida davr sifatida ajrala boshlangan. O'spirinlik ontogenetik taraqqiyotning muhim davri hisoblanib, u turli yo'nalish mualliflari talqinida turlicha yoritiladi. [10, 64-66]. 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davr o'spirinlik davridir. O'spirinlar 8-10 sinf o'quvchilari bo'lib, ular oldida kelgusida kim bo'lish, qanday faoliyat turi bilan shug'ullanish kerak degan tashvish turadi. Bu yoshdagi bolalar o'smirlardan farq qiladi. Agar o'smirlikda o'quvchining asosiy faoliyati o'qish bo'lgan bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilarining faoliyati o'qish, bilim olish va mehnatga tayyorlanishdan iborat bo'ladi. O'spirinlik davrida o'quv faoliyatining murakkablashishi, ularning yangi jamoada tutgan o'rni ulardan ko'p narsa talab qiladi. O'spirinlarning maktab hayotida, oilada tutgan mavqei o'zgaradi, ya'ni o'zidan kichiklarga nisbatan boshliq, tashkilotchi va tarbiyachi bo'lish talab qilinadi.. Organizmning o'sishi to'xtaydi, «tinch» davr boshlanadi. Organlarning tarkib topishi va organizm to'qimalarining takomillashishi nihoyasiga etadi. Jismoniy rivojlanish shaxsning ba'zi bir xususiyatlarini va bundan keyingi hayotiy faoliyatini belgilashga ta'sir ko'rsatadi.

Bu davrga kelib o'qish mashg'ulotlari ancha murakkablashadi: bir qator yangi fanlar o'qitila boshlaydi, dars mazmuni kengayadi, murakkablashadi, bilim, hayot, amaliy ishlar qo'shib olib boriladi, o'quvchilar ishlab chiqarish jamoasida bo'ladi, ekskursiyalarga, ko'rsatmalikka, aloxida e'tibor beriladi. Bu davrda nazorat bilimlar, amaliy ishlar bilan qo'shib o'rganiladi. O'quvchilardan materialni tushunish va uni hayotga tadbiq eta bilish talab etiladi. Bola bu yoshda o'zini ancha eslik xis qiladi, tajriba ortadi va bilimlarini mustaqil hayotga tadbiq eta boshlaydi. Bu esa ularning darsga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi. Bu davrga kelib o'zlariga ma'qul bo'lgan biror fanni tanlaydilar. Bunday xususiyatlarni o'smirlarda ham uchratish mumkin, lekin bunda aloxida fanlarga bo'lgan qiziqish ko'proq o'qituvchining maslahati bilan bog'liq bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilaridagi qiziqish ularning ehtiyojlari, intilishlari asosida tarkib topadi. Ba'zan ular shoshma-shosharlikka yo'l qo'yadilar va natijada xodisalar xaqida noto'g'ri fikr yuritib, noto'g'ri xulosalar chiqaradilar.

V.A.Krutetskiy, I.N.Lukin yuqori sinf o'quvchilarining bilim egallashidagi aqliy individual faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalib, bu borada o'quvchilarni asosan 4 guruhga bo'ladi.

1) yuqori darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar. Bular bilim olishda mustaqillik, tashabbuskorlik ko'rsatmaydilar. O'quv materialini darslikdan yodlab oladilar, materialni o'qituvchi so'rab qolganda javob berish uchungina o'rganadilar. Agar material «qiyin» bo'lsa, uni butunlay o'rganmaydilar. Bu bilimlarni o'rgana bilmaydilar, o'quvchilarga ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan maktablarda o'qish qiyin bo'ladi. Bu guruh o'quvchilarining ba'zilar 9 sinfgacha a'lochi bo'lib kelib, keyin og'ir axvolga tushib qoladi bunday o'quvchilar bilan ko'proq individual ish olib borish lozim.

2) o'qish faoliyatida amaliy qobiliyatlari borligi sezilib turadigan o'quvchilar bo'lib, qiyin masalani o'rganishga, uni amalda sinab ko'rishga xarakat qiladilar. Darslar to'g'ri yo'naltirilsa, bu guruh o'quvchilarining darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Ularga xar-xil dars usullaridan foydalanib amaliyotda nazariy bilimning ahamiyati katta ekanligini tushuntirish kerak.

3) bu o'quvchilar nazariyaga juda ham berilib, amaliy ishlarga ahamiyat bermaydilar. Ular ko'p fikr yuritadi. Lekin o'z fikrlarini amalda sinab ko'rishdan qochadi. Ularning fikrlashlarida umumlashtirish, abstraksiya qilish ustun turadi, shunga qaramay konkretlashtirish xususiyati past darajada bo'ladi. Ular yaxshi gapiradi, isbotlab beradi, yakunlar yasaydi, aqliy faoliyat bilan ko'proq shug'ullanadi, o'z bilimini mustaqil kengaytirishga xarakat qiladi, lekin nazariyani amaliyot bilan bog'lay olmaydi. Bu guruhga ijtimoiy fanlarga qiziquvchilarni ham kiritish mumkin.

4) bu o'quvchilar o'qish faoliyatida nazariya bilan amaliyotni birga qo'shib olib boradilar. Ularning bilimi keng bo'ladi, ular fikr yuritishini, tatbiq qilishni biladi, jamoat ishida faoldir. Lekin bu guruh o'quvchilari hamma narsaga barobar qiziqadilar-u, alohida bir narsaga chuqurroq qiziqmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'spirinlik davrida shaxsda aqliy hamda axloqiy kamolot jadal rivojlanib boradi. Aynan shu davrga kelib o'spirin aqliy individual salohiyatidan kelib chiqqan holda qaysi kasb egasi bo'lishini aniqlab olgan bo'lishi lozim. O'spirinlik davrida o'quvchilarni bilimlarni egallashi, va mehnatga tayyorlanishi asosiy faoliyat hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy, hamda aqliy bilim saviyasi ancha yuqori bo'lgan o'spirinlar mustaqil hayotga qadam qo'yishga psixologik jihatdan tayyor bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anvarova D.M. O'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari: Avtoreferat.diss. ps.f.n, 2011.
2. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. - T.: 2010.
3. G'oziyev E.G'. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped. in-tlari va un-tlarning talabalari uchun o'quv qo'l. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 244 b
4. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi. - T.:1999.
5. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. - T.:O'zbekiston. 1971.
6. Nishonova Z.T. Bolalarga ma'naviyat va axloq asoslarini o'rgatishning psixologik muammolari.–T.: "O'zbekiston", 1999.

7. Karimova M. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida axloqiy hislarni rivojlantirish omillari. GulDU Universitet axborotnomasi. 2016, №4. 71-75 b.
8. Karimova M. O'quvchilarni kasb-xunarga yo'naltirishdagi pedagogik va psixologik muammolar. Barkamol shaxsni shakllantirish muammolari. 2016. 142-144 b.
9. Karimova M. Yosh avlodni tarbiyalashning ma'naviy axloqiy jihatlari // Ayol-ma'naviyat gulshani IIV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2015. 311-313 b.
10. Karimova M. Ilk o'spirinlik davridagi o'quvchilarda ahloqiy hislarni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari. Monografiya. –T., 2021. 64-66 b.
11. Karimova M.Kh. The role of moral values in adolescents and their role in determining the criteria of spiritual perfection. Scientific reports of Bukhara state university 2020/6(82), 283-290 p.
12. Plyaskina I.V. Zdorovye detey, obuchayushixsya v shkolax novogo vida //Gigiyena i sanitariya, №1, 2000g. S.3-5

SINF RAHBARINING O'QUVCHILAR JAMOASIDA ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Nurmanova Dilfuza Jamilovna
Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Umumiy o'rta ta'limda sinf rahbarlarining sinf jamoasi bilan ishlash kompetentligini oshirish maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida qisqa muddatli kurslarni tashkil qilish orqali sinf rahbarlariga amaliy metodik tavsiyalar beriladi.

Аннотация: В общем среднем образовании для повышения компетентности классных руководителей в работе с классным коллективом классным руководителям даются практические методические рекомендации путем организации краткосрочных курсов в процессе непрерывного профессионального развития.

Annotation: In general secondary education, in order to increase the competence of class leaders in working with the class team, practical methodical recommendations are given to class leaders by organizing short-term courses in the process of continuous professional development.

Kalit so'zlar: Sinf rahbari, sinf jamoasi, o'quvchi, maktab, faoliyat, qisqa muddatli kurs, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ota-ona, jamiyat.

Ключевые слова: Классный руководитель, классный коллектив, ученик, школа, деятельность, краткосрочный курс, непрерывное профессиональное развитие, родители, общество.

Keywords: *Class leader, class team, student, school, activity, short-term course, continuous professional development, parents, society.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya berish jarayonida sinf rahbarlarining sinf jamoasini boshqarishdagi o'rni va ahamiyati katta. Maktablarimizda sinf rahbarlarining asosiy faoliyatlari tarbiyaviy ishlar bilan shug'ullanish bo'lib, shu sababli ularni sinfning bosh tarbiyachisi, murabbiysi deyishimiz mumkin. Sinf rahbarining faoliyati nafaqat sinf o'quvchilari ya'ni sinf jamoasi bilan ishlashi balki ularning ota-onalari (yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan ham bevosita doimiy aloqa bo'lib turishlari talab qilinadi. Bugungi kunga sinf rahbarlaridan faqatgina tarbiyachi yoki murabbiy bo'lishlari bilan birga sinf jamoasini boshqarishda sinf rahbarlaridan boshqaruvchanlik qobiliyati ham talab qilinmoqda. Demak, zamon talabi bilan hamnafas bo'lish va sinf o'quvchilarini qiziqishlarini o'rganib ularga to'g'ri yo'lni ko'rsata olish bu sinf rahbarining o'z vazifasini to'liqonli bajarishi bo'ladi. Chunchi zamon talabi va hayot taqazosi bilan bolaning ota-onasi chet ellarda o'zi esa buvisi yoki yaqin qarindoshlarini vasiyligida bo'lgan bolalarga maktab ayniqsa sinf rahbari eng yaqin kishisiga aylab qolmoqda. Ko'rinib turganizgizdek sinf rahbarlari bolalarga faqat ta'lim-tabriya beribgina qolmasdan ularni "Katta hayotga tayyorlash" degan ulkan mas'uliyatli vazifa yelkalarida turganliklarini har bir sinf rahbar xis qilishlari shart!

Yuqoridagi ulkan vazifalarni bajarib kelayotgan ustozlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish maqdadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni va 2020-yil 6-noyabtdagi PQ-4884-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib amaliyotga joriy qilindi. Shuningdek sinf rahbarlarni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni 6-bandining 3-qatorida quyidagicha keltirilgan:

-umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim muassasalari va kasb-hunar maktablari pedagoglariga 2020-yil 1-noyabrdan boshlab sinf (guruh) rahbarligi uchun qo'shimcha to'lovlar 1,5 baravarga oshiriladi.

Bundan tashqari, sinf rahbarlarini hozirgi zamon talablariga mos ravishda ish faoliyatlarini olib borishlari va ularga motivatsiya berish maqsadida 2020-yil 6-noyabtdagi PQ-4884-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori 20-bandida quyidagilar keltirib o'tilgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administraturasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston teleradiokompaniyasiga Farmon hamda mazkur qarorning maqsad va vazifalarini, malakali o'qituvchilar, namunali sinf rahbarlari, maktablar va direktorlarning ijodiy tajribalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish

tavsiya etilsin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbari vazifasi boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoki fan o'qituvchilari bajarishadilar. Shundan kelib chiqib aytish joizki, sinf rahbarligida yetarlicha tajriba yoki ularga amaliy-metodik masalalar bo'yicha muammalar talaygina. Sinf rahbarlarining amaliy-metodik tavsiyalar bilan muammolarini bartaraf etishda uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoni negzida qisqa muddatli kurslarni ham tashkil qilish zarurati tug'ilmoqda.

Shu sababdan sinf rahbarlari uchun tavsiya qilinadigan qisqa muddatli kurslarda sinf jamoasi yoki o'quvchi bilan ishlashda quyidagi kompetentsiyalarini optimallashtirish nazarda tutiladi:

- sinf rahbari sinf jamoasidagi har bir o'quvchining xarakterini bilishi;
- sinf jamoasidagi har bir o'quvchining ota-onalari bilan yaqindan munosabat o'rnatish, hamkorlikda ishlashi;
- sinf jamoasidagi har bir o'quvchining oiladagi muhitini bilish uchun o'quvchi, ularning ota-onalari bilan suhbatlar o'tkazish, bahs-munozaralarda bildirilgan fikrlar orqali ma'lumotlar yig'ishi;
- sinf jamoasidagi har bir o'quvchini shaxsiy "men"ini rivojlantirishda ular bilan individual ishlashi;
- yaxshi ko'radigan (yomon ko'radigan) fanlari, qiziqishlari va ularning dunyoqarashi, orzu-istaklari bilan qiziqishi;
- o'quvchilarning o'z xohishi bilan maktab va maktabdan tashqari to'garaklarni tanlashlariga ko'maklashish, fan olimpiadalarida ishtirok etishida motivatsiya berishi;
- fan o'qituvchilarining har biri bilan o'z sinf o'quvchilari haqida doimo muloqotda bo'lish, ularga ham o'quvchilarining xarakterlari haqida ma'lumotlar berish va ular bilan fikr almashishi;
- sinf jamoasidagi o'quvchilarning qanday kasblarga layoqati borligini aniqlash maqsadida suhbatlar, qiziqarli ijodiy topshiriqlar, muammoli keyslar, jamoaviy o'yinlarni tashkil qilishi, natija va xulosalardan kelib chiqib qiyosiy tahlillarni olib borishi;
- sinf rahbari yil davomida sinf jamoasidagi o'quvchilarini turli xil tadbirlarda, jamoat ishlarida, sport musobaqalarida ishtirok etishlarini va atrofdagilar bilan munosabatlarini kuzatishi, tegishli tavsiyalar berishi, ularni jamoa bilan hamjihatlikda faoliyat yuritish uchun undashi lozimligi;
- sinf jamoasidagi bolalarning xatti-xarakatlarida kamchilik yoki nuqsonlar (uyatchanlik, tajovuzkorlik, sirlik, giperaktivlik, passivlik) sezilsa maktab psixologiga yozma murojaat qilish hamda ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ishlashi;
- maktab va sinfning ichki tartib qoidalarini buzuvchi yoki IIB ro'yxatida turuvchi o'quvchilar bo'lsa, ular bilan ko'proq suhbatlar o'tkazish va ular bilan doimiy aloqada bo'lishi lozim.

Yuqoridagi firklarni amaliyotga joriy qilish maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida qisqa muddatli kurslarni tashkil qilish tavsiya etaladi. Bu

kurs orqali sinf rahbarida quyidagi kompetentsiyalarini optimallashtirish imkonini beradi.

1. O'qituvchiga berkitilgan sinf o'quvchilarining har biri haqidagi shaxsiy ma'lumotlar bilan tanishib chiqishi;
2. Individual tarzda bolalarni psixologiyasini o'rganishi;
3. Ota-onalari yoki ularni o'rni bosuvchi shaxslar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi;
4. Bolalarning bilim olish darajasi;
5. Bolani kreativ fikrlashga o'rgatishi;
6. Bolaning oiladagi munosabati;
7. Bolaning maktabdan so'ng kimlar va nimalar bilan band bo'lishi;
8. Bolaning ehtiyoj va qiziqishlarini bilib olishidir.

Bundan tashqari bugungi kun sinf rahbarining intellektual, jismoniy va ma'naviy sohalarda o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirishda ishtirok etadi. Yuqoridagi ishlarning uzviy davomiyligini ta'minlash uchun esa ota-onalar bilan ishlash, tashqi muhitda (maktabda, shaharda) har bir o'quvchining va umuman sinf jamoasining manfaatlarini himoya qilish - bu sinf rahbarining funktsional vazifalariga kiritilgan bo'lishi lozim.

Sinf o'qituvchisi bolaga o'zini sinf jamoasining a'zosi sifatida anglashda yordam berish, bolalarning jamoaviy yutuqlar uchun mas'uliyat ulushini tushunishga yordam berishga qaratilgan.

Yuqoridagilarni xulosa qiladigan bo'lsak har bir sinf rahbarini sinf jamoasi bilan ishlashdagi kompetentligini optimallashtirishda sinf rahbarlarini kreativ fikrlashlari ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyatlarini boshqarishda ijodiy, noan'anaviy yondashuvlar asosida samarali natijalarga erishishimi mumkin. Ana shu tarzda ishlar tashkil qilinsa, ko'zlagan maqsadlarimizga erishamiz.

Foydalanilgan adabiotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB: 03/20/637/1313-son, 24.09.2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalari rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 22-fevraldagi 41-son buyrug'iga ilova. Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida Nizom.
5. Maxsudov P.M. Professional ta'lim tizimi uchun pedagoglar tayyorlash: muammo va takliflar. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №7 (92) 2020 yil. 42-49 bb.

6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 22-fevraldagi 41-son buyrug'iga ilova. Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida Nizom.

7. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili: monografiya /O.Musurmanova. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -184 b.

8. Koshanova N. Umumta'lim maktablarida sinf rahbarlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari (klaster yondashuvi asosida) avtoreferati. Chirchiq – 2021.

9. Raximqulova M.B. Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Xalq ta'lim. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 6-son 2021-yil (maxsus). 79-83 bb.

10. Axmedov T.Q. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchi – pedagoglarni ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga o'rgatish tizimini shakllantirish omillari. "Malaka oshirish tizimi – barkamol shaxsni shakllantirishda oila va uzluksiz ta'lim tizimi hamkorligini ta'minlovchi hamda ta'lim sifatini oshiruvchi ijtimoiy institut sifatida" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2012-yil, 19-iyun. 334-336 bb.

11. Avlaey O.U. "Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tasavvurida o'qituvchi timsoli" Maktab va hayot jurnali, 2019-yil 2-son(142), 5-7 bb.

12. Abdullayeva G.A. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kvalimetriyalash. Maktab va hayot jurnali. № 6. 2021 yil. 35-36 bb.).

13. Sinf rahbari jurnali 2021-yil oktabr 10-son (106).

OILADA MA'NAVIY MUHIT SOG'LOMLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Farzona Saydimurodova

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali "Oila psixologiyasi" yo'nalishi
magistranti*

Annotatsiya. Maqolada jamiyatning muhim bolagi hisoblangan oilada psixologik muhit barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik tomonlarini ilmiy tadqiq etilgan. Oilada ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish orqali uning ijtimoiy rivojlanishdagi rolini ko'rsatish dolzrbligi ochib berilmoqda.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, ma'naviyat, ma'naviy muhit, psixologik muhit, globallashuv, axloq, tahdid, ma'naviy hayot, barqarorlik, ijtimoiy muammolar, turmush tarzi, ijtimoiy psixologiya.

Аннотация. В статье научно исследуются социальные, духовные, этико-эстетические аспекты обеспечения стабильности психологической среды в семье, которая считается важной частью общества. Путем изучения социально-психологических аспектов обеспечения стабильности

духовной среды в семье выявляется необходимость показать ее роль в общественном развитии.

Ключевые слова: общество, семья, духовность, духовная среда, психологическая среда, глобализация, нравственность, угроза, духовная жизнь, устойчивость, социальные проблемы, образ жизни, социальная психология.

Annotation. In the article, the social, spiritual, educational, ethical and aesthetic aspects of ensuring the stability of the psychological environment in the family, which is considered an important part of society, are scientifically researched. By studying the socio-psychological aspects of ensuring the stability of the spiritual environment in the family, the need to show its role in social development is revealed.

Key words: society, family, spirituality, spiritual environment, psychological environment, globalization, morality, threat, spiritual life, stability, social problems, lifestyle, social psychology.

O'zbekistonda oila ijtimoiy hayoti uchun qulay huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilayotganligi ularni ma'naviy olamini barqarorlashtirishda muhim xizmat qiladi. Mamlakatimizda bu yo'nalishda qonuniy va huquqiy baza yaratilgani oilada munosib turmushni ta'minlash uchun boy amaliy tajriba to'plangan. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida oila masalasi alohida bobda ko'rsatilgan bo'lib, 76-moddada "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlانuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi" [1, 25-b], - deb ta'kidlangan.

Oiladagi psixologik muhit va undagi ma'naviy munosabatlarni barqarorlashtirishga oid xususiyatlarini ilmiy o'rganish bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim vazifasiga aylanmoqda. Ayniqsa, psixologiya, sotsiologiya, politologiya, ma'naviyatshunoslik kabi fanlar tizimida ham oila barqarorligi, uning jamiyat va inson hayotidagi o'rni o'rganilmoqdaki, bu jarayonlarni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil etish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning ta'kidlashicha, «... bugungi tez o'zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin» [2,464-b]. Shu nuqtai nazardan, jamiyatda sog'lom ijtimoiy-madaniy muhitni, sog'lom tafakkur tarzi, sog'lom tarbiya tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda oilaning jamiyatdagi rolini oshirish, oilada sog'lom va obod turmush tarzini shakllantirishning falsafiy-estetik jihatlari yuzasidan tadqiqotlar olib borish ob'ektiv zaruriyatdir.

Jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlash tizimida oila ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir etadigan hodisa va jarayonlar, ularning o'zaro bir-biriga ta'siri va

muntazam sharoitlari o'rganilib, ijtimoiy tizimning muvozanatiga nomuvofiqligi va qarama-qarshi hodisasi sifatida tadqiq etilishi lozim. Oila muhitidagi alohida olingan muammolar va salbiy hodisalarni o'rganish, tahlil etish, uning o'sish va rivojlanish dinamikasini o'rganish va ularni bartaraf etish yo'llarini tadqiq etishga ehtiyoj sezilmoqda. Bugungi tahlilshunoslik sohasi doirasida jamiyat, xususan oila tizimi bilan aloqador bo'lgan bir qancha tahdidlar, muammolar hamda salbiy omillar bilan bog'liq tushunchalar mavjuddirki, ularning tadqiq va tahlil etish dolzarb masaladir.

Oiladagi har bir insonning oilaning ijtimoiy-psixologik muhiti va uni doimiy sog'lom holda saqlashga qaratilgan xatti-harakatlari, doimiy iliq munosabatlarni saqlashga intilishlari ularning tafakkur tarzi orqali namoyon bo'ladi. Tafakkurning mohiyatini hayotiy ilmlar va ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarni teran tushunish belgilar ekan, sog'lom tafakkur o'z navbatida oilaviy hayotning ma'no va maqsadini to'g'ri yo'lga solishga xizmat qiladi. Oilada ba'zi insonlarning tafakkuridagi nuqsonlar, tabiiyki, oiladagi nosog'lom turmush tarzi, unda ba'zi ziddiyatlarning vujudga kelishiga olib keladi. Bu jarayon ikki tomonlama ro'y beradi, nosog'lom tafakkur nosog'lom oilaviy muhitni, noqulay turmush tarzi esa, tafakkurdagi degradatsiyaga sabab bo'ladi.

Oilada psixologik muhit barqarorligini ta'minlashda quyidagi omillar muhim o'rin tutadi:

oila mikromuhitida har bir a'zoning o'zini erkin, bir biri bilan teng, himoyalangan va o'zaro ishonch asosidagi kayfiyatlari hukmron bo'lishi;

oila qadriyatlarining avloddan avlodga og'ishmay o'tib borishi va mazkur an'analarning oila mikromuhiti psixologik holatiga ijobiy ta'sirining doimiy davom etishi;

oila a'zolarining bo'sh vaqtlarida doimo birga bo'lishiga erishish, turli xil tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularda suhbatlar qilinishi, uy ishlarini birgalikda amalga oshirish.

Q.Quronboevning ta'kidlashicha, "Oila, maktab va mahallada barqarorlashgan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar teran tafakkurli barkamol shaxsni voyaga etkazadi. Bugungi yoshlarimizni ajdodlarimizga munosib avlod qilib tarbiyalash, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash va hurmat qilishga o'rgatish, mamlakatimiz istiqboli va taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, iymon-e'tiqodi mustahkam, irodasi baquvvat farzand qilib tarbiyalashda ota-onalar, mahalla, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalarining hamkorligi izchil va tizimli ravishda olib borishni davrning o'zi taqozo qilmoqda" [3,5-b].

Oilaning ijtimoiy-ma'naviy hayoti murakkab jarayonlar ketma-ketligini tashkil etib, bu tizimning biron xalqasiga darz ketsa turli-tuman tashqi ta'sirlarning oila muhitiga kirib kelishiga sabab bo'ladi. Bu tashqi ta'sirlar ijtimoiy, siyosiy, diniy, madaniy, axloqiy, ekologik va yana bir qator yo'nalishlarga egadir. Mazkur jarayon o'zining murakkab qonuniyatlariga ega bo'lib, tashqi ta'sirlarning o'ziga xos tarzda tashuvchilari, ta'sir etuvchi mexanizmlari mavjud bo'ladi. Oila mana shunday turli-tuman salbiy ta'sirlarga dosh berish, o'zini o'zi himoyalashi jarayonlarida faoliyat

ko'rsatib, ayni vaqtda unda o'ziga xos estetik muhitga ehtiyoj sezila boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 30.04.2023 y. <https://lex.uz/docs/6445145>. -B. 25.
2. Mirziyoev Sh.M. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -T.: O'zbekiston, 2018. – B. 464.
3. Quronboev Q. Shukronalik – ma'naviyat targ'ibotining uzviy jihati. //Yoshlarda shukronalik va hayotga pozitiv yondoshuvni mustahkamlash ijtimoiy barqarorlik omili sifatida./Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, Nishon-noshir, 2014. –B. 5.

O'QITUVCHILARNING MAS'ULIYAT VA MOSLASHUVCHANLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xurramov Anvar Vafokulovich

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning mas'uliyat va moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchi – pedagogik-psixologik jihatdan o'z mutaxassisligi bo'yicha maxsus bilimlarga va ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs ekanligi, o'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitishning ilg'or shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni tarbiyalash nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishiga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Mas'uliyat, pedagogik maqsad, ijodiy kaqfiyat, rejalashtirish, ilhom, ijod, ishonch.*

Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning mas'uliyat va moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish “O'qituvchi – pedagogik-psixologik jihatdan o'z mutaxassisligi bo'yicha maxsus bilimlarga va ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitishning ilg'or shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni tarbiyalash nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida “Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash” kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan”⁴⁶.

Aynan e'tirof etilishicha shaxsga ta'lim–tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk arboblari jalb etilgan.

⁴⁶ A. Xoliqov Pedagogik mahorat Kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun darslik; I,— T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011.

Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni va nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan.

Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchi ta'limni qanday tashkil etishi zarur? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin:

- avvalo u o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmunan yaxlitligini ta'minlashi;
- pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashg'ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi;
- ta'lim beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi;
- ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda jahonning rivojlangan mamlakatlarida pedagogika va psixologiya sohasida erishilayotgan ilg'or tajribalarni amalda modernizatsiya qilgan holda qo'llashi;
- O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ma'naviy meroslaridan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda foydalanishi;
- darsning barcha turlarida, mashg'ulotlarda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodlaridan foydalanishi;
- o'qitadigan fan turkumi bo'yicha avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi uchun amaliy dasturlar paketini yaratishi lozim.

Albatta ta'lim-tarbiya barcha pedagoglar faoliyati jarayonida yuqori natijaiarga erishishni, faoliyatining a'lo darajada baholanishi hamda jamiyat tomondan tan olinishini istaydi. Bunga erishish hamda orzu-istakiarining ushalishi uchun pedagogik mas'uliyat talab qilinadi

Shu o'rinda savol tug'iladi. Mas'uliyat nima? *Mas'uliyat bu* – Biror ish, hatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlik ma'nolarini bildiradi.

Pedagog mas'uliyati esa davlat va jamiyat buyurtmasi asosida yosh avlod savodxonligini oshirish jarayoni uchun javobgarlik hissini shakllantirilganligi bilan bekgilanadi. "Faoliyat - deb yozgan edi, akademik A.N.Leontev – dunyoni o'zlashtirishning birinchi shartidir"⁴⁷. Shunday ekan pedagogik mas'uliyatni shakllantirishi va rivojlantirishda faoliyat yetakchidir. Pedagogik mas'uliyatni shakllantirishda o'qituvchining pedagogik faoliyati asosiy ro'l o'ynaydi.

⁴⁷ A. Xoliqov Pedagogik mahorat Kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun darslik; I,— T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011.

Pedagogik mas'uliyat pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy mahorati va mehnati orqali qo'lga kiritiladi, mehnat esa, faoliyatning tarkibiy qismlari (o'qish, ijtimoiy ish, o'yin, sport mashg'ulotlari va hokazo.) dan biri hisoblanadi. Shu asosda pedagogik faoliyat o'qituvchi mehnatining istiqboli, texnologiyasi, vazifalari va ta'sir ko'rsatish usullarining majmuidir. Pedagogik mas'uliyatni shakllantirish pedagogik sohani mukammal egallash, nazariy, amaliy ma'lumotlarga to'liq ega bo'lish, kasbiy tayyorgarlik ustida tinmay ishlashdan iborat. Shuning natijasida o'qituvchida pedagogik mahorat shakllanib boradi. Pedagogik mahoratning betakror, noyob, mohir ustasi bo'lish uchun esa o'qituvchi – tarbiyachiga ilhom, ijod va o'z kuchiga ishonch bo'lishi kerak.

Mana shu ilhom, ijod va ishonchni yo'lga qo'yuvchi, uning imkoniyatlarini to'la ishga soluvchi kuch faoliyatdir. Pedagogik mas'uliyatni shakllantirishda pedagogik faoliyat muhim o'rin tutadi. Faoliyat to'la ma'noda usullar, holatlar, shakllarning umumlashgan tizimidan iborat bo'lib, u har xil sharoitlarda ham mavjud bo'ladi.

Har qanday faoliyat singari o'qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, obyekt va subyektdan iborat.

Pedagogik maqsad – o'qitish, tarbiyalash va shu asosda ta'lim oluvchilar shaxsini shakllantirishdan iborat. Usul esa tarbiyalanuvchilar obro'sini egallash, hurmatiga sazovor bo'lishi va ta'sir ko'rsatishdir. Pedagogik mehnatning obyekti sifatida – o'qituvchi shaxsi turadi, uning xarakteri, irodasi, ongi, aqli, odob – axloqining asosi hisoblanadi. Pedagogik faoliyat subyekti esa – tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi – pedagogning o'zi. Chunki, u ta'lim oluvchilarga tabiat, jamiyat, tafakkur qonunlari to'g'risida ma'lumot berish uchun, avvalo, ulami o'z faoliyatining obyektiga aylantiradi. Shu tariqa bilimlar o'zlashtiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar ta'lim oluvchilarga yetkaziladi. Pedagogik mahorat — bu o'qituvchi - tarbiyachining kasbiy va shaxsiy faoliyati natijasining umumlashmasi sifatida, muayyan bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisidan iborat⁴⁸.

Pedagogik mahoratga ega bo'lgan ta'lim beruvchi – ta'lim oluvchilarda o'qish, o'qitish, tarbiyalash jarayonida diqqatlarini aniq taqsimlash, bilim, ko'nikmalarini, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini o'zlashtirish malakalarini shakllantiradi.

Albatta, bu malakalarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimining turlari, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari hamda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining o'rni beqiyosdir. O'zining aql-zakovati, ilmiy salohiyati, ma'naviyati, madaniyati bilan bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga, ijobiy ma'nodagi ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'zgarishlarga javobgar shaxs bo'lib shakllanadi va ta'lim islohotlari hujjatlarida belgilangan vazifalarini bajarishga o'z hissasini qo'shadi.

⁴⁸ A. Xoliqov Pedagogik mahorat Kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun darslik; I,— T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011.

Shunday qilib, insonning ma'naviy yuksalishi, hayotiy tajribasi, bilimi, xatti-harakati, odob – axloqi, kasbiy mas'uliyati shakllanib, takomillashib boradi. Bu esa pedagoglarning kasbiy mas'uliyatini shakllantirishning ilmiy, nazariy, amaliy jihatdan o'qitishni yanada yuksaltirish, uning samaradorligini oshirishga da'vat etadi.

O'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, o'quvchi bilan doimo muloqotda boiganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy, nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash, ko'nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash albatta oson ish emas.

O'qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallagan, aqliy mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish muhim va davlat ahamiyatidagi vazifadir.

Buning uchun:

1. Pedagog – kasbiy faoliyatning pedagogik yo'nalishlarini aniq belgilay oladigan shaxs bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, pedagogik mas'uliyatning zamonaviy pedagogik, ilg'or g'oyalari zaminida shaxsga insonparvarlik nuqtayi - nazaridan yondoshish imkonini beradi.

2. Pedagog – pedagogik jarayonni aniq tashkil qilishi, boshqarishi, kutilayotgan natijalarni oldindan loyihalashi va uni ro'yobga chiqarish texnologiyasini, shuningdek, pedagogik jarayonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilishi va ularni bartaraf etish uchun tayyor bo'lishi kerak.

Zamonaviy o'qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogik-psixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun, unda quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarni ifodalaydi):

1. O'qituvchi mamlakatimizning ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi shart.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslaridan ko'nikma va malakaga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z faoliyati tashkil etishi zarur.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi davr talabidir.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, chehra, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

Dars – ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo'lib, unda sinf dars tizimining barcha xususiyatlari aks etadi. Darsda o'qituvchi tashkiliy tartibni va ta'limning muntazamligini ta'minlaydi. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shaklidir. O'qituvchining o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati dars jarayonida namoyon bo'ladi va bunda o'qituvchidan mas'uliyat talab qilinadi.

O'qituvchi darsda muayyan tayyorgarlikka ega o'quvchilar jamoasi bilan faoliyat olib boradi. Darsda o'qituvchi o'ziga tegishli mutaxassislik fanining ma'lum bir reja asosida belgilangan mavzusini o'quvchilarga tushuntirish bo'yicha ishlaydi. Bilimlarni ta'lim metodlari asosida o'quvchilar ongiga singdiradi, o'quvchilarning olgan bilimni muntazam ravishda baholab boradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Darsda o'qituvchi rahbar sifatida har bir o'quvchining bilim olish xususiyatlarini inobatga oladi, o'quvchilarning ta'lim jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, asosiy maqsadga erishish uchun ta'lim jarayonining quyidagi talablaridan foydalanib, o'z imkoniyatlariga erishishi lozim:

Ta'limiy talablarga har bir darsning ta'limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni turli axborot vositalari bilan boyitish, yangi o'rganilayotgan mavzuni ijtimoiy hayot bilan, turmush tarzi bilan bog'lab mazmunan boyitish va optimallashtirish, so'nggi pedagogik texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish, turli ta'lim shakli, metodlari va ko'rinishlarini qo'llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mas'uliyat asosida yondashishni ta'minlash kabilar kiradi.

Tarbiyaviy talablardan asosiy maqsad, ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan yangi o'quv materialini asosida egallangan bilimlardan tashqari uning

tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatni his etish, intizomlilik, erkin fikr yuritish, qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollikni shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi talablar ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z imkoniyatlarini o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatining ijobiy sifatlariga nisbatan qiziqishini oshirishga, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mudroq qobiliyatlarini uyg'otishga, ong va tafakkurlarini dars jarayonida shakllantirishga qaratadi.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, ta'limning yordamchi shakllari ham mavjud bo'lib, ular asosan o'qituvchining pedagogik tashabbuskorligi natijasida tashkil etiladi. Ta'limning yordamchi shakllari quyidagilar: turli to'garaklar, praktikum, seminar, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulotlar, o'quv sayohatlari, o'quvchilarning mustaqil uy vazifalari.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki o'qituvchining yoshi va ish staji – mehnatga ilmiy yondashish jarayonining turli bosqichlarini aks ettiruvchi, unda ijodiy energiyaning yuzaga kelishidan tortib yetilishigacha va so'nishigacha bo'lgan obyektiv-shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Sotsiologlar bu xususiyatlarni keksayishni hamda g'ayrat va optimizmni yo'qotishni tan olmaydigan pedagogik mehnatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'lab o'rganish zarurligiga e'tiborni qaratishadi. O'qituvchining yosh ko'rsatkichi – bu keksayish emas, balki yoshlik hislatlarini va shijoatini saqlab qoluvchi, har bir yangi avlod dunyoqarashiga ko'nikma hosil qilib, o'ziga singdira oladigan, ularni tushunadigan, hayotiy tajribalar asosida donishmandlik mohiyatini ko'rsatuvchi holat ko'rsatkichidir.

O'qituvchining mehnat faoliyatida yosh muammosining ahamiyati ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritilgan. Ushbu tadqiqot ishlari o'qituvchining kasbiy "cho'qqilarni zabt etishi", pedagogik krizislarni boshidan kechirishini, o'z mehnatidan ko'ngil sovushlarini, ba'zida "tinchlanish" davrini o'tagan yuzlab yosh mutaxassislarining o'qituvchilik kasbiga "singib ketishi" naqadar murakkab va shiddatli jarayon ekanligini aks ettiradi. Gap bu yerda ish stajida ham, o'quvchilar yoki o'qituvchilar jamoasida ham emas, balki shaxs hayotiy faoliyatining turli tomonlariga obyektiv ta'sir qiluvchi yosh xususiyatlarida bo'lib, bu xususiyatlar hayot va kasbga munosabatlarni, o'zining ruhiy qadriyatlarini va risolalarini o'zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2016.
2. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili. – T.:Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 41-b.
3. Ibragimov A.A. Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand. SamDCHTI, 2020.

4. Choriyev R.K. Malaka oshirish tizimini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari// Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2014. №2. B.22-25. 24-25bb.
5. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Ibragimova Feruza Xolboyevna

*T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot
instituti doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, ijodkorlik, ijod, qobiliyat, bo'lajak o'qituvchi, mexanizmlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются механизмы развития профессионального творчества будущих учителей.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, творчество, креативность, способности, будущий учитель, механизмы.

Annotation. This article discusses the mechanisms for the development of professional creativity of future teachers.

Key words: professional training, creativity, creativity, abilities, future teacher, mechanism.

Barcha sohadagi jadal islohatlar kabi hozirki kunda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish yuzasidan ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonlifarmoni [1], 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-sonli qarori [2], 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarorlari ijrosini taminlash orqali oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyatida ijodkorligini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatida ijodkorlikni rivojlantirish oliy ta'lim muassasida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarni o'qitish asnosida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasasida o'qituvchilarini ijodkorlikni rivojlantirish muhim yo'nalishlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijodiy faoliyati rivojlangan pedagogda bu jarayon yaxlit hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, pedagog - o'z yo'nalishining mohir ustasi, o'z fanini chuqur anglagan uning muammolarini baratarf etish yo'lida izlangan, nazariyani

amaliyotga tadbiq etadigan, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, o'qitish va metodikasini har tomonlama biluvchi mutaxassis.

Oliy pedagogik ta'lim tizimida tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarni chuqur bilimga ega, dars mashg'ulotlarni samarali tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish bugungi kunda ustuvor maqsad desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning bilimi, kasbiy tayyorgarligini shakllantirish hamda o'zini professional rivojlantirish muhim.

Rus olimi V. A. Slastenin kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish masalasi bilan shug'ullanar ekan, u kasbiy rivojlantirishni izohlashicha, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish ikki komponentdan iborat: tashqi shartlar (ular ma'lum pozitsiyalar tomonidan yaratilgan) va ichki qobiliyatlar (o'qituvchining o'zi ularni egallaydi).

Olim bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari sifatida o'qituvchi:

- a) shaxsiy faoliyatdagi sifat o'zgarishlarini tashkil etish;
- b) pedagogik faoliyatida ijodiy izlanish orqali o'zini professional rivojlantirishga qaratilgan usullarni qo'llashi;
- c) o'ziga nisbatan pedagogik, psixologik, tashkiliy qarorlarni qabul qilishni faoliyatli tashkil etish vazifasi;
- d) faoliyati davomida atrof-muhitdagi bo'layotgan jarayonlarni idrok etish qobiliyati bu uning kasbiy rivojlanishining zaruriy sharti ekanligini bilishi kerak [3].

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijodiy rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorligidir. Mashhur rus psixologi I.K. Platonovning fikriga ko'ra, "kasbiy tayyorgarlik – bu o'zini kerakli kasbiy faoliyatni bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning subyektiv holatidir".

Bo'lajak o'qituvchilarni raqobatbardosh hamda ijodiy-faol etib tarbiyalash orqali ularda mustaqil qaror qabul qilish, o'zini ustida muntazam ishlash orqali kasbiy va shaxsiy sifatlarini samarali rivojlantirishga erishiladi.[4].

Shunga ko'ra, mahalliy zamonaviy ilmiy izlanuvchilar "shaxsning ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish" atamasiga ham alohida e'tibor qaratadilar.

I. A. Sharshov shaxsning kasbiy ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishda bo'lajak mutaxassisning ta'lim muhiti o'quv va kasbiy faoliyatda o'zini o'zi anglashini muhim deb biladi.

Bu esa kasbiy ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, anglash, o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etish, o'z-o'zini tarbiyalash, ijodkorlik va aql-idrokdan foydalangan holda kasbiy ijodiy o'zini o'zi anglash ushbu jarayonni kuchaytirish usullari sifatida belgilanadi [5].

O'ylashimizcha, hozirgi kunda tegishli soha vakillari tomonidan dolzarb vazifa sifatida qaralayotgan bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish masalasini samarali hamda chuqurroq o'rganish lozim.

Bu jarayonda o'quv dasturida ijodkorlikni rivojlantirish zarurati kuzatilganiga qaramay, o'qitish va o'qitish modellarini takrorlashning umumiy tendentsiyasi va

reproduktiv ta'limning ustunligi bilan bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorligiga cheklov mavjudligi esa o'quvchilarning ijodkorligining etarli darajada rivojlanmasligiga asos bo'ladi.

Zamonaviy ta'limda kasbiy ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishning quyidagi mexanizmlarini o'z ichiga oladi: ma'lumotlarni tezda anglash, tafakkur, ijodiy o'zini o'zi anglash, agar mavzu ijodiy e'tiborga ega bo'lmasa mulohaza asosida o'zgartirish, ijodiy o'zini o'zi boshqarish.

Yuqorida aytib o'tilgan kasbiy va ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida samarali hisoblanadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijodiy rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, kompetentsiviy yondashuvlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim jarayonida samarali qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar yani, vazifaga asoslangan, muammoli, o'yin, ta'lim loyihalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodiy rivojlantirish mumkin. Ta'lim jarayonida ko'p bosqichli mashg'ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko'p bosqichli o'qitish amalga oshirish modellaridan biridir o'qituvchi ta'limida tabaqalashtirilgan yondashuvdir. Bu jaraonda ta'lim texnologiyasi talqinlarining qiyosiy tahlili ham muhim. Bu o'quv jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi.

Bundan tashqari, pedagogika oliy o'quv yurtlarida dars mashg'ulotlarida qo'llaniladigan ta'limiy loyihalar (o'quv, o'quv va tadqiqot, ilmiy tadqiqotlar) talabalarda shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga, ijodiy faoliyatda tajriba yaratishga, turli xil kasbiy, pedagogik, g'oyaviy, axloqiy, axloqiy va boshqalarni tushunishga hamda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijodiy rivojlantirishga qaratilgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, loyiha asosida o'qitish texnologiyalari ham bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy va ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayonida talabalar bilan birgalikda o'qituvchi o'rganilayotgan fanning mazmuni yoki kelajakdagi faoliyati bilan bog'liq qandaydir kasbiy vositachilik muammo-semantik vaziyatni loyihalashtiradi, so'ngra unga xos bo'lgan ziddiyatlarni mustaqil ravishda hal qiladi. Bu esa talabaning qadriyat-semantik tafakkurini shakllantirishga, uning axloqiy, axloqiy, estetik xarakterdagi muhim kasbiy-semantik savollarga javob topish qobiliyatiga qaratilganligini ko'rsatadi.

Loyiha asosida o'qitishning o'ziga xosligi shundaki o'quv jarayoni faoliyat mantig'ida tashkil etilgan. Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi mavjud maqsadni belgilashni ishlab chiqish, ta'lim mazmunini loyihalash kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun ta'lim jarayoni ishtirokchilarining sub'ektiv-sub'ektiv o'zaro ta'siriga asoslanadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kasbiy ijodiy rivojlantirish usullaridan darslarda muammoli ta'lim, ta'limiy loyihalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari elementlarini qo'llashdir. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijodiy tayyorlash jarayonida talabalarga o'quv mashg'ulotlarida beriladigan muammoli topshiriqlar tarzda ishlab chiqilishi,

talabalarning o‘quv materiallariga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirishi faoliyatining majburiy tarkibiy qismi bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4391-sonli qarori.
3. Сластенин В.А. Профессиональное саморазвитие учителя/ В.А. Сластенин// Сибирский педагогический журнал.- 2005. № 2. - С. 3-12
4. Плотникова Е.Б. Воспитывающее обучение: учеб. пособие для вузов / Е.Б. Плотникова. - М.: Академия, 2010. - 170 с. : табл. - (Высшее профессиональное образование)
5. Шаршов И.А. Профессионально-творческое развитие субъектов образовательного процесса в вузе. Автореф. дис ... доктора. пед. наук.- Белгород, 2005.- 50с.
6. Ibraimov X.I., M.Quronov. Umumiy pedagogika (darslik). –T., “Shaffof”, 2023, 416-bet.

O‘QUVCHILARNI FANGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHINING O‘RNI

Rabbonayeva Dildora

Samarqand VPYMO‘MM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda o‘qituvchining o‘rni, o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, o‘quvchi, shaxsiy va ijtimoiy sifatlar, fazilatlar.

Annotation. The article discusses the role of the teacher in increasing students' interest in science, the important requirements for the teacher's personality.

Key words: Teacher, student, personal and social qualities, virtues

Inson kamolotida ilm egallash, dunyoqarashni to‘g‘ri shakllantirish, aqliy rivojlanish, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish ulug‘ fazilatlardan hisoblanadi.

Xo‘sh, yosh avlodning ana shunday ulug‘ fazilatlarini to‘g‘ri shakllantirishda o‘qituvchining o‘rni qanday?

Bolani har tamonlama rivojlangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun o'qituvchidan haqiqiy pedagogik odob va pedagogik mahorat, shaxsiy ijtimoiy sifatlar talab qilinadi. Ana shu sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchigina o'quvchiga qanday muomalada bo'lishni, o'rganilishi lozim bo'lgan bilimni tadbqiq etishning turli usullarini yaxshi biladi, odob-axloq qoidalarini, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri singdira oladi. Barchamizga ayonki, kerakli bilimni o'z vaqtida o'zlashtirgan, odobli va tarbiyali, shaxsiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri anglay olgan, ma'naviy dunyosi sog'lom o'quvchigina komil inson bo'la oladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlarini o'z kasbiga sadoqatliligi, e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bolalarni jonidek aziz ko'rishidir. Maktabda ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan fanlarni chuqur bilishi, uning metodikasini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Fanni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi bolalarni shu fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, o'qituvchi obro'sini ko'taradi. O'quvchilar o'qituvchi bilimni va bu bilimni bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning shu fanga bo'lgan qiziqishini, fidoyiligini ham taqdirlashadi.

O'z xizmati xususiyatiga ko'ra o'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lmog'i zarur. Tashabbuskor va g'ayratli o'qituvchi bolalarni o'z orqasidan ergashtira oladi.

Bola maktabda o'qir ekan, nafaqat ta'lim-tarbiya oladi, balki shaxs sifatida shakllanadi ham. Bu davrda vaqtining asosiy qismini maktabdosh, sinfdosh do'stlari va ustozlari davrasida o'tkazadi. Sunday ekan bola tarbiyasida atrofidagi do'stlari va ustozlarining ta'siri ahamiyatlidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan barcha ustoz va murabbiylarimiz doimo buni yodda saqlamoqlari va o'zlari yetarlicha savodxon bo'lishlari shart. Endigina 6-7 yoshga to'lgan bolalarimiz ilk maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlab savodxonlik darajasida faqatgina ustozining so'zini tan oladi. Ularning fikrini hattoki, ota-onalar ham o'zgartirishi mushkul. Shu sababdan barcha o'qituvchilar: ilmiy, nutqiy, ijodiy, mantiqiy, kasbiy savodxonliklarga ega bo'lishlari shart va muhimdir.

O'zbek xalqi o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan katta e'tibor qaratib kelishgan va har bir zamonning shart-sharoiti, talablaridan kelib chiqqan holda bu talablar o'zgarib, takomillashib, murakkablashib borgan. Ulug' mutaffakir Abi Ali ibn Sino o'qituvchining shaxsiyati qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy, mehribon bo'lishi;
- ta'limda turli usullardan foydalana olishi;



Samarqand VPYMO-MM. "BEHBUDIY O'QISHLARI-2023"

- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir soʻzining bolalar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishishi;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqтира olishi;
- berilayotgan bilimlarni talabalar qanday oʻzlashtirib olayotganiga eʼtibor berishi lozim.

Alisher Navoiy oʻz davrining ayrim maktabdorlari ega boʻlgan sifatlar, xususan, qattiqqoʻllik, taʼmagirlik va johilliklarni qoralar ekan, oʻqituvchining maʼnaviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qoʻyadi. Xususan, “mudarris kerakki, gʻarazi mansab boʻlmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas koʻrgazmasa va olgʻirlik uchun gap, soʻz va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun boʻlmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga oʻrin boʻlmasa...”.

Navoiy ayni oʻrinda oʻqituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini taʼkidlab oʻtadi: “Uning ishi odam qoʻlidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga oʻzlik qilardi, u esa bir toʻda bolaga ilm va adab oʻrgatadi, koʻrkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u toʻdada fahm-farosati ozlar boʻladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday boʻladi. Har qanday boʻlsa ham, yosh bolalarga uning haqqi koʻpdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yoʻlida kim senga bir harf oʻqitmish ranj ila,
Aylamak boʻlmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Xulosa qilib aytganda, biz oʻqituvchilar oldida maʼnaviy merosimizdan xabardor, aqlli, bilimdon, jismonan va maʼnan sogʻlom boʻlgan barkamol avlodni tarbiyalashdek yuksak va maʼsuliyatli vazifa turar ekan, oʻz oldiga barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olgan har bir ustoz va murabbiyning oʻzi avvalo yuqorida taʼkidlangan pedagogik odob va pedagogik mahorat talablariga javob berishlari, jismonan va maʼnan sogʻlom boʻlishlari kerak. Bolalarga boshlangʻich sinflardan oq manmanlik va kamtarlik, johillik va bosiqlik, sabr-toqatlik va sabrsizlik, yaxshilik va yomonlik kabi sifatarni hayotiy misollar bilan tushuntirish orqali bolalar ongiga barkamol shaxsning vazifalarini ham singdirib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximov S. Abu ali ibn Sino taʼlim va tarbiya haqida. – T., “Oʻqituvchi”, 1991-yil
2. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida taʼlim samaradorligini oshirish yoʻllari /Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari oʻqituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari oʻqituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
3. Yoʻldoshev J.Gʻ., Shirinov M.K., Ochilov F.I. “Pedagogik diagnostika” oʻquv metodik qoʻllanma T.:2014

PEDAGOG FAOLIYATIDA KOMPETENTLIK DARAJASINING AHAMIYATI

Rustamov Asqarjon Axmatovich

*Samarqand viloyati Paxtachi tuman maktabgacha va maktab ta'limi
bo'limi, Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish sho'ba boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog faoliyatida kompetentlik darajasining ahamiyati, jumladan kasbiy, shaxsiy, metodik, innovatsion, informatsion va kreativ kompetensiyalar haqida batafsil fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kompetentlik darajasi, kasbiy, shaxsiy, metodik, innovatsion, informatsion, kreativlik.

Annotation: In this article, the importance of the level of competence in the work of a pedagogue, including professional, personal, methodical, innovative, informational and creative competencies, is discussed in detail.

Key words: level of competence, professional, personal, methodical, innovative, informative, creativity.

Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 5-dekabr kuni qabul qilgan 372-sonli buyrug'ida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari: kommunikativlik, kreativlik, kritik fikr va kollaboratsiyani shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki ushbu kompetensiyalar o'quvchi nutqining rivoji, uning ruhiyatiga, sog'lom, tetik o'sishiga, axloqiy sifatlariga, o'quv dasturini o'zlashtirishda me'yorni bajarilishini ta'minlashga bog'liqdir.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining tutgan o'rnidan oqilona va odilona foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'zaro hurmat kabi axloqiy fazilatlarni, o'qishga ongli munosabat, o'z faoliyatini maqsadli yo'lga qo'yish kabi aqliy sifatlarini, shu bilan birga, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi irodaviy fazilatlarni shakllantirishi lozim.

O'qituvchi darsni qanchalik ijodiy tashkil etishga urinmasin, o'quvchilarning aqliy faolligi ta'minlamasa, o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilmasa, ma'naviy barkamol insonni, shaxsni talab darajasida tarbiyalash ishida kamchiliklar saqlanib qolaveradi.

Davlatimiz tomonidan pedagoglar malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilib, oliy toifali mutaxassislar safini kengaytirishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishi, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollanishi eng dolzarb muammolardan biridir. Zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyatida shakllanib, asosan amaliy ishlarda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib-rivojlana boradi.

Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi – bir tomondan o'qituvchilar faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli takomillashib borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi, chunki bu kechiktirib bo'lmaz jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Har qanday o'qituvchi psixologik nuqtai nazardan doimiy ravishda o'z bilimlarini va malakalarini oshirish bilan shug'ullanishi lozim. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir.

Pedagoglik kasbi, ma'lumki, har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatda yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug'ullanishga moyil, kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan pedagoglarga erisha oladi. Biz quyida pedagogning kompetentlik darajasi haqida fikr yuritamiz.

Kompetentlik (lot. competens) – faoliyat talablariga mos kelish, yaroqlilik, layoqatlilik. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetuklikligini baholovchi mezon hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatining o'ziga xos jihatlari nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F. Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish, kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi.

Shaxsiy kompetentlik – shaxsning ijtimoiy dunyoqarashi, ilmiy va intellektual salohiyati, kreativligi, shaxslararo muloqot – munosabatlariga faol kirisha olishi, muammolarni hal etishga turlicha yondashuvi, kasbiy faoliyat talablariga muvofiq shaxsiy va kasbiy sifatlarining shakllanganlik darajasi, faol hayotiy va fuqarolik pozitsiyasining qaror topganligi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

Metodik kompetentlik – o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, ilg'or pedagogik va xalqaro tajribalarni o'rganish, o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalari bilan tavsiflanadi.

Kreativ kompetentlik (inglizcha "create" – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – yangilik yaratish, ijodkorlik, tashkilotchilik kabi ko'nikmalarga ega bo'lishdir.



Kreativ kompetentlik faqat yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning hayot tarzi yoki ichki dunyosining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Informatsion kompetentlik – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumot, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va zaruriy axborotlarni uzatish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasidir.

Innovatsion kompetentlik – ta'limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta'lim yo'nalishidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish, amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni o'zlashtirish, novatorlik faoliyatida ko'rinadi.

Mazkur jarayonlarda pedagog shaxsining kasbiy faoliyat sohasiga yo'nalganligi, shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalari, kasbiy sifatlar va mehnat tajribasi o'rtasidagi uyg'unlik va innovatsion jarayonlarning faoliyat sohasiga nisbatan integratsiyalashuvini ta'minlanishi innovatsion kompetentlikni rivojlantirishdagi yetakchi omillar sifatida baholanadi.

Yoshlarni o'qitish va tarbiyalash kabi murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko'p jihatdan o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodi, professional mahorati, bilimdonligi, madaniyati va kompetentligiga bog'liq ekan bugungi kun o'qituvchilari o'z kasbiga ma'suliyat bilan yondashishlari, ota-onalar va xalq ishonchini o'lashlari uchun o'z ustida tinimsiz ishlab, bilimlarini boyitib, tajribalarini oshirib borishlari lozim. Zamonaviy pedagog o'quvchiga ta'sir etish, uning istaklarini, e'tiqodini, qiziqishi va imkoniyatlarini shakllantira bilishi kerak. Zero zamonaviy maktabga yuksak ma'naviyatli, faol, izlanuvchan pedagog – ustoz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 5-dekabr kuni 372-sonli buyrug'i.
2. Abduqodirov A.A., Ishmuxamedov R., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2018.-180 bet. b.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: "O'qituvchi", 2014. -102

7-SHO'BA. PEDAGOGIK TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

HARBIY-SIYOSIY AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Sultanov Javlon Djurayevich

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Inspeksiyasi boshqarma boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari tadqiq etilgan. Axborot makonida ro'y berayotgan salbiy tendensiyalar mamlakatlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarida jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi ilmiy asoslantirilgan. Globallashuv jarayoni birinchi navbatda mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi uchun zamin yaratishi va jamiyatda mafkuralar almashinuvi ro'y berishi asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborot makonitizim, mafkuraviy jarayon, transformatsiya, tendensiya, globallashuv, jamiyat, mafkuralar almashinuvi.

Аннотация: В статье рассматривается предотвращение информационных угроз в военно-политической сфере. Научно доказано, что негативные тенденции, происходящие в информационном пространстве, вызывают серьезные проблемы в политической, экономической, социальной и других сферах стран. Обосновано, что процесс глобализации, прежде всего, создает почву для трансформации идеологических процессов и обмена идеологиями в обществе.

Ключевые слова: информация, информационный меконитизм, идеологический процесс, трансформация, тенденция, глобализация, общество, обмен идеологиями.

Annotation: The article examines the prevention of information threats in the military-political sphere. It is scientifically proven that the negative trends occurring in the information space cause serious problems in the political, economic, social and other spheres of the countries. It is justified that the process of globalization, first of all, creates the ground for the transformation of ideological processes and the exchange of ideologies in society.

Key words: information, information mechanism, ideological process, transformation, trend, globalization, society, exchange of ideologies.

O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta'minlash borasida davlat o'z vazifalarini amalga oshirish jarayonida axborot xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarni xolis va har tomonlama tahlil qiladi hamda buni ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Shuningdek, davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi (vakillik) va ijro organlarining O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligiga

tahdidlarning oldini olish, ularni qaytarish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish ishlarini tashkil etadi.

Ayni paytda, jamoat uyushmalarining jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar haqida aholiga obyektiv axborot berish, jamiyatni soxta va noto'g'ri axborotlardan himoya qilish borasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi hamda axborotni himoya qilish vositalarining ishlab chiqilishi, yaratilishi, rivojlantirilishi, qo'llanishi, eksport va import qilinishini ularni sertifikatlashtirish hamda litsenziyalash orqali nazorat qiladi [1]. Bulardan tashqari, davlat O'zbekiston Respublikasi hududida axborotlashtirish va axborotni himoya qilish vositalarini ishlab chiqaruvchilarga nisbatan zarur homiylik siyosatini amalga oshiradi, ichki bozorni sifatsiz axborotlashtirish vositalari va mahsulotlaridan himoyalash choralari ko'radi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga jahon axborot resurslari va tizimlariga kirishga ruxsat berilishiga ko'maklashadi.

Davlat va nodavlat tashkilotlarning axborot xavfsizligi sohasidagi say-harakatlarini birlashtiradigan O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta'minlash dasturining ishlab chiqilishini tashkil etish, jahon axborot tarmoqlari va tizimlarining baynalmilallashuvi hamda jahon axborot hamjamiyatiga O'zbekistonning teng huquqli hamkorlik shartlariga qo'shilishiga imkoniyat yaratish ham davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash borasidagi vazifalari sirasiga kiradi.

Axborotni himoya qilish deganda:

- axborotning jismoniy butunligini ta'minlash, shu bilan birga axborot elementlarining buzilishi, yoki yo'q qilinishiga yo'l qo'ymaslik;
- axborotning butunligini saqlab qolgan holda, uni elementlarini qalbakilashtirishga (o'zgartirishga) yo'l qo'ymaslik;
- axborotni tegishli xuquqlarga ega bo'lmagan shaxslar yoki jarayonlar orqali tarmoqdan ruxsat etilmagan xolda olishga yo'l qo'ymaslik;
- egasi tomonidan berilayotgan (sotilayotgan) axborot va resurslar faqat tomonlar o'rtasida kelishilgan shartnomalar asosida qo'llanilishiga ishonish kabilar tushuniladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti ko'pgina mamlakatlarda sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfedensial ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Kompyuter jinoyatchiligi rivojlangan davlatlar iqtisodining haqiqiy kushandasiga aylandi. Masalan, Buyuk Britaniya davlat tashkilotlarining 90% elektron qaroqchilikning obyektiga aylanishgan yoki uning xavfi ostida turishgan, Gollandiyada turli tashkilotlarning 20% kompyuter jinoyatchiligining qurboniga aylanishgan. Germaniyada kompyuter yordamida yiliga 4 milliard marka, Fransiyada esa 1 milliard frank o'g'irlanadi [2].

Mutaxassislar bu turdagi jinoyatlarning yuqori latentlikka egaligini ta'kidlashmoqda, ya'ni 85% holatda kompyuter jinoyatchiligi ochilmay qoladi. Holat yana shu bilan chuqurlashmoqdaki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning

ta'minlash sohasida tegishli qonun va normativ-huquqiy hujjatlar, davlat standartlari hamda qoidalarni ishlab chiqish;

– belgilangan vazifalarga muvofiq axborot xavfsizligi va jamoat huquq-tartibotini profilaktika qilish va ta'minlash sohasida xalqaro hamkorlikni tashkil qilish [3].

Axborotni muhofaza qilish axborotni ixtiyoriy ko'rinishda yo'qotishda (o'g'irlash, buzish, qalbakilashtirish) ko'riladigan zararning oldini olishni ta'minlashi lozim. Axborotni muhofaza qilish choralari axborot xavfsizligiga oid amaldagi qonun va meyoriy hujjatlar asosida va axborotdan foydalanuvchilarning manfaatlariga ko'ra tashkil etilishi zarur. Yuqori darajada axborotni muhofaza qilishni kafolatlash uchun muntazam ravishda murakkab ilmiy-texnik vazifalarni hal etish va himoya vositalarini takomillashtirish talab etiladi [4].

Zamonaviy sharoitda AKTning jinoiy, terroristik hamda harbiy-siyosiy maqsadlarni amalga oshirishda qo'llanilishi xalqaro xavfsizlikka tahdid va davlat siyosiy-ijtimoiy hayotining izdan chiqarishida muhim omil bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy sohalarda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish talab etiladi:

– himoyalananayotgan axborotdagi maxfiy ko'rinishdagi mavjud ma'lumotlarni uzatishning asosiy tamoyillarini ishlab chikish;

– axborot xavfsizligi sohasidagi huquqiy bazaning barqarorligini ta'minlash uchun, unga xalqaro standartlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash imkonini beruvchi mexanizm ishlab chiqish va funksional standartlash usullarini tatbiq qilish;

– respublika miqyosidagi axborot xavfsizligi ta'minlanishi sohasidagi barcha savollarga to'liq javob beradigan meyoriy-huquqiy, boshqaruv va uslubiy hujjatlarning to'liq majmuini yaratish;

– axborot xavfsizligi ta'minlanishiga mas'ul boshqaruv tizimini va javobgar shaxsni aniqlash, sohadagi tashkilot va markazlar faoliyatini tartibga solish;

– axborotni himoyalash bo'yicha yuzaga keladigan ziddiyatli holatlarni hal qilish tartibini aniqlash;

– kompyuter ma'lumotlari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashuvchi huquqni himoya qilish, sud va prokuratura organlari mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini shakllantirish;

– oliy ta'limning texnik va gumanitar ixtisosliklarida axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini shakllantirish va tegishli ta'lim standartlarini ishlab chiqish;

– axborot xavfsizligi yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha bilimlar olish va mahoratni oshirish uchun ta'lim dasturlarini yaratish va shakllantirish, tegishli davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Paxrutdinov Sh.I. Mustaqillik va jamiyat taraqqiyotiga tahdid muammosi (siyosiy tahlil tajribasi). Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent – 1999 yil. - B. 22.
2. Йохен Хипpler: «Наркоторговля в системе взаимоотношений Севера и Юга». 1990 год. Архивная копия от 4 марта 2016 на Wayback Machine в журнале «Экономическая теория преступлений и наказаний», № 5-1 // corruption.rsuh.ru.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligining axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga ko'maklashish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida". 2017-yil 17-oktabrdagi 838-sonli qarori. T-2023.
4. Rivière, Jean. Mondes en mutation dans un système en crise (фр.). — Harmattan, 2011. — P. 22. — ISBN 978-2-296-55379-8.
5. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 2002 yil 12 dekabr 439-II-son qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2003. – №1. – 2-m.

XALQARO BAHOLASH DASTURI, STEAM VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ANIQ VA TABIIY FANLAR O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedova Shoiraxon Bilalxanovna
Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikaga o'rgatish
milliy markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi
Pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent

Annotasiya: Ushbu maqolada, aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchilarning uzliksiz kasbiy-metodik tayyorgarligini innovatsion yondashuvi asosida (STEAM) rivojlantirish, AKT fanlar orasidagi integratsiyani ta'minlovchi xalqaro dasturlar asosida pedagogni kasbiy-metodik ijodiy iqtidorini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: baholash xalqaro tadqiqoti, STEAM, AKT, ta'lim, integratsiya, loyihalar, ijodkorlik, fikrlash, tafakkur, ko'nikma, dastur, Edraw Max.

Zamonaviy davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifalarni qo'ymoqda. Mustaqil davlatimiz maqsadi demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish va xalqaro baholash dasturi asosida ta'lim berish. Mazkur vazifalar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning uzliksiz kasbiy-metodik tayyorgarligini innovatsion yondashuvi asosida (STEAM va AKT) rivojlantirish, malaka oshirish va qayta

tayyorlashda integratsiya loyihalarni qo'llash, masofaviy o'qitish va online platforma tizimini yanada takomillashtirish bilan belgilanadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" (PF-5712-son)gi farmonida, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda.[1]

STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish samarali usullardan hisoblanib, yangilanib borayotgan axborotlar bilan uyg'un holda faol ishlab kelayotgan kasb egalari timsolini bugungi o'quvchi yoshlarda shakllantirish lozim. STEAM ta'limi dasturining asosini tashkil etishda axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash.

STEM atamasi ilk bor AQSH maktablari dasturiga kiritilgan bo'lib, o'quvchilarning ilmiy texnika yo'nalishidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, keyinchalik bu yo'nalish kengaytirilib, R-robotic qo'shib STREM, yoki A-art qo'shib STEAM nomi bilan atala boshlandi.

STEAM (*S - fan, T - texnologiya, E - muhandislik, A – san'at, M - matematika*) – *ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi texnologiyadir.*

STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi.

STEAM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va ijodiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so'ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda konstruktsiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEAM ta'limi XXI asr davrida muhim ko'nikmalarni rivojlantirishni anglatadi. Bugungi kunda tezkor va hamkorlikdagi ish sharoitida STEAM o'quvchilarni maktab yoki ish joyidagi dasturlarida muvaffaqiyat qozonishga tayyorlashga yordam beradi.

STEAM an'anaviy o'qishga muqobil yondashuv hisoblanadi. Bunda bolalar Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika)ni fanlararo bog'lanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda o'rganadilar.

STEAM o'quvchilarning loyiha va o'quv-tadqiqot faoliyatini maktabda va maktabdan tashqarida amalga oshirilish imkonini beradi. STEAM ta'limi o'quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog'laydi. Ma'lumki, tabiiy

fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog'liq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda o'z aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mag'ulotlarimiz ozmi-ko'pmi matematika fani bilan ham bog'langandir [4].

STEAM ta'limi asosida yondashuv o'quvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab etishga o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi.

STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi quyidagicha: amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. Mamlakatlarda STEAM ta'limi quyidagi sabablarga ko'ra yuqori baholanadi:

- Hamkorlik - san'atga asoslangan ta'lim loyihalari boshqalar bilan yaxshi ishlaydigan o'quvchilarni rag'batlantiradi va mukofotlaydi.

- Ijodkorlik - Fan va matematikani san'at bilan birlashtirgan holda, STEAM ta'limi miyaning chap va o'ng tomonlarida ijodkorlikni rivojlantiradi.

- Tanqidiy fikrlash - STEAM o'quvchilar yechimlar va faktlarni yodlab olishdan tashqari ko'proq narsalarni oladi;

- San'at orqali STEM tushunchalarini topish va ifodalash orqali ular mavzuni yanada tanqidiy va chuqurroq tushunchasini rivojlantiradilar.

- Innovatsiya - ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari orqali har bir guruh o'quvchilar innovatsiyalar ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan san'at orqali tushunchalarni ifoda etishning o'ziga xos usullarini topadilar.

- Qattiqqo'llik - san'at tabiiy ravishda o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi va guruhlarda ishlashni rag'batlantiradi, shuning uchun ular qiyin loyihalarni davom ettirishadi.

- Ehtiros - san'at barchamizda ishtiyoqni uyg'otadi, o'rganish orqali o'z ijodlarini ifoda etishga ijozat berilgan o'quvchilar ushbu mavzuni o'zlashtiradilar.

- Ishonch - o'quvchilarga o'zlari o'rganish va yaratishga imkoniyat berish orqali o'qituvchilar ishonchni uyg'otishi va ilhomlantirishi mumkin.

- Muammolarni hal qilish - san'at va STEAM o'quvchilarga muammolarni yangi va yangi usullar bilan qanday hal qilishni o'rgatishda qo'llaniladi.

- Vaqtni boshqarish - STEAM loyihalari amaliy mashg'ulotlarga va sinflarda qatnashishga qaratilganligi sababli, o'quvchilar ularni tugatish uchun o'z vaqtlarini qanday qilib samarali boshqarishni o'rganishlari kerak [4].

STEAM ta'limi asosida o'quvchilar tajribalarni o'tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o'z g'oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishni rag'batlantiradi. O'qitishga bunday yondashuv axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llashda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini fanlararo samarali bog'lanish imkonini beradi [2].

AKT nafaqat o'quvchilarda bilim va malakalarini shakllantirishga, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga oid qiziqishlarini oshirishga ham xizmat qiladi. AKT imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim jarayonida beriladigan axborotlar doirasini boyitish va o'quvchilar tomonidan qiziqish bilan

o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ta'lim jarayoniga AKTning joriy etilishi bilan zamonaviy axborot muhitiga xos bo'lgan ta'limga yangicha yondashuv shakllana boshladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi salohiyati tushunchasida insonning AKT savodxonligi, ya'ni kundalik hayotida ham, kasbiy faoliyatida ham undan to'g'ri foydalana olish qobiliyati nazarda tutiladi.

O'quv mashg'ulotlari STEAM ta'limi va AKTdan amaliy foydalanish jarayonida o'quvchilarni qo'nikmalari elektron ko'rgazmali didaktik material hamda flaerlarni tayyorlash, video va musika yozish, infografika asoslaridan taqdim etish (EDraw Max, Ming Map, Webineria, UltraVNC Screen Recorder, Captivate, BB FlashBack Express, Camtasia Studio dasturi)imkoniyatlaridan biridir.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Pedagogik faoliyatni rivojlantirishda elektron o'quv va didaktik tarqatma materiallarni yaratish usullari (EdrawMax dasturi va boshqalar). Edraw_Max dasturida dastlabki grafik shakllar yaratish. Edraw_Max dasturining grafik imkoniyatlari mavjud. Edraw Max – keng imkoniyatlarga ega bo'lgan dasturiy vositalardan biri hisoblanadi.

Edraw Max dasturida nafaqat tashkiliy sxemalar, tarmoq diagrammalari, blok-sxemalarni, balki UML diagrammalarni, tarmoq diagrammalarini, ma'lumotlar bazasi diagrammalarini, dastur strukturalarini, reja diagrammalari hamda ish jarayonlarini yaratish imkoniyati mavjud [3].

Juda katta grafik imkoniyatlarga ega. Dastur yordamida turli xildagi bloksxemalar, tashkiliy diagrammalar, tarmoq sxemalarini yaratish hamda slaydlar imkoniyatlari mavjud bo'lib aniq va tabiiy fanlarda qo'llash mumkin. Vizual ziyrakligi, darsda xushyorligi immuniteti shakllanadi.

Aniq va tabiiy fanlar(Fizika, matematika, biologiya, kimyo)ni o'qitishda, umumta'lim maktab o'qituvchilari dars berish jarayonida pedagogik dasturiy vositalar sakkizta talablariga rioya qiladilar. Pedagogik dasturiy vositalar sakkizta talablari bu: 1) metodik talab, 2) didaktik talab, 3) psixologik talab, 4) texnik talab, 5) tarmoq talab, 6) maxsus talab, 7) estetik talab, 8) ergonomik talab. PDV talablarini qo'llashda AKT fanini pedagogik texnologiya va usullari orqali o'z mahoratini ijodkorlik, interpretatsiy yondashuvi bilan ko'rsata olishlari kerak.

Infografika, ekelektron didaktik materiallarini yaratish, 11-xil dasturlarga eksport qilish usullarini qo'llash metodikasi Edraw Max dasturi yoirdamida bajarish mumkin. (Rasmlar 1-8). Infografika - bu ma'lumotlarni taqdim etishning ajoyib usuli hisoblanib, infografikaning turlari 4 turga bo'linadi:

1)Infografik qo'llanma. Ushbu turdan foydalanib, jarayonni tushuntirish yoki biror narsani o'rgatish uchun harakatlar ketma-ketligini ko'rsatishingiz mumkin. Ma'lumotlarning butun qatorini tavsiflash uchun ramziy sxemalar yoki grafikalar yordam beradi. Har qanday ko'rsatmalarda ushbu tur juda keng qo'llaniladi.

2)Dinamik infografika. Ushbu ko'rinish jarayon yoki rivojlanish dinamikasini aks ettirish uchun mo'ljallangan.

3) Statik infografika. Qanday qilib raqamli ma'lumotlar va ilmiy dalillarni vizual qilish, shuningdek ularning bir-biriga bo'lgan munosabati? Statik infografikani tuzing. Qoidaga ko'ra, ular diagrammalar, diagrammalar va boshqa oddiy shakllarga ega.

4) Video infografikasi. Bu infografika yo'nalishidagi eng so'nggi zamonaviy tendentsiyalardan biri bo'lib, murakkab ko'p darajali ma'lumotlarni tomoshabinlarga vizual ravishda taqdim etishga yordam beradi. U deyarli barcha xilma-xil ma'lumotlarni vizuallashtirish yo'nalishlarini birlashtirib, ularni o'qish tufayli inson ongiga joylashtirishi mumkin. Qoida tariqasida, ma'lumotlarning qariyb 80 foizi birinchi ko'rishda eslab qoladi. Ushbu turdagi infografika tomoshabin tomonidan idrok etish va tushunish nuqtai nazaridan eng samarali hisoblanadi. Infografika keng qamrovli va juda ko'p sohalarida qo'llaniladi. Jumladan: geografiya, jurnalistika, ta'lim, statistika, texnik matnlarni aks ettirishda qo'llaniladi. Infografika katta hajmdagi ma'lumotlarni ixchamlashtirish, unda aks ettirilgan predmetlarning o'zaro munosbatlari, mantiqan bog'lanishi va vazifalarini yaqqol ko'rsata oladigan grafik yechim hisoblanadi.[5,6,7,8]

STEAM ta'limi va AKTexnologiyasi uyg'unlashadi hamda amaliy qo'llashda dasturlar orqali ijodkorlik, tasavur, tafakkur, grafik dizayni, infografika tushunchalari takomillashib boradi.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmoni. 29.04. 2019-yil.
2. D.Sayfurov, Fayziyeva M. Ta'limda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. 2017 y.
3. Hamidov V.S. Talim tizimida keskin burilishga sabab bo'lgan 4 dastur haqida. <http://uz.infocom.uz/2009/12/21/talim-tizimida-keskin-burilishga-sabab-bolgan-4-dasturhaqida/>
4. Toshtemirov B.O., To'raqulova X.I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida STEAM ta'limidan foydalanish. Qashqadaryo viloyati XTXQTUMOHM "Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur uyg'unligi masalasi:muammo va yechimlar" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (2020-yil, 20-may) materiallari. B.24.
5. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilm-fan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
6. Туоминен С., Котилайнен С. и др. Педагогические аспекты медийной и информационной грамотности. - М.: Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании, 2012.
7. Уилсон К., Гризл А., Туазон Р., Медийная и информационная грамотность: программа обучения педагогов. - Париж: Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании, 2012.


8. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.




1-rasm




2-rasm




3-rasm




4-rasm




5-rasm



6-rasm



7-rasm



8-rasm

ESKI O`ZBEK YOZUVI HARFLARINI TANISH UCHUN SUN'IY NEYRON TARMOG`IDAN FOYDALANISH

Xasanov Akbar Nomozovich


Pastdarg`om tumani 2-maktab Informatika fani o`qitvchisi

Eski o`zbek yozuvi harflarini yozib to`ldirilgan anketadagi belgilarni tanish masalasini qaraymiz. Bunday anketa fragmenti 1.1-rasmda keltirilgan.



1.1-rasm. Eski o`zbek alifbosi.


Sun'iy neyron tarmoqlari belgilarni tanishda yetarli darajada keng qo'llaniladi. Belgilarni tanish uchun neyron tarmoqlarining ishlatilish algoritmi ko'pincha quyidagicha hosil qilinadi. Tanish ishga tushganda belgi (rastr) tasviri ayrim standart o'lchamlarga keltiriladi. Qoida bo'yicha rastr 16x16 piksel o'lchamda ishlatiladi. Bunday normallashtirilgan misollar 1.2-rasmda ko'rsatilgan.



1.2-rasm. Eski o`zbek alifbosini yozilishi.

Normallashtirilgan rastr tugunlaridagi yorug'lik qiymati neyron tarmoqlarining kiruvchi parametrlari sifatida ishlatiladi. Neyron tarmog'ining chiquvchi parametrlari soni tanilayotgan belgilar soni bilan tenglashtiriladi. Tanish natijasi sifatida neyron tarmog'ining chiquvchi vektori qiymatiga eng ko'p mos kelgan belgi olinadi. (1.3-rasmda faqat aloqa qismlari va rastr tugunlari ko'rsatilgan). Bunday algoritmlarlar ishonchliligini oshirish qoida sifatida ko'proq axborot bilan boyitilgan kiruvchi belgilarni izlash yoki neyron tarmog'i strukturasini murakkablashtirish bilan bog'liq.

Tanish ishonchliligi va hisoblash resurslaridagi dastur ehtiyoji ko'pincha neyron tarmog'i parametrlari va strukturasini tanlashga ham bog'liq bo'ladi. Raqamli pochta kodlar (ZIP-kodlar) ni tanish uchun ishlab chiqilgan neyron tarmoqlarida ifodalangan. Raqam tasviri umumiy o'lchamga (16x16 piksel) keltiriladi. Olingan tasvir uchta ichki darajaga va yuqori darajadagi 10 ta tugunga ega bo'lgan neyron tarmog'i kirishiga uzatiladi. Tarmoq ichki qatlami to'liq bog'liqlikka ega bo'lmaydi. Quyi darajadagi tugunlar birgalikda umumiy vazn to'plamini ishlatadi. Mutaxassis maqsadiga ko'ra, bular hammasi tasvirdagi dastlabki belgilangan tarmoqning quyi darajadagi layoqatini oshirish kerak. Bunday ko'rinishda olingan neyron tarmog'ida 1256 ta tugun va 9760 ta mustaqil parametrlari bo'ladi. Tarmoqning layoqatliligini oshirishda xotira va kerakli hisoblash natijasi umumlashtirilgan va kichiklashtirilgan bo'lishi uchun kam ishlatiladigan vaznlar uzoqlashtirilgan bo'ladi. Natijada mustaqil parametrlar soni to'rt baravarga kamayadi. Neyron tarmoqlarini o'rganish 7300 ta belgilar ichidagi to'plamda, testlash 2000 ta belgilar ichidagi to'plamda o'tkazildi. Tanish xatoligi o'rganilayotgan to'plamda taxminan 1% ni va tekshirilayotganda 5% ni tashkil qiladi.



1.3-rasm. Aloqa qismlari va rastr tugunlari.

Normallashtirilgan rastr tugunlaridagi yorug'lik qiymati o'rniga neyron tarmoqlarining kiruvchi parametrlari sifatida yorug'lik darajalar farqi qiymati ishlatiladi. Bunday kiruvchi parametrlar harf uchini yaxshiroq belgilashga imkon beradi. Bunday kiruvchi parametrlardan foydalanadiga qo'lyozma raqamlarni tanish tizimida ko'rsatilgan. Tanishga kirishishganda tasvir 16x16 piksel

o'lchamga keltiriladi. Bundan keyin ular yuqori yorug'lik darajalar farqi qiymati bilan sohani belgilash maqsadida qo'shimcha qayta ishlanadi. Ishlatiladigan neyron tarmog'i faqat bitta ichki sathga ega boladi, lekin boshqa algoritmlar bilan birga qo'llaniladi. O'rganish testlash uchta mustaqil ma'lumotlar bazasidan olingan belgilarda o'tkazilgan. Har bir ma'lumotlar bazasida o'rganish uchun 4000 dan 6000 tagacha belgi, testlash uchun 2000 dan 4000 tagacha belgi ishlatiladi. Xatolik foizi testlash o'tkaziladigan ma'lumotlar bazasiga bog'liq holda jiddiy ravishda o'zgaradi va 0.60%-2.2% ni tashkil qiladi.

Tanish aniqligini oshirishda keng qo'llaniladigan usullardan biri – bir vaqtda bir necha turli tanuvchi modullardan foydalanish va keyingi olingan natijalarni birlashtirish hisoblanadi (masalan, ovoz berish yo'li bilan). Bunda bu modullardan foydalanadigan algoritm yanada mustaqil bo'lishi juda muhim. Bunga o'rganilayotgan ma'lumotlar maxsus to'plami kabi turli tanish algoritmlaridan foydalanayotgan tanish modullarini ishlatish hisobiga erishilishi mumkin. Bunday metodlardan biri bir necha yil ilgari taklif qilingan edi va uch tanuvchi modul (mashina) dan foydalanishga asos solingan. Birinchi mashina oddiy shaklda o'rgatiladi. Ikkinchi mashina birinchi mashina yordamida filtrlangan belgilarda o'rgatiladi, shuningdek, ikkinchi mashina birinchi mashina tanigan 50% to'g'ri va 50% noto'g'ri tanigan belgilar aralashmasini ko'radi. Nihoyat, uchinchi mashina 1- va 2- maninalar tanish natijalari farqidagi belgilarda o'rgatiladi. Testlashda taniladigan belgilar uchchala mashina kirishiga yuboriladi. Uchchala mashina chiqishidan olinayotgan baholar qo'shiladi. Eng katta umumlashgan baho olgan belgi tanish natijasi sifatida chiqariladi.

1.1. Dasturiy ta'minotdan foydalanish tartibi

Dasturning asosiy oynasi quyidagi rasmda tasvirlangan:



1.4-rasm. Dasturning asosiy oynasi.

Dasturning chiziladigan oynasiga katta harf kiritiladi, ya'ni belgi chiziladi.



1.5-rasm. Dasturga belgini kiritish jarayoni.

Dasturga belgi kiritilgandan so'ng  tugmasi bosiladi va natija dastur muhitining o'ng sohasi pastida Edit oynasida namoyon bo'ladi va o'sha kiritilgan belgi eskizi yashil va qizil rangda ko'rsatiladi.



1.6-rasm. Dasturning natija chiqqandagi oynasi


Shuningdek, dasturning panelida "Model" qismining "Hamma o'xshashliklarni ko'rish" bo'limida kiritilgan belgiga o'xshash belgilar vazni o'xshashliklari ham ko'rsatiladi.

Vaznlar o'xshashligi

Solishtiriladigan belgi	Nuqtalar soni
Belgi: ا	4245
Belgi: ب	0
Belgi: ئ	0
Belgi: ت	0
Belgi: ث	0
Belgi: ج	0
Belgi: ح	0
Belgi: خ	0
Belgi: د	0
Belgi: ذ	0
Belgi: ر	0
Belgi: ز	0
Belgi: س	0
Belgi: ش	0
Belgi: ص	0
Belgi: ض	0
Belgi: ط	0
Belgi: ظ	0
Belgi: ع	0
Belgi: غ	0
Belgi: ف	0
Belgi: ق	0
Belgi: ك	0
Belgi: گ	0
Belgi: ل	0
Belgi: م	0
Belgi: ن	0
Belgi: ه	0
Belgi: و	0
Belgi: ی	0

1.7-rasm. Dasturning natijasida kiritilgan belgining vazni.

Bundan tashqari bu dasturda belgini chizishdan oldin u qanday koordinatalarda va qay tarzda joylashishini ko'rish mumkin. Buning uchun dasturning panelida "Model" qismining "Modelni ko'rish" bo'limida istalgan harfni kiritib ko'ramiz:



Model tanildi

Modelini kurmoqchi bulgan belgini kuring (faqat yoziladigan harflar) : ا

OK Cancel



1.8-rasm. Dastur penelidagi "Model" qismining "Modelni ko'rish" bo'limi.

TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH VA RAQAMLI DUNYODA O'QITISH VA O'RGANISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI

Usmanov Bahodir Islamovich

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi dotsenti*

Kadirov Tulkin Baxridinovich

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonini raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari va ularning tashkil etuvchilari tadqiq qilingan bo'lib, ta'limni raqamlashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan bir qancha tushuncha va yondashuvlar, ularning o'ziga xos g'oya va strategiyalari o'rganib chiqilgan. Ta'limni raqamlashtirish tushunchalari va ta'lim jarayonining turli jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish jihatlarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, axborot tizimi, EDU LINK, uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasi.

Ma'lumki, Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda va ta'lim muassasalari chetda qolmadi, ularni o'quv jarayoniga faol kiritilmoqda. Texnologiyalar ta'lim jarayonining turli jabhalarida: ma'muriy vazifalarni hal qilishdan tortib, onlayn tarzda uy vazifalarini bajarishgacha qo'llanilib kelinmoqda. Raqamli qurilmalarning aniq afzalliklari ularni sinfda zarur elementga aylantiradi. Bu esa

raqamli dunyoda o'qitish va o'rganish borasida ko'plab pedagogik tadqiqotlar o'tkazish zaruratini ifodalaydi.

Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sabablari borasida ko'plab tadqiqotchilar sinfdagi yuklamaning kamayishi va mustaqil ishlar ulushining ko'payishini ta'kidlashadi. Shu bois ta'lim sifatini saqlab qolish va yaxshilash maqsadida o'quvchilarning bilim olishidagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish uchun o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligini ta'minlovchi raqamli ta'lim texnologiyalari faol joriy etilmoqda. So'nggi yillarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim sifatini baholash hamda raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Raqamli ta'lim ijodkorlikni rivojlantiradi va o'quvchilarga muvaffaqiyat tuyg'usini beradi, an'anaviy usullardan tashqari fikrlash orqali qo'shimcha o'rganishni rag'batlantiradi. Barcha davlatlar televidenie, radio, onlayn va mobil platformalar kombinatsiyasidan foydalangan holda masofaviy ta'lim texnologiyalarini o'zlashtira oldi, bu tahsinga sazovor. Bular axborotga oson kirishni, axborotni oson saqlashni, axborotni saqlashni oshirishni va axborotni taqdim etishni yaxshilashni ta'minlaydi; ta'lim yanada interaktiv bo'lib, bilim almashishni osonlashtirdi va o'rganishga ishtiyoqni oshirdi[1].

Respublikamizda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning aksariyati, ya'ni 3-6 yoshdagilari tarbiyalanadi. Xalqimizda bir naql bor: "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir". Mana shu yoshda bolalarning rivojlanishi juda kuchli bo'ladi. Atrof muhitning ta'siri va atrofdagilarning tarbiya berishi ularning qolgan hayotiga ham ta'siri va ahamiyati kuchli hisoblanadi. Hali boshlang'ich maktabga qabul qilinmagan bolalarning hozirgi zamon texnologiyalarning o'rganishi va uni qo'llay bilishi so'ngi yillarda tezlik bilan rivojlanib kelmoqda va rivojlanib ham boradi.

Dastlabki bolalalik davrida raqamli dunyoda ta'lim berish va bilim olish yo'llarini samarali tashkil etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri. Bu muammoning nazariy yechimi tarbiyachilar, bolalar va ularning ota-onalarini raqamli dunyoda o'qitishga yangicha yondashishlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Turli dasturlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar kabi bir qator yangi texnologiyalar bolalar ta'limiga yangi innovatsion investitsiyalarni joriy qilishning asosiy ta'lim vositalari vazifalarini bajaradi. Mana masalan "Moyvoqvoy va qizcha" mobil ilovasidagi bolalarning tafakkurini rivojlantirishda va kreativ fikrlashida hamda noqulay vaziyatlarda qaror qilishda ahamiyati beqiyos.

Xorijiy davlatlarda "Aflatot" dasturi maktabga kirmagan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u ijtimoiy va iqtisodiy savodxonlikka asos soluvchi dastur hisoblanadi. Bunday dasturlar bolalarning birinchi ta'lim olishlari va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda juda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida raqamlashtirish borasida YUNISEF tomonidan O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish uchun «Learning passport» nomli raqamli ta'lim platformasini yaratish, O'zbekistondagi

Yaponiya JICA vakolatxonasi tomonidan «O'zbekistonda alohida parvarishga muhtoj bolalar bilan ishlaydigan pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha» loyihasi, Koreya-O'zbekiston biznes assotsiyasi tomonidan maktabgacha ta'lim tizimi uchun yaratilayotgan «EDU LINK» axborot tizimi loyihasi kabi ishlar amalga oshirilmoqda[2].

Respublikamiz maktablarida maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tomonidan maktab ta'limini raqamlashtirish, maktab ta'limiga axborot kommunikatsion texnologiyalarini integratsiya qilish, o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalarning interaktiv muloqatlarini rivojlantirish, masofaviy va mustaqil ta'lim olish uchun imkoniyatlarni amalga oshirish maqsadida kundalik.com raqamli ta'lim platformasini ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi. Bu platformada o'qituvchilar uchun dars jadvallari elektron jurnal, uy vazifalarni boshqarish va turli hisobotlarni avtomatik ravishda amalga oshiriladi, ota-onalar uchun o'quvchining kundaligi, uy vazifalari va muloqotlar uchun bo'limlari orqali o'z farzandlarini to'liq nazoratga oladi, o'quvchilar uchun kundalik daftari, portfolio, muloqot bo'limlari orqali kelasi dars mavzulari biladi, o'qituvchilari bilan o'zaro muloqotlarini amalga oshiradi, davlat organlari uchun umumiy statistik ma'lumotlarni to'plash, yangiliklarni quyi tizimlarga yetkazishda aloqa va xabardor bo'lish uchun ishlarini amalga oshiradi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi loyihasi davom etmoqda. Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasi — o'quv modullari kontentlarini yaratish, saqlash va ularni ta'lim oluvchilarga taqdim etish, shuningdek, ta'lim oluvchilarni ro'yxatga olish va ularga o'quv modullarini onlayn tarzda o'zlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus elektron dasturiy tizim.

Ushbu platforma maktab ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan raxbar kadrlar va pedagog xodimlarning onlayn malaka oshirishini tashkil etish tizimi sifatida yaratilgan. Platforma yuqori texnologiyalar zamonida taqdim qilinayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish va vaqtni tejash, ta'lim oluvchi uchun qulay vaqt va maqbul sur'atlarda malaka oshirish imkoniyatini beradi. Platforma qulay interfeysga ega, barcha yo'nalishlar bo'yicha malakali mutaxassislar tomonidan tayyorlangan 50 dan ortiq kurslarning o'quv-uslubiy majmua va videodarslari joylashtirilgan.

Bundan tashqari "Uzluksiz kasbiy ta'lim" platformasida malaka oshirish sifatini ta'minlash maqsadida quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- Har bir tinglovchi uchun shaxsiy portfolioni ko'rish imkoniyati;
- Muqobil malaka oshirish shakllari orqali kredit to'plash imkoniyati;
- Cheklanmagan vaqtda soni cheklanmagan tinglovchilar uchun vebinar tizimi imkoniyati;
- Vebinar davomida turli onlayn so'rovnomalarni tashkil etish imkoniyati;
- Tinglovchilar va tyutorlar orasida o'zaro muloqot qilish va fayl almashish imkoniyati;
- Platformada tahsil olganlar haqida statistik ma'lumotlarni ko'rish imkoniyati;

Fan yo'nalishi bo'yicha metodistlar va maktab rahbarlarining o'z ta'lim muassasasida platforma orqali tahsil olayotganlarni nazorat qilish imkoniyati.

LMS platformasiga oid savollarga javob olish chati yo'lga qo'yilgan bo'lib, chat orqali beriladigan savollarga mutaxassislardan istalgan vaqtda (24/7) javob olish imkoniyati[3].

Xulosa o'rnida raqamli ta'limning ta'lim jarayonida o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilar va ta'lim oluvchilarning fanni o'zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganishi, shaxsiy o'rganishga moslashishi va o'z ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Dars jarayonlari raqamli kontekstda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish, virtual laboratoriyalarda o'rganish ta'lim oluvchilarni yanada fikrlashlarini o'stiradi. O'zi qiziqqan sohadagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Grainger, Q.Liu, S.Geertshuis Learning technologies: A medium for the transformation of medical education. Med. Educ., 55 (1) (2021), pp. 23-29
2. Maktabgacha ta'lim agentligining mdo.uz saytidan olingan.
3. Rahmonova Gulhayo Saidjon qizi. "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi va unda ta'lim sifatini boshqarish. International Scientific Journal. VOLUME 1, ISSUE 1, 2022.

PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

To'rayeva Dilnoza Ismoilovna

*Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasini o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Jahonda raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi yangicha muloqot muhitini yaratib berayotganligi YUNESKO tashkiloti tomonidan e'tirof etilib, bu jarayonda o'qituvchidan nafaqat raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakasi balki, "Simple fbilitis" – ma'lumot qidirish, axborotlarni yaxlit idrok etish, axborot mohiyatini ijobiy va tanqidiy tarzda baholash, jamoaviy ishlash hamda ijodiy, mantiqiy fikrlash kabi qobiliyatlarni egallash talablari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ehtiyoj, innovatsiya, mantiqiy joylashish, kompetensiya, simulyator, raqamli ta'lim.*

Аннотация. *Организация ЮНЕСКО признает, что внедрение цифровых технологий в систему образования в мире создает новую коммуникативную среду, и в этом процессе учителю необходимы не только навыки работы с цифровыми технологиями, но и «Простой фбилиитис». - поиск информации, целостное восприятие информации, положительная и критическая оценка сути*

информации, обсуждаются требования к приобретению таких навыков, как работа в команде и творческое, логическое мышление.

Ключевые слова: потребность, инновации, логическое позиционирование, компетентность, симулятор, цифровое обучение, административное.

Аннотация. UNESCO recognizes that the introduction of digital technologies into the world's education system is creating a new communication environment, and in this process, the teacher needs not only digital skills, but also "Simple Fbilitis". - search for information, holistic perception of information, positive and critical assessment of the essence of information, requirements for acquiring skills such as teamwork and creative, logical thinking are discussed.

Keywords: cooperation, innovation, logical positioning, competence, simulator, "digital education", administrative.

Bugungi kun texnika va texnologiyalarni raqamlashtirish bilan bog'liq tizimlarni faqat ilm-fanni, inson kasbiy faoliyatining barcha turlarini intellektual transformatsiyani jadallashtiribgina qolmay, balki inson shaxsiy kreativ potensialini rivojlantiruvchi yangi ma'lumotlar bankini yaratadi. Hozirgi zamon raqamlashtirish jarayonining eng asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim tizimini raqamlashtirish hisoblanadi. Bu jarayon raqamli ta'limni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, raqamlashgan jamiyatda ilmiy-texnika jadal rivojlanishi va buning hayotimizda aks etayotganligi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarni hal etish imkoniyatini yaratadi.

Dunyoda ta'lim tizimini raqamlashtirish muhitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagog kadrlarni kasbiy pedagogik faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-bilish faoliyatiga raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ilg'or xorijiy pedagogik tajribalarni o'zlashtirish, maqsadli yo'naltirish ta'lim tizimini transformatsiyalashdagi dolzarb vazifalar hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv-didaktik faoliyati mazmunini tubdan modernizatsiyalash, o'qitishning didaktik shakli, metodlari va zamonaviy raqamli texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruriyatini shakllantiradi. Shuningdek, axborotlashgan ta'lim muhitini yaratish, rag'batlantirish, ilmiy-texnikaviy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotda ta'lim tizimiga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish, pedagogika oliy ta'lim muassasalari huzurida ilmiy-amaliy laboratoriya, karyera markazlari va texnoparklarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Yuqorida qayd etilgan holatlar oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining raqamlashgan ta'lim muhitidagi pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish, shu bilan birga didaktik vositalar asosida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi uchun ta'lim olishning samaradorligini ta'minlash kerakligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi va 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalarning amalda tadbiriq etilish zaruratini ko'rsatadi. O'qitishning raqamli texnologiyalari har qanday ta'lim texnologiyasining asosiy qismi bo'lgan, bilim berish va uni qabul qilish jarayonlarini kompyuterlashtirish natijasida vujudga kelgan. O'qituvchining texnologiyasi misolida, o'qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi. O'quv mashg'ulotiga tayyorlanadi va uni tashkil qiladi, o'quvchilar bilimini nazoratga oladi hamda ularga vazifa va topshiriqlar beradi [3, 4]. "Bugungi va ertangi ta'lim tizimini takomillashtirishda axborotlashtirishning ustuvor vazifasi, ta'lim berishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning zarur bo'lgan tajribali metodlarini yaratish va ularni ta'lim tizimiga olib kirishdan iborat bo'ladi. Ko'rsatilgan ma'lumotlar tahlillari asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish haqida yo'riqnoma beruvchi, kreativlik qobiliyatlarni shakllantiruvchi va olgan texnologik bilimlarini baholovchi vazifalarni bajarish ishlarini tashkil qilish masalalarini tushunish maqsadga muvofiq" [5]. Biz yo'riqnoma beruvchi, kreativ qobiliyatini shakllantiruvchi mukammal olgan bilimlarini baholovchi vazifalarni bajarish amallariga batafsil to'xtalib o'tadigan bo'lsak :

Kompyuter va mobil aloqa vositalari yo'riqnoma beruvchi dastur yordamida talabalarning konstruktorlik faoliyati uchun egallagan bilim darajasiga mos holda yaratuvchanlik qobiliyatlarini o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Konstruktorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi tartibida ishlashda kompyuter va mobil aloqa vositalari asosida yangi axborotlarni qabul qilish, chizmalarini o'qish, innovatsion yondashuvlar asosida buyumlarning texnologik xaritalariga o'zgartirish kirita olish, konstruktorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonini soddalashtiruvchi vosita sifatida ishlaydi.

"Kompyuter va mobil aloqa vositalari bilimlarni baholovchi tartibida ishlashda talabalarning yangi o'zlashtirish darajasini nostandart testlar, boshqotirmalar, muammoli topshiriqlarga bergan javoblarini hisoblab, talaba va o'qituvchi bilan teskari aloqani amalga oshiradi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash uchun talabalarni qo'shimcha axborotlar bilan ta'minlaydi va masalalarni oddiydan murakkabga o'tib boruvchi ketma-ketlikda amalga oshirish imkonini yaratadi" [6].

Bugungi kun ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi subyekt-obyekt munosabatlarida ta'lim berish bilan cheklanib qolmagan holda, ta'lim beruvchi subyekt-subyekt muhitini yaratib berib, ta'lim oluvchilarning zamonaviy bilimlarini kengaytirish, kichik tadqiqotlar o'tkazish imkoniyatlari va hayotda



o'zlarining o'rnini topishlariga yordam berish kerak bo'ladi. Natijada, ta'lim oluvchi ma'lumotlarni yig'ib, qayta ishlovchi sifatidagi mashinaga tobe mavjudot emas, balki butun jarayonlarning boshqaruvchisi bo'lib qolishini ta'minlaydi. Bu ma'noda raqamli texnologiyalar bugungi kunda yetuk pedagoglarning hayot tarzini va mehnat shaklini o'zgartirib, uni o'z yutuqlarini chuqurlashtirishga, bilimni oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son qarori. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 21-iyundagi qarori. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son farmoni. www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-son qarori. www.lex.uz.
5. Allamuradov A.A. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishda nazariya va amaliyot integratsiyasi // Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent. -2020. 9-son. -B.84-86.
6. Алексеев В.Э., Усманов В.В., Фролов В.М. Рекомендации по разработке учебных пособий для дистанционного обучения. – Пенза: ПГТИ, 1998.– 256 с.

БОШЛАНҒИЧ СИНФДА МУЛЬТИМЕДИЯ ВОСИЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Нарматова Гулнора Тожиёвна

Сурхондарё вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази «Бошланғич ва махсус таълим методикалари» кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада бошланғич таълим ўқувчиларинг мультимедия воситаларидан фойдаланиш авфзалликлари ва ундан фойдаланиш кўникма ва малакаларини шаклланириш ҳақида ёришган.

Калим сўзлари: мультимедия, рақамли электрон қурилма, компьютер, TV экран, PDA (personal digital assistant) интерфейс.

Аннотация. В данной статье рассматриваются преимущества использования мультимедийных средств и формирования умений и компетенций учащихся начальных классов.

Ключевые слова: мультимедия, цифровое электронное устройство, компьютер, экран телевизора, интерфейс КПК (персонального цифрового помощника).

Abstract. This article discusses the advantages of using multimedia tools and the formation of skills and competencies of primary education students.

Keywords: multimedia, digital electronic device, computer, TV screen, PDA (personal digital assistant) interface.

Бошланғич таълим ўқувчилари турли кўринишдаги мультимедияли ахборотни рақамли электрон қурилма орқали мультимедияни - Бошланғич таълим ўқувчилари интерфейс орқали кўриши мумкин. Умуман олганда, мультимедия - бу ахборотнинг яхшиланган кўриниши ҳисобланади. Мультимедияли ахборот тўғри яратилиши натижасида унинг мазмуни ва фойдалилиги янада ортади.

Замонавий таълим тизимининг асосини сифатли ва юқори воситали муҳит ташкил этади. Унинг яратилиши ва ривожланиши техник жиҳатдан мураккаб, шу билан бир қаторда бундай муҳит таълим тизимини такомиллаштиришга, таълим жараёнига ахборот коммуникация воситаларини жорий этишга хизмат қилади. Таълим жараёнида мультимедия воситаларидан фойдаланиш машғулотларни интерфаол режимда олиб боришга имкон беради. Мультимедия (ингл. сўз multi - кўп, media - муҳит)

- бу турли кўринишдаги ахборотлардан (матн, тасвир, овоз, видео, анимация) иборат яхлит бир кўринишга айтилади.

Мультимедия воситалари - бу мультимедияли махсулот яратиш жараёнидаги техник ва дастурий воситаларни танлаш ва қўллаш жараёнига айтилади. Мультимедия воситаларининг асосий мақсади - ахборотни қабул қилишда содда ва қулай бўлган мультимедия махсулотини яратишдан иборат. Бу

фаолият йўналишларида мультимедиа махсулотларини яратиш учун кенг қўламдаги дастурий воситалар мавжуд. Уларнинг айримлари мультимедианинг алоҳида компонентлари билан ишлашга мўлжалланган. Мультимедиа таърифига кура оддий туюлса ҳам, у билан ишлаш жараёни мураккаб ҳисобланади. Мультимедиани билиш билан бир қаторда мультимедианинг техник ва дастурий воситаларини ҳам билиш лозим. Мультимедиали ахборотлардан биргаликда иловаларини яратувчилар мутахассисларни мультимедиа яратувчилар деб атаймиз.

Мультимедиа иловалари компьютер, TV экранида, PDA (personal digital assistant) шахсий рақамли ёрдамчи, ёки мобил телефон орқали кўриш мумкин.

Мультимедиа иловалари интерактив бўлиши шарт эмас. Бундай иловалар чизиқли бўлиб, бошланишидан охиригача бошланғич таълим ўқувчилари таъсирсиз амалга оширади. Агар бошланғич таълим ўқувчилари навигация бошқаруви орқали мультимедиа иловасининг бориш жараёнига таъсирини кўриши мумкин бўлса, у ҳолда бундай мультимедиали илова чизиқли бўлмаган деб аталади ва бундай интерактив кўринишдаги мультимедиа

“V, илова маълумот олишда кенг имконият яратади. Бошланғич таълим ўқувчилари мультимедиа иловани қай даражада фойдалана олиши, иловани бошқара олиши имкониятига қараб илова структураси ва сценарийси, илова дизайни ва дастурлашга катта эътибор қаратилади ва улкан маҳорат талаб қилинади. Нотугри интерфейс яратилган мультимедиа илованинг муваффақиятсиз чиқишига олиб келади. Бундан ташқари контент нотугри яратилиши натижасида мультимедиа иловада керакли маълумотларни топа олмаслигини мумкин. Таълим мультимедианинг энг кўп ишлатиладиган соҳаси ҳисобланади.

АҚШ ҳукумати ҳар бир аудиторияни, кутубхонани, тиббий муассасаларни, касалхоналарни, бир ахборот супермагистрალიга улаш мақсадида катта ишларни амалга ошириб келмоқда. Ҳозирги кунда кўпгина мактаблар ва кутубхоналар бир тармоққа (eRate) уланган. Бундан ташқари округлардаги кам даромадли қишлоқ ва шаҳарларнинг мактаблари давлат томонидан қўллаб қувватланади. Мультимедиали электрон ўқитиш ўқитувчи ва ўқувчи учун кучли, қулай ва самарали восита ҳисобланади.

Мультимедиа ўқув жараёнида катта ўзгаришларга сабаб бўлмоқда, натижада ўқитишнинг анъанавий усулларида ташқари усуллар ҳам мавжудлиги намоён бўлди. Анъанавий пасив ўқитиш усулларида иборат модел актив-ўқитиш модели билан алмаштирилди. Мактабларда мультимедиа ўқувчилар томонидан ҳам фойдаланиладиган кўринишларидан, булар: интерактив журналлар, ахборотномалар, шахсий мультимедиа иловаларини яратиш ва ҳ.к. Ўқувчилар ўзларининг ўқув жараёнлари ҳақида видеоларҳаларини яратишлари, ва YouTube га жойлаштиришлари мумкин. Ҳозирги кунда тақдирот яратадиган дастурий воситалар матн билан бир қаторда тасвир, аудио ва видео ахборотлар билан бойитиш, слайд-шоу шаклида намоиш қилиш имконияти мавжуд.

Фойдаланган адабиётлар

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'limtarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori.
2. Zamonaviy maktab'larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 2019-yil 27-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4537-son Qarori.
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/29/new-textbooks/>
4. Основные идеи И.Г.Песталоцци. <http://uchitel76.ru/osnovnye-idei-i-g-pestalocci/>. Мурожаат санаси: 2016 йил 24 март.
5. Кукушин В.С., Болдырева-Вараксина А.В. Педагогика начального образования. / Под общ. ред. В.С.Кукушина. — М.: ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2005.
6. Мавлонова Р.А. Бошланғич таълимнинг интеграциялашган педагогикаси. Методик қўлланма. — Т.: Низомий номидаги Тошкент давлат университети, 2005. [http:// library.ziyounet.uz/ru/book/33810](http://library.ziyounet.uz/ru/book/33810). Мурожаат санаси: 2016 йил 24 март.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Qodirov Raxmon Karimovich

Surxondaryo viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi

Annotatsiya. Maqolada soha olimlarining o'quv jarayonining ijodiy xususiyati borasidagi ilmiy ishlari tizimli o'rganilgan holda boshlang_ich sinf o'quvchilarini aqliy rivojlantirish omillari va ularni bilimli avlod bo'lib voyaga yetishlari borasidagi fikrlari bayon etilgan. Maqoladan oliy o'quv yurti o'quvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, qolaversa, boshlang_ich sinf oqituvchilari keng foydalanishi mumkin.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, rivojlantirish, evristik qobiliyat, metodika, faoliyat, natija, qobiliyat.

Аннотация. В данной статье систематически исследуются научные работы ученых области о творческом характере образовательного процесса, а также представлены мнения младших школьников о факторах психического развития и их взрослении как образованного поколения. Статья может быть широко использована студентами вузов, докторантами, независимыми исследователями, а также учителями начальных классов.

Ключевые слова: логическое мышление, развитие, эвристическая способность, методология, деятельность, результат, способность.

Abstract. *In this article, the scientific work of the scientists of the field on the creative nature of the educational process is systematically studied, and the opinions of the primary school students on the factors of mental development and their growing up as an educated generation are presented. The article can be widely used by university students, doctoral students, independent researchers, as well as primary school teachers.*

Keywords: *logical thinking, development, heuristic ability, methodology, activity, result, ability.*

Ta'lim-tarbiya tizimida uning har bir bo'g'ini muayyan maqsadga yo'naltirilgani kabi boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini erkin fikrlashga o'rgatish va mustaqil mutolaaga rag'bat uyg'otish alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning har tomonlama kamol topishi, o'qishga havas qo'yishi esa maktabga ilk bor qadam qo'yib o'zlashtiradigan bilimlari, ko'nikma va malakalari darajasiga borib taqaladi. Bolalar kelajagimiz poydevori.

XXI asr intellektual, o'z mustaqil, sog'lom fikriga ega yoshlarni tarbiyalaydigan asrdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", — deydi. Shu bois, bolalarning puxta bilim olishlari, teran fikrlashlari uchun, eng avvalo, ta'lim beruvchining mahorati, bilimi, layoqati muhim spetsifik xarakterga ega. Bugun o'zini pedagogman deb hisoblagan mutaxassis, albatta, bolalarning ta'lim-tarbiya olishiga jiddiy e'tibor qaratmog'i lozim. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bolalar adabiyotining ahamiyati ham kattadir. Bolalar adabiyoti o'z oldiga kelajak avlodni jismonan baquvvat, ruhan pok, fikran sog'lom, imon-e'tiqodi butun, bilimi, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalashdek kata va murakkab vazifani qo'yganligi bilan ajralib turadi.

O'quvchilarni yuksak e'tiqodli, bilimdon kishilar qilib tarbiyalashda o'quv predmetlari bo'yicha o'tkaziladigan asosiy darslar bilan bir qatorda o'qish darslarining ham ahamiyati katta. Bu darslarning asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodlari bilan elementar tarzda tanishtirish, hikoyalarni ongli, ifodali o'qish orqali o'z mustaqil fikrini bayon eta olish usullarini o'rgatishdan iborat. O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar. Boshlang'ich sinflarda adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini va uning o'quvchilarga ta'sirini ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi, qurilishi, janri, tasviriy vositalarini hisobga

olishi zarur. Ta'lim jarayonida mustahkam bilim va ko'nikmalar shakllanishi o'quvchilarning mustaqil o'qishlari bilan bog'liq bo'lsa, ma'lum yoshda o'quvchilar yoshi va saviyasiga mos tanlangan kitoblarni o'qib o'rganish ular bilimlarini chuqur o'zlashtirishlari uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilishi ayon bo'ladi. Ma'lumki, davr barcha sohada jadallashtirishni talab qilmoqda. Fan-texnika tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Kishilar mehnati tobora yengillashmoqda. Radio, televideniya, matbuot insonlarga ruhiy ozuqa, ma'naviy boylik baxsh etmoqda. Bular yosh avlod kamolatiga ham ijobiy tasir etmoqda. Bolalar har sohada qiziq narsalarga duch kelmoqdalar. Ularning kelib chiqish sabablarini, natijalarini anglamoqdalar. Biroq, ijtimoiy munosabat bildirishda mustaqil fikr sustligi ko'zga tashlanadi. Buning uchun, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida dunyoqarash elementlari–burch, axloqiy qoidalar, o'quvchilarning vazifalari, yaxshi nima-yu yomon nima ekanligini farqlash, yaxshi ishlarning ijodkorlariga ergashish, jasur bo'lish, o'zaro yordam, vijdonli bo'lish kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalashga alohida ahamiyat beriladi.

Faylasuf Forobiyning asarlariga murojaat qilsak, olim ilm oluvchining oldiga muhim talablarni qo'yadi. Uning ta'kidlashicha: —Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi odob va axloqli bo'lsin, bilimli va notiq bo'lsin. Bu talablarning mas'uliyati tarbiyachi va o'qituvchining zimmasiga tushadi. Bolalarda narsa va hodisalarga nisbatan qiziqish, e'tibor hissini uyg'otish o'qituvchi va tarbiyachilardan alohida mahorat ko'rsatish, ishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Bu esa, bolalarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini orttirishga, o'qigan asarlarini idroki darajasida tahlil qilishga undash, ijtimoiy voqeliklarga mustaqil yondashish, sog'lom fikrlash tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan.

Mustaqil fikrlash o'zi nima? Bu savolga shunday javob berish mumkin. Mustaqil fikrlash shaxsning bilimlarni, borliqni bilishida zarur umumiy ko'nikma va malakalarni mukammal egallash, tug'ilajak vaziyatlarda ularni amaliy qo'llash bilan bog'liq qobiliyatdir. Mustaqil fikrlash ikki tomonga, ya'ni o'quvchiga va o'qituvchiga bog'liq. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini asosan ijodiy, mantiqiy va tanqidiy turlarga ajratish mumkin. O'quv jarayonida o'qitishning samarali usullari orqali o'quvchilar fikrlashga, mustaqil faoliyat yuritishga yo'naltiriladi. Chunki bir fikrni turli shakllarda ifodalash o'quvchilar fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. O'z-o'zidan bu holat mustaqil fikrlashning rivojlanishiga, pirovard natijada o'quvchilardagi qobiliyatning namoyon etilishiga imkon beradi. Fikr yuritishdagi mustaqillik – bu o'quvchining muayyan narsa, voqea hodisa, jarayonga aniq ma'lumot yoki dalil-ashyoga nisbatan shaxsiy munosabati, qarashi va uni hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz, o'z zakovati, quvvai hofizasiga tayangan holda tegishli usul, vositalarda ifodalashidir. Fikrlashning chegaralanganligi tahlil etish, munosabat bildirish jarayoni uchun to'siq bo'ladi. Hosil qilingan hukmlarni e'lon qilishda, xulosalarni o'zgartirish o'quvchidagi hadiksirash, fikrda aniqlikning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bu o'zlashtirishning, fikr samaradorligining sifatini pasaytiradi. Fikrlash jarayonidagi



erkinlik esa, o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati uchun muhim bir omil bo'lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, o'quvchining fikrlashi o'z-o'zidan tug'ilmaydi. Buning uchun unda ma'lum bir tushunchalar, ma'lumotlar bazasiga ehtiyoj seziladi. U qanchalik boy bo'lsa, fikrlashning istiqboli shunchalik cheksiz bo'ladi. Shu bois, o'quvchilarda boshlang'ich ta'limdanoq o'qish bilan birga uqishni ham shakllantirib borish lozim. O'qituvchi eng avvalo quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim:

- o'quvchilarning qiziqishi qay darajada ekanligini his qila olishi;

Bolaning tafakkur qilish faoliyatlarini anglashi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishi; o'z fikrini ravon, erkin ifodalay olish ko'nikmasini shakllantirish;

qiziqishiga mos asarlarni o'qib, mazmunini so'rab borish orqali kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilish, shu o'rinda kundalik tutishga o'rgatish;

yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali o'qiy olish malakasini rivojlantirish;

Bu mezonlar o'quvchilar bilimni sistemaga solish, tasavvurlarini kengaytirish, o'rganilgan materiallarni o'zaro taqqoslash, bilimlarini bir biri bilan bog'lash va mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, ayrim o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilmay qolingan materiallarni aniqlash imkonini beradi. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, yoshlarning tafakkurini, fikrlash doirasini kengaytirish, hamkorlikda ishlash, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bugungi kun talablariga javob bera oladigan zamonaviy pedagogning oldiga qo'ygan asosiy vazifasi bo'lmog'i kerak.

Adabiyotlar:

1. Saidaxmedov N. Interfaol usullar. -T.: —Universiteti, 2005.
2. Azixxodjaeva A.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T: 2006.
3. Mavlyanova R.A. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. -T.: 2007.
4. Ishmuxammedov R.J. va boshqalar. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.:2010.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T.: Iste'dod, 2008.

TA'LIM JARAYONIDA KREDIT MODUL TIZIMINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Idiboyev Abror Jamolovich

Jizzax viloyati yuridik texnikumi direktori, tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning obyektiv va subyektiv sharoitlari va unda o'qitish tizimi bo'yicha fikrlar keltirilgan. Adliya vazirligi yuridik texnikumlarida kredit-modul tizimini qo'llashning o'ziga xos jihatlari, yuridik texnikumlarda kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish, professional ta'lim muassasasida kredit-modul tizimning tashkil etilishi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Kredit, modul, kredit-modul tizimi, akademik mobillik, kredit soati, mustaqil ta'lim,

Аннотация: В статье представлены взгляды на объективные и субъективные условия организации самостоятельного обучения в кредитно-модульной системе и системе обучения.

Ключевые слова: Кредит, модуль, кредитно-модульная система, академическая мобильность, кредитный час, самостоятельное обучение

Abstract: The article presents views on the objective and subjective conditions for organizing self-study in the credit-modular system and the training system.

Key words: Credit, module, credit-module system, academic mobility, credit hour, independent education.

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar asosan inson huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Shubhasiz, globallashuv va postmodernizatsiya jarayonlari hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ma'lumki, davlat rivojlanishi va huquqiy davlat maqomini olishi uchun yuqori malakali Yuridik kadrlar bo'lishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mutaxassislar tayyorlash darajasi va huquqiy ta'lim sifati bilan bog'liq.

Zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimi zamon talablarini hisobga olgan holda, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida ta'lim mazmunini yangilash va sifatini oshirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida Yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 359-son qaroriga asosan yuridik texnikumlarda kredit-modul tizimi joriy qilingan.

Kredit - modul tizimi – mustaqil ta'lim olishga qaratilgan va individuallik asosida bilimni ijodiy o'zlashtirish, o'quv jarayonini qat'iy belgilangan holda ta'lim yo'lini tanlash va kredit holida bilim hajmini belgilovchi tizimdir⁴⁹. Bu tizim hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida umumiy yo'lga qo'yilgan, vaqt sinovlarida o'zini yetarlicha oqlagan va bir biridan farq qiluvchi, lekin bir – birini o'zaro to'ldiruvchi ikkita *modul* va *kredit* o'qitish texnologiyalarini birlashishidan hosil bo'lgan.

Kredit-modul tizimi, bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: o'quvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlash; o'quvchilar bilimni reyting asosida baholash.

Yuridik texnikumlarda o'quv jarayonida kredit-modul tizimi Kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa modeli (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS)ga muvofiq tashkil qilinadi.

ECTS kredit-modul tizimida bir yillik kreditlar miqdori 60 ni tashkil etadi. Bir o'quv yili 2 semestrda iboratligini hisobga olsak, o'quvchi o'qishi davomida har semestrda 30 kredit to'plab borishi kerak bo'ladi. Professional ma'lumotli kadrlar tayyorlovchi texnikumlarda o'qish muddati 2 yilni tashkil etib, yakunda 120 kredit to'lashi talab etiladi. Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit o'quvchi bajarishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bildiradi.

ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25-30 soatlik o'qish yuklamasini anglatadi. Bu degani, agar fan 6 kreditli fan bo'lsa, o'quvchi ushbu fan bo'yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 150-180 soatlik o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi ($25 \cdot 6 = 150$; $30 \cdot 6 = 180$). Shunday ekan, kredit-modul tizimini joriy etgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar har bir fan uchun belgilangan kreditlar miqdoriga qarab, o'qish hali boshlanmasdanoq har bir fanni o'qish va o'rganishga qancha vaqt sarflashlari kerakligini bilib oladilar. Bu ta'limda shaffoflikning bir ko'rinishidir. 1 kredit o'qish yuklamasi (25-30 soat oralig'ida) aynan necha soat bo'lishini odatda har bir ta'lim muassasasi o'zining ichki qoidalarida belgilaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, 1 kredit uchun belgilangan 25-30 soatlik o'qish yuklamasi bu fanni o'rganish uchun sarflanadigan jami harakatlar jamlanmasi bo'lib, unga nafaqat dars vaqti, balki o'quvchining fanni o'rganish uchun uyda va kutubxonada sarflagan vaqti, imtihonlar vaqti, o'quvchi ushbu fanni o'zlashtirish uchun sarflagan barcha tizimli harakatlari vaqtini qamrab oladi.

Umumiy o'qish yuklamasining aynan qancha qismi darsga, auditoriya soatlariga to'g'ri kelishi quyidagicha: Kredit-modul tizimi amaliyotida auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40/60 foizni tashkil etadi. Bu nisbat, boshqacha qilib aytganda, 1/1.5ga to'g'ri keladi, ya'ni o'quvchi muayyan fan

bo'yicha belgilangan har bir soat dars uchun darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi kerak bo'ladi. Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilangan bo'lsa, undan 12 soati ($30 \cdot 40 \% = 12$) auditoriya soatlari, 18 soati ($30 \cdot 60 \% = 18$) esa o'quvchining mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklamasini aniqlasak, o'quvchi ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ($((30 \cdot 6) \cdot 40 \% = 72)$) auditoriya darslarini, 108 soat ($((30 \cdot 6) \cdot 60 \% = 108)$) uyda va kutubxonada mustaqil o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi. Yuridik texnikumlarning bitiruvchilari TDYUda ikkinchi kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega ekanligini inobatga olib, TDYUning birinchi kursidagi kreditlarini (60 kredit) yuridik texnikumlarda to'playdi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. O'quvchilarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. O'quvchi esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarining mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida professional ta'lim o'quvchilari har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kredit-modul tizimi o'quvchilarga fanlarni mustaqil va ongli ravishda tanlash, o'qituvchiga esa o'z vaqtini samarali taqsimlash imkonini beradi. Mamlakatimiz professional ta'lim tizimiga ta'limning jahon tan olgan mukammal o'lchov birligining olib kirilishi, professional ta'lim muassasalari o'quv dasturlarida muvozanat va me'yor paydo bo'lishi, professional ta'lim muassasalarida o'qish jarayonining shaffof tarzda tashkil etilishi, o'quv dasturlari iqtisodiyot, mehnat bozori va o'quvchilar ehtiyojlari asosida shakllanishi, darslarning sifati yaxshilanishi va nihoyat har bir o'quvchi, ma'lum ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Professional ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan amaldagi baholash tizimi, mezonlari va shkalasini isloh qilish va ularni jahondagi eng ilg'or baholash tizimlariga yaqinlashtirish tavsiya etiladi. Amaldagi baholash tizimida ijobiy baxolar soni ancha cheklanganligi tufayli baxolar o'quvchilarning bilim va salohiyatlaridagi farqlarni etarli darajada aks ettirmaydi. Masalan amaldagi baholash shkalasida bor yo'g'i 3 ta ijobiy baxolar mavjud (3, 4, 5), ECTS tizimida

esa 5 ta, Amerika baholash tizimida esa 12 ta ijobiy baholar mavjud. Baholash amaliyotidagi bu katta farqlar baholar konvertatsiyasida noaniqliklar va xatolar bo'lishi ehtimolini kuchaytiradi.

Professional ta'lim muassasalari o'z o'quv dasturini, uning o'qish natijalarini ishlab chiqishda biz o'quvchilarga nimalarni o'rgatishni xohlaymiz degan nuqtai nazar bilan emas balki o'quvchilar bizdan nimalarni o'rganishni xohlaydi va ular o'z mutaxassisliklariga munosib kadr bo'lib etishishlari uchun nimalarni bilishi va qila olishi kerak degan nuqtai nazar bilan yondashish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustafaqulov Sh., Sultonov M. Kredit-modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik//Xalq so'zi, №185/2020.
2. O'rinov V., Umarov A. Oliy ta'limda kredit-modul: yangi o'quv yilida o'quvchilarni nimalar kutmoqda? //Kun.uz 22.07.2020
3. Hasanova M., Jumanova M. Kredit-modul tizimi va uning amaliyotga joriy etilish tamoyillari. Kiberlineyka. (25-may 2022-yil)
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.06.2021yildagi 359-sonli Qarori.

SUN'IY INTELLEKT – DAVR TEXNOLOGIYASI

Kamolov Dilyorxon Fuzuliy o'g'li
NextGen IT markazi xodimi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Sun'iy intellektning imkoniyatlari, sun'iy intellekt, ong va idrok haqida qisqacha ma'lumotlar berildi.*

Kalit so'zlar: *intellekt, aql, sun'iy intellekt, sun'iy super intellekt, sun'iy umumiy intellect, ong, idrok.*

Аннотация. *Была дана краткая информация о возможностях искусственного интеллекта, искусственного интеллекта, сознания и восприятия.*

Ключевые слова: *интеллект, разум, искусственный интеллект, искусственный сверхинтеллект, общий искусственный интеллект, сознание, восприятие.*

Abstract. *Brief information was given on the capabilities of artificial intelligence, artificial intelligence, consciousness and perception.*

Key words: *intelligence, mind, artificial intelligence, artificial superintelligence, general artificial intelligence, consciousness, perception.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-sonli qarorida sun'iy intellekt texnologiyalari asosidagi innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko'rsatish usullari rivojlanishi uchun qulay va maqbul ekotizim yaratish, ularni belgilab berilgan ustuvor tarmoqlar va sohalarda tezkorlik bilan joriy etish, amaliyotga tatbiq etish masalalari kun tartibiga qo'yildi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda biz soha egalari oldiga sun'iy intellekt mahsulotlarini yaratish va tatbiq qilish vazifasi qo'yildi.

Sun'iy intellekt (SI) — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Hozirda SI turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi. 1997-yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo'ldi.

SIning yorqin namunalaridan yana biri – IBM Watson superkompyuteri bo'lib, u o'z bazasidan kelib chiqib muayyan tilda berilgan savollarga javob beradi. Shuningdek, ko'pchilikning doimiy hamrohiga aylanib ulgurgan mobil yordamchi Siri, fotosuratlarini qayta ishlovchi Prisma kabi dasturlarni SIning yutuqlaridan biri sifatida qayd etish mumkin. Hozirga kelib sun'iy intellekt keng ko'lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo'q. Hisob-kitoblar bilan bog'liq barcha jarayonlar sun'iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ayrim davlatlarda robot-hamshiralar, xaydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Hatto politsiya xodimlarining ba'zi vazifalarini bajaradi, jurnalistlarning maqolalarini tahriri, Associated Pressda "ishlayotgan" robotlar moliyaviy hisobotlarni yozib boradi. Mobil qurilmalardagi dasturlar: google-tarjimon, lug'atlar, turli xil o'yinlar va hokazolar ham sun'iy intellekt mahsulotidir.

SI sun'iy ong, sun'iy idrok tushunchalari bilan chambarchas bog'liq.

Sun'iy ong, sun'iy intellekt yoki sun'iy idrok (inglizcha: Artificial intelligence; odatda, AI sifatida ham qisqartiriladi) — insonlar yoki hayvonlar tomonidan ko'rsatiladigan tabiiy ongdan farqli o'laroq, mashinalar tomonidan ko'rsatiladigan ongidir. Yetakchi sun'iy ong darslik kitoblari bu sohani "ongli agentlar"ni o'rganish deya ta'riflaydi: o'z muhitini fahmlaydigan va maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatini maksimal darajada oshiradigan amallarni amalga oshiruvchi har qanday tizim. Sun'iy ong ilovalari yetuk web-qidiruv tizimlari (masalan, Google), tavsiya etuvchi tizimlar (bundan YouTube, Amazon va Netflix foydalanadi), inson nutqini anglash (masalan, Siri yoki Alexa), o'ziyurar mashinalar (masalan, Tesla) hamda strategik o'yin tizimlarida (masalan, shaxmat va Go) yuqori darajada raqobatlashishni o'z ichiga oladi [1]. Mashinalar tobora ko'p qobiliyatlarga ega bo'lib borishar ekan, "ong" talab etuvchi vazifalar

ko'pincha sun'iy ong effekti deb ataluvchi fenomen bo'lgan sun'iy ong ta'rifidan olib tashlanadi [2].

Sun'iy intellekt tadqiqotining turli kichik sohalari ma'lum maqsadlar va muayyan vositalardan foydalanishga qaratilgan. Sun'iy intellekt tadqiqotlarining an'anaviy maqsadlariga fikrlash, bilimlarni taqdim etish, rejalashtirish, o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, idrok etish va robototexnikani qo'llab-quvvatlash kiradi. Umumiy razvedka (o'zboshimchalik bilan muammoni hal qilish qobiliyati) sohaning uzoq muddatli maqsadlaridan biridir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun sun'iy intellekt tadqiqotchilari qidiruv va matematik optimallashtirish, rasmiy mantiq, sun'iy neyron tarmoqlar va statistika, operatsiyalarni o'rganish va iqtisodiyotga asoslangan usullarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli muammolarni hal qilish usullarini moslashtirdilar va birlashtirdilar. Sun'iy intellekt psixologiya, tilshunoslik, falsafa, nevrologiya va boshqa ko'plab sohalar bilan hamkorlikda turli dasturlar yaratadi. Dastur algoritmlarning aksariyati katta fikrlash muammolarini hal qilish uchun yetarli emas, chunki ular "kombinator portlash"ni boshdan kechiradilar: muammolar kattalashgani sayin ular eksponent ravishda sekinlashdi. Bunda bilimlar bazasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilimlar bazasi — bu dastur tomonidan ishlatilishi mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan bilimlar to'plami. Ontologiya — ma'lum bir bilim sohasi tomonidan qo'llaniladigan obyektlar, munosabatlar, tushunchalar va xususiyatlar to'plami. Bilimlar asoslari quyidagi narsalarni ifodalashi kerak: obyektlar, xususiyatlar, toifalar va obyektlar orasidagi munosabatlar; vaziyatlar, hodisalar, holatlar va vaqt; sabablari va oqibatlari; bilimlar haqidagi bilimlar (boshqalar biladigan narsalar haqida biz bilgan narsalar); sukut bo'yicha fikrlash (odamlar to'g'ri deb hisoblagan narsalar, ular boshqacha aytilmaguncha va boshqa faktlar o'zgarganda ham haqiqat bo'lib qoladi); va bilimning boshqa ko'plab jihatlari va sohalari. Bilimlar bazasini dasturning mavzusiga qarab soha mutaxassisi tayyorlab bersa, lisoniy ma'lumotlar bazasini tilshunoslar, dastur algoritmini informatika sohasi mutaxassislari yaratishlari lozim. Demak, barcha soha mutaxassislari hamkorlikda faoliyat yuritishsa, mukammal dastur yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. Muxiddinov M.N. Sun'iy intellekt va uning imkoniyatlari // Science and innovation. 2022, 2-son. 34-b.
2. Камилова Р.Ш., Абдулатипова М.А. Искусственный интеллект // Выпуск 1, Май 2013, Экономические науки.

PEDAGOGIK TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

D.Xabibulloyev

Samarqand viloyati PYMO 'MM o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'rganishning ahamiyati, hozirgi kunda olib borilayotgan ishlar va imkoniyatlar, raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim olish huquqi, sifatli ta'lim, raqamli texnologiya, innovatsiya, raqamlashtirish.

Аннотация: В данной статье освещена важность цифровизации и обучения в цифровом мире в системе общего среднего и высшего образования, текущие мероприятия и возможности, программы развития цифрового образования.

Ключевые слова: право на образование, качественное образование, цифровые технологии, инновации, цифровизация.

Annotation This article highlights the importance of digitalization and learning in the digital world in the general secondary education and higher education system, current activities and opportunities, programs for the development of digital education.

Key words Right to education, quality education, digital technology, innovation, digitization.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning eng asosiy vazifamiz, yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan jamiyatda faoliyat yuritayotgan barcha sohalarni rivojlantirish, halqaro talab doirasida faoliyat yuritishi uchun axborot komunikatsiya tarmoqlari bilan uzviy bog'lash va bosqichma-bosqich raqamlashtirishga kata e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabdagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu farmonda ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

✚ ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun

imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

✚ yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilayotgan elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish va yangi xizmatlarni joriy etish bo'yicha bir-qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, joriy yildan boshlab maktabning 9 va 11-sinfini tugatgan bitiruvchilarga shahodatnomalar elektron shaklda berilishi yo'lga qo'yildi.

Hukumatning tegishli qarori asosida mazkur elektron shahodatnomaning davlat namunasi hamda shahodatnomalarni berish tartibi tasdiqlandi. Ayni vaqtda elektron shahodatnoma platformasi ("e-shahodatnoma.uz") ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralarning elektron bazasiga integratsiya qilindi. Bu esa ta'lim sohasidagi qog'ozbozlik, ortiqcha xarajat va ovoragarchiliklarning oldini olishga qaratilgan navbatdagi qadam hisoblanadi.

Sifatli va raqobatbardosh ta'lim barqaror iqtisodiy o'sish, fan va texnologiya rivoji, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashdagi muvaffaqiyat garovi.

Mamlakatimiz maktablarida maktabgacha va maktab vazirligi tomonidan maktab ta'limini raqamlashtirish, maktab ta'limiga axborot kommunikatsion texnologiyalarni integratsiya qilish, o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalarning interaktiv muloqatlarini rivojlantirish, masofaviy va mustaqil ta'lim olish uchun imkoniyatlarni amalga oshirish maqsadida kundalik.com raqamli ta'lim platformasini ishlab chiqildi va amalda tadbiq etilmoqda. Bu platformada o'qituvchilar uchun dars jadvallari elektron jurnal, uy vazifalarni boshqarish va turli hisobotlar avtomatik ravishda amalga oshiriladi, ota-onalar uchun o'quvchining kundaligi, uy vazifalari va muloqotlar uchun bo'limlari orqali o'z farzandlarini to'liq nazoratga oladi, o'quvchilar uchun kundalik daftari, portfolio, muloqot bo'limlari orqali klassi dars mavzularini biladi, o'qituvchilari bilan o'zaro muloqotlarini amalga oshiradi, davlat organlari uchun umumiy statistik ma'lumotlarni to'plash, yangiliklarni quyi tizimlarga yetkazishda aloqa va xabardor bo'lish uchun ishlarini amalga oshiradi.

Raqamlashtirish ta'lim sifatini yaxshilaydi, aynan shu sabab ham texnologiyalar qator mamlakatlarda faol tarzda ta'lim tizimiga kiritilmoqda: bu o'quvchilar o'zlashtirishining monitoringini yaxshilabgina qolmay, o'qish jarayoni qiziqarliroq, uning natijalari sezilarli darajada yuqori bo'lishiga yordam beradigan yangi ta'lim usullari va yondashuvlarini ishlab chiqishga ham yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytib o'tadigan bo'lsak, hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar ta'lim sohasiga kirib bo'ldi. Nafaqat ta'lim sohasiga balki boshqa sohalarga ham joriy qilinib kelinmoqda. Biz albatta rivojlanayotgan davrda yashayotgan ekanmiz, albatta ta'lim sohasini keng ko'lamda raqamli ta'limga yo'naltiradigan bo'lsak albatta kelajakda yuqori natijalarga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312 08.05.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabdagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR INNOVATSION TAFAKKURINING O'RNI VA AHAMIYATI

Isaxonova Mohinur

Samarqand davlat universiteti "Iqtisodiyot" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda yoshlar innovatsion tafakkurini raqamli iqtisodiyotni takomillashtirishdagi zarurati va imkoniyatlari borasida so'z yuritilgan. Maqolada shuningdek, raqamli iqtisodiyotni jamiyat va inson taraqqiyotini ta'minlashda o'zining muhim o'rniga ega ekanligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar. Iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, innovatsion tafakkur, iqtisodiy salohiyat, ijtimoiy rivojlanish, inson taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar.

Аннотация. В данной статье освещаются необходимость и возможности инновационного мышления молодежи в обществе в совершенствовании цифровой экономики. Также в статье научно обосновано, что цифровая экономика занимает важное место в обеспечении развития общества и человека.

Ключевые слова. Экономика, цифровая экономика, инновации, инновационное мышление, экономический потенциал, социальное развитие, человеческое развитие, социальные отношения.

Annotation. This article talks about the necessity and possibilities of innovative thinking of young people in the society in improving the digital economy. In the article, it is scientifically based that the digital economy has an important place in ensuring society and human development.

Keywords. Economy, digital economy, innovation, innovative thinking, economic potential, social development, human development, social relations.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning barcha tizimlarida raqamli iqtisodiyotni joriy etilishi esa, jamiyat va inson taraqqiyotini ta'minlashda o'zining muhim o'rniga egadir. Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyot sur'atlarda takomillashib, ijtimoiy munosabatlar tezlik bilan rivojlanib borar ekan, boshqa sohalar kabi iqtisodiyotning barcha tizimlarini ham yangilab borish muhim

ahamiyat kasb etmoqda. SHuningdek, bugungi kunda iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda kundan kunga takomillashib borayotgan yangiliklarni joriy etish kun tartibidagi muhim vazifalar hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy etish va tizimlarni innovatsion rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- birinchidan, iqtisodiy soha jamiyatda moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan, inson va jamiyat farovonligiga xizmat qiladigan tizim ekanligini hisobga olib, mamlakatimizda bu borada moddiy va tabiiy resurslar imkoniyatlari mavjud;

- iqtisodiyot tizimida yangiliklar yaratish, innovatsiyalar joriy etish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida kadrlar salohiyati va ilmiy ishlanmalar mavjud;

- uchinchidan, O'zbekiston manfaatlari kesimida mamlakatimizda xorijiy davlatlarning raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar bo'yicha tajribalarini qo'llash imkoniyatlari mavjud;

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va uni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etishda yoshlarning har tomonlama zamonaviy va innovatsion fikrlashi, iqtisodiy bilimlar, xorijiy tillarni bilish darajalariga egaligi muhim ahamiyat kasb etadi. O.Muhammadiyevning fikricha, "YOsh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yunalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo'naltirilgan sarmoya hisoblanadi"⁵⁰.

Iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli iqtisodiyotni joriy etish, innovatsiyalar va ishlanmalarning ko'payishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Bunda raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq jarayonlar ishtirokchilari o'z imkoniyatlarini ishga solib, iqtisodiy siyosat, islohotlar, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishda o'z salohiyati bilan qatnashishidir. "Bunda kishilar turli texnologik, innovatsion loyihalar, kashfiyotlar, ishlanmalar va dasturlar orqali taraqqiyot uchun zamin bo'ladigan ishlanmalar yaratishi va uni hayotga tadbiq etishi muhim bo'lib, bu orqali ular mamlakatimizning jahon siyosiy va iqtisodiy jarayonlarida o'z o'rniga ega bo'lishiga ko'maklashadi"⁵¹.

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishda yoshlar ichidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid bo'lgan yangi g'oyalar va texnologiyalar yaratishga qurbi etadigan iqtidorlillarini tanlab olish, dolzarb ilmiy-texnika muammolarni echishga jalb etishlari lozim. Bu jarayonlarni tashkil etishda oliygohlarda tajriba-texnik va konstruktorlik bo'linmalar, texnoparklar, yuqori texnologik asosda ishlaydigan zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish maqsadga

⁵⁰ Муҳаммаджонов О. Конституция: халқ манфаатларининг ҳуқуқий кафолати. –Тошкент, "Мухаррир нашриёти", 2017. –Б.28.

⁵¹ Саитқосимов А. Жамият барқарорлиги ва ижтимоий муаммоларни ҳал этиш //Монография. -Тошкент, 2018. –Б. 242.

muvofig. Bu jarayonda iqtidorli talabalarning nafaqat ilmiy salohiyati, balki ularning yangi g'oyalar va innovatsiyalarga ko'nikmalari va moyilligi oshadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun yoshlar va zamonaviy kadrlarda yangicha innovatsion tafakurni shakllantirish, zamonaviy fikrlash tarzini oshirish, texnologik g'oyalarni shakllantirish lozim. "Bugungi jamiyatni rivojlantirish uchun voqelikka yangicha rakursdan turib qarash, yangicha, ya'ni innovatsion yondashuv lozim bo'ladi. Bu yangicha metodologiya, yangicha texnologiya, xullas innovatsion yondashuvdir. Innovatsion, ya'ni yangilikka asoslangan texnologiyalar, yangicha boshqaruv jarayonlarini joriy etish uchun yangicha tafakkurga tayanish lozim"⁵².

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida ilmiy izlanishlarni olib borishda yangicha tizimni yaratilishi olimlarning iqtidorli yoshlarning ilmiy loyihalarga rahbarlik qilish, aniq amaliy natijalar olish imkoniyatiga ega bo'lishi fan va ishlab chiqarish o'rtasida bog'liqlikni mustahkamlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida innovatsion jamg'armalar va ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha bo'linmalar tashkil etildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiyot sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda yosh avlodni innovatsion tafakkurini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan bu jarayonni amalga oshirishda quyidagi muammolarni hal etishni talab qiladi:

- iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli iqtisodiyotga o'tishni takomillashtirishda kadrlar salohiyati, ularning maqomi, moddiy manfaatdorligini oshirish;
- raqamli iqtisodiyot ishtirokchilarini tayyorlash tizimi samaradorligini oshirish asosida yangi innovatsion texnologiyalarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishini ta'minlash;
- iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun yoshlar va zamonaviy kadrlarda yangicha innovatsion tafakurni shakllantirish, zamonaviy fikrlash tarzini oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammadjonov O. Konstitutsiya: xalq manfaatlarining huquqiy kafolati. –Toshkent, "Muharrir nashriyoti", 2017. –B.28.
2. Saitqosimov A. Jamiyat barqarorligi va ijtimoiy muammolarni hal etish.//Monografiya. -Toshkent, 2018. –B. 242.
3. To'raev B. Jamiyatni ma'naviy sog'lomlashtirishda nochiziqli tafakkurning o'rni.//Tafakkur ziyosi. 2018 yil, 1-son. –B.12.

⁵² Тўраев Б. Жамиятни маънавий соғломлаштиришда nochiziqli тафаккурнинг ўрни //Тафаккур зиёси. 2018 йил, 1-сон. –Б.12.

ELEKTRON RESURLARNING TURLARI VA O'QUV JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Xushvaqtov Akmaljon Kalandarovich

*Samarqand viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi informatika fani metodisti*

Hozirgi kunda an'anaviy ta'lim shakllari bilan birgalikda masofaviy ta'lim texnologiyalari jadallik bilan keng joriy etilmoqda. Bu hozirgi yoshlarning, ya'ni yangi avlodning ko'pchiligi shaxsiy kompyuterdan erkin foydalana olishi va hozirgi kunda har bir ta'lim muassasasi, har bir shaxs Internet tarmog'i va undagi ma'lumotlardan mohirlik bilan foydalanishiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Bugungi kunga kelib, butun dunyoda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida masofaviy ta'lim tizimiga o'tishdi. Masofaviy o'qitish sohasi bo'yicha xorijlik mutaxassislardan biri "distance education" atamasini tushuntirish borasida masofaviy o'qitish jarayonining ikki asosiy belgisini ko'rsatadi: ta'lim berishning nashr shaklida va video yoki audio-yozma usulda bo'lishini, shu bilan birga, kommunikatsiyaning tashkil etilishi masofaviy turib turli xil zamonaviy texnika vositalari bilan aloqa qilish ekanini ta'kidlaydi. Masofaviy o'qitish vositalaridan biri bo'lib elektron resurslar xizmat qiladi. Maqolada elektron resurs tushunchasi va ularga qo'yilgan talablar to'g'risida so'z yuritamiz.

Elektron resurs mustaqil o'rganish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni, shu bilan birga berilgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni nazorat qilish uchun amaliy va test masalalarini o'z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari elektron resurs oddiy dasrliklardan farqli ravishda shunday ishlab chiqilishi kerakki, u quyidagilarni ta'minlasin:

- kurs mazmunini batafsilroq (to'la) strukturalashtirish;
- interaktivlik – foydalanuvchining faoliyatiga bog'liq ravishda ma'lumotlarning ko'rsatilishini o'zgartirish imkoniyati, shuningdek, o'rganish yo'nalishini o'zgartirish imkoniyati;
- kursning tushunchalarga oid qismida va nazariy ma'lumotlarning gipermatnli strukturasi (ta'riflarga havolalar);
- kuchli ko'rgazmali ma'lumotlardan foydalanish – turli xil rasmlar va tasvirlar, animatsiyalar va boshqa multimedia vositalari;
- bilimlarni mustahkamlash, olingan bilimlarni nazorat qilish va baholash uchun elektron resursda o'rnatilgan amaliy va nazorat vositalaridan foydalanish;
- turli xil elektron matnlar va grafik ta'lim materiallariga havolalar (giperhavolalar) tizimining mavjudligi.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni ta'minlash ushun elektron resurslarni yaratuvchilar elektron resurslarga qo'yiladigan talablardan tashqari o'zining kurslari uchun mundarijalarni loyihalash texnologiyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Turli xil manbalarda elektron resurslarga quyidagicha ta'tiflar berilgan:

Elektron resurs – bu garfik, matnli, raqamli, tovushli, musiqiy, vдео, foto va boshqa turdagi axborotlar majmuasi. elektron nashr ixtiyoriy ma'lumot tashuvchilarda – magnit va optik disklarda, shuningdek kompyuter tarmoqlarida amalga oshirilishi mumkin;

Elektron resurs – mos ilmiy-amaliy bilimlar sohasiga oid tartiblangan materiallardan iborat bo'lishi kerak, ta'lim oluvchilar va talabalarning faol va ijodiy tarzda bu sohaga oid bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashi kerak. elektron o'quv nashri yuqori darajada ijro etilganligi va bezatilganligi, axborotlarning to'liqligi, metodik ko'rsatmalar sifati, texnik ijro sifati, ko'rgazmalilik, mantiqiylik va ketma-ket ifoda uslubi bilan ajralib turishi kerak [1].

Elektron resurs – ma'lum yo'nalish va mutaxassislikning davlat ta'lim standartlariga to'liq mos tuzilgan yuqori ilmiy uslubiy darajada yaratilgan o'quv nashridir.

Elektron resurs – bu o'quv resursni qisman yoki to'liq o'rnini bosuvchi va mazkur turdagi nashr sifatida rasmiy tasdiqlangan elektron nashrdir.

Elektron resurs - bu elektron shaklda taqdim etilgan va uning bir qismidan boshqa qismiga bir zumda o'tish imkonini beradigan tarmoqlanuvchi aloqa tizimi bilan ta'minlangan matn [1-2].

Odatda elektron resurslar shaxsiy kompyuterlar xotira qurilmalarida joylashtiriladigan o'qitish, nazorat qilish, modellashtirish va boshqa dasturlar majmuasidan iborat bo'lib o'quv predmetining asosiy ilmiy mazmunini aks ettiradi. elektron resurs oddiy o'quv resursni to'ldiradi va quyidagi hollarda yanada samaralidir:

- bir lahzada qayta bog'lanishni ta'minlaydi;
- oddiy o'quv resurslarda izlash qiyin bo'lgan ma'lumotlarni tez topish imkonini beradi;
- gipermatnli izohlarga ko'p marta murojaat qilishda vaqtni sezilarli darajada tejaydi;
- qisqa matn bilan birga namoyish qiladi, aytib beradi, modellashtiradi va hokazo;
- muayyan bo'lim bo'yicha bilimlarni tez tekshirish imkonini beradi.

elektron resurslarning kamchiligi displeyning ma'lumot olish vositasi sifatida noqulayligi va kitob bilan narxi orasidagi farqning yuqoriligidir.

Oxirgi 20 yil mobaynida elektron resurs bilan bog'liq tushunchalar va unga bo'lgan talablar ahamiyatli tarzda o'zgardi. Elektron resurslarni mualliflari ko'plab bahs munozaralar va eskicha qarashlarga qarshi chiqishlari natijasida elektron resurs tushunchasining ma'lum shakl-shamoili, talablari yuzaga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asqarov A.D., Masofaviy o'qitish ta'lim shaklining rivojlanish bosqichlari va modellari // Zamonaviy ta'lim 2015, 10. 59 – 65 b

2. Xodiev B.Yu., Golish L.V. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari (birinchi bosqich talabalariga yordam tariqasida): O'quv-uslubiy qo'llanma – T.: TDIU, 2010. – 97 b.

3. Zakirova F., Muxamedxanov U., Sharipov Sh., Isyanov R., Esanboboev F., Dottoev S.. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma.– T.: OO'MTV, 2010. –64 b

AXBOROT MUHITINING YOSHLAR IJTIMOIIY NORMALARI SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Vahabova O'gilxon Tolibjonovna
Andijon davlat pedagogika universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari o'zgarishiga ta'sirining psixologik jihatlari va uning interpetatsiyasiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan ibopat.

Kalit so'zlar: shaxs hulq-atvori, motivatsion komponent, munosabat, adaptiv munosabat, emotsional-kognitiv motivlar, stimullar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar.

Аннотация: статья представляет собой разработку научно-практических предложений и рекомендаций на основе выявления психологических аспектов влияния информационной среды на изменение социальных норм молодежи и социально-психологических факторов, влияющих на ее интерпретацию.

Ключевые слова: поведение личности, мотивационный компонент, установки, адаптивные установки, эмоционально-познавательные мотивы, стимулы, социально-психологические особенности.

Annotation: in the article ibopat from the development of scientific and practical proposals and recommendations on the basis of determining the psychological aspects of the influence of the information environment on changes in youth social norms and socio-psychological factors affecting its interpetation.

Keywords: personality behavior, motivational component, attitude, adaptive attitude, emotional-cognitive motives, stimuli, socio-psychological characteristics.

Respublikamiz talaba-yoshlarida ijtimoiy normalar o'zgarishiga axborot muhitining ta'sirini psixologik tomonlarini tadqiq etish orqali hamjamiyatimizni siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik taraqqiyotida ko'zda tutilgan ijobiy o'zgarishlarga daxldorlik hissini tapkib toptipish bo'yicha zarur xuquqiy-normaay asoslar yaratilmoqda. «... yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalapga ega bo'lishlari uchun zarur

jihozlar bilan ta'minlash borasidagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko'tarish»⁵³ masalalari bilan bip qatorda ulapni shaxslararo munosabatlarga ijtimoiy-psixologik tayyorlash, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi, jamiyatimiz a'zolari bo'lgan yoshlar masalalarini ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillapga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida» Farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va boshqa norma hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Yoshlarda axborot muhitining ijtimoiy normalari o'zgarishiga ta'siri muammosi hozirgi globallashtirish va axborotlashish masalalari ko'zga tashlanayotgan davrda ijtimoiy psixologiya fanida g'oyatda dolzarb psixologik muammo hisoblanadi.

Respublikamiz psixolog olimlaridan B.R.Qodirov, B.M.Umarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.S.Safaev, R.S.Samarov, O.B.Shamsiev, G.B.Shoumarov, E.G.G'oziev, Z.A.Abdurahmonova va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida yoshlarning psixologik muammolari, ijtimoiy munosabatlarda sog'lom fikrlashi, o'quv va mehnat faoliyati bilan band bo'lishlari bilan birga mehnat staji, migratsion tajriba mavjudligi masalalarini ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan A.A.Bakanova, A.A.Leontev, A.V.Petrovskiy, V.V.Skvorsov, E.P.Ilin, M.Sh.Magomed-Eminov, N.V.Grishina va boshqalar axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalariga ta'sirini ijtimoiy psixologik nuqtai-nazardan tadqiq etishgan. Xorij olimlaridan A.Adler, A.Bandura, A.Maslou, G.Olport, J.Rotter, Z.Freyd, K.G.Yung, K.Podjers, K.Xorn, R.B.Kettel, E.Fromm, E.Erikson va boshqalar shaxs shakllanishi va rivojlanishi masalalarini ilmiy tadqiq etishgan.

O'tmishda ajdodlarimiz insoniyatning psixologik qonuniyatlarini muayyan ilmiy yo'nalish sifatida o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning asarlari, qo'lyozmalarida mazkur holatlarning yoritilishi, tahlili kuzatiladi. Biz sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o'rganishga bo'lgan intilishi kishilar hayotining har xil tarixiy bosqichlarida ularning qanday nazariy va amaliy bilan taqozo qilganligini ba'zi qonuniyatlar qanday kashf etilganligini bilib olamiz. Ta'kidlash lozimki, allomalarning shaxs ma'naviy-ruhiy kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgi kungacha o'z o'rnini va ahamiyatiga egadir. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» Farmoni, <https://lex.uz/docs/5841063>

Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, kabi mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari bugungi kunda fan taraqqiyotining metodologik asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulq-odob haqidagi hadislarda eng ezgu insoniy xislatlar ulug'lanib, gunoh sifatidagi illatlar qoralanadi. Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi axloqiy xislatlar ulug'lansa, isrofgarchilik, ta'magirlilik, ochko'zlik, nafsu-havoga, shahvoniy hissiyotlarga berilish, baxillik, johillik kabi illatlar, yomon xatti-harakatlar "gunoh" sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi ezgu xatti-harakatlar, faoliyat "savob" tarzida olqishlanadi. Abu Nasr Farobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunga Farobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Farobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo'lishi kerakligini "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida"gi risolasida shunday ta'riflaydi: "Falsafani o'rganishdan avval o'zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto'g'ri tuyg'ularga emas, balki kamolotga bo'lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq-axloqni faqat so'zdagina emas, balki haqiqatda tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so'ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo'lini tushunib olishga boshlovchi (notiq-so'zlovchi, fikrlash ma'nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur".

Abu Rayhon Beruniy ilmi, ma'lumotli kishi bo'lishning o'zini odob-axloq va nafosat bilan bog'laydi. Uning dunyoqarashida axloq masalasi insonning eng asosiy sifatlari sifatida mujassamlashgan. Beruniyning fikricha, aqliy qobiliyatlar odamlarning kundalik ehtiyojlari asosida vujudga kelsa, axloqiy masalalar tarixiy taraqqiyot, odamlarning o'zaro munosabatlari bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanib boradi. Beruniy so'zlari bilan aytganda, inson yerdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Shuningdek, u insonning ijobiy va salbiy tomonlarini birma-bir ta'rif etadi. Masalan, olim insondagi yaxshilik, rostgo'ylik, oliyjanoblik, muruvvat, mehr-shafqat, do'stlik va jamoatchilik kabi fazilatlarni ulug'laydi. Shu fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan har bir inson har narsaga qodirligini, o'z eli va yurti uchun beqiyos naf keltirishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi, bu hozir ham ta'lim-tarbiya sohasida yetakchi o'rinni egallaydi.

Yolg'onchilik, yomonlik, raqobatlashish, g'animlik, ichqoralik, qo'pollik, o'g'rilik, tuhmatchilik, ikkiyuzlamachilik, o'ziga bino qo'yish, xushomadgo'ylik, chaqimchilik illat sifatida qoralanadi.

Beruniy g'azab, ta'ma balosidan qutila olmagan kishilarni inson degan pok nomga sazovor emas, deb ta'lim bergan. Yuqorida lazzat va alam kabi tushunchalarning mazmunini bayon etar ekan, alloma alam, ta'ma, o'ch olish singari salbiy tushunchalarni yaxshilik tushunchasiga mutlaqo yot deb hisoblaydi. Beruniy axloqsiz odamlarni qayta tarbiyalash orqali odobli, yaxshi kishilar safiga qo'shishi, axloqsiz yomon odamlar birinchi navbatda nafsoniy hirs-havasdan o'zini tozalashi, axloqiy kitoblarda zikr qilingan barcha yaxshiliklarni o'rganishi hamda yaxshilar bilan yaqin munosabatda bo'lishi, yaxshilarga taqlid qilib yashash orqali odam o'zini-o'zi qayta tarbiyalashi mumkinligini isbotlashga uringan. Yaxshi kishilarga ergashish bu faqat bolalargina emas, balki barcha jamiyat a'zolariga ham xos xususiyat ekanligini o'sha zamonda aytilgan bo'lsada, ular hozirgi zamon pedagogik-psixologiyasining ham asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yaxshi xulqqa intilgan, namunaga taqlid qilgan o'quvchi eng avvalo o'z imkoniyatlarini tushuna boradi, jamoadagi o'rnini to'g'ri belgilaydi. Inson ongli va tabiatning eng oliy mavjudoti bo'lgani uchun ham namunadan o'rnak oladi. Irodasizlik o'zini-o'zi qo'lga ololmaslik insonga xos xususiyat emas deb ko'rsatgan edi, Beruniy.

Jaloliddin Rumiy ham "Ma'naviy masnaviy"da inson xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar borasida o'z qarashlarini bildiradi. U adovat, badjahillik, hasadgo'ylik, aybjo'ylik, g'araz, qahr-g'azabni qattiq qoralaydi va insonning eng qabih illatlari sifatida tavsiflaydi.

Uning ta'kidlashicha, "hasad nafsga bog'liq sifat bo'lib, kishi o'zidagi nuqsonni va begonaning kamolotini anglab yetgach, kin-adovat va badjahillikdan bedavo ruhiy dardga giriftor bo'ladi. Hasadchi hamisha o'z qurbonini muayyan sifatdan mahrum bo'lishini orzu qilib yashaydi. Bu dard uni hamisha ta'qib aylaydi. Hasadchi ranj ichida o'z o'tiga qovriladi. Hasad murakkab sifatdir. Uning natijasi xavfli va g'oyatda og'ir. O'z nuqsonini anglagan kishi avvalo o'z kamoloti yo'lida harakat qilmog'i o'rniga fazilat sohibining mahrumiyatini, xaloqatini istaydi. Xuddi shuning o'zi nafsning zaifligini, darmondaligini isbotlaydi... Hasad mashaqqatli dovon. Undan kamdan-kam odamgina o'ta oladi. Alloma "Ayb qidirmoq va ta'na qilmoq insonning eng qabih illatlaridandir"- deydi. Bu ko'ngilsiz hol bir odamning o'zi nopisand bilgan kishiga nisbatan adovati mahsuli hisoblanadi. Kimki pok insonlar va Xudoning mardlariga ta'na qilsa o'z botini yuzidagi pardani olib tashlagan bo'ladi. O'zining bad niyatini oshkor aylaydi. Badnom va rasvo bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jaloliddin Rumiy o'zining "Ma'naviy masnaviy"da insoniyatning agressivlikka moyilligi, agressiv reaksiyalar, agressiv xulq-atvor shakllari xususida qarashlarini bayon etadi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida insoniy fazilatlar va ezguliklarni madh etib, targ'ibu-tashviq etish bilan cheklanmay, ayni zamonda odamlardagi yomon, xunuk, insoniylikka xilof xislatlarni, insonlar uchun, jamiyat uchun zararli, sharaflil inson sha'niga yarashiqsiz xulq-atvor va sifatlarni tanqid qiladi. Achchiq so'zlilik, nodonlik, yomon qiliqlilik, yolg'onchilik kabi illatlarga berilgan

kishilarni qoralaydi. Navoiy ana shu yomon, yaramas xislatlardan, illatlardan odamlarni xoli ko'rishni istaydi. Karamli, muruvvatli, sadoqatli, yumshoq ko'ngilli, shirinsuhan, muloyim bo'lish kabi bir talay fazilatlarni Navoiy ko'klarga ko'tarib madh etadi.

"Achchiq tillik" eng yomon xususiyatlardan biri ekanligi haqida Alisher Navoiy shunday yozadi: "Achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko'ngilda til nayzasining jarohati bitmas, unga hech narsa malham bo'la olmaydi". Uning bu fikrida verbal agressiya, ya'ni salbiy his-tuyg'ularni og'zaki tarzda ifodalash shakli o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkindir.

Bundan tashqari, Abu Ali Ibn Sino axloqlikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-syokin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof-dunyoni bilishgagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarining tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odatlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning tarbiyalash masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi.

Markaziy Osiyo xalqlari axloqiy ta'limotlar taraqqiyoti tarixini o'rganishda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz asarlari muhim o'rin egallaydi. Xususan, YUsof Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga eltuvchi bilim»), Axmad YUgnakiyning «Xibbat ulxayqiriq» («Xaqiqatlar armug'oni»), shular jumlasidandir.

Buyuk mutafakkir bobokalonimiz, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning «Maxbub ul qulub» («Kungillarning kaliti»), «Lison o'tayr» («Kush tili») kabi asarlari axloqiy ta'limotlar tarixini o'rganishda olamshumul manba sifatida xizmat qildi.

O'rta asrlarda boshqa Sharq mamlakatlarida xam shpor axloqiy g'oyalarni ilgari surgan donishmand mutafakkirlar etishib chiqdi. Ayniqsa, IX—XII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniyat, ilmfan va falsafaning yuksak darajada rivojlanishi uchun qulay tarixiy, ijtimoiy va siyosiy shartsharoit vujudga keldi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining falsafa, axloq soxasidagi nazariy merosi umuminsoniy madaniyatga muxim hissa bo'lib qo'shildi.

Ularining falsafiy qarashlari taraqqiyoti, shuningdek davlat, ijtimoiy xayotga bo'lgan munosabatlari, axloqiyestetik qarashlarning rivojlanishiga islom dini o'z ta'sirini ko'rsatdi. Allomalarning axloqiy ta'limotlarida inson eng buyuk oliy zot, deb bahrlanadi. Bu mutafakkirlar xamma narsaning qadrdqimmatini insoniylik bilan belgiladilar va insonparvarlik g'oyalari axloqiy tizimda yuqori bosqichga ko'tarildi.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Muxammed Tarxon Forobiy (873-950 y.y.) o'z davrining g'oyalarining ifodalab, ijtimoiyfalsafiy fikrning rivojlanishida muxim rol o'ynagan 160 dan ortiq asar muallifi Forobiyning 40 asari saqlanib qolgan.

Forobiy Arastuning falsafiy qarashlarini chuqur o'zlashtirib, uni targ'ib qiladi. Masalan, Arastuning axloqiy ta'limotini sharxlab, shunday yozadi: «Oliy farog'at fakat bu dunyoda bo'lib, baxtni bu dunyodan tashqarida bor, deb hisoblanadigan barcha narsa aqlsizlikdir».

Forobiy «Baxtsaodatga erishuv haqida», «Fozil odamlar shahri» va boshqa asarlarida ijtimoiy hayot masalalari bilan birga, fozil shaharda yashovchi xalqning axloqiy normalari, munosabatlari va xulq qoidalarini batafsil bayon etadi. Forobiy inson va jamiyatni ta'riflashda evdemonizm nuqtai nazaridan to'rib, fikr yuritadi. Aql va axloqning o'zaro aloqadorligi tamoyiliga amal qiladi.

Har bir kishi o'zining kelajagini buyuk bir maqsad shaklida bashorat va tasavvur qila olmasa uning bunyodkorlik faoliyati susayadi xamda astasekin o'z qiyofasini yo'qota boshlaydi. Forobiyning fikricha, insoniy vujudan maqsad — eng oliy baxtsaodatga erishuvdir, avvalo bu baxtsaodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni uziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak keyin bu baxtsaodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog'i lozim bo'ladi. Demak baxtni qo'lga kiritish uchun inson faol, tashabbuskor bo'lishi kerak Forobiy baxtsaodatga ilmima'rifat orqali erishiladi, chunki u olamning moxiyati, mazmuni xaqida to'liq mukammal bilim, kasbhunar egallash uchun muximdir, deb ta'kidlaydi.

Abu Rayon Beruniy nafosat haqidagi qarashlarida voqia-hodisalarning o'zaro bog'likligi va aloqadorlik manbai hamoanglik va uytunlikdir, deb ko'rsatadi. Beruniy har qanday harakat va undan hosil bo'ladigan natijalar moddaga taalluqdidir, uning o'zi narsalar, voqea hodisalarni birbiriga bog'laydi va ular shakllarini o'zgartirib turadi, demak birlamchi moddaning o'zi esa yaratuvchiga muhtojdir, degan fikrni ilgari suradi.

Beruniy estetik qarashlarda nafosatning tabiiy asosi sifatida amal qiladigan amoanglik ayrim hodisalarga amal qiladigan etilgan bo'lib, guzalik tabiat va insonga xos bo'lgan kamolot, etuklik sifati darajasida baholangan. Uning fikricha, hech nimaga muhtoj bo'lmagan narsalarni etuq mukammal deyish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungun zamonaviy yoshlari dunyoqarashining o'ziga xos xususiyati bir qator ob'ektiv holatlar bilan belgilanadi. Zamonaviy sharoitda shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni murakkablashdi va shunga mos ravishda uning ijtimoiy etukligi mezonlari ham

turli ko'rinish oldi. Ular nafaqat uning mustaqil mehnat hayotiga kirishi, balki o'qishni tugatganligi, kasb-hunar egallashi, real siyosiy va fuqarolik huquqlari, otanasidan moddiy mustaqillik bilan ham belgilana boshlanganligi aniqlandi.

Yoshlarning ijtimoiy etukligining shakllanishi ko'plab nisbatan mustaqil, muhim omillar - oilalar, maktablar, mehnat jamoalari, ommaviy axborot vositalari, Internet, yoshlar tashkilotlari va stixiyali guruhlar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Sotsializatsiya institutlari va mexanizmlarining ko'pligi qat'iy ierarxik tizimni anglatmaydi, ularning har biri shaxsning rivojlanishida o'ziga xos funktsiyalarni bajaradi. Ijtimoiy etuklik - bu shaxsning asosiy ijtimoiy-psixologik fazilatlari va xususiyatlarini anglash va faoliyatida amalga oshirishning yaxlitligi hisoblanadi.

«Axborot muhiti» tushunchasi o'zining uzoq tarixi va ko'p qirrali ma'nosiga ega. Hayotning paydo bo'lishidagi murakkab jarayonlar, ob'yektiv olamni yanada chuqurroq bilish, fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirish, elektron hisoblash mashinasi, kibernetika va shu kabilar rivojlanishini aynan «axborot» tushunchasi va uning paydo bo'lishi bilan bog'lashimiz lozim. Eng muhimi, axborot globallashuvi jarayonida, unga nisbatan har bir insonda ongli munosabatni tarbiyalash, axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish hozirgi davr uchun dolzarb vazifadir.

Ijtimoiy normalar - bu shaxslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarning tartibliligi, barqarorligini ta'minlash uchun mo'ljallangan umume'tirof etilgan qoidalar, xulq-atvor namunalari, faoliyat standartlari. Muayyan jamoada amal qiladigan normalar yig'indisi turli elementlari o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit tizimni tashkil qiladi.

Ijtimoiy xulq-atvorning normativligi shaxsning butun jamiyatdagi, ijtimoiy guruhdagi roli funktsiyalari bilan bevosita bog'liq. Bu funktsiyalar uning bunday guruhdagi maqomi bilan belgilanadi. Shaxsga, guruhga va jamiyatga singdirilgan ijtimoiy norma kutilgan xulq-atvorni belgilaydi. Stereotiplar va inson o'zining to'g'ri xulq-atvori haqidagi tasavvuri shakllanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son «2022-2026 yillapga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning tapaqqiyot stpategiyasi» Fapmoni, <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Sh.M.Mirziyoev. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambeliyasidagi nutqi.19.09.2017 y
3. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirishkontseptsiyasi
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. -544 b.;

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Haqberdiyev Firdavs Akbarjonovich

*Samarqand viloyat IIB Jamoat xavfsizligi Xizmati JTSB nazorat litsenziya
faoliyati guruhi katta inspektori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining hayotimizdagi tutgan o'rni, uni hayotimizga ta'siri, uning turli jabhalarda ta'siri darajasi va kelajakdagi salohiyat va yutuqlarimizni ko'rsatuvchi mezon.

Kalit so'zlar: innovatsiya, axborot texnologiyasi, kelajak, robototexnika.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль информационных технологий в нашей жизни, их влияние на нашу жизнь, степень их влияния в различных аспектах, а также критерий, показывающий наш будущий потенциал и достижения.

Ключевые слова: инновации, информационные технологии, будущее, робототехника.

Abstract: In this article, the role of information technology in our life, its influence on our life, the degree of its influence in various aspects, and the criterion that shows our future potential and achievements.

Key words: innovation, information technology, future, robotics.

Bugungi shiddatkor davrimizni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish juda qiyin. Hayotning kompyuterdan foydalanilmaydigan biror bir jabhasi qolmadi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bu esa o'z navbatida yosh avlodning kompyuter savodxonligiga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Keyingi davrda bu sohaga davlat miqyosida e'tibor kuchaytirilgani bejiz emas.

Axborot texnologiyalari (IT) hayotimizning deyarli barcha jabhalarini, muloqot qilishdan tortib, ishlash, o'rganish va o'yin-kulgiga qadar o'zgartirdi. Bu butun dunyo bo'ylab jismoniy shaxslar, biznes va hukumatlar uchun ajralmas vositaga aylandi. IT nima uchun bu qadar muhim bo'lganligining asosiy sabablaridan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

1. Kengaytirilgan muloqot va hamkorlik

Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda, bizga uzoq masofalar bo'ylab boshqalar bilan bir zumda va osonlik bilan bog'lanish imkonini berdi. Elektron pochta, tezlikda xabar almashish, video konferensiya va ijtimoiy media platformalari butun dunyo bo'ylab do'stlar, oila, hamkasblar va mijozlar bilan aloqada bo'lish imkonini berdi. IT, shuningdek, hamkorlikni osonlashtirdi, bu jamoalar joylashuvidan qat'i nazar, loyihalarda muammosiz birga ishlash imkonini berdi.

2. Hosildorlik va samaradorlikni oshirish

IT turli sohalarida mahsuldorlik va samaradorlikni keskin oshirdi. Korxonalar ma'lumotlarni boshqarish, moliyaviy operatsiyalar, ta'minot zanjiri boshqaruvi va

mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish kabi vazifalarni bajarishda IT vositalariga tayanadi. Ushbu vositalar qo'lda ishlov berish jarayonlarini avtomatlashtiradi, xatolarni kamaytiradi va operatsiyalarni soddalashtiradi, bu esa xarajatlarni sezilarli darajada tejashga va samaradorlikni oshirishga olib keladi.

3. Axborot va ta'lim olish imkoniyati

IT axborot va ta'limga kirishni demokratlashtirdi. Internet bilim va o'quv resurslarining keng omborini taqdim etadi. Internetga ulangan har bir kishi undan samarali foydalanishi mumkin. Onlayn kurslar, o'quv qo'llanmalar va ta'lim platformalari odamlarga yangi ko'nikmalarni o'rganish, oliy ma'lumot olish va mavjud tendentsiyalardan xabardor bo'lish imkonini berdi.

4. Sog'liqni saqlash va tibbiyotning yaxshilangan yutuqlari

IT sog'liqni saqlash va tibbiy tadqiqotlarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Elektron sog'liqni saqlash yozuvlari, raqamli tasvirlar va telemeditsina orqali bemorlarni parvarish qilish, tashxis qo'yish va davolashni yaxshiladi. Tibbiy asboblardan va taqiladigan qurilmalar bemorning sog'ligini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi, sun'iy intellekt va mashinani o'rganish esa shaxsiylashtirilgan davolash rejalarini ishlab chiqish va sog'liq uchun potentsial xavflarni aniqlash uchun qo'llanilmoqda.

5. Hordiq

IT bizning dam olish uslubimizni o'zgartirdi. Streaming xizmatlari, onlayn o'yin platformalari va ijtimoiy media bizning filmlar tomosha qilish, musiqa tinglash va bo'sh vaqtni o'tkazish uchun boshqalar bilan bog'lanish uslubimizni tubdan o'zgartirdi. IT, shuningdek, virtual haqiqat va kengaytirilgan haqiqat tajribasi kabi o'yin-kulgining yangi shakllarini yaratdi.

6. Global aloqa va savdo

IT global aloqa va savdoni osonlashtirdi. Elektron tijorat platformalari va xalqaro aloqa tarmoqlari korxonalar uchun xalqaro bozorlarga chiqish, mijozlar bazasini kengaytirish va jahon iqtisodiyotida ishtirok etishni osonlashtirdi.

7. Innovatsiyalar va muammolarni hal qilish

IT innovatsiyalar va muammolarni hal qilish uchun kuchli vositadir. U katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va sharhlash vositalarini taqdim etadi, bu tadqiqotchilar, olimlar va korxonalarga naqshlar, tendentsiyalar va murakkab muammolarning potentsial yechimlarini aniqlash imkonini beradi.

8. Hukumat samaradorligi va shaffofligi

IT hukumat samaradorligi va shaffofligini oshirdi. Onlayn xizmatlar, elektron hukumat tashabbuslari va ochiq ma'lumotlar portallari fuqarolarning axborot olish, davlat organlari bilan o'zaro aloqalari va demokratik jarayonlarda ishtirok etishini osonlashtirdi.

9. Jamiyatning ta'siri va o'zgarishi

IT jamiyatga katta ta'sir ko'rsatdi, bizning yashash, ishlash va atrofimizdagi dunyo bilan o'zaro munosabatimizni o'zgartirdi. U yangi sanoat va ish o'rinlarini yaratdi, iqtisodiyotni qayta shakllantirdi, madaniyatimiz va ijtimoiy normalarimizga ta'sir ko'rsatdi.

10. Kelajakdagi salohiyat va yutuqlar

IT jadal rivojlanishda davom etmoqda va kelajakdagi yutuqlar uchun ulkan salohiyatga ega. Sun'iy intellekt, robototexnika kabi rivojlanayotgan texnologiyalar sanoatni rivojlantirishga, global muammolarni hal qilishga va atrofimizdagi dunyo haqidagi tushunchamizni yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, IT hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, muloqot qilish, ishlash, o'rganish va hordiq chiqarish usullarini shakllantirmoqda. Uning ta'siri keng tarqalgan bo'lib, jamiyatning deyarli barcha jabhalariga ta'sir qiladi. IT rivojlanishda davom etar ekan, u, shubhasiz, bizning kelajagimizda yanada muhimroq rol o'ynaydi va biz yashayotgan dunyoni kelajak avlodlar uchun yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik. T.: TDYuI, 2004 y.
2. С.С.Фуломов ва бошқалар. Ахботор тизимлари ва технологиялари. Дарслик. Тошкент, "Шарқ", 2019 й.
3. M.Mamarajabov, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web-dizayn. Darslik. T.: "Cho'lpon", 2018 y.
4. U.Yuldashev, M.Mamarajabov, S.Tursunov. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma. T.: "Voris", 2020 y.

БУХОРО АМИРИНИНГ ТАБИБИ МАХМУДХЎЖА БЕХБУДИЙ ҲАҚИДА

Нодиржон Абдулаҳатов,

Тарих фанлари доктори, Фарғона вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш марказининг профессори.

Аннотация: *Мазкур мақолада Бухоро амири Олимхоннинг хос табиби бўлган Мўминжон Ҳаким Марғилонийнинг (1894-1973) Маҳмудхўжа Беҳбудий тўғрисидаги тарихий хотиралари тўғрисида сўз юритилади.*

Калит сўзлар: *тарихий эсдалик, табобат, қўлёзма, ўтмиш, риёзат, ҳодисалар, эътимодлик.*

Аннотация: *В статье рассматриваются исторические воспоминания Моминжона Хакима Маргилани (1894-1973) о Махмудходже Бехбуди, изначальном враче эмира Бухары Алимхана.*

Ключевие слова: *исторический воспоминание, врачевание, рукопись, прошлое, испытание, событие, благонадёжный.*

Resume: *The article examines the historical memories of Mominjon Hakim Margilani (1894-1973) about Mahmudhoja Behbudi, the original physician of the Emir of Bukhara Alimkhan.*

Key words: *historical memory, healing, manuscript, past, trial, event, trustworthy.*

Хотиралар, битиклар, автобиографиялар адабиётнинг бошқа жанрлари каби муаллифнинг шахсий ҳаётини тажрибасига асосланади. Шу туфайли эсдалик хотиралар ўзининг субъектив характери билан ажралиб туради. Зеро, мазкур хотираларда ҳикоя фақат биринчи шахс томонидан олиб борилади. Айнан шу хислати учун ҳам эсдаликлар адабиётнинг энг долзарб жанрларидан бири ҳисобланади. Марғилон уламоларининг ҳаёти ва илмий фаолиятини ўрганишда улар билан боғлиқ хотиралар муҳим тарихий аҳамиятга эга ҳисобланади. Чунки шу кунгача унутилиб кетиш арафасида турган инсонлар сиймоси мазкур эсдаликлар туфайли бугун яна ҳаёт бағишлангандек бўлади. Бу эса мазкур хотиралар келгуси авлодларга ҳам етиб боришини таъминловчи омилдир [1,86].

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган врач, тиббиёт фанлари номзоди Бухоро амири Олимхоннинг хос табиби “Ҳаким” тахаллуси билан ижод қилган Мўминжон Ҳаким Марғилоний- Мўминжон Алиевнинг (1894-1973) ҳаёти ва фаолиятини ўрганиш давомида “Менинг ҳаётимдан бир лавҳа” деб номланувчи кўлёзмаси аниқланди[2,37]. Мўминжон Ҳаким мазкур хотираларни ўтган асримизнинг 1970-72 йиллари мобайнида ёзиб тугатган бўлиб, бундан бундан мақсади нима эканини қуйидагича баён қилади: *"Мени ҳаётимдан бир намуна, таржимаи ҳол каби тарихий эсдалик. Шояд бирон вақтда қизиқмиш бир киши учун ўтмиш тарихимиздан бир озча бўлса ҳам маълумот беради. "Ҳаким" Мўминжон ал-Марғилоний ал-Ҳамракий"*.

Кўлёзма билан танишиш асносида Мўминжон Ҳаким тасаввуримизда шариат олими, тарихчи, файласуф ва донишманд, айти пайтда юксак

инсоний фазилатлар соҳиби, бутун умрини халқига, умумбашарга бағишлаган фидоий шахс сифатида гавдаланади. Келтирилаётган воқеа-ҳодислар кишига завқ беради, кўп ўринларда кўзга беихтиёр ёш келади. Яқин тарихимизда халқимиз бошидан ўтган турли хил воқеалар, ўша давр кишиларига хос бўлган оддийлик, камтарлик, самимийлик каби хусусиятлар кишига таъсир этади[3,42].

Мўминжон Ҳаким хотираларида нафақат таржимаи ҳол, унда халқимизнинг яқин ўтмишда бошидан кечирган турли ижтимоий воқеалар, ўша давр кишиларининг дунёқараши, ўзига хос урф-одат ва анъаналари баён қилинган. Унда тарих ҳам, сийрат ҳам, ахлоқ ҳам, жуғрофик ҳамда шахсларга, жумладан Маҳмудхўжа Беҳбудий билан боғлиқ маълумотлар ҳам ўрин олган[3,91].

Қўлёзмани ўрганиш чоғида Мўминжон Ҳакимнинг ноёб хотира соҳиби бўлганлигини шоҳиди бўлдик. Чунки, ёши саксонга етиб қолган кишини ҳатто болалик даври ҳақидаги хотираларини ҳам аниқ ва батафсил ҳикоя қилиши таажжубланарли ҳол бу ҳақда унинг ўзи шундай ёзади: *"Мен бул саргузаштимни ёзган вақтимда етмиш саккиз ёшда ва ҳам етмишдан ортиқ ўтмиш йилларимни таҳрирга олганим учун тартиб билан ёзиш, кўб жойларда илгари кейин бўлди. Чунки аксар ҳодисалар ёддан кўтарилиб, бир мунча кейинроқ ёдимга келиб, ёзишга тўғри келди"*.

Мўминжон Ҳакимни табиб Маҳмудхўжа Беҳбудий билан танишуви 1915 йилда содир бўлган. Ёш бўлишига қарамай Бухоро амири Олимхон саройида табиблик вазифасига тайинланган Мўминжон Ҳаким самарқандлик бир гуруҳ уламоларни илтимоси билан Маҳмудхўжа Беҳбудийни даволайди ва уларнинг ўртасида самимий дўстлик ўша даврдан бошланади. Бу ҳақда Мўминжон Ҳаким шундай ёзади: *"Бу ерда озгина Маҳмудхўжа Беҳбудийга ҳарактеристика бериб ўтишни лозим кўрдим. Маҳмудхўжа Беҳбудхўжа деган бир сувоқчини ўғли бўлиб, ёшлигида бир оз мадрасаларда ўқуб, арабча*

саводини чиқаргандан кейин енгил пул топиш йўли билан Самарқанд қозихоналарида мирзолик қиладир.

Бу ёзувчилар васиқа ва шартнома ва ҳар хил маълум эр-хотун ўртасидаги жанжаллик ишларни машҳур масалаларини ўрганиб, қозихонада ишловчиларни муфтий деб юритар эдилар (Бу Бухоро муфтийси эмасдир. Бухорода энг олий амалдорларни олий мартабасидир) Маҳмудхўжа ҳам муфтий деб ном кўтарган эди.

1915 йилда мен Самарқандга ҳаким сифатида келиб, дорухона ташкил қилиб Бухорога кетар кунимда олдимга кириб илтимос қилди... “Нимага шунча вақтдан буён кириб айтмадингиз” деб. Деди: “Мен ҳамма вақт дўхтирларга бордим. Икки йилдан ошди. Тузалмайдир. Шояд сиз бирон нарса билурмисиз бу тўғрида деб бугун сизга кирдим”,– деди. “Мен эмди бугун Бухорога жўнаб кетадурман. Бухородан дору қилиб юборурман”,– дедим.

Бухородан дору қилиб юбордим. Бухородан яна келганимда олдимга кириб, кўрушиб ўзини яхши бўлганини айтиб: “Мен (сизни) саройни ошхўр муллобаччаларидан деб ўйлар эдим”,– деди. Қўлида иккита туркий тиб китоби, бири “Оила табиби” баҳоси бир ярим кумуш танг). Иккинчи каттагина рецептура.... Биринчи китоб сизга ҳадоя. Иккинчисини ўқуб қайтаруб берурсиз” деб шу билан ўзини менга яқин олиб, аксар кириб олдимда ўлтурар эди... Умрида уйига чой кирган эмас эди. Ҳамма вақт доғ сув ичар эди. Ҳар кимникига кирса, олдида бир чойнакда доғ сув билан бир пиёлар қўйилар эди. “Чой инсонга катта зарарлик” дер эди... То биринчи дунё урушигача “Ойина” журнали чиқарар эди. Туғросига “Ойина”, “Кўзгу”, “Мирот” деб охирига “Эҳтиром ила имзо муфтий дорул-қазо Маҳмудхўжа Бехбудий” деб имзо чекар эди”.

Маҳмудхўжа Бехбудий Мўминжон Ҳакимнинг тиббиёт соҳасида илмини кадрлаганлиги боис Самарқандда дорихона очишига ёрдам беради. Шу туфайли Мўминжон Ҳаким ҳар йили ёз ойларидаги таътил вақтини

Самарқандда Маҳмудхўжа Бехбудий ва унинг дўстлари даврасида ўтказганлигини айтади: “Тўрахўжа домлани шогирдлари ва дўстлари ҳозирлиғида неча дақиқалардаги оғир ҳолдаги нажоти ва Самарқанддаги дорухонани очишимга сабаб бўлса-да, Пўлодбой қандолатчини ўлум панжасидан қутулиши Самарқанд обрўлиларини назарларида менинг учун катта муваффақият бўлса-да, Бехбудийни дўхтурлар билан тузала олмаган касали Маҳмудхўжа Бехбудийни бир фаол ташвиқотчилик рўл ўйнашига сабаб бўлиб, буларни ҳаммасини натижаси менимча тездан Самарқандга шуҳрат афзо бир омил бўлиб хизмат қилди”.

Мўминжон Ҳаким 1916 йилда Самарқандда тарқалган вабо ҳақида ёзар экан Маҳмудхўжа Бехбудий ва унинг оиласини қандай қилиб вабодан сақлаб қолганлигини тўғрисида қуйидагиларни баён этади: “Шул вақт Маҳмудхўжа Бехбудий келди олдимга. “Мулла Абдулмўмин биласизми, Самарқандда ҳозир вабо пайдо бўлибдир. Руслар бутун эшикларни беркитиб кўчага чиқармайдилар. Янги шаҳарда ҳамма магазинлар очилмайди. Городга бормоқчи эдим, бирон извошчик йўқ. Ўзбеклар айтадилар, кечадан бери бирон рус извошчик эски шаҳарга тушмайдирлар” – деди.

Мен “Домла (Маҳмудхўжа Бехбудийни домла дер эдим) агар холера – вабо бўлса иш чатоқ бўлибдир-ку!” – дедим. “Тайёргарлик кўринг” – деди. Мен “Тайёрман, ҳамма вақт ва ҳар эҳтимолга қарши” – дедим. Дарҳол дорухонага кириб ўзим билан неча дона хитой жадворини бинафша ранглисини олиб келган эдим. Чиқиб дарҳол қаламтарош билан кириб, ҳар бирига икки миллиграмдан сув билан ичурдим. Мен ўзим ҳам ичдим. Маҳмудхўжа Бехбудий бир бутилка сув қилиб беришимни оила аъзоларига сўради. Сув қилиб бердим”.

Таъкид жоизки, Мўминжон Ҳаким хотираларида Маҳмудхўжа Бехбудий тўғрисида сўз юритар экан Бухородаги жадидлар билан боғлиқ юз берган воқеаларга алоҳида тўхталиб ўтади. Шунингдек, Фарғона водийсида 20-йилларда содир бўлган ҳолатлар Мўминжон Ҳакимнинг ўзи гувоҳлигида

кечган воқеалар асносида яратилгани ва унда географик ва ижтимоий-иқтисодий аҳволнинг батафсил ёритилиши шу давр тарихини объектив ёритилишида катта рол ўйнайди. Шу сабабдан Мўминжон Ҳақим хотиралари XX асрнинг бошларидаги Туркистон тарихига оид ўта бой, тарихий маълумотлар ва талқинларга эга бўлиш имкониятини беради.

Гарчанд баъзи асарлар Бухоро амирларнинг фармонида биноан ва собиқ советлар мафкуравий қарашлари таъсирида ёзилган бўлсада, бироқ Мўминжон Ҳақимнинг хотиралари айнан собиқ Советларнинг энг ривожланган даври, яъни 70-йилларда ҳолисона тарзда ёзилганлиги билан бошқа асарлардан ажралиб туради. Бу ҳақда у шундай ёзади: “Ўз кўзим билан кўрдим ва устозларимдан эшитдим ва устозлар сўзларини ҳам фақатгина уларни ўз кўзи билан кўрганларини олиб ва ҳикояларини ташлаб ёзаман ва ҳам бошқа кўбчилик тарихий китобларидек ёзилган вақт сиёсий аҳволигагина тадбиқ қилмай яхшиси ва ёмонини ҳам, борлиғ ва бўлган суратда ёзаман. Чунки бу масовадан (қораламадан) мақсадим, бирон киши баъзи нарсаларни ҳақиқатини билмоқни истаса, оз бўлса ҳам уларга тўғри воқеадан хабар берсун деб умид қилурман”⁵⁴.

Бу даврларда Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳақида, ўзининг устозлари бўлмиш Марғилон, Бухоро, Самарқанд уламолари ҳақида ижобий фикрлар билдириш ёхуд ислом динига бўлган муҳаббати ҳамда зиёратгоҳларнинг аҳоли турмуш-тарзида ўрни тўғрисида ошкора ҳолислик нуқтаи-назаридан ёзиш осон бўлмаган. Бунга қўл урган олимлар албатта таъқиб ва танқид остида қолиши шубҳасиз эди[5,300]. Айнан шу сабабдан Мўминжон Ҳақим ўз хотираларини умрининг сўнги йилларида араб алифбосида ёзишга киришган. Натижада унинг хотиралари кўпчиликнинг эътиборига тушмай қолган [6,19].

⁵⁴ Мўминжон Ҳақим Марғилоний. Биринчи китоб. 195-саҳифа.

Мўминжон Ҳакимнинг ушбу хотиралари ҳозиргача нашр этилмаган. Асар жиддий ўрганилиб, тадқиқ этилиб нашр этилса, XX аср бошларидаги Туркистон тарихи бўйича муҳим тарихий манба бўлиб хизмат қила олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдулаҳатов Н. Ғолиб Марғилонийнинг “Насаб” асари // “Ислом – тинчлик ва бағрикенглик дини” Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Тошкент – 2020. – Б. 86-92
2. Абдулаҳатов Н. Бухоро амири табибининг хотиралари // “Ислом тафаккури”, (махсус сон) 2020. – Б. 37-40.
3. Абдулаҳатов Н. Шифокор Мўминжон Ҳаким қисмати // Ўзбекистон Республикаси конституцияси қабул қилинганлигининг 28 йиллигига бағишланган “Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон халқи жасорати ва инсонпарварлиги – илмий кашфиётларда” номли халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Тошкент, 2020. – Б. 42-48.
4. Абдулаҳатов Н. Амир Олимхоннинг табиби // Тафаккур. Тошкент, 2020. – № 2. – Б. 91-95.
5. Абдулаҳатов Н. Мўминжон Ҳаким Марғилоний хотираларида Бухоро меъморий ёдгорликлари // Бухорода ислом маданиятини модернизациялаш ва туризмни барқарор ривожлантириш истиқболлари” Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Бухоро. 2020. - Б. 300-303.
6. Абдулаҳатов Н. Мўминжон ҳаким хотираларида Абдурозиқ Марғиновий таърифи // Имом ал-Бухорий сабоқлари. Тошкент, 2020. – № 4. – Б. 19-20.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

“BEHBUDIY O‘QISHLARI – 2023”

JADIDLARNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI: TARIX VA ZAMONAVIYLIK

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Muharrir: D.Urinbayeva
Tex.muharrir: Sh.Xujakulov
Musahhih: F.Abdullayev
Kompyuterda sahifalovchi: F.Abdullayev

Terishga berildi: 25.11.2023-y.

Samarqand shahar, H.Obiddinov ko‘chasi 7-uy.